

ISSN 2181-5291

PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC JOURNAL

№ 2, 2023

www.buxdu.uz



<https://buxdu.uz>

The journal was registered with the certificate № 05-45 on February 25, 2011 at Bukhara Region Press and Information Administration of Uzbekistan Press and Information Agency

According to the resolution №201/3 as of December 26, 2013 of the Presidium of Supreme Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan the journal was included into the list of scientific journals in which scholarly articles on the scientific results of dissertations on Psychology must be published.

Address:

200117, Bukhara city,
K.Murtazoyev street, 11
Bukhara State University
Editorial and publishing
Department
Phone: +998 (94) 837-18-38

**The journal is published 4
times a year**

Website: www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2011- yil 25-fevral № 05-45-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2013-yil 26-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan ilmiy jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:

200117, Buxoro shahri,
K.Murtazoyev ko'chasi, 11-uy
Buxoro davlat universiteti
"Tahririy-nashriyot" bo'limi
Tel: +998 (94) 837-18-38

**Jurnal 1 yilda 4 marta
chiqadi.**

Website:
www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Журнал зарегистрирован Бухарским областным управлением агентства печати и информации Республики Узбекистан. Свидетельство № 05-45 от 25.02.2011г.

Журнал включен в список обязательных выпусков ВАК при Кабинете Министров Республики Узбекистан на основании решения ВАК №201/3 от 26 декабря 2013 года для получения учёной степени доктора психологических наук.

Адрес:

город Бухара 200117,
улица М.Икбола, 11
Бухарский государственный
университет
Редакционный отдел
тел: +998 (94) 837-18-38

**Журнал выходит 4 раза в
год.**

Website:
www.buxdu.uz
E-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz



PSIXOLOGIYA

ILMIY JURNAL * НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ

2-son 2023-yil. * Выпуск 2. 2023 год.

BOSH MUHARRIR – ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

BAROTOV SH. R.

Psixologiya fanlari doktori, professor.

Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Действительный член (академик) Международной Академии
психологических наук

ТАНРИР НАУ'АТИ – РЕДАКЦИОННАЯ

КОЛЛЕГИЯ:

XAMIDOV O.X.

Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

SHOUMAROV G`B.

Psixologiya fanlari doktori, professor
UMAROV B.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
KOZLOV V.V. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
MALI'X S.B. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
KOROBENNIKOV I.A. (Rossiya)

Psixologiya fanlari doktori, professor
KARIMOVA V.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
SAFOYEV N.S.

Psixologiya fanlari doktori, professor
BEKMURODOV M.B.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor
KADIROV U.D.

Psixologiya fanlari doktori, professor
JABBOROV A.M.

Psixologiya fanlari doktori, professor
OLIMOV Sh.Sh.

Pedagogika fanlari doktori, professor
JUMAYEV R.G`.

Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

NISHONOVA Z.T.

Psixologiya fanlari doktori, professor
NAZAROV A.M. Psixologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

IBODULLAYEV Z.R.

Tibbiyot fanlari doktori, professor

BEGMATOV A.S.

Falsafa fanlari doktori, professor

HUSEYNOVA A.A.

Falsafa fanlari doktori, professor

MUXAMEDOVA D.G.

Psixologiya fanlari doktori, professor

RUXIYEVA X.A.

Psixologiya fanlari nomzodi, professor

BAROTOVA D.SH.

Psixologiya fanlari doktori, dotsent

AKRAMOV V.R.

Tibbiyot fanlari doktori, dotsent

ZARIPOV G.T.

Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

MUHARRIRLAR – РЕДАКТОРЫ:

Usmanova M.N. – psixol.fan.nom., dotsent

Muxtorov E.M. – psixol.fan.nom., dotsent

Raxmatova M.M. – filologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abuzalova M.K. - filologiya fanlari doktori,
professor

Sobirova D.A. – psixologiya fanlari

bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ТЕХНИК МУHARRIRLAR – ТЕХ.


РЕДАКТОРЫ:

Ostanov Sh.Sh, Shirinova M.Sh.,

Tilavov M.H.

MAS'UL KOTIB – ОТВ. СЕКРЕТАРЬ

Sayfullayeva N.Z. – pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)



PSYCHOLOGY

SCIENTIFIC JOURNAL

Issue 2: 2023

EDITOR-IN-CHIEF:

BAROTOV SH. R.

Doctor of Psychology, professor, the member (academician) of International Academy of Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD:

XAMIDOV O.X.

Doctor of Economic Sciences, Professor,
The rector of Bukhara State University

SHOUMAROV G.B.

Doctor of Psychology, Professor

UMAROV B.M.

Doctor of Psychology, Professor
The assistant of the editor-in-chief

KOZLOV V.V. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

MALIKH S.B. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

KOROBAYNIKOV I.A. (Russia)

Doctor of Psychology, Professor

KARIMOVA V.M.

Doctor of Psychology, Professor

SAFOEV N.S.

Doctor of Psychology, Professor

BEKMURODOV M.B.

Doctor of Sociology, Professor

KADIROV U.D.

Doctor of Psychology, Professor

JABBOROV A.M.

Doctor of Psychology, Professor

OLIMOV Sh.Sh.

Doctor of Pedagogical sciences,
Professor

JUMAEV R.G.

PhD in Political Sciences, Docent

NISHONOVA Z.T.

Doctor of Psychology, Professor

NAZAROV A.M.

PhD of Psychology

IBODULLAEV Z.R.

Doctor of Medical Sciences, Professor

BEGMATOV A.S.

Doctor of Philosophy, Professor

HUSEYNOVA A.A.

Doctor of Philosophy, Professor

MUXAMEDOVA D.G.

Doctor of Psychology, Professor

RUXIYEVA X.A.

Candidate of Psychology, Professor

BAROTOVA D.SH.

Doctor of Psychology, Docent

AKRAMOV V.R.

Doctor of Medical Sciences, Docent

ZARIPOV G.T.

Candidate of technical sciences, Docent

EDITORS:

Usmanova M.N. – Candidate of
Psychology, Docent

Mukhtorov E.M. – Candidate of
Psychology, Docent

Raxmatova M.M. – Doctor of
Philosophy in Philological Sciences
(PhD), Docent

Abzalova M.K. – Doctor of Philological,
Professor

Sobirova D.A. PhD of Psychology

TECHNICAL EDITORS:

Ostanov Sh.Sh, Shirinova M.Sh.,
Tilavov M.Kh.

EXECUTIVE SECRETARY

Sayfullaeva N.Z. – Doctor of Philosophy
in Pedagogical Sciences (PhD)





*Atabaeva Nargis Batirovna,
Toshkent davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi, psixologiya fanlari doktori (DSc)*

ALTRUIZM VA EMOTSIONAL INTELLEKT

Annotatsiya: Mazkur maqolada altruizm va emotsional intellekt orasidagi o'zaro bog'liqlikning yoshga oid, xususan o'smirlilik, ilk o'spirinlik va talabalik davridagi xususiyatlari tahlil qilib berilgan.

Kalit so'zlar: altruizm, emotsional intellekt, o'smirlilik, ilk o'spirinlik, talabalik, emotsional bilimdonlik, motivatsiya, empatiya.

АЛЬТРУИЗМ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ

Аннотация: В данной статье анализируются возрастные особенности взаимосвязи альтруизма и эмоционального интеллекта, особенно в подростковом, раннем подростковом и студенческом возрасте.

Ключевые слова: альтруизм, эмоциональный интеллект, подростковый возраст, ранний подростковый возраст, студенчество, эмоциональный интеллект, мотивация, эмпатия.


ALTRUISM AND EMOTIONAL INTELLIGENCE

Abstract: This article analyzes the age-related characteristics of the relationship between altruism and emotional intelligence, especially in adolescence, early adolescence, and student life.

Key words: altruism, emotional intelligence, adolescence, early adolescence, studentship, emotional intelligence, motivation, empathy.

Kirish. Shaxsdagi altruistik xulqning namoyon bo'lishi, uni shaxs sifatidada rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan, shaxsda altruistik xulqni rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. Biz ilmiy tadqiqotimiz asosida olib borgan tahliliy ma'lumotlarimiz asosida altruistik xulqni shakllanish, rivojlanish mexanizmlarini quyidagicha sharhlashni ma'qul deb bildik: shaxsda yordam berish istagini uyg'otuvchi emotsiogen vaziyat; emotsional ta'sirlanish natijasida yuzaga keladigan altruistik kechinmalar; yordam berish istagini faollashtirgan altruizm motivlari; shaxsni yordam berishga ichki tayyorligini ifodalovchi altruistik ustanovkalar; altruistik ustanovkalarni shaxslararo munosabatlar tizimiga ko'chishi bilan bog'liq altruistik yo'nalganlik; altruistik xulq. Mazkur mexanizm shaxsning qadriyatlar iyerarxiyasida altruizm fenomenining mustahkam o'rin olishini belgilab beradi (1-rasm).

Asosiy qism. Aslida altruistik xulq tabiatini tushuntirib beruvchi konseptual nazariyalarni tahlil qiladigan bo'lsak, altruistik mayllar shaxs genofondida mavjud. Shu boisdan, insoniyat o'z nasli haqida qayg'uradi, g'amxo'rlik qiladi. Biroq mazkur genlarning axloqiy xulq darajasida akmeologik rivojlanishi uchun qator ustanovkalar ta'sir etishi lozim. Odatda, biz mazkur mayllar asosida to'satdan yuz bergan, yordam berish istagini qo'zg'atuvchi emotsiogen vaziyatlarda atrofdagilarga nisbatan empatiya hissini tuyamiz. Empatiya hissi altruistik motivlarni faollashtirishi tabiiy holat. Biroq ontogeneznining ilk davrlarida mazkur motivlar faollashgani bilan altruizm ko'pincha verbal ko'pinishdagi akt bilan cheklanadi. Insonning axloqiy ongi va emotsional tapaqqiyoti natijasida altruistik ustanovkalar va yo'nalganlikning barqaror shakllanib borishi, uning shaxs qadriyatlari tizimidagi o'rnini barqarorlashtirib boradi. Natijada shaxsda altruistik xulq tendensiyasi ustuvor xarakterga ega bo'lib boradi va shaxs xususiyatlari sifatida yuzaga chiqq boshlaydi. Biz tadqiqotimizda, aynan ratsional altruistik xulqni rivojlanish mexanizmlariga ko'proq urg'u berishga uringanmiz. Chunki, bizga ma'lumki, altruizmning o'ziga xos shakl va ko'rinishlari mavjud. Ularning orasida ratsional altruistik xulqgina shaxsning o'zgalarga beg'araz yordam berish istagi bilan determinatsiyalashgan.



1-pasm. Ratsional altruistik xulqning rivojlanish mexanizmi (mualliflik yondashuvi)

Tadqiqot ishimiz doirasida S.Xollning «Emosional intellekt darajasini aniqlash» metodikasini qo'lladik. Mazkur metodikadan olingan natijalar quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

1-jadval.

Shaxsda altruistik xulqning shakllanishiga emosional intellektning ta'siri (N=472)

Guruhlar	EB	EBo	O'M	E	BET
O'smirlardagi altruistik xulq	0,01	0,02	0,45**	0,29*	-0,02
Ilk o'spirinlardagi altruistik xulq	0,36**	0,11	0,06	0,54**	-0,03
Talabalardagi altruistik xulq	0,42**	0,27*	0,12	0,43**	0,23*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

EB – emosional bilimdonlik; EBo – emotsiyalarni boshqarish; O'M – o'z-o'ziga motivatsiya berish; E – empatiya; BET – boshqalarning emotsiyalarini tushunish.

O'smirlardagi altruistik xulqning namoyon bo'lish darajasi shaxsdagi o'z-o'ziga motivatsiya berish ($r=0,45$; $p \leq 0,01$), empatiya ($r=0,29$; $p \leq 0,05$) bilan statistik ahamiyatli ravishda bog'liq ekanligi aniqlandi. O'smirlik davrida altruistik xulq emosional bilimdonlik, o'z emotsiyalarini boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini tushunish shkalalari orasida ahamiyatli bog'liqlik aniqlanmadi.

O'smirlarda altruistik xulqning namoyon bo'lishida o'z-o'ziga motivatsiya berish omili ham ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi. Bu shundan dalolat beradiki, o'smirlarda muvaffaqiyatga intilish va o'zini biror «qahramonona faoliyatda ko'rsatish» istagi yuqori bo'ladi. Mazkur holatni o'smirlik davridagi o'zining «katta Menini» tasdiqlash istagi bilan izohlash mumkin. Ya'ni hayotda faqat eng yaxshi ko'rsatkichlarga erishish, «hammadan eng yaxshisi bo'lish» kabi ehtiyojlar bilan bog'liqdir.

Darhaqiqat, o'smirlik davrida guruhdagi o'z maqomini tasdiqlashga, shaxslararo munosabatlarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi ularda faqat olg'a intilishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Do'stlik hissi esa ularni atrofdegilarga yordam berish orqali ijtimoiy obro' orttirishiga undaydi.

O'ziga motivatsiya berish o'smirlarda o'z «Men»ini tasdiqlash va buning uchun jamiyatning ijtimoiy kutuvlariga mos xatti-harakatlarni amalga oshirish orqali o'z ijtimoiy mavqeini o'rnatish, faoliyat natijasida ijobiy emotsiyalarning paydo bo'lishi kabi xususiyatlar kuzatiladi. A.Maslouning ta'kidlashicha [3], har qanday motiv insonning affektiv sohasi bilan bog'liq. Mazkur fikrlar B.Vayner qarashlarida ham o'z aksini topgan va u motiv bilan bog'liq uch xil emosional reaksiya tipini ajratgan [2]: dastlabki pozitiv emotsiyalar, faoliyat natijasi bilan bog'liq kauzal ustanovkalarni izlash va kauzal atributsiya bilan bog'liq emosional holat.

O'smirlarda o'ziga motivatsiya berishning ustun bo'lishi – bu ularning o'z maqsadlarini aniq qo'ya bilishlari va o'z faoliyatlarida imkon qadar muvaffaqiyatga intilishlari, o'z faoliyatlarini oqilona rejalashtirishlari bilan xarakterlanadi. Qolaversa, bunday shaxsning kognitiv sohasida doimo muvaffaqiyat bo'ladi va har qanday yangi ish boshlashdan avval o'z kuchlariga va samarali natijaga erishishlariga ishonadilar. Ular butun e'tiborlari bilan faoliyat va uning samarali natijasiga yo'nalgan bo'ladilar hamda bu bilan bog'liq ravishda ijobiy emotsiyalarni namoyon qiladilar. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, o'ziga motivatsiya berishning o'smirlarda ustunroq bo'lishini quyidagi ustanovkalar bilan bog'lagan holda izohlab beramiz:

- yoshga oid «namoyishkorona xulq» motivlarining ustunligi;
- liderlikka intilishning ustunligi;
- ijtimoiy statusini tasdiqlashga bo'lgan ehtiyojning ustunligi;
- o'ziga beradigan bahosi.

Bizga ma'lumki, o'smirlarda guruhda ijtimoiy mavqeyini tasdiqlash bilan bog'liq ehtiyojlar kuchli bo'ladi. O'ziga motivatsiya berish esa albatta ijobiy emotsiyalarni chaqiradi, o'smirlik davridagi eng ijobiy emotsiyalar «Men»ni jamiyat uchun «ijtimoiy foydali yo'l» bilan tasdiqlash hissi hamda ijtimoiy ma'qullangan kutuvlar asosida harakatlanish ehtiyoji bilan bog'liq bo'lganligi bois mazkur holat ularni atrofda qilarga beg'araz yordam berishda sog'lom raqobatni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Yu.A.Kochetova, M.V.Klimakovalarning tadqiqotlarida o'smirlik davrida emotsional intellektning o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'g'il bolalarda emotsional intellektning ichki o'ziga yo'nalgan, qiz bolalarda shaxslararo munosabatlarga yo'nalgan komponentlari dominantlik qiladi[1]. Emotsional intellektning ushbu komponentlari o'quvchilardagi altruistik xulqni o'ziga xos tarzda faollashtiradi.

O'smirlik davridagi altruistik xulq va empatiya orasidagi ahamiyatli korrelyatsion bog'liqlikni quyidagicha izohlash mumkin: bizga ma'lumki, o'smirlik davridagi asosiy e'tibor tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlarda o'z «Men»ini tasdiqlash bilan bog'liq bo'ladi. Natijada o'smirda atrofda qilarning va o'z shaxsiy psixologik kechinmalariga nisbatan qiziqish rivojlana boshlaydi va bu holat hali to'laligigacha o'smirning emotsional qadriyatlarini tizimiga ko'chmagan bo'ladi. Lekin shunga qaramay o'smir konstruktiv shaxslararo munosabatlar orqali do'stlar davrasida o'z o'rnini topishga intiladi. O'smirdagi aynan mana shu konstruktiv shaxslararo munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan harakatlari negizida empatiya hissi dominantlik qiladi va shaxsda altruizm motivlarini namoyon etadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, altruistik motivlar shaxsda tegishli ustanovkalarni shakllanishiga hamda shaxsning altruistik yo'nalganligini shakllantirib, altruistik xulqni namoyon bo'lishini kuchaytiradi.

Ilk o'spirinlik davrida altruistik xulq emotsional bilimdonlik ($r=0,36$; $p\leq 0,01$), empatiya ($r=0,54$; $p\leq 0,01$) bilan statistik ahamiyatli ravishda bog'liq ekanligi aniqlandi. Ilk o'spirinlik davrida altruistik xulq va o'z emosiyalarini boshqarish, o'z-o'ziga motivatsiya berish, boshqalarning emosiyalarini tushunish shkalalari bilan ahamiyatli bog'liqlik aniqlanmadi.

Umuman olganda, qiz bolalar boshqa insonlarning emosiyalarini yaxshi tushunadilar, his etadilar, uning asl sabablarini anglaydilar, o'zgalarning emosiyalarini identifikatsiyalash qobiliyatiga egalar. Ilk o'spirinlik davridagi qiz bolalar emosiyalarga beriluvchan, emotsiyalarga qanday ta'sir qilish masalasida biroz qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu davrda qiz bolalar o'z emosiyalarini tahlil qila oladilar, aytayotgan gaplari, bajarayotgan ishlari bilan bog'liq emosiyalarni tushuna oladilar, o'z qadriyatlarini tizimi asosida o'z emosiyalarini boshqarishga hapakat qiladilar. Qizlar ko'proq shaxslararo munosabatlarga yo'nalganliklari bois, ular atrofda qilarning bilan shaxslararo munosabatlarga kirishishda avvalo ularning emosiyalarini kuzatish, tahlil qilish, so'ng mazkur emosional holatni o'zlaridagi xatti-harakatlar bilan solishtirib ko'rish tendensiyasi ustunroq ekan. O'g'il bolalarda esa emosional befarqlik ustunroq bo'lgani uchun ular o'z emosiyalarini tushunishdan ko'ra ularni boshqarishni afzal biladilar.

Ilk o'spirinlik davriga kelib oliy hislar va qadriyatlar tizimining shakllanishi ular turli hislarni anglangan holda namoyon bo'lishiga sabab bo'ladi. Shu jumladan, empatiyaning ham patsional ko'rinishda namoyon bo'lishi kuzatila boshlaydi. Ayniqsa, ilk o'spirinlik davrida do'stlik va sevgi hislarining ustunligi, pefleksiyaning namoyon bo'lishi empatiya darajasining yuqori bo'lishiga, hamdardlik hissining kognitiv asoslarini anglab yetilishiga sabab bo'ladi. Bu esa altruizm motivlarini kuchaytirish orqali altruistik xulqni ilk o'spirinlik davrida chuqurroq anglanishiga olib kelishi mumkin. Buning asl sababini oiladagi tarbiya usuli va jamiyatdagi ijtimoiy kutuvlar bilan bog'lash mumkin. Chunki, odatda o'g'il bolalardan yoshligidanoq mustaqil, mard, jasur, o'z hissiyotlarini boshqara bilish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida ulardagi shaxsiy hissiyotlarini oshkor etish imkonini cheklaydi. Shu boisdan, o'g'il bolalarda o'zgalarga hamdardlik ko'rsatish oshkora holda kuzatilmaydi, lekin shunga qaramay ular ich-ichlaridan azoblanayotgan insonga

nisbatan empatiyani his etadilar. Qiz bolalar esa mutlaqo buning aksidir, ya'ni ular hech qachon o'z hissiyotlarini oshkor etishdan uyalmaydilar. Shu jumladan, o'zgalarga oshkora hamdardlik bildirish, atrofda qilarning g'amlariga qayg'urish ular uchun xosdir. Qolaversa, jamiyatning ayollarga nisbatan ijtimoiy kutuvlari ham, ya'ni mehribon ona, yaxshi tarbiyachi bo'lish va boshqalar ulardan aynan empatiya hissini talab etadi.

Demak, yuqoridagi fikrlarga asoslanib xulosa qiladigan bo'lsak, ilk o'spirinlik davridagi qizlarning emotsional savodxonligi yuqori va shu bilan birga emotsional ta'sirchan bo'lganliklari bois, ular atrofda qilarning ham emotsiyalarini yaxshi tushuna oladilar, tahlil qila olganligi va uning o'rniga o'zini qo'yib ko'ra oladilar va shu bois o'zgalarga beg'araz yordam berishga shoshiladilar. Chunki, yordamga muhtoj kishining emotsiyalarining mohiyatini tushunsakgina unga yordam qo'lini cho'zamiz.

Talabalik davrida altruistik xulq emotsional bilimdonlik ($r=0,42$; $p\leq 0,01$), emotsiyalarni boshqarish ($r=0,27$; $p\leq 0,05$), empatiya ($r=0,43$; $p\leq 0,01$), boshqalarning emotsiyalarini tushunish ($r=0,23$; $p\leq 0,05$) bilan statistik ahamiyatli ravishda bog'liq ekanligi aniqlandi. Talabalik davrida altruistik xulq va o'z-o'ziga motivatsiya berish shkalasi bilan ahamiyatli bog'liqlik aniqlanmadi.

Talabalik davrida altruistik xulqning emotsional bilimdonlik bilan ijobiy korrelyatsiyaga ega ekanligini quyidagicha izohlaymiz: shaxsdagi emotsiyalarni identifikatsiyalash, ya'ni suhbatdoshning kechinmalarini idrok qilish, uning his-tuyg'ularini tushunish, adekvat emotsional holatni ifodalash aynan altruistik xulqni yuzaga keltirgan emotsiogen vaziyatni anglashga yordam beradi. Chunki emotsiogen stimulni emotsional identifikatsiyalash orqali shaxsda altruistik kechinmalar faollashadi, ya'ni biz yordamga muhtoj insonning holatini tushunishga, holatni kognitiv baholashga urinamiz. Mazkur holat esa altruistik motivlarni yuzaga keltirib, shaxsni atrofda qilarga yordam berishga undaydi. Emotsional bilimdonlik shaxsni atrofda qilarning emotsional holatini to'g'ri baholash imkonini berganligi bois, altruistik xulqni faollashtiradi.

Navbatdagi ijobiy korrelyatsiya bergan shkalalar emotsiyalarni boshqarish shkalasidir. Emotsiyalarni boshqarish talabalarning o'z kechinmalarini nazorat qila olish, salbiy emotsiyalarning intensivlik darajasini susaytira olish va vaziyatga nisbatan adekvat emotsiyalarni yuzaga keltirish qobiliyatini anglatadi. Odatda emotsiyalarni boshqarish o'z kechinmalarining anglanganligidan dalolat beradi. Shunday ekan, o'z kechinmalarini anglagan, ularni nazopat qila oladigan shaxs emotsiogen vaziyatlarda ham patsional xulqni namoyon qiladi va atrofda qilarning holatini to'g'ri baholaydi. Bizga ma'lumki, o'zining hissiy kechinmalarini adekvat baholaydigan inson, albatta boshqalarning kechinmalariga ham adekvat munosabatda bo'ladi, bu esa bevosita altruistik xulqning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi.

Talabalarda altruistik xulq bilan ijobiy korrelyatsiya bergan navbatdagi shkala empatiyadir. O'smir va ilk o'spirinlardan farqli ravishda talabalardagi empatiya altruistik xulqning ichki determinantasi sifatida quyidagi psixologik mexanizmga ega: talaba empatiya hissini tafakkur va faoliyat samapradorligi oshirishda qo'llaydi. Bunda talaba kerakli vaziyatga nisbatan empatiyaviy yo'nalganlikni namoyon qiladi va vaziyatni adekvat baholashda empatiyaviy identifikatsiyalash mexanizmidan foydalanadi. Mazkur holat esa atrofda qilarga g'amxo'r bo'lishga, ular haqida qayg'urishga undaydi. Nazariy ma'lumotlarning tahlilidan bizga ma'lumki, o'zgalarga g'amxo'rlik qilish, hamdard bo'lish altruistik xulqni ichki motivi vazifasini bajaradi. Shu boisdan, ikki mezon orasida uzviy bog'liqlik mavjuddir.

Emotsional intellektni belgilab beruvchi navbatdagi mezon boshqalarning emotsiyalarini tushunish bo'lib, mazkur mezon ham talabalarda altruistik xulq bilan ijobiy korrelyatsiya bergan. Mazkur xususiyatning rivojlanishi uchun insonga o'ziga xos tajriba kerak va emotsiyalarni identifikatsiyalay olish qobiliyati kerak. Chunki, o'zgalarning emotsiyalarini tushunishning negizida emotsiya komplekslari orasidagi bog'liqlikni anglay olish, bir emotsiyadan ikkinchi emotsiyaga o'tishdagi chegarani tushunish, insonning emotsional holatini sabablarini prognozlay olish, hissiy kechinmalar haqidagi verbal axborotlarni, signallarni anglash ko'nikmasi yotadi. Mazkur xususiyatlar bevosita altruistik xulqning ratsional shaklda namoyon bo'lishini ta'minlab beradi. Chunki, shaxsning emotsional holati haqidagi verbal va noverbal signallarni farqlash orqali biz ularning holatiga nisbatan emotsional bahoni aniqlashtiramiz hamda altruistik xulq borasidagi qarorni qabul qilib, atrofda qilarga yordam berishni boshlaymiz. Talabalarda esa mazkur holat kasbiy yo'nalganlik negizida shakllanib, kasbiy refleksiyaning ta'sirida altruistik xulq namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

Respondentlarimizda altruistik xulq namoyon bo'lishida ahamiyatli korrelyatsiya bermagan ustanovkalarni quyidagicha izohlaymiz: o'smirlik davrida emosional qo'zg'aluvchanlik va shaxsning o'z-o'ziga beradigan bahosi bilan bog'liq emosional kechinmalarining barqaror xarakterga ega ekanligi, shaxslararo munosabatlarda o'zgalarning emosiyalarini tushunish qobiliyati, irodaviy o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq ijtimoiy tajribaning yetarli emasligi ularda emosional bilimdonlik, emosiyalarni boshqarish va boshqalarning emosiyalarini tushunish ko'nikmasining to'liq taraqqiy etmaganligidan dalolat beradi.

Ilk o'spirinlik davrida tupli hislar, ayniqsa axloqiy, estetik hislarni boshdan kechirish bilan bog'liq rang baranglik kuzatiladi. Bu rang baranglik ilk o'spirinning hissiy-irodaviy sohasida tub sifat o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Mazkur o'zgarishlar shaxsda emosiyalarni boshqarishdan ko'ra, ularning mohiyatini tushunishga, anglashga bo'lgan motivatsiyani oshiradi. Shu boisdan, ilk o'spirinlapda emosiyalarni boshqapish, boshqalarning emosiyalarini tushunish bilan ahamiyatli korrelyatsiya chiqmagan. Muvafaqqiyatga intilish motivatsiyasiga keladigan bo'lsak, to'g'ri O'smirlar hammadan «eng zo'ri» bo'lishga intilishar, lekin, ilk o'spirinlik davriga kelib guruhda hamkorlikka intilish, pefleksiya, o'z-o'zini tahlil qilishga moyillik ortadi. Natijada, shaxsda «hammadan zo'r bo'lish» o'rniga «hammaga kerakli bo'lish» hissi bilan bog'liq ijtimoiy motivlar egallaydi. Shu boisdan ham ilk o'spirinlik davrida mazkur ikki hodisa o'rtasida ahamiyatli bog'liqlik kuzatilmagan.

Talabalik davrida o'z-o'ziga motivatsiya berish bilan altruistik xulq orasida ijobiy korrelyatsiya aniqlanmaganligining sabablarini quyidagicha izohlaymiz: talabalarda kasbiy motivlarning reprezentatsiyasi kuchli bo'ladi, lekin bu holat ko'proq kasbiy sifatlarni o'zida shakllantirish bilan bog'lanadi. O'z-o'ziga motivatsiya berish ko'proq kasbiy yo'nalganlik va kasbiy refleksiya negizida namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham talabalik davrida mazkur ikki hodisa o'rtasida ahamiyatli bog'liqlik kuzatilmagan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, shaxsda altruistik xulq rivojlanishida emotsional intellekt muhim ahamiyatga ega bo'lib, emotsional bilimdonlik ilk o'spirinlar va talabalarda, emotsiyalarni boshqarish talabalarda, o'z-o'ziga motivatsiya berish, empatiya O'smirlarda, ilk o'spirinlar va talabalarda, boshqalarning emotsiyalarini tushunish talabalarda dominant xarakterga ega ekanligi aniqlangan.

Umumiy ravishda, o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish uchun asos bo'lmoqda:

1. Shaxsda altruistik xulqning rivojlanishida emotsional intellekt muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'smirlarda o'z-o'ziga motivatsiya berish, empatiya, ilk o'spirinlarda emotsional bilimdonlik, empatiya, talabalarda emotsional bilimdonlik, emotsiyalarni boshqarish, empatiya, boshqalarning emotsiyalarini tushunish dominant xarakterga ega ekanligi, ayniqsa, empatiyaviy identifikatsiyalash altruistik xulqning ratsional shakli rivojlanishini ta'minlashi aniqlangan;

2. Shaxs qadriyatlar tizimida ratsional altruistik xulq barqarorlashuvida axloqning kognitiv va ijtimoiy komponentida empatiyaviy identifikatsiyani refleksiv jarayonlar bilan bog'liq holda integrativ namoyon bo'lishi tufayli emotsional intellekt muhim omil ekanligi dalillangan.

Adabiyotlar:

1. Кочетова Ю.А., Климакова М.В. Гендерные различия в эмоциональном интеллекте у старших подростков//Психолого-педагогические исследования. 2017. №4. С. 65-74.
2. Крайг Г. Психология развития. СПб.: Питер, 2000. 992 с.
3. Маслоу А. Психология бытия / А.Маслоу. – М.: Рефл-бук, Ваклер. 1997. – 304 с.



Bo'tayev Ulug'bek Abdusattorovich,

*O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o'quv markazi
“Psixologik va profilaktik faoliyat” sikli katta o'qituvchisi, podpolkovnik
abdusattorovasadbek0111@gmail.com*

HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA FRUSTRATSIYA NAMOYON BO'LISHINING PSIXODIAGNOSTIKASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarda, ya'ni ofitser va serjantlarda frustratsion holatlarning Q-sortirovka so'rovnoma yordamida ijtimoiy-psixologik xususiyatlari o'rganilgan va psixologik jihatdan tahlil etilgan. O'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan kelib chiqib, ofitser va serjantlarning frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishi, uning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning ijobiy va salbiy jihatlari keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: frustratsiya, harbiy xizmatchi, psixodiagnostika, emotsional, impunitiv, ekstrapunitiv, muammolar, to'siqlar, so'rovnoma.

ПСИХОДИАГНОСТИКА ПРОЯВЛЕНИЯ ФРУСТРАЦИИ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Аннотация. В этой статье исследуются и психологически анализируются социально-психологические характеристики фрустрирующих ситуаций у военнослужащих, то есть офицеров и сержантов, с использованием вопросника Q-сортировка. По результатам опроса широко освещается проявление социально-психологических характеристик фрустрационных состояний офицеров и сержантов, их специфика, положительные и отрицательные аспекты.

Ключевые слова: фрустрация, военнослужащий, психодиagnostика, эмоциональный, импунитивный, экstrapунитивный, проблемы, препятствия, анкета.

PSYCHODIAGNOSTICS MANIFESTATION OF FRUSTRATION IN THE ACTIVITIES OF MILITARY PERSONNEL

Abstract. This article examines and psychologically analyzes the socio-psychological characteristics of frustrating situations in military personnel, i.e. officers and non-commissioned officers using the “Q-sort” questionnaire. According to the results of the survey, the manifestation of the socio-psychological characteristics of the frustration states of officers and sergeants, their specificity, positive and negative aspects are widely covered.

Keywords: frustration, soldier, psychodiagnostics, emotional, impunitive, extrapunitive, problems, obstacles, questionnaire.

Kirish. Bugun dunyoning turli nuqtalarida yangi tahdid va qurolli to'qnashuvlar yuz bermoqda. Bunday tahlikali vaziyat xalqimizni ham bezovta qilishi tabiiydir. Shu bois davlatimiz mustaqilligini, xalqimiz tinchligini himoyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Joriy yilning 13-mart kuni Termiz shahridagi “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyida “Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma'naviy salohiyat O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylanishi zarur”, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev [1].

Bugungi kunlarda olib borilayotgan keng ko'lamli harbiy islohotlar jarayonida harbiy xizmatchilarning faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik munosabatlarning uzviy ravishda yo'lga qo'yilishi, o'z navbatida harbiy xizmatchilarga yuklatiladigan topshiriq va vazifalarning to'laonli amalga oshirishlariga imkon yaratib beradi.

Harbiy xizmat faoliyati jarayonida frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlarini ilmiy-amaliy tahlil qilish masalasi bugungi zamonaviy professional harbiy xizmat faoliyati va oliy harbiy ta'lim muassasalarining asosiy e'tiborga olinadigan vazifalaridan biri sanalib, kelgusida shu turdagi ilmiy tadqiqot ishlariga qo'shimcha manba vazifasini o'taydi. Ilmiy tadqiqot ishining nazariy-tahliliy qismida harbiy psixologiyada kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlardan chiqish usuli, uzoq xorij mamlakatlarida harbiy xizmatchi xodimlarda frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik masalalari, harbiy

psixologiyada frustratsiya muammosining ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq qilinishi, zamonaviy psixologik tadqiqotlarda harbiy xizmat faoliyati bilan bog‘liq amaliy-fundamental tadqiqotlarning jadal ravishda qo‘llanilayotgani mazkur tadqiqotni nazariy va amaliy jihatdan boyitishga imkoniyat yaratib beradi.

Harbiy xizmatchilarda frustratsion holatlarni tadqiq etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, frustratsion holatlar omilini psixodiagnostik tashxis qilish, frustratsion holatlar darajasi, ijtimoiy frustratsiya, qarorlar qabul qilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bo‘yicha so‘rovnomalardan olingan natijalar ulardagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar va standart og‘ishlarning darajalari harbiy xizmatchilar tarkibi bo‘yicha qiyosiy tahlil qilinganligi va frustratsion holatlarning namoyon bo‘lish shakllari so‘rovnomalarda orasidagi qiymatlarga ko‘ra harbiy xizmatchilarda o‘rtacha koeffitsiyentni tashkil qilganligi va bu standart ko‘rsatkich bo‘yicha o‘rtacha darajani tashkil qilganligini anglatadi.

Frustratsion holatlarning asosiy jihatlari shundaki, harbiy xizmatchilardagi frustratsion holatlar darajasi, ijtimoiy frustratsiya, qarorlar qabul qilish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bilan bog‘liq munosabatlar faktorli analiz va harbiy xizmatchilarning frustratsion holatlarini belgilab beruvchi asosiy xususiyatlarni ajratib beruvchi diagramma tahlil mezonlari orqali tekshirilganda ularning natijalari o‘rtachadan yuqori darajadagi faktorlarga birikkanligi, ularning kelgusi faoliyatida asosiy psixologik xususiyatlarni tashkil qilishi va frustratsion holatlarni oldini oluvchi psixologik omillar sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frustratsion holatlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos yondashuvi K.Xorni izlanishlarida ham aks etgan bo‘lib, muallifning fikricha, frustratsiya holatini bolalar ham, kattalar ham hech qanday salbiy reaksiyalarsiz boshdan kechirishlari mumkin. Ya‘ni agar frustratsiya inson tomonidan mag‘lubiyat hissi sifatida qabul qilinsa, inson o‘zini o‘zi kamsitish hissini boshdan kechiradi. Shuningdek, frustratsiya rohatlanish hissi sifatida qabul qilinsa, unda u inson uchun xavfsizlikni ta‘minlovchi omildir va u yengil tarzda boshdan kechiriladi. [2]

Yuqoridagi tahlillardan farqli o‘laroq, E.Fromm o‘zining “inson destruktivligining anatomiyasi” asarida, frustratsiya va agressivlik o‘rtasidagi o‘ziga xoslikka alohida alohida e‘tibor berib, uni quyidagicha ta‘riflaydi: “hech qanday muhim ish frustratsiyasiz bo‘lmaydi, frustratsiya va nafrat bir – biridan farq qiluvchi kechinmadir. Frustratsiyaning davomiyligi agressivlikka olib kelmaydi. Ya‘ni insonlar har kuni hayotiy vaziyatlardan azob chekadilar, rad javobini oladilar, chorasiz qoladilar, biroq hammaga ham agressiyalarini ko‘rsatmaydilar. [3] Muallifning nazaricha, frustratsion holatlarning oqibatlarini aniqlash uchun eng muhim omil bu – insonning xarakteridir. Birinchidan, frustratsiyani inson qanday qabul qiladi ikkinchidan, u frustratsiya holatini yengishda qanchalik darajada diqqat e‘tiborli va hokazo.

Natijalar. Harbiy xizmatchilarda frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo‘yicha so‘rovnomalardan olingan korrelyatsion tahlillar shuni ko‘rsatdiki, harbiy xizmatchilarda frustratsion holatlarni o‘zaro uyg‘un ravishda profilaktika qilish uchun ular uchun asosiy psixologik shkalalar bir-biri bilan bog‘langanligi, ya‘ni frustratsiya, ijtimoiy frustratsiya, ekstrapunitiv, intrapunitiv, impunitiv, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi, mustaqil, kirishimli va kurashuvchi kabi psixologik omillar yuqori darajada bog‘langanligini ko‘rish mumkin.

Mazkur tadqiqot yuzasidan mamlakatimizda professional armiyani shakllantirishda harbiy xizmat jarayonida xodimlarda yuzaga keladigan ishdagi turli xil to‘siqlarni oldini olishda psixologik jihatdan yordam berishi, xizmatchilarda qaysi omillar tufayli psixologik muammolar va to‘siqlar yuzaga kelayotganligi, bu nizoli vaziyatlardan chiqishning eng samarali usulini aniqlash, frustratsion holatlarning kelib chiqishiga sababchi bo‘luvchi omillarni tahlil qilish, ish jarayonida topshiriqlarni bajarish jarayonida chorasizlikning paydo bo‘lishi va bu chorasiz vaziyatlardan chiqish olishning psixologik tomonlarini aniqlash orqali ulardagi kasbiy barqarorlikni ta‘minlashga erishish mumkin. Harbiy xizmatchilarda frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini amaliy jihatdan talqin qilishda xorijda amalga oshirilgan metodika va so‘rovnomalarni mazkur mavzuga tanlash va uni mamlakatimiz madaniy muhitiga moslik darajasi tahlil qilgan holda tanlab olish alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ishning amaliy jihatini ifodalashda tanlangan metodika va so‘rovnomalarda amaliy tadqiqot ishimizga o‘ziga xos ilmiy-amaliy metodologik asos vazifasini bajarishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarda frustratsion holatlarning namoyon bo‘lishi va bartaraf etilishiga xizmat qiluvchi psixologik omillarni faktorli analiz yordamida tekshirish uchun “Q-sortirovka” so‘rovnomasidan foydalanildi. [4]


Keyingi 1-jadvalda ofitserlar tarkibining qaror qabul qilish so‘rovnomasi bo‘yicha olingan faktorli analiz ko‘rsatkichlari keltirilgan.

**Q-sortirovka so‘rovnomasi darajasining
faktorli analiz ko‘rsatkichlari**

Shkalalar	Faktorlar		
	1	2	3
Tobe	0,559	0,528	0,468
Mustaqil	0,523	0,482	0,547
Kirishimli	0,605	0,519	0,672
Odamovi	0,517	0,806	0,621
Kurashuvchi	0,476	0,621	0,474
Kurashdan qochuvchi	0,714	0,472	0,337

Harbiy xizmatchi xodimlarda frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga doir tadqiqotimizni ofitserlar tarkibida tadqiq etish jarayonida ularning frustratsiya va qaror qabul qilish xususiyatlarining o‘rtasidagi faktorli tahlilni tashkil qilgan psixologik birliklar quyidagicha namoyon bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Ofitserlar natijalari faktorli analiz bo‘yicha ko‘rsatkichlar 3 ta faktorga birlashganligi namoyon bo‘lgan. Birinchi shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: tobe 0,559, mustaqil 0,523, kirishimli 0,605, odamovi 0,517, kurashuvchi 0,476 va kurashdan qochuvchi 0,714 kabi natijalar bilan o‘zaro farqlandi. Ikkinchi shkalani tashkil etgan psixologik faktorlar: tobe 0,528, mustaqil 0,482, kirishimli 0,519, odamovi 0,806, kurashuvchi 0,621 va kurashdan qochuvchi 0,472 natija bilan alohida xarakterlanadi. Uchinchi shkalani tashkil etgan psixologik omillar: tobe 0,468, mustaqil 0,547, kirishimli 0,672, kurashuvchi 0,474, odamovi 0,621 va kurashdan qochuvchi 0,337 kabi psixologik xususiyatlar bilan ajralib turganligini ko‘rishimiz mumkin. Harbiy xizmat faoliyatini olib borayotgan ofitserlarning tadqiqotdan olgan natijalari uchta faktorlarga birlashganligi va bu faktorlar so‘rovnomadagi asosiy ahamiyatli natijalar va ko‘rsatkichlarni belgilovchi asosiy indikatorlarni tashkil qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Quyidagi 1-rasmda Q-sortirovka so‘rovnomasi darajasining faktorli analiz ko‘rsatkichlari diagramma shaklida berilgan.



**1-rasm. Q-sortirovka so‘rovnomasi darajasining
faktorli analiz ko‘rsatkichlari**

Keyingi 2-jadvalda harbiy xizmatchilarda frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan olingan ko‘rsatkichlar serjantlar tarkibida Q-sortirovka so‘rovnomasi bo‘yicha serjantlardan olingan natijalar tahlil qilindi.

**Q-sortirovka so‘rovnomasi bo‘yicha umumiy o‘rtacha ko‘rsatkichlar
(Styudentning t-mezoni bo‘yicha)**

Shkalalar	M (n = 145)	Standart og‘ish (n = 145)	t-statistika (p ≤ 0,05); (p ≤ 0,01)
Tobe	3,84	1,53	0,41
Mustaqil	3,64	1,22	0,29
Kirishimli	3,90	1,32	0,52
Odamovi	3,80	1,75	0,30
Kurashuvchi	3,88	1,36	0,49

Shkalalar	M (n = 145)	Standart og'ish (n = 145)	t-statistika (p ≤ 0,05); (p ≤ 0,01)
Tobe	3,84	1,53	0,41
Mustaqil	3,64	1,22	0,29
Kurashdan qochuvchi	4,54	1,31	0,17

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarda frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan olingan ko'rsatkichlar serjantlar tarkibida Q-sortirovka so'rovnomasi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichi “tobelik” shkalasi bo'yicha 3,84 ni tashkil etadi. Bu esa standart ko'rsatkich bo'yicha quyi natijani tashkil etgan. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan serjantlar qadriyatlarini, ijtimoiy va axloqiy etik normalarini to'g'ri qabul qila oladi. Guruh bilan hamkorlikda ishlashga moyil bo'lishadi, lekin ko'pincha serjantlar jamoadami yoki boshqalar bilan bo'lgan munosabatida ishonchi sustligi tufayli ular hamkorlikda ishlashga biroz qiynalishadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan serjantlar tashqi ta'sirlarga berilishmaydi, ularda agressivlik holatlari kam kuzatiladi, boshqalarga qaram bo'lishni ham xohlashmaydi.


“Mustaqil” shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich serjantlarda 3,64 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan serjantlarning xulq-atvorida, xatti-harakatlarida mustaqillik kuzatiladi. Lekin, ular yetarli darajada mustaqil emas, hayotiy bilimlarining kamligi tufayli ular ma'lum qarorlarni qabul qilishga, o'z fikrlarida qat'iy turishga va mustaqil bayon qilishga qiynalishadi. “Kirishimlilik” shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich serjantlarda 3,90 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan serjantlarning hissiyotlari beqaror bo'lgani uchun ularning kayfiyatlari tez-tez o'zgarib turadi, muloqotga tez kirishishadi, kichik guruhda emotsional aloqalarni o'rnatishga, o'z fikrlarini ochiq oydin aytishga qiynalishadi. O'z hissiyotlarini ko'rsatmaslikka va boshqalarda yaxshi taassurot uyg'otishga harakat qilishadi.

“Odamovi” shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich serjantlarda 3,80 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan serjantlar o'z hissiyotlarini ifodalashga, tashabbus ko'rsatishga qiynalishadi. Tanimagan insonlari bilan munosabatga kirishishga biroz qiynalishsa-da, ular qaror qabul qilishda juda ehtiyotkor bo'lishadi.

“Kurashuvchi” shkalasi bo'yicha o'rtacha shkala serjantlarda 3,88 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan serjantlar harbiy xizmat hayotida faol qatnashishadi, jamoa a'zolari bilan kurashishga moyilligi bor. Ular shaxslararo munosabatda yuqori o'rin egallashga, xizmatdoshlariga, tengdoshlariga nisbatan yuqori natijalarga erishishga harakat qilishadi. Serjantlar hamisha o'z maqsadi sari doimo olg'a intilishadi, o'z kuchiga va aqliga tayanib ish ko'rishlari natijasida ular frustratsion holatlarga duch kelishmaydi.

“Kurashdan qochuvchi” shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich serjantlarda 4,54 ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkichga ega bo'lgan serjantlar o'zaro munosabatga kirishishga qiynalishadi, jamoada yuzaga keladigan janjallarda betaraf bo'lishga harakat qilishadi. Ko'pincha jamoada nizoli vaziyatlar yuzaga kelganida ular birinchi bo'lib o'zlarini chetga olib qochishga yoki bo'lmasam jamoa a'zolari bilan murosqa qilishga moyil bo'lishadi.

Quyidagi 2-rasmda Q-sortirovka so'rovnomasi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar (Styudentning t-mezoni bo'yicha) diagramma shaklida berilgan.



2-rasm. Q-sortirovka so'rovnomasi bo'yicha umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar (Styudentning t-mezoni bo'yicha)

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, barcha toifadagi harbiy xizmatchilarga xizmat yuklamalarini ulardagi frustratsion holatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda taqsimlash harbiy bo‘linmalar oldiga qo‘yilgan vazifalarni sifatli bajarilishiga va harbiy xizmatchilarda xizmatga bo‘lgan qiziqishning yanada ortishiga hamda jamoalarda sog‘lom muhit shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Harbiy-jangovar salohiyat va yuksak ma’naviy salohiyat - O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchi. - Toshkent: 2023. (president.uz). <https://president.uz/uz/lists/view/6039>. 3-bet.
2. Хорни К. Невротическая личность нашего времени / К.Хорни. -М.: Прогресс, 1993. – С.98.
3. Фромм Э. Анатомия человеческой деструктивности / Э.Фромм. - М.: Республика, 1994. – С.148.
4. Карелин А. А. Психологические тесты. — Москва: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2002. – С.65.



Elov Ziyodullo Sattorovich,

*Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakultet,
Psixologiya va sotsiologiya kafedrası dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

DEVIAANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARDA O'Z JONIGA QASD QILISH (SUITSID) IJTIMOIY MUAMMOSI

Annotatsiya: Maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlarda o'z joniga qasd qilish ijtimoiy muammosi va uning sabablariga to'xtalib o'tilgan. O'zini-o'zi o'ldirishni o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ularning soni ortishi yosh davrlari, jinsi, ijtimoiy ahvoli va hokozolar va lekin birinchi navbatda – kishi shaxsiyatining xususiyatlariga bog'liq. Deviant xulqning yuzaga kelishi, uning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va sabablari misollarda tahlil qilingan. Shuningdek, ijtimoiy omillar orasida o'zini-o'zi o'ldirishning qishloq joylariga nisbatan ko'proq yirik shaharlarda sodir etilishi, professional va ijtimoiy maqomga bog'liqligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ruhiy jarohat, suitsid, suitsidal axloq, qasd, madaniy-diniy udum, affekt, stress, depressiya, qo'rquv, xavotir, nafrat, qahr-g'azab, quvonch, baxt, dezadaptatsiya, alkogol, narkotik, chekish.

СОЦИАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА САМОУБИЙСТВА У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Аннотация: Статья посвящена социальной проблеме суицида среди подростков с девиантным поведением и его причинам. Исследования суицидов показали, что увеличение их числа зависит от возраста, пола, социального положения и, прежде всего, от особенностей личности человека. На примерах анализируются возникновение девиантного поведения, его возрастные особенности и причины. Также среди социальных факторов суицид чаще встречается в крупных городах, чем в сельской местности, и связан с профессиональным и социальным статусом.

Ключевые слова: психическая травма, суицид, суицидальная мораль, намерение, культурно-религиозное воздействие, аффект, стресс, депрессия, страх, тревога, ненависть, гнев, радость, счастье, дезадаптация, алкоголь, наркотики, курение.

THE SOCIAL PROBLEM OF SUICIDE IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Abstract: The article focuses on the social problem of suicide among teenagers with deviant behavior and its causes. Studies of suicides have shown that the increase in their number depends on age, gender, social status, etc., and above all, on the characteristics of a person's personality. The occurrence of deviant behavior, its age-related characteristics and reasons are analyzed in examples. Also, among social factors, suicide is more likely to occur in large cities than in rural areas, and is related to professional and social status.

Key words: mental injury, suicide, suicidal morality, intention, cultural-religious influence, affect, stress, depression, fear, anxiety, hatred, anger, joy, happiness, maladjustment, alcohol, drugs, smoking.

Kirish: Shubhasiz, inson ongi foniyligni mutanosib ravishda o'zlashtirishga qodir emas, lekin shunday bo'lsa-da, o'zini o'zi o'ldirish ehtimolini ko'rib chiqayotgan odam qanchalik agnostik va skeptik bo'lmasin, u beixtiyor o'limdan keyingi, hatto yanada ma'qulroq hayot mavjudligini tan oladi. O'z-o'zidan bu hali o'zini-o'zi o'ldiruvchi shaxsning aqldan tashqari fikrlashi va voqeyiy bo'lmagan narsalarni afzalroq ko'rishini isbotlamaydi, lekin shu bilan bir vaqtda o'zida o'limdan keyingi hayotga bo'lgan ishonch har doim ko'plab xalqlarning madaniy-diniy udumlari predmetini tashkil qilib kelgan. Bunday holda, potensial o'zini o'zi o'ldiruvchilar tafakkurining irrasionalligi va xayoliyligi tushunarli bo'ladi. O'zini o'zi o'ldirish hodisa sifatida quyidagi tarkibiy elementlar bilan tavsiflanishi mumkin. Birinchidan, bu qotillik. Ko'p tillarda uning tub, tashkil qiluvchi so'zi "qotillik" hisoblanadi. Biroq, atamaning ikkinchi qismi "o'zini-o'zi" so'zi

insonning o'zi tomonidan sodir etilgan qotillikni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, qotil va qurbon bir kishining o'zi bo'lgan vaziyat yuzaga keladi. Demak, o'zini-o'zi o'ldirishni o'limning uchta ajralmas elementi: o'lish elementi, o'ldirish elementi va qotillik qurboni elementini anglatuvchi o'ziga xos turi deb hisoblash mumkin.

Suitsid (ing. suicide – o'zini-o'zi o'ldirish) – kishi tomonidan kuchli ruhiy zo'riqish holatida sodir etiluvchi o'zini o'zi o'ldirish holati; shaxsda ular mavjudligida shaxsiy hayoti oliy qadriyat sifatida o'z ma'nosini yo'qotadigan o'tkir ruhiy jarohat yetkazuvchi vaziyatlar ta'siri ostida ongli ravishda hayotdan olib tashlash holati.

Hozirgi vaqtda suitsidal axloq global jamoatchilik muammosi hisoblanadi. Rasmiy statistik ma'lumotlarga qaraganda yer yuzida har yili 1 million 100 mingga yaqin odam o'z joniga qasd qilish bilan o'z hayotiga yakun yasaydi.

Tahlillar va natijalar: Ruhan sog'lom odamlarda o'zini-o'zi o'ldirish sabablari ko'pincha o'tkir ruhiy-shikastlovchi vaziyatlar va kamroq kelib chiqishi turlicha bo'lgan cho'zilgan ruhiy tanglik yoki yashashning chidab bo'lmas shart-sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. O'zini o'ldirish istagi ruhiy-asab tizimi beqaror bo'lgan shaxslarda, ayniqsa nevrotiklar va kuchli ta'sirlanuvchi, kayfiyati o'zgarib turuvchi psixopatlarda ko'proq uchraydi. Ayrim mualliflar o'zini o'zi o'ldirishga moyillikni xarakterning, ularning fikricha, shoirlar, rassomlar, artistlarga xos bo'lgan alohida badiiy tipiga moyillik deb ta'kidlaydilar.

Ba'zan odamlar o'zlarini yashashning qiyinligi va imkoniyatsizligi sabab bo'lgan ekstremal vaziyatlarda: masalan, konsentrasyon lagerlardagi shafqatsiz sharoitlarda, qiynash, azoblash, xo'rlash va ochlik ta'siri ostida o'zlarini o'ldirishga urinadilar. O'zini-o'zi o'ldirish to'g'risida fikrlarga shuningdek, chidab bo'lmaydigan og'riq beruvchi og'ir, davosiz kasalliklar – saraton va ba'zi boshqa kasalliklar ham olib kelishi mumkin.

Agar bunda ong xiralashmasdan qolgan bo'lsa, unda azob-uqubatlarga barham berish haqida tabiiy istak paydo bo'ladi. Ko'pincha o'zini-o'zi o'ldirishlar va ularning urinishlari turli depressiyalar, psixologik va ijtimoiy omillarga bog'liq. Ulardan eng ko'p tarqalgani yolg'izlik, sherigi yoki yaqin kishisini yo'qotish, muvaffaqiyatsizlik yoki toptalgan mavqei, obro'sizlantiruvchi vaziyat, hayotiy manbaini yo'qotish, bankrotlik va hokazolardir. Demak, o'zini saqlash instinktining buzilishi va o'zini o'ldirish istagi, bir tomondan sub'ektning ruhiy faoliyatidagi qanday o'zgarishlar chuqur affektga olib kelishiga, ikkinchi tomondan esa - ijtimoiy shart-sharoitlar va shaxsning individual xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Aslida, his-hayajonli–affektiv ta'sirchan registri "yoqib qo'yish" nafaqat ruhiyatning chuqur, balki ongacha bo'lgan yanada yuqoriroq darajadagi tuzilmasidan kelib chiqadi. Shunday qilib, bu o'rinda his-hayajonli ta'sirchanlikning murakkab apparati mavjudligi to'g'risida so'z yuritish mumkin. Bu ta'sirchanlikning darajalari chuqurroq (*qo'rquv, xavotir, nafrat, qahr-g'azab, quvonch, baxt*) yoki nozikroq (*qayg'u, g'amginlik, estetik tashvishlar va hokazolar*) bo'ladi.

Ma'lumki, odam ma'lum darajada o'zining ichki dunyosini yaratadi va shuning uchun o'zini o'zi o'ldirish haqida qaror qabul qilishning boshlang'ich nuqtasini aniqlash muhimdir. Agar dinamikadagi qaror qabul qilish jarayonini modellashtirishga harakat qilsak, unda ko'p narsa vaziyatdan chiqishning iloji yo'qligini oqlash bilan bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganda, g'ayriixtiyoriy, ko'p holda irratsional turtkiga bo'ysuna turib, odam uni batamom oshkora – ratsional sabablar bilan oqlashga harakat qiladi. Biroq mazkur holatda g'ayriixtiyoriy o'zini o'zi o'ldirish fikri tashqi, oshkora omillar tahlilidan ko'ra ancha muhimroq bo'ladi.

Suitsidal xulq-atvorli shaxslarning aksariyat qismi uchun kishining hodisalarga ta'sirchanligi turlicha ekanligi xosdir. K.Menninger tomonidan keltirilgan misollarga murojaat qilamiz: qiz soch turmagi ko'ngildagidek chiqmaganidan so'ng o'zini o'ldiradi; erkak kishi uni golf o'ynash imkoniyatidan mahrum etilganidan so'ng hayotidan voz kechadi; ayol ikki marta poezdga kech qolganidan keyin o'zini-o'zi o'ldirishga ahd qiladi; bola sevimli kanarekasining o'limini ko'tara olmay, o'zini o'ldirishga qo'l uradi. Ta'sirchanlikning bir xil emasligi o'zini-o'zi o'ldirishni sodir etayotgan shaxsning hissiy yoki ruhiy jihatdan yetilmaganligi va yetilmay qolganligi (*infantilligi*) bilan belgilanadi [1].

O'zini-o'zi o'ldirishni o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, ularning soni ortishi yosh davrlari, jinsi, ijtimoiy ahvoli va hokazolar va lekin birinchi navbatda – kishi shaxsiyatining xususiyatlariga bog'liq. Erkaklar orasida o'zini-o'zi o'ldirish soni ayollarga nisbatan ko'proq kuzatiladi. Shu bilan bir vaqtda erkaklar o'zini osish, o'qotar qurol ishlatish kabi «ishonchliroq» bo'lgan usullarni qo'llasa, ayollar ko'proq katta dozada dorilar qabul qilishni afzal ko'radilar, ya'ni ular go'yo o'zlarining o'limdan keyingi tashqi ko'rinishlari haqida qayg'uradilar. Erkaklar orasidagi o'zini-o'zi o'ldirishning maksimal soni o'spirinlik yoshiga (16-18 yosh) to'g'ri keladi, bu yoshda ko'pincha ma'naviy mezonlar va da'volar ortishi kuzatiladi, ayollarda esa – klimaks davriga (40-45 yosh), yuqori darajada asabiylik va kayfiyat o'zgarishi, qarilikning ilk alomatlari

paydo bo'lishi, ayrim umidlarning yo'qolishi bilan boruvchi organizmning fiziologik qayta tuzilishi sodir bo'ladigan davrga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy omillar orasida o'zini-o'zi o'ldirishning qishloq joylariga nisbatan ko'proq yirik shaharlarda sodir etilishi, professional va ijtimoiy maqomga bog'liqligini ta'kidlash mumkin. Ayni vaqtda o'zida o'zini-o'zi o'ldirishlar soni Shvetsiya, Yaponiya kabi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda Osiyo va Afrikaning qoloq davlatlaridagiga nisbatan ancha ortiqdir.

O'z joniga qasd qilishning biologik determinantlari orasida shu holatni ta'kidlash zarurki, ruhiyati og'ir buzilgan odamlar ruhan sog'lom individlarga nisbatan ko'proq o'zini-o'zi o'ldirishni sodir etadilar.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'z joniga qasd qilish shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi natijasi hisoblanib, bunda odam ushbu yuzaga kelgan sharoitlarda bundan buyon o'zi uchun mavjud bo'lish imkoniyatini ko'rmaydi. Shaxs dezadaptatsiyasining ehtimoliyligi jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik davrlarida ob'ektiv ravishda ortadi, bu esa o'zini-o'zi o'ldirish statistikasida o'zining haqiqiy aksini topadi. Ayniqsa, ijtimoiy ko'tarilish pasayish bilan almashganda «umidlarni yo'qotish vaqti» keskin bo'lib qoladi, bu esa jamiyat ongining krizisini chuqurlashtiradi, jamiyat a'zolariga zulmkor ta'sir o'tkazadi va uning zaifroq a'zolarining ixtiyoriy ravishda hayotdan voz kechishiga yordam beradi. Bu esa tanazzulni boshidan o'tkazayotgan va rivojlanish istiqboliga ega bo'lmagan jamiyatda ko'proq namoyon bo'ladi.

Dezadaptatsiyaning keskin holati og'ir kasalliklar, hayotdagi omadsizliklar, yaqin odamini yo'qotish oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Har qanday holatda shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi og'irligi va chuqurligini baholashning uchta tarkibiy qismini ko'rib chiqish mumkin:

- odatiy turmush sharoitlarining jiddiy buzilishi;
- ularning inson tomonidan talqin qilinishi (hayotiy sinish, ilojsiz vaziyat, shaxsiy halokat yoki og'ir, lekin o'tib ketuvchi holatdir);
- moslashish uchun istak yoki harakat qilishga tayyorlik (hayotdan charchash, «hayotni qayta boshlash»ni istamaslik, bu haqda kelgan fikrdan nafratlanish yoki hayotiy yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqishga tayyor turish, vaziyatni uddalash).

Xulosa: O'zini-o'zi o'ldirish o'z ahamiyati va psixologik sabablariga ko'ra farqlanadi. Ular negizida ko'pincha ongli yoki ongsiz ravishda yaqin insonlariga bo'lgan tuyg'uga yoki jamoatchilik fikriga apellyatsiya-sabab, atrofda gilardan yordam va madad olishga intilish yotadi. Bu holda o'z joniga qasd qilish harakatlari namoyishkorona tus olishi, haqiqiy yoki taqlid bo'lishi yoki shantaj (*qo'rqitish*) bo'lishi mumkin. Ular ko'pincha birovning ko'zi oldida yoki birontasi kelib qolishidan bir necha daqiqa oldin sodir etiladi, ularning usuli ko'pincha jiddiy tahdidni ifodalamaydi – uncha ko'p bo'lmagan miqdorda dori tabletkalari qabul qilinadi, teri uncha chuqur bo'lmagan darajada kesiladi, ingichka yoki eski arqon qo'llaniladi, eshiklar ochiq qoldiriladi.

Ahamiyatiga ko'ra, o'z joniga qasd qilish yolg'izlik, og'ir judolik va hokazolar natijasida o'zini o'zi o'ldirayotgan kishining hayotdan to'liq chetlashganligidan farqli o'laroq o'zini-o'zi o'ldiruvchilarning hayotga kirishganligini bilvosita bildirgan holda, qilmishning, ziddiyatli vaziyatdan chiqib ketishning paradoksal xarakteriga ega bo'lishi mumkin (bahsdagi so'nggi, rad etib bo'lmaydigan dalil kabi). So'nggi holatda yashab ketishga imkon qoldirmaydigan qo'pol va ishonchli usullar tanlanadi. O'zini-o'zi yemiruvchi axloqqa bir qator hollarda quyidagilar ham kiradi [2]:

- alkogolga, narkotiklar va chekishga ruju qo'yish;
- ataylab ortiq darajada ish bilan ko'mib tashlash;
- qaysarlik bilan davolanishni istamaslik;
- transport vositalarini xavfli usulda, ayniqsa mast holda boshqarish;
- jangovar harakatlar zonalariga borishga astoydil intilish;
- o'zini oqlamaydigan xavf bilan bog'liq holda sportning ayrim turlariga qiziqish (alpinizm, parashyutli sport va hokazo).

Tom ma'noda o'zini qiynash va qurbon qilish, shafqatsiz ishlatish bilan o'tkaziladigan ba'zi diniy marosimlar, urushlar, ya'ni odamlarning yakka yoki ommaviy qirilishiga yoki o'zini-o'zi yo'q qilishiga olib keluvchi auto va geterota jovuzkor harakatlar o'zini-o'zi yemiruvchi deb hisoblanadi.

O'z joniga qasd qilishning so'nggi nuqtasi hisoblanadigan o'zini o'zi yemiruvchi axloqning bir qator o'zaro bir-biriga o'tuvchi shakllari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

O'z joniga qasd qiluvchi axloq – bu o'zini hayotdan mahrum qilish to'g'risidagi tasavvurlar bilan belgilanadigan va yo'naltiriladigan ruhiy aktlarning har qanday ichki yoki tashqi shakllaridir. O'z joniga qasd qiluvchi axloq ikkita asosiy: ichki va tashqi shaklda namoyon bo'ladi. Ichki shakllarga o'z joniga qasd qilishda bo'lganidagi fikrlar (tasavvurlar, tashvishlar); o'z joniga qasd qilish harakatlari (maqsadlar,

niyatlar); tashqi shakllarga - o‘z joniga qasd qiluvchi ko‘rinishlar; o‘z joniga suiqasd qilishga urinishlar kiradi[3].

O‘z joniga qasd qilish borasidagi fikrlar (tasavvurlar, tashvishlar) – hayotning qadri, mazmuni yo‘qligi to‘g‘risidagi passiv mulohazalar ("yashashga arzimaydi", "hayotda baxt yo‘q", "yashamayapsan, balki mavjudsan, xolos»), shuningdek o‘z o‘limi mazmunidagi tasavvurlar, fantaziyalar, lekin o‘zini hayotdan mahrum qilish emas ("o‘lsam yaxshi bo‘lardi", "uxlab qolsam va uyg‘onmasam"). O‘z joniga qasd qilish borasidagi fikrlar me‘yorida deyarli hamma odamlarda biron-bir ziddiyat yoki ruhiy shikastlovchi hodisa hal bo‘lmasligini anglaganda paydo bo‘ladi, lekin, ular o‘z joniga qasd qilish an‘analariga o‘tmaydi. O‘z joniga qasd qilish an‘analariga (maqsadlar, niyatlar) - faol va jiddiy mulohazalar, o‘z joniga qasd qilish rejasini ishlab chiqish, o‘zini o‘zi o‘ldirishni sodir qilish usullari, vaqti, uni sodir qilish joyini belgilashni kiritish mumkin.

Tashqi axloqda o‘z joniga qasd qilish maqsadini bevosita amalga oshirish niyati namoyon bo‘lishi mumkin. Deyarli hamma o‘z joniga qasd qiluvchilar bu davrda u yoki bu shaklda o‘z joniga qasd qilish maqsadini yaqinlari, do‘stlari yoki hamkasblaridankimgadir ishora yoki hazil shaklida (o‘z joniga qasd qilish ko‘rinishlari) namoyon qilishi mumkin. Holbuki, ularning qariyb 15% ga yaqini buni ochiq va oshkora qilishadi. Odatda, o‘z joniga qasd qilish maqsadining ochiqchasiga aytilishi atrofdegilar tomonidan namoyishkorona-shantaj qilish deb qabul qilinadi yoki umuman e‘tiborga olinmaydi. Biroq ularga past baho bermaslik kerak. Barcha holatlarda bunday fikrlar mavjud bo‘lganda, mutaxassis maslahati talab etiladi. O‘z joniga qasd qilish an‘analarining o‘z joniga qasd qilish ko‘rinishlariga o‘tishi qarorni bevosita amalga oshirishga – o‘z joniga qasd qilishga urinishni sodir etishga chaqiruvchi iroda komponentining (*tarkibiy qismining*) maqsadiga qo‘shilishdan darak beradi[4].

O‘z joniga suiqasd qilish (urinish) – o‘zini-o‘zi o‘ldirish yoki shantaj yo‘li bilan hayotdan ketish maqsadida o‘zini hayotdan mahrum qilish vositalari orqali ongli ravishda ish ko‘rishdir. O‘zini o‘zi o‘ldirishga urinishlar o‘zini o‘ldiruvchiga bog‘liq bo‘lmagan, ya‘ni o‘limga olib kelmaydigan jarohat, arqonning uzilib ketishi, o‘z vaqtida ko‘rsatilgan tibbiy, reanimasion yordam va shu kabilar sababli har doim ham o‘lim bilan yakun topavermaydi.

Biron-bir a‘zoni jarohatlash – ma‘lum yakuniy maqsadlar bilan (xizmatdan bo‘shash, jinoiy javobgarlikdan qochish, nogironlik bo‘yicha nafaqa olish, sug‘urta) qasddan o‘ziga jarohat yetkazish. Ba‘zan bunday harakatlar yaqqol namoyon bo‘lgan ruhiy affekt holatidagi shaxslar tomonidan sodir qilinadi va shaxs ruhiy azoblarining yengillashishiga yo‘l sifatida xizmat qilishi mumkin. (*Ko‘pincha bu bilaklar sohasini kesishda ifodalanadi*). Boshqa holatda biron-bir a‘zoni jarohatlash ruhiy bemor shaxslar tomonidan vasvasali sabablarga ko‘ra sodir etilishi mumkin. Namoyishkorona-shantaj maqsadida o‘ziga jarohat yetkazish harakatlari, biron-bir a‘zosiga jarohat yetkazishda noto‘g‘ri mo‘ljall olish, ehtiyotsizlik yoki tasodif oqibatidahalokatli bo‘lishi va o‘lim bilan yakunlanishi mumkin.

Presuitsid – o‘z joniga qasd qilish fikriga kelishdan uni ro‘yobga chiqarishga urinishgacha bo‘lgan vaqt oralig‘i, ya‘ni o‘z joniga qasd qilishdan oldingi ruhiy holatning o‘zidir. Presuitsid deganda, aksariyat psixologlar shaxsning o‘z joniga qasd qilish aktini sodir etishning me‘yoriga nisbatan yuqori ehtimolini shart qiluvchi holatini nazarda tutadilar. Uning davomiyligi daqiqalar (*o‘tkir presuitsid*) yoki oylar (*surunkali presuitsid*) bilan hisoblanishi mumkin[5].

Postsuitsid - o‘z joniga qasd qilishdan keyingi holat yoki postsuitsidal davr.

Suitsidal xavf - bu shaxsning o‘zini o‘zi o‘ldirishga potensial ravishda tayyorligi, shaxsning o‘z joniga qasd qildiruvchi va o‘z joniga qasd qildirishga olib kelmaydigan omillarning nisbatidir[6]. Xarakterida senzitiv-shizoid xislatlar: odamovilik, kamgaplik, vazminlik, norasmiy aloqalar o‘rnatishning qiyinligi, ko‘proq guruhli emas, balki yakka faoliyatga moyillik va, kamtarlik, ziddiyatsizlik, tajovuzkorlikning uncha yuqori bo‘lmagan darajasi, yuqori sezuvchanlik, jizzakilik ustun bo‘lgan shaxslarning armiyada dezatapsiyalanish ehtimoli kuchlidir. O‘zlarining intizomlilik, ijrochiligiga qaramay, ular jamoada past mavqega ega bo‘ladilar, hamkasblar orasida uncha mashhur bo‘lmaydilar, mayda birlashgan guruhlariga kirmaydilar, faqat bir-ikki hamkasblari bilan yaqin bo‘ladilar, ba‘zan umuman do‘stlari bo‘lmaydi, o‘zlariga qo‘mondonlarining e‘tiborini jalb qilmaydilar. Pirovard natijada bu jamoa va alohida harbiy xizmatchilar tomonidan ruhan ajratib qo‘yilishiga, chetlatilishiga va tajovuzkorlikka olib keladi. Bo‘linmada samarali tarbiyaviy ishlar olib borilmasa, bunday askarlarda tushkunlik, g‘amginlik, ilojsizlik holati kuchayadi, o‘ziga baho berishi va o‘zini hurmat qilish tuyg‘usi pasayadi, bu esa o‘zini-o‘zi o‘ldirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga moyillik tug‘diradi.

O‘zini-o‘zi o‘ldirishga undovchi oilaviy omillar:

- yosh bolaligida otaning yo‘qligi;
- ota-ona oilasida onaning bolaga e‘tiborining yetishmasligi;

- ota-onalar nufuzining yo‘qligi;
- oiladagi matriarxal uslubdagi munosabatlar;
- hissiy portlashlar va bolaga jismoniy jazo berish yordamida o‘zini ko‘rsatishga intilayotgan zaif katta odamning haddan ortiq avtoritarligi;
- ajrashgan oilalar;
- ota-onalari yoki yaqin qarindoshlari o‘z joniga qasd qilgan yoki o‘z joniga qasd qilishga uringanlar [7].

O‘z joniga qasd qilish genezisida oilaning, kishiga eng yaqin ijtimoiy muhitning rolini hisobga olmaslik mumkin emas. Er-xotin, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro oilaviy munosabatlar xarakteri shaxsning ijtimoiy-ruhiy dezadaptatsiyasi rivojlanishida favqulodda ahamiyatga ega. Oila ichidagi muhit shaxsning suitsidogen ko‘rinishlarini samarali qoplash, silliqlashtirishga qodir, lekin kuchaytirishi yoki hatto qo‘zg‘atishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Амбрумова А.Г., Пустовалова Л.И. Семейная диагностика в суицидологической практике. – М., 1983.
2. Tayloqov N. Voyaga yetmaganlarga o‘rtasida suitsid holatlarini oldini olish. Metodik qo‘llanma. Toshkent 2017.
3. Ruxiyeva X.. Voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklar va suitsid holatlari profilaktikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2021.
4. Elov Z.S. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar tomonidan sodir etilayotgan noqonuniy hatti-harakatlarning psixologik sabablari. Ta’lim va innovatsiyalar. 2023/2. 292-297.
5. Elov Z.S. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar orasida suitsidal axloq tushunchasi va ilmiy tahlillar. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar 2023. 1 (№1), 170-178.
6. Elov Z.S. Suitsidal xulq motivatsiyasi: nazariya va amaliyot. Monografiya. 2022.
7. Elov Z.S. Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda kuzatiladigan psixologik o‘zgarishlarning yosh bilan bog‘lik xususiyatlari (voyaga yetmaganlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish markazi tarbiyalanuvchilari misoli). Pedagogik mahorat. 2022 №6 72-75.



УДК: 301:398.151(575.1)

Собирова Дилафруз Абдурашиқовна,
Бухоро психология ва хорижий тиллар институти "Психология"
кафедраси мудири, Халқаро Психология Фанлари Академияси мухбир аъзоси,
психология фанлари доктори (DSc), профессор

ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИК ОМИЛЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИЛМИЙ-УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ

Аннотация: Ушбу мақолада тиббиёт ходимларининг касбий компетентлигини шакллантиришнинг илмий-назарий асослари ҳамда унга таъсир қилувчи омилларнинг ўрни ва аҳамияти очиқ берилган. Шунингдек, тиббиёт ходимлари социал-психологик компетентлик омилларини тадқиқ қилиш моделини ишлаб чиқилган ҳамда ўрганилаётган муаммо илмий жиҳатдан очиқ берилган. Мақолада келтирилган илмий мулоҳазалардан тиббиёт ходимларининг касбий фаолияти самарадорлигига таъсир этувчи социал-психологик компетентликни ривожлантиришида ҳамда амалий машғулотлар тайёрлаш жараёнида қўллаш мумкин.

Калит сўзлар: ижтимоий, компетенция, социал-психологик компетентлик, перцепция, рефлексия, стресс, агрессия, альтруизм.

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ФАКТОРОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ

Аннотация: В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования профессиональной компетентности медицинских работников, а также роль и значение влияющих на неё факторов. Также разработана модель исследования факторов социально-психологической компетентности медицинских работников, и научно раскрыта изучаемая проблема. Научные соображения, представленные в статье, могут быть использованы при развитии социально-психологической компетентности, влияющей на эффективность профессиональной деятельности медицинских работников, и в процессе подготовки практических занятий.

Ключевые слова: социальная компетенция, социально-психологическая компетентность, перцепция, рефлексия, стресс, агрессия, альтруизм.

SCIENTIFIC-METHODICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE FACTORS IN MEDICAL STAFF

Abstract: This article reveals the scientific and theoretical foundations for the formation of professional competence of medical workers and the role and significance of the factors influencing it. Also, a model for studying the factors of socio-psychological competence of medical workers has been developed and the problem under study has been scientifically disclosed. The scientific considerations presented in the article can be used in the development of socio-psychological competence, which affects the effectiveness of the professional activities of medical workers, and in the process of preparing practical exercises.

Key words: social competence, social-psychological competence, perception, reflection, stress, aggression, altruism.

Кириш. Жаҳонда амалга оширилаётган илмий тадқиқотларда тиббиёт ходимлари профессионал компетентлигининг психологик асосларини ўрганиш, касбий компетентликни шакллантириш ва ривожлантириш механизмларини ишлаб чиқиш, уларнинг психологик мезонларини тизимлаштириш, социал-психологик компетентлик кўрсаткичларини тадқиқ этиш ва ривожлантириш моделини яратиш ҳамда такомиллаштиришга мўлжалланган махсус моделлаштирилган топшириқлардан иборат психодиагностик методикалар мажмуини ишлаб чиқиш бўйича изланишларга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бу борада тиббиёт ходимларининг психологик тайёргарлик даражасини юксалтириш, уларнинг социал-психологик компетентлигини шакллантирувчи ижтимоий-психологик омиллар ва механизмларини аниқлаш, тиббиёт ходимлари

касбий тайёргарлик ролини ошириш ва уларнинг фаолият самарадорлигига таъсирини аниқлашга йўналтирилган тадқиқот ишларига эътибор қаратиш зарурати кузатилади.

Мамлакатимизда соғлиқни сақлаш тизимини тубдан ислоҳ қилиш, кадрлар тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва соҳа мутахассисларининг касбий тайёргарлик даражасини оширишга алоҳида эътибор қаратилган. Бу вазифаларни бажаришда тиббиёт ходимларини касбий компетентлигини такомиллаштиришга оид тадқиқотлар алоҳида аҳамият касб этади. Шу боисдан, тиббиёт ходимларининг психологик компетентлигини ошириш, уларнинг шахсий фазилатларини рўёбга чиқариш, психокоррекцион усуллар орқали фаолият самарадорлигига бевосита таъсир этувчи социал-психологик компетентлик омилларини шакллантириш долзарб муаммо сифатида қаралади.

Ушбу муаммо бўйича, Абу Райхон Беруний, Абу Али Ибн Сино, Абу Наср Форобий, Алишер Навоий, Абу Бакр ар-Розий, Исмоил Журжоний, Масихий Ал Карвакий, Чағминий каби Шарқ мутафаккирларининг асарларини ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Улар ўз асарларида шахснинг инсонларни тушуниш, мулоқотмандлик, суҳбатдошнинг хулқ-атвори, хатти-харакатлари, кечинмаларига нисбатан адекват сезувчанлик, ахлоқий установакалар каби сифатларининг намоён этилишини “юқори даражадаги ахлоқий сифатлар” деб таърифлаганлар[2].

Рус олимларининг соғлиқни сақлаш соҳасида тиббиёт ходимлари социал-психологик компетентлигининг ўрни ва аҳамиятига бағишланган тадқиқотларига эътибор қаратсак, Л.Г.Матвеева тиббиёт ходимлари ҳар томонлама етук бўлиши учун белгиланган супервайзерлик тренинг дастурини ўзлаштириши лозимлигини уқтириб ўтади. Шу жумладан, муаллиф Россияда тиббиёт ходимлари тайёрлашнинг муаммоларига тўхталиб, социал-психологик компетентликни тиббиёт ходимлари учун муҳим бўлган касбий компонент сифатида таърифлайди. Н.А.Кравцова ўз илмий тадқиқотларида беморга ёндашишда, аввало, унинг ёши, характер хусусиятларига алоҳида эътибор бериш лозимлигини таъкидлаб ўтади. Муаллифнинг фикрича, тиббиёт ходимларининг касбий фаолият самарадорлигини ошириш учун, биринчи ўринда, уларнинг психологик-тиббий тузилмасини ишлаб чиқиш мақсадга мувофиқдир. В.В.Гульдун фикрича, поликлиникаларда тиббий-психологик кабинетлар ва тиббиёт ходимлари учун ўқувлар ташкил этилиши юқори сифатли тиббий ёрдам кўрсатишни таъминлайди. Олим ўз тадқиқотларида соғлиқни сақлаш тизимида фаолият юритаётган тиббиёт ходимларининг социал-психологик компетентлигини ривожлантириш долзарб муаммолардан бири эканлигини таъкидлаб, кундалик амалиётда тиббиёт ва психологиянинг ўзаро таъсири масаласига алоҳида тўхталиб ўтади[3].

Замонавий тиббиёт психологиясида касалликларга таъсир қилувчи психологик омиллар, тиббиёт ходимлари шахсий сифатларининг касбий фаолият самарадорлигига таъсири масалалари З.Р.Ибодуллаев, Д.И.Илхамова, М.Х.Карамян, З.Абидова, Г.Қ.Тулаганова, Ю.К.Нарметова-ларнинг тадқиқотларида ўрганилган. Тиббиёт фанлари доктори, профессор З.Р.Ибодуллаев замонавий цивилизациянинг жадал суръатлар билан ривожланиши, жамиятда инсон шахси ролининг ортиб бориши кузатилаётган бир пайтда соғлиқни сақлаш тизимида фаолият кўрсатаётган тиббиёт ходимларини тайёрлаш масаласи бугунги кун учун ниҳоятда долзарб масала эканлигини таъкидлайди. Тиббиёт ходими ҳар қандай бемор шахсининг эмоционал ҳолатларини, ёшга оид психик ривожланиш хусусиятларини билиши ва бемор билан психологик алоқа ўрната олиши, даволаш жараёнида турли хил психологик усулларни қўллаб билиши зарурлигини уқтиради[4].

Ўрганилган илмий адабиётлар таҳлили бугунги кунда тиббиёт ходимлари социал-психологик компетентлиги билан боғлиқ илмий манбаларнинг ниҳоятда тақчиллигини кўрсатмоқда. Бу эса тиббиёт ходимларида социал-психологик компетентлик билан унинг омиллари орасидаги корреляцион муносабатлар тизимини таҳлил қилишни, тиббиёт ходимлари фаолиятида адекват мулоқотмандлик, адекват эмоционал муносабат ва коммуникатив компетентлик каби компонентларнинг етакчи ички психологик механизм сифатидаги ўрни ва аҳамиятини тадқиқ қилишни тақозо этади.

Метод. Олиб борилган илмий-назарий таҳлиллар бугунги кунда тиббиёт ходимлари касбий компетентликка таъсир этувчи асосий мезонлардан бири шахслилик хусусиятлари эканлигини эътиборга олиб тиббиёт ходимларида касбий компетентлик омилларини ривожлантириш дастурини шакллантиришда шахслилик омилларини ривожланишига бағишланган бир қатор психотренинг дастурлари билан танишилди ҳамда тренингларнинг умумий ҳолати ўрганилди. Айни пайтда, таҳлил этиб, танишиб чиқилган тренинг дастурлари, машқлар ва тавсияларда кўпроқ шахсларнинг ишбилармонлик ва тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга йўналтирилганлиги боис, биз танлаган дастурда, асосан, тиббиёт ходимларининг ижтимоий идентификациясини ривожлантиришга мўлжалланган психотренинг машғулотларни такомиллаштиришга эътибор

қаратилди. Шу нуқтаи назардан келиб чикиб, Н.В.Кузьминанинг тиббиёт ходимларининг социал-психологик ва касбий компетентлигини тадқиқ қилишга мўлжалланган тузилмаси, А.Ю.Макоева томонидан тақлиф этилган тиббиёт ходимларининг психологик компетентлигининг муҳим таркибий қисмлари, Л.А.Цветков, Г.К.Ушаков, С.Л.Соловьев, Ю.М.Жуков, З.Р.Ибодуллаевларнинг тиббиёт ходимларининг социал-психологик компетентлигини ривожлантириш борасидаги концепция ва тренинг дастурлари методологик асос сифатида қабул қилинди[5].

1-жадвал.

Коррекцион-тренинг машғулоти дастури

№	Машқ номи	Машқнинг вазифалари
11	“Танишув машқи”.	“Касбий компетентлик” тушунчасига таъриф бериб, ушбу мавзу бўйича назарий билимлар ва уларда ўтказилган тадқиқотлар диагностикаси билан иштирокчилар танишадилар.
22	“Социал-психологик компетентлиги паст шаклланган тиббиёт ходимлари билан ишлашга мўлжалланган машқлар”.	Тиббиёт ходимларининг социал-психологик компетентлиги шаклланишига таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар (ижтимоий идентификация, ижтимоий перцепция, ижтимоий адаптация, ижтимоий рефлексия ва альтруизм) ва когнитив (социал интуиция, социал хотира, социал воқеликни башорат қила олиш), эмоционал (социал ифодалилик, биргаликда қайғуриш, ўз-ўзини тартибга солиш), хулқий (социал идрок, социал ўзаро таъсирлашув, социал мослашувчанлик) компонентлари шакллантирилади.
33	“Тиббиёт ходимларида стресс ва агрессив ҳолатларни енгиллаштиришга мўлжалланган психокоррекцион машқлар тўплами”.	Тиббиёт ходимлари фаолиятларида учрайдиган руҳий зўриқишларнинг олдини олишга ва стресс ҳолатларини бартараф қилишга мўлжалланган машқлар ҳамда кўрсатмалар пакети тақлиф қилинади.
44	“Низоли ва хавфли вазиятларда ҳаракатланишни осонлаштириш машқлари”.	Бунда, асосан, турли хил экстремал вазиятларда тиббиёт ходимларининг психологик муҳофазасини шакллантириш усуллари ҳақида илмий-амалий ва ижтимоий-психологик тавсиялар берилади.
55	“Тиббиёт ходимларининг хулқ-атвор нормаларига риоя қилишларига йўналтирилган машқлар”.	Тиббиёт диентологиясига оид билим ва малакалар шакллантирилади.
66	Машқлар юзасидан мунозаралар қилиш ва натижаларни умумлаштириш, хулосалар қилиш.	Тренинг қатнашчиларида ўзини-ўзи адекват баҳолашни шакллантириш.
77	“Гуруҳ аъзолари билан хайрлашув”.	Гуруҳ аъзолари билан биргаликда ҳаракат қилиш ҳисини мустаҳкамлаш, эмпатияни ривожлантириш.

Психотренинг дастури тиббиёт ходимларида нафақат индивидуал ривожланиш, балки жамоавий ва гуруҳий жиқсликни таъминлашга, ўзаро ҳурмат, тушуниш, низога сабаб бўлувчи ҳолатларнинг олдини олишга ҳам хизмат қила олди дейиш мумкин(1-жадвал). Тиббиёт ходимларида тренинг дастурини қўллашдан олдин ва тренинг дастурини қўллашдан кейинги социал-психологик компетентликнинг ҳолатини билиш учун социал-психологик компетентлилик кўрсаткичларининг қиёсий ҳолати таҳлил қилинди

Хулоса. Юкоридагиларга асосланиб, баён этилган илмий мушоҳадаларни умумлаштирган ҳолда тиббиёт ходимлари ижтимоий перцепция омилларини ва уни тиббиёт ходимлари касбий фаолияти самарадорлига таъсири масаласини тадқиқ қилиш бўйича қуйидагилар аниқланди:

1. Тиббиёт ходимларининг социал-психологик компетентлигини ривожлантириш аниқ назарий асосланган ва амалий режалаштирилган дастурга зарурат сезади. Социал-психологик компетентликнинг ривожлантириш дастури учун методологик асос сифатида хизмат қилувчи дастурларга таяниш мақсадга мувофиқ.

2. Тиббиёт ходимларининг ижтимоий перцепциясини ривожлантириш дастури касбий камолот жараёнини оптималлаштиришга хизмат қилади. Унда социал-психологик компетентликни ривожлантиришда вазиятлар ва шахслараро муносабатининг таъсирига боғлиқлигига алоҳида эътибор қаратилди.

3. Тиббиёт ходимлари ижтимоий перцепция омилларини касбий фаолиятга рўёбга чиқариш ва имкониятлардан фойдаланишнинг оптималлаштириш бўйича олиб борилган психотренинг дастури белгиланган тартибда амалга оширилди. Психотренинг дастурида ижтимоий перцепция омилларини ўстиришга бағишланган машқлар орқали тиббиёт ходимлари ўзларини турли вазиятларда синаб кўрдилар ва натижаларни таҳлил қилдилар.

4. Тиббиёт ходимлари ижтимоий перцепция омилларини ривожлантириш тренинг дастури тиббиёт ходимларида тадқиқ қилинди ва шу асосда муайян илмий-амалий тавсиялар ишлаб чиқилди. Бу дастурни тиббиёт ходимлари касбий фаолиятининг барча босқичларида фойдаланиш мумкин.

5. Барча босқич тиббиёт ходимларининг психологик тренинг дастурини қўллашда эришилган натижалар ижтимоий перцепция ва унга таъсир қилувчи омилларнинг кўрсаткичида ўз аксини топди.

Айни пайтда, олиб борилган назарий ва эмпирик таҳлиллар натижалари бугунги ижтимоий психологиянинг ижтимоий перцепция йўналиши бўйича истиқболли илмий лойиҳаларини очиб беришда, социал-психологик компетентлик тушунчасига янгича назарий-илмий талқинлар киритилишида муҳим аҳамият касб этади

Адабиётлар:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: “Аспект пресс”, 1996. – 178 с.
2. Майерс Д. Социальная психология/ Интенсивный курс 3-изд., «Олма Пресс». - С.Петербург – Москва 2002. – 188 с.
3. Ананьев Б.Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция// Возрастная психология взрослых. Материалы конференции. – Ленинград: 1991.– С. 75—84.
4. Куница В.Н., Казаринова Н.В., Погольша В.М. Межличностное общение/ Учебник для ВУЗов. – СПб.: «Питер», 2002 – 322 с.
5. Собирова Д.А. Тиббиёт ходимлари касбий компетентлигининг психологик асослари “Монография” - Бухоро “Дурдона” 2020-248 б.
6. Собирова Д.А.(2019). Psychological and practical aspects of the social research on the intelligence of the medical staff. //Психология. – Бухоро, 2019. №2. – Б. 28–31.



Qabulov Qosimboy Pirjonovich,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi falsafa doktori (PhD), dotsent

“KASB” VA “KASB TANLASH” MASALALARIGA DOIR YONDASHUVLARNING XILMA XILLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb tanlash masalasi va uning ijtimoiy-psixologik ahamiyati, kasb tanlash tizimi mezonlarining tanlanishi, kasb tanlashga ta'sir qiluvchi omillar ko'rsatilgan bo'lib, bunda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, ularni erkin kasb tanlashga o'rgatish masalalari yoritilgan. Shuningdek maqolada kasb tanlashga munosabat omili mezonlari tanlanishining ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatlari hamda ularni tadqiq qilishning jihatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kasb, motivatsiya, kasbga yo'naltirish, ta'lim, tarbiya, islohot, o'qituvchi, o'quvchi, innovatsiya.

РАЗНООБРАЗИЕ ПОДХОДОВ К ПРОФЕССИИ И ВЫБОРУ ПРОФЕССИИ

Аннотация: В данной статье раскрывается проблема выбора профессии и её социально-психологическая значимость, выделение критериев системы выбора профессии, факторы, влияющие на выбор профессии, вопросы ориентации учащихся на профессию, обучающие свободному выбору профессии. Также в статье рассматриваются научно-теоретические и практико-методические аспекты выбора критериев фактора отношения к выбору профессии, а также аспекты их исследования.

Ключевые слова: профессия, мотивация, профориентация, образование, обучение, реформа, учитель, ученик, инновации.

VARIETY OF APPROACHES TO PROFESSION AND CHOICE OF PROFESSION

Abstract: This article reveals the problem of choosing a profession and its socio-psychological significance, highlighting the criteria for the system of choosing a profession, factors influencing the choice of a profession, questions of student orientation to a profession. teaching free choice of profession. The article also discusses the scientific-theoretical and practical-methodological aspects of the choice of criteria for the factor of attitude to the choice of profession, as well as aspects of their study.

Key words: profession, motivation, career guidance, education, training, reform, teacher, student, innovation.

Kirish. Jahon xalqlari hayotida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar jamiyatning har bir a'zosini, xususan, yosh avlodni ma'lum bir kasblarga yo'naltirish, o'zini-o'zi anglash, o'z kasbini muvaffaqiyatli bajarishi uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish hamda bu orqali ularda ijtimoiy faollik, shaxsiy mas'uliyat, daxldorlik hissini yuksaltirishga bo'lgan talablarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Zero, har bir shaxsning o'zi jamiyat va xalqning bir a'zosi sifatida ham doimiy ravishda o'z-o'zini tarbiyalashi va rivojlantira borishi muhimdir.

Asosiy qism. Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun fundamental ahamiyatga ega shaxs va uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi, ijtimoiy-psixologik jihatdan kasbga to'g'ri yo'naltirilishining muhimligi shu sohaga dahldor barcha tizimlariga yanada ko'proq mas'uliyat yuklaydi. Bu esa, eng avvalo, kadrlar salohiyatiga jiddiy e'tibor qaratishni, o'sib kelayotgan yosh bunyodkor avlodning kasbiy tayyorgarligini va kasb tanlashga munosabat jarayonini jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy-iqtisodiy talablari asosida to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. Qolaversa, respublikamizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonun» Qonunida [1] ushbu masalaning o'ziga xos yechimlarini izlashda muhim o'rin tutmoqda.

Kasbga yoʻnaltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaning, balki butun bir davlatning muhim strategik vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonni har jihatdan puxta oʻrganish, tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotini taʼminlashga maʼlum darajada hissa qoʻshish mumkin. Qolaversa, kasb tanlashdagi muvaffaqiyatsizliklar shaxs faoliyati va faolligiga salbiy taʼsir etishi, ayni paytda u yoki bu sohalarida mehnat unumdorligining pasayishi shaxs va faoliyat nomutanosibligining yuzaga kelishi kabi ayanshli ijtimoiy psixologik asoratlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan muhim vazifalar belgilangan.

Ilmiy manbalarning tahlili shundan dalolat beradiki, kasb tanlash, kasbga yoʻnaltirish, kasbiy oʻzlikni anglash va aniqlashga taalluqli umummetodologik va nazariy muammolar borasida qator izlanishlar olib borilgan (A.N.Leontev, T.V.Kudryavsev, P.A.Shavir, A.A.Stolyarov, L.A.Yasyukova, V.D.Shadrikov, V.G.Aseev, V.S.Merlin, P.M.Yakobson, L.I.Bojovish, P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, M.X.Titma va boshqalar).

Shuningdek, Kasbiy motiv va motivatsiya muammosi rus psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida Ye.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, K.M.Gureevish, S.S. Grinshpun, V.K. Vilyunas, L.I. Bojovish, A.V. Brushlinskiy, A.P.Vasilev, A.Ye.Golomshtok, V.I.Jukovskaya va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish masalasi xususida toʻxtalishdan avval, kasb tushunchasining mazmunini toʻgʻri tushunish va mohiyatini anglash muhim sanaladi. Kasbshunoslik adabiyotlarda kasb tushunchasining tavsif juda koʻp. Avvalambor, bu maxsus tayyorgarlikni talab etuvchi, inson doim tajribadan oʻtkazuvchi va unga yashash uchun manba boʻlib xizmat qiluvchi mashgʻulotdir.

Shuningdek, kasb bir xil faoliyat bilan shugʻullanuvchi kishilarni birlashtiradi. Bu faoliyat ichida maʼlum aloqalar va axloq normalari oʻrnatiladi. Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli aʼzolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli boʻlib, bunda aʼzolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. F.Heiderning fikri boʻyicha kasb - mutaxassislarining chetdagi odamlarga qarshi fitnasidir [2]. Ye.A.Klimov oʻz ishlarida bu borada bir nisha taʼriflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil taʼrif quyidagicha “Kasb - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha boʻlib bunda insondan jismoniy va ruhiy kush talab etadi” bu kushlar unga sarflangan mehnat oʻrniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon boʻladi [3].

Bu taʼrifni yanada batafsil yoritirib, Ye.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning oʻzini namoyon etish sohasi deb taʼriflaydi. Yana bir taʼrifni keltiramiz. “Jamiyat nuqtayi nazarisha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi boʻlib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim boʻlgan natija masʼuliyatlarni yetkazishni taʼminlab berishi kerak boʻladi” nisbatan tor taʼrifni esa A.G.Kovalev fikricha, kasb - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi boʻlib xizmat qiladi. Mavjud taʼriflarni umulashtirib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin. Kasb mehnat faoliyatining paydo boʻlgan shakllari boʻlib, ularni bajarish uchun inson albatta maʼlum bilimlar va koʻnikmalarga maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlariga ega boʻlishlari kerak [4].

Milliy kasbshunoslikda “kasb” va “mutaxassislik” tushunchalari farqlanadi. Kasb mutaxassislikka koʻra kengroq tushuncha, kasbiy salohiyatida tashqari, uning muhim sifatleri - ijtimoiy - kasbiy salohiyat, kasbiy avtonomiya, oʻzini nazorat qilish, guruhli mezonlar va qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb odatda yaqin mutaxassisliklar guruhini birlashtiradi. Masalan, kasb shifokor, mutaxassisliklar - terapevt, pediatr akulist, urolog, va hokazo. Kasb - muxandis, mutaxassisliklari - konstruktor, texnolog, metallurg va hokazolar. Mutaxassislik — kasbiy taʼlim, tayyorgarlik yoʻli bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, koʻnikma va malakalar kompleksi boʻlib, ular u yoki bu kasb doirasida maʼlum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik - kasb ishidagi kasbiy faoliyat turi boʻlib, u shaxsiy yutuqdarga yoki oʻziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga yoʻnaltirilgan boʻladi.

Kasb nomi koʻpincha oʻtgan yillarda shakllangan mehnat xarakterini aks etadi. Rasmiy maʼlumot nashrlari esa mehnat resurslarining rivojlanishiga salbiy taʼsir etishi mumkin. Masalan

“farrosh” kasbning nomi o‘rniga “interer bo‘yicha texnik” nomini kiritish mumkin, shunda kasbning qadri, uning malakaviy darajasi ko‘tariladi, asosiysi, ishlab chiqarish rivojlanishi tezlashadi. Ta’kidlash mumkinki, kasblar va mutaxassisliklar odatda texnologiya va mehnat vositalarining eskirib qolgan holatini aks ettiradi. Boshqa tomondan, rasmiy nomenklaturasiz ham qadrlar siyosatini amalga oshirib bo‘lmaydi, bunda qanday yo‘l tutish mumkin.

Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi kasblar nomini kiritish zaruriyati kelib chiqadi. Yangi kasblar ro‘yxati kechikish bilan rasmiy ma‘lumotnomalarga kiradi. “Menidjer” kasbi bugungi kunda keng tarqalgan ammo rasmiy ro‘yxatga kiritilmagan. 1979-yildan buyon Yekaterinburg shahrida kasb bilim yurtlari uchun mutaxassislar tayyorlanadi - ya’ni muhandis - pedagoglar ammo rasmiy ma‘lumotnomalarda bunday kasb yoki mutaxassislik mavjud emas. Bunday masalalarni ko‘p keltirish mumkin. Kasbiy faoliyatning samaradorligini shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog‘ligi hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Xuddi shunday ilmiy nazariyalarni o‘quvchilar to‘g‘ri talqini qilishi ulardagi kasb tanlash motivatsiyasiga bevosita ta’sir etishi tabiiy holatdir. Shu bois, mashhur rus psixologi K.K.Platonov o‘quvchilarni kasbiy tayyorligi bu o‘zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko‘rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi shaxsning subyektiv holatidir [5] - deb hisoblagan.

Binobarin, Sharqda har doim ilm eng muhim qadriyat hisoblanib kelgan. Shuning uchun ta’lim - tarbiya masalasi bilan qariyb barcha olimlar shug‘ullanishgan. O‘zlarining buyuk asarlari bilan butun dunyoni hayratga solgan ulug‘ mutafakkirlarimizning barcha asarlarida ham ta’lim – tarbiyaga alohida e’tibor berilgani diqqatga sazovordir. Ularning ta’lim – tarbiya masalasiga falsafiy, diniy, axloqiy, pedagogik va psixologik tomonlardan turib yondoshganligini kuzatsa bo‘ladi. Biz quyida sharq mutafakkirlarining ta’lim olish jarayoniga, ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchi psixologiyasiga taalluqli bo‘lgan qarashlarini, fikr – mulohazalarini ko‘rib chiqamiz.

Yoshlarni kasbga yo‘naltirishda maslasi Sharq mutafakkirlari qarashlarida ham alohida o‘rin egallaydi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy (870-980) ruhshunoslik ilmining o‘ziga xos amaliyotchisi va nazariyotchisi sifatida shaxsning oqil, dono va hunarli bo‘lishi haqida qator ilmiy risolalar yozib qoldirgan. Chunonchi, u «Fozil odamlar shahri» asarida davlatni har tomonlama yetuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarini jo qilgan kishilar yordamida idora etish masalasiga jiddiy e’tibor qaratgan. Kasb-hunar egalari qadimdan e’zozlanib kelingan. Sharq mutafakkirlari ta’limotida o‘g‘il va qizlarga ta’lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o‘rgatish g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Qadimiy an‘analarimizga binoan hunarmand va kasb, me’mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to‘quvchi va nonvoy, ustoz-shogird munosabatlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Dono xalqimiz «Ustozidan o‘tmagan shogird - shogird emas», «Hunarli kishi aslo xor bo‘lmas», «Ustoz otadek ulug‘», «Ta’lim bergan ustozingdan ayrilma» singari maqollarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilganlar [6].

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunarga yo‘naltirish to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta’lim – so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish - harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakkam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglashilib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelgan.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri - Abu Ali Ibn Sinodir (980-1037). Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, bolaning fe’l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g‘oyalar qo‘llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma’qulligini ko‘rsatgan. Mutafakkirning «Donishnoma», «Risolai ishq», «Uy xo‘jaligi», «Tib qonunlari» asarlari mamlakatimiz xalqlari odob-axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi [7].

Mutafakkirning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi. Yosh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni

uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘smir hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib o‘zining «Qutadg‘u bilig» asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga yetishi ajdodi va kelib chiqishiga, hayotda shug‘ullanayotgan faoliyatiga, atrofga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib: «Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi» deb hisoblaydi [8].

XV asr donishmandi Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘ati turk» asari orqali har bir insonni oqilu dono bo‘lishga, aql-zakovat bilan ish qilishga, jamiyat uchun foydali bo‘lgan biror kasb-hunar bilan muntazam ravishda shug‘ullanishga da‘vat etadi.

Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) inson omilini tadqiq qilishdagi ijtimoiy psixologik qarashlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, olimning «Minerologiya» asarida ta’kidlanganidek, insonning qadr-qimmatini o‘z vazifasini a’lo darajada bajarishdan iborat. Shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o‘rni mehnat yoxud uning kasbi bilan belgilanadi. Zero, inson o‘z xohishiga mehnati bilan erishadi [9].

Xulosa. Umuman, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda o‘smirlarda kasb tanlash motivatsiyasi shakllanishining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish bo‘yicha quyidagilarni alohida ta’kidlash joiz:

1. Kasb tanlash motivatsiyasi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik muammo sifatida xorijiy rossiyalik hamda o‘zbekistonlik olimlar tomonidan turli xil ilmiy mezonlar orqali tahlil qilinadi. Mazkur tahlillarni muayyan ilmiy talablar asosida birlashtirish zarur.

2. Kasb tanlash motivatsiyasining ilmiy-nazariy asoslari sifatida moskvalik professorlardan Ye.A.Klimov, G.L.Ilin, P.K.Aroxin, G.M. Andreev, K.K. Platonov, xorijlik olimlardan Jan Vilyam Fris Piaje, T.K.Rodjer, A.G.Maslou, O‘zbekistonlik olimlardan B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, A.A.Asomova, R.Z.Gaynutdinov, E.G.G‘oziev, V.M.Karimovalar rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarni taqdim qilinishi ijtimoiy psixologiya taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi.

3. Tanlangan mavzuning dolzarbligini ta’minlashda O‘rta Osiyo mutafakkirlari tomonidan taqdim qilingan durdona asarlar talqiniga ham alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

4. Yuqorida qayd etilgan har bir metodologik ishlanma o‘quvchi shaxsida bevosita shakllanib kelayotgan kasb tanlash motivatsiyasi imkoniyatlarini oshishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi» Qonuni. Toshkent sh., 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. Duval S., Wicklung R.A. A theory of objeceive-awareness. New York. 1972.
3. Климов Е.А. Индивидуальный стиль деятельности в зависимости от типологических свойств нервной системы. - Казань, 1969. - 60 с.
4. Ковалев А.Г. Психология личности. - М., 1969.
5. Платонов К.К. Краткий словарь системы психологических понятий. - М.: «Высшая школа», 1984.-179 с.
6. Xayrullayev M. Forobiy ruhiy protsesslar va ta’lim-tarbiya to‘g‘risida. -T.: «O‘qituvchi», 1966. -96 b.
7. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiy risolalar. - T.: «Fan», 1987.
8. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ asari, T., 1991
9. Beruniy A. Tanlangan asarlar. II tom. – T., 1965. - 125 b.

Хўжаев Фарид Абдухалилович,
Чирчиқ давлат педагогика университети таянч докторанти

ИЖТИМОЙ ИДЕНТИКЛИКНИНГ ТУРЛАРИ ВА ТУЗИЛИШИ

Аннотация: Мақолада ижтимоий идентиклик ва унинг турлари, тузилиши хусусидаги назарий таҳлилларнинг баёни қилинган. Айниқса, хориж олимларининг ижтимоий идентиклик борасидаги назарий ёндашувларининг мазмуни баён қилинган. Шунингдек, ижтимоий идентикликнинг тузилиши ва уларнинг мазмуни келтирилган.

Калит сўзлар: идентиклик, ижтимоий идентиклик, идентификация, психология, шахс, ўзини ўзи билиш, ижтимоийлашув, психоанализ, процессуал, мазмунли, динамик, энергетик, тизимли.

ТИПЫ И СТРУКТУРА СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация: В статье описывается теоретический анализ социальной идентичности и ее типов, структуры. В частности, было описано содержание теоретических подходов зарубежных ученых к социальной идентичности. Также перечислены структура социальной идентичности и их содержание.

Ключевые слова: идентичность, социальная идентичность, отождествление, психология, идентичность, самопознание, социализация, психоанализ, процессуальный, значимый, динамичный, энергичный, систематический.

TYPES AND STRUCTURE OF SOCIAL IDENTITY

Abstract: The article describes theoretical analyses of social identity and its types, structure. In particular, the content of theoretical approaches of foreign scientists to social identity has been described. Also listed are the structure of social identity and their content.

Keywords: identity, social identity, identification, psychology, identity, self-knowledge, socialization, psychoanalysis, processual, meaningful, dynamic, energetic, systematic.

Кириш. Маълумки, ижтимоий идентиклик муаммоси узоқ вақт давомида ижтимоий-гуманитар билимларнинг фанлараро тизимида долзарб бўлиб қолмоқда. Идентификация муаммосининг эволюцияси, биринчи бошланғич назарий шаклларнинг пайдо бўлишидан мустақил назарий билим шаклларига қадар фалсафа, социология ва психологияда кузатилиши мумкин.

Ўз фаолияти нуқтаи назаридан ҳам, бошқа одамлар билан ўзаро муносабатлар орқали ҳам амалга оширилган инсоннинг ўзини ўзи билиши антик даврда ҳам қизиқ бўлган. Ўзини ўзи билишнинг аҳамияти Сократ томонидан яратилган асарларда таъкидланган.

Асосий қисм. Ўрта асрларда Европалик гуманистлар А. Данте, Дж. Боккаччо, Ф. Петрарка, Т. Мор, М. Монтень, Ф. Рабле, Э. Роттердамский ва бошқалар ўзини ўзи англаш, ўзини ўзи намоён қилиш, ўзини ўзи билиш, ўз-ўзини ўзгартириш ҳақида ёзишган. Янги давр фалсафасида ўзини ўзи билишни шахсни шакллантириш фаолияти сифатида тушуниш Р. Декартни қизиқтирган, у ўзини англаш мавжудлик асоси эканлигини таъкидлаган. Д.Юм идентикликни қайта қуриш ҳақидаги тезисни “ташқаридан”, жамиятдан асослаб берди. Инсоннинг фазилатлари ижтимоийлашув жараёнида шаклланади.

Ижтимоий идентиклик тушунчаси социологияда ҳам ўрганилади. Ж.Меад ва С. Кули идентикликни ижтимоий таълим деб ҳисоблашган. Унга кўра, инсон ўзини бошқалар кўрганидек кўради. Ушбу назарияда идентификация тузилиши унинг шаклланиш омили билан боғлиқ. Бироқ, шахсни шакллантириш жараёни тасвирланмаган. “Роллар назарияси” да идентикликда бажарилган роллар тўплами сифатида кўриб чиқилади. Инсон ижтимоийлашувнинг пассив натижасига ўхшайди, бу унинг индекстиклигига таъсир қилмайди.

Э. Гидденс нуқтаи назари ва З.Бауманнинг ушбу тадқиқот учун аҳамиятлидир: шахслар ҳаёт йўллари турли нуқтаи назардан танлашлари, ўз идентикликларини шакллантиришлари керак. Шунингдек, социологияда ижтимоий идентификация муаммоси билан Р.Баумеистер, П.Бергер, Т.Лукман, И.Гоффман, М.Серто, М.Н.Губогло, Е.Н.Данилова, В.А.Ядов шуғулланган.

Психология ривожланишининг ҳозирги босқичида идентикликнинг концепциялари, кўринишлари ва тузилишини тавсифловчи турли хил тушунчалар мавжуд. Психоанализ нуқтаи назаридан ҳар қандай руҳий ҳодиса уч жиҳатдан очилиши керак: динамик, энергетик ва тизимли.

Психологияда (кейин бошқа ижтимоий ва гуманитар фанларда) идентификация тушунчаси XX асрнинг 60-йилларида илмий муомалага киритилган. Шунингдек, идентификация тушунчасини асос қилиб олган Э. Эриксоннинг асосий асарлари нашр этилгандан сўнг, аввал З.Фрейд томонидан қўлланилади.

Э.Эриксон, шунингдек, шахсий идентификация инқирозлари тушунчасини киритиб, унга кўра, идентификацияни инсоннинг ички узлуксизлиги ва ўзига хослиги сифатида аниқлади. Шунингдек, у инсон ҳаёти давомида давом этадиган динамик жараён шаклига, кўп даражали идентификация тузилишини ишлаб чиқди. Бунда асосий эътибор индивидуал, шахсий ва ижтимоий даражалар, шахсга яхлит интегротив ёндашувни яратди ҳамда шахсни идентификация орқали ўрганишга эътибор қаратди.

Бироқ, Э.Эриксоннинг идентификация назарияси идентификацияни ривожлантиришда ташки ва ички омилларнинг ўзаро таъсири жараёнини тавсифламайди. Психология фан сифатида ривожланишининг ҳозирги босқичида идентификациянинг турлари, кўринишлари ва тузилишини тавсифловчи турли хил тушунчалар мавжуд.

Ушбу ёндашувга мувофиқ, идентификация тушунчаси унинг таркибий ва динамик хусусиятлари нуқтаи назаридан ишлаб чиқилган. Тадқиқотчилар шахснинг процессуал ва мазмунли томонига мурожаат қилишади, бунинг натижасида ўтмиш, ҳозирги ва келажак умуман инсон томонидан бошдан кечиради, шахснинг ўзининг мавжудлиги ўзгармас деб қабул қилинади [2].

Шахсни ўрганишда психоаналитик ёндашувнинг таниқли вакили Э.Эриксондир. Психолог шахсий идентификация инқирозлари тушунчасини киритди ва уларнинг ижтимоий ривожланиш инқирозлари билан узвий боғлиқлигини таъкидлади [5]. Олим идентикликни инсоннинг ҳаёти давомида давом этадиган динамик жараён шаклига эга бўлган шахснинг ички узлуксизлиги ва ўзига хослиги сифатида аниқлади [5].

Шуни таъкидлаш керакки, Э.Эриксон ўз асарларида муаммо ва идентификация тушунчасини назарий таҳлил қилиш билан чекланган, аммо у идентиклик ҳақидаги асосий ғояларни шакллантирган. Шунингдек, идентиклик мазмунини, ўзига хос ҳис-туйғуларда ифодаланган индивидуал тажриба элементларини баён қилган. Хусусан, бу масалани 1968 йилда Эриксон томонидан алоҳида таъкидлади:

- эго-идентиклик;
- ижобий идентиклик;
- салбий идентиклик [5].

Шундай қилиб, Э.Эриксон концепциясида шахсни ўрганишда яхлит интегротив ёндашувни яратишга уриниш аниқ кузатилган, бу унинг идентикликни тушунишида намоён бўлади. Идентиклик шахсни ривожлантиришда ташкилий функцияга эга-бу концепция психосоциал ривожланиш босқичларини кўриб чиқишда концепция муаллифи учун марказий ўринни эгаллайди.

Идентикация мураккаб шахсий таълим сифатида, кўп даражали тузилманинг бир тури сифатида (идентикликка кўра) тақдим этилади: индивидуал, шахсий ва ижтимоий.

Шахсий даражада идентиклик инсоннинг ўз вақтинчалик даражасини англаши натижасидир.

Шахсий даражада идентиклик-бу инсоннинг идентиклигини ҳис қилиш, унинг ҳаётий тажрибасининг ўзига хослиги, бу идентикликни келтириб чиқаради.

Ижтимоий даражада идентиклик-бу инсоннинг ижтимоий, гуруҳ идеаллари ва стандартлари билан ички бирдамлигини акс эттирувчи шахсий яратувчанликдир [5].

Э.Эриксон инсон ҳаёт циклини идентикликнинг эпигенези деб атади. У эпигенетик ривожланиш дастурини яратди, унда саккиз босқични аниқлади, уларнинг ҳар бири ҳал қилиниши керак бўлган ўзига хос марказий муаммога эга. Ривожланиш ақлий фаолиятнинг барча даражаларида юзага келадиган акс эттириш ёрдамида содир бўлади, унинг ёрдамида шахс ўзини “бошқаси” ва у учун муҳим бўлган типология билан солиштирганда баҳолайди. Ҳар бир босқич идентификацияни ривожлантиришга бевосита ҳисса қўшади.

Э.Эриксоннинг издошлари идентикликнинг янада қатъий ва тезкор таърифини беришга ҳаракат қилишди.

Бунга мувофиқ биз Ж.Марсиа [4] идентикликнинг ҳолат моделига мисоллар келтиришимиз мумкин. Шундай қилиб, Ж. Марсиа шахсни “Эго тузилиши - ички ўзини ўзи яратадиган, эҳтиёжлар, қобилиятлар, эътиқодлар ва индивидуал тарихни динамик ташкил этиш” деб ҳисоблайди [1].

Ж.Марсиа идентификация тузилмасида унинг тўртта мақомини иккита мезон асосида аниқлайди: 1) инкирознинг мавжудлиги ёки йўқлиги, яъни шахсни излаш ҳолати ва 2) идентификация таркибий қисмларининг мавжудлиги ёки йўқлиги, яъни шахсан муҳим мақсадлар, кадриятлар, эътиқодлар, ўзингиз ва ҳаётингиз ҳақида қабул қилинган қарорлар. Шундай қилиб, Ж. Марсиа нуқтаи назаридан идентиклик даражалари қуйидагилардан иборат:

1. Эришилган идентификация. Бу инкироз билан боғлиқ бўлган интроспекция даврини бошдан кечирган ва натижада маълум бир кадриятлар ва эътиқодлар тизимига эга бўлган инсонда учрайди. У кимлигини, нимага интилаётганини, нима қилиш кераклигини билади. Бундай одамлар одатда ишонч ҳисси, келажакка оптимизм билан ажралиб туради ва қийинчиликларни англаш танланган йўналишга риоя қилиш истагини камайтирмайди. Бундай одам ўз мақсадлари, кадриятлари ва эътиқодларини шахсан муҳим деб ҳисоблайди ҳамда унда ҳаётнинг маъносини ҳис қилади.

2. Мораторий. Ж.Марсиа ушбу атамани идентиклик инкирози ҳолатида бўлган ва мумкин бўлган альтернативаларни ўрганиш орқали уни ҳал қилишга ҳаракат қилаётган инсонга нисбатан ишлатади. Бундай одам инкирозни ҳал қилиш учун зарур бўлган маълумотларни фаол равишда қидирмоқда. Қувонч, кутиш ва қизиқиш ҳисси, айниқса, қидирувнинг дастлабки босқичларига хосдир.

3. Шаклланиши муддатидан олдин тўхтаган идентиклик. Шундай қилиб, Дж. Марсиа ўзини муқобил имкониятларни етарлича ўрганмасдан, кўпинча ота-оналар томонидан таклиф қилинган танловни қабул қилмасдан, ўзини ўзи намоён қилган шахснинг идентиклигини англатади.

Идентикликни шакллантиришнинг эрта тўхташи ривожланишнинг исталмаган натижасидир, у якуний тўсиқ бўлиб чиқиши ёки қулай ҳолатда вақтинчалик бўлиши мумкин. Иккинчи ҳолда, тадқиқотга қўшилган мораторий кейинчалик идентикликка эришиш йўлида танланади.

4. Идентикликнинг тарқалиши. Бу ҳолат шаклланган кадриятлар ва эътиқодларга эга бўлмаган одамларга хосдир. Улар ҳеч қачон инкироз ҳолатида бўлмаган ёки юзага келган муаммоларни конструктив ҳал қила олмаган. Идентикликнинг туйғуси яққол намоён бўлмаса, пессимизм, бефарқлик, эркин ҳаракатлантирувчи ғазаб, бегоналашиш, ташвиш, ночорлик ва умидсизлик ҳисси каби салбий ҳолатлар топилади [3].

Шундай қилиб, идентиклик муҳим ижтимоий муаммоларни ҳал этилиши, муҳим қарорлар қабул қилиниши, ижтимоий танлов шароитида ривожланади ва эҳтиёжлар, қобилиятлар, эътиқодлар ва ўз тарихининг динамик ташкилоти сифатида намоён бўлади. Шунини таъкидлаш керакки, психоаналитик ёндашув бизга шахсни динамик ва таркибий характерга эга бўлган, инсон идентиклигини ривожланиш жараёни билан ҳамбарчас боғлиқ бўлган ҳодиса сифатида тушунишни очиб беради.

Хулоса. Ушбу тадқиқотда ижтимоий идентиклик когнитив, мотивацион ва кадриятли компонентларининг бирлиги бўлиб, уларнинг комбинацияси маълум функционал блокларни яратади:

базавий-тор маҳаллийлаштирилган ўзини ўзи аниқлаш; ижтимоий воқеликни этник, ёш, жинс, оилавий ҳамжамият ва шунга ўхшаш жамоалар даражасида талқин қилишни таъминлайди, ўзини ҳимоя қилиш мотивациясини ўз ичига олади; шахсий ҳаёт, соғлиқ, хавфсизлик ва хавфсизлик кадриятларини ўз ичига олади.

Шахсий - турли жамоалар маданияти талабларига нисбатан ўзини идентификациялашда ўзини намоён қилади; бу ўз-ўзини ҳурмат қилиш, ўзини ўзи қабул қилиш, ўзини ўзи бошқариш, ўзига ишонч, ўзига боғлиқлик ва ички зиддият мотивацияси билан боғлиқ.

Профессионал-касбий, ишга доир, фуқаролик ва шунга ўхшаш жамоаларда талқин қилиш ва субъектив иштирок этишни таъминлайди; ўзини англаш мотивациясида, касбий ҳаёт кадриятларида намоён бўлади.

Келтирилган фикрлардан кўринадики, ижтимоий идентиклик шахснинг ривожланиш хусусиятлари билан узвий боғлиқ. Шахснинг жамият ҳаётида ўзини ўзи англаш тизими билан боғлиқ хусусиятларини ёшга боғлиқ тараққий этиши уларда ижтимоий идентикликнинг шаклланишининг муҳим ва асосий шarti ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Антонова Н.В. Проблема личностной идентичности в интерпретации современного психоанализа, интеракционизма и когнитивной психологии /Н.В. Антонова // Вопр. пси- хол.- 1996.- № 1.-С. 131-143.

2. Иванова Н. Л. Социальная идентичность: теория и практика / Н.Л. Иванова, Т.В. Румянцева. - М.: Изд-во СГУ, 2009.-456 с.

3. Короленко Ц. П. Идентичность. Развитие. Перенасыщенность. Бегство: монография / Ц.П. Короленко, Н.В. Дмитриева, Е.Н. Загоруйко. - Новосибирск: НГПУ, 2007. - 472 с.
4. Татарко С. А. Измерение идентичности в рамках статусной модели Дж. Марсии / С.А. Татарко // Психол. диагностика. - 2009. - № 1. - С. 1-39.
5. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис / Э. Эриксон. - М.: Прогресс, 1996. - 344 с.

Ganjiev Feruz Furqatovich,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent
Dosov Ismat Ubaydulloyevich,
Psixologiya va xorijiy tillar instituti 1-bosqich magistranti

КОМПЬЮТЕР О'YINLARIGA TOBE O'SMIRLARNI O'RGANISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda virtual olam ta'sirini kuchayishi, shaxsdagi internet va kompyuter o'yinlariga tobelikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari borasida fikr yuritiladi. Internetga qaramlik va kompyuter o'yinlariga qaramlik psixologiyasi sohasidagi mahalliy tadqiqotlarni tahliliy tahlil qilish. Maqolada Internet-texnologiyalari bilan bog'liq mavzularning ommabopligi ularning yangiligi, katta dinamikmi va kam o'rganilishi bilan izohlanadi, bu esa olimlarning ushbu sohadagi faoliyatini katalizlaydigan ijtimoiy tashvishlarni keltirib chiqarganligi ko'rsatib o'tilgan. Maqolada Internet va kompyuter o'yinlariga qaramlikning mezonlari, diagnostika usullari, sabablari, oldini olish va rehabilitatsiya qilish dasturlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, tobelikning psixologik xususiyatlari berilgan va ushbu muammoli sohadagi tadqiqotlarning hozirgi tendentsiyalari keltirilgan. Mahalliy empirik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Internet foydalanuvchilari, Internetga qaramlar salbiy psixologik xususiyatlarga ega ekamlilari ko'rsatib o'tilgan. Internet insonga halokatli ta'sir ko'rsatadi, bu nutqni soddalashtirishda, izolyatsiyada namoyon bo'ladi. Internet foydalanuvchilarida muloqot qilishda qiyinchiliklar, negativizmga moyillik, o'zini-o'zi hurmat qilishning etarli emasligi va boshqalar mavjud ekanligi ham ta'kidlab o'tilgan. Internetga qaram bo'lganlar intellektual, motivatsion sohalarda, shaxslararo munosabatlarda, kurashish strategiyalarida, qiymat yo'nalishlarida va rejalashtirishda og'ishlar bilan tavsiflanadi. Kompyuter o'yinlariga qaram bo'lgan foydalanuvchilar ijtimoiy me'yorga nomuvofiqligi, o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholashlari, shakllanmagan o'z-o'zini imidji, harakatsiz harakatlari bilan ajralib turadi. Hozirgi vaqtda kiber giyohvandlik mezonlarini ta'kidlash uchun asoslar qayta ko'rib chiqilmoqda, mualliflar Internet va kompyuter o'yinlarining ijobiy ta'sirini o'rganishga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar, ularning resurs imkoniyatlarini ta'kidlamoqdalar.

Kalit so'z: ijtimoiy ong, internet, virtual borliq, tobelik, elektron, OAVlarning yoshlarga psixologik ta'siri, ommaviy kommunikatsiya, neyrolingvistik dasturlash, elektron o'yinlar, faoliyat, xatti-harakatlar, xulq-atvor, morfologik, biokimyoviy va fiziologik, irsiy faktorlar, individuallik, xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, iroda, faoliyatlar motivlari, qobiliyat, hissiyot.

ОСОБЕННОСТИ ИССЛЕДОВАНИЯ ПОДРОСТКОВ, ЗАВИСИМЫХ ОТ КОМПЬЮТЕРНЫХ ИГР

Аннотация: В статье рассматривается усиление влияния виртуального мира на сегодняшний день, социально-психологические особенности зависимости человека от Интернета и компьютерных игр, аналитический анализ отечественных исследований психологии интернет-зависимости и зависимости от компьютерных игр. В статье объясняется популярность тем, связанных с интернет-технологиями, их новизной, большой динамичностью и малоизученностью, что вызвало общественные опасения, катализировавшие активность учёных в этой области. В статье представлена информация о критериях, методах диагностики, причинах, программах профилактики и реабилитации зависимости от Интернета и компьютерных игр, психологических особенностях зависимости, современных тенденциях исследований в данной проблемной области. По результатам локальных эмпирических исследований показано, что интернет-пользователи и интернет-зависимые имеют негативные психологические характеристики. Интернет оказывает разрушительное воздействие на человека, что проявляется в упрощении речи, замкнутости. Также было отмечено, что пользователи Интернета имеют трудности при общении, склонность к негативизму, заниженную самооценку. Для интернет-зависимых характерны отклонения в интеллектуальных, мотивационных, межличностных, копинг-стратегиях, ценностных ориентациях и планировании. Для пользователей, зависимых от компьютерных игр, характерно несоблюдение социальных норм, переоценка своих возможностей, несформированное представление о себе, бездеятельность. В настоящее время пересматриваются основания для выделения критериев

киберзависимости, авторы всё чаще обращаются к изучению положительного влияния Интернета и компьютерных игр, подчёркивая их ресурсный потенциал.

Ключевые слова: общественное сознание, интернет, виртуальное присутствие, зависимость, электронные, психологические воздействия СМИ на молодёжь, массовая коммуникация, нейролингвистическое программирование, электронные игры, активность, поведение, морфологические, биохимические и физиологические, наследственные факторы, индивидуальность, характер, темперамент, психические процессы, ситуации, события, воля, мотивы деятельности, способности, эмоции.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE STUDY OF ADOLESCENTS ADDICTED TO COMPUTER GAMES

Annotation: The article discusses the increasing influence of the virtual world today, the socio-psychological characteristics of addiction to the Internet and computer games in a person. Analytical analysis of local research in the psychology of Internet addiction and computer game addiction. The article explains the popularity of topics related to Internet technologies due to their novelty, great dynamism and understudied nature, which caused social concerns that catalyzed the activity of scientists in this field. The article provides information on the criteria, diagnostic methods, causes, prevention and rehabilitation programs of Internet and computer game addiction, psychological characteristics of addiction, and current trends in research in this problem area. According to the results of local empirical studies, it has been shown that Internet users and Internet addicts have negative psychological characteristics. The Internet has a devastating effect on a person, which is manifested in the simplification of speech, isolation. It was also noted that Internet users have difficulties in communication, tendency to negativism, lack of self-esteem, etc. Internet addicts are characterized by deviations in intellectual, motivational, interpersonal, coping strategies, value orientations, and planning. Users who are addicted to computer games are characterized by non-compliance with social norms, overestimation of their capabilities, unformed self-image, and inactive actions. Currently, the basis for highlighting the criteria of cyber addiction is being revised, the authors are increasingly turning to the study of the positive effects of the Internet and computer games, emphasizing their resource potential.

Keywords: social consciousness, internet, virtual presence, addiction, electronic, psychological effects of mass media on youth, mass communication, neurolinguistic programming, electronic games, activity, behavior, behavior, morphological, biochemical and physiological, hereditary factors, individuality, character, temperament, mental processes, situations, events, will, motives of activities, ability, emotion.

Kirish. Biz yashab turgan yangi dunyoda texnologiyalar misli ko‘rilmagan darajada rivojlanmoqda va kompyuterlar oddiy, hatto zarur narsalarga aylandi. Internetning afzalliklari haqida hamma biladi, aksariyat odamlar undan nafaqat ma’lumot qidirish, balki virtual olamga haqiqatdan qochish uchun ham foydalanadilar. Virtual borliq - bu inson tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan dunyo. Virtual reallikning so‘ngi texnologiyalari sizga xayoliy dunyoga to‘liq sho‘ng‘ish uchun ko‘zoynak va dubulg‘a yaratishga imkon beradi. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi.

Yangi texnologiyalar haqida bilib, odamlar virtual olamga shoshilishmoqda, ammo ular virtual haqiqatning psixologik ta’siri xavfli bo‘lishi mumkinligini unutishadi. Bugungi kunda hayot muammolaridan qochib, boshqa dunyoga tushib ketishingizga imkon beradigan ko‘plab qurilmalar mavjud. Virtual haqiqat tizimining rivojlanishi shu darajaga yetdiki, odam tom ma’noda ikkinchi dunyoda yashaydi, o‘zini virtual olamga to‘liq singdiradi. Virtual borliq bizga boshqa dunyoga tashrif buyurish, dam olish va muammolardan tanaffus qilish, shuningdek yangi hissiyotlarni olish imkoniyatini beradi, ammo uning salbiy tomonlari ham bor. Virtual olamga tez-tez sho‘ng‘ish bilan, odam o‘z qahramonining roliga juda odatlanib qolishi mumkin, bu uning hayotdagi xatti-harakatlariga ta’sir qiladi. Shuningdek, odam vaqt boshqaruvini yo‘qotishi va antisotsial bo‘lishi mumkin. Internetga qaramlik psixologik muammolarni keltirib chiqaradi: Xo‘sh, internetga haddan ortiq bog‘lanib qolishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Tobelik birinchi navbatda ziddiyatli xatti-harakatlar, surunkali depressiya, real ijtimoiy munosabatlardan virtual olamni afzal ko‘rish, jamiyatdagi moslashish qiyinchiliklari, ijtimoiy noqulaylik, internetdan foydalanish qobiliyatining susayishiga olib kelishi mumkin. Internetdan foydalanish, o‘smir shaxsida "o‘qish" va "o‘rganish"ga intilish o‘rniga "izlash"ni afzal ko‘rishni yuzaga keltiradi. Ko‘pgina yoshlar ota-onalari tomonidan taqiqlangan saytlarga tez-tez tashrif buyurishlarini ochiq tan olishadi. Bu saytlar pornografiya va

o'z joniga qasd qilish, terroristikni targ'ib qiluvchi, video o'yinlarga qaramlik va millatchi tashkilotlarni aks etiruvchilardir. Bundan tashqari, ko'plab buzg'unchilik maqsadida tashkil etilgan saytlar o'spirinlarda ruxsat etilganlik va jazolanmaslik ilyuziyasini shakllantirishini o'z oldiga vazifa qilib olgan. Bu ijtimoiy normalarni buzilishi, qilishi uchun javobgarlik hissini yo'qolishi, axloqiy qadriyatlar tizimini izdan chiqarishi mumkin. Internetga qaram shaxslarning asosiy muammolari o'zini o'zi qabul qilish sohasidir. Qaram o'smirilar atrofdagilar bilan yaqin muloqot qilishda va o'zlarini namoyon etishida qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularda ko'p hollarda o'z "Men"i va tanadagi ehtiyojlarini anglashda ham jiddiy muammolar kuzatiladi. Bundan tashqari o'z-o'ziga baho hamda o'z-o'zini qadrlash mexanizmlariga ham jiddiy putur yetishi mumkin. Internetni jalb qilish ishni boshqarish istagi bilan bog'liq kompyuter dasturlari; ular boshqarishi mumkin bo'lgan ushbu moyillik inson munosabatlari sohasi va odamlarni manipulyatsiya qilishga urinishlari ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi, bu bolalarni yopiqlik holatiga hamda dezadaptatsiyaga olib kelishi mumkin.

Metodlar va natijalar.

Klinik psixolog K.Yang va psixiatr I.Golberglar internetga qaramlik hodisasini psixologik tadqiq qilishning asoschilari hisoblanadilar. 1994 yilda K. Young (Young, 2000) veb-saytga maxsus so'rovnomani ishlab chiqdi va joylashtirdi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu kasallikning tarqalishi aholining 1% dan 5% gacha (Griffits, 2000; Young, 1998).

Kompyuter o'yinlariga qaramlik birinchi marta 1995 yilda doktor A. Goldberg tomonidan tasvirlangan. 1997-1998 yillarda kompyuteriga qaramlik muammosi bo'yicha ilmiy-tadqiqot va konsultativ-diagnostika xizmatlari yaratildi va birinchi monografiyasi nashr etildi (K.Yang, D.Grinfeld, K.Surratt va boshqalar). Mualliflar ushbu psixologik hodisani kompyuter o'yinlariga obsesif ishtiyoqda namoyon bo'ladigan psixologik qaramlikning bir shakli deb hisoblashadi.

Kompyuterga qaramlikning asosiy oqibatlarini, A. Goldbergning fikricha, og'riqli salbiy stress holati yoki iztirob, shuningdek, jismoniy, psixologik, shaxslararo, iqtisodiy yoki ijtimoiy maqomga zarar etkazishdir.

Tadqiqotimizda biz o'yin kompyuteriga psixologik qaramlikning shakllaridan biri sifatida ko'rib chiqamiz, u virtual olamning cheksiz imkoniyatlariga kirishi, shakllanish mexanizmlari va boshqa kimyoviy bo'lmagan turlaridan sifat jihatidan farq qiladi.

Kompyuter o'yini bunday kompensatsiya usullaridan biri bo'lishi mumkin, chunki u faoliyatga va ichki qadriyatlar tizimiga muqobil bo'lgan ikkita asosiy kompensatsiya mexanizmini o'z ichiga oladi. Bu hayotning tashqi va ichki bog'liqliklarini hisobga olmaydigan, bir lahzalik impulslarga bo'ysunadigan real bo'lmagan narsalarni amalga oshirish orqali ijobiy va salbiy hissiy holatlardan qochishdir.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish kompyuter va kompyuter o'yinlarining bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri masalasini hal qilishda ikkita tubdan farqli yondashuvni aniqlashga imkon berdi.

Birinchi yo'nalish tadqiqotchilari (S.Bodker, I.G.Belavina, N.A.Sadovskaya, V.D.Gorskiy, S.A.Shapkin, E.E.Lisenko va boshqalar) fikricha, kompyuter o'yinlari bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi kompyuter ko'nikmalariga ega bo'lgan bola tezda xatti-harakatlar yoki o'z-o'zini o'rganish strategiyasini tanlaydi, u fikrlashning algoritmik uslubini rivojlantiradi.

Ikkinchi yo'nalish mualliflari (K.Yang, D.Grinfeld, K.Surratt, O.V.Doronina, O.K.Tixomirova, A.O.Proxorov, A.E.Serejkina, A.N.Oxovikov, L.P.Guryeva, A.E. Voiskunskiy va boshqalar) kompyuter o'yinlarining tez-tez o'tkazilishiga ishonishadi. Virtual dunyo uchun odatni rivojlantirishga hissa qo'shish, bema'ni o'yin-kulgi va maqsadlarga erishishda qulaylik, sabr-toqatni yo'qotish va irodani zaiflashtirish, buning natijasida bola haqiqiy dunyoni yetarli darajada idrok etmasligi mumkin.

Bizning fikrimizcha, kompyuter o'yinlariga qaramlik fenomenini o'rganish o'smirlik davrida, o'z-o'zini bilish va o'z taqdirini o'zi belgilash zarurati paydo bo'lganda, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo muloqot jadal shakllangan, mantiqiy va nazariy fikrlash rivojlanayotganda alohida ahamiyatga ega, sifat o'zgarishlar tengdoshlarni baholashda, shuningdek, kattalar bilan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot L.I. Bojovich, L.S. Vigotskiy, F. Dolto, V.I. Slobodchikova, D.I. Feldstein, V. Stern, D.B. Elkonin, E.Erikson va boshqalar o'smirlik davrini shaxsning shakllanishi, uning sotsializatsiyasidagi eng muhim davr sifatida tavsiflashga imkon beradi. Aynan shu davrda axloqiy qadriyatlar, hayot istiqbollari shakllanadi, o'z-o'zini anglash, o'z imkoniyatlari, qobiliyatlari, qiziqishlari, o'zini his qilish va kattalar bo'lish istagi, tengdoshlari bilan muloqot qilish istagi paydo bo'ladi, ular ichida umumiy qarashlar mavjud.

Erta o'smirlik davrida shaxsiyat rivojlanishining shakllanish darajasi va ularning keyingi rivojlanishi ko'p jihatdan shaxsning hayot yo'lini belgilaydi, shaxsiyatning yangi shakllarining paydo bo'lishi uchun asosdir.

O'yin kompyuteriga qaramlikning yosh o'smirning aqliy va shaxsiy rivojlanishiga ta'siri muammosi yetarlicha o'rganilmagan. Psixologik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, yosh o'smirlik davrida kompyuter o'yinlariga qaramlikning xususiyatlarini aniqlaydigan psixologik omillar, shartlar va mexanizmlar masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Zamonaviy bolalar kompyuter o'yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib, ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va o'smirni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. O'smirlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas. Shu sababdan kattalar farzand tug'ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan to'g'ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog'i manbalari zamonamiz o'smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmashimiz zarur.

Yaqindagina ota-onalar bolalarning kompyuter o'yinlariga berilib, ularga bog'lanib qolishlari xavfidan cho'chib, oldini olishga harakat qilgan bo'lsalar, hozirgi vaqtda bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qo'shildi. Bolalar va o'smirlarning hovli va ko'chalardagi muloqotlari hozirda haqiqiy hayotdan asosan, aynan, cheti- chegarasi yo'q ijtimoiy tarmoqlarga ko'chdi. Mazkur muloqotlar bolalarga shunisi bilan ham qiziqroqki, avvalo, tarmoqda o'zlariga ko'proq «do'st» orttirish imkoni mavjud. Tarmoqda muloqot qilarkan, bolalar o'zlarini omadli bola qilib ko'rsata oladilar. O'zgaralar ro'lida o'zlarini taqdim etib, turli yolg'on dunyolarga berilib ketadilar. Uyatchang va tortinchoq bolalar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlarini bordir, vaqti kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o'z samarasini berishi ham mumkin.

Internet - bu deyarli barcha qiziqishlarni qondirish makonidir. Ba'zan tarmoqda ayrim axborotlarni izlab o'tirishning ham hojati bo'lmaydi. Ular har yerda o'zlari taqdim etilaverishi sababli osongina erishish mumkin. Zamonaviy pedagog va psixologlar hozirga qadar virtual muloqot bola shaxsiy shakllanishiga qanday ta'sir etishi haqida bir xulosaga kelmaganlar. Ayrimlar bu faqat salbiy xususiyatlarnigina shakllantiradi deb bilib, bolalarning insonlararo munisabatlarida o'zlarini tutish, his- tuyg'ularini namoyon etish va mimikalariga yomon ta'sir etishini ta'kidlasalar, boshqalar virtual muloqot - zamonaviy kommunikatsiyaning juda qulay va yengil usulidir deb biladilar. Bolani Internetda muloqot qilishga o'rganib borishida, ularga tarmoqda umuman, o'z shaxsiy ma'lumotlari, uy telefoni raqami, manzili, shuningdek, ota-ona va yaqinlarining shaxsiy ma'lumotlarini berish mumkin emasligini tushuntirish zarur. Virtual «do'stlari» orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko'ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta'kidlashlari zarur.

Bunday muloqotlar ko'pincha kiberjinoyatchilar uchun juda qulay sharoit ekanligini har bir o'smir bilmog'i lozim. Ommaviy tarqatiladigan spam, iltimos bilan murojaat etiladigan SMS xabarlar, allaqanday shubhali «Tanlov»lar haqidagi e'lonlarga ishonmaslik -umuman, kompyuterga zanjirsiz bog'lanib, butun hayot yo'lini qora dog' bilan bulg'ashiga olib kelishi mumkin bo'lgan xavfli axborotlarga aldanmaslikni onglariga singdirish zarur.

Bugungi kunda ayrim ommaviy ijtimoiy tarmoqlarda 13 yoshga to'lmagan bolalarni ro'yxatga olmaslik uchun cheklovlar qo'yilgan. Ayrim kompyuter operatsion tizimlarida ham «ota-ona» nazorati funksiyasi mavjud bo'lib, bolalarni tizimdan foydalanish vaqtlariga cheklov qo'yish imkoni mavjud. U kompyuterdan o'rnatilgan vaqtdan ortiqcha foydalanish imkonini bermaydi va avtomatik ravishda ishini to'xtatadi. Agar farzandingizga kompyuter sotib olib, undan bilimlari doirasini kengaytirish maqsadida foydalanishiga ruxsat bergan ekansiz, bu bilan o'zingizning ham oldingizga mas'uliyatli vazifalar paydo bo'lganini unutmashingiz zarur. Ayrim mamlakatlarda bolalarning o'z tarmoqlari mavjud bo'lib, ularda: ovozli o'yinlar, multfilmlar, harflari yirik shriftida va bolalarga mos tushunarli tilda bayon etilgan matnlar berilgan. Mazkur saytlar kattalar ham kirib, ularni o'rganishlari imkoni mavjud. Bunday tarmoq manbalarida bolalarga haqiqiy hayotdagi kabi virtual olamda ham tartib-intizom qoidalari mavjudligini tushuntirib borish eng birinchi navbatdagi vazifadir. Kompyuter va axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) taraqqiyoti davrida tug'ilib, ulg'ayayotgan bolalar AKT sohasida dolzarb bilim va malakalarni jajji kichkintoy

davrilaridanoq o‘zlashtirib bormoqdalar. Ayrim sohalarda hatto kattalarga qaraganda, ko‘proq bilimga ega ekanliklari hech kimni taajjubga ham solmay qo‘ydi. Biroq shunday bo‘lsada, har qanday xavf-hatarning oldini olish maqsadida, ularga ko‘z- quloq bo‘lish va Internet haqiqiy hayotdan uzoq ekanligi, undagi ko‘plab manbalar haqiqatga to‘g‘ri kelmasligini tushuntirish biz kattalarning kechiktirib bo‘lmaydigan vazifamiz hisoblanadi.

Xalqimizga xos, asrlar osha shakllangan ta‘lim-tarbiya usullari qatorida farzandlarning kundalik hayoti, ularning nimalar bilan shug‘ullanayotganliklaridan o‘z vaqtida voqif bo‘lib borish talabi ham mavjud. Mana shu ota-bobolarimizdan qolgan tarbiyaviy usullarni har qanday davrda ham unutmazlik hamda o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashimiz zarur.

Bundan tashqari, hozirgi davrda jahonning qator davlatlarida o‘z salbiy ta‘sirini namoyon etib ulgurgan. Internet tarmog‘idan bolalarni himoya etishga xizmat qiluvchi texnik imkoniyatlar mavjud - bu maxsus dasturlar bo‘lib, ular aynan salbiy ta‘sir etuvchi, axloqsizlik, yomon odatlarni targ‘ib qiluvchi saytlarning ochilishiga yo‘l bermaydi, ya‘ni agar o‘smir shunday axborotlarni hatto izlash tizimiga kiritisa, izlash natijalari samarasiz bo‘ladi¹.

Psixologik nuqtai nazardan, tarmoq quyidagi xavfli ta‘sirga ega: zamonamizning salbiy ta‘sirga ega yomon illatlari qatorida, Internet tarmog‘iga bog‘lanib qolish;

- o‘qish va bilim olishga yengiltaklik bilan munosabatda bo‘lish. Internetdan tayyor dars ishlanmalari, matematik masalalar yechimlarini osongina topish hisobiga dars topshiriqlarini mustaqil bajarmaslik;

- jismoniy rivojlanishiga salbiy ta‘sir xavfi, ya‘ni bolaning faol harakatda bo‘lmay, uzoq vaqt monitor ro‘parasida o‘tirishiga to‘g‘ri kelishi va boshqalar.

- Mazkur xavflarning oldini olish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e‘tibor qaratish zarur:

- farzandingiz tarmoqdan foydalanmoqchi bo‘lganida uni nazoratdan chetda qoldirmang;

- farzandingiz ongiga yuqoriga sanab o‘tilgan xavfli jihatlardan himoyalani odatlarini singdirib boring;

- farzandingizning tarmoqqa birinchi qadamlaridanoq, Internetda faqatgina «yaxshi» emas, balki «yomon» axborotlarni ham uchratishi mumkinligini tushuntiring;

- farzandingizga tarmoqqa kirishda ro‘yxatdan o‘tish qoidalarini, ya‘ni shaxsiy ma‘lumotlarni berish mumkin emasligini tushuntiring;

- Internetdan biror manbani saqlab olishda e‘tibor qaratish zarur bo‘lgan qoidalarini tushuntiring;

- farzandingizga tarmoqda ham haqiqiy hayotdagi kabi tartib-intizom qoidalarini unutmazlik zarurligini ta‘kidlang;

- farzandingizning Internetdan foydalanishida «ota-ona nazorati» dasturlaridan foydalaning va cheklovlarni o‘rnating;

- har kuni farzandingiz muloqotlarini kuzatib borishni o‘zingizga odat qiling;

- farzandingiz va o‘zingizning kompyuter savodxonligingizni muntazam rivojlantirib boring;

- O‘z bilimlaringiz bilan o‘rtoqlashing. Internet xavfsizligi sizning bu boradagi bilim va malakangizga ham bog‘liq ekanligini unutmang.

Tadqiqotimizda o‘zgartirilgan metodologiyadan foydalanish maktab sharoitida samarali tashxis qo‘yish va 7-9-sinf o‘quvchilarida kompyuterga qaramlikning shakllanish darajasi va uning darajasi haqida ishonchli ma‘lumot olish imkonini berdi.

Tajribada 112 nafar o‘quvchi, jumladan, 13 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan 62 nafar qiz va 50 nafar o‘g‘il bolalar ishtirok etdi. So‘rov ma‘lumotlarining miqdoriy tahlili o‘smirlar o‘rtasida kompyuterga qaramlikning rivojlanishining to‘rtta darajasini aniqladi (1-rasmga qarang):


1) kompyuterga qaramlik xavfi bo‘lmagan o‘smirlar;

2) kompyuterni yaxshi ko‘radigan o‘smirlar;

3) kompyuterga qaramlik xavfi ostida bo‘lgan o‘smirlar;

4) kompyuterga qaram bo‘lgan o‘smirlar.

¹ О. С. Юсупова, & С. М. Умирова, Отношение формы и содержания в художественно-эстетическом выражении. Научный вестник scientific reports, 127.



1-rasm. Kompyuterga qaramlik darajalarining nisbati (L.N.Yuryeva va T.Yu.Bolbot metodikasi bo'yicha)

Rasm shuni ko'rsatadiki, biz so'rov o'tkazgan talabalarning 30 foizi kompyuterga qaramlik xavfi yo'q. Ularning hech biri kompyuterda bo'lishni kutishmaydi, kayfiyatini yaxshilash uchun kompyuterga qaytishga hojat yo'q va ularning hech biri kompyuterda qancha vaqt sarflaganligi haqida yolg'on gapirishga hojat yo'q. Ushbu guruh talabalari bilan hech qanday muammo yo'q edi kompyuterda ishlashni to'xtatish va kompyuterda o'tkaziladigan vaqtni tartibga solish. Qo'shimcha savollarga javoblar kompyuterni qo'llashning asosiy sohasi o'qishdir - darslarga tayyorgarlik ko'rishda ma'lumot qidirish uchun kompyuter kerak degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Xuddi shu kompyuter filmlarni tomosha qilish va ijtimoiy tarmoqlarda do'stlar bilan yozishmalar uchun ishlatiladi. Barcha respondentlar brauzer o'yinlarini (zombi fermasi, qamoqxona), mantiqiy o'yinlarni (karta o'yinlari, jumboq o'yinlari), viktorina o'yinlarini afzal ko'radi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu guruhga kiritilgan barcha suhbatdosh talabalar turli xil sevimli mashg'ulotlariga ega, ko'pchilik jiddiy natijalarga erishgan. Bu darajadagi kompyuter bo'sh vaqtni o'tkazish usulidan ko'ra ko'proq ishlaydigan vositadir, qaramlikning paydo bo'lishi uchun hech qanday shartlar yo'q.

G'ayrat bosqichida so'rovda qatnashgan talabalarning 43 foizi bor, bu taqdim etilgan tanlovning ko'p qismini tashkil qiladi. Bu bosqich kompyuter resurslaridan foydalanishga yuqori qiziqish bilan tavsiflanadi. Ishtiyoq kompyuterda ishlashga hissiy munosabatning paydo bo'lishi va o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq ba'zi muammolar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, respondentlar vaqti-vaqti bilan kompyuterda ishlaganda kayfiyatning ko'tarilishini sezishlarini va shu bilan birga unga ko'proq vaqt sarflash zarurligini his qilishlarini ta'kidladilar. Ba'zida kompyuterda ishni tugatish kerak bo'lganda muammolar paydo bo'ladi. Shu bilan birga, hech kim virtual makondan tashqarida asabiylashish, uyqu buzilishi, o'rganish uchun tahdidlar va fiziologik muammolar mavjudligini qayd etmadi. Ushbu toifadagi ko'plab o'quvchilarning sevimli mashg'ulotlari bor, ular turli bo'limlar va to'garaklarga qatnashadilar. Kompyuterda ular film tomosha qilishni, ma'lumot qidirishni, o'yin o'ynashni afzal ko'radilar. Asosan brauzer o'yinlariga ustunlik beriladi, ammo oldingi darajadan farqli o'laroq, ko'plab respondentlar otishma o'yinlarini, poyga simulyatorlarini, strategiyalarni, rol o'ynash o'yinlarini o'ynaydi.

Kompyuterga qaramlik xavfi guruhi so'ralgan talabalarning 20 foizini tashkil qiladi. Ular virtual haqiqatga yuqori hissiy munosabat, kompyuterda o'tkaziladigan vaqtni ko'paytirish, kompyuterda ishlashda o'z-o'zini boshqarish bilan bog'liq muammolarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab talabalar ko'pincha kompyuterda o'tkazgan vaqtlari haqida yolg'on gapirishadi va kompyuterdan ortiqcha foydalanish tufayli o'qishlarida muammolar paydo bo'lishini qayd etishadi. Qo'shimcha savollarga berilgan javoblar natijalariga ko'ra, sinfdan tashqari mashg'ulotlar ushbu toifadagi to'rt nafar o'quvchi tomonidan tashkil etilgani ma'lum bo'ldi. Kompyuterda talabalar o'qishni, ijtimoiy tarmoqlarda o'tirishni va kompyuter o'yinlarini o'ynashni afzal ko'radilar. Mavjud o'yinlar statistik ozchilik tomonidan otishmalar, turli xil onlayn o'yinlar, rolli o'yinlar, brauzer o'yinlari ustunlik qilgan.

O'tkazilgan metodologiya natijalariga ko'ra kompyuterga qaramlik aniqlangan o'smirlar tanlovning 7 foizini tashkil qiladi.

Shunday qilib, tadqiqot natijasida biz so'ralgan 112 nafar o'smirning 30 foizida kompyuterga qaramlik

xavfi yo'qligi va 43 foizi virtual haqiqatni etarli darajada idrok etadigan va kompyuterga qaramlik xavfi bo'lmagan maktab o'quvchilari ekanligini aniqladik. Kompyuterga qaramlikning turli shakllarini rivojlanishi uchun xavf guruhi biz so'rov o'tkazgan o'smirlarning 20 foizini tashkil qiladi. Ular kompyuterga qaramlikning oldini olishga va maktab hayotiga yanada faolroq jalb qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarga muhtoj. Biz so'rov o'tkazgan maktab o'quvchilarining 7 foizi kompyuterga qaramlikka ega. Kompyuter bu o'smirlarning ijtimoiylashuvida muhim to'siq bo'lib, giyohvandlik ularning o'qishiga ta'sir qiladi, ijtimoiy aloqalarni buzadi va passiv turmush tarzini shakllantiradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish zarur, ammo salbiy oqibatlarni ham hisobga olgan holda, doimiy nazorat va tushuntirish ishlarining ular ongiga singdirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Axborotlar oqimidan foydalanish bo'yicha yoshlarda sog'lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o'rgatish bilan birga, salbiy oqibatlarini ham aytib o'tish kerak. Ayrim hollarda virtuallashuv jarayonining jaddalashishi o'smirda ijtimoiy munosabatlarni yomon kechishiga olib kelishi mumkin.

Kompyuterga qaramlik muammosini nazariy tahlil qilish natijasida biz kompyuterga qaramlikning oldini olish tamoyillarini shakllantirdik, giyohvandlik xulq-atvorining oldini olish o'smirlik davrida alohida ahamiyatga ega ekanligini aniqladik, ammo bu muammoga duch kelganlarga alohida e'tibor berish kerak. Hozirgi kunda kompyuterga qaramlikning oldini olish muammosi pedagogika fanida yangi, yetarlicha o'rganilmagan yo'nalish hisoblanadi. Bu boradagi profilaktika ishlarini olib borishda umumta'lim muassasalarida katta imkoniyatlar mavjud.

Adabiyotlar:

1. Ananiyev B.G. Zamonaviy inson bilimlari muammolari haqida. M., 2007; Lomov B.F. Psixologiyaning metodologik va nazariy muammolari. M., 2015 yil.
2. Юсупова, О. С & Умирова С. М., Отношение формы и содержания в художественно-эстетическом выражении. Научный вестник Scientific Reports, 127.
3. Utanova, U., (2021). “Kompyuter axborot madaniyati”- submadaniyatning vujudga kelishi. Kamoliddin Behzod nomiдаги Milliy rassomlik va dizayn instituti Axborotnomasi ilmiy-amaliy jurnali, 5(03), 62-66.
4. Saxarov A.B. Shaxsiy jinoiy xatti-harakatlarning sabablari va shartlari. M., 1995. S.15-18.
5. Otabaeva, F.T. (2019). Technology using the case-study method in the study of computer graphics. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(12), 348-355.
6. Abduazizova N. Milliy mafkura va axborot makoni. //O'zbekiston matbuoti, 2020. 5-son, 12-b.
7. Sanjar Sodiq. Radiojurnalistika asoslari: audiovizual jurnalistika. O'quv qo'llanma. –T.: Mumtoz so'z, 2019. – 72 b.
8. Olimov L, Avezov O. Social Psychological Characteristics of Psychological Defenses Manifested in Adolescents in Extreme Situations. International Journal of Scientific & Technology Research. Volume 9, issue 02, February 2020. P 2784-2786.

UDK: (159.9)

*Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna,
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
"Yoshlar psixologiyasi" kafedrasida dotsenti v.b.ps.f.b.f.d.(PhD)
JDPU dotsenti, ps.f.b.f.d.G.Qarshiboyeva taqrizi asosida*

O'SMIRLIK DAVRIDAGI FARZANLARDAGI YUZAGA KELADIGAN INQIROZLI VAZIYATLARNING NAZARIY JIHATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda psixologiya sohada olib borilayotgan izlanishlar, yangiliklar haqida yoritilgan bo'lib, "inqiroz", "yosh davrlar", "suitsid" tushunchalari va inqirozli holatlarning mohiyati hamda o'smirlik yoshi davridagi farzandlarda yuzaga keladigan inqirozli vaziyatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ochib berilib, amaliy tavsiyalar berilgan.

Kallit so'zlar: o'smir, inqiroz, yosh davrlar, suitsid, ota-ona, shaxs, xulq-atvor, negativizm, farzand.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ КРИЗИСНЫХ СИТУАЦИЙ, ВОЗНИКАЮЩИХ У ДЕТЕЙ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье описаны исследования и новшества, которые проводятся в области психологии на сегодняшний день, понятия «кризис», «периоды молодости», «самоубийство» и сущность кризисных ситуаций, а также социально-психологическая характеристика кризиса, ситуации, возникающие у детей в подростковом возрасте, и даны практические рекомендации.

Ключевые слова: подросток, кризис, юность, суицид, родители, личность, поведение, негативизм, ребенок.

THEORETICAL ASPECTS OF CRISIS SITUATIONS OCCURRING IN ADOLESCENT CHILDREN

Abstract: This article describes the research and news that are being carried out in the field of psychology today, the concepts of "crisis", "periods of youth", "suicide" and the essence of crisis situations, as well as the socio-psychological characteristics of the crisis, situations that arise in children in adolescence, and practical recommendations are given.

Key words: teenager, crisis, youth, suicide, parents, personality, behavior, negativism, child.

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda. Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Xarakterlar strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishining to'rtinchi bosqichida maktabgacha ta'lim muassasalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, mamlakatimizda istiqbol yillarida, barcha jabhalarda bo'lgani kabi, ta'lim tizimida ham keng ko'lamlil islohotlar amalga oshirilmoqda. Tarbiyalanuvchi, o'quvchi-yoshlar qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish, aniq maqsadni ko'zlagan holda ular bilan ishlash tizimini takomillashtirish, ushbu yo'nalishda oila, mahalla va jamoatchilik hamkorligini kuchaytirish, jamoatchilik e'tiborini o'quv-tarbiya jarayoniga, tarbiyalanuvchi, o'quvchi-yoshlar shaxsini rivojlantirishga jalb etish yo'nalishidagi ishlar kuchaytirilmoqda. Ta'kidlash joizki, yuqorida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmat ham oxirgi o'rinda emas. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi, avvalambor, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bog'liq" [1] deb aytgan fikrlarini misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. (Literature review). Bugungi kunda psixologlarning oldida turgan dolzarb muammolardan biri bu - inqirozli vaziyatlarda shaxsda kelib chiqadigan turli sohadagi buzilishlarni yanada chuqurroq o'rganish, oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbir etishdan iboratdir. Chunki inqirozli vaziyatlarda kelib chiqadigan turli darajadagi psixologik buzilishlar oqibatida shaxsning ruhiy muvozanatiga zarar yetadi, shaxslararo munosabatlarida qiyinchiliklar, jamiyatda yakkalanish kuzatiladi, hayot va faoliyatida kamchiliklar, kelajagiga nisbatan ishonchsizlik, umidsizlik, yomon, tushkun kayfiyat ortib boradi. Oxir oqibatda esa bunday holat inson tomonidan og'riqli qabul qilinib,

ruhiy azoblar iskanjasida qoladi. Ruhiy iztiroblarni, qayg‘uni ko‘tara olmaslik natijasida bazan o‘z joniga qasd qilish, suitsidal xulq – atvor yaqqol namoyon bo‘la boshlaydi. Inqirozli vaziyatlar, shaxs rivojlanishida o‘smirlik davrining bosqichi, o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini E. Spranger, S. Xollari ta‘riflab o‘tishgan.[2]

Psixologlar N.A.Menchinskaya va V.S.Muxinalarning ta‘kidlashlaricha, bu davrdagi ziddiyatda bolalardagi injiqliklarning bosh omili atrofda odamlarning ular shaxsiga adolatsiz, noto‘g‘ri, mensimay munosabatda bo‘lishidan iboratdir deb ta‘kidlashgan. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarini o‘rgangan A.N.Golubevaning fikricha esa, noqulay sharoitda bolaga tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatish unda o‘jarlikni paydo qilishi haqida aytib o‘tgan. Shuningdek bu yoshdagi bolalarning o‘jarligi doimiy bo‘lmaydi, masalan o‘z tengdoshlariga nisbatan o‘jarlik qilish ahyon-ahyondagina ro‘y beradi. Ular asosan katta yoshdagi odamlarga, shunda ham muayyan tarbiyachiga yoki oila a‘zolarining birortasiga o‘jarlik qiladilar. A.N.Golubeva bolalardagi o‘jarlik barqaror emasligi sababli uning oldini olish mumkinligini uqtirib o‘tadi. A.P.Larinning tadqiqotlarida esa noqulay va nomaqbul tarbiyaviy shart-sharoitlarda qaysarlik juda erta, hatto uch yoshda ham paydo bo‘lishi ifodalangan. Darhaqiqat, noqulay shart-sharoitlar bolalarga salbiy ta‘sir qilib, unda erta o‘jarlik paydo bo‘lishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Insonning kundalik ehtiyojlari, ularning bir-biri bilan o‘zaro muloqotga kirishishi va insonlar orasidagi munosabatlar bevosita insonning bilimi, dunyoqarashi, layoqati hamda tafakkuri asosida yuzaga keladi. Insonlarning psixik jihatdan sog‘lom, me‘yorida rivojlanishida, ularni ruhiy inqirozdan og‘riqli kechinmalaridan va umidsizlikdan olib chiqishda psixologlarning roli kattadir.

Jumladan, shaxsning kamol topishi murakkab jarayon ekanligini unda yosh o‘sishi bilan bog‘liq holda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar va yangilanishlarning xilma-xilligi hamda o‘ziga xosligida ko‘rish mumkin. Demak, bolaning biologik jihatdan o‘sishi uning psixikasida ham o‘shish va o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Ammo biologik o‘shish bilan psixik o‘zgarishlar har doim ham mutanosiblikka ega bo‘lavermaydi. Chunki psixik o‘shish bir tomondan individuallik xarakteriga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan u ma‘lum ijtimoiy va psixik shart-sharoitlarga ham bog‘liq bo‘ladi. Bolada sodir bo‘ladigan psixik o‘shish, o‘zgarish real hayotda o‘z o‘rni va mavqeiga ega bo‘lishi biroz murakkabroq kechadi. Buning sababi bir tomondan bolada hali yetarlicha tajribaning yetishmasligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan kattalarning boladagi ehtiyoj va intilishlari ortida turgan rivojlanish xususiyatlarini to‘liq anglab yetmasliklaridadir. Natijada esa bolalar va kattalarning munosabatlarida keskin vaziyatlar vujudga keladi. Bunday vaziyatlar tufayli bolalar va kattalarning boshdan kechiradigan psixik kechinmalari, holatlari psixologik tilda inqiroz tushunchasi bilan ifodalanadi. Shu o‘rinda inqiroz tushunchasiga ta‘rif bersak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Inqiroz — taraqqiyotda orqaga ketish, tanazzul degan ma‘noni anglatadi. Har qanday ob‘yekt o‘zining rivojlanishi mobaynida paydo bo‘lish, ulg‘ayish, pasayish va halok bo‘lish bosqichlaridan o‘tadi. Har qanday tizim (ob‘yekt)ning nisbatan yuqori darajada shakllangan holatidan quyi darajadagi holatga o‘tish jarayoni inqiroz davri deyiladi.[3]

Darhaqiqat, yosh davri inqirozi – bu rivojlanish jarayonida nisbatan qisqa davom etadigan davr hisoblanadi va u inson ruhiyatida yuz beradigan psixologik o‘zgarishlar hamda insonlarning bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o‘tish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarda, faoliyatida, ong sohasidagi sifatli qayta qurishlar bilan xarakterlanadi.

Insonning umri davomida eng yorqin namoyon bo‘ladigan bir necha inqirozlar mavjud. Bular:

1. Chaqaloqlik inqirozi
2. Uch yoshlik inqirozi
3. O‘smirlik inqirozi
4. O‘rta yosh inqirozi

Shu o‘rinda insonlar umri mobaynida boshidan kechiradigan inqiroz davrining har bir turiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Chaqaloqlik inqirozi. Inson hayotidagi birinchi inqiroz - chaqaloqlik inqirozi (0-2 oygacha). Bu davrda inqirozning belgisi – tug‘ilganining dastlabki kunlarida bola og‘irligini yo‘qotishi hisoblanadi. Chaqaloqni o‘rab turgan ijtimoiy vaziyat o‘ziga xos va qaytarilmas bo‘lib, 2 jihat bilan belgilanadi. Bir tomondan, bola biologik jihatdan batamom himoyasiz, u kattalarning ko‘magisiz bironta hayotiy ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Demak, chaqaloq – maksimal jihatdan ijtimoiy mavjudot. Boshqa tarafdin kattalarga maksimal darajada bog‘liq bo‘lgan holda u insoniy nutq shaklidagi muloqot vositalaridan ham mahrum. Maksimal ijtimoiylik hamda minimal darajadagi muloqot vositalari o‘rtasidagi qarama-qarshilik go‘daklik darida psixik rivojlanish asosi hisoblanadi. Ushbu davrdagi yangi tuzilma – bola individual psixik hayotining vujudga

kelishidir. Bu bosqichdagi yangilik bolaning ona organizmidan alohida yashashi hamda unda psixik hayotning boshlanishi.

Uch yosh inqirozi. Bu inqiroz keskin kechuvchi inqirozlardan biri bo‘lib, bu davr uchun xarakterli jihat – bola boshqarib bo‘lmaydigan, g‘azabli xulqatvorni namoyon qilishidir. Ushbu davr kattalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab, qiyin davr hisoblanadi.

Uch yosh inqirozi belgilari (simptomlari):

- Negativizm (kattalarning talablari mazmuniga emas, jarayonning o‘ziga reaksiya qilish, o‘z istaklariga qarshi borsa ham, aksini qilishga intilish).

- O‘jarlik (bola o‘zi shu narsani istayotganligi uchun emas, balki talab qilishni qaror qilganligi uchun qat’iyatlilik namoyon qiladi).

- Qaysarlik (bu – uch yoshgacha bo‘lgan davrda tarkib topgan hayot tarzi, tarbiya normalariga qarshi qaratilgan xulq-atvor).

– O‘z irodasiga erk berish (hamma narsani o‘zi bajarishga intilish).

- Norozilik (bolaning atrofadagilar bilan nizolashish va urishish holati).

-Ota-onani qadrsizlash (bola ota-onasini jahlini chiqarishi, urishishi, haqoratlashishida namoyon bo‘ladi).

- Despotizm (bola ota-onasini o‘zi talab qilayotgan barcha narsalarni bajarishga majbur qiladi. O‘zidan kichik uka va singillariga rashq qilishi).

O‘smirlik davri inqirozi. Yosh davrlar taraqqiyotida esa o‘smirlik davri boshqa davrlarga qaraganda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘smirlik davri taqlidchanligi, muqim nuqtai nazarning shakllanmaganligi, hissiyotlilik, mardligi, tantiligi bilan boshqa davrlardan farq qiladi. Shuning uchun ham tashqi ta’sirlarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il-qizlarga ota-onalar bu davrda alohida e’tibor berish zarur. Chunki o‘smirlik davrida bolada bolalik holatidan kattalik holatiga o‘tish sodir bo‘ladi.

O‘smirlik davri haqida ayrim maxsus adabiyotlarda ham turlicha ta’riflar berilgan. Jumladan, o‘smirlik davri – insonni bolalikdan yoshlikka o‘tuvchi va o‘z navbatida boshqa davrlardan o‘zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turuvchi davridir. Bu davr bolalarning 5-8 sinflarda o‘qish davriga to‘g‘ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davr oralig‘ida kechadi va “o‘tish davri”, “og‘ir davr”, “inqiroz davri” kabi nomlar bilan ham ataladi.[4]

O‘smirlik davrida bolada xarakter xususiyatlarining ijtimoiy jihatdan muhim bo‘lgan shaxsiy sifatleri shakllanadi. Jumladan, muloqot va xulqning barqaror shakllari, insonlarga, voqealarga va vaziyatlarga hissiy munosabat usullari tarkib topib shakllana boshlaydi. Shu bilan birga bu davr o‘z-o‘zini anglash va bolalarcha dunyoqarashning o‘zgarishi, o‘z “Men”ining namoyon bo‘lishi, o‘zining imkoniyati va qobiliyatlari, o‘z-o‘ziga noadekvat baho berishi bilan xarakterlanadi. Bu yosh davrida bolalardagi o‘z-o‘ziga ishonchsizlik hususiyati shakllanishining oldini olish, aniqlangan kamchilikni o‘z vaqtida korrektsiya qilish bolalarda faollikni shakllantirishda asosiy talab hisoblanadi.

O‘rta yosh inqirozi. Inson umrining o‘rtalarida yuzaga keluvchi o‘rta yosh inqirozi davri – bu inson hayotini tanqidiy jihatdan tahlil qilish va baholash davri. Bunda ayrim insonlar o‘z imkoniyatlari cho‘qqisiga erishganliklaridan qoniqish hissini kechsalar, boshqalar uchun esa bosib o‘tgan hayotiy yo‘llarini tahlil qilish og‘riqli jarayon bo‘lishi mumkin. Soch oqarishi, tana og‘irligining ortishi, menapauza kabi me’yoriy omillar ajralish yoki ishdan bo‘shash kabi nome’yoriy hodisalar bilan uyg‘un kelganda stressni yuzaga keltirishi mumkinligiga qaramay, agar ular hayotning normal holatlari sifatida qaralsa, o‘rta yosh inqirozini paydo bo‘lish ehtimoli sezilarli tarzda kamayishi mumkin.

40 yosh (ba’zan avvalroq yoki keyinroq) inson shu vaqtgacha bo‘lgan vaqt mobaynida hayotida erishganlarini tanqidiy jihatdan baholash davri bo‘lib, bu davrda salomatlik zaiflashuvining dastlabki belgilari vujudga keladi, go‘zallik va jismoniy formani yo‘qotish, oilada katta yoshli farzandlari bilan munosabatlardan uzoqlashish, endi hayotda, mansabga erishishda yutuqlarga erishmaslikdan xavfsirash kuzatiladi. Bu psixologik fenomen o‘rta yosh inqirozi deb ataladi. Inson bosib o‘tgan hayotiy yo‘lini tanqidiy tahlil qilishi va baholashi natijasida ko‘pincha “hayoti behuda o‘tganligi va barcha narsa boy berilganligini anglaydi”. Inson umri davomida yuzaga keladigan bu inqirozlar tabiiy, normal holat bo‘lib, o‘tkinchi xarakterga ega. Atrofdagilarning qo‘llab-quvvatlashi, inqirozni boshdan kechirayotgan shaxsni to‘g‘ri tushunishi hamda bu holatdan chiqib ketishga yordamlashishi, unga psixologik jihatdan madad berishi muhim.

-Tahlil va natijalar (Analysis and results). O‘smirlik davrida bolalarda yuzaga keladigan inqiroz quyidagi belgilari bilan ajralib turadi. Ya’ni bu inqiroz belgisi negativizm deb yuritiladi. Negativizm bu – kattalar talablariga uning mazmuniga qarab emas, balki talab aynan ular tomonidan qo‘yilayotganiga reaksiya ko‘rsatish bo‘lib, o‘z xohishlariga qarshi borib bo‘lsa ham kattalar talablarini aksini qilish.

O'smirning atrof-dagilar bilan munosabatlarida agressiv, janjallarga moyil, intizomni tez-tez buzish hollari uchraydi. Shu bilan birga ichki xotirjamlikning mavjud emasligi, o'zidan qoniqmaslik, yolg'izlikka intilish kuzatiladi. O'g'il bolalarda negativizm qizlarga nisbatan yorqinroq va tez-tez kuzatiladi hamda qizlarga nisbatan kechroq, taxminan, 14-15 yoshlarda boshlanadi. Inqiroz vaqtida o'smirlar xulq-atvori doimo negativ xarakterda bo'lavermaydi.

Psixologlardan L.S.Vigotskiy ham xulq-atvorning uch xil variantini ko'rsatib o'tadi:

- negativizm o'smir hayotining barcha sohalarida aniq ifodalanadi. Bir necha hafta va undan uzoqroq davom etishi mumkin. Ta'sirchanlik, quloqsizlikda namoyon bo'lib, bu holat 20% o'smirlarda uchrashi mumkin.

- negativizm ba'zi hayotiy vaziyatlarda muhitning salbiy ta'sirlariga nisbatan yuzaga keladi (oilaviy nizolar, maktab vaziyati va h.k.) va deyarli 60% o'smirlarda kuzatilishi mumkin.

- negativ holatlar 20% o'smirlarda namoyon bo'lmasligi ham mumkin.

- o'quv faoliyati mahsuldorligini pasayishi. Ijodiy ish (masalan, insholar yozish) bajarishda regress namoyon bo'ladi. Mexanik tarzda bajariladigan vazifalarni avvaldagidek, yaxshi bajarishi mumkin. O'smirlar psixik dunyosini o'zgarishi, o'smir diqqat e'tiborini boshqa odamlarga qaratadi. Tafakkuri o'sishi bilan o'z-o'zini kuzatish, o'z hissiyotlarini anglash namoyon bo'ladi.

Ayrim psixolog olimlar esa o'smirlikni biogenetik o'sishning biologik omillariga, ya'ni jinsiy yetilishga alohida ahamiyat beradilar. Ularning fikricha, o'smirning psixik jihatdan inqirozga yetaklovchi, hayajonga soluvchi sub'yektiv ichki kechinmalari o'g'il va qiz bolalarda o'ziga xos holatni yuzaga keltiradi. O'smir uchun xarakterli hisoblangan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, shafqatsizlik, tajanglik, ginaxonlik kabi illatlar jinsiy yetilishning mahsuli, yangi tuyg'ular, mayllar, kechinmalar o'smir xatti-harakatlarida hukmron bo'lib, uning xulq-atvorini belgilaydi deb hisoblaydilar.

Psixik o'sishning boshqa davrlarida ro'y beradigan inqiroz davri ham huddi shunday tarzda kechadi, ammo turli davrda inqirozlarning sabablari turlicha bo'ladi. Jumladan: kichik maktab yoshida sodir bo'ladigan inqiroz ko'proq bolaning o'quv faoliyati jarayoni va uning kechishi bilan bog'liq holda kechadi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqei, sinf jamoasi va oila muhitidagi ahvolni o'zgartiradi, uning asosiy vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalarni egallash, tabiat va jamiyat to'g'risidagi qonuniyatlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Ta'lim muayyan darajada uyushqoqlik, intilish, irodaviy zo'r berish, faollik va maqsadga muvofiq faoliyatni talab etadi.

-Xulosa va takliflar (Conclision/Recommendations). Sir emaski, kundalik hayotimizda insonlarni tashvishga solib turadigan muammolar bo'lib turadi. Bundan hafa bo'lish kerak emas, chunki har bir odamning o'ziga xos muammolari bor. Inqirozli holat odam hayoti va faoliyatining buzilishidir. Uning oqibatida noadekvat ijtimoiy xulq – atvor, xatti – harakatlar, shuningdek asab – psixik va somatik holatining buzilishi kelib chiqadi. Shaxs inqirozli holatdan odatiy hayot tarziga qaytishi uchun ko'p kuch talab qilinadi, chunki insonlar inqirozga nisbatan munosabatini o'zining xulq – atvorni o'zgachaligi bilan almashtirishi mumkin. Shartsiz ravishda, har bir insonning inqirozdan so'ng shaxsiy tiklanish yo'li bor. Shuning uchun ham individual kechinmalarni tushunish va qadrlash kerak, ularni bartaraf qilish uchun sharoit yaratish, alohida hodisalar va me'yordagi hayotiy faoliyatiga o'tishiga tayyor turish lozim.

Demak, bu muammolarni o'rganish, profilaktika ishlarini olib borish inqirozli vaziyatlar oqibatida kelib chiqadigan bir qator salbiy holatlarni oldini olishga, har qanday og'ir vaziyatlarda o'zini-o'zi boshqara oladigan, sog'lom fikrlashga qodir bo'lgan shaxsni voyaga yetkazishga mustahkam poydevor yaratadi deb hisoblaymiz.

Shunga amal qilgan holda quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqdik:

- Inqirozli salbiy holatlarning oldini olishda har bir yosh davrlarida oilada ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

- Oilada va ta'lim muassasalarida inqirozli holatlarda o'smirlarga bo'sh vaqtdan unumli foydalanish yo'llarini o'rgata borish va uni nazorat qilish.

- Inqirozli holatlardan chiqishda oila, maxalla va maktab hamkorligini yana rivojlantirish.

- Inqirozli holatlarning oldini olishda bolaning qiziqish va qobiliyatini hisobga olgan holda to'garaklarga qatnashtirish.

- Har bir yosh davrning inqirozli holatlarida psixologik yordam ko'rsatish mahallalarda mutaxassislar tomonidan profilaktik tadbirlar o'tkazilib turishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev. Konstitutsiya-erkin va farovon hayotimiz, mamalakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir Toshkent: O‘zbekiston, 2017. -B.22
2. <https://minikar.ru/uz/eto-interesno/krizis-otrochestva-predpodrostkovyi-krizis-otrochestva/>
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Inqiroz>
4. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2008. -B.63.
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat Toshkent–TDPU, 2006.
6. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya Toshkent-2002
7. Ivanov P.I. Zufarova M. Umumiy psixologiya. Toshkent -2008
8. Karimova V.M. Psixologiya, Toshkent -Abdulla Qodiriy 2002



Kudratov Akmaljon Ibodillayevich,
Qarshi davlat universiteti Psixologiya kafedrasida tadqiqotchisi

SHAXSDA MA'NAVY EHTIYOJLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MODELINI

Annotatsiya: Maqolada shaxs ma'naviy ehtiyojlari shakllanishi, uni takomillashtirish va transformatsiyasi o'z ifodasini topdi. Shuningdek, ma'naviy ehtiyojlarning tarkib topishining ilmiy asoslari, shakllantirish omillari, shart-sharoitlar va uni transformatsiya qilishning ijtimoiy-psixologik modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ehtiyoj, ehtiyoj turlari, moddiy ehtiyoj, ma'naviy ehtiyoj, transformatsiya va boshqalar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНЫХ ПОТРЕБНОСТЕЙ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: В статье выражено формирование духовных потребностей человека, его совершенствование и преобразование. Также разработаны научные основы формирования духовной потребности, факторы формирования, условия и социально-психологическая модель её трансформации.

Ключевые слова: потребность, виды потребности, материальная потребность, духовная потребность, преобразование.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MODEL OF FORMATION OF SPIRITUAL NEEDS IN PERSON

Abstract: The article expresses the formation of the spiritual needs of a person, his improvement and transformation. Also developed are the scientific foundations for the formation of a spiritual need, the factors of formation, the conditions and the socio-psychological model of its transformation.

Key words: need, types of need, material need, spiritual need, transformation, etc.

Kirish. Shaxs ma'naviy ehtiyojlari transformatsiyasining ijtimoiy-psixologik modelini yaratish shaxs ehtiyojlarini shakllantirishning o'ta muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tarbiya nafaqat jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki o'z navbatida ularga ta'sir ko'rsatadi ham. Ma'naviy-psixologik tarbiyaning va umuman ma'naviy ishning maqsadi shaxs ongi va xulq-atvorini shakllantirishdan, bunday xulq-atvor tamoyillarini zamonaviy turmush tarziga mos keladigan qadriyatlar yo'nalishlari va ehtiyojlariga moslashdan iboratdir.

Shu bilan birga, ma'naviy-tarbiyaviy faoliyat zamonaviy jamiyatga xos ijtimoiy-psixologik jarayonlarning mazmuni va yo'naltirilganligi bilan belgilansa ham, unda nisbiy individuallik mavjud. Gap shundaki, odamlar hayot sharoitlarini o'zgartirish bilan bir vaqtda ular shaxsining-ma'naviy yuksalishi uchun individual yondashish ishlarini ham amalga oshirib borish zarur. Albatta, shaxsning ma'naviy rivojlanishi, ularni zamon talablariga mos tarbiyalashda ulkan ishlarni amalga oshirmasdan hozirgi zamon jamiyatini takomillashtirish kabi vazifalarni bajarishning shubhasiz imkoni yo'q. Shu sababli, jamiyatning hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy-psixologik jarayonlar va umumiy ma'noda ta'lim-tarbiya faoliyati orasidagi real aloqadorlikka erishish alohida ahamiyat kasb etadi. Holbuki, ma'naviy sifat jihatdan yangi pog'ona, darajaga buning uchun zarur dastlabki ijtimoiy-psixologik zamin yaratmasdan turib ko'tarib bo'lmaydi.

Asosiy qism. Zamonaviy shaxs ehtiyojlarining shakllanishida ta'lim-tarbiyaning roli ko'p qirralidir. Ehtiyojlarning aksariyat hollarda ehtiros, his-tuyg'ular, subyektiv ichki kechinmalar tarzida namoyon bo'lishi sir emas, chunki subyekt ular va ularni amalga oshirish vositalarini anglamaydi, tushunmaydi. Shaxsning shakllanish jarayonida zamonaviy jamiyat a'zolarining har birida paydo bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni aniq tushunishlariga, ehtiyojlarni his-tuyg'u (emotsional) darajadan ratsional darajaga "o'tkazilishiga" erishish zarur, chunki emotsional darajada ba'zi ehtiyojlarning ahamiyati bo'rttirib yuborilishi, va boshqalarining ahamiyatiga esa – aksincha, yetarli baho berilmasdan qolib ketishi, jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'lgan narsalar shaxsning niyatlari, istaklari harakatga keltiruvchi stimullari orasida yetarlicha to'liq aks etmasligi mumkin.

Demak, shaxsning ijtimoiy-psixologik zaruriyatni anglashi ushbu zaruriyatning haqiqiy, real ehtiyojga aylanishi uchun jiddiy shart ekan. Shaxs xulq-atvorining ideallari va amaliy meyorlarini shakllantira borib, uni u yoki bu ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlarga yo‘naltiradi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida ma‘naviy-psixologik doira odamlarining, ya‘ni ba‘zi shaxslarda bo‘lgani kabi professional tarbiyachilar vazifasi bo‘libgina qolmaydi balki, keng jamoatchilik vazifalariga xam kiradi. Ehtiyojlar haqidagi tushunchalarni singdirish bo‘yicha tarbiyaviy ishlar doirasida ma‘naviy tarbiyani amalga oshirib borishda, yuksak va odatiy tushunchalar, bugungi kun voqeligi va ertangi kun istiqbollari mohirona birga uyg‘un ravishda qo‘llash lozim.

Shu boisdan, shaxsning kundalik zarurlari va ehtiyojlarini qondirishni uning istiqbolli (perspektiv) manfaatlariga qarama-qarshi qo‘ymaslik, kundalik zaruratlar va ehtiyojlarga qandaydir ikkinchi darajali narsa deb qaramaslik, aksincha, hozirgi kun tashvishlari bilan ovora bo‘lib, shaxsning rivojlanish istiqbolini unutib ham qo‘ymaslik kerak. Shaxs ertangi kunga qiziqishlarini yo‘qotsa, kelajak haqida fikr yuritmasa – bu holat shaxsni faqat kundalik ehtiyojiningina qondirishni o‘ylashga, befarqlikka va loqaydlikka yuz tutishiga olib keladi.

Bundan tashqari, zamonaviy shaxs ehtiyojlarini shakllantirish bo‘yicha ma‘naviy-psixologik faoliyat ko‘proq hollarda “ilgari keladigan” xossaga ega bo‘lishi, shaxsni yangi mehnat va maishiy sharoitlarga tayyorlashi, unda yangi sharoitlarda kerak bo‘ladigan ko‘nikma-malakalarni shakllantirishi kerak bo‘ladi. Bunday vazifani amalga oshirish bekorchi safsata gapirishni oldini olish, shovqin-suronni yengib o‘tish, aytiladigan so‘zlar bajariladigan ishlarga mos kelishini ta‘minlashni taqozo etadi; bu yerda ma‘naviy ehtiyojlarning xarakteri o‘zgaradi. Tarbiyaviy ish aniq pozitsiyada bo‘lishi, maqsad vazifalar belgilanganligi, ma‘naviy poklik, ruhiy nafislik, teranlik, yo‘ldan qaytmaslik xususiyati, individual xarakter va ko‘plab boshqa sifatlar bo‘lishini talab qiladi.

Zamonaviy shaxs ehtiyojlarini shakllantirish bo‘yicha ma‘naviy-tarbiyaviy ishlarning mazmuni va xususiyatlari uning subyekti, obyekti, maqsadi, vositalari va natijasi kabi eng muhim tarkibiy qismlarini va komponentlarini tahlil qilish yo‘li bilan aniqlash mumkin. Jamiyat a‘zolarining psixologiyasi ma‘naviy-tarbiyaviy ishlarning obyekti hisoblanadi, uning maqsadi esa, yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, individlarda, (shaxslarda) umuman olganda shaxsning ehtiyojlari va manfaatlarini aks ettiruvchi xulq-atvor meyorlari, shaxsiy ehtiyojlarni rivojlantirib, singdirishdan iborat. Zamonaviy shaxs ehtiyojlarini shakllantirish bo‘yicha ma‘naviy-tarbiyaviy ishlarning subyekti davlatning o‘zi yani tarbiya ishlarini olib boruvchi turli jamoatchilik institutlari, shuningdek, shaxsning o‘zidir. N.Makiaveli “xukmdorlar xalq bilan muloqot qilish va xalqni oldida notiqlik qilishni yuksak san‘at darajasida egallangan bo‘lishlari kerak, chunki odamlar o‘z joriy ehtiyojlari tufayli shunchalik g‘o‘r fikrlari xiralashgan bo‘ladiki, “ular bilan muloqotda har qanday odam har doim tez ishonib ketuvchi xohlagan tarafdorlarni topa oladi” deb hisoblagan. G‘arb nazariyotchisi J.Galbreytning fikricha, “shaxsning ehtiyojlari uning daromadidan biroz ko‘proq bo‘lgan holat mukammal holat hisoblanadi. Bu holatda undan qarz olishga rad etib, inkor etib bo‘lmaydigan istak paydo bo‘ladi. Qarzdorlik shaxsga bosim ko‘rsatadi va o‘z-o‘zidan bu inson ishonchli shaxsga aylanadi”[1].

Odamlar bilan muloqot mexanizmi xususiyatlarini ochishda ularning ma‘naviy konsepsiyalarining xalq ommasiga ta‘sir qilish darajasi nafaqat nazariy asoslash yo‘li bilan va u sababli (albatta bu omil ham sinchkovlik bilan puxta o‘ylab chiqiladi), balki ma‘naviy xarakterdagi vositalarining kuchi va keng tarqalganligi bilan ham belgilanadi xarakterlanadi. Ma‘naviy xarakterdagi maxsus “retseptlar” ishlab chiqishadi (ba‘zan o‘ta ustomonlik bilan) va ular yordamida xalq ommasiga obyektiv begona bo‘lgan g‘oyalar ularning ongi va psixologiyasiga singib boradi va insonni turmush darajasiga yaqin bo‘lgan o‘y-xayol, niyatlar va intilishlarga aylanadi. Masalan, tarbiya masalalari bo‘yicha katta mutaxassislardan biri fransuz sotsiologi J. Elyulning fikriga ko‘ra, bunday tarbiya insonning o‘z shaxsiyatini namoyon qilish ehtiyojidan mohirona foydalanadi, bunda esa “inson qalbini egallab olishning eng qulay movridi u omma ichida o‘zini yolg‘iz sezayotganida: aynan shu paytlarda targ‘ibot samaradorligi eng yuqori bo‘lishi mumkin”[1].

Zamonaviy jamiyatda shaxs ehtiyojlarini shakllantirishning ma‘naviy-tarbiyaviy vositalari insonga chuqur hurmat tushunchalariga asoslangan. Ular uchun ommani turmush darajasi, uning ehtiyojlari bilan xarakterlanishi va ehtiyojlarning o‘zgarishi va yuksalishi uning har tomonlama barkamol, uyg‘un rivojlanishidan iborat. Zamonaviy jamiyatda shaxsning faqat o‘ziga xos ehtiyojlar tizimi mavjud bo‘lib, uni yangi turi shakllanadi. Bu omil shaxsning ma‘naviy ehtiyojlarini ma‘naviy-tarbiyaviy xarakterini o‘zgartirish jihatdan ta‘sir qilishini taqozo etadi, umuman tarbiya ishining xususiyatlari va mazmunini belgilaydi.

Jamiyatda shaxs ehtiyojlarini rivojlanish jarayoni uning turmush darajasini oshirish omiliga bog‘liq bo‘ladi. Ushbu jarayon obyektiv, ishonchli (haqqoniy) ma‘lumotlarga, nisbiy haqiqatdan mutlaq haqiqatga tomon tinimsiz harakatga, ehtiyojlarning turli guruhlari va turlari orasidagi ichki o‘zaro aloqalarini anglashga

(tushunishga) asoslangan bo‘lib, bu holat pirovard natijada shaxsning shakllanish jarayonlarini yaxshiroq va samaraliroq boshqarish imkonini beradi. Ushbu vazifani amalga oshirishda tegishli nazariyani ishlab chiqish va barcha insonlarning ushbu nazariya talablarini o‘zlashtirishlari o‘ta muhimdir.

Shaxsning ehtiyojlarini shakllantirishga qaratilgan ishlar uning individualligini yo‘qqa chiqarish emas, balki uni rivojlantirishga va turmush darajasini oshirishga asoslanadi. Bu yerda shaxs ma‘lumot jarayonining passiv retsepiyenti (passiv qabul qiluvchisi) sifatida emas, balki ma‘lumotlarni faol tanlab olish, olinayotgan ma‘lumotlar asosida o‘z faoliyatini ongli ravishda tashkil qiladi va rejalashtiradi. Sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, “ma‘lumotlarni o‘zlashtirish nafaqat ushbu ma‘lumotlarning sifatiga, ma‘naviy tarbiya shaxsni psixologik-ma‘naviy ehtiyojlarini o‘zgartirishning muxim omili xisoblanadi.

Zamonaviy jamiyatning ma‘naviy psixologik ehtiyojlari ushbu jamiyatning asosiy manfaatlarini ifodalaydi, ularning fikr, qarashlarini hisobga oladi, shaxslarning ma‘naviy ehtiyojlari xarakteri o‘zgarib borishi ularning turmush darajasini oshirish sharti sifatida ma‘naviy tarbiya muxim vosita xisoblanadi.

Ma‘naviy tarbiyaviy ishlarning eng muhim tamoyillaridan biri o‘ta jiddiy ijtimoiy muammolarni hal qilishga kompleks yondashuv hisoblanadi. Kompleks yondashuvda u yoki bu hodisa, voqeaning turli jihatlari bir yaxlitlikda hisobga olinadi. Bu masalaning barcha tomonlarini hisobga oluvchi chuqur ilmiy yondashuvdir. Demak, yangi insonni tarbiya qilib yetishtirish ishiga ijtimoiy-psixologik tashkiliy, ma‘naviy va boshqa omillar kiradi; unda insonlarning turli guruhlarini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy faoliyatda ishtirok etish yo‘li bilan ma‘rifiy ishlarni o‘tkazish va ta‘lim berishni o‘z ichiga oladi. Bu yondashuv tarbiyaviy ta‘sirning maqsadlari va yo‘nalishlarining yaxlitligi bilan ifodalanadi. “Tarbiya ishiga kompleks yondashuv, shuningdek inson shakllanishining obyektiv sharoitlari va ma‘naviy omillarining optimal birga kelishini (uyg‘unligini) ham taqozo etadi. Bir tomondan, u tarbiyaning haddan ortiq bo‘rtirilgan imkoniyatlari haqidagi tushunchalarga, ikkinchi tomondan esa bunday tarbiyaviy ishlarning imkoniyatlariga yetarlicha baho bermaslikka, ularning roli, ahamiyatini pastga urishga yo‘l qo‘ymaydi.

Ma‘naviy axloqiy tarbiya psixologik tarbiyasi bilan tabiiy, uzviy aloqadorlikda olib borilmasa yetarli darajada samara bermasligi mumkin, chunki zamonaviy shaxsning ehtiyojlari tizimida ma‘naviy ehtiyoj asosiy hisoblanadi, uning shakllanganlik va rivojlanish darajalari ham psixologik va ham ma‘naviy axloqiy tarbiya turlarining shakllari va usullarini (metodlarini) belgilaydi. Turmush darajasini oshirish haqidagi fikr va qarashlar, aynan bu ma‘naviy ehtiyojlar xarakterini o‘zgartirishning sharti va onglilikning asl mezonini hisoblanadi. Ma‘naviy tarbiya insonni shakllantirishda eng muhim vositalardan biri bo‘lib, shaxs ma‘naviy ehtiyojlarini xarakterini o‘zgartirish yo‘li bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish vositasi hisoblanadi. Har bir yosh inson ongida ma‘naviy ehtiyojlar xarakterini o‘zgartirishda jamoalari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san‘at, butun jamiyatimizning birlashgan say‘i harakatlari bilan ongli ehtiyojni tarbiya qilish eng zarur va birinchi darajali psixologik, ijtimoiy, va axloqiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifadir.

Biroq, zamonaviy shaxs ehtiyojlari doirasining kengayib borish an‘anasi, yangi ehtiyojlarning shakllanishi va ularni qondirish vositalari, va ba‘zi hollarda, bu bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘ladigan vazifalarning turli tumanligi va murakkabligi manaviyatga bo‘lgan ehtiyojning shakllanishi masalalari ikkinchi o‘ringa o‘tib ketishi kabi vaziyatga olib kelishi mumkin. O‘z yechimini kutayotgan boshqa muammolar ham mavjud. Bu yerda gap oilalarda mavjud an‘analarga haqida boradi. Tadqiqotlarning natijalariga ko‘ra, oilalarda mavjud an‘analarga ommaviy kasblarni tanlashga jiddiy ta‘sir ko‘rsatmas ekan.

Umumiy ma‘nodagi shaxs ma‘naviy ehtiyojlari xarakterini o‘zgartirish va shakllantirishda yordam beradigan muhim omillardan yana biri shaxsni turmush darajasini oshirish xisoblanadi. Ma‘naviy-axloqiy tarbiya ushbu omilning amaliy natija berishi darajasini oshirishda katta rol o‘ynaydi. Qisqacha qilib aytganda, shaxsning axloqiy – ma‘naviy ehtiyojlari xarakterini o‘zgartirish yo‘llari insonni turmush darajasini oshirish, ma‘naviy ehtiyojlar xarakterini o‘zgartirish shartlari, shuningdek, ma‘naviy tarbiya, xam o‘z navbatida ma‘naviy ehtiyojlarni o‘zgartirishni muxim omili xisoblanadi. Shuning uchun zamonaviy shaxs ehtiyojlari tizimiga singib ketgan zamonaviy shaxsning yuksak ma‘naviy ehtiyojlari zamonaviy jamiyatda psixologik tarbiyaning maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ma‘naviy axloqiy, estetik va jismoniy tarbiyaga ma‘naviy yo‘naltirilganlik xossasini beradi[1].

Zamonaviy ma‘naviy bilimlar, iroda, e‘tiqod va faoliyatning birligi bilan ifodalanadi. E. G‘oziyev ta‘biri bilan aytadigan bo‘lsak, shaxsning har qanday ehtiyoji “yuksak motivatsiyaga asoslangan tozalangan bo‘lishi zarur”[2]. Usta zargar metal toshning noyob qirralarni yarqiratib chiqarganiday, zamonaviy jamiyat qurilishida ham yangiliklarni his qilish, jasorat va o‘z zimmasiga mas‘uliyatni ola bilish, ishlashga o‘rganishga bo‘lgan xohish-istak va ko‘plab hozirgi kunning maqsad va vazifalariga javob bera oladigan sifatlar birinchi o‘ringa chiqarilishi zarur. Bu sifatlarning shakllanishida axloqiy–ma‘naviy tarbiyaning o‘rni o‘ta muhimdir.

Shaxs ehtiyojlarining ma'naviy boyishi, ularning rivojlanishi hamma vaqt ham bevosita amalga oshirilavermasligi mumkin. Bu holatda, ehtiyoj va manfaat orasidagi bog'lovchi zanjirni topish muhim ahamiyatga ega. Shundagina u yoki bu ehtiyojlar omma uchun ishonchliroq va tushunarliroq bo'ladi. Tarkibida ehtiyoj va manfaatlar tabiiy birlashgan tashkiliy shakllarni izlash, ma'naviy-tarbiya ishlarining shaxs ehtiyojlari shakllanishiga ta'sirini kuchaytirish ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan, zamonaviy shaxs ehtiyojlarining shakllanishida uning turmush darajasini oshirish muhimligini e'tirof etish bilan birga, tarbiyaning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini ham xisobga olish lozim. Ularning barchasi tabiiy ravishda bir-biri bilan bog'langan. Masalan, shaxsning turmush darajasini o'zgarishi bilan ma'naviy ehtiyojlarni xarakteri o'zgaradi, shu bilan bir vaqtning o'zida ma'naviy ehtiyojlar, umuman shaxs ehtiyojlari xam baravariga muxim omil sifatida o'zgarib boradi.

Shaxsning ma'naviy tarbiyaviy jarayon sifatida uning ehtiyojlarini shakllantirish, bir turdagi ehtiyojlarning ichidagi alohida olingan ehtiyojlarni ham hisobga olishi kerak. Bunday nuqtai nazardan, masalan, shaxs ehtiyojlari tizimini umuman olganda, uning har xil turlarining uyg'unlashuvida jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan estetik ehtiyojni tahlil qilib chiqamiz. Estetik ehtiyojlar o'ziga xos xarakterga ega, shuning uchun uning shakllanish jarayoniga ta'sir qilishning tegishli (risoladagiday, yetarli, adekvat) vositalari, har bir shaxs uchun individual yondashuv, real hayotda ushbu ehtiyojni qondirishda yordam beruvchi shaxslararo aloqalarning psixologik kanallarini aniqlashni taqozo etadi. Biroq, real hayotda estetik ehtiyojlarning ushbu o'ziga xos xususiyatlari har bir holatda ham to'laqonli hisobga olinmaydi.

Shaxsning barkamol rivojlanishini ta'minlovchi vazifalarni qo'yish bilan davlatimiz ba'zi bir ehtiyojlarning boshqalariga (masalan, moddiy ehtiyojlarni ma'naviy ehtiyojlarga) qarama-qarshi qo'yishning tarixiy cheklanganligi, o'rinsizligini ko'rsatib bermoqda. Biroq, ushbu masalani amalga oshirish jarayonida moddiy va ma'naviy ehtiyojlar orasida uyg'unlikka (garmoniyaga) erishish masalasini hal qilish qiyinligini unutmaslik kerak. Gap shundaki, odatda shaxs bolalikda o'zlashtirgan qadriyatlarga mos tarzda o'zini boshqaradi. Buning ustiga, ba'zan inson eskirib qolgan stereotiplarni keyingi avlodga xam o'tkazadi. Lekin, ko'p hollarda xulq atvorning tubdan o'zgarishi uchun bir emas, bir necha avlodning o'zgarishi talab qilinadi".

Mazkur ma'lumotlarning o'zlashtirilishi bilan bog'liq qiyinchilik ham mavjud. Zamonaviy jamiyat qurishning hozirgi bosqichi sharoitida bu bilan cheklanib qolish yetarli emasligi ayon. Kundalik ish-harakatlar, hayot mohiyatini ma'naviy jihatdan yuksaltirish, shaxsga ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatish vositalarini takomillashtirish lozim va bu bilan uning ehtiyojlarini keyingi uyg'unlashuvini yuqori pog'onaga ko'tarish lozim. Shu asnoda ma'naviy psixologik ishlar doirasida zamonaviy jamiyat rivojlanishi qo'yayotgan, xususan, zamonaviy shaxs moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining uyg'un tizimi bilan aloqador yangi, murakkabroq vazifalar bajarilishi lozim.

Zamonaviy sharoitlarda mamlakatimiz xalqi turmush tarziga mos kelmaydigan turli ma'naviyat, iste'mol shakllari va ehtiyojlarni qondirish usullariga qarshi kurash alohida dolzarblik kasb etadi. Ehtiyojlarni shakllantirish borasidagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarning samaradorligi nafaqat ularning qaysi ehtiyojlarning shakllanishiga yordam berishi, balki ular qaysi salbiy voqea, hodisalarga va illatlarga qarshi qaratilganligi bilan ham belgilanadi. Mamlakatimiz hukumati davlat mablag'larini talon-taroj qilish, ko'zbo'yamachilik va xizmat lavozimini su'istemol qilish, davlat mulkini o'g'irlash va poraxo'rlik kabi sharmandali hodisalar bilan kurashni kuchaytirmoqda. Bu vaqtinchalik tadbir emas. Endilikda bu tinimsiz va qat'iy tarzda olib boriladigan vazifa bo'ladi. Bu yo'lda hech kimga shafqat qilinmaydi. Bu ma'noda hech kim xom xayollarga borib o'zini aldamasligi kerak".

Bizning fikrimizcha, ehtiyojlarni shakllantirish bo'yicha tarbiyaviy-psixologik ishlarning samaradorligi, amaliy natija berish ko'rsatkichlarini oshirish uchun u yoki bu salbiy holat, hodisalarning sabablarini chuqurroq tahlil qilish zarur. Bu ularning ildizlarini o'rganish, iste'molga ruju' qo'yish, "narsalarga berilishning" turli ko'rinishlarini tezroq yo'q qilish imkonini beradi. Ko'pchilikka ongsiz ergashib, ommaviy moda orqasidan quvib o'z umrini ham ayamaydigan, qandaydir haddan ortiq rusum yoki ko'zni qamashtiradigan kiyim bilan o'ziga e'tibor qaratishlariga intiladigan odamga ham kulgingiz keladi, ham raxmingiz". Albatta, yumor, hajv, kinoya hamma narsaga qodirmas, biroq, ular haqiqatan ham oqilona iste'molni tasdiqlovchi moda bilan birga kelganda, ularning roli juda katta bo'ladi.

Shuningdek, jamiyatimiz uchun muqaddas bo'lgan tushunchalarni siyqalashtirish, faqat o'zini, tor manfaatlarini o'ylaydigan odamlarning ularni bema'nilashtirishga intilishi kabi salbiy hodisaga qarshi kurashni faollashtirish lozim. Masalan, psixologik nuqtai nazardan xalqimizning yuksak ma'naviy ehtiyojlari doirasidan kelib chiqib, jamiyat manfaati haqida qayg'urish va o'z burchi hissiga tayanib sodir qilgan fidokorona, beg'araz amallari yoshlarning ma'naviy yuksalishi uchun muxim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarning yechimida olimlardan— E.G'oziyev, G'.Shoumarov, V.Karimova, A.Safayev,

D.Muxamedova, A.Jabborov, Z.Nishanova, E.Sattarovlarning tajribalari beqiyosdir. Taniqli psixolog olim G'.Shoumarovning quyidagi fikrlari diqqatga sozovordir – “Odamlarni sodda, go‘zal, uyg‘un xolda ko‘rish kabi qizg‘in istagi tufayli yuzaga kelgan iqtidor hayotga mohirona yuksak talablar qo‘yadigan odamda bo‘ladi xolos”

Adabiyot va san‘atning kuchi ham aynan faqat o‘zlariga tegishli zamonaviy ma‘naviyatning muxolif ko‘rinishlarini o‘ziga xos kuchi bilan oshkor qilish badiiy tasvir vositalarining mavjudligidadir. Ushbu vositalarni aholining barcha qatlamlarini, xususan yoshlarni tarbiyalashda qo‘llash lozim, chunki ijtimoiy xulq va inson hissiyotlarini tarbiyalashda, ayniqsa ong va psixologiyasiga ta‘sir o‘tkazishda adabiyot, san‘atning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi. Shaxs agarda ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanmasa, ularda ma‘naviy-psixologik tarbiyani, xatto, kelgusi avlodlarga salbiy ta‘sir ko‘rsatishini, jamiyatga katta moddiy va ma‘naviy zarar yetkazishini tirishqoqlik, sabr va qunt bilan tushuntirib borish zarur bo‘lgan tarbiyaviy vosita xisoblanadi. Xatto aholi uchun bo‘sh vaqtni bekor o‘tkazmaslik va ijtimoiy foydali mehnat bilan shug‘ullanish sharoitlarini yaratish maqsadida shahar, tuman va qishloqlarda yangi uy-joylar qurishni rejalashtirishda, zamonaviy dam olish va sayr qilish maskanlarini loyihalashtirish va qurish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, mahalla guzarlarini obodonlashtirish, bog‘dorchilik va sabzavotchilikni rivojlantirishga keng ko‘lamda yordam berish ham masalani yechishda muhim rol o‘ynaydi. Bu xolatda xam shaxsning ma‘naviy psixologik qiyofasi yetakchi rol o‘ynaydi.

Yuqorida aytib o‘tilgan ba‘zi salbiy holatlar yashovchanligining muhim sabablaridan biri ularga qarshi kurashda jamoatchilik tomondan yetarlicha amal qilinmayotganligi va bu kurashda izchillikning yo‘qligidir. Bizning mamlakatimiz holatida esa, mo‘ljallangan rejalar ko‘lamining ulkanligini hisobga olsak, hatto sezilarsiz narsalar ham ko‘zdan qochirilsa, mafkuraviy, siyosiy-tarbiyaviy jarayonni amalga oshirishda yetarlicha ish bajarilmasa ularning salbiy oqibatlari jiddiy bo‘lishi va ularning samaradorligi juda past bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Aksincha bo‘lganda esa, ya‘ni hamma ishlar yaxshi, belgilanganidek tashkil qilingan bo‘lsa, ijobiy natijalar yorqin namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ma‘naviyatga zid odat, qiliqlarga qarshi kurashda jamoatchilik fikri va mehnat jamoalarining rolini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, mehnat intizomini buzadiganlarni qoralash amaliyoti tabiiy ravishda yaxshi ishlaydigan insonlarni rag‘batlantirish bilan bog‘lanishi lozim. Bunda nafaqat mehnatga rag‘batlantirish, balki intizom buzuvchilar uchun kuchli psixologik tarbiyaviy ta‘sir ham bo‘ladi. Ehtiyojlar va iste‘mol madaniyatini tarbiyalash moddiy va ma‘naviy jihatlarning uyg‘unligini shakllantirishda o‘ta muhim rol o‘ynashi sababli, chin yuksak iste‘mol madaniyatiga zid holatlarga qarshi ma‘naviy kurashni kuchaytirish lozim, shu bilan birga, zamonaviy turmush tarzi talablariga mos keladigan madaniyat meyorlarini izchil ravishda psixologik tasdiqlab borish lozim.

Biroq, maishiy hayot, iste‘molning ba‘zi, ayniqsa, o‘ta ichki, maxfiy, shaxsiy sohalari masalalari izchil ma‘naviy-tarbiyaviy ta‘sir doirasidan tashqarida qolishini hisobga olmaslikning iloji yo‘q, chunki bunday ta‘sirning tegishli, risoladagiday, adekvat shakllari topilmagan. Bu maishiy hayot, iste‘mol sohasida tartibsiz ravishda zamonaviy turmush tarzi bilan umuman aloqasi bo‘lmagan xulq-atvor standartlari va namunalari shakllanadi. Masalan, olamdan o‘tgan yaqinlarning qabrlari ustida qabrtoshlardan tashqari ortiqcha narsalarning ham o‘rnatilishi kuzatiladi. Biroq bunday holatlar marhum odamga bo‘lgan hurmat yoki o‘lim borasidagi qayg‘uni emas, balki riyokorlik, maqtanchoqlik va boylikni ko‘z-ko‘z qilishning o‘zi xolos.


Shu sababdan, psixologlar, pedagoglar va jamiyatning ilg‘or vakillari tomonidan maishiy hayot va iste‘molning aynan mana shu ko‘rinishlariga qarshi ta‘sir o‘tkazish yo‘llari, usullari, shakllarini izlash kuchayayotgani bejiz emas. Masalan, ba‘zi tadqiqotchilar “romantik muhabbatni jinsiy (shahvoniy) ehtiyojni qondirishning eng yuqori shakli” ekanligini alohida ta‘kidlamodalar. Biz ushbu fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi deb o‘ylaymiz, chunki agar romantik bo‘lmagan muhabbat yuksak ma‘naviy mazmun bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, bu ma‘noda u romantik muhabbat bilan bemaol raqobat qila olishi mumkin, buning ustiga har ikkalasining orasidagi farq o‘ta shartli va nisbiy. Bu misolda ideal (mukammal) hissiyot, kechinmalarning shaxsning jinsiy (shahvoniy) ehtiyojlarini ma‘naviy boyishi vositasi sifatidagi o‘rni yagona shubhasiz holatdir. Ushbu holat yoshlar uchun maxsus dolzarblik kasb etadi, chunki aynan ularning muhitida aksincha hollarda ma‘naviy omilga yetarlicha baho bera olmaslik, ehtiyojlarning yuksak ma‘naviy tomonini o‘ta yerga urib, tushirib yuborish va hokazo holatlari yuz beradi.

Shaxs tomonidan ijtimoiy borliqni aks ettirish va o‘zlashtirishning o‘ziga xos shakli, aniqlangan, belgilangan tushunchalar, obrazlar, ideallarning nazariy tizimi bo‘libgina qolmay, ijtimoiy amaliyotga kiritilgan g‘oyalarning amal qiladigan muayyan tizimi ham ekanligini nazardan chetga chiqarmaslik lozim”. Masalani bunday qo‘yish nazariy hamda amaliy nuqtai nazardan shaxsga ma‘naviy-tarbiyaviy ta‘sir o‘tkazish, zamonaviy psixologiya tamoyillari va vazifalarining yo‘nalishini singdirish usullari bilan ta‘sir o‘tkazishning muayyan (konkret) usullari va vositalarida o‘zgartirish imkonini beradi. Zamonaviy

madaniyatning eng muhim vazifalaridan biri inson ehtiyojlarini shakllantirish, yuksaltirishdan, shaxsning mafkuraviy-siyosiy siyosiga faol taʼsir oʻtkazishdan iborat. Biroq, amaliyotda ushbu vazifa har doim ham amalga oshirilmaydi. Bizda, koʻp tadqiqotchi olimlar taʼkidlab oʻtganidek, hayot haqiqatini uning barcha murakkab tomonlari, ziddiyatlari bilan birga aks ettirmay turib oʻquvchilarni kitoblardagi nafaqat turli tuman “baxtli yakun topishini” kutib oʻqishga, balki real hayotda shaxs psixologiyasidagi, hamdardligini, zarur yordamni talab qiladigan voqea-hodisa, holatlarga eʼtibor bermay yashashga ham oʻrgatadi.

Mamlakatimizdagi barcha – mahalliydan tortib markaziy ommaviy axborot vositalarining ishi haqida alohida toʻxtalish lozim. Matbuot, televideniye va radio ommani tashkil qilish va tarbiyalashning, ijtimoiy fikrni shakllantirishning amalda natija beradigan vositalaridir. Soʻnggi paytlarda bu sohalarida aholiga manzur ijobiy va quvonchli oʻzgarishlar sodir boʻlmoqda. Ammo hayot yanada koʻproq ishlashni talab qiladi. Zamonaviy jamiyatda axborot vositalarining vazifasi voqealar va hodisalarni chuqur ilmiy tahlil qilish, jiddiy muammolarni koʻtarish va ularni hal qilish yoʻllari, usullarini taklif qilishdan iborat. Insonga qarab aytilgan aqlli, bamaʼni gap, soʻz shaxsda keng mushohada – fikrlashni uygʻotadi, odamlarda tashabbuskorlikni rivojlantiradi, kamchiliklarga murosasizlikni tarbiyalaydi.

MA'NAVYI-EHTIYOJLARNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MODELI



Zamonaviy jamiyat qurilishi sharoitida, targʻibot ishlari iqtidor bilan olib borilishi, insonlarda chuqur hissiyot va fikrlarni uygʻota bilishi, hayotga faol munosabatni shakllantirishi lozim. Ushbu jarayonda xilma-xil vazifalarni yuqori malaka bilan tezkor hal qilish lozim boʻladi. Demak, maʼnaviy-tarbiyaviy ishlarning barcha jabhalari uchun mutaxassislar tayyorlash masalasiga alohida eʼtibor qaratish zarur.

Shaxsni tarbiyalashda, uning ehtiyojlarini va qobiliyatlarini shakllantirishda bolaning maktabgacha yosh davri o‘ta muhim pog‘ona ekanligi yaxshi ma’lum. Masalan, ilmiy adabiyotlarda quyidagi raqamlar keltiriladi: 8 yoshgacha davrga insonning umumiy aqliy rivojlanishining 80%, bolalarga asosan maktab tarbiya va ta’lim beradigan 8 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan davrga esa atigi 20% to‘g‘ri kelar ekan. Bu raqamlardan inson hayotining dastlabki yillarining uning qobiliyatlari va ehtiyojlarining shakllanishida asl o‘rni va roli aniq tushunarli bo‘ladi va shu sababdan ham umumta’lim va kasb-hunar maktab tizimi islohotida bu masalaga katta e’tibor berilmoqda.

Biroq, masalaning yechimi nafaqat psixolog pedagoglarning ko‘nikma-malakalari darajasining o‘shishida, balki maktabgacha bo‘lgan bolalar va quyi sinflar bilan ishlashga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishida hamdir. “... Bir qator maktablarda quyi sinf o‘quvchilari bilan ishlash “Kichik bolalarda kichik tashvishlar” qabilida ish olib boriladi. Quyi sinflardagi bolalarni tarbiyalash kattaroq yoshdagi o‘quvchilarni tarbiyalashdan ko‘ra muxim ahamiyatga ega emas, balki ba’zi masalalarda e’tiborli bo‘lish o‘rinli, deguvchilar ham topiladi. Shaxs ehtiyojlarini shakllantirishga ma’naviy-tarbiyaviy ta’sirni takomillashtirish ushbu ta’sir mexanizmi chuqur o‘zlashtirilsagina ahamiyatli bo‘ladi. Bu yerda targ‘ibot orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kuchaytirish, yangi ehtiyojni keltirib chiqish bilan tugaydigan ushbu zanjirning barcha xalqalarini har tomonlama hisobga olish zarur.

Xulosa sifatida aytish joizki, tarbiya jarayonida tizimli shakllanadigan maqsadlar asosida shaxsda zamonaviy jamiyat sharoitida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadigan tegishli ko‘rsatmalar, qadriyatlar va qadriyat yo‘nalishlari ishlab chiqiladi. Shakllangan qadriyatlar va qadriyat yo‘nalishlari dastlab beqaror manfaatlarga aylanadi, shuningdek tegishli faoliyat bilan mustahkamlangandan keyin, ushbu manfaatlar shaxsning ichki xossasiga mos tarzda kuchayib, barqarorlashib boradi.

Shunday qilib, ma’naviy-tarbiyaviy ta’sir shaxs tuzilmasining (strukturasi) chuqurroq elementlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Nihoyat, yakuniy bosqichda, shaxs manfaatlari ularga mos keladigan (tegishli, adekvat) ehtiyojlarga aylanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, har bir bosqichda ma’naviy tarbiyaning ta’sir vositalarida o‘ziga xos xususiyatlari bo‘ladi, shuning uchun ularni qat’iy farqlash (differentsiatsiya qilish)da shaxs ehtiyojlari shakllanishining ichki mantig‘ini hisobga olish zarur.

Yuqoridagi nazariy tahlillarga tayanib va mualliflik tadqiqoti doirasida shaxs ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda kiritilgan barcha muhim mezonlar shaxsda ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirishga xizmat qilishi ayni haqiqatdir.

Ushbu muammo hali yetarlicha o‘rganib chiqilmagan, jumladan, ehtiyojlar shakllanishi mexanizmining bir qator nazariy masalalari ishlab chiqilmaganligi sababli, shuning uchun ham shaxsda ehtiyojlar rivojlanishining bir bosqichidan ikkinchisiga o‘tishda izchillik, ketma-ketlikning buzilish holatlari tez-tez uchrab turadi. Ehtiyojlarni shakllantirishda ular subyekt xulq atvorining chuqur negizi, asosi ekanligini hisobga olish lozim, shu sababli shaxs ehtiyojlarini o‘zgartirish uchun uning borlig‘i va ongida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Якобсон П.М. Психологические проблемы мотивации поведения человека.-М.: “Наука” 1999. S 109
2. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. –Т.: 2010. -544 b.
3. Илин Е.П. Оптимальные характеристики работоспособности человека/Автореф. докт. дисс. Л.: 1998. -32 с.
4. Ковалев В.И. Мотивы поведения и деятельности. – Москва.: “Наука”. 1988, -191 с.
5. Леонтьев А.Н. Потребности, мотивы и эмоции. – М.: 1993. - 40 с.
6. Леонтьев А.А Потребности, мотивы и создание. - М. “Университет”. 1966. 117 с.

*Maxmudova Zulfiya Mexmonovna,
Bukhara State University
(azizbekyarasev@mail.ru)*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE EMPLOYEE'S PROFESSIONAL COMPETENCE

Abstract: *This article discusses the research of the manifestation and development of the factors of professional competence of security service employees and the improvement of its own factors. related research results are presented. Completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the system of psychological protection service, as well as raising the general outlook, moral and intellectual potential of employees, patriotism, pride, loyalty to their profession. and tasks associated with increased sense of responsibility are disclosed*

Key words: *security service employees, professional competence, competence, emotional intelligence, interpersonal relations, professional activity, social-psychological competence.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ РАБОТНИКА

Аннотация: *В данной статье рассматриваются исследования проявления и развития факторов профессиональной компетентности сотрудников органов безопасности и совершенствования её собственных факторов, представлены соответствующие результаты исследований, рассмотрены совершенно новые задачи морально-духовной поддержки всех сотрудников и военнослужащих, проходящих службу в системе службы психологической защиты, а также повышения общего кругозора, морального и интеллектуального потенциала сотрудников, патриотизма, гордости, верности своей профессии, раскрыты задачи, связанные с повышенным чувством ответственности*

Ключевые слова: *сотрудники органов безопасности, профессиональная компетентность, компетентность, эмоциональный интеллект, межличностные отношения, профессиональная деятельность, социально-психологическая компетентность.*

XODIMLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy malakasi omillarining namoyon bo'lishi va rivojlanishi va uning omillarini takomillashtirish masalalari muhokama qililib, tegishli tadqiqot natijalari taqdim etiladi. Psixologik himoya xizmati tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlar va harbiy xizmatchilarni ma'naviy-ma'naviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, vatanparvarlik, g'urur, o'z kasbiga sadoqat tuyg'ularini yuksaltirishning mutlaqo yangi vazifalari, mas'uliyat hissini oshirish bilan bog'liq vazifalar ochib berilgan*

Kalit so'zlar: *xavfsizlik xizmati xodimlari, kasbiy kompetentsiya, kompetentsiya, hissiy intellekt, shaxslararo munosabatlar, kasbiy faoliyat, ijtimoiy-psixologik kompetentsiya.*

Introduction.

Acceleration of the process of globalization in the world shows the need to improve the system of educating the individual and social-psychological impact on him in accordance with the specific principles of social development. Particular attention is paid to the formation of a person who meets the requirements of large-scale reforms implemented in Uzbekistan, has high intellectual potential, can quickly adapt to sudden changes, is competitive, and works effectively at the level of the requirements for the qualifications of specialists in the labor market.

This article serves to a certain extent in the implementation of the tasks defined in the decision of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated June 7, 2019 No. 472 "On further improvement of the system of training personnel in the field of psychology and measures to prevent crimes in society" and other regulatory legal documents related to this activity .

Literature analysis and methodology.

Social competence is the ability to show activity in the process of interpersonal relations, to be able to engage in interpersonal communication in the process of professional activity. Socio-psychological competence refers to the professional activity of a specialist, in which emphasis is placed on pedagogical activity and pedagogical behavior at a sufficiently high level. Therefore, the socio-psychological competence of the educator can be assessed by the ratio of his qualifications and psychological qualities.

A.A. According to Dunyushin, a person's social-psychological competence is the ability to apply the knowledge, skills and abilities necessary for interaction with people in professional activities. This definition is clarified by the author through the following several considerations:

- a) competence can be considered as a description of a specific activity subject;
- b) the content of competence depends on the purpose, structure and special requirements of professional activity;
- c) emotional volitional and communicative characteristics, intelligence, interpersonal relations, and personality orientation serve as the basis of competence.

In modern psychology, the concept of "emotional intelligence" is widely used, and this concept was introduced to science by P. Selov and Dj. Meyers brought in.

According to the authors, emotional intelligence is the ability to express and evaluate emotions; understanding of emotion and possessing emotional knowledge; in addition, it is the ability of emotional management that unites the emotional and intellectual maturity of a person. With the introduction of the term "emotional intelligence" into science, a gradual change occurred in terms of the ratio of emotional and cognitive processes.

The following traditional classifications of competence are also noted in the scientific and methodical literature:

- political and social competences related to the ability to assume responsibility, participate in joint decision-making;
- competences found in society, aimed at living with other people, regardless of their culture, language and religion, origin, understanding them, helping them and eliminating mutual disagreements;
- competencies that demonstrate the possession of written and oral communication, which are important in professional activities and in community life.

Analyzing and interpreting how and in what way socio-psychological competence is studied as a psychological problem in general is of great importance today. Because without adequately evaluating the scope of theoretical-scientific and practical-methodical researches on social-psychological competence, it is impossible to comment on the issue of improving and developing the social-psychological competence of employees working in the security service within the framework of professional activity. It can also be seen from the above considerations that the requirements for the security service personnel's activity are quite responsible, in many cases it depends on the factors affecting social-psychological competence.

Completely new tasks of moral and spiritual support of all employees and military personnel serving in the system of psychological protection service, as well as raising the general outlook, moral and intellectual potential of employees, patriotism, pride, loyalty to their profession. and assign tasks to increase the sense of higher responsibility.

Organization of moral and spiritual support for employees and military personnel is carried out in accordance with the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan, decisions of the chambers of the Oliy Majlis, decrees, decisions and orders of the President of the Republic of Uzbekistan, decisions of the Cabinet of Ministers and normative documents of the Ministry and this Regulation. is increased.

Moral and spiritual support of employees is carried out in psychodiagnostic, psychoprophylactic and psychocorrective work.

Psychodiagnostics is a branch of psychology that studies individual psychological conditions of a person. Psychodiagnosis is carried out using psychological test methods, questionnaires and projective methods.

Psychocorrection (correction) is the elimination of negative emotional states in certain psychological processes and the improvement of a person's ability to work by exerting a psychological influence.

Psychoprophylaxis is a comprehensive program of measures aimed at preventing negative situations that may arise in the mental state of employees and adapting personal content to service conditions.

Functions, duties and powers of expert psychologists

Functions of expert psychologists:

moral and spiritual support of employees, mandatory consideration of their psychological portraits, including provision of psychological support for the process of adaptation of young employees to the service; timely detection and correction of negative changes in the morale and depression of employees, taking into account the specific characteristics of their activities;

control and coordinate the activities of specialist psychologists working in the penitentiary system.

Tasks of specialist psychologists:

During psychodiagnosis:

in order to prevent the employees from becoming morally and spiritually restless, and to prevent negative situations that may arise in their mental state, every six months, the personnel undergo mandatory psychodiagnostics;

regularly conducts a psychological interview with the employees who provide service with a weapon and once a quarter examines their mental and emotional stability using the psychological test methodology;

examines the intellectual and individual-psychological characteristics of candidates for the security service, and based on the results, each candidate gives a conclusion with a separate recommendation;

examines management and organizational skills of employees appointed to leadership positions in the security service and makes recommendations;

conducts a moral-educational survey of employees' working mood and interpersonal relations in the team every six months, analyzes the results, and develops suggestions for preventing negative situations that may arise in the team;

gives a separate psychological description to each employee based on the results of the abilities of managers appointed to higher positions;

conducts moral and spiritual support of employees and mandatory calculation of their psychological portraits.

In the direction of psychocorrection:

develops the necessary measures to create a healthy moral and spiritual environment in service teams;

carries out work aimed at increasing the level of psychological preparation of personnel and further improving professional and psychological characteristics;

taking into account the specific characteristics of the employees' activities, he carries out psychocorrective work aimed at preventing negative changes in their morale, depression.

In the direction of psychoprophylaxis:

the process of adapting young employees to the service provides psychological support;

provides mental stability of employees using psychological methods in extreme situations;

studies personal, interpersonal, international relations of employees on the basis of socio-psychological laws and implements a healthy moral and spiritual environment;

the security service gives psychological recommendations to the management staff in working with subordinates and managing the service process;

prevention and psychological correction of professional and domestic stress, depression and other negative mental states.

gives recommendations to responsible employees on the wide use of psychological tools and methods in the process of training personal content;

studies the social, moral and spiritual environment in service teams and relations between employees, develops recommendations for their improvement;

identifies employees with a high tendency to negative behavior, conducts psychological interviews with employees, studies personal and family problems and helps to solve them;

through targeted application of modern scientific and psychological methods in the security service, develops scientific and methodical manuals for solving the problems of the service and family environment of the employees.

Powers of expert psychologists:

collection of personal content for psychodiagnostic and psychoprophylactic measures; to give 3 days of rest to employees who are in a state of severe stress or have noticed negative changes in their morale (exemption from service);

studying family conditions and personal problems of employees and collecting (receiving) information;

conducting examination of employees using polygraph and other psychodiagnostic devices if necessary;

in addition to official duties, engage in pedagogical activities in order to work on oneself, improve one's qualifications and form the necessary skills;
control and coordinate the activities of specialist psychologists working in the penitentiary system;
development of proposals for continuous study of advanced foreign experience and wide promotion of practice.

Organization of moral and spiritual support

Psychologists use the following methods to provide moral and spiritual support to employees: observation, interview, consultation, survey, test taking, sociometry and psychological training.

In order to effectively organize the work of specialist psychologists and provide quality psychological support to employees in a timely manner, service rooms are allocated and their material and technical base is constantly being improved.

Psychologists are provided with special services, diagnostic, consultation and "Mental relaxation" rooms.

At the initiative of the head of the body where there is no position of psychologist, rooms for "Mental relief" can be organized with the participation of local specialists-psychologists.

First of all, psychological work is carried out with the following: candidates who expressed their desire to join the security service; young employees admitted to the security service;
employees with negative changes in their mental state;
employees who are constantly in service with a sign weapon.

The list of psychological and psychophysiological methods and methods used by specialist psychologists in providing moral and spiritual support to employees is determined by the Service of Spiritual and Educational Affairs.

The results of the psychological test obtained from the candidates who expressed their desire to join the security service are valid only during the competition.

Candidates who failed to pass the competition will undergo a psychological examination again in the next competition.

Every employee must undergo mandatory psychodiagnostics at least once every six months.

Twice a year (once every six months) in each service team, the moral and spiritual stability of employees and the relationship between them are studied, and according to the results of the investigation, the environment is found to be unhealthy in order to eliminate negative situations in the teams. appropriate measures will be determined.

This interview form is kept for each employee after the interviews conducted by psychologists with the employees (psychological interview, psychological counseling, interview with the employees who serve with weapons).

In cooperation with the inspectors on women's issues, based on the principle "the employee does not go to the psychologist - the psychologist goes to the employee":

problems identified by psychologists in the family of employees;

family disputes determined on the basis of the "khodimbay" work system; A separate "employee" work system will be introduced with each employee and his family members who are included in the risk group due to unhealthy family environment and family quarrels.

Based on the "Khodimbay" work system, psychological interviews are conducted with the living conditions of each employee, as well as spouses and children, and their psychological state and the mental environment in the family, as well as the relationships between family members. is studied.

An individual psychological interview will be conducted with each of the employee's family members.

The individual and psychological characteristics of each family member of the employee are taken into account, and practical preventive work (psychological counseling and training sessions) is carried out with them.

A report is kept on the work done.

Specialist psychologists provide services based on the "weekly workload".

At the end of every quarter, the work done by psychologists and the shortcomings are discussed in the presence of the heads of the departments of the Ministry's structural and territorial divisions of the Ministry of Spiritual and Educational Affairs and personnel provision. will be done.

Monthly and quarterly reports on the work performed by expert psychologists are kept.

Reports on the performed work are submitted to the Spiritual and Moral Affairs Service by the 28th of each month.

By the 28th of the last month of each quarter, submit a report on the work carried out, a reference (with photos of the events) and the minutes of the meeting to the Department of Spiritual and Educational Affairs and Human Resources will be done.

Regarding the application of disciplinary measures against specialist-psychologists who did not submit reports on time or filled them in incorrectly to the Department of Spiritual-Educational Affairs and Personnel Supply, an offer is made to the head of the personnel department.

In order to provide high-quality psychological services to employees, to constantly control and monitor their mental state, to identify and correct negative changes in time, a separate "Psychological report" is kept for each employee by specialist psychologists.

The procedure for keeping a "psychological collection".

"Psychological collection" is kept by specialist-psychologists for each employee from the day of admission to the service of individual business affairs bodies or to the higher education institution of the ministry until the day of his dismissal.

Psychological assessments are primarily conducted against the "Positive and Leading Personnel Reserve" and the employees included in the "risk group".

The meeting must contain the following documents:

a certificate about the employee himself and his family members (lens); results of the employee's psychological test;

the results of the interview with the employee (interview sheets);

references (with photos) about training, roundtable discussions and other psychological events attended by the employee;

an interview sheet or document (with photos) recording the interviews conducted with the participation of the employee himself and his family members;

psychological description of the employee; psychological portrait of the employee;

Psychological portraits include the following information in their work:

socio-demographic characteristics (gender, age, education, type of activity),

individual-psychological characteristics (temperament, character, ability, orientation, intelligence, motivation, range of interests),

emotional-volitional qualities (emotional state, volitional qualities, level of self-assessment and control);

interpersonal relations (communicativeness, ability to work in a team, ability to cooperate).

Also, a psychological portrait is created based on the results of interview, observation and psychodiagnostic research.

In addition, the specialist-psychologist can additionally use other methods.

During the creation of a psychological portrait, a specialist-psychologist must act within his authority, observe the culture of behavior, respect the dignity and honor of a person.

Psychologists regularly add information to the employee's psychological portrait, taking into account changes in his personality and behavior.

When an employee is appointed to another position, his "Psychological summary" is sent to the body where the employee was appointed with the signature of the head.

When the employee starts from the security service, his psychological collection is given to the HR departments to combine it with the personal collection.

Results.

Social-psychological competence is necessary to ensure a person's effective introduction to interpersonal relationships and successful adaptation. In the section devoted to the theoretical analysis of the problem, special emphasis was placed on the fact that it is impossible not to rely on theoretical approaches in the formation of the program for the development of socio-psychological competence of preschool teachers (M.I. Bobneva, A.L. Yujaninova, G.Yu. Aysenk, etc.).

One of the scientists promoting the modern interpretation of the socio-psychological structure is M.I. According to Bobneva, it is not for nothing that it is emphasized that socio-psychological competence is the result of the mutual harmony of individual and socialization aspects of the social development of a person.

A.L. The socio-psychological guidelines developed by Yujaninova can serve to determine the specific importance of the implementation of this program. The author emphasizes that communicative competence is similar to the concept of socio-psychological competence and that it is formed due to the internalization of social experiences, which is an endless and continuous process.

Now let's turn to the overview of the main results.

Personality types play an important role in determining the socio-psychological competence of security service personnel. After all, the professional activity of security service employees requires a certain level of harmony with personality traits.

Security personnel can develop through factors such as socio-psychological competence, communicative competence, personality types and social competence.

Extroversion means "directed from the inside out", people with this type of tendency like to be inside people more, share their experiences more with others. Sociable, has a wide circle of acquaintances. In some cases, they lack seriousness. He is quick to gain people's trust and is also quick to offend.

Introversion means "directed from outside to inside", people of this type are heavy, restrained, sensitive, careless, strictly following the rules of friendship, limited communication circles, shy, more busy with their inner world and like solitude. It can be seen from the definition that people belonging to this type are people who organize positive interpersonal relations in social relations and can quickly adapt to the social environment. G.Yu. The statistical values of the empirical data obtained on Eysenck's questionnaire "Determining extroversion, introversion and neuroticism" can be interpreted on the basis of the table below (Table 1).

Table 1.

General values of security personnel personality types

Based on Yu.G. Eysenck's methodology	Scales	M	S
	Extrovert	15,61	0,93
	Introvert	11,93	0,55
	Neuroticism	13,41	0,62
	Fake	1,99	1,94

In order to accept the results of the survey in practice, the indicators of the "fake" scale, which means the neutrality of the respondents' answers, were also taken into account.

According to the requirements of the questionnaire, the value of this scale is smaller than the standard of the test, that is, according to the standard, the value around 5 points has objectivity. In general, the extroversion type of educators of the analyzed preschool educational organization is in a normal state (15,61). This indicates that the extrovert type of security guards are sociable, like to be among people, active, can openly express their feelings, and are quick to adapt to situations. Also, the willingness of this type of people to learn social experiences can be found out from the results of the survey. According to this result, the value of their neuroticism scale (13.41) shows that the person has tension in the nervous system and has the ability to control it.

In our study, the values of preschool teachers belonging to the introvert type (11.93) indicate that they are more restrained and able to manage their nervous system. However, our goal was to determine the influence of a certain type on the formation of social-psychological competence, not the personality types of preschool teachers. Therefore, the results are explained based on the type of personality and the social-psychological competence relationship of preschool teachers.

Quantitative values between social-psychological competence index and personality types of security service personnel were observed (Table 2).

Table 2.

The results of the correlation relationship between the personality types of security service employees and indicators of socio-psychological competence index

Criteria		Personality types		
		Extrovert	Introvert	Neuroticism
Index of social-psychological competence	Social-perceptual competence	0,476**	-0,083	-0,467**
	Communicative competence	0,299*	-0,094	-0,335*
	Cognitive competence	0,302*	-0,023	-0,068
	Self-psychological competence	-0,386**	0,341*	-0,058

Note: * $p \leq 0,05$, ** $p \leq 0,01$

In this case, extrovert educators have a well-developed ability to carefully conduct communication, to understand the interlocutor's feelings, experiences, and wishes. It can be seen that they carry out their activities cheerfully, they are able to solve the unpleasantness that they may encounter in relationships without restraint, restraint and excessive passions, and the decrease in the ability of communicative competence and neuroticism is also characteristic of extrovert type educators.

But in extroverts, there is a decrease in "interpersonal interaction analysis" and a slight increase in interactions in introverts. This can be explained as a consequence of security guards' observability, calmness in interpersonal interactions, correct use of words when reacting to interlocutors, lack of excessive nervousness and caution in dealing with tensions.

Conclusion.

In the course of our research, it was noted that the factors of social-psychological competence of security service personnel each have their own dynamics and results, and this method, in turn, naturally becomes important in determining the effectiveness of social-psychological competence in the science of social psychology.

The role of personality types in the development of social-psychological competence of security service personnel is incomparable. It may depend on the growing demands for the professional activity of security service personnel and the formation of social experiences.

The increase in indicators of socio-psychological competence factors of security service employees is directly related to the increase of experience in their professional activities, as well as the formation of social skills and qualifications.

The role of socio-psychological competence in the development of security service personnel depends not only on the increase in the duration of the activity, but also on the socialization of the individual.

In general, when evaluating indicators of socio-psychological competence, which are important in the manifestation of the harmony of personal and professional activity of security service employees, forensic psychologist experts assess professional competence by in-depth study and analysis of factors such as their adequate communication, adequate emotional attitude and drawing relevant empirical conclusions. The possibility of provision was confirmed once again.

References:

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O`smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnosics. O`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o`quv qo`llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o`gishgan bolalar psixologiyasi. O`quv qo`llanma. “Tafakkur avlodi” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Диагностика управленческих способностей. Вестник интегративной психологии журнал для психологов. Выпуск № 2, 2020 г. С 204-209.
8. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. – С. 125-127.
9. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. Психология журнали, 31-38 б.

Mo'minova Dilrabo Murodillayevna,
 Namangan davlat universiteti doktoranti
dilrabomuminova2018@gmail.com

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA DELINKVENT XULQ MUAMMOSINING O'RGANILISHI

Annotatsiya: Maqolada o'smirlik davrida delinkventlikning namoyon bo'lishi muammosini o'rganilishida xorij psixologlarning nazariy qarashlari, ilmiy konsepsiyalarining mazmuni ochib berilgan. O'smirlar jinoyatining asosiy sabablari yashash, o'qish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta'siri, bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlay olmaslik, o'smirlarning noto'g'ri tarbiyalashga olib keluvchi shart-sharoitlar, zo'ravonlik va noqonuniy harakatlarni ifodalovchi kitoblar va kinofilmlarning ta'siri, bolalar xulq-atvorni nazoratsiz qoldirish, ota-onaning munosabatlari, tengdoshlar munosabatlari, bolalarning g'amxo'rlik va mehrga bo'lgan ehtiyoji ota-ona tomonidan qondirilmaganligini, jazolardan doimiy foydalanish hamda oilada jismoniy zo'ravonlik, madaniy hordiq chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar kabi omillarni o'rgangan olimlarning fikr-mulohazalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: delinkvent, etiopatogenez, dezadaptatsiya, korreksiya, giyohvandlik, egoistik-anarxistik, individualistik, deviant.

ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМЫ ДЕЛИНКВЕНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ЗАРУБЕЖНОЙ ПСИХОЛОГИИ

Аннотация: В статье раскрывается содержание теоретических взглядов и научных концепций зарубежных психологов в изучении проблемы правонарушений в подростковом возрасте. Основными причинами правонарушений несовершеннолетних являются негативное влияние среды проживания, учёбы или работы, неумение правильно распределять свободное время, условия, приводящие к неправильному воспитанию подростков, насилие, влияние книг и фильмов, изображающих противоправную деятельность, бесконтрольное поведение детей, отношения родителей, отношения со сверстниками, неудовлетворение родителями потребности детей в заботе и ласке, постоянное применение наказаний и физического насилия в семье, организация культурной рекреации, приводятся мнения ученых, изучавших такие факторы, как дефицит достижения.

Ключевые слова: делинквент, этиопатогенез, дезадаптация, коррекция, зависимость, эгоист-анархист, индивидуалист, девиант.

STUDY OF THE PROBLEM OF DELINQUENT BEHAVIOR IN FOREIGN PSYCHOLOGY

Abstract: The content of theoretical views and scientific concepts of foreign psychologists in the study of the problem of delinquency in adolescence is revealed in the article. The main causes of juvenile delinquency are the negative influence of the living, studying or working environment, the inability to properly distribute free time, the conditions that lead to the wrong upbringing of adolescents, violence, and the influence of books and movies depicting illegal activities, children's behavior being left unchecked, parental relationships, peer relationships, children's need for care and affection not being met by parents, constant use of punishments and physical violence in the family, organizing cultural recreation opinions of scientists who have studied such factors as deficiencies in achievement are presented.

Key words: delinquent, etiopathogenesis, maladaptation, correction, addiction, egoist-anarchist, individualist, deviant.

Kirish. Jahonda turli yosh davrlariga xos delinkvent xulqining psixoprofilaktikasi va korreksiyasi xususidagi masalaga oydinlik kiritishga e'tibor ortib bormoqda. Eng so'nggi statistika shuni ko'rsatadiki, «2009-yilda voyaga yetmaganlar sudlari tomonidan ko'rilgan 1,5 million voyaga yetmaganlar ishining 30 foizi qizlarga to'g'ri keladi. So'nggi yigirma besh yil ichida o'g'il bolalar ishtirokidagi huquqbuzarliklar soni 17 foizga, qizlar ishtirokidagi huquqbuzarlik holatlari esa 86 foizga oshdi».[1.]. Garchi o'g'il bolalar o'rtasida huquqbuzarlik bilan bog'liq xavf omillari haqidagi bilim kelajakdagi faoliyatning asosiy bashorat qiluvchilarini aniqlash va tegishli profilaktika hamda aralashuv xizmatlarini ko'rsatishda yordam bergan bo'lsa-da, shunga o'xshash xavf omillari jinslar bo'ylab mavjudligi va o'g'il bolalar uchun mo'ljallangan

profilaktika dasturlari qizlar uchun umumlashtiriladimi yoki yo'qmi noma'lum. Bu borada shaxs shakllanishidagi qiyin davrlardan biri bo'lgan o'smir qizlarda delinkvent xulq namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini aniqlash, uning ob'yektiv va subyektiv omillarini tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy adabiyotlarda o'smirlarda kuzatiladigan delinkvent xulq-atvor muammolarini batafsil ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, XX asrning 80-yillaridan boshlab ushbu muammoni jadal o'rganishga qaramay, huquqbuzarlik xatti-harakatining bir ma'noli tushunchasi hali ishlab chiqilmagan. [2].

V.D.Mendelevich ta'kidlaganidek, «huquqbuzarlik va jinoiy xatti-harakatlar o'rtasidagi farq huquqbuzarliklarning og'irligi, ularning g'ayriijtimoiy tabiatining og'irligi bilan bog'liq» [3].

Ushbu tadqiqot doirasida jinoiy huquqbuzarlik deganda jinoyat qonunida nazarda tutilgan jazo tahdidi ostida ta'qiqlangan ijtimoiy xavfli harakatlar tushuniladi. Yashirin o'g'irlik, talonchilik, qotillik, tan jarohati yetkazish, kaltaklash, zo'rlash, avtomashinalarni o'g'irlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlariga nisbatan zo'ravonlik, giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy harakatlar shular jumlasidandir.

Ushbu fikrlarni birlashtirib, E.V. Zmanovskaya «delinkvent xulq - bu ma'lum bir shaxsning (guruhning) jamiyatda va ma'lum bir vaqtda o'rnatilgan qonunlardan chetga chiqadigan, boshqa odamlarning farovonligiga yoki ijtimoiy tuzumiga tahdid soladigan, jinoiy javobgarlikka tortiladigan xatti-harakatlarida va ularning haddan tashqari namoyon bo'lishida» deb ta'kidlaydi [4]. E.V. Zmanovskaya huquqbuzarlik xatti-harakatlarining uchta kichik turini ajratib ko'rsatadi: intizomiy huquqbuzarliklar, kichik huquqbuzarliklar shaklida (asosiy xatti-harakatlar) va jinoyat kodeksini buzadigan jinoiy harakatlar (antisotsial xatti-harakatlar) [2].

V.N. Kudryavtsev o'smir shaxsining delinkvent xulq-atvorining shakllanishi sabablarini aniqlashda oilaviy muammolar va tarbiyaning «pedagogik bo'lmagan» usullari mavjudligini ta'kidlaydi, bu esa o'z navbatida o'smirning ijtimoiy moslashuviga yani nochorlik va ichki yolg'izlik hissi paydo bo'lishiga olib keladi [5].

Olimlarning tadqiqotlarda tashqi omillar bilan bog'liq shaxsning delinkvent xulq-atvorining shakllanishi, bolalarning g'amxo'rlik va mehrga bo'lgan ehtiyoji ota-ona tomonidan qondirilmaganligini, yani e'tiborsiz ona yoki haddan tashqari zo'ravon ota bolada erta travmatik tajribaga sabab bo'ladi. Jazolardan doimiy foydalanish va oilada jismoniy zo'ravonlik o'smirlik davrida shaxsning shakllanishiga salbiy ta'sir qiladi.

Bola-ota-ona munosabatlarining salbiy shakllari mavjud oilada masalan, otaning ta'sirining yetarli emasligi yoki yo'qligi, o'smir istaklari va xohishlariga ota-onalarning talabchanligi, ushbu talablarning nomuvofiqligi, o'smirning delinkvent xulqqa moyilligi oilaviy qadriyatlarini o'rganish orqali o'zlashtiriladi [6].

Mazkur muammoning tadqiqi bilan shug'ullangan bir qator olimlarning fikricha, sodir etilgan har o'nta jinoyatdan olti-sakkiztasini ijtimoiy dezadaptatsiyani bartaraf qilish orqali samarali amalga oshirish mumkin. Xulq-atvorida buzilishlari bo'lgan o'smirlarning psixik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berishi sir emas. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablar (etiopatogenezi) tibbiy va korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirish miqdori - kompleks yondashuvni talab etadi. Zero, yildan-yilga o'smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar, ularning intellektual-emotsional-irodaviy rivojlanishdan ham orqada qolish holatlari ortib borayotganidan dalolat bermoqda.

Richard Daygdeyglning fikricha, “ba'zi jinoyatkorona xulq-atvor shakllanishi uchun xos bo'lgan mayllar doimo avloddan-avlodga o'tib turadi” [2].

V.V.Luneev qonunga qarshi harakatlarning quyidagi yetakchi motivatsiyalarini ko'rib chiqadi: g'arazli-ta'magir, zo'ravon-egoistik anarxistik-individualistik engiltabiat-mas'uliyatsizlik, qo'rqqoq-jur'atsizlik.

A.I.Dolgova o'smirlar misolida shaxs dezadaptatsiyasining zo'ravon va g'arazli tiplarini ajratadi. Zo'ravonlik tipida o'z-o'zini tasdiqlashga intilish, o'zini kuchli, haqiqatgo'y, har doim yordamga tayyor mehribon “natura” deb tasavvur etish xohishi mavjud. Biroq haqiqatgo'ylik haqidagi tasavvur bunday shaxslarda noto'g'ri, ish mohiyati bo'yicha ularning axloqi jinoyatchining axloqi hisoblanadi. Ular uchun guruhli egoizm, norasmiy guruhlarga uzviy bog'langanlik, shafqatsizlik kuchga ibodat qilish, o'z axloqining to'g'riligiga ishonch tipik xususiyat hisoblanadi. G'arazli tip uchun guruhli emas, individual egoizm karakterli. Uning vakillarida qadriyatli oriyentatsiya ancha nuqsonli, ular o'z harakatlarining qonunga qarshi xarakterini to'la anglaydilar. Bunday o'smirlarga sirlilik, axloqsizlik g'arazli ko'rsatmalarning mavjudligi anchagina chuqur ijtimoiy qarovsizlik xosdir. Amaliyotning kattagina qismida ko'rsatilgan tiplarning kombinatsiyasi bilan ish olib borishga to'g'ri keladi [7].

S.S.Ostroumov va N.F. Kuznetsovalar oilaviy tarbiyaning bo‘shashib ketganligi huquqbuzarlar sodir etishning sababi bo‘lolmaydi, balki faqat sharoit bo‘la oladi, deb yozadi [7].

Karpets: “Nazoratsizlik, unga yana ichkilikbozlik qo‘shilsa jinoiy hodisalarga olib keladi. Olimlar ham amaliyot xodimlari ham ularning tushunchalariga allaqachon shakllanib bo‘lgan rad qila olmaydigan tasavvurlar asiri bo‘ladilar. Masalan, biz bezorilikning sababi ichkilikbozlik deb ataymiz, o‘smirning alohida bir jinoyat sodir etishining sababi nazoratsizlikdir deb gapiramiz va hokazolar” – deb yozadi, ammo bu sabablar bizning umumiy kuzatuvlarimiz asosida oldindan yuzaki ravishda shakllangan sabablardir, haqiqiy holatlarda esa ular jinoyatning sababi bola olmaydi.

Bizning fikrimizcha, og‘ishgan (deviant) xulqning turli-tuman ko‘rinishlarini tizimga solishga urinib ko‘rgan S. P. Korolenko va T. A. Donskixlarning olib borgan ishlari diqqatga sazovordir. Mualliflar barcha xulq deviatsiyalarini ikkita katta guruhga ajratishadi: nostandart va destruktiv xulq.

Nostandart xulq - yangicha tafakkur, yangi g‘oyalar, shu bilan birga xulqning ijtimoiy qoliplar chegarasidan tashqariga chiqadigan xatti-harakatlar kabi shakllarda ifodalanadi. Harakatlarning mazkur shakli aniq tarixiy sharoitlarda qabul qilingan normalardan chetga chiqadigan faollikni ham ko‘zda tutadi, chunki ushbu harakatlar jamiyat taraqqiyotida ijobiy rol o‘ynaydi. Muayyan bilim sohasidagi ilk kashfiyotlar, novatorlar, inqilobchilar, muholifatchilar faoliyati nostandart xulqqa misol bo‘la oladi. Mazkur guruh a‘zolarining xatti-harakatlari qat‘iy tartibda og‘ishgan xulqqa moyil deb bo‘lmaydi [8].

S.P.Korolenko va T.A.Donskix ichki destruktiv xulqning quyidagi shakllarini farqlab ko‘rsatadilar: suitsidal, konform, nartsistik, fanatik, autik xulq.

- Suitsidal xulq – o‘z joniga qasd qilish ehtimolining o‘ta kuchliligi bilan izohlanadi.

- Konform xulq – shaxsning individuallikdan mahrum bo‘lishi, faqat boshqa nufuzli shaxslarning ta‘sir doirasida bo‘lishini anglatadi.

- Nartsistik xulq – shaxsning buyuklikka da‘vo qilishida aks etadi.

- Fanatik (mutaassib) xulq - ma‘lum bir g‘oyalar va qarashlarga ko‘r-ko‘rona ishonish hamda berilishni nazarda tutadi.

- Autik xulq – shaxsning atrofdagi odamlar va tashqi olamdan bevosita chetlashganligi, faqat o‘zining ichki dunyosi bilan yashayotganligi, tasavvurlar domida ekanligida ifodalanadi.[8]

V.N.Kudryavtsevning ko‘rsatishicha, jinoyatga yo‘l maktabdan begonalashish va o‘quv faoliyatidan chetlashishdan boshlanadi. So‘ngra, ayrim muammolar tufayli o‘z oilasidan yiroqlashish yuz beradi, kelgusi qadam jinoiy guruhga qo‘shilish va huquqbuzarlik sodir etish boshlanadi, jinoiy yo‘lni bosib o‘tish taxminan ikki yilni o‘z ichiga oladi [9].

Shunday qilib, olimlarning tadqiqotlari tajribasini umumlashtirib, insonning huquqbuzarlik harakatining o‘rganilayotgan hodisasi ko‘p qirrali degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tajriba qismi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan ichki va tashqi sharoitlar delinkvent axloqning shakllanishiga imkon beradi. Gap qonunga qarshi axloqning bevosita sababi bo‘lib chiquvchi maxsus motivatsiya haqida borar ekan biz ham o‘smirlarda delinkvent xulq bilan tajovuzkorlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida tadqiqotlarimizda A.Bass-A.Darkining tajovuzkorlikni o‘rganishga bag‘ishlangan metodikasidan foydalandik, chunki bu metodika psixologik tadqiqotlarda, tashxis amaliyotida eng ko‘p ishlatiladigan klassik metodikalar sirasiga kiradi va o‘smirlar tajovuzi bo‘yicha to‘la ma‘lumot bera oladi. A.Bass-A.Darki metodikasi xorijiy va mahalliy psixologlar tomonidan shaxsdagi emotsional jihatlarni, ya‘ni, tajovuzkorlikni, salbiy hissiyotlarni diagnostika qilish uchun keng qo‘llanilgan.

Mazkur metodika 75 ta mulohazadan iborat bo‘lib, respondentlarning javoblari maxsus kalit yordamida ishlab chiqiladi va kalitga asosan sakkizta ko‘rsatkich bo‘yicha ma‘lumotlar olinadi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagilardan iborat:

1. Jismoniy tajovuz – boshqa bir shaxsga nisbatan jismoniy harakatlar qilish.

2. Bilvosita tajovuz – to‘g‘ridan-tovg‘ri emas, boshqa yo‘llar bilan (chetdan, orqa-varotdan) amalga oshiriladigan tajovuz.

3. Jahldorlik – arzimagan bahona yoki sabab bilan ham salbiy –hissiyotlarini ko‘rsatish (qo‘pollik, tez jahl chiqishi).

4. Salbiy munosabatlar (negativizm) – oppozitsion muxolifatchilik xulq, odatda biror-bir avtoritetga yoki rahbariyatga yo‘naltirilgan bo‘ladi, bu xulq talab etilgan qonun va odatlarga qarshi passiv qarshilikdan to faol kurashgacha o‘sishi mumkin.

5. Alamzadalik – atrofdagilarga hasad qilish va ulardan nafratlanish, arzimagan ko‘ngilsizliklarda ranjish, g‘azablanish va “butun dunyoni ayblash”.

6. Badgumonlik – atrofidagi insonlarga bo‘lgan ishonchsizlik va ehtiyotkorlik, fikricha, atrofdagilar ularga ataylab yomonlik qilishadi.

7. Verbal tajovuz – negativ hissiyotlarini soʻz yordamida ifodalash (baqirish, janjallashish, tahdid qilish, soʻkish, qargʻash).


8. Aybdorlik hissi – subʻekt oʻzining yomonligi, atrofidagilarga zarar keltirishi haqidagi oʻy-fikrlari hamda vijdonan qiynalishi.

1-jadval.

A.Bass-A.Darkining “Tajovuzkorlikni oʻrganish” metodikasi boʻyicha olingan natijalar tahlili

Shkalalar	1-guruh	2-guruh
Jismoniy tajovuz	20%	18%
Bilvosita tajovuz	12%	11%
Jahldorlik	14%	12%
Salbiy munosabatlar	13%	16%
Alamzadalik	12%	10%
Badgumonlik	8%	12%
Verbal tajovuz	14%	15%
Aybdorlik hissi	7%	6%

Olingan maʼlumotlarning natijasi diagrammada aks ettirilgan.



1-diagramma. Oʻsmirlik davrida tajovuzkorlikning namoyon boʻlishi

Tadqiqotlarimizda oʻsmirlik davrida delinkvent xulqqa tajovuzkorlikning taʼsirini oʻrganayotganimiz uchun biz asosan jismoniy tajovuz, bilvosita tajovuz hamda verbal tajovuz koʻrsatkichlari boʻyicha olingan maʼlumotlarni tahlil qildik.

“Jismoniy tajovuz” shkalasi boʻyicha oʻrtacha arifmetik qiymat 20% va 18% ni tashkil etgan boʻlib, bunday holatlar oʻsmirlar koʻproq jismoniy kuchlariga tayanishlari koʻrsatadi. Shuningdek, ular uchun biror bir vaziyatni hal qilishning muhim yoʻllaridan biri bu urishish, janjallashishda deb biladilar.

Metodikaning navbatdagi shkalasi jahldorlik sinaluvchilarda ahamiyatli koʻrsatkichlarni tashkil qiladi. Unga koʻra, 1-guruh oʻsmirlarida 14% va 2-guruh oʻsmirlarida 12% ni tashkil qiladi. Bu esa oʻz navbatida mazkur yosh davr uchun xos boʻlgan xususiyat deyishimiz mumkin. Shuningdek, jahldorlik juda kichik taʼsirga nisbatan ham negativ javob berishga tayyorlik (qiziqqonlik, qoʻpollik) kabi jarayonlarda yaqqol koʻzga tashlanadi. Ayniqsa, oʻsmirlik davrining psixologik xususiyatlarini hisobga oladigan boʻlsak, bunday holatni boʻlishi tabiiy holatdir.

Shkalaning mazmunidan koʻrish mumkinki, oʻsmir shaxsi doimiy ravishda jamiyat, ota-ona va kattalar tomonidan qoʻyilgan turli toʻsiqlarga nisbatan ichki qarshilik bilan javob berish xususiyatining mavjudligi bilan tavsiflanadi. Unga koʻra, 1-guruh oʻsmirlarida past yaʼni 13% va 2-guruh oʻsmirlarida 16% ni tashkil qilganligini koʻrishimiz mumkin. Bu koʻproq ularning kattalar taʼsiridan qutilish hamda mustaqillikka ega boʻlishi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot natijalaridan koʻrish mumkinki, alamzadalik sinaluvchilar

guruhida ahamiyatli tarzda pasayganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, dastlab o‘smirlar kattalarning xatti-harakatlaridan ranjigan bo‘lsalar keyinchalik u odat tusiga kirganligi bilan tavsiflanadi. Badgumonlik-kishilarga nisbatan ishonchsizlik va ehtiyotkorlikdan tortib to kishilar tomonidan zarar yetkazish rejalashtirilmoqda yoki zarar keltiradi, deb ishonishga qadar bo‘lgan diapozonni qamrab oladi. O‘z navbatida o‘smir shaxsi nafaqat o‘zidan, balki o‘zgalardan ham shubhalanish, atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatarni o‘zida namoyon qiladi. Natijalarga ko‘ra, badgumonlik 1- guruh o‘smirlarida 8% va 2- guruh o‘smirlarida 12% ni tashkil qilib, yoshga bog‘liq ravishda ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Metodikaning navbatdagi shkalasi verbal tajovuz sinaluvchilar guruhida o‘ziga xos o‘rinda namoyon bo‘lib, ahamiyatli ravishda ortganligi bilan tavsiflanadi. SHuningdek, sinaluvchilarning natijalariga ko‘ra, 1- guruh o‘smirlarida 14% va 2-guruh o‘smirlarida 15% ni tashkil qilganligi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, ko‘rsatkichlarning bu tarzda namoyon bo‘lishi ular kamol topayotgan muhitga, atrofdagilarning munosabatlariga, jamiyat tomonidan qo‘yilayotgan talablar tizimiga bog‘liqligi bilan belgilanadi. O‘smirlik davrida shaxs tomonidan doimiy ravishda kutilgan yoki kutilmagan tarzda qonun-qoida buzish holatlari uchrab turadi. Bu esa o‘z navbatida qilgan ishidan ta‘sirlanish, uyaliq, aydorikni his qilishi ma‘lum ma‘noda ahamiyatsiz ko‘rinishga egaligi bilan belgilanadi. Ta‘kidlash joizki, aybdorlik 1- guruh o‘smirlarida yuqori 7 % ni tashkil qilsa, 2- guruh o‘smirlarida 6% ko‘rsatkich qayd qilinadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatdagi turli xulq-atvor normalarini buzilish ular uchun odatiy holga aylangan bo‘lib, mazkur narsalar uchun ular o‘zlarida aybdorlikni his qilmaydilar.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, psixologiyada shaxsning delinkvent xulq-atvori muammosi o‘smirlar misolida oilaviy munosabatlar va ijtimoiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari kontekstida, ichki munosabatlarning ta‘sirini hisobga olgan holda o‘rganilgan. Shakllanmagan o‘ziga xoslik fonida o‘z-o‘zini hurmat qilish, o‘z-o‘zini anglash, o‘z taqdirini o‘zi belgilash kabi omillar, shu bilan birga, psixofiziologik buzilishlar bilan bog‘liq biologik omillar ta‘kidlandi.

O‘smirlik davriga xos delinkvent xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o‘smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma‘naviy-axloqiy me‘yorlarni tan olmasligi, ta‘lim-tarbiya bilan shug‘ullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi.

Adabiyotlar:

1. Puzanchera, Adams, & Hockenberry, 2012
2. Змановская, Е.В. Поведение: структурно- динамический подход: дисс. д-ра психол. наук: - СПб., 2006. - 450 с.
3. Менделевич, В.Д. Психология девиантного поведения В.Д. Менделевич. - СПб.: Речь, 2005. - 445 с.
4. Климова, М.О. Диагностика личностной беспомощности у подростков: разработка и апробация психодиагностического инструментария М.О.Климова, Д.А.Циринг Сибирский психологический журнал. 2017. № 66. -С. 130-140.
5. Кудрявцев, В.Н. Борьба мотивов в преступном поведении В.Н. Кудрявцев.- М.: Норма, 2007.- 126 с.
6. Ганишина, И.С. Формирование девиантного, аддиктивного и делинквентного поведения несовершеннолетних в условиях жизни в неблагополучной семье И.С. Ганишина Психология XXI века: вызовы, поиски, развития. Сборник материалов Всероссийского симпозиума психологов. Под общей редакцией Д.В. Сочивко. - 2019. - С. 241-250
7. Kamilova N. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi T. 2014.54с
8. Клейберг Ю.А. Психология девиантного поведения .М.,200. 51-53с
9. Гишинский Л. И. Социология девиантного поведения Л. И. Гишинский, В. С. Афанасьев - СПб., 1993

UDK 159.923(575.1)

Otamuratov Rustam Uskanovich,

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, "Psixologiya" fakulteti o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati,
rustamota1989@gamil.com*

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna,

*O'zMU "Psixologiya" kafedrasida magistri, O'zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati,
rustamota1989@gamil.com*

Ochilova Muxlisa,

*O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali "Psixologiya" fakulteti talabasi,
O'zbekiston Respublikasi, Jizzax viloyati,
muxlisa2604@gmail.com*

INTERNETGA QARAM O'SMIRLAR HISSIY INTELLEKTNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Zamonaviy jamiyatning har bir kishisi hozirgi "kibernetik jamiyat"da virtual makonga doimiy sho'ng'ishi odatiy holga kelib qoldi, bu ularning kasbiy, ilmiy va boshqa faoliyat turlaridan foydalanish imkonini bermoqda, lekin bu ularning Internetdan foydalanishga qaramlikni shakllantirishga olib kelishi mumkin va balki oxir-oqibatda shaxs xatti-harakatlari va shaxsiy-hissiy rivojlanishdagi sezilarli o'zgarishlarga yordam beradi. Ushbu maqolamizda biz o'smirlarda Internetga qaramlikning hissiy intellekti bilan aloqasini ko'rib chiqdik, olingan ma'lumotlarni qayd etdik.

Kalit so'zlar: kibernetik jamiyat, addiksiya, resurs, hissiy intellekt, virtual makon, ekstroversiya, introvert, nevrotizm, oflayn, aggressiya, rigid.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМЫХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация: Для всех в современном обществе стало нормальным постоянное погружение в виртуальное пространство в нынешнем «кибернетическом обществе», что позволяет им использовать свою профессиональную, научную и иную деятельность, но это может привести их к пристрастию к использованию Интернет, а со временем - в конечном счете способствует существенным изменениям в личностном поведении и личностно-эмоциональном развитии. В данной статье мы рассмотрели взаимосвязь между интернет-зависимостью и эмоциональным интеллектом у подростков и зафиксировали полученные данные.

Ключевые слова: кибернетическое общество, зависимость, ресурс, эмоциональный интеллект, виртуальное пространство, экстраверсия, интроверт, нейросистема, офлайн, агрессия, ригидность.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF EMOTIONAL INTELLIGENCE OF INTERNET DEPENDENT ADOLESCENTS

Abstract: It has become normal for everyone in the modern society to be constantly immersed in the virtual space in the current "cybernetic society", which allows them to use their professional, scientific and other activities, but this can lead to their addiction to the use of the Internet, and eventually - ultimately contributes to significant changes in personal behavior and personal-emotional development. In this article, we examined the relationship between Internet addiction and emotional intelligence in adolescents, and recorded the obtained data.

Key words: cybernetic society, addiction, resource, emotional intelligence, virtual space, extroversion, introvert, neurosystem, offline, aggression, rigid.

Kirish. Zamonaviy jamiyat Internetdan keng foydalanish tendentsiyalari bilan ajralib turadi. O'tgan asrning oxirida (90-yillar) barcha turdagi axborot resurslarining keng tarqalganligi va ulardan foydalanishning cheksizligi bilan tavsiflangan maxsus ijtimoiy-madaniy muhit jadal shakllandi [1,7 b.]. Internetning virtual makonidagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati insoniyat taraqqiyotida yangi bosqich - "kibernetik jamiyat" boshlanishi bilan bog'liq bo'lib, u taraqqiyot dvigateli sifatida axborot resurslarining roli ortib borishi bilan tavsiflanadi [2,15 b.]. Zamonaviy dunyoda onlayn xizmatlarning to'liq

tarqalishi zaruratga aylandi. Internetdagi axborot manbalarining ochiqqligi va onlayn xizmatlarning tobora ommalashib borishi, axborotlarni raqamlashtirish, bir tomondan, turli hayotiy vazifalarni samarali hal qilish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ular foydalanuvchilarning Internetda o'tkazadigan vaqtini ko'paytirishga sabab bo'ladi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Hissiy intellekt muammosi hozirgi vaqtda xorijiy psixologlar (I.N.Andreeva, R.Bar-On, A.G.Gladkix, D.Goleman, S.P.Derevyanko, Yu.S.Dodonov, M.Seidner, O.) asarlarida ancha keng yoritilgan. Ibarra, D. Karuso, K. Kross, D. V. Lyusin, O. V. Luneva, J. Meyer, J. Metyu, V. V. Ovsyannikova, A. A. Pankratova, V. G. Pichugin, R. B. Roberts, M. S. Rodionova, T. S. Spirkina, A. Sayorkov, A. Sa. , P. Salovey, D. V. Ushakov, V. D. Shadrikov va boshq.). So'nggi paytlarda hissiy intellektni o'rganishning nazariy jihatlarini empirik dissertatsiya tadqiqotlari bilan to'ldirildi, shu jumladan kichik maktab o'quvchilari (K.S. Kuznetsova, 2012; A.E. Dobrin, 2015); o'smirlik davrida (Yu.V. Davydova, 2011); o'smirlik va erta voyaga yetganlik bosqichida (L. N Vaxrusheva, 2011); universitet talabalari orasida (I.N. Meshcheryakova, 2011); kattalarda (T. S. Kiseleva, 2015). O'rta maktab o'quvchilarining o'quv faoliyatini yaxshilashda hissiy intellektning roli o'rganildi (F.X. Kobra, 2013) [3,96 b.]. Ushbu muammo bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik olimlarning fikriga ko'ra (K.Yang, M. Griffiths, I. Goldberg, L.N. Yuryeva, Yu.A. Kleiberg, Yu.D. Babaeva, A.E. Voiskunskiy, O.V. Smyslova, A.I.Mandel, A.Yu.Egorov, E.V.Zmanovskaya va boshqalar), Internetga qaramlik - bu xatti-harakatlarning buzilishini anglatadi. Internetdan va kompyuterdan (yoki uning o'rini bosuvchi qurilmadan) foydalanish, tarmoqdagi faoliyat turidan qat'i nazar, oflayn rejimda Internetga kirishga bo'lgan majburiy istak va undan foydalanish paytida Internetdan chiqqa olmaslik [4,14 b].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ilmiy ishimizda K.Yang tomonidan ishlab chiqilgan "Internetga qaramlik testi" metodikasi va G.Yu.Ayzenkning Shaxs tiplari so'rovnomasining A blankasidan foydalandik, unga ko'ra shaxsning tashqi va ichki omillari hissiy barqarorligi kabi ikki omillarning amaliy ishlari ko'rib chiqiladi [9,5 b.]. Ushbu metodikaning asosiy vazifasi shaxsdagi xarakter aksentuatsiyasini ilmiy amaliy tomondan ochib berish hisoblanadi. Bu metodikaning asosiy ikki omili va uchta shkalasi mavjud hisoblanadi. Ikki omil bu asosiy quyi va yuqori sifatlarining namoyon bo'lishida ya'ni shaxsdagi ekstroversiya-introversiya shaxsning tashqi va ichki sifatli xususiyatlarini, eng muhimi esa bizning ilmiy mavzuumizdagi nevrofizik shkalasi sanaladi bunda shaxsdagi emotsional barqarorlik jihatlarini ko'rib chiqiladi.

Internet makonida hissiy intellekt muammolarini ochib berish borasidagi samarali ishlar tarmoq aloqlarining psixologik jihatlarini tadqiq etgan olim G.G.Pocheptsovaning yozgan ilmiy ishlarida o'z isbotini topgan [5,10 b.]. Ushbu olimning ishlaridan boshqa olimlarning tadqiqotlarida internet foydalanuvchilarining o'zaro tarmoqdagi xavf-xatarlarning mavjudligi qayd etilgan, kommunikativ deviant xatti-harakatlarning sabablari va oqibatlari hamda psixologik tavsiflari, belagilari tahlil qilingan. Psixologik tomondan emotsional sohaning xususiyatlarini ochib berish masalalari yuzasidan yondoshuvlar olimlar D.Gann, G.Petri tomonidan hissiy sohaning xususiyatlari ochib berilgan [6,143 b.]. Yana bir boshqa olim R.O.Yakobson tomonidan aloqa kodi, muloqot makoni va hissiy-kontekstual mazmun-mohiyatini yoritib bergan [7, 214 b.]. Yoki Internetdan foydalanish butun dunyo bo'ylab tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda (Byun, Ruffini, Mills va boshqalar, 2009; Czincz & Hechanova, 2009) va ayniqsa, o'smirlar (Valkenburg va Peter, 2009) [8,132 b.].

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hozirgi kunga kelib internet tarmog'i eng tezkor axborot tarqatish va yetkazib berish vazifasini o'taydigan va insonlar hayotining ajralmas bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida insonlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda ularning hissiy intellekt sohasiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Biz tadqiqot uchun Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan hodimlarni tanlab oldik. Tadqiqotga 30 nafar erkak va 31 nafar ayol respondentlar jalb etilgan (1-diagramma).



1-diagramma.


Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning 32,8 %i (20 nafar) oilalilar va 67,2 %i (41 nafar) bo‘ydoqlar turmush qurmaganlar bo‘lib, sinaluvchilarning yoshi 19 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan oraliqni tashkil etdi.

Oilaviy ahvoli

1-jadval.


Ko‘rsatkichlar	Sinaluvchilar soni	Foizi	Valid Percent	Cumulative Percent
Oila qurmagan	41	67,2	67,2	67,2
Oilali	20	32,8	32,8	100,0
Jami	61	100,0	100,0	

Sinaluvchilarning yosh jihatdan o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 23,59 ni tashkil etdi (2-diagramma).



2-diagramma.


Tadqiqotimizda qo‘llanilgan metodikalar: K.Yangning “Internetga qaramlik testi) va G.Yu.Ayzenkning EPI test anketasi (A.G.Shmelev tomonidan moslashtirilgan). Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, yosh jihatdan internetga qaramlik bo‘yicha farq aniqlandi. Yanikim, internetga qaram bo‘lgan o‘ziga xos shaxs xulq-atvorini aniqlashga qaratilgan, internetga qaramlik hatti-harakatlari bilan bog‘liq individual psixologik xususiyatlarning namoyon bo‘lishida 19, 20, 21,22,23,24,26,30, 36 yoshli sinaluvchilar internetdan foydalanuvchilar, 25 va 29 yoshli sinaluvchilar esa internetdan tez-tez foydalanishga odatlanib qolganliklari aniqlandi (3-diagramma).

**3-diagramma.**

Internetga qaramlik bo'yicha olingan natijalarga muvofiq oila qurgan va oila qurmagan sinalluvchilar o'rtasida samimiylik bo'yicha farq kuzatildi. Ya'ni, so'rovnomada ishtirok etgan oila qurgan sinalluvchilarda oila qurmagan sinalluvchilarga qaraganda samimiylikni ko'proq ishlatishgani ma'lum bo'ldi. Yani, ularda shaxsda o'zining emotsiyalarini boshqara olish, atrofdagilarning emotsiyalarini to'g'ri baholay olish, o'zgalarning his-tuyg'ulari va bu ma'lumotlardan insonning fikrlash va harakatlarini boshqarish uchun foydalanish qobiliyatini farqlashning yuqori ekanligi bilan tavsiflashimiz mumkin (4-diagramma).


2-jadval.

Ko'rsatkichlar	Oilaviy ahvoli	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t-mezon	p
K.Yang anketa	Oila qurmagan	41	31,9756	11,89850	-,140	,889
	Oila qurgan	20	32,5000	17,06798		
Ekstroversiya-introversiya	Oila qurmagan	41	13,8537	2,68850	,073	,942
	Oila qurgan	20	13,8000	2,74533		
Nevrotizm	Oila qurmagan	41	13,5854	4,93951	1,150	,255
	Oila qurgan	20	12,0000	5,29150		
Yolg'on	Oila qurmagan	41	3,1951	1,45292	-2,152	,036**
	Oila qurgan	20	4,1000	1,71372		

**4-diagramma.**

Tadqiqot ishtirokchilarini jins jihatdan taqqoslaganda K.Yang so‘rovnomasi bo‘yicha erkaklarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 29 ni, ayollarda 34 ni, ekstrovertlik va introvertlik bo‘yicha erkaklarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 13 ni, ayollarda ham 13 ni, nevrotizm bo‘yicha erkaklarda o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 12 ni, ayollarda 13 ni, samimiyluk ham erkaklarda ham ayollarda ham o‘rtacha qiymat ko‘rsatkichi 3 ballni tashkil etdi (5-diagramma).

Olingan natijalarga asoslangan holda aytishimiz mumkinki, sinaluvchilarning natijalariga muvofiq shaxsiy emotsiyalar va o‘zgaralarning hissiyotlarini o‘zirikidek qabul qilish, shaxslararo munosabatlarda o‘zining hissiyotlarini nazorat qila olish va shuningdek, bu borada o‘ziga-o‘zi motivatsiya berishlik qobiliyatining shakllanishi natijasida internet foydalanuvchilarida asab tizimining labilligi ko‘rsatkichlarining namoyon bo‘lishi stressli vaziyatlarda vaziyatga e‘tiborni qaratish, xavotirning namoyon bo‘lishi, yetakchilikka moyillik, o‘ta asabiylashish, depressiv reaksiyalar va kayfiyatning tez o‘zgarishi bilan ifodalashimiz mumkin. Shu bilan birgalikda qiziqishlarning tez-tez o‘zgarishi bilan hissiy intellektning internet foydalanuvchilarida o‘z ifodasini topishi mumkin. Shaxsiy emotsiyalarning oshishi esa o‘z navbatida samimiylukning kamayishiga sabab bo‘ladi. Nevrotizmning ya‘ni hissiy beqarorlikning ortishi o‘z navbatida bu ham samimiylukning pasayishiga olib keladi. Aytishimiz mumkinki, internetga qaramlik insonda ham ruhiy, ham fiziologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.



5-diagramma.

3-jadval.

Ko‘rsatkichlar	K.Yang anketa	Ekstroversiya-introversiya	Nevrotizm	Yolg‘on
K.Yang anketa	1	,191	,354(**)	-,452(**)
Ekstroversiya-introversiya		1	-,135	,160
Nevrotizm			1	-,466(**)
Yolg‘on				1

Xulosa. Umumiy olingan natijalardan foydalanib, biz Internetga qaramlik oqibatida o‘smirlardagi hissiy intellektning rivojlanishi yoki ortda qolishligini guvohi bo‘lamiz. Internetga qaram bo‘lgan o‘smirlar orasida esa ayollarda Internetga qaramlik erkaklarga nisbatan yuqori chiqqanligini o‘rishimiz mumkin, bu esa ayollarda hissiy intellektning rivojlantirilishi kerakligini o‘z isbotini topadi ya‘ni ayollarimizda hissiyot erkaklarga nisbatan kuchli ekanligini isbotlaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin; Internetga qaramlik shakllanishining turli bosqichlarida uning tuzilishiga psixofizik, individual psixologik darajalar va ijtimoiy munosabatlar darajasining bashoratchilari turli xil hissa qo‘shadilar.

Ushbu qilingan ishimizda olingan natijalarga asoslanib, Internetga qaram o‘smirlarning hissiy intellekti haqidagi bir qator natijalarni chiqaramiz.

- “Internetga qaramlik” tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadida xorijiy va mahalliy adabiyotlarni to‘liq va aniq tahlil qilish;

- Internetga qaramlikning insonning jismoniy salomatligi, psixologik va ijtimoiy sohalariga ta‘siri bo‘yicha fanda mavjud bo‘lgan tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish;

- Internetga qaramlikning psixofizik, individual psixologik darajalari va o'smirlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar darajasining bashorat qiluvchi omillarini empirik o'rganish;
- empirik tadqiqotlar orqali hissiy intellektning shakllanishining turli bosqichlarida internetga qaramlik tuzilishiga psixologik prognoz qiluvchilarning hissasini aniqlash;
- Internetga qaramlikning oldini olish va tuzatish bo'yicha dalillarga asoslangan ko'rsatmalarni ishlab chiqish, shunda Internetga qaramlikning hissiy intellekt o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. Андреева И.Н. Понятие и структура эмоционального интеллекта // Социально-психологические проблемы ментальности: 6-я Междунар. научно-практ. конф. 26-27 ноября 2004 г. Смоленск: В 2 ч. Ч. 1. Смоленск: Изд-во СГПУ, 2004. С. 22-26.
2. Nosov N.A. Virtualistika / N.A. Nosov // Falsafa fanlari.- 2000.- No 4.- B. 145.
3. Narmetova Y.K., Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, Jo'rayeva K. A., Analytical Journal of Education and Development, Volume: 02 Issue: 12 | Dec-2022 ISSN: 2181-2624 96-b.
4. Uskanovich, Otamuratov Rustam, Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna, Ibodullayeva Nodira. "Virtual muhitda o'zaro samarali ta'sirining psixologik xususiyatlari." *Yangi asr innovatsiyalari jurnali* 25.4 (2023): 62-66.
5. Otamuratov R.U. Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi., Ташкентский государственный стоматологический институт., "Med Union" медицинский научно-практический журнал. Volume 2, Issue 1, 2023.
6. Otamuratov R.U., Ochilova M. Emotsional intellekt tushunchasining psixologik o'ziga xosligi // CARJIS. 2022. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/emotsional-intelekt-tushunchasining-psixologik-o-ziga-xosligi> (дата обращения: 30.01.2023).
7. Otamuratov R., Otamuratova S. O'smirlarda kasbiy o'zligini anglashiga xavotirlanishning ta'siri., O'zMU Xabarleri., Mirzo Ulug'bek nomidagi o'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali., 2023 1/1 Ijtimoiy gumanitar fanlar turkumi, 140-144 b., Toshkent 2023.
8. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). Internetning shaxsga ta'siri muammosining psixologik xususiyatlari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
9. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). Virtual muhitning shaxsga ta'sirining psixologik xususiyatlari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
10. Otamuratov, R., & Otamuratova, S. (2023). Virtual muhitning shaxsga ta'sirining hissiy omillari. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

*Saribayeva Umida Sattarovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasida dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi*

MEN-SHAXSIYAT KONSEPSIYASIDA GENDER ROLLARINI VA IJTIMOY MAQOMINI ANIQLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada feministik nazariyalarning klassik qarashlarida erkaklarning ayollarga nisbatan ijtimoiy guruh sifatida ustunligi haqidagi nazariyalar stereotiplar ta'sirida gender rollarini shakllantirilganligi, ayollik va erkaklik sifatlarini tug'ma emasligi, gender o'ziga xoslikni ijtimoiy madaniy hayot kontekstida shakllanib borishi ilmiy manbalar yordamida asoslab berildi. Shaxsning asosiy xususiyatlari, o'z "men"i haqidagi fikrlari, ijtimoiy maqom va unga aloqador xususiyatlari o'rganildi.

Kalit so'zlar: feministik nazariya, klassik qarashlar, erkak, ayol, ijtimoiy guruh, ustunlik, stereotiplar, sinaluvchi, shaxs, gender rollar, shakllanish, shaxs identifikatsiyasi, ijtimoiy maqom, xususiyat.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И СОЦИАЛЬНОГО СТАТУСА В КОНЦЕПТЕ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. В данной статье с помощью научных источников обосновано, что в классических воззрениях феминистских теорий теории о превосходстве мужчин над женщинами как социальной группы формируются под влиянием стереотипов о гендерных ролях, о том, что женские и мужские качества не являются врожденными, а гендерная идентичность формируется в контексте социокультурной жизни. Были изучены основные черты личности, представления о собственном "я", социальном статусе и связанные с ним черты.

Ключевые слова: феминистская теория, классические взгляды, мужчина, женщина, социальная группа, превосходство, стереотипы, экспериментатор, личность, гендерные роли, формирование, личностная идентификация, социальный статус, черта.

DETERMINATION OF GENDER ROLE AND SOCIAL STATUS IN THE CONCEPT OF PERSONALITY

Annotation. In this article, with the help of scientific sources, it is substantiated that in the classical views of feminist theories, theories about the superiority of men over women as a social group are formed under the influence of stereotypes about gender roles, that female and male qualities are not innate, and gender identity is formed in the context of socio-cultural life. The main personality traits, ideas about one's own "I", social status and related traits were studied

Keywords: Feminist theory, classical views, man, woman, social group, superiority, stereotypes, experimenter, personality, gender roles, formation, personal identification, social status, trait.

Kirish. Genderni ijtimoiy tuzilishi va shakllanishi (konstruktivizm) nazariyasi tarafdorlari fikricha gender rollari jamiyat tomonidan shakllantirilganligini, ayollik va erkaklik sifatlarini tug'ma emasligini, balki ijtimoiy madaniy hayot kontekstida shakllanib borishini ta'kidlaydilar. Erkak va ayol, boshqa ijtimoiy toifalar singari (masalan, yosh va qari) turli xil ijtimoiy kontekstlarda yaratilgan, turli shakllarga ega va turli xilda tarkib topib boradi. Shu o'rinda, gender tadqiqotlari va asosiy feministik nazariyalarda gender kuch va tengsizlikning ijtimoiy munosabatlarini tashkil etuvchi ijtimoiy kategoriya sifatida tushuniladi. Feministik nazariyalarning klassik qarashlarida erkaklarning ayollarga nisbatan ijtimoiy guruh sifatida ustunligi qayd etiladi. Shunga o'xshash fikrlarni rus tilidagi manbalarda keng tarqalganligini uchratamiz. Ular genderni "ijtimoiy gender" yoki "genderning ijtimoiy-madaniy tomoni" deb ta'riflashga asoslangan".

Bunday ta'riflar genderni to'g'ridan-to'g'ri jinsga bog'laydi, ikkala toifa o'rtasidagi aniq muvofiqlikni anglatib, genderni biologik jinsiy farqlarning asosiy va inkor etib bo'lmaydigan tushunchasiga asoslanadi, ya'ni mohiyatan "gender" tushunchasining ijtimoiy — shakllanishiga zid fikrlari, uni biologik determinizm doirasiga qaytaradi.

Zamonaviy feministik va gender tadqiqotlari jinsni biologik jinsning hosilasi sifatida emas, balki biologik jins bilan murakkab va ko'p darajali o'zaro ta'sirda bo'lgan ijtimoiy bo'linish va tengsizlikning asosiy

toifalaridan biri sifatida qaraladi. Biologik jinsning ijtimoiy dizayni bo'yicha tadqiqotlar ushbu zamonaviy tushunchalarga asosiy hissa qo'shdi. Biologik jinsning ijtimoiy shakllanishi borasidagi dastlabki feministik nazariyalarda gender ijtimoiy kontekstga bog'liq tarzda shakllanganligini va biologik jins yagona va universal tuzilma sifatida tushuntirilgan.

Ba'zi zamonaviy tadqiqotlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita biologik jins mavjudligining haqiqatini ham, ushbu qarama-qarshilikni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy tadqiqotlarning siyosiy betarafiligini ham shubha ostiga qo'yadi. Biolog va feminist Enn Fausto-Sterling ta'kidlaganidek, kuzatilgan biologik haqiqat "ikki jins" haqidagi asosiy ilmiy g'oyaga mos kelmaydigan jinsiy xilma-xillikdan dalolat beradi, deydi.

G. S.Vasilchenko va muallifdoshlarining fikrisha "Gender" tushunchasi nafaqat analitik, balki siyosiy hamdir: u mavjud gender tengsizlik munosabatlarini tanqid qilishni o'z ichiga oladi va ijtimoiy tartibni o'zgartirish va gender tengligiga asoslangan yangi ijtimoiy tartibni yaratish uchun mo'ljallanganligini ta'kidlaydi[4].

E.P.II'in ishlarida ham Jinsni "ijtimoiy" deb belgilash ko'pgina dastlabki feministik nazariyalarda yoritilganidek, gender biologik jinsning madaniy korrelyatsiyasi sifatida tushunilishi yoritilgan [7]: genderni, ya'ni biologik farqlari odamlarni erkak va ayolga aylantiradi, genderni ijtimoiy va madaniy jihatdan farqlash bilan erkak va ayol hulq-atvori tasniflanadi.

M.L.Butovskaya, D.D.Isayev, YE.V.Yaroslavkina ishlarida "Gender o'ziga xosligi" - bu shaxsning ma'lum bir, erkak, yoki ayol biologik jins vakili sifatida xulq-atvori va fazilatlar haqidagi ijtimoiy va madaniy stereotiplar bilan bog'liq bo'lgan ichki o'zini o'zi anglashdir, deb yoritilgan. Gender identifikatori, ya'ni o'ziga xoslikning biologik jinsga mos kelishi shart emas, degan qarashlar mavjud. Hozirgi vaqtda gender o'ziga xosligi va gender ifodasini ajratish odatiy holdir-madaniyatga qarab erkak, ayol va androgen fazilatlarining namoyon bo'lishidir [7], garchi u yoki bu gender stereotiplariga rioya qilish gender o'ziga xosligining u yoki bu turi sifatida qaraladigan adabiyotlar ham mavjud [7][11][11][14].↑

Gender identifikatori, gender ifodasi va jinsiy orientatsiya-jinsga mos harakatlar, xulq-atvorni o'zlashtirish. Zamonaviy tadqiqotchilar insonning jinsi va jinsiy xulq-atvorni tavsiflash uchun uchta asosiy tushunchani ajratib ko'rsatishadi.

* gender identifikatori-insonning ichki o'zini o'zi anglashi;

* gender ifodasi-bu ma'lum bir madaniyatda o'z jinsi haqida xabar beradigan xatti-harakatlar usullari: xususan, kiyim-kechak, muloqot uslubi va qiziqishlari orqali;

* shaxsning gender ifodasi belgilangan gender rollariga mos kelishi yoki mos kelmasligi, shuningdek, uning gender identifikatorini aks ettirishi yoki aks ettirmasligi mumkin

Ikki bosqichli tadqiqot asosida M. Kun va T. Mak-Partland tomonidan ishlab chiqilgan "Men kimman?" so'rovnomasi yordamida TDPU talabalari ishtirokida gender rollari va shaxs identifikatsiyasining asosiy xususiyatlari o'rganildi. [12].

"Men kimman?" savolnomasi mantiqan o'z-o'zini anglashni rivojlantiradi, ya'ni sinaluvchi o'zi xaqidagi tushunchasi, tasavvuri asosida o'zini tasvirlaydi. "Men kimman?" savolga javob berish bilan, inson sifatidagi roli va xususiyatlarini yoritadi, o'zi bilan bog'liq bo'lgan ta'riflar, identifikatsiyalash, ya'ni ijtimoiy maqom va unga aloqador deb hisoblaydigan xususiyatlari aniqlanadi. Qoidaga binoan, psixologik o'z-o'zini tashxislashni tashkil etish jarayonida o'zaro hamkorlik uslubiga rioya qilindi, sinaluvchilarning aqliy faoliyati rag'batlantirib borildi.

Birinchi bosqichda sinaluvchilarga o'z-o'zini diagnostika qilish o'rgatildi; shaxsning gender xususiyatlari haqidagi bilimlari kengaytirildi; psixologik o'z-o'zini tashxislashni o'zlashtirishdi; gender xususiyatlarini o'rganish uchun mo'ljallangan psixologik vositalar bilan tanishishdi; o'zlarining gender xususiyatlari haqidagi tushuncha va bilimlari kengaytirildi va psixologik o'z-o'zini aks ettirish ko'nikmalari rivojlantirildi.

Sinaluvchining o'z shaxsiyligini tushunish bilan bog'liq yigirmatta so'zni yozish talabi tadqiqotchilar tomonidan MEN-konseptsianing murakkab va ko'p qirrali tabiatini tan olishdan kelib chiqadi. Tadqiqotda sub'ektning ro'yxatining boshida qayd etgan o'ziga xos xususiyatlari uning ongida eng katta ahamiyatga ega bo'lib, gender rollarini qanchalik tushunishi va farqlay olishini ko'rsatadi.

Natijalarni qayta ishlash va muhokama qilish asosida sinov ma'lumotlari "men kimman?" kontentni tahlil qilish usuli yordamida qayta ishlandi. Olingan ma'lumotlar mazmunan quyidagi toifalarga ajratish taklif etildi:

- oilaviy va shaxslararo rollar (men — ona, xotin, o'g'il, er, qiz do'st va boshqalar);
- professional rollar (men kelajak psixolog, sinaluvchi, tadbirkor, tadqiqotchi);

• boshqa ijtimoiy rollar, asosan, bu rollar dam olish sohasiga tegishli (men kollektorman, havaskor — baliqchi, sportchi, o'quvchi, tomoshabin, xavaskor yozuvchi, tikuvchi). Ushbu uchta toifalar subyektlarning ijtimoiy identifikatsiyasining mazmunini tashkil qiladi.

Jumladan, quyidagi uchta toifalar inson xulq-atvorining tarkibiy qismi sifatida shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga qaratildi:

- feminin xususiyatlari-an'anaviy ravishda ayolning qiyofasiga taalluqli shaxsiy xususiyatlar (men g'amxo'r, sezgir, qaram, zaifa, mehribon, muloyim, hayolparast);
- erkaklar xarakteristikalarini - insonning qiyofasi bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy xususiyatlar (men kuchli, jasur, maqsadga intiluvchan, mustaqil, tajovuzkorman, mag'rur);
- maskulin yoki femininlikning stereotipik xususiyatlariga kiritilmagan neytral xususiyatlar, shaxsiy xususiyatlar (men quvnoq, chiroyli, mehribon, sadoqatli, ko'ngli toza, mehnatsevar, dangasa).

Alohida — alohida, u (men-erkak, ayol, yosh yigit, qiz) jinsga xos sifatlarni ifodaladi. Natijalarni qayta ishlashdan so'ng, sinaluvchilarga ajratilgan toifalarning har birida xarakteristikalar sonini hisoblash va natijalarni quyida keltirilgan jadvalga kiritish talab qilindi.

«Men kimman?» savolnomasining birinchi bosqich natijalari

1-jadval.

Javob ko'rsatkichlari	Oilaviy rollari	Mutaxassislik rollari	Boshqa ijtimoiy rollari	Feminin xususiyatlari	Maskulin xususiyatlari	Neytral - androgen xususiyatlari
Ayol	13%	23%	15%	13%	22%	13%
Erkak	9%	15%	16%	12%	28%	20%

«Men kimman?» so'roviga dastlab olingan natijalarda aksariyat sinaluvchilar; ya'ni o'zlarini, «qiz-o'g'il farzandman», singil-ukaman, opa-akaman, dugona-do'stman; oshpazman, tikuvchiman, dizaynerman, bo'lajak o'qituvchiman, bo'lajak onaman, turmush o'rtoqman, chiroyliman, chaqqonman, mehribonman degan xolatda oilaviy va jamiyatdagi rollarini tasniflash asosida ijtimoiy maqomlarini baholashgan. 1-jadvalda ko'rinib turibdiki, va ayollarda feminin sifatlar -13 foiz, maskulin sifatlar – 12 foiz, erkaklarda maskulin sifatlar – 28 foiz, feminin sifatlar – 22 foizni ko'rsatgan, bu ayollarda ham erkaklarda ham o'z jinsiga xos bo'lgan sifatlarni to'g'ri baxolay olmasliklari va jamiyatda ham oilada ham gender sifatlarni namoyon etmasliklarini ko'rsatadi va gender sifatlari shakllanmaganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida sinaluvchilarga gender farqlar, ayollik-erkaklik sifatlarini idrok qilinishi, anglanishi, ta'sirchanligi, axamiyati ayol va erkak sifatidan qarama-qarshi jins tomonidan tan olinishida milliy-etnik qadriyatlarining o'rni, xurmatga ega bo'lish, munosiblik xissi xaqida tushuncha berildi.

Quyidagi nazorat savollari asosida ularning bilimlari shakllantirildi.

1. Sizga ma'lum bo'lgan shaxsning gender xususiyatlarini ro'yxatini tuzib chiqing.
2. Gender stereotiplarini va jinsni solishtiring: ular qanday o'xshashlikka ega va qanday farq qiladi?
3. Guruhlararo va shaxslararo hislar sharoitida gender stereotiplarining roli qanday?
4. Gender stereotiplarini o'rganish uchun qanday usullardan foydalanish mumkin?
5. Gender identifikatorini-ijtimoiy maqomini o'rganish uchun qanday usullardan foydalanish mumkin?

Ushbu ma'lumotlar ko'pchilik sinaluvchilar tomonidan yangilik sifatida qabul qilindi va qiziqishi ortib, o'zlarining psixologik xususiyatlarini va gender sifatlarini tavsiflovchi empirik faktlarning mazmunli tomonlarini aniqlashtirishga yordam beradigan yangi nazariy ma'lumotlarni faol ravishda o'rganishlari kuzatildi.

«Men kimman?» savolnomasining ikkinchi bosqich natijalari

2-jadval.

Javob ko'rsatkichlari	Oilaviy rollari	Mutaxassislik rollari	Boshqa ijtimoiy rollari	Feminin xususiyatlari	Maskulin xususiyatlari	Neytral - androgen xususiyatlari
Ayol	15%	20%	16%	16%	12%	21%
Erkak	13%	16%	4%	4%	40%	23%

«Men kimman?» so'roviga seminar-traning dasturlari o'tilgandan so'ng olingan natijalarda aksariyat sinaluvchilar javoblari 2-jadvalda tasvirlandi, unda ayollarning feminin sifatleri -16 foiz, maskulin sifatleri – 12 foiz, erkaklarning maskulin sifatleri – 40 foiz, feminin sifatleri – 4 foizni ko'rsatgan, bu ayollarda gender

sifatlarni to'g'ri baxolay olmasliklari inson ongida gender sifatlarni qisqa vaqt oralig'ida shakllanmasligini, gender rollar bilan bog'liq stereotiplarni chuqur o'rnashganligi bilan izohlanadi.

Ko'p sonli Men-shaxsiyat konsepsiyasida jinsga asoslanib o'z taqdirini belgilashda jinsiy identifikatsiyaning yetakchi mavqega ega ekanligi kuzatildi. Agar dastlabki uchta javob orasida o'z-o'zini ta'riflash mavjud bo'lsa, jinsiy aloqa va oilaviy rollar va ayollarning feminin xususiyatlari professional va erkaklar ustidan hukmronlik qilsa (erkaklar aksincha), bu sinaluvchi men-konsepsiyasini buzgan degan xulosaga kelish mumkin. Jamiyatda jinsiy – tafovutlangan, tiplangan shaxs o'z taqdirini o'zi belgilashi va xatti-harakatlarining o'z jinsiga mos kelishi tasdiqlangan. [2;4]

Sinaluvchilarda o'z-o'zini ta'riflash salbiy xususiyatlarga taalluqli bo'lsa, unda shaxsda gender rejasining intravenoz to'qnashuvi mavjudligini ko'rsatishi kuzatildi. [5-6]

Xulosa o'rnida: O'zbek oilalarida gender tenglikni shakllanishida bir qator milliy-etnik qadriyatlar va ruhiy-psixologik omillarning ahamiyati katta. Gender stereotiplariga muvofiq, erkaklar vakolatli, dominant, mustaqil, tajovuzkor, o'ziga ishongan, mantiqan fikr yuritishga moyil, his — tuyg'ularini boshqarishga qodir va ayollar ko'proq passiv, qaram, hissiy, g'amxo'r va muloyim bo'lishi kerakligi, ayollar uchun asosiy ijtimoiy rollar, erkaklar uchun — professional rollar tegishliligi, erkaklar odatda professional yutuqlari, muvaffaqiyatlari bilan, ayollar — oila va bolalari borligi bilan baholanishi kabi stereotiplarning ta'siri mavjud. Ijtimoiy-madaniy hayot, jamiyat, oilaviy munosabatlarda gender tenglikka erishishda "psixodiagnostika", "shaxs psixologiyasi", ijtimoiy soha mutaxassislari va talabalari uchun quyidagi tavsiyalarimizni bayon etamiz:

1. MEN-shaxsiyat konsepsiyasida gender xususiyatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
2. ijtimoiy-psixologik portretni gender jihatidan yaratish;
3. shaxsning eng muhim va barqaror gender xususiyatlarini tavsiflash;
4. shaxsning gender xususiyatlarini boshqa ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'lash;
5. gender xususiyatlarini jinsiy ijtimoiylashuv shartlari bilan bog'lash;
6. gender xususiyatlarining rivojlanish dinamikasini kuzatish, ularning rivojlanish prognozini yaratish ko'nikmasini egallashlari lozim.

Adabiyotlar:

1. Берн Ш. Гендерная психология. - СПб, 2001.
2. Берн Ш. Гендерная психология. Секреты психологии мужчины и женщины. - М., Олма-Пресс. - 2004. - 320 с.
3. Бутовская М. Л. Антропология пола. — М.: Век 2, 2013. Архивная копия от 26 мая 2015 на Wayback Machine.
4. Васильченко Г. С., Агаркова Т. Е., Агарков С. Т. и др.; Под ред. Г. С. Васильченко. Нарушения психосексуального развития // Сексопатология: Справочник—М.: Медицина, 1990.— С.576.— ISBN 5-225-01179-9.
5. Гавриилица О. А. Чувство вины у работающей женщины // вопросы психологии — 1998. — № 4.
6. Грицанов А. А. Гендер // Новейший философский словарь.—Мн.: Книжный дом, 2001.—ISBN 985-6656-06-0 isbn2=985-428-431-X.
7. Ильин Е. П. Пол и гендер.—СПб.: Питер, 2010.
8. Исаев Д.Д. Системный подход к проблеме гендерной идентичности // Педиатр.— 2012.— Т. 3, № 4.— С. 37-40.
9. Кикинежди О. М. Гендерная идентичность особенности: когнитивная парадигма // Научные записки Национального университета Острозька академия. Психология и педагогика. – 2013. – №. 22. – С. 51-56.
10. Клецина И.С. Гендерный подход и межличностный конфликт // Женщина. Образование. Демократия: 2-Международные материалы. междисциплинарный. научно-практический. конф.— // Минск: "Энвила" МГЖ; М., 2000. - П.275-279.
11. Костикова И. В. и др. Введение в гендерные исследования. — 2-е изд.. — М.: Аспект Пресс, 2005. — С. 8—10. — 255 с. — (Серия «Классический университетский учебник»). — ISBN 5-7567-0331-4.
12. Кун М., Мак-Партланд Т. Тест «Кто Я?» An empirical investigation of self-attitudes. 1954. персонализация - это опыт эмпирического интервью // Современность зарубежной социальной психологии: тексты// Studme.org.75548/menedzhment/metody...identichnosti.
13. Лопухова О. Г. Психологический пол личности в контексте гендерных исследований // Вестник ТГГПУ.— Казань: ТГГПУ, 2011.— № 4(26).— С. 384—388..
14. Ярославкина Е. В. Ценностно-смысловая сфера женщин с разной гендерной идентичностью // Сахалинский гос. ун-т—Южно-Сахалинск. – 2008.

Shamshetova Anjim Karamaddinovna,

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi*

OROLBO'YI MINTAQASI AHOLISIGA PSIXOLOGIK XIZMATNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Orolbo'yi mintaqasi aholisiga psixologik xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga qaratilgan ishlar ko'rib chiqilgan. Mazkur hududni ekologik tang holatlari yoritilgan. Shu kungacha Orolbo'yi mintaqasidagi aholi ekologik vaziyatdan har tomonlama aziyat chekayotgani hammaga ma'lum, shu sababli ularga psixologik xizmat turlarini takomillashtirib borishni yoritib berdik. Tabiat bilan bo'ladigan munosabatlarimizni o'rganish psixodiagnostik savolnoma, kuzatuvlar hamda suhbatlar olib borilganligi keltirildi. Olingan natijalarni psixologik tahlil qilish imkoniga ega bo'ldik. Yoshlar o'rtasidagi ekologik tasavvurlari, dunyoqarashlari, qadriyatlar va o'zaro munosabatlaridagi tajriba va hissiyotlarni boshdan kechirish, suhbatlashish, o'ylash, insonning mazmunli harakatlarini bajarishga qodir ekanligi haqidagi ma'lumotlar keng o'rganildi. Respondentlarni fikrlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Aholi uchun ekopsixologik bilimlarni kuchaytirish, tabiatga bo'lgan subyektiv munosabatlarni namoyon qilish, mavjud bo'lgan ekologik muammolar bilan kurasha olishdagi peshqadamlik haqida ma'lumotlarni yoritish masalalari keltirildi. Aholi bilan olib borilgan psixoprofilaktik ishlar, psixokorreksiya ishlarni natijalari ham tahlil qilindi. Kelgusida aholi uchun olib boriladigan psixologik xizmatni qanday tashkil etish masalalari qayta ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar. orolbo'yi mintaqasidagi aholi, psixologik xizmat, ekologik muammolar, aholiga psixologik ko'mak, tabiatga subyektiv munosabat.

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ РЕГИОНА ПРИАРАЛЬЯ

Аннотация: В данной статье рассматривается работа, направленная на совершенствование психологической службы населения региона Приаралья. Освещён экологический кризис этого региона. Всем известно, что население Приаралья региона всячески страдает от экологической ситуации, по этой причине приложили усилия для улучшения видов психологических услуг. Исследование наших взаимоотношений с природой цитировалось как психодиагностический опросник, наблюдения и беседы. Мы смогли психологически проанализировать полученные результаты. Была широко изучена информация о способности испытывать переживания и эмоции в восприятии окружающей среды, мировоззрениях, ценностях и взаимодействиях между молодыми людьми, говорить, думать, совершать значимые человеческие действия. Также были проанализированы результаты психопрофилактики, психокоррекционной работы, проводимой с населением. В дальнейшем были пересмотрены вопросы о том, как организовать психологическую службу для населения.

Ключевые слова: регион Приаралья, психологическая служба, экологические проблемы, психологическая помощь населению, субъективное отношение к природе.

ISSUES OF ORGANIZATION OF PSYCHOLOGICAL SERVICES FOR THE POPULATION OF THE ARAL SEA REGION

Abstract: This article discusses the work aimed at improving the psychological service of the population of the Aral Sea region. The ecological crisis of this region is highlighted. Everyone knows that the population of the Aral Sea region suffers in every way from the environmental situation, for this reason we have given them the light to improve the types of psychological services. The study of our relationship with nature has been cited as a psychodiagnostic questionnaire, observations and conversations. We were able to psychologically analyze the results obtained. Information about the ability to experience experiences and emotions in the perception of the environment, worldviews, values and interactions between young people, to speak, think, and perform meaningful human actions has been widely studied. The results of psychoprophylaxis and psychocorrective work carried out with the population were also analyzed. In the future, the questions of how to organize a psychological service for the population were revised.

Keywords: *the Aral Sea region, psychological service, environmental problems, psychological assistance of the population, nature subjective attitude.*

Kirish. Hozirgi kunda O‘zbekiston va ko‘pgina davlatlar uchun katta xavf tug‘dirayotgan, iqtisodiy ziyon keltirayotgan tabiat uchun fojia hisoblangan Orolbo‘yi muammosidir. Uning psixologik jihatlarini o‘rganilishi dolzarb hisoblanadi, chunki tabiat bilan inson o‘rtasidagi munosabatlar nihoyatda keskinlashib borishi insoniyat hayoti va xudud istiqboliga xavf-xatar tug‘dirmoqda.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotning o‘zgaruvchanligi, tabiiy ofatlar va ekologik muammolarning ko‘payishi natijasida ayrim xududlarda aholining ma‘lum qismida ertangi kunga ishonchsizlikning yuzaga kelishi ehtimoli, hayotdagi ekstremal sharoitlarga psixologik tayyorgarlikning zaifligi dolzarb muammo hisoblanadi. Qolaversa, insoniyat taqdiri bugungi kunda ko‘p jihatdan ekologik muammolar yechimiga bog‘liq bo‘lib qolganligi, ularni to‘g‘ri hal etishda asosiy omillardan biri sifatida odamda ekopsixologik bilimning shakllanishi hamda uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi kundan-kunga yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Asosiy qism. Shu kungacha ekologik munozaralar, psixologik tadqiqotlar, ekologik ta‘limdagi amaliyot juda katta ijtimoiy-ekologik muammolarni ko‘rsatib berdi. Ekologik muammolarni kelib chiqish sabablarini ya‘ni tabiiy resurslardan to‘g‘ri foydalana olmaslik, ekologik bilimlarni yetishmasligi, ekologik madaniyatni rivojlantirish, ekologik javobgarlikga ega emasligi degan bir qator ilmiy fikrlarni, amaliy tavsiyalarni ko‘rsatib o‘tadi. Ekologik muammolarning oldini olish masalalari bo‘yicha xorijiy davlatlarda olimlar tomonidan mazkur mavzuga oid ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligi va ularning natijasi o‘laroq yetarlicha ilmiy-amaliy tajriba to‘planganligidan dalolat beradi.

S.D.Deryabo «Ekologik psixologiya: Ekologik ong diagnostikasi» kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borganliklari bu muammolarning ma‘lum darajada o‘rganilganligini ko‘rsatadi[2].

Rossiya tadqiqotchisi V.L.Izmagurova “Har bir inson hayotda yashash maydoni ekologiyasi ma‘lum bir makonni egallaydi, turli xil turlari mavjud yashash maydoni ya‘ni jismoniy, psixologik o‘zaro ta‘sir maydoni, shaxslararo, axborot, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy va hokazo. Bir kishi bir vaqtning o‘zida bir nechta yashash maydoni ega bo‘ladi”, deb ta‘kidlab o‘tgan [5].

Rossiya olimi V.P.Peskovning atrof-muhit ekologiyasini saqlashga oid "Bog‘ terapiyasi" usulidan foydalanish uchun ko‘rsatmalari ishlab chiqilgan. V.P.Peskov bog‘ terapiyasida shaharlarda yashil maydonlarning yetishmasligi muammosi aniqlanishni, inson salomatligi yashil maydonni foydasi, inson o‘zi uchun ekotizimni yaratishga bo‘lgan ehtiyojini oshirish maqsadida tavsiya etilgan[6].

Tadqiqotchi L.P.Pechkoni ilmiy fikrlarida “Zamonaviy ekologik psixologiyani o‘rganib borish insonning atrof-muhit bilan munosabatlari, tabiiy, tegishli hissiy bilishning namoyon bo‘lishini o‘rganishni faollashtiradi. Ta‘lim jarayonida shaxsning yekologik madaniyatini rivojlantirish jarayon ekologik estetik ong va munosabatlari juda muhim. Odamlarda ekologik estetik ong rivojlantirishga oid modellarni yaratishni taklif qiladi.

N.U.Nishonovanning ishida maktab o‘quvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirish muammosiga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarida adabiy ta‘lim orqali ekologik madaniyatni shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

N.I.Ikramova tadqiqotida Orolbo‘yi mintaqasida sodir bo‘layotgan ekologik vaziyatda ekologik munosabatlarni tartibga solish istiqbollari va uning nazariy metodologik asoslariga to‘xtab o‘tiladi. Mazkur ekologik muammolarni tartibga solishning ilmiy konsepsiyalari ko‘rib chiqiladi.

Ya. Abdullayeva o‘zining “Ekologik muammolar: kelib chiqish sabablari va oqibatlarini” nomli maqolasida voqelikning sabablari va oqibatlarini, ob‘ektiv va subyektiv shart-sharoitlari, ekologik muammoni boshqa davlatlar bilan hamkorlikda, hamjihatlikda olib borish zarurligiga e‘tibor qaratadi

Ekologik muammolarning kelib chiqishi va u insoniyat hayotiga salbiy ta‘siri barcha fanlar jihatidan o‘rganildi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi, shu boisdan bu ekologik muammolar faqatgina fan-texnikaning rivojlanishi bilan bog‘liq deyishimiz noo‘rin. Kelgusi insoniyat taqdirini hozirgi insonlarning tabiatga bo‘lgan munosabatlari belgilaydi. Hozirgi kunda psixolog olimlar ekologik halokatga duch kelish sababini faqatgina fan-texnikaning rivojlanishi va ekologik savodsizlik deb qaramaslik kerak-deb ta‘kidlab, balki bu bizning psixikamizda yashiringan muammolarning oqibatidir. Bu kabi muammolarni inson ongi, psixikasiga bog‘liqligini psixologik tadqiqotlar ko‘rsatib bera oladi.

Bizning hududimizda yirik halokat - Orol dengizining yildan-yilga qurib borishi va butun Orolbo‘yi iqlimining o‘zgarishi bilan aholi og‘ir holatga tushib qolganligi va turli ekologik noxush hodisalar yuzaga kelayotganligi hozirda keng jamoatchilikka ma‘lum. Qoraqalpog‘iston Respublikasi yerlarining jadal

sho‘rlanib borayotganligi, chang-to‘zonli cho‘l havosining ta’siri ekologik vaziyatning keskinlashuvi oqibatida aholining turli xil kasalliklarga chalinishi tabiiy holga aylandi.

Orolbo‘yi aholining tabiatga munosabatlarini o‘rganish.

Orolbo‘yi regionlarida yashayotgan aholini psixologik holatini, o‘zaro munosabatlarini o‘rganish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalandik. Aholini kuzatish va ular bilan suhbatlar tashkil qilindi. Aholinin tabiatga munosabatlarini o‘rganuvchi “Naturafil” metodikasidan foydalandik.

Olingan natijalar ilmiy tahlil qilib bordik. Ta’lim tizimida ekologik ta’lim-tarbiyaning uzviyligini ta’minlash ekologik muammolarni bartaraf etishdagi to‘g‘ri yo‘l hisoblanadi. Orolbo‘yi mintaqasidagi aholining hozirgi ahvoli, kishilarni o‘z-o‘ziga va atrof muhitga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish maqsadida dastlab tashqi kuzatish metodlaridan foydalandik. O‘rta yoshli kishilarni kuzatganimizda ularda atrof-muhit ekologiyasiga bo‘lgan munosabatida sust va e’tiborsizroq ekanligini namoyon etayotganligining guvohi bo‘ldik. Aynan shu kishilar bilan suhbatlarni olib bordik, rejalashtirilgan savollarimizga javob topishga harakat qildik. Orolbo‘yi mintaqasidagi aholisida tashkil etilgan 2 ta guruh respondentlari savollariga bergan javoblari quyidagicha:

1-jadval.

Aholining tabiatga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish

	Savolnoma yo‘nalishlari	Aholi munosabati (% hisobida)					
		Yuqori		O‘rta		past	
		15-25 yoshdagi yoshlar	25-60 yoshdagi yetuk shaxslar	15-25 yoshdagi yoshlar	25-60 yoshdagi yetuk shaxslar	15-25 yoshdagi yoshlar	25-60 yoshdagi yetuk shaxslar
1	Aholining yashash tarzidan qoniqish hislarini belgilash	18,9	21,8	35,9	37,8	45,2	39,9
2	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan kognitiv munosabati	36,7	32,4	39,6	46,5	23,7	21,9
3	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan estetik munosabati	19,6	23,7	34,7	37,3	45,7	38,1
4	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan axloqiy munosabati	27,8	34,2	36,7	39,8	35,5	24,2
5	Aholining atrof-muhitga bo‘lgan strategik munosabati	24,9	23,8	34,7	37,8	58,5	38,8

Olingan natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ular quyidagicha;

- Hozirgi tabiat ekologiyasi va sharoitlaridan aholi qoniqmaslik darajasi yuqori bo‘lishiga qaramay, ularning aksariyatida o‘zi tug‘ilib o‘sgan makonni tark etib ekologiyasi yaxshi hududlarga borish istagi yo‘qligini aytib o‘tdilar. “Orolbo‘yi mintaqasidagi aholini atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish” maqsadida savolnomani ekologiyasi og‘ir bo‘lgan joylardan biri Muynoq tumani aholisida olib borildi. Bu savolnoma aholining yashash tarzidan qoniqish hislarini belgilash va atrof-muhitga bo‘lgan kognitiv estetik, axloqiy hamda strategik munosabatlariga aniqlik kiritish maqsadida qullanildi. “Aholining yashash tarzidan qoniqish hislarini belgilash” birinchi yo‘nalish bo‘yicha qoniqish hislari juda past (39,9%) ko‘rsatkichni tashkil etdi, bu o‘z o‘rnida yashash sharoitlari mavjud ekologik muammolarga bog‘liq qiyin ahvolda ekanligini ta’kidlab o‘tgan hamda kelgusi maqsadli ishlarda strategik munosabat bildirishga ishonch yo‘qligini bildirdi. “Aholining atrof-muhitga bo‘lgan kognitiv munosabati” yo‘nalishidagi savollarda, ekologik muammolarni kelib chiqish sabablarini va muammolarga qarshi kurashishga bo‘lgan bilimlarni olishga intilishi yuqori (36,7%) ko‘rsatkichda. Suhbat jarayonida esa, ular “Orol dengizi”ni qurib borishining hozirgi holatini saqlab qolishga fikrlarini bildirgan. Ammo, ularni fikrlari umumiy xarakterga ega. “Ekologik muammoga o‘z ulushingizni qo‘sha olasizmi?” degan savolga “Ha” deb javob berganlar. Ekologiyaga oid ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlardan va televideniye ko‘rsatuvlaridan olamiz, aynan kitob, jurnallarni deyarli

o‘qimaganligini ko‘pchilik ta’kidladi. Ularni fikrida, tasavvurlarida ertangi kundan xavotirlanishi, tashvishlanishi, ruhan tez-tez tushkunliklar bo‘lib turishining guvohi bo‘ldik.

Suhbat jarayonida yoshlar o‘rtasida tabiat ob’ektlari bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarda atrof muhitga kognitiv munosabatlarda bo‘lishi yetakchilik qilganligi, ular kognitiv motivatsiyani o‘zidan emas tashqaridan olishni kutishi ya’ni qullab quvvatlovchi, rahbatlantiruvchi omillarni so‘zlab berdilar. Har qanday shaxsni rivojlanishida shaxsiy o‘zini-o‘zi faollashtirish stimuli bo‘lishi kerak, ya’ni turli xil muammolar bilan kurashish uchun dastlab o‘zi anglab, tushunib harakat qilishlari maqsadga muvofiqdir. Atrof muhitdagi tabiat ob’ektlariga subyektiv munosabatlari bo‘la turib uni harakatga keltirmaslik bizni tashvishga soldi. Yoshlarga ijtimoiy ichki faollikni oshirib beruvchi, «jamoaviy ekologik ong»ni shakllantirib beruvchi “sog‘lom ekologik muhit”, “ta’limni ekologiyalashtirish” ya’ni ularga nisbatan tabiat ob’ektlari bilan o‘zaro munosabatda yetakchi motivatsiyalarni aniqlash zaruriyati tug‘ildi. Bunda nazarda tutilayotgan psixologik xizmatni tashkil etishimiz ekologik ta’lim-tarbiyasiz bo‘lmaydi. Biz o‘rganilgan tadqiqotlarda ekologik ta’lim-tarbiyaning joriy etilishi, ekologik ta’lim-tarbiyani alohida tadbirlar, mashg‘ulotlar orqali kuchaytirib berishga oid ilmiy tavsiyalarni ko‘rishimiz mumkin. Ta’limda olib boriladyotgan ustuvor vazifalarning biri sifatida atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni, olingan bilimlardan nafaqat samarali qaror qabul qilish, uning ijrosini ta’minlanish tadbirlar alohida e’tibor qaratish lozim. Ekologik ta’limda barqaror rivojlanish g‘oyalarni amalga oshirish asosan psixologik va ekologik bilimlarni samaradorligiga bog‘liq. Ijtimoiy-ekologik munosabatlar tabiatni, insonni tushunish bilan shartlangan turli axloqiy va yekologik pozitsiyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Orolbo‘yi hududlarida yuzaga kelgan ekologik vaziyat halokatli ekanligi, unga faqat tibbiy, iqtisodiy, imjtimoiy muammo sifatida emas, balki deyarli barcha soha mutaxassislarini, keng ilmiy jamoatchilik e’tiborini qaratishni taqozo etadigan, o‘ta dolzarb muammo ekanligidan dalolat beradi. Atrof-muhitning ekologik tang vaziyatlari va uning og‘ir oqibatlari inson psixikasiga va turli-tuman ijtimoiy, milliy, ekologik, manaviy-ma’rifiy va etnik xususiyatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Orolbo‘yi hududidan aholi migratsiyasi borgan sari ortib borishi ijtimoiy ham psixologik muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy. Mavjud ekologik tanglik o‘z-o‘zidan Orolbo‘yi mintaqasidagi aholisida yashovchi shaxslarni psixik rivojlanishiga salbiy ta’siri, ya’ni tabiatning zarur ob’ektlariga diqqat-e’tibori o‘zgaruvchangligi, stressli vaziyatlar, doimiy charchoq, vegetativ-qon tomir kasalliklari, asabiylashish, xulq-atvor buzilishlari aqliy moslashuvning buzilishi ayrim hollarda shaxs xulq-atvorida keskin agressivlikni ham ko‘rishimiz mumkin. Orolbo‘yi mintaqasidagi aholida ichki psixologik inqirozlar, mojarolarning kelib chiqishi tabiiy. Shu kungacha Orolbo‘yi mintaqasidagi ekologik vaziyatlar atroficha o‘rganilib kelindi. Ularni natijasi uloraq insonni har qanday faoliyati psixologik ko‘makga ehtiyoj sezadi.

Orolbo‘yi mintaqasidagi aholining milliy, ijtimoiy ehtiyojlari o‘z-o‘zida borar ekan, unda mamlakat o‘sha ehtiyojlarni ta’minlab borishi lozim. Birinchidan Mamlakat oldida millatning ehtiyojlarini ta’minlash tursa, ikkinchi tomondan tabiatni asrab qolish turadi. Aholi o‘z navbatida barcha mavjud ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik kabi muammolarni hal qilish uchun har tomonlama psixologik tayyorgarlikni talab qiladi.

Orolbo‘yi mintaqasidagi aholiga psixologik xizmatni tashkil etishda inson salomatligi, turli xil holatlarda yashash muhitini optimallashtirish salbiy ekologik vaziyatlarni hisobga olgan holda mavjud xududni tabiat resurslarini saqlab qolishga mo‘ljallangan psixologik amaliy ko‘mak berishning tezkor usullarini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Amaldagi psixologning kasbiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish davr talabidir.

Psixolog mutaxassislar dastlab atrof-muhit ekologiyasini kuzatib borishi, aholi bilan suhbatlarda doimiy psixologik kontakti o‘rnatishi, ekologik muammolarga mos psixologik maslahatlar berib borish, aholi bilan psixodiagnostika hamda psixokorreksiya ishlarini olib borishi uchun maxsus kurslarda bilimlarini oshirib borishini ta’minlashimiz zarur. Ekologik tang vaziyatlar bilan ishlashda psixolog ekologik-psixologik tushunchalarga ega bo‘lishi, kirishimlilik, bag‘rikenglik, refleksivlik, xayrixohlik, muvozanat, sabrlik kabi bir qator kasbiy xislatlarni oshirib borishni talab qiladi. Orolbo‘yi aholining ijtimoiy-psixologik muammolarini bartaraf etishda yuqori malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar psixologik xizmatni integrallashgan holda olib borishga tayyor bo‘lishi lozim. Orolbo‘yi mintaqasidagi aholiga psixologik xizmatni tashkil qilishda ijtimoiy sheriklik, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik ishlarini ham yo‘lga quyish zarur. Bunda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’lumotlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish va tegishli qarorlarni qabul qilishda ekologik bilimlarni oshirishni nazarda tutamiz. Psixolog mutaxassislar Orolbo‘yi mintaqasida yashovchi aholining dunyoqarashlari, fikrlari, hozirgi atrof-muhitga munosabatlari, qolaversa oila qurish, yashash tarzida boshqa hududlaridan farq qilishini hisobga olishi kerak bo‘ladi.

Psixologik xizmatlar ekologik ongni rivojlantirish, ekologik vaziyatlarga psixologik bilimlarni oshirish uchun ekopsixologik treninglar, psixodiagnostik va psixokorreksion mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich olib boruvchi konkret strukturaviy tizim yaratilishi, ekologik qiyin sharoitdagi aholiga psixokorreksion ishlarinin taqdim eta olishimiz, mashg'ulotlar mazmunli va kelajakda deyarli barqaror fazilatlarini rivojlantiruvchi omil sifatida xizmat ko'rsatishni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Psixokorreksiya mashg'ulotlari tarkibga ko'ra, kognitiv soha, shaxs xususiyatlari, emotsional soha, xulq-atvor sifatlarini, shaxslararo munosabatlar, guruh ichidagi munosabatlar (oilaviy, jamoaviy), bola-ota-ona munosabatlarini o'z ichiga qamrab olgan umumiy kopleks tarzda ilmiy model ko'rsatmalarini taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, individual, jamoaviy va rasmiy jamoalar bilan ishlash dasturlarini ham alohida ko'rib chiqish kerak. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar yordamida ekologik psixologiya muammolari bo'yicha targ'ibot ishlarini olib borish, ekologik psixologiya bo'yicha adabiyotlar, o'quv metodik tavsiyalarni ishlab chiqish lozim. Ekologik qiyin vaziyatda yashovchi insonlarga psixologik tashxis quyish, psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarini uzluksizligini ta'minlash zarurdir.

Ekologik muammolar har bir hududda har xil bo'lgani bilan inson psixologiyasiga, psixofiziologiyasiga bir xil ta'sirini ko'rsatadi. Ammo joylashish hududlarning dialektikasi va mentaliteti madaniyati, ulardagi shakllangan ekologik ong orqali atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarida o'ziga xos xususiyatlarini farqlash mumkin. Mavjud psixologik tadqiqotlarda ekologik muammolar va ularning insoniyat hayotiga ta'siri masalalari, ekologik ta'limning psixologik negizlari, tabiat va jamiyat o'zaro munosabatlarining real darajasi maxsus o'rganilishiga yetarlicha e'tibor qaratilmaganligi, Orolbo'yi mintaqasidagi aholining ekologik muammolar bilan bog'liq psixologik jihatlari ko'plab ilmiy izlanishlarni olib borishga chorlaydi.

Yuqorida bayon etib o'tilgan holatlarning ilmiy tadqiqot ishi muammosi sifatida aholiga psixologik amaliy yordam berish, shaxslarda ekologik ongi, ekologik madaniyati shakllanishining psixologik xususiyatlari yuzasidan ma'lumot beruvchi ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb hisoblanadi.

Ekologik-psixologik ta'lim muhiti orqali shaxs o'z-o'zini rivojlantirish uchun shaxsiy javobgarlikni ham shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Bunda aholi atrof-muhit tabiatiga ehtiyotkorlik, mas'uliyatli, javobgarlik hislarini rivojlantirib boradi. Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolarini bartaraf etishdagi masalasi asosiy dolzarb ekanligini juda yaxshi tushunib boradi. Ta'lim tizimning barcha bosqichlarida, ishlab chiqarish korxonalarida, fabrika-zavodlarda ekologik-psixologik bilimlarni targ'ibotchisi, amaliy ko'mak beruvchi psixolog mutaxassislarini ish faoliyatlarini kengaytirishimiz, ekologik vaziyatlari og'ir bo'lgan hududlarga qo'shimcha ish joylarini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Т.Ўзбекистон. 1.05.2023.
2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 75-сессиясидаги нутқи. БМТ Бош Ассамблеяси Оролбўйи минтақасини экологик инновациялар ва технологиялар ҳудуди деб эълон қилиш тўғрисида махсус резолюция. 19.05.2021й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Мамлакатимизда “Яшил макон” умуммиллий лойиҳа. 2021 йил 2 ноябр.
4. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Экологическая педагогика и психология. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996. – 483 с.
5. Дерябо С.Д., Ясвин В.А. Методологические проблемы становления и развития экологической психологии. //Психологический журнал, 1996, -№ 6, -С. 4 -18.
6. Лихачев Б.Т. Экология личности // Педагогика. 1993. № 2. С. 19-23
7. Измагурова В.Л., Экология жизненного пространства личности. российская конференция по экологической психологии Тезисы М-2015г
8. Песков В.П. Показания к применению метода «Садовая терапия» Иркутск, Экология жизненного пространства личности. Российская конференция по Экологической психологии Тезисы.М- 2015г
9. Печко Л.П. Обогащение эколого-эстетического сознания и культуры личности в образовательном процессе при опоре на экспрессионный подход. Российская конференция по экологической психологии. Тезисы. М- 2015г

Soatov Asadulloh Jabborovich,

Qashqadaryo viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchisi, p.f.f.d (PhD)

SO'ZLARNI YOD OLISHDA TOG USULLARDAN FOYDALANISHNING METODIK AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada so'zlarni yod olishda tog usulidan foydalanishning metodik ahamiyati, TOG usuli orqalivoqeani tuzish jarayonida tanlangan obrazni alohida belgilari bilan tasavvur qilishning afzalligi, so'zlarni yod olishda semantik va epizodik xotira turlaridan foydalanishning ilmiy ahamiyati, til o'rganishda biz hayotda faol ishlatadigan so'zlar majmuasini bilish va o'zlashtirish maqsadida TOG usulidan unumli foydalanishning muhimligi yoritilgan. Til o'rganish jarayonida eng muhim jihatlardan biri bu maqsadli o'rganish ekanligi bu jarayonda natijaga erishish uchun kishida ichki motivatsiya ustuvor bo'lishi lozimligi, ichki motivatsiya maqsadning muhimlik darajasiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: TOG, tushuncha, obraz, tasavvur, tarjima, garmonizatsiya, muntazamlilik, diqqat, xotira, semantik xotira, epizodik xotira, faol so'zlar, passiv so'zlar, assotsiatsiya.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОГ-СПОСОБА ЗАПИСИ СЛОВ

Аннотация: В статье представлена техническая значимость использования горного метода при запоминании слов, преимущество визуализации выделенного образа отдельными символами в процессе создания рассказа методом ПОГ, научная значимость использования семантического и эпизодического типов памяти при запоминании слов, которые мы активно используем в жизни при изучении языка. Подчеркнута важность эффективного использования метода ПОГ с целью изучения и усвоения характеристик людей. Одним из важнейших аспектов в процессе изучения языка является целенаправленное обучение, для достижения результатов в этом процессе приоритетом должна быть внутренняя мотивация, внутренняя мотивация напрямую влияет на уровень важности поставленной цели.

Ключевые слова: ПОГ, понятие, образ, воображение, перевод, гармонизация, закономерность, внимание, память, семантическая память, эпизодическая память, активные слова, пассивные слова, ассоциации.

METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF USING THE TOG METHOD IN RECORDING WORDS

Abstract: The article presents the technical significance of using the mining method when memorizing words, the advantage of visualizing a selected image with individual characters in the process of creating a story using the TOG method, the scientific significance of using semantic and episodic types of memory in memorizing words, words that we actively use in life when learning a language. Underlined the importance of using the TOG method effectively to study and assimilate the characteristics of people. One of the most important aspects in the process of learning a language is purposeful learning, in order to achieve results in this process, internal motivation should be a priority, internal motivation directly affects the level of importance of the goal.

Keywords: TOG, concept, image, imagination, translation, harmonization, regularity, attention, memory, semantic memory, episodic memory, active words, passive words, associations.

Kirish. Bugungi kunda chet tillarini o'rganish jarayonida samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi ko'plab zamonaviy usullar mavjud bo'lib, bu usullarning o'qituvchi va o'rganuvchi tomonidan to'g'ri qo'llanilishi jarayon natijadorligini tezlashtiruvchi muhim omil sanaladi.

So'zlarni yod olishda odatda biz xotiraning ikki turidan: Epizodik va semantik turlaridan foydalanamiz. Epizodik xotirada matnning mazmuniga va undagi voqeelarni tasavvur qilishga e'tibor qaratiladi. Semantik xotira ma'lumotlarni tekst ko'rinishida eslab qolishimizga yordam beradi. Til o'rganish uchun, testga tayyorgarlik ko'rish uchun shartli ravishda semantik xotira kerak. Chunki semantik xotira orqali biz so'zlarning yozilishini eslab qolamiz[2].

Semantikani rivojlantirish uchun kitob o'qish eng foydali mashg'ulot. Doimiy ravishda kitob o'qishni odat qilgan kishining semantik xotirasi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Semantikasi kuchli rivojlangan inson til o'rganishda kamroq muammolarga duch keladi. Chunki unda yozuv bilan mazmuni o'zaro bog'lay olish ko'nikmasi ya'ni sinaptik risurs yaxshi rivojlangan bo'ladi[4].

Asosiy qism. Til o'rganish jarayonida eng muhim jihatlardan biri bu maqsadli o'rganishdir. Tilni o'rganayotgan ta'lim oluvchilar har xil maqsadlar bilan; kelajakda kerak bo'lib qoladi, chet elga chiqqanimda as qotadi, o'qishga kirishim uchun zarur, kare'ram yuksalishi uchun foyda beradi, kasbiy faoliyatimda yangiliklardan o'z vaqtida boxabar bo'lishim uchun muhim kabi maqsadlarni qo'yish asosida til o'rganishga intiladi. Yuqoridagi maqsadlar ikki xil sabab bilan tanlanishi mumkin: majburiylik yoki qiziqish sabab. Qiziqishlar asosida tanlangan maqsad kishini muntazam va barqaror faoliyatga undaydi. Majburiylik esa tashqaridan emas, balki ichki xohish sabab tanlangan qaror shaklida bo'lishi lozim. Shundaygina anglangan qiziqish va irodaviy harakat kishini maqsad sari yetaklaydi.

Til o'rganish jarayonidagi natijadorlik ta'lim oluvchilarning qanday maqsad va usullar asosida o'rganayotganiga ko'p jihatdan bog'liq. Ko'pincha kuchli motivatsiya ta'sirida katta orzularni maqsad qilib jarayonni boshlagan ta'lim oluvchilar bir muddatdan keyin faoliyat boshidagi ishtiyoqini yo'qotib til o'rganishni davom ettirgisi kelmay qoladi. Tashqaridan qaraganda bu dangasalik sabab yuzaga kelgan holatdek ko'rinadi. Aslida esa kuchli motivatsiya tufayli uyg'ongan ishtiyoq to'g'ri tanlanmagan maqsad sabab tez so'nishi mumkin. bu yerda motivatsiya tashqaridan qabul qilingan, maqsad esa zaif yoki yuzaki tanlangan bo'ladi.

Natijaga erishish uchun kishida ichki motivatsiya ustuvor bo'lishi lozim. Ichki motivatsiya maqsadning muhimlik darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Qiyinchilik sabab hayoti o'zgarishi uchun til o'rganishni oldiga maqsad qilgan ilm oluvchi bilan tengdoshlari til sertifikatini olish uchun kurslarga borayotganini eshitib shu qarorga kelgan bolaning natijasi o'rtasidagi farq bunga misoldir. Til o'rganishni o'ziga najot deb bilgan birinchi misoldagi o'quvchining strategiyasi aniq va bu yo'lda sarflashi lozim bo'lgan quvvati maqsadli taqsimlangan. Ikkinchi misoldagi o'quvchida tengdoshlaridan qolib ketmaslik istagi yoki maqsadning zaifligi faoliyat boshida uyg'ongan kuchli ishtiyoqning tez so'nishiga olib keladi.

Til o'rganishda so'zlarni yod olishga xizmat qiluvchi maxsus mnemonik usullardan biri-bu Tog usulidir. TOG usuli chet tili so'zlari va fanga oid atamalarni yod olish uchun qulay bo'lgan eng samarali mnemonik usullardan biri bo'lib, Stenford universiteti professori Richerd Atkinson tomonidan ishlab chiqilgan. Usul tasavvur va ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish yo'li bilan eslab qolinishi lozim bo'lgan so'z va tushunchalarni voqea tuzish orqali tez va samarali yod olishni ta'minlaydi.

So'zlarni yod olish jarayonida an'anaviy usul orqali 10 daqiqada 20 ta so'z yodlagan kishi 20 daqiqada 40 ta so'z yodlashga qiynaladi chunki vaqt o'tgani sari yodlash ko'rsatgichi pasayib boradi. TOG usuli orqali yodlash jarayonida vazifa uchun sarf qilingan vaqt va o'zlashtirish ko'rsatgichi bir-biriga to'g'ri proporsionaldir. Usul orqali so'zlarni o'rtacha 20 marta emas 5 marta takrorlash yetarli. Usul kam kitob o'qigan va tasavvuri tor kishilarda sust ishlashi ham mumkin.

Metodika. TOG tushunchasi usulning ahamiyatini anglatuvchi so'zlarning bosh harflaridan olingan abreviatura bo'lib, bu-**T**-arjima-tasavvur; **O**-braz-so'z; **G**-armonizatsiya-assotsiatsiya (bog'lash)dir[3].

TOG usuli 4 bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda so'zning tarjimasiga e'tibor qaratiladi. Bunda ko'z oldimizga so'zning tarjimasini keltirgan holda ko'zimizni yumib yorqinroq tasavvur qilishga harakat qilamiz. Ikkinchi bosqichda biz yodlashimiz lozim bo'lgan inglizcha so'zning talaffuziga o'xshash o'zbekcha so'z topamiz. Uchinchi bosqichda o'xshash obraz bilan yodlashimiz lozim bo'lgan so'zni bir-biriga bog'lab voqea tuzamiz. To'rtinchi bosqichda bog'langan so'zlarni ovoz chiqarib takrorlaymiz. Quyida bir nechta misol keltiramiz.

Birinchi misol: Otherwise [azerwaiz]-aks holda. Bu so'zni TOG usuli orqali eslab qolish uchun aks holda so'zining inglizcha talaffuzi “azerwais” so'ziga o'xshash o'zbekcha so'zlardan obraz topishimiz lozim. “Ozor mayiz”, “Ozorvoiz”, “Ozroq boysiz” va hok. So'z bo'g'inlarining ko'pligiga qarab ikki va undan ortiq so'zlarni birlashtirib ham obraz tanlash mumkin.

Yuqoridagi variantlar ichidan “Ozor voiz”, ya'ni ozarbayjon millatiga mansub voiz-notiq obrazini tanlaymiz. Tasavvur qiling, ishxonangizdagi ma'ruza zalida **ozor voiz** nutq so'zlamogda va uni ko'pchilik eshitmayotgani uchun meni eshitinglar **aks holda** rahbaringizga aytib chora ko'rdiraman deb qo'rqitmogda.

Voqeani tuzish jarayonida tanlangan obrazni shoshmasdan yaxshilab alohida belgilari bilan tasavvur qilishga harakat qilish lozim. Ozor millatiga mansub voizning ko'rinishi, yuz tuzilishi, ovozi va harakatlariga alohida sifat berish lozim. Ko'rinishi-novcha, yuz tuzilishi-mo'ylovli, burni uzun, ovozi-jarangli, qaddi tik, qo'li bilan jest harakatlaridan faol foydalanayotganligi va hok.

Voqeani shu shaklda tuzish orqali yodlanayotgan soʻzni va tarjimasini ovoz chiqarib bir necha marta takrorlash lozim. Azerwaiz-aks holda, azerwaiz-aks holda, azerwaiz - aks holda. Shu tariqa uch martadan besh martagacha ovoz chiqarib takrorlash lozim.

Ikkinchi misol: Rapidliy-juda tez. Bu soʻzni TOG usuli orqali eslab qolish uchun rapidliy soʻzining talaffuzi ham yozilishi mosligi sabab unga oʻxshash oʻzbekcha soʻzlardan obraz topishimiz lozim. “Rapida”, “Robot-liy”, “Rep aytdi” va hok. Soʻz boʻgʻinlarining koʻpligiga qarab ikki va undan ortiq soʻzlarni birlashtirib ham obraz tanlash mumkin. Yuqorida tanlangan “Robot-liy” obrazi ikkita soʻzdan iborat boʻlib, birinchi soʻzda temir robot ikkinchi soʻzda unga qoʻyilgan xitoycha ism tushunilmoqda. Keying “Rep aytdi” soʻzida rep yoʻnalishida qoʻshiq aytayotgan kishi nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagi variantlar ichidan “Rapida” yaʼni tandirga non yopish uchun maxsus qoʻlga kiyiladigan kiyim obrazini tanlaymiz. Tasavvur qiling, onangiz qoʻliga **rapida** kiygan holda tandirga nonni shu qadar **tez** yopmoqda-ki, u kishining harakatlari **juda tezligidan** siz buni zoʻrgʻa ilgʻamoqdasiz.

Voqeani tuzish jarayonida tanlangan rapida obrazni yoshligimizda onamiz uni qoʻliga kiyib non yopgan paytlarini eslab oʻsha paytdagi xotiralar bilan tasavvur qilishga harakat qilishimiz lozim. Rapidaning koʻrinishi, rangi, hajmini alohida tasavvur qilish lozim.

Uchinchi misol: Far-uzoq. Bu soʻzni TOG usuli orqali eslab qolish uchun “far” soʻziga oʻxshash oʻzbekcha soʻzlar “fara”, “fartuk”, “par” kabi soʻzlardan obraz sifatida foydalanishimiz mumkin. Misol tariqasida yuqoridagi “fara” soʻzini obraz sifatida tanlab uzoq soʻziga garmonizatsiya qilamiz.

“Mashinamning **farasi uzoqni** yaxshi koʻrsatmayotgani uchun kechki payt ishdan uyimgacha zoʻrgʻa haydab keldim”. Voqeani tuzish jarayonida tanlangan mashinaning rusumi, rangi, qulayligi yoki aks sifatlarini alohida tasavvur qilishga harakat qilishimiz lozim. Yoki texnik bilimga ega boʻlmagan ayol kishilar obraz sifatida “par” soʻzini tanlab “**par** yostiqa qattiq uxlab tushimda **uzoq-uzoqlarga** uchib ketibman” kabi voqeani tuzib eslab qolishsa ham boʻladi.

Miyamiz assotsiatsiyalar orqali ishlaydi. Har bir til obraz va unga tegishli tovushlardan iborat. TOG usuli shu tovushlarga obraz topishni tezlashtirib beradi. Usuldan foydalanayotgan kishi dastavval noqulayliklarga duch kelishi mumkin, lekin bu muammolar vaqt oʻtish jarayonida usulni toʻgʻri qoʻllash orqali yoʻqolib boradi.

TOG usuli orqali inglizcha soʻzlarning talaffuziga urgʻu beriladi. Oʻxshash obraz topiladi va yodlash jarayonida soʻzning talaffuziga eʼtibor qaratiladi. Soʻzlarning yozilishini eslab qolish uchun esa shu soʻzga alohida eʼtibor qaratib uni toʻgʻridan-toʻgʻri yodlab qolish talab etiladi. Buning uchun tasavvurni rivojlantirishga oid quyidagi mashqdan foydalanish bir muncha foydali.

Soʻzning yozilishiga diqqat bilan qarab uni eslab qolish uchun koʻzimizni yumib xayolan havoda qoʻlimiz bilan shu soʻzni yozishimiz, yoki qoʻlimizga ruchka olib uni devorga xayolan yozishni tasavvur qilishimiz lozim. Yoki oʻzimiz uchun yovuz deb bilgan ertak yoki filmdagi salbiy qahramonlarning obrazini koʻz oldimizga keltirib mix bilan uning yuziga tirnab yozayotganligimizni tasavvur qilish mumkin.

TOG usuli orqali soʻz yodlashda ovoz chiqarib takrorlash judayam muhim. Takrorlayotganda uni asliy tildagidek talaffuz qilishga harakat qilish lozim. Ogʻzaki takrorlash orqali artikulyatsion apparatlar yangi til soʻzlarini talaffuz qilishga tez moslashadi. Bu odatdan davomli foydalanish orqali tiniq talaffuzda gapirishni tezroq oʻrganish mumkin.

Til oʻrganishda ikki xil: aktiv va passiv lugʻat turi boʻlib, aktiv lugʻat biz hayotda tez-tez ishlatib turadigan soʻzlar majmuasidir. Biz oʻzlashtirgan, ammo isteʼmolda kam ishlatadigan soʻzlar passiv soʻzlar majmuidir. Til oʻrganishda qaysi lugʻat turiga mos soʻzlarni oʻzlashtirayotganimizga alohida eʼtibor qaratishimiz lozim. Chunki biz uchun foydali muloqotda kerak boʻlgan oz sondagi soʻzlarni bilish, ishlatish zarurati kam boʻlgan koʻp sondagi soʻzlardan koʻra foydaliroqdir. Shu sabab TOG usulidan lugʻatdagi faol soʻzlarni yod olish maqsadida foydalanishimiz lozim[5].

“Tog” usulini Qarshi davlat universitetining 120 nafar talabalarida sinovdan oʻtkazdik. Quyidagi 1-jadvalda tadqiqot natijalarining tahlili keltirilgan. Qarshi davlat universiteti talabalarida tajriba boshida “Tog” usuli orqali soʻzlarni esda saqlab qolish koʻrsatgichining shakllanganlik darajasi.

“Tog” usuli natijalari boʻyicha Qarshi davlat universiteti talabalarida tajriba boshida soʻzlarni esda saqlab qolish koʻrsatgichining shakllanganlik darajasi


Tasavvur obrazlaridan foydalana olish koʻrsatgichi. 15 % talaba toshiriqni bajarish jarayonida soʻzlarga mos uchtadan ortiq oʻxshash obrazlarni oʻz vaqtida topib juda yaxshi natijani koʻrsatdi. 20 % talaba ikkita oʻxshash obrazni oʻz vaqtida topib yaxshi natijani koʻrsatdi. Sinaluvchilardan 35 % bitta oʻxshash obrazni berilgan vaqt ichida topib oʻrtacha natijani koʻrsatdi. Sinaluvchilardan 30 % bitta ham oʻxshash obrazni topa olmasdan past natijani koʻrsatdi.

Mezonlar	Qarshi davlat universiteti talabalari (120 nafar)			
	Juda yaxshi	Yaxshi	O`rta	Past
1. Tasavvur obrazlaridan foydalana olish ko`nikmasi	15%	20%	35%	30%
2. Noodatiy hikoyani tuza olish sifati	10%	20%	40%	30%
3. Belgilangan vaqtdan keyin eslay olish ko`rsatgichi	10%	15%	30%	45%

Noodatiy hikoyani tuza olish sifati. 10 % talaba berilgan vaqt ichida noodatiy hikoyani tasavvurlariga tayanib izchil ravishda tuza olgan holda juda yaxshi natijani ko`rsatdi. 20 % talaba topshiriqni bajarish jarayonida noodatiy hikoyani hayotiy voqealarga bog`lab tuzgan holda yaxshi natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 40 % noodatiy hikoyani tuzish jarayonida qisman xatoliklarga yo`l qo`yib o`rtacha natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 30 % tasavvur obrazlaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelgan holda noodatiy hikoyani tuza olishmadi va past natijani ko`rsatdi.

Belgilangan vaqtdan keyin eslay olish ko`rsatgichi. 10 % talaba eslab qolingani so`zlarni tuzilgan noodatiy hikoyalarga tayangan holda belgilangan vaqtda bexato eslab juda yaxshi natijani ko`rsatdi. 15 % talaba noodatiy hikoyalarni xotirada tiklash jarayonida biroz vaqt sarflab eslash orqali yaxshi natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 30 % noodatiy hikoyani xotirada tiklash jarayonida qisman qiyinchiliklarga duch kelgan holda o`rtacha natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 45 % noodatiy hikoyani tuzishda yo`l qo`ygan xatoliklar tufayli so`zlarni eslay olishmadi va past natijani ko`rsatdi.

Empirik tahlil: Biz topshiriqni Qarshi davlat universiteti talabalarda qo`llab tajriba natijasida metodika orqali quyidagi natijani oldik.



1-rasm. Natijalar

Demak til o`rganish jarayonida so`zlarni yodlash samaradorligini oshirishda “Tog” usulidan foydalanish yuqori samaradorlikni ta`minlovchi muhim vositadir. Bu jarayonda yuqorida nazarda tutilgan tavsiyalarga rioya qilish talabalarining mavjud ko`nikmalarini yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ingliz tilini zamonaviy usullar orqali o`rganish uchun biz to`rt bosqichli algoritmdan foydalanishimiz mumkin.

Birinchibosqich. Bu bosqichda biz ma`lumot matni bilan tanishamiz. Bunda semantik xotiramiz faol ishlaydi,

Ikkinchi bosqich. Bu bosqichda ma`lumot mazmunini tushunishga harakat qilamiz. Bunda epizodik xotiramiz faol ishlaydi.

Uchinchi bosqich. Bu bosqichda ma`lumotni amalda qo`llash ko`nikmasini shakllantiramiz. Bu davr amaliyot jarayonini o`z ichiga oladi.

To`rtinchi bosqich. Bu bosqichda olingan bilimlarni muomila jarayonida erkin qo`llay olish kompetensiyasiga ega bo`lamiz. Bu davr ham amaliyot jarayonini o`z ichiga oladi[1].

Xulosa. TOG usuli orqali soʻzlarni yodlash jarayonida natijadorlikni oshirish maqsadida noodatiy voqea tuzish koʻnikmasini shakllantirish uchun muntazam mashq qilib borish lozim. Muntazamlilik qonuniga amal qilish asosida muayyan vaqtdan soʻng qisqa vaqt ichida noodatiy voqealarni tez tuza olish koʻnikmasiga ega boʻlish mumkin. Buning uchun oʻzlashtirilayotgan soʻzlar soni va unga sarflanayotgan vaqtni qayd etib borish lozim. Yaʼni har kunlik mashgʻulotda qancha vaqtda nechta soʻz yodlanayotganligini aniq hisobini yuritib borish zarur. Shu odat orqali biz oldingi natijamiz bilan keyingisini taqqoslash orqali oʻzimizda ushbu usul orqali erishayotgan natijamizning koʻrsatgichini aniqlash imkoniga ega boʻlamiz. Demak til oʻrganish jarayonida tanlangan metodik usullar muhim ahamiyatga ega. Bunda oʻrganuvchi individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holada mos usulni toʻgʻri tanlay bilishi lozim. Oʻqituvchi ham oʻz metodikasini oʻrganuvchining oʻzlashtirish sifatlariga moslab qoʻllashi zarur.

Adabiyotlar:

1. Abduraimova Sh, Abdullayev M, Muydinov S. Mnemonika: yod olish sanʼati. “Ilmiy-ommabop nashr”. Toshkent: Akademnashr. 2022.-102 b.
2. Soatov.A.J. Boʻlajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish koʻnikmalarini shakllantirish texnologiyasi. Oʻquv qoʻllanma. Qarshi: Fan va taʼlim. 2022.-128-137 b.
3. Soatov A.J. Diqqat va uning taʼlimiy ahamiyati. “Xalq taʼlimi” ilmiy-metodik jurnalning 3-maxsus soni. 2021.55-58 b.
4. Soatov A.J. Pedagogik kasbiy faoliyatda xotiraga xos mnemonik usullardan samarali foydalanish omillari. “Taʼlim fan va innovatsiya” jurnali 1 son. 2020.-100 b.
5. Urinova L. Diqqatning MDH psixologlari tomonidan oʻrganilishi. OʻzMU xabarleri. 2023, [1/2].- 199 b.

Shoumarov G'ayrat Baxromovich,
Psixologiya fanlari doktori, professor
Umarova Zarnigor Rahmatillo qizi.
Psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

O'SMIRLARDA OILAVIY NIZOLAR TO'G'RISIDA IJTIMOY TASAVVURLARNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz o'smirlarda oilaviy mojarolar to'g'risida ijtimoiy g'oyalarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, shuningdek, oilaviy munosabatlardagi hissiy stressni tuzatishni ko'rib chiqdik. Oilada ota-ona va bola o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning barqarorligini ta'minlash uchun motivatsiyalarni shakllantirish ustuvor ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi, oilaviy munosabatlardagi hissiy stressni tuzatishda ijtimoiy rollarni aniqlashga qaratilgan psixotexnologiyalarning kombinatsiyasi qo'llanildi. "Hamkorlik" va "kelishuv" motivlarini shakllantirish o'smirning dastlabki bosqichlarida psixologik o'zini o'zi himoya qilishning ota-ona va bola o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning barqarorligini ta'minlashda shaxsni ijobiy idrok etish va ijtimoiy personifikatsiyasini rivojlantirish muhimligiga muvofiq ustuvor ahamiyatga ega ekanligi isbotlangan. O'smirlikning dastlabki va oxirgi bosqichida ziddiyatli vaziyatlarni bartaraf etish orqali ularning ijtimoiy-psixologik g'oyalarni shakllantirish isbotlangan.

Kalit so'zlar: suhbat, kuzatish, so'roq qilish, hissiy holatlar, individual aks ettirish, tarkibni tahlil qilish, persepsiya, korrelyatsiya, psixologik determinant, empatiya, metodologiya, ekstremal sharoitlar, stress, stereotip, e'tibor, barqaror qiziqish, ongli motiv, fikrlash, ontogenez, inqiroz, psixoterapiya, psixokorreksiya.

ФОРМИРОВАНИЕ У ПОДРОСТКОВ СОЦИАЛЬНЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ О СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТАХ

Аннотация: В данной статье мы рассмотрели социально-психологические особенности формирования у подростков социальных представлений о семейных конфликтах, а также коррекции эмоционального напряжения в семейных отношениях. Было выявлено, что формирование мотиваций обеспечения устойчивости социально-психологических отношений между родителем и ребёнком в семье носит приоритетный характер, применено сочетание психотехнологий, направленных на выявление социальных ролей в коррекции эмоционального напряжения в семейных отношениях. Доказано, что формирование мотивов «сотрудничества» и «согласия» имеет приоритетный характер в соответствии с важностью психологической самообороны на первых этапах подросткового возраста для развития позитивного восприятия и социальной персонификации личности в обеспечении стабильности социально-психологических отношений между родителем и ребёнком в семье. Доказано формирование у них социально-психологических представлений путём преодоления конфликтных ситуаций как на начальном, так и на последнем этапе подросткового возраста.

Ключевые слова: беседа, наблюдение, анкетирование, волевые качества личности, эмоциональные состояния, индивидуальная рефлексия, контент-анализ, перцепция, корреляция, психологический детерминант, личностный дискомфорт, эмпатия, методология, экстремальные условия, стресс, стереотип, внимание, устойчивый интерес, сознательный мотив, мышление, онтогенез, кризис, психотерапия, психокоррекция.

THE FORMATION OF SOCIAL IDEAS ABOUT FAMILY DISPUTES IN ADOLESCENTS

Abstract: In this article, we examined the socio-psychological features of the formation of social ideas about family conflicts in adolescents, as well as the correction of emotional stress in family relationships. It is revealed that the formation of motivations to ensure the stability of socio-psychological relations between a parent and a child in the family is of a priority nature, a combination of psychotechnologies aimed at identifying social roles in correcting emotional stress in family relationships is applied. It is proved that the formation of motives of "cooperation" and "consent" has a priority character in accordance with the importance of psychological self-defense in the early stages of adolescence for the development of positive

perception and social personification of the individual in ensuring the stability of socio-psychological relations between parent and child in the family. It is proved that the formation of motives of "cooperation" and "consent" has a priority character in accordance with the importance of psychological self-defense in the early stages of adolescence for the development of positive perception and social personification of the individual in ensuring the stability of socio-psychological relations between parent and child in the family. It is proved that they form socio-psychological ideas by overcoming conflict situations both at the initial and at the last stage of adolescence.

Key words: *conversation, observation, questioning, volitional qualities of personality, emotional states, individual reflection, content analysis, persepsia, correlation, psychological determinant, personal discomfort, empathy, methodology, extreme conditions, stress, stereotype, attention, sustained interest, conscious motive, thinking, ontogenesis, crisis, psychotherapy, psychocorrection.*

Kirish. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ko‘plab yangi sohalar qatori aholiga psixologik maslahatlar berish hamda oilaviy psixoterapiya sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo‘lgan muayyan ehtiyoj tobora ko‘proq sezilmoqda. Rasmiy ma‘lumotlarga qaraganda, bolalar har bir mamalakatning o‘rtacha 20-25% aholisini tashkil qiladi. Shu bilan birga, bolalar jamiyatning eng himoyasiz qismi hamdir. BMTning Bolalar fondi ma‘lumotlariga qaraganda, bolalarning 50%dan ko‘pi oilalarda psixologik yoki jismoniy zo‘ravonlikdan, har o‘nta boladan bittasi kattalarning agressiv xulqidan jabr ko‘radi. Shunday ekan, oilaviy munosabatlar, ona va bola birligi, bolalarning psixologik rivojlanishiga ota-onalar tomonidan ko‘rsatiladigan ijtimoiy-psixologik ta‘sir Amerika Psixologiya assosiasiyasi, Perinatal psixologik markaz (Avstraliya), Ona va bola markazi (AQSH, Minneapolis), Yaponiya ayollar ta‘limi milliy markazlari tomonidan ona-bola munosabatlarini kompleks o‘rganish, ularning hali yaxshi o‘rganilmagan jihatlarini ilmiy tadqiq qilish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Xorij psixologik tadqiqotlari tahliliga ko‘ra, ontogenezning dastlabki yillaridagi psixik rivojlanishga ko‘mak va ona bilan bo‘lgan faoliyati bolaning maktab yoshida o‘zlashtirish samaradorligi, maktab muhitiga ijtimoiy-psixologik moslashishiga va o‘smirlik yoshi inqirozi hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan turli xulqiy og‘ishlarning oldini olishga xizmat qiluvchi omillar keng tadqiq etilmoqda. Bugungi kunda ota-onaning muhim ijtimoiy funksiyasi – avlodlarga oilaviy qadriyatlarini nafaqat asrab qolish, balki uni rivojlantirish maqsadida ham avlodlararo muloqotni saqlab qolishdan iboratdir.

Ona va uning oiladagi funksiyalari tushunchasi, onalikka tayyorlikning turli jihatlari: ayolning homiladorlikka nisbatan reaksiyasi, o‘zini ona rolga qabul qilish, homiladorlik davrida ayol psixologik xususiyatlari, er-xotin munosabatlarida rollar taqsimoti, ayolning ota-ona – bola munosabatlari haqidagi tasavvuri, tug‘ilib o‘sgan oilasidagi o‘zaro munosabatlar tajribasi, ayolning ijtimoiy-iqtisodiy maqomi, ijtimoiy vazifalari, shuningdek, qo‘llab-quvvatlashi, homiladorlik davrida bola obrazi va u bilan aloqa o‘rnatish kabi muammolarni tahlil etish uchun jahonning yetakchi xalqaro tashkilotlari, ilmiy markazlari hamda oliy ta‘lim muassasalari, xususan, Osaka shahar universitetining Ijtimoiy fanlar oliy maktabi Klinik psixologiya yo‘nalishi xodimlari, Amerikada oila huquqlarini himoya qiluvchi universitet (American University of family law attorneys), Amerika oilaviy xizmati (Family Service Amerika) xodimlari tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Oila, oilaviy munosabatlar, ota-ona – bola munosabatlari va ularning shaxs shakllanishiga ta‘siri ijtimoiy-psixologik muammo sifatida Avstraliyada oilani tadqiq qiluvchi institut (Australian Institute of Family Studies), Seul Milliy universiteti psixologiya bo‘limida (Seoul National University Department of Psychology), Angliyada Chester (Psychology and Child Development (with Placement Year) BSc) universitetlarida, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror taraqqiyot maqsadlari doirasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Bola tug‘ilguniga qadar va ontogenez davrida uning shakllanishi hamda ijtimoiylashuvda onaning ta‘siri mavjudligi ma‘lum. Bola dunyoga kelishi jarayonida oiladagi shaxslararo munosabatlar, ya‘ni ota-ona munosabatlari, ayniqsa, onaning psixologik holati, oiladagi maqomi, uning homiladorlikka nisbatan munosabati muhim hisoblanadi. Bolaning ijtimoiy xulqi mazmuni, kognitiv rivojlanishi, ya‘ni fikrlar tarbiyasi, dunyoqarashning shakllanishiga ham onaning xulq-atvori katta ta‘sir qiladi.

Ushbu muammoga doir adabiyotlarni tahlil qilar ekanmiz, ularda o‘smirlarning xulq-atvor metodologiyasiga taalluqli bo‘lgan ba‘zi, umumiy jihatlari va ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilinmagan.

Shaxs hayoti va faoliyatidagi ekstremal sharoitlar ta‘siri ostida rivojlanadigan eng xarakterli emotsional holat bu – stressdir. Stress o‘z tabiatiga ko‘ra murakkab jarayon bo‘lib, shaxslilik, psixofiziologik

va ijtimoiy omillarga bog‘liq. Stressli vaziyatlarga qarshilik ko‘rsatishning samarali strategiyalarini izlashga yo‘naltirilgan tadqiqotlar bugungi kundagi dolzarb muammo hisoblanadi. Stressli vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengish va uning salbiy ta‘sirini minimum darajasiga pasaytirish har bir shaxsning muhim ko‘nikmalaridan biri, deb e‘tirof etiladi.

O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Bugungi davrda o‘smirlar taqdiri masalasi g‘oyat jiddiy tus oldi. O‘smirlik davri boshqa yosh davrlaridan taqlidchanligi, muhim nuqtayi nazarning shakllanmaganligi, hissiyotliliigi, mardligi, tantiligi bilan farqlanadi. Shuning uchun tashqi ta‘silarga beriluvchan o‘smir o‘g‘il-qizlarga alohida e‘tibor berish zarur.

E.I. Kirshbaum asarlarida o‘smirning psixik o‘shini harakatga keltiruvchi kuch nima degan savolga – bu o‘smirning psixik o‘shini harakatga keltiruvchi kuch – uning faoliyatini vujudga keltirgan yangi ehtiyojlar bilan ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar tizimining namoyon bo‘lishidir. Mana shu dialektik qarama-qarshiliklar ortib borayotgan jismoniy, aqliy hamda axloqiy imkoniyatlar bilan barqarorlashgan, stereotipga aylangan tashqi olamni aks ettirishning shakllari o‘rtasida sodir bo‘ladi. Vujudga kelgan ziddiyatlar va qarama-qarshiliklarni emotsional zo‘riqishlar hamda faoliyat turlarini murakkablashtirish orqali o‘smir shaxsida yangi psixologik fazilatlarini tarkib toptirish bilan asta-sekin yo‘qotish mumkin. Bu davr insonning kamoloti yuqoriroq bosqichiga ko‘tarilishi bilan yakunlanadi. Kamol topish o‘smirdan umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish, mavhumlashtirish, obyektlar o‘rtasidagi ichki munosabatlarni o‘rnatish, muhim qonun, qonuniyat, xossa, xususiyat, mexanizm va tushunchalarni anglash, ixtiyoriy diqqat, barqaror qiziqish, ongli motiv va mantiqiy eslab qolishni talab qiladi. Bularning barchasi fanlarga doir bilimlar tizimini vujudga keltiradi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi, o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘z-o‘zini baholash, anglash singari xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Endi ushbu masala bo‘yicha sharqning bir qator qomusiy olimlarining qarashlarini ko‘rib chiqamiz. Shuningdek, sharq mutafakkirlaridan Bahovuddin Naqshbandi, Ahmad Yassaviy, At-Termiziy, Al-Buxoriy, Bobarhim Mashrab, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nosir Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Donish, Yusuf Xos Hojib, Abdulla Avloniy, Behbudiy, Cho‘lpon, Fitrat kabi mutafakkirlar asarlarida oiladagi munosabatlar, komil inson qilib tarbiyalash muammolari o‘rin tutishi ta‘kidlangan.

Markaziy Osiyo, jumladan, O‘zbekistonda oiladagi shaxslararo munosabatlar, o‘smirlarni ijtimoiylashuvi, nizolar, bola tarbiyasi bo‘yicha to‘plangan uslublar kamol topayotgan yosh avlod ta‘limi va tarbiyasida ma‘rifiy ahamiyatga ega. O‘zbek xalqi barcha Sharq xalqlari kabi oilaga, bola tarbiyasiga juda katta ahamiyat bergan. Bu an‘ana avloddan-avlodga xalq donishmandligining timsoli sifatida o‘tib kelgan va milliy madaniyatimizda o‘ziga xos o‘rin tutadi. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosida hissiy holatlarni o‘rganish masalalari muhim o‘rinni egallaydi. Sharq mutafakkirlari shaxs hissiyoti uning kamolotini ta‘minlashdagi o‘rni va roliga alohida e‘tibor berganlar. Xususan, Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziyning oila va oilada shaxslararo munosabat haqida «Ota-ona va farzand burchi», «Ota-onani, oilani va qarindoshlarni hurmatlash» va hokazo kabi nodir hadislari bizgacha yetib kelgan. At-Termiziy «Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangizlar yoki ota-onalaringizga qanday yaxshi muomalada bo‘lsangiz, farzandlaringiz ham sizga shunday muomalada bo‘ladi» kabi hadislari bilan hadis ilmining rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shgan siymolardan biri hisoblanadi.

Sayyid Muhammad ibn Sayyid Bahouddin Naqshbandiyning ta‘lim-tarbiya haqidagi fikr-mulohazalari va pandu nasihatlari g‘oyat qimmatlidir. U kishi barkamol insonni tarbiyalash dastlab odobdan boshlanishini ta‘kidlab, shunday degan edi: «Adab xulqini chiroyli qilish, so‘z va fe‘lni soz qilishdir. Adab saqlash–muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar adabda ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysang ham, nimaiki qilmagin, beadablik ko‘rinadi. Odam o‘zini bir xil sifat va ko‘rinishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta‘sir qilish) ta‘masi paydo bo‘lmagan bo‘lsin». Naqshbandiy do‘stlik va o‘rtoqlikka katta e‘tibor bergan: «agar do‘st aybiga boqsangiz, do‘stsiz qolasiz, hech kim dunyoda beayb emas», degan edi.

Sharq mutafakkirlari o‘z zamonasidayoq oilada ota-ona va bola munosabatlarining ijtimoiy vaziyat bilan bog‘liq ekanligi, bu vaziyatning o‘zgartirilishi uning tarbiyasiga ta‘sir qilishi tabiiydir, degan xulosaga kelishgan.

Abu Ali ibn Sino ijtimoiy hayotda shaxsning roliga katta etibor qaratadi. Tashqi muhit va odamlar, insonlar orasidagi uyg‘unlikning bo‘lishi shaxsda ijobiy va salbiy sifatlarning shakllanishiga ta‘sir qilishi va shu bois shaxsdagi hissiyotni idora qilishda ijtimoiy muhitning muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydi.

Rumiyning psixologik qarashlarida ham shaxs va uning kamoloti, uning hissiy sohasi, ijtimoiy odob-axloq normalari haqida juda ko‘plab ma‘lumotlar berilgan. Uning fikricha, insoning idroki u yashayotgan jamiyatning bir ko‘rinishidir. Shuningdek, inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib fikrlash va tafakkur qilish unga xos odatdir. Shaxsning ijtimoiy hayotdagi faoliyati uning shaxslararo munosabatlarini qay darajada shakllanganligi jamiyatdagi mavqeyini belgilab beradi. Shaxsning jamiyatdagi rolini uning bilimi bilan bir qatorda shaxsiy fazilatlarini belgilaydi.

O‘smirlarda o‘zini anglashning rivojlanishi, ijtimoiylashuvi, shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatini, xarakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi.

O‘smirda ijtimoiylashuvning rivojlanishi uchun sinf jamoasi va oila a‘zolarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning xatti-harakati, o‘z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o‘z o‘rnini topishga intilishi o‘zini anglashning takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O‘smirlarda o‘zini anglash yangi bosqichga ko‘tarilgach, ular o‘ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O‘quvchi o‘ziga namuna bo‘lgan shaxsning xulq-atvori bilan o‘zining xatti-harakatini solishtiradi va o‘zining ijobiy yoki salbiy jihatlari anglab yetadi. Natijada unda o‘zini o‘zi tarbiyalashga bog‘liq yana bir muhim xislat vujudga keladi. O‘smir o‘zini o‘zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilm ishtirokchilaridan o‘rnak olib, goho ularga taqlid qilib, butun iroda kuchi va xarakter xislatlarini ishga solib, har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo‘lda uchraydigan to‘siq hamda qiyinchiliklarni yengadi.

O‘smirda ijtimoiylash davri xususiyatlarini tadqiq qilgan G.V.Grachev va V.N. Grigorevaning ta’kidlashisha, o‘g‘il va qizlarning bu yoshda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon bo‘ladi.

O‘smirning sinf jamoasi hayotida faol qatnashish uchun intilishi g‘oyat katta ahamiyatga ega. Sinf jamoasi a‘zolarining o‘zaro yordam, birdamlik, hamdardlik, bo‘ysunish odati, shaxsiy hamda ijtimoiy qiziqishlarini rivojlantiradi.

Psixologlarning fikricha, o‘smirlar jinsiy yetilish sirlarining 17 foizini ota-onadan, 9 foizini o‘qituvchilardan, 4 foizini maktab shifokor vrachidan va qolgan yashirin jihatlari, holatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni ko‘cha–ko‘ydan, o‘rtoqlari va dugonalaridan eshitib bilib oladi. Kutilmagan holatlar va ma‘lumotlar ularning xatti-harakatini chigallashtiradi, yakkalik olamiga berilish boshlanadi, fe‘l–atvorda ayrim illatlar paydo bo‘ladi. Goho ba’zi o‘smirlar orasida axloqiy buzilish hollari ro‘y berishi mumkin, ularni bunday harakatlaridan, nopok guruh va to‘dalardan xalos etish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, XX asrning boshlarida o‘smirlik yoshi eng qiyin psixologik yosh deb tan olindi.

Hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, xatti-harakat motivlari ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi.

O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas», – ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqoncimon bez, buyrak o‘sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi.

Har qanday o‘smir shaxsida o‘z-o‘zini baholash orqali unga ta’sir etadigan ijtimoiy omillarni aniqlash mumkin. Chunki odamning o‘z-o‘zini anglashi, bilishi, o‘z ustida ishlashi, avvalo, uning diqqati, ongi, bevosita o‘ziga, o‘z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, his-hayajon, kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. O‘smir shaxsining o‘zi, o‘z xulq-atvori xususiyatlarini anglashi qanchalik adekvat, to‘g‘ri, real bo‘lishi uning barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi. Shuning uchun shaxsning tarbiyalanganligini bilishda, uning o‘zi va o‘z sifatleri to‘g‘risidagi tasavvurlarini o‘rganish lozim. Demak, har bir inson o‘zini, o‘zligini qanchalik aniq va to‘g‘ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning ijtimoiy normalarga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo‘ladi, ya’ni shaxs tarbiyalangan bo‘ladi.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladi. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma‘lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy

kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik yoshiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rgana turib, o‘smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo‘llarini va unga ta‘sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta‘sirini tushunish mumkin.

Bu davrda o‘smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o‘z o‘rnini topa olmagan holatda bo‘ladi, o‘smirlik davri «o‘tish davri», «krizis davr», «qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi.

O‘z davrida L.C.Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta‘sir ko‘rsatadi, bu ta‘sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir. O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaqlik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos.

E.I. Kirshbaum o‘smirlik davrda bolaning ijtimoiy mavqeyi o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi haqidagi mavjud fikrlarning bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni asabiylashishiga olib keladi, deb hisoblaydi. Bu esa o‘smirda o‘zi haqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba‘zi o‘smirlarni nima uchun atrofdaqilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga coladi. Bu holat ularning ichdan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlik davri krizisi deyiladi.

O‘smirlik davrida yetakshi faoliyat – bu o‘qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir, o‘smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi – bu do‘stlik, o‘rtoqlikdagi elementar me‘yorlarni aniqlash va egallashdir. O‘smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to‘la o‘rtoqlik kodekliga bo‘ysunadi.

O‘smirlarning o‘rtoqlik va do‘stlik tuyg‘ulari o‘zaro munosabatlarini o‘rgangan K.F.Dmitriev, ularning o‘zaro munosabatlarini uchta shaklga: ulfatchilik, o‘rtoqlik va do‘stlikka bo‘ladi. Har bir yuksak tuyg‘uni psixologik jihatdan ta‘riflab, ularning rivojlanishini bayon qiladi. Y.L.Dotsenko va G.A.Ilinning fikricha, haqiqiy o‘rtoqlik va chinakam do‘stlik – mardonavor o‘rtoqlik va talabchan do‘stlikdir. Bunday o‘rtoqlik va do‘stlik amaliy yordamni va o‘rtog‘ining xatolarini to‘g‘ri, samimiy va ochiq tanqid qilishni taqozo etadi

Metodlar va natijalar.

Tadqiqotimizda 10-15 yoshlar oralig‘idagi 30 nafar o‘smirlardan iborat respondentlar tanlab olindi.

Tadqiqot ishimizda quyidagilar qo‘llanildi: Tadqiqot jarayonida suhbat, kuzatuv, anketa, ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma (IPS), «Ziddiyatni yengishga bo‘lgan o‘smir xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganish uslubi» ota-onalar bilan suhbat-intervyu, test, anketa, texnik vositalar yordamida kuzatuv faoliyat natijalari tahlili. Bundan tashqari, S.Ayzenkning PEN so‘rovnomasi, oiladagi emosional munosabatlar diagnostikasi metodikasi, qadriyatlar yo‘nalganligini aniqlovchi testlardan foydalanildi. Shu bilan birga, “bola” va “ona” so‘zlariga nisbatan assosiasiya, bola rasmi metodikalari asosida aniqlandi.

Ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma. (Siz va farzandlaringiz).

Ota-ona va farzandlar o‘zaro munosabatlari – azaliy, avloddan-avlodga uzatilib kelinayotgan muammodir. Nima uchun bir oilada tinchlik va o‘zaro tushunish hukm suradi-yu, boshqa bir oilada esa bolalar va ota-onalar tinimsiz nizolashadi? Farzandingiz sizni qanday odam deb hisoblaydi, o‘smirlarda ijtimoiylashuv qanday shakllanadi? Bu masalani ushbu test yordamida aniqlab olishga urinib ko‘ring.

Test javoblari uchun blanka

1-jadval.

Savollar t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A										
B										
V										
G										

Test natijalari quyidagi kalit yordamida qayta ishlab chiqiladi

2-jadval.

Savollar t.r.	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
A	2	2	2	3	1	2	3	3	4	3
B	3	3	4	1	3	4	1	4	3	2
V	1	4	3	0	2	3	2	1	2	4
G	4	1	1	2	4	1	4	2	1	1

Javoblaringizni baholab chiqing va ballar yig'indisini hisoblang.

Natijalar izohi.

10 dan 15 ballgacha: LOQAYD. Siz bolalarni o'z hayotingizning qayoqdandir kelib qolgan qo'shimcha (ikkinchi darajali) mahsuloti deb hisoblaysiz. «O'zim uchun yashashni xohlayman!» shiori sizning farzandingiz bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlaringiz tuzilishining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Siz o'z hayotingiz bilan yashaysiz va unda farzandingizga joy topilmaydi. Siz tomoningizdan bolaga nisbatan bo'lgan sovuq munosabat, u tomonidan sizga nisbatan intilish hisini tug'dirmaydi. Yildan yilga sizlar bir-biringizdan uzoqlashib boraverasizlar. Odatdagi uchrashuvlaringiz muloqotdan iliqlik va quvonch bermaydi. Moddiylik – sizlarni bog'lab turgan yagona jihatdir. Hayotning bu jihatidan ajralib chiqqandan so'ng, sizlarni bog'lab turuvchi nozik iplar (rishtalar) butunlay uziladi. Aytish mumkinki, keyinchalik sizlarning uchrashuvingiz ikkala tomon uchun ham istalmagan bo'lib qoladi.

16 dan 25 ballgacha. ZOLIM. Siz oila boshlig'i ekanligingizga to'la ishongan holda yashaysiz. Shuning uchun bola sizga so'zsiz quloq solishi va sizning barcha talablaringizni so'zsiz bajarishi kerak, deb hisoblaysiz. Sizning fikringiz – eng so'nggi (hal qiluvchi) fikr hisoblanadi. Bolaning fikri, uning qiziqishlari va muammolari sizni qiziqitirmaydi. Sizning bolani tarbiyalash va o'qitish borasida aniq rejangiz mavjud. Bolani sizning shiddatli qat'iyiligingizga qarshiligi faqat olovga moy quygandek bo'ladi. Qarshi turishga o'z bola, doimiy nizodan qochish uchun chetga o'tishga, o'zi bilan o'zi ovora bo'lishga, jazavaga tushgan otananing pand-nasihatlarini jimgina tinglab turishga majbur. Kelajakda, sizning betinim nazoratingiz ostidan chiqqanidan so'ng, sizning «yuvvosh», «itoatkor» farzandingiz, siz uzoq yillar davomida betinim o'rgatganlaringizga, shunchaki o'chakishib, ularning teskarisini qilishi mumkin.

26 dan 34 ballgacha. O'RTOQ. Siz bolangiz bilan ishonchli o'zaro munosabatdasiz. Siz uning barcha kichik baxtsizligi va quvonchlaridan boxabarsiz. Bola sizni eng yaqin o'rtoq deb hisoblaydi va sizni gapi bilan ham, xatti-harakati bilan ham ranjitmaslikka harakat qiladi. Lekin mabodo shunday holatlar yuzaga kelib qolgudek bo'lsa, unda sizlar yarashish yo'llarini tezda topa olasizlar va nizo uzoq davom etadigan o'zaro urushga aylanmaydi. Siz bolangizning xatti-harakatlariga ishonasiz va uning u yoki bu vaziyatda o'zini qanday tutishini oldindan bila olasiz. Bola sizda ishonchli tayanch va himoyani ko'radi. Sizlar bir-birlaringiz bilan oddiy betakalluf (oshna-og'aynilik) munosabatlariga o'tib ketmay teng gaplashasizlar. Siz bolangizga nisbatan talabchan va me'yori qattiqqo'lsiz. Sizlarning munosabatingiz ikki tomonlama hurmat asosida tuzilgan.

35 dan 40 ballgacha. XIZMATKOR. Sizning farzandingiz sizni oshkora xo'rlaydi. Siz kichik yoshlaridan boshlab uning barcha injiqliklariga yo'l qo'yib beraverib, o'z xohishingiz bilan uning xizmatiga kirgansiz. U o'sib borgan sayin tobora ko'proq sizning fikringiz bilan hisoblashmaydigan bo'lib boradi. Siz pushaymon bo'lib (afsus bilan) «Mening avvalgi muloyim kichkintoyim bilan nima ro'y berdi?» deb o'ylaysiz. Siz u shunchaki, Ptolomeyning falsafiy pozitsiyasida turib olib butkul koinot mening atrofimda aylanadi, deb oshkora hisoblashini tushuna olmasiz ham. Kopernik kelib olamning tuzilishini tushuntirib berib siz tarbiyalagan bola ongini boshidan oyog'iga ag'darib yuboradigan onlar hali oldinda. Faqat bu yordam berarmikin? Qanday bilish mumkin...

3-jadval.

«Siz va farzandlaringiz» ijtimoiy psixologik so'rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar (n=30)

Omil	Soni (erkak)	%	Soni (ayol)	%
Loqayd	10	32	7	22
Zolim	9	29	10	43
O'rtoq	3	14	5	13
Xizmatkor	8	25	8	26
Jami:	30	100	30	100

Ota-onalar bilan olib borilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra «loqaydlik omili» erkaklarda 32% ni, ayollarda 22% ni ko‘rsatdi. Bunga sabab erkaklar ayollarga nisbatan doimiy ko‘chada mehnat faoliyati bilan band bo‘lganliklari uchun farzandlariga ota sifatida onaga nisbatan biroz loqaydroq bo‘lishadi. Ona esa aksincha kun davomida bolasi bilan ovora bo‘ladi, uning xursandchiligi, inijliklarini ko‘radi, ehtiyojlarini bajarishga ko‘maklashadi, bu esa ularning avtomatik tarzda etiborli bo‘lishlarini talab qiladi. Bolalar ulg‘ayib o‘smir yoshga yetganda ham o‘z dunyoqarashi bilan ovoradek tuyilsa-da, malum bir masalalarda, masalan, kasb tanlash, o‘qish, muhim bir qaror qabul qilish borasida ko‘proq onasi bilan maslahatlashadi.

2-omil «Zolim» (farzandga nisbatan qattiqqo‘l, talabchan) omili bo‘yicha erkaklar 29% ni, ayollar esa 43% ni egalladi va ayollar erkaklarga nisbatan ustunlik qilishdi. Bunga sabab o‘z-o‘zidan 1-omilga borib taqaladi. Chunki ayollar kun davomida farzand bilan ovora bo‘lganliklari bois uning yutuq va kamchiliklarini ko‘rishadi, his qilishadi va ma‘lum o‘rinda xurcand bo‘lishadi va kamchiliklarini tuzatishga harakat qilishadi. Zolim omilini farzandga qilingan qattiqqo‘llik, tanbeh berish ma‘nosida izohlash maqsadga muvofiq. Shunday vaziyatlar paydo bo‘ladiki, farzand ulg‘aygan sari unga turli omillar ta‘sir ko‘rsata boshlaydi. Bu omillar bola ruhiyatiga salbiy va ijobiy tasirini ko‘rsatishi mumkin. Salbiy taassurotlarga berilish farzandni keskin harakatlar qilishga, noto‘g‘ri fikrlashga undaydi. Farzand xatti-harakatlarida kuzatilgan tartibsizlik yoki noo‘rin taassurotlar ota-onani, ko‘proq onani jazo qo‘llash yo‘li bilan farzandni tartibga solish usulidan foydalanishga majbur qiladi. Bu usuldan otalarga nisbatan uyda onalar ko‘proq foydalanishadi.

3-omil «O‘rtoq» omili bo‘lib, bunda erkaklar 15% ni, ayollar 14% natija egallashdi. Ushbu ko‘rsatgichdan ma‘lumki, farzand bilan do‘stona munosabatda bo‘lishda ota-onalar qisman teng o‘rinda turishar ekan. Ammo qaysidir ma‘noda otalar onaga nisbatan farzandiga biroz ustunlik qilishadi, ayniqsa, o‘g‘il bolalar bilan munosabat o‘rnatish va uni caqlab qolishda otaning o‘rni ahamiyatli hisoblanadi. Farzand bilan nafaqat uni dunyoga keltirgan ota-ona, balki sirdosh, maslakdosh va dildan bir-birini tushunib his qila oladigan darajadagi do‘stona munosabatlarni o‘rnata olish kelajakda farzand tarbiyasining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu o‘rinda ota-onaning roli beqiyos sanaladi. Yoshligidan bolaning ehtiyojlari bilan qiziqish, uning beradigan savollariga tushunarli javob berish, ulg‘aygan sari uning intilish va qiziqishlari bilan qiziqish har bir ota-onaning vazifasidir. Kerakli vaqtda farzandga ota-ona sifatida to‘g‘ri maslahat bera olish va yordam qo‘lini cho‘zish farzand va ota-ona o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Metod natijalari bo‘yicha 4-omil «Xizmatkor» (farzand tomondan barcha kamchiliklariga ham ko‘z yumadigan ota-ona timcoli) omili bo‘lib natijalarga ko‘ra erkaklar, yani ota obrazi 25% ni, ayol(ona)larimiz 26% ni egallashdi va erkaklardan ma‘lum bir ustunlikni ko‘rsatishdi. Buni izohlash uchun metoddan olingan natijalarga jumladan, yuqoridagi 3 ta omilga nazar tashlash kifoya. Ya‘ni bola dunyoga keldiki, malum sabablarga ko‘ra otaga nisbatan ona uning yonida ko‘proq bo‘ladi, yutuq va kamchiliklaridan xabardor bo‘ladi, mas‘uliyat egaciga aylanadi. Otalar o‘z-o‘zidan mehnat faoliyati sababli biroz e‘tiborsizdek namoyon bo‘lishadi. Bola ulg‘aygan sari inijlik va kamchiliklari paydo bo‘lsa ham otaga nisbatan ona qattiqqo‘llik namoyon qilishadi. Chunki ayollar bolasining tug‘ilgandan yo‘l-yo‘riqqa o‘rgatib kelganliklari sabab bolaning yillar davomidagi yosh xususiyatlari tashqi omil ta‘silari ham onaga tashvishli vaziyat tug‘diradi. Shu bois tanbeh berish va jazolash usullarini ham qo‘llashlari mumkin. O‘rtoqdek munosabatlarda ham ota-ona birdek o‘rinli, ammo farzand ulg‘aydiki, otaning roli ham kuchaya boshlaydi. Ushbu ko‘rsatgichlardan kelib chiqib 4-omilda ham ayolning ustunligiga guvoh bo‘lishimiz tabiiy jarayon hisoblanadi. Bolalikdan bolaning xurcandchiligiga guvoh bo‘lgan, kamchiliklariga ko‘z yumgan ona farzandi ulg‘aygandan so‘ng ham u uchun barcha aytganlariga rozi bo‘ladigan, kamchiliklarini unutadigan, nima desa ham ma‘qullaydigan, ya‘ni farzandga bo‘ysunadigan ayol(ona) timcoliga aylanib qoladi. Ammo onalar o‘zini bu timcolda shakllantirganini bilishmaydi, chunki doimo ularda ijobiy psixologik hislar ustunlik qiladi. Ko‘pgina ota-onalar bolada kuzatiladigan yosh xususiyatlaridan xabardor bo‘lmaganliklari bois hissiyotga tayanib bola tarbiyasi bilan shug‘ullanishadi.

Demak, ta‘lim muassasalarining rahbarlari, maktab o‘qituvchilari, psixologlari, sinf rahbarlari va ota-onalar bu holatni inobatga olgan holda ta‘lim-tarbiya ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlari maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-psixologik trening va uni tashkil etish. Ijtimoiy psixologik trening – o‘smirlarda psixoterapevtik hamda psixokorreksion ta‘sir ko‘rsatishning nazariyasi va amaliyoti bo‘lib, uning vositasida individning shaxs sifatida taraqqiyoti, turlicha hayotiy vaziyatlarga moslashuvchanligi ta‘minlanadi, trening vositasida insonning muloqot doirasidagi kompetentligi oshiriladi.

Ijtimoiy psixologik trening aslida psixologik texnologiyalardan biri bo‘lib, uning turli shakllari mavjud. Ulardan biri *korporativ trening* bo‘lib, bu – o‘rtacha va kattaroq guruh sharoitida maxsus tashkil etilgan

shaxslararo munosabatlarni samarali yo‘lga qo‘yishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ta’sir uslubi hisoblanadi. Mohiyati nuqtayi nazaridan korporativ treningning asosida «korporatsiya» hamda «korporativ madaniyat» tushunchalari yotadi. Uning ma’nosi lotincha «corporatio» so‘zidan olingan bo‘lib, «birlashma», «uyushma» ma’nosini bildiradi.

Trening nazariy yoki amaliy muammolarni yechishga qaratilgan samarali usuldir. Trening ta’lim muassasalarida turli xil to‘garaklarda ishtirok etish orqali bilim olish va faol harakatlarni amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Treningda respondentlar faol ishtirok etishlari taklif etiladi, unda nazariy ma’lumotlar taqdim etiladi, so‘ngra ular o‘rganishga qaratilgan mashqlarni bajarishni boshlaydi. Treninglar yengil olish xatti-harakati va himoya mexanizmlarini rivojlantirish va ma’lum ko‘nikmalarga ega bo‘lishga imkon beradi.

Tadqiqot davomida o‘smirlar orasidagi turli ko‘rinishdagi ruhiy asab barqarorligi, stress holatlari korreksiyalash xususiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy-psixologik trening dasturi ishlab chiqildi. Shaxsdagi turli emotsional holatlarni korreksiyalashga qaratilgan psixologik treninglar majmuasi quyidagi tamoyillar asosida tashkil qilindi.

Psixologik treninglar turli-tuman bo‘lib, ularni tasniflash turlicha mezonlarga asoslanadi. Agar psixologik trening maqsadidan kelib chiqqan holda tasniflaydigan bo‘lsak, ularni shartli ravishda aniq malakalarni shakllantirish treninglaridan tortib, to shaxsiy rivojlanish treninglarigacha ajratish mumkin. Birinchi holatda trening shaxs o‘zgarishiga olib keluvchi aniq xulq-atvor namunalarni shakllantirish omili bo‘lib gavdalansa, ikkinchi holatda asosiy samara ichki sohada kuzatiladi, ya’ni dastlab shaxsning ichki dunyosi (o‘zini o‘zi baholash, motivatsiya, qadriyatlar tizimi va boshqalar), keyin esa xulq-atvor o‘zgaradi. Shu bilan bir qatorda treningning samaradorlik mezonlari ham bir-biridan farqlanadi: ayrim mezonlar obyektivdir (masalan, ishtirokchilarda qandaydir malakaning shakllanganlik darajasi), boshqa ba’zi mezonlar subyektivdir (masalan, ishtirokchilarning o‘z shaxsiy holatidagi o‘zgarishlar haqidagi his-kechinmalar).

Tadqiqotimizda qo‘llanilgan maxsus psixologik korreksion dastur ikkita bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda ota-onalar bilan, ikkinchi bosqichda esa o‘smirlar bilan psixologik trening mashg‘ulotlari o‘tkazildi. Shuningdek, trening dasturi tadqiqotda ota-onalarning farzandlarini tushinishi, o‘zaro birgalikdagi harakat qilishi, ular o‘rtasida turli emotsional holatlarni to‘g‘ri anglay olishga yordam beradi.

4-jadval.

Korreksion-trening mashg‘ulotlari dasturi

№	Mashg‘ulot nomi	Mashg‘ulotning vazifalari
1.	«Kirish qismi»	Guruh a’zolari bilan tanishish, begonalik hissini kamaytirish, adaptatsiya, hissiy-emotsional zo‘riqishni bartaraf etish, stress holatlari haqida dastlabki ma’lumotlar.
2.	«Oila a’zolarining emotsional holatlarini shakllantirish»	Guruhdagi har bir ota-ona va o‘smirning emotsional zo‘riqishlari diagnostikasi, o‘zini o‘zi hissiy jihatdan nazorat qilish, korreksiya ishlarini amalga oshirish
3.	Guruhda ishlash qoidalaridan xabardor qilish	O‘zaro birgalikdagi harakat qoidalari yuzasidan guruhning har bir a’zosi ma’lumotga ega bo‘lishini ta’minlash
4.	«Attraksiya»	Treningning har bir a’zosining o‘zini o‘zi baholash darajasini ko‘tarish
5.	«Oila a’zolarining o‘zaro bir-birini tushinishi»	Oiladagi empatiya holatini rivojlantirish
6.	Mashqlar yuzasidan munozaralar qilish va natijalarni umumlashtirish, xulosalar qilish	Trening qatnashchilaridagi o‘zini o‘zi adekvat baholashini shakllantirish
7.	«Guruh a’zolari bilan xayrlashuv»	Guruh a’zolari bilan birgalik hissini mustahkamlash, empatiyani rivojlantirish

Umumiy xulosa.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi umumiy xulosalar shakllantirildi: Oilada ota-ona va farzand o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning barqarorligini ta’minlashda o‘smirlik davrining ilk bosqichlarida o‘zini o‘zi psixologik himoya qilishning ijobiy tasavvurlar va ijtimoiy persepsiyaga identiv rivojlanishi muhimligiga ko‘ra «hamkorlik» va «kelishuv» motivatsiyalarining shakllanishi oilaviy munosabatlarning barqaror bo‘lishini ta’minlashdagi muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi.

Oiladagi zo‘riqlashlarni korreksiyalash borasida olib borilgan empirik tahlillar asosida ota-onalarning ijtimoiy rollarga, oilaviy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati va oilaviy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omillar aniqlandi

Oiladagi zamonaviy zo‘riqlashlarni korreksiyalashda oilaning tarkibi, oila a’zolarining yoshi, farzandlar soni va ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini inobatga olish lozim.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси» тўғрисидаги ПФ-60-сонли Фармони.

2. Анциферова Л.И. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысливание, преобразование ситуаций и психологическая защита / Л.И.Анциферова // Психологический журнал. – 2019. – №1.

3. Баротов Ш.Р. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане: Автореферат дисс.докт.психол.наук. – Т.,1998. – 37 с.

4. Barotov Sh.R. va boshq. Eksperimental psixologiya. – Magistrlar uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Fan nashriyoti, 2008. – 108 b.

5. Каменская В.Г. Психологическая защита и мотивация в структуре конфликта: Учебное пособие для студентов педагогических и психологических специальностей. / В.Г.Каменская. – СПб.: «Детство-пресс», 2019. – 144 с.

6. Nishanova Z.T. Fikr tarbiyasida oilaning roli / «O‘zbek oilasining iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik muammolari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalari to‘plami. –T.: 2000. –B.30-32.

7. Расулова М.Ш. Оилада бола тарбиясининг психологик томонлари /Ўзбек оиласининг этнопсихологик муаммолари. – Республика илмий- амалий маърузаларнинг қисқача баёни. –Т.: 1993. –С. 154-156.

Urinova Latofat Shovkatovna,
Qarshi davlat universiteti psixologiya fani o'qituvchisi

TALABALARDA DIQQAT VA IDROK SIFATLARINI UYG'UN RIVOJLANTIRISHNING METODIK AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqlada talabalarda diqqat va idrok sifatlarini uyg'un rivojlantirishning muhimligi, vaqtni idrok qilishda diqqatning ahamiyati, idrokning sifatlari ya'ni tezligi, to'laligi, ravshanligi va aniqligida diqqatning ahamiyati tahlil qilingan. Diqqat tanlovchanligini aniqlash maqsadida "Korrektura sinovi" metodikasini qo'llash orqali talabalar diqqatining tezligi bilan vaqtni idrok qilish qobiliyati uyg'un rivojlanganligi aniqlangan. Topshiriqni vaqtida to'g'ri bajarigan talabalarda konsentratsiyalashgan diqqat va razm sola bilish idroki yaxshi rivojlanganligi, topshiriqni bajarish jarayonida talabalarning diqqatini ixtiyoriy ravishda vazifaga yo'naltirib tura olishi ularda ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriy idrok xususiyatlari uyg'un rivojlanganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: diqqat, barqaror diqqat, kuchli diqqat, konsentratsiya, idrok, idrokning sifatlari, razm, kuzatuvchanlik, xotira, qobiliyat.

МЕТОДИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ГАРМОНИЧНОГО РАЗВИТИЯ У СТУДЕНТОВ КАЧЕСТВ ВНИМАНИЯ И ВОСПРИЯТИЯ

Аннотация: В статье анализируется значение гармоничного развития качеств внимания и восприятия у учащихся, значение внимания в восприятии времени, значение внимания в качествах восприятия, то есть быстроты, полноты, четкости и точности. С целью определения избирательности внимания путем применения методики «Коррекционный тест» установлено, что скорость внимания и способность к восприятию времени у учащихся развиваются гармонично. Проанализировано, что у учащихся, выполнивших задание в срок, хорошо развиты сосредоточенное внимание и способность к визуализации, а способность учащихся произвольно направлять свое внимание на задание в процессе выполнения задания свидетельствует о том, что характеристики гармонично развиты произвольное внимание и произвольное восприятие.

Ключевые слова: внимание, устойчивое внимание, сильное внимание, концентрация, восприятие, качества восприятия, образ, наблюдательность, память, способность.

METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF HARMONIOUS DEVELOPMENT OF ATTENTION AND PERCEPTION QUALITIES IN STUDENTS

Abstract: The article analyzes the importance of the harmonious development of the qualities of attention and perception among students, the importance of attention in the perception of time, the importance of attention in the qualities of perception, that is, speed, completeness, clarity and accuracy. In order to determine the selectivity of attention by applying the "Correction Test" methodology, it was found that the speed of attention and the ability to perceive time in students develop harmoniously. It is analyzed that students who completed the task on time have well-developed concentrated attention and the ability to visualize, and the ability of students to arbitrarily direct their attention to the task in the process of completing the task indicates that the characteristics of voluntary attention and voluntary perception are harmoniously developed.

Keywords: attention, steady attention, strong attention, concentration, perception, qualities of perception, image, observation, memory, ability.

Kirish. Bugungi axborot texnologiyalari asrida diqqatning ahamiyatini tushunish insonlarning funksional imkoniyatlarini to'g'ri ishga sola bilish qobiliyatining shakllanganlik darajasiga ko'p jihatdan bog'liq. Diqqatning ahamiyatini texnologiyalar kundan-kun rivojlanib borayotgan bugungi kunda aniq ish faoliyati bilan shug'ullanayotgan insonlar oldiga qanday talablar qo'yilayotganligi bilan bog'lash mumkin

Bular:

- 1) Bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalar bilan shug'ullanish;
- 2) vazifalarni masofadan turib boshqarish, ya'ni axborot oqimini boshqarish;

3) har xil vazifalarni tez va aniq amalga oshirilishini ta'minlash va boshqalar. Ushbu talablar mehnat faoliyatida insonlar tomonidan alohida psixik jarayonlarning aniq, ravshan va ravon yuzaga chiqishini ta'minlaydi.

Asosiy qism. Diqqat barcha psixik jarayonlarning vujudga kelishi, barqarorligi, o'zaro uyg'unligi, samaradorligi, mazmundorligi va tizimlilikining zaruriy shartidir. Insonning har bir bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira tafakkur, nutq va xayol diqqat yordamida amalga oshadi. Barqaror va kuchli diqqatning asosida esa qiziqish va irodaviy sifatlar yotadi. Agarda diqqat be'qaror va kuchsiz bo'lsa, u orqali amalga oshayotgan psixik jarayonlar sifati va mahsuldorligi ham zaif bo'ladi. Shu bois kishi diqqati kuchsiz, beqaror va obyektga to'planishi zaif bo'lsa, bunday holda diqqatni irodaviy zo'r berish orqali vazifalarni bajarishga ongli ravishda yo'naltirish orqali psixik jarayonlar sifatini maqsadga muvofiq amalga oshirish mumkin[5].

Diqqat idrok qilish jarayonida faol qatnashadi. Diqqat faollik darajasiga qarab ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lgani kabi idrok ham ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lishi mumkin. Muayyan bir obyektning oldindan maqsad qilib olmasdan va maxsus tanlamasdan, kuch sarf etmasdan idrok qilish jarayoni ixtiyorsiz idrok deb ataladi. Bunday idrok jarayonlari diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalb qilayotgan obyektlarning ta'siri bilan qo'zg'aladi. O'zining yorug'ligi, rang-barangligi, harakati, xushohangligi, kontrastligi bilan diqqatimizni o'ziga tortgan narsalar beixtiyor idrok qilinadi[3].

Oldin belgilangan maqsadga qarab muayyan bir obyektning idrok qilishni ixtiyoriy idrok deb ataladi. Talabaning badiiy kitobni diqqat bilan o'qishi, o'qituvchining ma'ruzasini e'tibor bilan eshitishi, yozilgan matndagi imlo xatolarini diqqat bilan tekshirishi, matn ichidan o'zi qidirayotgan atamani topib ajratish ixtiyoriy idrokka misol bo'ladi. Bu jarayonda faoliyat natijasi samarali bo'lishi uchun talabalar diqqat-e'tiborini ixtiyoriy ravishda vazifalarni bajarishga yo'naltirishi lozim.

Kishining tizimli, davomli va rejali idrok qilish qobiliyati kuzatuvchanlik deb ataladi. Kuzatish qobiliyati tevarak atrofdagi narsa va hodislarni ma'lum bir maqsad bilan sistemali va rejali idrok qila bilishdir. Razm sola bilish, kuzatuvchanlik qobiliyati talabalar o'zida shakllantirishi lozim bo'lgan qimmatli sifatlaridandir. U mavjud sharoitni turli tushunishga, o'rab turgan olamni samarali o'rganishga va xususan, o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi[2].

Materiyaning mavjudligi shakli hisoblangan vaqtni idrok qilishda diqqatning roli kattadir. Chunki vaqt obyektiv reallik bo'lib ongimizga bo'g'liq bo'lmagan ravishda sodir bo'ladigan jarayondir. Biroq, kishilar uchun bir xilda bo'lgan vaqt bo'laklari sodir bo'layotgan voqe-hodisalarning ular diqqatini o'ziga tortish xususiyatiga qarab har xil idrok qilinishi mumkin. O'qituvchining qiziqarli ma'ruzasini diqqat bilan tinglayotgan talabalar uchun sakson minutlik vaqtning tez o'tib ketishi va xuddi shuncha vaqt davomida kimnidir sabrsizlik bilan kutayotgan kishi uchun vaqt juda sekin o'tishi bunga misoldir.

Diqqat idrokning sifatleri ya'ni tezligi, to'raligi, ravshanligi va aniqligida muhim rol o'ynaydi. Idrokning tezligi jarayonida idrok qilinayotgan voqe-hodisalarning sezgi a'zolarimizga ta'sir qila boshlagan paytdan to bu ta'sirni anglashimizgacha bo'lgan vaqt oralig'ida kishi diqqatini mavjud ta'sirga qanchalik kuchli qaratsa ta'sir shunchalik tez idrok qilinadi. Idrok sifatining to'la bo'lishi uchun idrokda aks etgan obraz yoki belgilarning miqdori va turlarini diqqat orqali yaxlit holatda ko'ra olish mumkin. Barqaror diqqat orqali idrokda narsalarning mavjud belgilari aniq aks ettirilsa, idrokning aniqligi ham sifat jihatdan yuqori bo'ladi. Aksincha, idrokda narsalarning mavjud belgilaridan farq qiluvchi yo'q elementlar ham bo'lsa be'qaror diqqat tufayli voqelikdagi obrazlar noaniq idrok etiladi[1].

Metodika. O'rganishlarimiz jarayonida talabalarda diqqat va idrok xususiyatlarining shakllanganlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniluvchi “Korrektura sinovi” metodikasi bir muncha samarali ekanligini aniqladik. Tadqiqotimiz davomida “Korrektura sinovi” metodikasini talabalarda irodaviy diqqat va ixtiyoriy idrokning shakllanganligi, diqqat konsentratsiyasi va razm sola bilish qobiliyatning rivojlanganligi, diqqat tezligi va vaqtni idrok qila olish xususiyatini o'rganish maqsadida qo'lladik.

Korrektur sinovi blankalari turli stimullardan-harflar, raqamlar, geometrik shakllardan iborat bo'lishi mumkin. Tekshiriluvchining vazifasi berilgan stimolni boshqalaridan ajratib bir xil tarzda belgilashdan iborat. Bu tajribani o'tkazish uchun biz stimol sifatida lotin alifbosidagi harflarni tanladik. Lotin alifbosidagi harflardan iborat blankalarni talabalar diqqati va idrok sifatlarining shakllanganlik darajasini aniqlash masadida qo'lladik. Har bir blankada 10 qatorga 54 tadan harf yozilib ular ichida tartibsiz holda 25 ta so'z (turli darajadagi qiyinlikda) yashiringan. Tekshiriluvchining vazifasi ana shu so'zlarni topishdan iborat. Bunda sarflangan vaqt e'tiborga olinadi.

Natijani tahlil qilishda quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

- 1) Natija dastur blankasi bilan solishtiriladi.
- 2) Chizilgan so'zlar soni sanab chiqiladi.
- 3) Qoldirilgan so'zlar soni sanaladi.

- 4) Noto`g`ri chizilgan so`zlar soni aniqlanadi.
- 5) To`g`ri chizilgan so`zlar soni aniqlanadi.
- 6) Tanlash tezligi hisoblanadi.
- 7) Barcha tekshiriluvchilar uchun o`rtacha ko`rsatkich aniqlanadi[4].

Ana shu ko`rsatkichlarga asosan diqqat tanlovchanligining individual xususiyati va idrok sifatlarining shakllanganlik holati tahlil qilinadi. Quyidagi 1-jadvalda metodika natijasining ko`rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval.

Metodika natijasining tadqiqot qarori

Topshiriqni bajarishga ketgan vaqt	To`g`ri chizilgan so`zlar	Xato belgilangan so`zlar	Qolib ketgan so`zlar	Vazifaning sifati (%)
3 daqiqa	25 ta	-	-	100
3 daqiqa 30 soniya	22-24	1	1-3	80-96
4 daqiqa	19-21	2-3	4-7	64-76
4 daqiqa 30 soniya	18	4-5	8	60

Diqqat tanlovchanligini “Korrektura sinovi” orqali baholashda quyidagi me`zonga asoslanish lozim: juda yaxshi-100%; yaxshi-80-96%; o`rta-64-76%; past-60% ballgacha.

“Korrektura sinovi” metodikasini Qarshi davlat universitetining 154 nafar talabalarida sinovdan o`tkazdik. Quyidagi 2-jadvalda tadqiqot natijalarining tahlili keltirilgan.

2-jadval.

Qarshi davlat universiteti talabalarida tajriba boshida aniqlangan diqqat tanlovchanligining shakllanganlik darajasi

Mezonlar	Qarshi davlat universiteti talabalarida (154 nafar)							
	Juda yaxshi		Yaxshi		O`rta		Past	
	Talabalar soni	Foiz %	Talabalar soni	Foiz %	Talabalar soni	Foiz %	Talabalar soni	Foiz %
1.Qoldirilgan so`zlar sonining kamligiga ko`ra ko`rsatilgan natija	14	9%	31	20%	76	49%	33	22%
2.Xato belgilangan so`zlar sonining kamligiga ko`ra ko`rsatilgan natija	29	19%	52	34%	53	34%	20	13%
3.To`g`ri chizilgan so`zlar soniga ko`ra natija	16	10%	29	19%	74	48%	35	23%
4.Tanlash tezligi bo`yicha ko`rsatilgan natija	19	12%	43	28%	68	44%	24	16%

“Korrektura sinovi” metodi natijalari bo`yicha Qarshi davlat universiteti talabalarida diqqat tanlovchanligining shakllanganlik darajasi tajriba boshida quyidagi natijani ko`rsatdi.

Qoldirilgan so`zlar sonining kamligiga ko`ra ko`rsatilgan natija. 9 % talaba toshiriqni berilgan vaqt ichida so`zlar qoldirmasdan bexato bajaraib juda yaxshi natijani ko`rsatdi. 20 % talaba 3 tagacha bo`lgan so`zlarni berilgan vaqt ichida qoldirib yaxshi natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 49 % 4-7 tagacha so`zlarni berilgan vaqt ichida qoldirib o`rtacha natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 22 % 8 tadan ortiq so`zlarni berilgan vaqt ichida qoldirib past natijani ko`rsatdi.

Xato belgilangan so`zlar sonining kamligiga ko`ra ko`rsatilgan natija. 19 % talaba toshiriqni berilgan vaqt ichida ta`limga oid bo`lmagan so`zlarni chizmasdan bexato bajaraib juda yaxshi natijani ko`rsatdi. 34 % talaba topshiriq jarayonida bitta noto`g`ri so`zni belgilab yaxshi natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 34 % 2-3 tagacha noto`g`ri so`zlarni belgilagan holatda o`rtacha natijani ko`rsatdi. Sinaluvchilardan 13 % 4-5 tagacha so`zlarni belgilab past natijani ko`rsatdi

To'g'ri chizilgan so'zlar soniga ko'ra ko'rsatilgan natija. 10 % talaba toshiriqni berilgan vaqt ichida bexato bajarib juda yxashi natijani ko'rsatdi. 19 % talaba 22-24 tagacha bo'lgan so'zlarni berilgan vaqt ichida topishga ulgurib yaxshi natijani ko'rsatdi. Sinaluvchilardan 48 % 19-21 tagacha so'zlarni berilgan vaqt ichida to'g'ri topib o'rtacha natijani ko'rsatdi. Sinaluvchilardan 23 % o'n bittadan o'n beshtagacha so'zlarni berilgan vaqt ichida to'g'ri topib past natijani ko'rsatdi.

Tanlash tezligi bo'yicha ko'rsatilgan natija. 12 % talaba toshiriqni berilgan vaqt ichida bajarishga ulgurib juda yxashi natijani ko'rsatdi. 28 % talaba 21-24 tagacha bo'lgan so'zlarni berilgan uch daqiqa vaqt ichida topishga ulgurib tanlash tezligi yaxshi rivojlanganligini ko'rsatdi. Sinaluvchilardan 44 % 16-20 tagacha so'zlarni berilgan vaqt ichida to'g'ri topib tanlash tezligi o'rtacha rivojlanganligini ko'rsatdi. Sinaluvchilardan 16 % 18 tadan kam so'zlarni berilgan vaqt ichida to'g'ri topib tanlash tezligi past darajada ekanligini ko'rsatdi.

Topshiriqni bajarish jarayonida belgilangan vaqt davomida vazifani bajarishga ulgurgan talabalarda diqqat tezligi va vaqtni idrok qilish qobiliyati uyg'un rivojlangan. Ta'limga oid so'zlarni to'g'ri aniqlab vaqtida uni belgilagan talabalarda konsratsiyalashgan diqqat va razm sola bilish idroki yaxshi rivojlanganligidan darak beradi. Topshiriqni bajarish jarayonida talabalarning diqqatini ixtiyoriy ravishda vazifaga yo'naltirib tura olishi ularda ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriy idrok xususiyatlari uyg'un rivojlanganligini bildiradi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida diqqat bilan bir qatorda idrokning sifatlariga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Pedagog berayotgan bilimlarni o'zlashtirish uchun talaba-o'quvchilar avvalo ma'lumotlarni diqqat bilan idrok etishi-tushunishi, anglashi lozim. Chunki talaba-o'quvchilar o'zlashtirayotgan bilimlarini diqqat bilan qanchalik tez, aniq, to'la va ravshan idrok qila olsa, ma'lumotlarni shunchalik tez tushunib, vaqtida fahmlab va yetarlicha mustahkamlab oladi[5].

Xulosa. Ta'limiy samaradorlik uchun ta'lim oluvchilarda diqqat va idrok sifatlarining uyg'un shakllangan bo'lishi katta ahamiyatga ega. Ta'lim oluvchilarda diqqat sifatlarining yaxshi rivojlanganligi ular idrokining taraqqiyot darajasiga bog'liq. Pedagoglar fan asoslarini talabalarga tushuntirishda ularning individual xususiyatlari, diqqat sifatleri va tushunish darajasini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil qilishi lozim. O'qitishning “oddiydan murakkabga qarab borish” tamoyilidan, avvalo, talabalarning kasbiy faoliyatga oid bilimlarni ongli va tizimli o'zlashtirish maqsadida foydalanishi zarur. Pedagoglar talabalar diqqati va idrokining uyg'un shakllanishiga, ularda mutaxassislikka oid bilimlarga nisbatan qiziqish va ijobiy hissiyotni uyg'otishga xizmat qilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Soatov.A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Qarshi: Fan va ta'lim. 2022.-128-137 b.
2. Soatov A.J. Diqqat va uning ta'limiy ahamiyati. “Xalq ta'limi” ilmiy-metodik jurnalning 3-maxsus soni. 2021.55-58 b.
3. Urinova L. Diqqatning MDH psixologlari tomonidan o'rganilishi. O'zMU xabarleri. 2023, [1/2].-199 b.
4. Urinova L. Вестник интегративной психологии. “Роль развития качеств внимания в учебной деятельности учащихся”. 2022.-372 с.
5. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010.-336-39 b.

Sobirova Dilafruz Abduroziqovna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti “Psixologiya” kafedrasini mudiri, Xalqaro Psixologiya Fanlari Akademiyasi muxbir a’zosi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Xasanova Dinara Murodovna,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

TIBBIY PSIXOLOGIK BILIMLARNI O‘ZLASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqola tibbiyot va psixologiya fanlarining rivojlanish tarixi, o‘zaro aloqadorligi, tibbiyot psixologiyasining tarkibiy qismlari hamda tibbiyot psixologiyasi borasida o‘rganilgan izlanishlar tahlili va natijalari haqida yozilgan. Bugungi kunda inson salomatligida, ruhiyatida tibbiyot psixologiyasining o‘rni va ahamiyatining yuqori qiymat kasb etayotganligi haqida fikr yuritilgan. Odamzot paydo bo‘lib, turli kasalliklarga qarshi kurashib kelgan. Bemor odamni darddan xalos qilish uchun turli usullar o‘ylab topishgan. Qadimda bemorlarni davolashda giyohlarni ko‘p qo‘llashganini tarixiy manbalardan yaxshi bilamiz, lekin ruhiy ta’sir o‘tkazish yo‘li bilan davolash qachon qo‘llanilib boshlanganligi bizga noma’lum. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, hozirgacha nomi ma’lum bo‘lgan deyarli barcha tabiblar bemorlarni davolashda ruhiy ta’sir etish usullarini ko‘p qo‘llashgan. Ularning aksariyati birinchi tabib – organizmning o‘zi va aynan u har qanday kasallikka qarshi kurashishi kerak, bizning vazifamiz esa unga yordam berishdir, deyishgan. Inson psixologiyasini tushinish, tahlil qilish va rivojlantirishga jiddiy e’tibor berish masalasi hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi vazifalaridan biri bo‘lib kelgan.

Kalit so‘zlar: klinik psixologiya, psixosomatika, neyropsixologiya, diagnostika, deontologiya, etika tamoyillari, psixogiyena, psixoprofilaktika, psixodiagnostika, psixoterapiya, psixonevrologiya, psixofiziologiya, patopsixologiya, psixopatologiya.

ОСОБЕННОСТИ ОВЛАДЕНИЯ МЕДИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИМИ ЗНАНИЯМИ

Аннотация: Статья написана об истории развития медицинских и психологических наук, их взаимосвязи, компонентах медицинской психологии, а также анализе и результатах исследований в области медицинской психологии. На сегодняшний день принято считать, что роль и значение медицинской психологии в здоровье, психике человека приобретают всё большее значение. Так получилось, что человек боролся с различными болезнями. Были придуманы различные способы избавления больного от боли. Мы хорошо знаем из исторических источников, что травы широко использовались для лечения пациентов в древние времена, но нам неизвестно, когда началось лечение с использованием психических взаимодействий. Следует особо отметить, что почти все известные до сих пор целители широко использовали методы психического воздействия при лечении пациентов. Многие из них говорили, что первый целитель – это сам организм и именно он должен бороться с любой болезнью, а наша задача - помочь ему. Вопрос о серьёзном внимании к пониманию, анализу и развитию психологии человека был одной из ведущих задач социально-экономического развития во все времена и во всех государствах.

Ключевые слова: клиническая психология, психосоматика, нейропсихология, диагностика, деонтология, принципы этики, психогигиена, психопрофилактика, психодиagnostika, психотерапия, психоневрология, психофизиология, патопсихология, психопатология.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ASSESSMENT OF MEDICAL PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE

Abstract: the article is written about the history of the development of medical and psychological sciences, their relationship, the components of medical psychology and the analysis and results of research on the psychology of Medicine. Today, it is thought that the role and importance of medical psychology in human health, psyche are gaining high value. Human beings have appeared that have been fighting various diseases. Various methods have been devised to relieve a sick person of pain. We know well from historical sources that cocaine was used a lot in the treatment of patients in ancient times, but it is not known to us

when treatment by mental interaction began. It should be noted that almost all healers, whose name is still known, have used many methods of mental influence in the treatment of patients. Many of them said that the first healer is the organism itself, and it is he who must fight any disease, and our task is to help him. The issue of serious attention to the development, analysis and development of human psychology has been one of the leading tasks of socio-economic development in all times and in all states.

Keywords: clinical psychology, Psychosomatics, neuropsychology, diagnostics, deontology, principles of ethics, psychogygiene, psychoprophylaxis, psychodiagnostics, psychotherapy, psychoneurology, Psychophysiology, pathopsychology, psychopathology.

Kirish. XX asr bo'sag'asida psixologiya fani va uning ilg'or vakillari o'zlarining navbatdagi jahonshumul ilmiy maqsadlari - insonga, ayni paytda, jamiyatga psixologik xizmat ko'rsatish tizimining muqarrarligini nazariy-ilmiy jihatdan asoslab berishga muvaffaq bo'ldilar.

Umuman, psixologik xizmat ko'rsatish muammosi ma'lum ma'noda, ilmiy psixologiyaning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida ko'p bor munozaralar manbai bo'lgan. Bu xaqda qadimgi va dastlabki psixologik tasavvurlar makoni belmish hindiston, Xitoy, Yegipet, Vavilon, O'rta Osiyo, Gretsiyadan, shuningdek, jon (ruh) xaqidagi I- kitobning muallifi Aristoteldan va temperament (mijoz) ta'limotining asoschilari Galen, Gippokrat va Ibn Sinolardan tortib, to hozirga qadar psixologlar o'z fikr-mulohazalarini bildirganlar va bildirib kelmoqdalar.

Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko'rsatuvchi shaxsdagi o'ziga xos psixologik salohiyatning ne chog'lik to'la-to'kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma'naviy taraqqiyot yo'liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan bo'lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo'lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o'z fuqarolarining ma'naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo'llarini izlashga jiddiy e'tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik xizmat tizimining joriy etilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun tibbiyotida malakali tibbiy yordam va shu yordamni ko'rsatishda umumiy amaliyot shifokorlari, oliy malakali hamshiralari, tor doiradagi mutaxassislar bilan bir qatorda bemorlarga psixologik yordam ko'rsatish bugungi kunning tibbiy – psixologik zaruratidir.

Metodlar va natijalar. Avval aytib o'tganimizdek, psixologiyaning rivojlanishiga fiziologik tadqiqotlar juda katta turtki bo'ldi. Tibbiy psixologiya ham fan sifatida shakllanib, oliy nerv faoliyati chuqur o'rganila boshlandi. Bu davr XX asrning boshlariga to'g'ri keldi. Oliy nerv faoliyatining psixologik jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini I.P. Pavlov, U. Penfield, G. Jasper, K. Primram, J. Ekllz, O. Foxt, P.K. Anoxin kabi olimlar chuqur o'rganishdi. Ular psixik jarayonlar reflektor tarzda boshqarilishi mumkinligini isbot qilishdi. Fiziologlarning fikricha, refleks –organizmning tashqi muhit bilan bo'lgan o'zaro munosabatining bir ko'rinishidir. I.M.Sechenov ikki xil refleks turlari mavjud degan. Birinchisi doimiy tug'ma reflekslar bo'lib, asabning quyi tuzilmalari orqali amalga oshiriladi, deb ularni «sof reflekslar» deb atagan. Ikkinchisi bosh miya po'stloq markazlari bilan bog'liq reflekslar bo'lib, ular o'zgaruvchan bo'ladi va individual rivojlanish mobaynida shakllanib boradi, degan. Bu reflekslarni I.M. Sechenov ham fiziologik, ham psixologik hodisa deb ta'riflagan. Bu borada I.P. Pavlov (1849–1936) o'tkazgan tadqiqotlar e'tiborga molikdir. I.P. Pavlov oliy nerv faoliyati haqida ta'limot yaratdi va fanga «shartli refleks» degan iborani kiritdi. Shartli reflektor faoliyat uchun nafaqat yangi shartli reflekslarning paydo bo'lishi, balki po'stloqdagi eski aloqalarning yig'ilib, murakkab bog'lanishlar hosil qilishi ham o'ta muhimdir. Bosh miya organizmning barcha tashqi va ichki faoliyatini reflektor prinsipga asoslangan holda boshqarib, bir-biri bilan bog'lab turadi. Oliy nerv faoliyati yoki shartli va shartsiz reflekslarning asosiy prinsiplari nevrizm, ruh va tananing yagonaligi, tuzilma va funksiyalarning yaxlitligi, organizm faoliyatining boshqarilishi mumkinligi va bunda tashqi muhitning ahamiyati juda muhimligini yuqorida nomi keltirib o'tilgan olimlar ilgari surishgan. Umuman, psixologik xizmat bo'yicha psixologlar (B.G.Ananev, G.M.Andryeva, A.A.Bodalev, Ye.V.Shoroxova, A.V.Vedenov, Yu.M.Zabrodin, A.G.Kovalev, I.S.Kon, T.A.Kitvel, V.S.Merlin, V.N.Myasixev, I.P.Pavlov, K.K.Platonov, Ye.D.Parigin, S.L.Rubinshteyn, V.V.Stolin, V.A.Yadov, I.Aizen, M.F.Fisehbein, T.Maslay M.G.Davletshin, M.Mavlonov, Sh.Do'stmuxamedova, S.To'yehiyeva va boshqalar) o'z tadqiqot maqsadlariga asoslanib munosabatning turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot ob'ektiga aylantirganlar va ma'lum darajada psixologik xizmatni talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, B.R.Qodirov, N.S.Safoyev,

Sh.R.Barotov, N.A.Yaxyarovlarning rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlarda inson salomatligini tibbiy-psixologik kategoriya sifatidagi talqinlariga ma’lum darajada e’tibor qaratilgan. Ilg’or ilmiy psixologiya va tibbiyot sohasida yaratilgan umumiy qonuniyatlar, konsepsiyalar, shuningdek, shaxsga individual yondashuv prinsiplari (B.M.Teplov, V.S.Merlin, N.S.Leytes, E.A.Golubeva, B.R.Qodirov, E.G’. G’oziyev va boshqalar). Shaxs va ijtimoiy ustanovka prinsiplari (D.Uznadze, Sh.A.Nodirashvili, A.G.Asmolov, G.Ollport, G.Rozenberg va boshqalar), shaxs va munosabat mutanosibliyi prinsiplari (V.N.Myasishev, T.Liri, S.L.Rubinshteyn, B.S.Merlin va boshqalar), buyuk ajdodlarimizning inson omili, xususan uning salomatligi to’g’risidagi ta’limotlari, Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning “Sog’liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to’g’risida” gi Farmoni va boshqalar. Metodlar: Kuzatish, individual suhbatlar, faoliyatning mahsuldorligini tekshirish. Turli xil tibbiy-psixologik so’rovnomalar, Depressiyani baholash uchun Gamilton shkalasi, Depressiyani baholash uchun Sung shkalasi.

Ong buzilishining shartli ravishda nopsixotik va psixotik turlari ajratiladi: birinchisiga obnubulyasiya, somnolensiya, sopor va koma, ikkinchisiga esa deliriya, trans, amensiya, somnambuliya, ambulator avtomatizmlar, oneyroid kiradi. Shuningdek, bemorning ong darajasiga ta’rif berayotganda, uning es-hushi joyidaligi, vaqt, joy va vaziyatni adashtirmasligi va atrofdagi voqealarni aniq-ravshan anglashiga e’tibor beriladi. Xavotirni baholash uchun Gamilton shkalasi

Gamilton shkalasi ham xavotirli-depressiv sindrom aniqlangan bemorlarda xavotir darajasini baholash uchun qo’llaniladi. Shu maqsadda qo’llaniladigan Spilberger-Xanin shkalasidan farqli o’laroq, Gamilton shkalasini mutaxassis to’ldiradi va buning uchun bemorni so’nggi haftada bezovta qilayotgan sub’ektiv simptomlardan foydalaniladi. Shkaladagi savollar ham ruhiy, ham somatik buzilishlar darajasini aniqlashga moslab tuzilgan.

1. Xavotirli kayfiyat (tashvishlanish, yomonlik kutish, xavotirlanish, jahldorlik).
2. Keskinlik, taranglik (keskinlik va taranglikni his qilish, seskanish, darrov yig’lash, titroq bosish, bezovtalanish hissi, bo’shasha olmaslik).
3. Qo’rquv (qorong’ilik, begonalar, yolg’izlik, hayvonlar, olomon va transportdan).
4. Insomniya (uyqu kelishining qiyinligi, uzuq-yuluq uyqu, uyqudan charchab turish, yomon tushlar ko’rish).
5. Intellektual buzilishlar (fikrni bir joyga jamlay olmaslik, xotira buzilishi).
6. Depressiv kayfiyat (oddiy qiziqishlarning yo’qolishi, o’zi yoqtirgan faoliyatdan qoniqmaslik, tushkun kayfiyat, erta uyg’onish, kundalik kayfiyatning o’zgarib turishi).
7. Somatik motor simptomlar (og’riqlar, titrash, taranglik, klonik titrashlar, tishini g’ichirlatish, ovozning titrab chiqishi, mushaklar tonusining oshuvi).
8. Somatik sensor simptomlar (quloqda shovqin, ko’rishning xi-ralashuvi, qizib ketish yoki sovuq qotish, holsizlikni his qilish, sanchuvchi og’riqlar sezish).
9. Yurak-qon tomir simptomlari (taxikardiya, yurak urishi, ko’krak qafasida og’riq, tomir urishlarini sezib turish, tez-tez xo’rsinish).
10. Respirator simptomlar (ko’krak qafasi bosilgandek va siqilgandek bo’lishi, bo’g’ilish, tez-tez xo’rsinish).
11. Gastrointestinal simptomlar (yutishning qiyinlashuvi, meteorizm, qorinda og’riq, jig’ildon qaynashi, oshqozonda to’qlik hissi, ko’ngil aynishi, qusish, qorinda g’o’ldirash, diareya, qabziyat, tana vaznining kamayishi).
12. Siydik ajratish sistemasi va jinsiy a’zoldagi buzilishlar (siyishning tezlashuvi, siyishga kuchli istak payd obo’lishi, amenoreya, menorragiya, frigidlik, erta eyakulyasiya, libidoning so’nishi, impotensiya).
13. Vegetativ simptomlar (og’iz qurishi, terining qizarib yoki oqarib ketishi, terga botish, zo’riqish hissi bilan keluvchi bosh og’riqlar).
14. Ko’rik paytidagi xulq-atvori (kursida tinch o’tirmaslik, bezovta mimika va bezovtalanib yurish, tremor, yuzida taranglik va xo’mrayish alomatlari, xo’rsinaverish yoki nafas olishning tezlashuvi, tufugini yutaverish).


Demak, shkala 14 punktdan iborat bo’lib, javob variantlari simptomlarning darajasiga qarab 0 dan 4 ballgacha qilib belgilangan:

Gamilton shkalasi blanki

1-jadval.

Shkala punktlari	Ko'rsatkichlar (to'g'ri javobi belgilab chiqiladi)				
1. Xavotirli kayfiyat	0		2	3	4
2. Keskinlik, taranglik	0		2	3	4
3. Qo'rquv	0		2	3	4
4. Insomniya	0		2	3	4
5. Intellektual buzilishlar	0		2	3	4
6. Depressiv kayfiyat	0		2	3	4
7. Somatik motor simptomlar	0		2	3	4
8. Somatik sensor simptomlar	0		2	3	4
9. Yurak-qon tomir simptoml	0		2	3	4
10. Respirator simptomlar	0		2	3	4
11. Gastrointestinal simptomlar	0		2	3	4
12. Siydik ajratish sistemasi va jinsiy a'zolar simptomlari	0		2	3	4
13. Vegetativ simptomlar	0		2	3	4
14. Kerak paytida xulq -atvori	0		2	3	4

Gamilton shkalasi ko'rsatkichlari



0 - yengil darajada; - juda og'ir darajada.

1 - o'rta darajada;

2 - og'ir darajada;

3 - juda og'ir darajada.

Bemor ahvolini dinamikada ko'rish zarurati tug'ilsa, qayta tekshiruvlar avvalgi savolnoma ma'lumotlaridan foydalanmagan holda o'tkaziladi. Agar davolash muolajalaridan so'ng xavotir darajasi 50 foizdan ortiq kamaysa, natija ijobiy hisoblanadi. Savolnomani to'ldirishga ketgan vaqt 30 daqiqadan oshmasligi kerak.

8-19 ball - yengil xavotir;

20 balldan yuqori - kuchli xavotir. Eng yuqorisi - 56 ball.

Ong buzilishining shartli ravishda nopsixotik va psixotik turlari ajratiladi: birinchisiga obnubulyasiya, somnolensiya, sopor va koma, ikkinchisiga esa deliriya, trans, amensiya, somnambuliya, ambulator avtomatizmlar, oneyroid kiradi. Shuningdek, bemorning ong darajasiga ta'rif berayotganda, uning es-hushi joyidaligi, vaqt, joy va vaziyatni adashtirmasligi va atrofdagi voqealarni aniq-ravshan anglashiga e'tibor beriladi.

Olingan ma'lumotlar psixologik testlar, laboratoriya natijalari va boshqa mutaxassislar xulosalari bilan solishtirilgach, bemorga tibbiy-psixologik tashxis qo'yiladi. Masalan, bemorda psixosomatik buzilishlar aniqlansa, tashxisni quyidagicha ifodalash mumkin: «Psixosomatik sindrom: psixogen kardialgiya». So'ngra davolash choralarini belgilanib, prognoz aniqlanadi va alohida psixoreabilitatsiya rejasi ishlab chiqiladi.

Muhokama. Bugungi kunda tibbiyotda ham, umumiy psixologiyada ham bemorlar (mijoz) ni tekshirish sxemalari mavjud, biroq bizning mamlakatimizda bemorlar psixologiyasini tekshirish uchun alohida kasallik tarixnomasi ishlab chiqilmagan. Bu maqsadda, ko'pincha, ruhiy bemorlarni tekshirish uchun ishlab chiqilgan tarixnomalar yoki umumiy psixologik tekshiruvlardan foydalaniladi. Ular esa klinik psixologiya talablariga to'la javob beravermaydi. Shuning uchun ham barcha tarixnomalarni o'rgangan holda va o'zimizning bir necha yillik tajribamizdan foydalanib tibbiy-psixologik tekshiruvlar uchun tarixnoma ishlab chiqdik va u ushbu darslikda birinchi bor e'lon qilinayapti. Tibbiy psixologning bemorlar bilan ishlashi tibbiy va psixologik etikani saqlagan holda olib boriladi. Dastlab bemorning psixologga tashrifi sabablari aniqlanadi. Buning uchun unga «Sizni psixologga murojaat qilishga nima undadi?». Sizni nima bezovta qilayapti? Sizga qanday yordam kerak?» kabi savollar bilan murojaat qilish mumkin. Agar bemor yaqinlari bilan kelgan bo'lsa, suhbatni avval ular bilan boshlab, so'ng bemor bilan davom ettirishi mumkin. Suhbat psixologik tashxis uchun juda muhimdir. Shuning uchun bemorni zimdan kuzatib borish lozim. Bemorning nutqiga ham katta e'tibor qaratish kerak, chunki nutqning buzilishi ham juda ko'p (ayniqsa, neyropsixologik) ma'lumotlar beradi. Zaruratga qarab bemorni logopedga yuborish mumkin. Ba'zi bemorlar (ayniqsa, ruhiy kasallikka chalinganlar) eshikdagi «psixolog» yozuviga ko'zi tushib, huzuringizga tashrif buyurishni xush ko'rishadi. Ularni ko'proq psixolog yordami emas, balki psixologning unga nima deyishi qiziqtiradi. Bunday bemorlarni iloji boricha psixiatrning maxsus yo'llanmasi bilan yoki yaqinlari bilan kelgan taqdirda qabul qilish kerak. Chunki ular psixologni soatlab eshitib o'tirishlari mumkin, biroq qabul tugagandan so'ng berilgan maslahatlarga amal qilishlari dargumon. Ba'zan bemorlarning ruhiy kasalga chalinganini aniqlash juda qiyin bo'ladi yoki bu psixologik suhbat cho'ida sezilib qoladi. Bunday paytlarda bemorga zarur maslahatlar berib psixiatrga yuboriladi. Agar psixiatrda davolanib chiqqan bemor yo'llanma bilan psixolog qabuliga tashrif buyursa (bunday bemorlar, asosan, yaqin qarindoshlari bilan kelishadi), ularning tarixnomasi bilan yaxshilab tanishib chiqish, zaruratga qarab bemorni davolagan psixiatr bilan bo'lanish kerak. Haqiqatan ham ruhiy kasalliklarga chalingan ko'pchilik bemorlar psixiatrlar tavsiyasi bilan kasallikning remissiya davrida psixologga yuboriladi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy-psixologik statusni tekshirish quyidagi masalalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- 1) bemorning psixologga murojaat qilishining sabablarini aniqlash;
- 2) tibbiy va psixologik anamnezni to'plash;
- 3) tibbiy tashxisni aniqlash (mutaxassislar yordamida);
- 4) psixologik tashxisni aniqlash;
- 5) davolash choralarini ishlab chiqish (psixoterapiya, psixofarmakoterapiya va h.k.).

Xulosa. Yuqorida aytib o'tilganlar bilan bir qatorda, O'zbekistonda psixologik xizmat muammosining dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan ham belgilanadi: dastavval, shuni ta'kidlash kerakki, Bizning amaldagi ta'lim-tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rinmoqda. Bugungi kunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta'lim va bilim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohot, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqindan bog'lanmaganligi har tomonlama sezilmoqda".

Albatta, yuqoridagi ko'rsatilgan kamchiliklarni bir yilning o'zida yoki bitta tadqiqotda hal qilib bo'lmaydi. Ularni bartaraf etish uchun balki, o'nlab yillar, o'nlab tadqiqotlar kerak bo'lar. Shunday bo'lsa-da, qayd etilgan kamchilik-muammolarni mumkin qadar tezroq va samaraliroq tarzda bartaraf etish O'zbekiston psixologlarining kechiktirib bo'lmas mas'uliyatli va muqaddas vazifasi bo'lishi tabiiy.

O'zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holatida "Iqtidorli bolalarni tanlash va tarbiyalash" borasida olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlarning ancha keng qamrovli va ijtimoiy ahamiyatli ekanligini o'ziga xos mamnuniyat bilan qayd etish mumkin. Chunki, ilmiy-psixologik mezonlar asosida davlat va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash talablariga mos eng zukko, eng iqtidorli yoshlarni tanlash va tarbiyalash hamma zamonlarda va hamma davlatlarda ham faqat ijtimoiy yutuqlar keltirgan. Shunga muvofiq, psixologiya fanlari doktori, professor B. R. Qodirov rahbarligida Respublika mutaxassislarning eng iqtidorlilarini tanlay olish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-amaliy ishlarning tub mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari shu yo'nalishdagi psixologik xizmat tizimini rivojlantirishning ilmiy-tashkiliy asoslari sifatida keng quloq yoymoqda va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda

O‘zbekistondagi psixologik xizmatning bugungi holatiga ilmiy-tashkiliy nuqtayi nazaridan baho berar ekanmiz, bu borada talaygina yutuqlar, kamchiliklar va tez orada bartaraf etilishi muqarrar deb bilamiz.

Adabiyotlar:

1. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiy risolalar. -T.:Fan, 1987.
2. Anastazi A. Psixologicheskoye testirovaniye/ Pod.red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo.-M., 1982. 1-2 tomlar.
3. Asmolov A.G. Lichnost kak predmet psixologicheskogo issledovaniya.- M.:MGU, 1984. - 104 b.
4. Barotov Sh.R. O‘quvchi shaxsini o‘rganish usullari -T.:O‘qituvchi, 1995.
5. Barotov Sh.R. Kichik yoshdagi o‘quvchilar faoliyatini baholash.-T.: O‘qituvchi,1992 -48
6. Barotov Sh.R. Boshlang‘ich ta’lim tizimida psixologik xizmat muammosi/ Boshlang‘ich ta’limning dolzarb muammolari. Resp. ilmiy-amal.anjum.ma’ruzalarining tezislari.-Buxoro,-1995.
7. Bojovich L.I. Lichnost i yee formirovaniye v detskom vozroste. - M. Prosesheniye, 1968.
8. Davletshin M.G. Psixologiya texnicheskix sposobnostey. Tashkent.1975.
9. Ibadullayev Z.R. Mejpolusharnaya funkcionnaya asimmetriya i neyropsi-xologicheskiye sindromы pri serebralnyx insultax, puti ix korreksii. Dis. dokt. med. nauk. -T.: 2005.
10. Ibodullaev Z.R. O‘zbekistonda neyropsixologiya fanining kechasi, buguni va istiqboli. Nevrologiya jurnali. 2005. № 3.
11. Ibodullaev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik. -T.: 2008.

Жабборов Азим Мейликулович,

Қарши давлат университети профессори, психология фанлари доктори

ПСИХОЛОГИЯНИ ИЛМИЙ ЎРГАНИШ – ЎЗЛИКНИ АНГЛАШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Аннотация: Мазкур мақолада жамиятнинг ҳозирги тараққиёт босқичида ҳар бир инсон психологияни билиши, психологик саводхон булиши, бутун олам, одам ва унинг тафаккури ўртасидаги ўзаро боғлиқлик қонуниятларини илмий тушуниши зарурлиги, инсоннинг яратувчанлик ва жамият тараққиётини таъминловчи асосий омил эканлиги ҳақида сўз боради.

Калит сўзлар: инсон, табиий ривожланишнинг маҳсули, ижтимоий муносабатлар тизими, шахснинг шаклланиши, диний ақида ва тасаввурлар, олам, одам ва унинг тафаккури ўртасидаги ўзаро боғлиқлик қонуниятлари, интеллектуал тараққиёт, илмий тушунчалар, инсон психикаси ва унинг қонуниятлари.

НАУЧНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИИ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОСОЗНАНИЯ ИДЕНТИЧНОСТИ

Аннотация: В данной статье говорится о том, что каждому человеку необходимо знать психологию, быть психологически грамотным на современном этапе развития общества, научно понимать законы взаимообусловленности всего мироздания, человека и его мышления, и что это главный фактор, обеспечивающий человеческое творчество и развитие общества.

Ключевые слова: человек, система общественных отношений, формирование личности, религиозные верования и представления, законы взаимозависимости мироздания, мышление человека, интеллектуальное развитие, научные понятия, психика человека и её законы.

SCIENTIFIC STUDY OF PSYCHOLOGY IS AN IMPORTANT FACTOR OF SELF- UNDERSTANDING

Abstract: This article talks about the need for every person to know psychology, to be psychologically literate at the current stage of society's development, to scientifically understand the laws of interdependence between the whole universe, man and his thinking, and that it is the main factor that ensures human creativity and the development of society.

Key words: man is a product of natural development, system of social relations, personality formation, religious beliefs and ideas, laws of interdependence between the universe, man and his thinking, intellectual development, scientific concepts, human psyche and its laws.

Кириш. Инсон табиий ривожланишнинг маҳсули бўлса-да, унинг ҳозирги интеллектуал тараққиёт мавқеи жамият тараққиётининг бугунги кўринишини, илм-фан ва технологияларнинг жадал такомиллашувини, бунинг натижасида табиат ва табиий тараққиётнинг ҳам тубдан ўзгариб бораётганлигини белгилаб турибди. Бунинг барчаси инсонгагина хос бўлган онг ва тафаккур маҳсулидир. Мазкур ақлий унсурлар ёрдамида шахс ўзини ўраб турган воқелик ва ундаги қонуниятлар ҳақида фикр юритиб, ўзи акс эттирган, эслаб қолган нарса ва ходисаларнинг тўғрилиги, аниқлиги, ҳаққонийлиги ёки уларнинг воқеликка мос тушиши ёки мос тушмаслигини аниқлайди. Натижада инсон онгида тушунчалар, ҳукмлар ва ҳулосалар вужудга келади. Бу ҳолат шахсда бундан-да мураккаброқ фикр, мулоҳаза, ғоя, фараз ва мақсадларни шакллантиради. Аслида инсонга хос бўлган фикрлаш жараёни ва унинг онги ана шундай қонуниятлар асосида шаклланиб ривожланади.

Инсониятнинг ҳозирги тараққиёт босқичида одамларнинг ҳаёт кечириши, турмуш тарзи, ўқиши ва меҳнат фаолиятида қанчалик афзалликлар юзага келган бўлмасин, шу баробарида турли – туман муаммолар ҳам шаклланаётганлигини тан олиш зарур. Мазкур муаммоларнинг аксарияти ёшлар тарбияси, уларнинг ҳаёти ва фаолиятига дахлдор бўлганлиги учун психологик муаммолар ҳисобланади.

Асосий қисм. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқида “бугунги кунда маҳалладаги, айниқса, уюлмаган ёшларнинг тақдири

билан ким қизикаяпти? Болалар кимлар билан ҳамсухбат бўлаётгани, ўқишга қачон бориб, қачон келаётганини ким назорат қилаяпти? Ёшлар, хусусан, ўсмирлар орасида безорилик, жиноятлар сони ортишига қандай омиллар сабаб бўлаяпти? Баъзи ёшларимиз учун меҳр-оқибат, ахлоқ-одоб тушунчалари бутунлай бегона бўлиб бораётгани, уларда бефарқлик, маъсулиятсизлик, меҳнат қилмасдан кун кўришга интилиш каби иллатлар пайдо бўлаётгани – аччиқ бўлса-да, ҳақиқат” деган эдилар. Хуллас, инсон ҳаётида юзага келадиган муаммоларнинг шаклланиш қонуниятларини психологик таҳлил қилиш, унга нисбатан зарур психологик чора – тадбирлар белгилаш, оқилона ечим топиш ва натижаларини тўғри баҳолаш ҳамда илмий ва асосли қарор қабул қилиш психолог олимлар олдида янада маъсулиятлироқ вазифаларни қўймоқда.

Шунга кўра, психолог мутахассислар қуйидагиларга алоҳида эътибор беришлари керак: Одамнинг дунёга келиши, одам психикасининг ривожланиши, психик ривожланиш қонуниятлари, психик ривожланишни тартибга солувчи асосий омиллар, шарт – шароитлар ва меъёрлар ҳақидаги диний тасавурларни танқидий- илмий таҳлил қилиш зарур. Аслида дин ва барча диний тасавурлар ёки диний ақидалар ҳамма - ҳаммаси инсон психологиясининг ифодаси эканлигини англашимиз керак. Инсониятнинг тарихий тараққиёти давомида шаклланган бутун борлиқ, олам ва одамнинг яралиши ҳақидаги тасавурлар, одамда тил, тафаккур ва онгининг юзага келиши, жамиятдаги ўзаро муносабатлар тизими ва унинг мунтазам такомиллашиб авлодларга ўтиши, одамнинг ҳаётий тириклиги, турмуш тарзи ва дунёни тарқ этиши ҳақидаги тасавурлар мажмуидир. Бу тасавурлар бир неча юз ва ҳаттоки минг йиллар давомида шаклланиб, сайқаллашган ва бу диний тасавур ҳамда қарашлар диний эътиқодли кишиларда бузиб бўлмас ёки ўзгартириб бўлмас даражага келган.

Муқаддас китоблардаги диний тасавурларнинг тарбиявий аҳамиятини камситмаган ҳолда, уларнинг диний ва илмий моҳиятини (баҳосини) таққослаш билан бўлғуси психологларга ва бошқа талабаларга тушунтириш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Бунинг учун ёшлар тарбиясини тўғри йўлга қўйишнинг муҳим ижтимоий-психологик йўналишларини белгилаб олиш зарур.

Инсон психологияси анча мураккаб ҳодиса бўлиб, уни тушуниш бутун борлиқ - табиат, жамият ва инсон тафаккури қонуниятларининг ўзаро муштарақлигини англаш билан асосланади. Бундай катта муаммога ечим топиш биринчи навбатда қуйидагиларни тақозо этади:

- ота-она ва жамоатчиликнинг психологик саводхонлигини ошириш кечиктириб бўлмайдиган зарурат эканлигини ҳамма англаши керак;

- оиладаги соғлом психологик муҳит ва соғлом тарбияни йўлга қўйишнинг муҳим асос ва йўналишларини белгилаб олиш вақти келди;

- инсоннинг моҳиятини тушунтиришдаги диний тасавурлар билан илмий психологик қарашларнинг муросасини таъминлаш зарур;

- психолог мутахассисларнинг инсон моҳиятини тушунишидаги камчиликларни (диний ақидаларга таяниб фикр юритишларини) психокоррекция қилиш лозим;

- дин (илм – фан ҳали ривожланмаган пайтда) ижтимоий тарихий тараққиётнинг маълум бир даврида одамларни бошқариш ва тарбиялаш учун жамиятдаги муҳим ўқитиш ва тарбиялаш механизми вазифасини ўтаганлигини ҳам унутмаслигимиз зарур;

- физика, табиий фанлар ва инсоншунослик фанларининг ривожланиши асосида инсон моҳиятини тушунтирадиган илмий асослар ва механизмлар юзага келди. Булардан ҳозирги ёшлар амалдаги таълим – тарбия ёрдамида етарлича хабардор бўлишлари лозим.

Чунки ер юзида фан ютуқлари, техника ва технологиялар асосида яратилган барча имконият ва қулайликлар: шаҳарлар, бинолар, инфратузилмалар, ОАВ ва интернет – барча – барчаси инсон тафаккури ва онгининг маҳсулидир. Улар асосида минглаб олимлар ва ихтирочиларнинг интеллектуал ютуқлари ётганлигини англашимиз лозим.

Одамларнинг ўзаро муносабатларга киришишлари, меҳнат фаолияти, соҳани ташкил этиш ва бошқарувдаги барча афзалликлар инсон ақлининг маҳсулидир. Телефон, компьютер, интернет, оммавий ахборот воситалари ёрдамида – ахборотларни олиш, қайта ишлаш, яратиш ва умуман коммуникацион тизимларнинг афзалликлари ҳамда улардан фойдаланиш имкониятлари билан бутун борлиқ, табиат, жамият, одам, унинг тафаккури ва онги ўзаро муштарақлигини (англаш зарур) асослаш мумкин.

Талабаларга психологиядан дарс ўтиш ёки психология йўналиши ҳамда психолог мутахассислар тайёрлаш жараёнида юқоридаги афзалликлар ва имкониятлар бўлишига қарамай, уларни психолог бўлиб шаклланишида биров муаммолар ҳам учраётганлигини гувоҳи бўламиз:

1. Баъзи талабаларда диний тасавурларнинг устунлиги, психологияни ўрганишда илмийликка асосланмаслик яққол ифодаланади;

2. Талабаларда илмий билимларнинг етарли эмаслиги, борликни тушунишда илмий асосларга таяна олмаслик кузатилади;

3. Ўқитувчи бераётган билим билан баъзи талабалар тасавури ўртасида (воқеликни илмий ёки диний баҳолашда) кескин фарқлар мавжуд;

4. Ўқитувчи – талаба фикрлаши, тушуниши ва англаш тизими ўртасидаги тафовутлар, улар ўртасида қарама – қаршилиқлар юзага келишига сабаб бўлмоқда ва хоказо.

Бундай ҳолат оила тарбиясига, мактаб тарбиясига бориб тақалиши, мактаб таълимида физика, биология, генетика, миллат ва жамиятнинг шаклланиш тарихи, жамиятшунослик ва бошқа фанлардан ёшларни етарлича билим олмаганлиги ҳамда воқелик билан боғланмаганлигини кўрсатади. Бу эса ёшлар тафаккури ва онгида бўшлиқ мавжудлигидан далолат беради. Улар тафаккурида ноилмий, диний ва шу билан бирга кундалик тасаввурларнинг стереотиплашган ифодаларини кўришимиз мумкин, холос.

Инсон ўз моҳиятини англамас, инсон психикаси, тафаккури, нутқи ва онгининг ривожланишидаги қонуниятларни тушунмаса – бундай ёшлар ёки мутахассислар оилада, одамлар орасида, меҳнат жамоаларида ва жамиятдаги ўзаро муносабатларда ўз ўрнини билмайдилар, натижада тарбиявий нуқтаи-назардан тузатиб бўлмас хатоларга йўл қўядилар. Бундай ҳолатлар кейинги йилларда сезилаётганлиги сир эмас.

Одам ўз моҳиятини англамас экан, жамиятда тутган ўрнини ҳам англамайди, ўзига, атрофдагиларга ва жамиятда кечаётган ўзаро муносабатларга тўғри баҳо беролмайди. Туғилганидан умрининг охиригача хотоларга йўл қўйиб, муаммолар гирдобида яшайди. Ўзини, ўзлигини, инсонийлик моҳиятини тўлақонли англамайди ва жамиятда қабул қилинган меъёрларга кўра ўз фаолиятини назорат қилолмайди.

Нима учун қонунлар, қарорлар, қонун ости ҳужжатлар, низомлар ва меъёрлар ишлаб чиқилади ва мазкур ҳужжатлар мазмунан жамият тараққиёти билан ҳамоханг ривожланиб боради? Аслида одамлар бунга бироз эътиборсизлик қиладилар. Бироқ, бу қонун ва қоидаларнинг ҳаммаси жамият аъзоларини ўзаро муносабатларни ташкил этишида, ўзини жамоа орасида қандай тутишини таъминлашга хизмат қилади. Ана шу қонун-қоидалар бутун жамият аъзоларини ва жамият тараққиётини меъёрлаштириб, тўғри тараққиёт йўлини таъминлашга хизмат қилади.

Шу боис, психология мутахассислигини эгаллаш учун ўқишга киришда ва уларни касбий тайёргарлик босқичларида кенг миқёсли оғзаки ва ёзма синовлардан фойдаланиш зарур. Илмий тасавури бўлмаган даъвогарларни психология йўналишига қабул қилмаслик, ўқиш даврида илмий тасаввур шаклланмаган талабаларни талабалар сафидан чиқариш лозим, чунки улардан психолог мутахассислар тайёрлаб бўлмайди. Бундай тартибни бошқа йўналиш талабаларини қабул қилиш ва тайёрлаш босқичларида (мутахассислик моҳиятига қараб) ҳам қўллаш зарур.

Хулоса. Ёшларга бор нарсаларни ўргатайлик, йўқ ва асоссиз нарсаларни ўрганишга бўлган интилишларини олдини олайлик. Жумладан, мутахассислик фанларининг–ҳар биридан маъруза, семинар ва амалий машғулотлар ҳамда мустақил топшириқлар етарлича қўйилган, бироқ талабалар белгиланган ёки биз кутган даражада ўзлаштираётганлигини кузатамиз. Бунинг асосий омиллари сифатида баъзи ёшларнинг бутун коинот – олам, табиат, одам ва унинг тафаккури ўзаро муштараклиги қонуниятларини етарли даражада илмий тушунмаслиги, уларда диний ақидалар ва диний тасаввурларга мойиллигининг устунлиги билан изоҳлаш мумкин. Бундай муаммолар шаклланишини олдини олишда қуйидаги вазифаларни амалга ошириш мақсадга мувофиқдир:

- мамлакатимизнинг ҳозирги тараққиёт босқичида таълим – тарбия жараёнларига қўйилаётган талаблардан келиб чиқиб, ҳар бир фанни илмий тамойилларга асосланган ҳолда ўқитилишини таъминлаш;

- фан ўқитувчиси илмий дунёқарашини аниқлаш ва уларга баҳо беришнинг психодиагностик – аттестация тизимини жорий қилиш;

- оилаларда, жамоатчилик ва ёшлар орасида психологик саводхонликни оширишга йўналтирилган илмий – амалий курсларни мунтазам ташкил этиш;

- ўқитувчи ва ёшлар орасида диний ақидаларга берилган ёки диний дунёқарашга эга бўлганлар билан психодиагностик ва психокоррекция – ривожлантирувчи тренингларни йўлга қўйиш;

- ёшлар орасида ўзини ва ўзликни англашга бўлган интилиш ҳамда ўзига ва борлиқга онгли муносабатни шакллантириш ҳозирги таълим тизимининг устувор вазифаларидандир, деб боҳолаш ўринли.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. -488 б.
2. Жабборов А.М., Абдуқаҳхорова Г. Миллий психологиянинг шаклланиш манбалари. - Қарши: “Насаф”, 2017. -72 б.
3. Рубинштейн С.Л. Бытие и сознание. -М., 1957. -172 с.
4. Maslov A.H The father reachers of Human Mature, N.Y. 1972.

Жураев Вохиджон Мухаммедович,
Қўқон давлат педагогика институтини мустақил тадқиқотчиси
vohidmuxammedovich31@gmail.com

СПОРТЧИ ДАЪВОГАРЛИК ДАРАЖАСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЭМПИРИК ЎРГАНИШ НАТИЖАЛАРИ

Аннотация: Мақола спортчи даъвогарлик даражасининг психологик хусусиятларини эмперик ўрганиш натижаларига бағишланган бўлиб, спортчиларни мусобақалардаги давогарлик даражасини татбиқ этишида нуфузли олимларнинг бир нечта психологик методика ва сўровномалардан фойдаланилган. Сўровноманинг баҳолаш шкалаларини ҳар бири спортчи фаолият натижаларини шартлайди. Спортчиларнинг мотивацияли жабҳасига кўра давогарлик даражасини баҳоловчи мезонларидан қочиб мотиви спорт мактаби ва олит таълим муассасалари жисмоний маданият факултети талабаларига нисбатан тафовутланган ва жадаллар асосида ёритиб берилган.

Калит сўзлар: эмперик ўрганиш натижалари, психологик сўровнома ва методикалар, давогарлик даражаси, мотив, ички мотив, қочиб мотив, когнитив мотив, спортчи мотивацияси.

РЕЗУЛЬТАТЫ ЭМПИРИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК УРОВНЯ ПРИТЯЗАНИЙ СПОРТСМЕНОВ

Аннотация: Статья посвящена результатам эмпирического исследования психологических характеристик уровня притязаний спортсмена, при применении уровня притязаний спортсменов было использовано несколько психологических методик и опросников влиятельных ученых. Каждая из рейтинговых шкал опросника определяет результаты деятельности спортсмена. Мотив уклонения от критериев оценки уровня притязаний спортсменов по мотивационному аспекту дифференцируется применительно к воспитанникам спортивной школы и факультета физической культуры элитарных учебных заведений и поясняется на основе таблиц.

Ключевые слова: результаты эмпирического исследования, психологическая анкета и методика, уровень конкуренции, мотив, внутренний мотив, мотив избегания, познавательный мотив, мотивация спортсмена.

RESULTS OF AN EMPIRICAL STUDY OF PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LEVEL OF CLAIMS OF ATHLETES

Abstract: The article is devoted to the results of an empirical study of the psychological characteristics of the level of aspirations of an athlete; when applying the level of aspirations of athletes, several psychological methods and questionnaires of influential scientists were used. Each of the rating scales of the questionnaire determines the results of the athlete's activity. The motive for avoiding the criteria for assessing the level of athletes' claims in terms of the motivational aspect is differentiated in relation to the pupils of the sports school and the faculty of physical culture of elite educational institutions and is explained on the basis of tables.

Key words: empirical study results, psychological questionnaire and methods, level of competition, motive, internal motive, avoidance motive, cognitive motive, athlete's motivation.

Мавзунинг долзарблиги. Спорт психологиясида даъво даражаси вазиятли ёки шахсий хусусият сифатида ўрганилади. Спорт фаолиятининг табиий шароитида даъвогарлик даражасини ҳам шахсий характеристика сифатида (камрок даражада шарт-шароитга боғлиқ) ҳам вазият характеристикаси сифатида (кўпроқ даражада спортчиларнинг ҳолатига боғлиқ) ўрганишга ҳаракат қилинган. Спортчиларнинг даъвогарлик даражаси хусусиятларини спорт натижаларига таъсирини дастлабки натижаларини умумий хусусиятлари ва хусусий ҳолларига кўра ўрганишга эришилди.

Тадқиқот муаммосининг методологияси. Спортчиларнинг даъвогарлик даражасини тадқиқ этишида бир неча психологик методикалардан фойдаланиш мумкин. Ушбу тоифа методикаларга В.К.Гербачевскийнинг "Даъвогарлик даражасини аниқлаш" сўровномаси, Ф.Хоппнинг "Даъвогарлик даражасини аниқлаш" сўровномаси ва Шварцландернинг "Даъвогарликни ўзи томонидан баҳолаш" тестларидан фойдаланиш инobatга олинди. Ушбу методикаларнинг татбиқ этиш

хусусиятлари ва мезонлари бўйича тафовутланади. Шуни инобатга олиб, В.К.Гербачевскийнинг “Даъвогарлик даражасини аниқлаш” сўровномасини татбиқ этишдан олинган эмпирик қийматларни спортчилар мисолида ўрганишга эътибор қаратдик. Сўровноманинг ўзига хослиги даъвогарлик даражасини шахснинг мотивацион тузилиши таркибий қисмларини ташхислаш орқали субъектнинг даъвогарлик даражасини аниқлашга йўналтирилганлиги белгилаб беради. Шахснинг даъвогарлик даражаси инсоннинг ўзини фаолиятида нималарга қодирлигини баҳолайди. Шу сабабли ҳам спортчининг даъвогарлик даражасини мотивация жабҳасидан баҳолашга эътибор қаратамиз.

Сўровноманинг баҳолаш шкалаларини ҳар бири спортчи фаолият натижаларини шартлайди. Сўровноманинг шкалаларининг қисқача мазмуни уларнинг синов натижаларига кўра субъект шахсининг мотивацион тузилиши аниқланади. Ушбу тузилишда 15 та компонент мавжуд. Шартли равишда мотивацион тузилманинг таркибий қисмларини тўртта жабҳага ажратилган.

Биринчи гуруҳга шахснинг мотивацион тузилишининг ядросини ифодаловчи олти жабҳаси мавжуд. Буларга қуйидагилар киради:

Ички мотив. Вазифага бўлган иштиёқни ифодалайди, вазифани жозибador қиладиган жиҳатларни аниқлайди.

Когнитив мотив. Мавзунинг ўз фаолияти натижаларига қизиқиш сифатида тавсифлайди.

Қочиш мотиви. Бундан келиб чиқадиган барча оқибатлар билан паст натижа кўрсатиш кўркувини кўрсатади.

Қарама-қаршилик мотиви. Бу мавзу бошқа субъектлар фаолиятида юқори натижаларга қанчалик аҳамият беришини кўрсатади.

Жорий фаолиятни ўзгартириш учун мотивация. Мавзу ҳозирда у билан шуғулланадиган ишни тўхтатиш тенденцияларини очиқ беради.

Ўз-ўзини ҳурмат қилиш мотиви. Бу субъектнинг бир хил фаолият турида тобора қийин мақсадларни белгилаш истагида ифодаланади.

Шахснинг мотивацион соҳасининг ядросини ташкил этувчи юқорида санаб ўтилган компонентлар субъектни муайян фаолият турига бевосита рағбатлантирувчи омиллар сифатида ҳаракат қиладди.

Иккинчи гуруҳ жуда қийин мақсадларга эришиш билан боғлиқ таркибий қисмлардан иборат. Улар ҳозирги ишлар билан боғлиқ:

Натижаларнинг аҳамияти. Фаолият натижаларига шахсий аҳамият бериш.

Вазифанинг қийинчилик даражаси.

Ихтиёрий ҳаракатларнинг намоён бўлиши. Вазифа устида ишлаш жараёнида ихтиёрий ҳаракатларнинг ифодаланиш даражасига баҳо беради.

Эришилган натижалар даражасини баҳолаш. Муайян фаолият туридаги субъектнинг имкониятлари билан боғлиқ.

Спортчи шахсни потенциалини баҳолаш.

Учинчи гуруҳ таркибий қисмларига корхона фаолиятини истиқболли баҳолаш компонентлари киради:

Фаолият мақсадларига эришиш учун зарур бўлган саъй-ҳаракатларни сафарбар қилишнинг режалаштирилган даражаси.

Кутилаётган ишлаш даражаси.

Тўртинчи гуруҳ жабҳалар тегишли фаолиятнинг сабаб омилларини акс эттиради. У иккита жабҳаларни ўз ичига олади:

Натижаларнинг мунтазамлиги. Ўз мақсадларига эришишда субъектнинг ўз имкониятларини тушунишини ифодалайди.

Ташаббус. Шахснинг ўз олдига қўйилган вазифаларни ҳал қилишда ташаббускорлик ва топқирлик намоён бўлишини ифодалайди.

Тадқиқот муаммосининг таҳлили. Мазкур методикани татбиқ этишнинг ўзига хос томони спортчиларнинг даъвогарлик даражасини мотивацион жабҳадан ўрганишга хизмат қилиши билан аҳамиятлидир. Эмпирик натижаларнинг статистика мезонлари бўйича таҳлил қилишда дастлабки кўрсаткичларни Колмогоров-Смирнов мезони бўйича нормал тақсимот қонунига мослигини текширишга эътибор қаратилди.

Спортчиларнинг даъвогарлик даражасини аниқлаш методикаси бўйича нормал тақсимланишга мосликни текшириш (n=447)

Кўрсаткичлар	Мин.	Макс.	Ўртача	Ст. оғиш	z	p
Ички мотив	0	21	12.71	6.642	0.146	0
Билиш мотиви	0	21	12.60	7,13	0.178	0
Қочиш мотиви	0	21	13.39	8.982	0.189	0
Мусобоқалашув мотиви	0	21	11.97	5.123	0.198	0
Фаолиятни алмаштириш мотиви	0	21	13.29	5.254	0.178	0
Ўзини эъзозлаш мотиви	0	21	12.57	5.047	0.124	0
Натижаларнинг аҳамиятлилиги	0	21	14.40	8.345	0.134	0
Топшириқларнинг мураккаблиги	0	21	12.65	4.609	0.117	0
Иродавий қувват	0	21	11.15	5.030	0.242	0
Натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси	0	21	14.01	5.637	0.157	0
Ўз имкониятларининг баҳоси	0	21	13.31	4.984	0.124	0
Қувватни сафарбар эта олинганлик даражаси	0	21	13.11	7.536	0.154	0
Натижаларни кутилганлик даражаси	0	21	13.12	4.396	0.122	0
Натижаларнинг қонуният	0	21	12.56	5.536	0.200	0
Ташаббускорлик	0	21	12.28	5.424	0.284	0

Изоҳ: ** - $p < 0,01$.

Спортчиларнинг мотивацияли жабҳасига кўра даъвогарлик даражасини баҳоловчи мезонлар, хусусан, ички мотив ($Z=0,146$), билиш мотиви ($Z=0,146$), қочиш мотиви ($Z=0,178$), мусобоқалашув мотив ($Z=0,189$), фаолиятни алмаштириш мотиви ($Z=0,198$), ўзини эъзозлаш мотиви ($Z=0,178$), натижаларнинг аҳамиятлилиги ($Z=0,124$), топшириқларнинг мураккаблиги ($Z=0,134$), иродавий қувват ($Z=0,242$), натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси ($Z=0,157$), ўз имкониятларини баҳоси ($Z=0,124$), қувватни сафарбар эта олинганлик даражаси ($Z=0,154$), натижаларни кутилганлик даражаси ($Z=0,122$), натижаларнинг қонуният ($Z=0,200$), ташаббускорлик ($Z=0,284$) ва кўрсаткичларнинг аҳамиятлилик тафовути эса $p < 0,01$ қийматга эга бўлди. Бу эса спортчиларнинг кўрсаткичлари нопараметрик характерга эга эканлигини кўрсатди. Оқибатда тадқиқот объектларини спорт тури, спорт муассасаси, жинс хусусиятлари бўйича кўрсаткичлари нопараметрик мезонга мувофиқ аниқланди. Шу асосда спортчиларнинг даъвогарлик даражасини спорт бўйича таҳсил олаётган таълим муассасаси хусусиятига кўра тафовутланиши ўрганилди (2-жадвал).

Спортчиларнинг “Даъвогарлик даражасини аниқлаш” методикасининг таълим муассасалари хусусиятига кўра (Манн-Уитни мезони асосида)

	Ўртача ранг		U	p
	Спорт мактаби N=317	ОТМ жисмий маданият факультети талабалари, N=130		
Ички мотив	219,80	234,25	19273	0,281
Билиш мотиви	226,65	217,55	19766,5	0,497
Қочиш мотиви	231,86	204,84	18114	0,044*
Мусобоқалашув мотиви	228,45	213,15	19194,5	0,253
Фаолиятни алмаштириш мотиви	221,82	229,32	19913	0,575
Ўзини эъзозлаш мотиви	222,94	226,59	20268,5	0,786
Натижаларнинг аҳамиятлилиги	221,39	230,37	19776,5	0,502
Топшириқларнинг мураккаблиги	201,10	233,39	17627,5	0,016*
Иродавий қувват	227,70	213,30	19214	0,280

Натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси	224,92	221,76	20313,5	0,813
Ўз имкониятларини баҳоси	226,80	217,17	19717,5	0,473
Кувватни сафарбар эта олинганлик даражаси	203,33	232,48	17917,5	0,030*
Натижаларни кутилганлик даражаси	202,34	253,66	17960,5	0,032*
Натижаларнинг қонуниятлари	228,62	212,73	19139,5	0,235
Ташаббускорлик	224,70	222,30	20384	0,858

Изоҳ: * - $p < 0,05$.

Спортчиларнинг йўналишлари бўйича спорт тайёргарликни ўташи учун хизмат қилаётган таълим муассасаларининг хусусиятига кўра уларнинг кўрсаткичларида статистик тафовутлар мавжудлиги ўрганилганда даъвогарлик даражасини тавсифида бир бирдан фарқ қилувчи кўрсаткичлар аниқланди.

Спортчиларнинг мотивацияли жабҳасига кўра спорт мактаби ўқувчиси ва ОТМ жисмоний тарбия факультети талабалари билан қиёсланганда даъвогарлик даражасини баҳоловчи мезонлар, хусусан, ички мотив (219,80 ва 234,25; $U=19273$), билиш мотиви (226,65 ва 217,55; $U=19766,5$), мусобақалашув мотив (228,86 ва 213,15; $U=19194,5$), фаолиятни алмаштириш мотиви (221,82 ва 229,32; $U=19913$), ўзини эъзозлаш мотиви (222,94 ва 226,59; $U=20268,5$), натижаларнинг аҳамиятлилиги (221,39 ва 230,37; $U=19776,5$), иродавий қувват (227,70 ва 213,30; $U=19214$), натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси (224,92 ва 221,76; $U=20313,5$), ўз имкониятларини баҳоси (226,80 ва 217,17; $U=19717,5$), натижаларнинг қонуниятлари (228,62 ва 212,73; $U=19139,5$), ташаббускорлик (224,70 ва 222,30; $U=20384$) бўйича статистик фарқлар аниқланмади. Бундан кўринадики, спортчиларни касбий тайёрлаш аниқ дастурга кўра амалга оширилади. Уларда спортчиларнинг эришиши зарур бўлган минимал ва максимал мезонлар мавжуд. Шу сабабли спорт мусобақасида иштирок этаётган ҳар бир спортчи ютуққа даъвогарлиги, спорт мусобақасининг аҳамияти ва унинг жалб этувчанлик хусусияти, мусобақада ўз натижасига нисбатан қизиқишга эгаллиги, команданинг бошқа аъзоларини фаолияти натижасига эътибор қаратиши, субъектнинг мусобақа вақтида фаолиятини алмаштиришга нисбатан кечинмалари, ҳар қандай мусобақада ҳам ўз олдига юқори мақсадлар қўйиши, спорт натижаларига шахсий қиймат қўя олиши, мусобақага таёргарлик кўришда қийин вазифалар қўя олиши, мақсадга эришишда ўз имкониятларини баҳолай олиши, қўйилган мақсадга эришишда янги ечимлар топишга интилишида тафовутларга эга бўлмади. Бундан кўринадики, ҳар бир спортчи фаолиятида муваффақиятга эришишга бўлган хоҳиш-истак ижобийдир. Улар мусобақаларга яшши ният ва мақсадлар билан ташриф этадилар.

Спортчиларнинг мотивацияли жабҳасига кўра даъвогарлик даражасини баҳоловчи мезонларидан қочиш мотиви спорт мактаби тарбияланувчиларида олий таълим муассасаси жисмоний маданият факультети (231,86 ва 204,84; $U=18114$; $p < 0,05$) талабаларига нисбатан тафовутланди. Спорт мактаби ўқувчиларида қочиш мотивининг устувор ақс этганлиги унинг келгусида спорт билан шуғуланиши учун муҳим рол ўйнайди. Чунки ёш спортчида доимо юқори натижага эришишдаги иштиёқи юқори бўлади ва мағлубиятни анчагина руҳий босим билан қабул қилади. ОТМ жисмоний маданият таълим йўналиши талабалари эса ўз вақтида ўқувчилар кечираётган таассурот тажрибаларини босиб ўтганлар. Улар мағлубиятли ёки паст натижаларидан норози бўлсаларда, аммо спорт натижалари билан боғлиқ фрустрацияларга толерантликни шакллантирганлар.

Спорт таълимининг турли босқичларида топшириқларнинг мураккаблиги бўйича ҳам (201,10 ва 233,39; $U=17627,5$; $p \leq 0,05$) статистик аҳамиятдаги фарқ кузатилди. Бунда эса спортчи-талабаларнинг мусобақа олди ва мусобақадаги юқламалари спортчи-ўқувчиларникидан кескин тафовутланиши ўз аксини топди. Бир жихатдан спорт фаолиятининг босқичи ҳамда спорт мусобақаларида ёш бўйича спортчиларни тажрибалари ва уларнинг фаолиятига қўйилаётган талаблар ортиб боради. Бу ҳолат спорт-талабаларининг натижаларида юқори мотивацияли даъвогарлик ақс этган.

Юқоридаги мотивацияли вазиятга мос равишда спортчи талабалари фаолият натижаларини юқори бўлиши ва кутилаётган натижаси учун қувватни сафарбар этишга интилишини олдиндан прогнозлайди. Ўз навбатида рақибнинг спорт натижаларини ҳам доимий равишда кузатиб боради. Бу эса уларнинг натижа учун қувватни сафарбар этиш даражасини белгилашга хизмат қилади (203,33 ва 232,48; $U=17917,5$; $p \leq 0,05$). Эмпирик кўрсаткичлар таҳлилидаги навбатдаги шкалада ҳам спортчи-талабалар натижаларни кутилганлик даражаси бўйича ҳам устуворликка эга бўлдилар (202,62 ва 253,48; $U=17960,5$; $p \leq 0,05$). Бу эса спортчи-талабалар спортчи-ўқувчиларга нисбатан фаолият

натижаларини олдинги ва мусобақа олди тайёргарликка кўра прогнозлай олишларини характерлайди. Бу борада спортчи-ўқувчиларда тажрибалар етарлича шаклланмаган бўлади.

Эмпирик тахлилимизнинг навбатдаги йўналиши эса спортчиларнинг жинсга кўра даъвогарлик даражасини ифодаловчи мотивация кўрсаткичлари орасидаги муносабат ўрганилди (3-жадвал).

3-жадвал.

**Спортчиларнинг “Даъвогарлик даражасини аниқлаш” методикаси шкаллари
(Манн-Уитни мезони асосида)**

	Ўртача ранг		U	p
	йигитлар N=291	қизлар N=156		
Ички мотив	231,34	208,79	20272	0,017*
Билиш мотиви	223,54	223,42	22540	0,992
Қочиш мотиви	215,84	237,88	20323	0,084
Мусобақалашув мотиви	221,57	227,12	21992	0,664
Фаолиятни алмаштириш мотиви	229,69	211,88	20752	0,163
Ўзини эъзозлаш мотиви	220,88	228,42	21790	0,555
Натижаларнинг аҳамиятлилиги	222,59	225,20	22289	0,838
Топшириқларнинг мураккаблиги	224,01	222,54	22404	0,909
Иродавий кувват	226,67	216,13	21410	0,407
Натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси	215,02	239,41	20086	0,005**
Ўз имкониятларини баҳоси	220,12	229,85	21568	0,446
Кувватни сафарбар эта олинганлик даражаси	219,42	231,16	21365	0,358
Натижаларни кутилганлик даражаси	222,52	225,35	22266	0,825
Натижаларнинг қонунияти	222,62	225,15	22297	0,843
Ташаббускорлик	222,51	225,36	22263	0,823

Изоҳ: * - $p < 0,05$, ** - $p < 0,01$.

Спортчиларни даъвогарлик даражасининг жинсга кўра тафовутлари ўрганилганда мотивацияли жабҳаларининг ички мотив (231,34 ва 208,79; $U=20272$; $p < 0,05$) билан натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси (215,02 ва 239,41; $U=20089$; $p < 0,01$) шкаллари бўйича аниқланди. Биринчи ҳолатда спортчи йигитлар қизларга нисбатан ички мотив бўйича устуворликка эга бўлдилар. Бу ҳолат спортчи йигитлар спорт муосабакларининг қанчалик аҳамиятли эканлиги ва кўпроқ эътибор талаб этадиган хусусиятларини инобатга олар эканлар, уларни мусобақаларга тайёргарлик кўриш ва эришадиган натижалари учун муҳим бўлиши мумкин.

Спортчи қизлар учун эса натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси катта аҳамиятга эга бўлмоқда (215,02 ва 239,41; $U=20089$; $p < 0,01$). Бу ҳолат спортчи қизлар фаолият йўналишидаги имкониятларини кўпроқ инобатга олишга хайрихоҳ эканлар. Спортчиларнинг даъвогарлик даражаларини ифодаловчи бошқа мотивация жабҳалари бўйича ҳеч қандай статистик аҳамиятли қийматлар кузатилмади. Бу спортчиларнинг жинсга кўра даъвогарлигини баҳолашда ютуққа даъвогарлиги, спорт мусобақасини аҳамияти ва унинг жалб этувчанлик хусусияти, мусобақада ўз натижасига нисбатан қизиқишга эгалиги, команданинг бошқа аъзоларини фаолияти натижасига эътибор қаратиши, субъектнинг мусобақа вақтида фаолиятини алмаштиришга нисбатан кечинмалари, ҳар қандай мусобақада ҳам ўз олдига юқори мақсадлар қўйиши, спорт натижаларига шахсий қиймат қўя олиши, мусобақага таёргарлик кўришда қийин вазифалар қўя олиши, мақсадга эришишда ўз имкониятларини баҳолай олиши, қўйилган мақсадга эришишда янги ечимлар топишга интилишда бир хил хусусиятга эга эканлар.

Спортчиларнинг даъвогарлик даражасини мотивацияли жаҳбадан ўрганишга муурожаат қилинган навбатдаги муносабат уларнинг спорт турлари бўйича хусусиятларини ёритишга қаратилди (4-жадвал). Спортчиларнинг спорт билан шуғулланш босқичлари ва жинсга кўра хусусиятларидан фарқли равишда қуйидаги муносабат аниқланди. Тақдқиқотимизда спортчиларнинг даъвогарлик даражасини баҳолаш шкаллари индивидуал ва жамоавий спорт турлари бўйича фарқланиши аниқланган. Бу эса спортчиларда қуйидагича ўзига хосликни акс эттирди, яъни натижаларнинг аҳамиятлилиги ва натижаларнинг қонуниятлар шкалларида аниқланди. Спортчиларнинг натижаларини бундай тус олишида индивидуал спорт турларидан кўра жамоавий спорт турларида натижалар аҳамиятли кўриниш олганлиги қизиқарлидир.

**Спортчиларнинг “Даъвогарлик даражасини аниқлаш” методикаси шкаллари
(Манн-Уитни мезони асосида)**

	Ўртача ранг		U	p
	Индивидуал спорт N=213	Жамоавий спорт N=234		
Ички мотив	228,35	220,04	23993,500	0,495
Билиш мотиви	222,02	225,80	24499	0,756
Қочиш мотиви	229,01	219,44	23854	0,432
Мусобақалашув мотиви	229,94	218,60	23656,500	0,351
Фаолиятни алмаштириш мотиви	235,49	213,54	22474	0,071
Ўзини эъозлаш мотиви	219,96	227,68	24060	0,527
Натижаларнинг аҳамиятлилиги	211,16	235,68	22187	0,035*
Топшириқларнинг мураккаблиги	215,22	231,99	23050,5	0,169
Иродавий қувват	226,47	220,81	24173,5	0,640
Натижаларга эришганлик даражасининг баҳоси	221,96	225,86	24486,5	0,749
Ўз имкониятларини баҳоси	217,86	229,59	23614	0,336
Қувватни сафарбар эта олинганлик даражаси	224,75	223,31	24760,5	0,906
Натижаларни кутилганлик даражаси	219,65	227,96	23995,5	0,496
Натижаларнинг қонуният	210,25	236,52	21992	0,031*
Ташаббускорлик	221,19	226,56	24323	0,660

Изоҳ: ** - $p < 0,01$.

Жамоавий спорт тури билан шуғулланувчи спортчилар натижаларнинг аҳамиятлиги (211,16 ва 235,68; $U=22187$; $p < 0,05$) индивидуал спорт тури билан шуғулланувчиларга қараганда юқори кўриниш олди. Шунингдек, спорт натижаларини қонуниятда ҳам (210,25 ва 235,68; $U=22187$; $p < 0,05$) жамоавий спорт тури билан шуғулланувчилар индивидуал спорт тури билан шуғулланувчиларга нисбатан юқори натижага эгалликларини тасдиқлай олганлар. Ҳар иккала шкала натижаларининг психологик мазмунини изоҳлашда спортчи шахснинг индивидуал ва ижтимоий-психологик жиҳатларини уйғунлаштиришни тақозо этади. Ушбу ҳолатни спорт мусобақасидаги натижаларда жамоавий руҳ, муносабат ёки аксинча мағлубиятларни жамоа таъсиридаги ҳолати индивидуал фаолиятдан фарқ қилиши тадқиқотимизнинг эмпирик қисмида ҳам ўз исботини топмоқда. Шу сабабли спорт мусобақаларида юқори натижалар эришишда индивидуал спорт тури билан шуғулланувчилар ўз натижаларига ҳам ижтимоий аҳамият бериши кузатишмоқда. Бу ерда ижтимоий аҳамият спортчининг тренерлари, ота-онаси, яқинлари ва атрофдагиларнинг муносабати билан боғлаш мумкин. Индивидуал спорт тури билан шуғулланаётганларда спорт натижаларини аҳамияти ва қонуниятига нисбатан жамоавий спорт тури билан шуғулланувчилардаги устувор муносабат билдиришда натижаларга нисбатан масъулият ҳам индивидуал, ҳам жамоавий аҳамият касб этишини муҳим бўлмоқда. Тадқиқотимизнинг эмпирик натижалари бўйича олинаётган аҳамиятли қийматлар келгусида индивидуал ва жамоавий спорт тури билан шуғулланаётганларда ижтимоий аҳамиятдаги мақсадларнинг ва натижаларнинг ижтимоий тус берилишига урғу беришни инобатга олиш керакдир.

Хулосалар. Спортчиларнинг даъвогарлик даражасининг умумий тавсифини ифодаловчи эмпирик кўрсаткичлар асосида қуйидагича хулосаларга келинди:

1. Спортчиларнинг даъвогарлик даражасида қочиш мотивлари бўйича спортчи ўқувчиларни устувор натижалари улар томонидан кутилаётган натижаларга юқори ва кескин аҳамият бериши сабаблидир. Спортчи талабалар эса ўқувчиларнинг тажрибаларини синовдан ўтказиб бўлганликлари ва ютуқ-мағлубиятни холисроқ баҳолай олишлари қийматларини қуйи кўриниш олишига сабаб бўлган.

2. Спортчиларнинг жинс хусусиятларига кўра даъвогарликни шартловчи мотивация жаҳдаларида топшириқлар, спорт юкчаларининг ўзига жалб этувчанлигида спортчи йигитлар қизларга нисбатан кўпроқ аҳамият берар эканлар. Спортчи қизлар эса натижаларни эришганлик даражасини баҳолашда йигитлардан устунликка эгалликлари уларнинг фаолият ютуқларига эмоционал урғу беришлари билан боғлиқдир.

3. Спорт турларига кўра жамоавий спорт тури билан шуғулланувчиларда спорт натижаларининг аҳамияти ва натижаларнинг қонуниятидаги етакчи қийматга эгалликлари ютуқларга ижтимоий тус беришлари сабаблидир.

Адабиётлар:

1. Бороздина Л.В. Исследование уровня притязаний : Учеб. пособие / Л. В. Бороздина. - 4. изд., доп. - Москва : Психология, 2000. – 181 с.
2. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2000. 512 с
3. Сидоров К.Р. Концепт «Уровень притязаний» в истории зарубежной психологии // Вестн. Удм. ун-та. Сер. Философия. Психология. Педагогика. 2008. Вып. 2. С. 56-63.
4. Хекхаузен Х. Мотивация и деятельность. СПб.: Питер; М.: Смысл., 2003. 860 с
5. Хекхаузен Х. Психология мотивации достижения. СПб.: Речь, 2001. 240 с.

Каримова Гулнора Омониллаевна,

соискатель Национального университета Узбекистана имени Мирзы Улугбека

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПСИХОДИАГНОСТИКИ СОЦИАЛЬНОЙ АДАПТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ С НАРУШЕНИЕМ СЛУХА

Аннотация: Выделение и конкретизация структурных составляющих адаптивности студентов с нарушением слуха позволяет определить соответствующие методические средства психодиагностики рассматриваемого явления в целом. Результаты экспертной оценки выделили 40 значимых структурных составляющих индивидуально-психологических особенностей социальной адаптивности студентов с нарушением слуха. Исходя из этого, в рамках оптимального выбора психодиагностического инструментария, полагается целесообразным осуществить тщательный анализ выделенных характеристик в целях их группирования в соответствии с методологическими подходами наиболее популярных методик психодиагностики. По нашему мнению, данный подход позволит существенно сократить возможное количество методик, тем самым облегчить психодиагностический процесс, а также подобрать наиболее качественный инструментарий, принятый психологическим сообществом.

Ключевые слова: слух, личность, метод тестирования, эмоция, установка, самоконтроль.

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN TALABALARNING IJTIMOY MOSLASHUVCHANLIGI PSIXODIAGNOSTIKASINING METODIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Eshitish qobiliyati buzilgan talabalarning moslashuvchanligining tarkibiy qismlarini ajratib ko'rsatish va konkretlashtirish, ko'rib chiqilayotgan hodisaning psixodiagnostikasining tegishli uslubiy vositalarini aniqlashga imkon beradi. Ekspert baholash natijalari eshitish qobiliyati buzilgan talabalarning individual psixologik xususiyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy moslashuvchanligining 40 ta muhim tarkibiy qismlarini aniqladi. Shunga asoslanib, psixodiagnostik vositalarni maqbul tanlash doirasida tanlangan xususiyatlarni psixodiagnostikaning eng mashhur usullarining uslubiy yondashuvlariga muvofiq guruhlash uchun sinchkovlik bilan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv mumkin bo'lgan usullar sonini sezilarli darajada kamaytiradi va shu bilan psixodiagnostik jarayonni osonlashtiradi, shuningdek psixologik hamjamiyat tomonidan qabul qilingan eng yuqori sifatli vositalarni tanlaydi.

Kalit so'zlar: eshitish qobiliyati, individual, test metodi, hissiyot, ustanovka, o'z-o'zini boshqarish.

METHODOLOGICAL FEATURES OF PSYCHODIAGNOSIS OF SOCIAL ADAPTABILITY OF STUDENTS WITH HEARING IMPAIRMENT

Abstract: Isolation and concretization of the structural components of the adaptability of students with hearing impairment allows us to determine the appropriate methodological means of psychodiagnostics of the phenomenon in question as a whole. The results of the expert assessment identified 40 significant structural components of the social adaptability of students with hearing impairment of individual psychological characteristics. Based on this, within the framework of the optimal choice of psychodiagnostic tools, it is considered appropriate to carry out a thorough analysis of the identified characteristics in order to group them in accordance with the methodological approaches of the most popular psychodiagnostic methods. In our opinion, this approach will significantly reduce the possible number of methods, thereby facilitating the psychodiagnostic process, as well as selecting the most high-quality tools accepted by the psychological community.

Key words: hearing ability, individual, test method, emotion, ustanofka, self-management.

Введение. Личностная зрелость является комплексным личностным образованием, для психодиагностики которого нами подобран Тест-опросник личностной зрелости Ю.З. Гильбуха.

Согласно позиции автора инструментария, личностная зрелость вступает комплексным результатом взросления. При этом, данный процесс распространяется преимущественно на личность человека, т.е. на те индивидуально-психологические особенности, которые связаны с усвоением моральных норм, принципов межличностного общения, поведения в коллективе и т.д. Данный

подход к пониманию личностной зрелости позволил учёному представить это комплексное свойство как совокупность следующих составляющих: мотивация достижений, отношение к своему «Я», чувство гражданского долга, жизненная установка, способность к психологической близости с другим человеком.

Основная часть. Чувство гражданского долга в аспекте составляющей социальной зрелости Ю.З. Гильбух интерпретирует как интерес к общественно-политической жизни, происходящей вокруг человека, коллективизм, здоровая потребность в общении, чувство ответственности, в том числе и профессиональной. По нашему мнению, смысловое содержание данной интерпретации сводится к следующим структурным составляющим социальной адаптивности студентов с нарушением слуха по результатам экспертной оценки: интерес к явлениям общественно-политической жизни (39 ранг, сумма экспертных баллов - 496, мода (Mo) - 7, медиана (Md) - 7, среднее (M) - 7,4); чувство профессиональной ответственности (16 ранг, сумма экспертных баллов - 570, мода (Mo) - 9, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 8,5); потребность в общении (12 ранг, сумма экспертных баллов - 579, мода (Mo) - 9, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 8,6).

Жизненная установка в интерпретации Ю.З. Гильбух сводится к таким личностным качествам человека как рассудительность, умение держать себя в руках, эмоциональная уравновешенность, преобладание интеллекта над эмоциями и пр. По своей сущности, данная трактовка сводится к такой структурной составляющей социальной адаптивности студентов с нарушением слуха по результатам экспертной оценки как эмоциональная уравновешенность, рассудительность (7 ранг, сумма экспертных баллов - 602, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 8,9).

Заключительная составляющая социальной зрелости по Ю.З. Гильбуху - способность к психологической близости с другим человеком. Смысловое содержание данной интерпретации наглядно демонстрирует релевантность к следующим структурным составляющим социальной адаптивности студентов с нарушением слуха по результатам экспертной оценки: доброжелательность к людям (33 ранг, сумма экспертных баллов - 528, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 7,8); эмпатия, умение слушать (36 ранг, сумма экспертных баллов - 510, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 7,6); потребность в духовной близости с другими людьми (34 ранг, сумма экспертных баллов - 525, мода (Mo) - 7, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 7,8).

Следующее, вышеприведённое комплексное личностное образование является - саморегуляция поведения. Для психодиагностики его нами подобран Опросник стиля саморегуляции поведения В.И. Моросановой.

Как утверждает учёный, первый компонент саморегуляции поведения - планирование характеризует личностные особенности целеполагания и удержания целей, а также уровень развития у индивида осознанной потребности планирования своей деятельности, в том числе профессиональной, учебной и др. По нашему мнению, такая интерпретация компонента планирования, по своей сути, отражается в следующих структурных составляющих социальной адаптивности студентов с нарушением слуха, выделенных по результатам экспертной оценки: целеполагание и удержания целей (25 ранг, сумма экспертных баллов - 557, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,3); осознанное планирование деятельности (40 ранг, сумма экспертных баллов - 495, мода (Mo) - 7, медиана (Md) - 7, среднее (M) - 7,3).

Очередное комплексное личностное образование - коммуникативная толерантность. Для психодиагностики его нами подобран опросник диагностики общей коммуникативной толерантности В.В. Бойко. В авторском понимании диагностируемое свойство проявляется в следующих элементах: неприятие индивидуальности другой личности; использование себя в качестве эталона в ходе оценки поведения и образа мыслей других людей; некий консерватизм, категоричность при оценках человека; неумение скрывать отрицательное отношение, чувство в процессе взаимодействия; устремление переделать партнеров, перевоспитать; стремление подогнать партнера под себя; неумение прощать ошибки других; нетерпимость дискомфорту, определенным сложностям создаваемыми окружающими; неумение приспосабливаться к характеру, привычкам и желаниям окружающих.

Исходя из содержательной основы авторского подхода к пониманию коммуникативной толерантности, по нашему мнению, данный компонент отражается в следующих структурных составляющих социальной адаптивности студентов с нарушением слуха, выделенных по результатам экспертной оценки: понимание и принятие индивидуальности другого человека (8 ранг, сумма экспертных баллов - 597, мода (Mo) - 9, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 8,9); не использования себя в качестве эталона при оценке поведения и образа мыслей окружающих (5 ранг, сумма экспертных баллов - 605, мода (Mo) - 10, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 9,02); отсутствие категоричности в

оценках других людей (19 ранг, сумма экспертных баллов - 568, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,4); умение сглаживать неприятные чувства при столкновении с некоммуникабельными качествами собеседника (10 ранг, сумма экспертных баллов - 592, мода (Mo) - 9, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 8,8); умение воспринимать окружающих, такими какие они есть (24 ранг, сумма экспертных баллов - 560, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,3); умение прощать другим ошибки, неловкость, непреднамеренно причиненные неприятности (28 ранг, сумма экспертных баллов - 554, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,2); терпимость к физическому или психическому дискомфорту, создаваемому другими людьми (39 ранг, сумма экспертных баллов - 495, мода (Mo) - 7, медиана (Md) - 7, среднее (M) - 7,3); умение приспособливаться к характеру, привычкам и желаниям других (26 ранг, сумма экспертных баллов - 557, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,3).

Следующее комплексное личностное образование - способность к преодолению эмоциональных барьеров в межличностном общении. Для психодиагностики его нами подобран Опросник диагностики эмоциональных барьеров в межличностном общении В.В. Бойко. Согласно точке зрения автора инструментария, диагностика эмоциональных барьеров в межличностном общении реализуется через выяснения следующих помех в установлении эмоциональных контактов: неумение респондента управлять своими эмоциональным состоянием, дозировать эмоции в ходе общения; неадекватное проявление респондентом своих эмоций в ходе общения; негибкость респондента, невыразительность его эмоций в ходе общения; доминирование у респондента негативных эмоций в ходе общения; нежелание респондента сближаться с окружающими на эмоциональной основе.

По нашему мнению, вышеизложенное представление об эмоциональных барьерах в межличностном общении, помехах в установлении эмоциональных контактов соответствует следующей группе структурных составляющих социальной адаптивности студентов с нарушением слуха, выделенных по результатам экспертной оценки: умение управлять эмоциями, дозировать их (30 ранг, сумма экспертных баллов - 538, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,02); адекватное проявление эмоций (2 ранг, сумма экспертных баллов - 630, мода (Mo) - 10, медиана (Md) - 10, среднее (M) - 9,4); гибкость, развитость, выразительность эмоций (35 ранг, сумма экспертных баллов - 523, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 7,8); доминирование позитивных эмоций (27 ранг, сумма экспертных баллов - 556, мода (Mo) - 9, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,2); умение сближаться с людьми на эмоциональной основе (17 ранг, сумма экспертных баллов - 568, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,4).

Следующее комплексное личностное образование - жизнестойкость. В целях его психодиагностики нами была подобрана Методика диагностики жизнестойкости С. Мадди в адаптации Д. Леонтьева. По мнению разработчика, такое свойство как жизнестойкость охватывает следующие составляющие: вовлеченность; контроль; принятие риска.

Первая составляющая (вовлечённость) автором интерпретируется как убежденность человека, его позиция от том, что вовлеченность, например в деятельность создает условия для максимальной вероятности найти нечто значительное и интересное для самой личности. Вторая составляющая (контроль), по мнению разработчика методики, представляет собой убежденность человека в том, что упорство, борьба создают такие условия, которые позволяют эффективно влиять на результат происходящего. Заключительная, третья составляющая (принятие риска), согласно позиции учёного, представляет собой убежденность в том, что все происходящие события в жизни человека, способствуют его должному развитию за счет приобретаемых в результате знаний, умений, навыков и пр. По своей сущности, вышеизложенная авторская позиция раскрывающая структурное понимание такого явления как жизнестойкость соответствует следующей группе структурных составляющих социальной адаптивности студентов с нарушением слуха, выделенных по результатам экспертной оценки: вовлеченность в деятельность (6 ранг, сумма экспертных баллов - 604, мода (Mo) - 10, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 9,01); контроль над ситуацией (11 ранг, сумма экспертных баллов - 585, мода (Mo) - 9, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 8,7); отсутствие беспомощности (15 ранг, сумма экспертных баллов - 572, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,5); принятия риска через активное усвоение знаний из опыта (37 ранг, сумма экспертных баллов - 507, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 7,5).

Заключительное комплексное личностное образование - адаптационный потенциал. В целях его психодиагностирования нами подобран многоуровневый личностный опросник «Адаптивность» А.Г. Маклакова, С.В. Чермянина. Согласно точке зрения разработчиков опросника, методика

достаточно полно оценивает личностный потенциал обследуемого, который охватывает такие индивидуально-психологические особенности как: нервно-психическая устойчивость человека; коммуникативные особенности человека; моральную нормативность человека.

Согласно нашей позиции, подобное понимание структуры диагностируемого признака соответствует следующей группе составляющих социальной адаптивности студентов с нарушением слуха, выделенных по результатам экспертной оценки: нервно-психическая устойчивость (29 ранг, сумма экспертных баллов - 545, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,1); развитые коммуникативные особенности (4 ранг, сумма экспертных баллов - 614, мода (Mo) - 10, медиана (Md) - 9, среднее (M) - 9,1); развитая моральная нормативность (21 ранг, сумма экспертных баллов - 562, мода (Mo) - 8, медиана (Md) - 8, среднее (M) - 8,3).




Рисунок 1. Методический комплекс психодиагностики развития социальной адаптивности личности студента с нарушением слуха

При этом, классификация строилась, преимущественно в рамках методологических подходов авторов наиболее популярного психодиагностического инструментария, относительно понимания структуры диагностируемых свойств. Данный подход позволил подобрать следующий оптимальный психодиагностический комплекс позволяющий в совокупности исследовать развитие социальной адаптивности личности студента с нарушением слуха: Тест-опросник личностной зрелости Ю.З. Гильбуха; Опросник стиля саморегуляции поведения В.И. Моросановой; Опросник диагностики общей коммуникативной толерантности В.В. Бойко; Опросник диагностики эмоциональных барьеров в межличностном общении В.В. Бойко; Методика диагностики жизнестойкости С. Мадди в адаптации Д. Леонтьева; Многоуровневый личностный опросник «Адаптивность» А.Г. Маклакова, С.В. Чермянина.

Заключение. Таким образом, опираясь на произведённую классификацию уточнённого комплекса характеристик, выделены следующие 6 групп обобщённых личностных качеств, предопределяющих социальную адаптивность личности студента с нарушением слуха: личностная зрелость, саморегуляция поведения, коммуникативная толерантность, способность к преодолению эмоциональных барьеров в межличностном общении, жизнестойкость, адаптационный потенциал.

Литература:

1. Литовченко А.В. Социально-педагогические основы социальной адаптации учащихся с ограниченными возможностями. // Научные записки Тернопольского государственного педагогического университета. Серия: Педагогика. - 2002. - № 4. - С. 79-83.
2. Дябел Л.И. К вопросу о социальной адаптации студентов-первокурсников. // Научный журнал НПУ имени М.П. Драгоманова. Серия №11. - К.: НПУ, 2004. - №1. - С. 74-79.
3. Зотова А.М. Интеграция ребенка-инвалида в среду здоровых сверстников как метод социальной адаптации. // Дефектология, 2003. - №6. – С. 21-25.
4. Коленченко Т.И. Методология исследования адаптации личности с особыми потребностями в новых условиях жизнедеятельности. // Социальная безопасность и гуманитарная защита в Украине в начале XXI века: проблемы теории и практики: тезисы докладов междунар. наука.- практ. конф. - Чернигов, 2009. - С. 55-57.
5. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Ziyavitdinova, G., & Kamalova, Z. (2022). The Relationship Between the Effectiveness of the Managerial Activity of an Education Manager With the Peculiarities of the Manifestation of His Communicative Potential in Uzbek System. *Journal of Higher Education Theory & Practice*, 22(4).

*Karimova Muhayyo Hasanovna,
Jamoat xavfsizligi universiteti psixologi*

HARBIY TA'LIMDAGI TALABALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOGIK ASPEKTLARNING USTUNLIGI

Annotatsiya: Harbiy bilim yurtidagi talabalar boshqa talabalardan ko'pgina jihatlari bilan ajralib turadi. Ulardagi bilim olishga bo'lgan yondashuvlar doimo psixologik va emotsional aspektlar bilan birga kechadi. Talabalardagi bu jarayonni yaxshi tushungan o'qituvchigina ular bilan yaxshi munosabatga kirisha oladi va ularni o'z faniga qiziqтира oladi. Ushbu maqolada harbiy bilim yurti talabalarining o'qish jarayonidagi o'zgaruvchan psixologik va emotsional holatini yaxshi tushunish uchun ko'plab olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalari va xulosalari keltirilgan bo'lib, o'qituvchilar qanday vaqtda talabaga qanday yondashish lozimligi aytib o'tiladi.

Bundan tashqari ularning tajribasiga suyangan holda talabalar bilan olib borilgan mashg'ulotlar natijasi foydali qo'llanma sifatida berib o'tilgan. Misol uchun, Rusalovning so'rovnomasi yordamida harbiy institut kursantlarining rasmiy-dinamik xususiyatlarini yoki xususiyatlarini diagnostika qilishni nazarda tutadi. Arifmetik o'rtacha qiymati tavsiflovchi statistik vositalar yordamida aniqlandi va kursantlarning turli sohalaridagi formal-dinamik xususiyatlarining jiddiyligi tahlili ishlab chiqiladi.

Umuman olganda mazkur ilmiy maqolada shaxsning o'zgaruvchan psixologik jihatlari o'rganilib bu bilimdan talabalar ta'lim berishda, ularni yo'naltirishda foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: psixologik fazilatlar, psixogen ta'sirlari, neyrofizilogik xususiyatlar, psixomotor, ergichlik, plastiklik.

ПРИОРИТЕТ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ В РАБОТЕ СО СТУДЕНТАМИ В ВОЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: Студенты военного учебного заведения во многом отличаются от других курсантов. Их подходы к обучению всегда сопровождаются психологическими и эмоциональными аспектами. Только тот учитель, который хорошо понимает этот процесс у учащихся, может установить с ними хорошие отношения и заинтересовать их своим предметом. В данной статье представлены опыт и выводы многих учёных с целью лучшего понимания меняющегося психологического и эмоционального состояния курсантов военно-учебного заведения в процессе обучения, а также указано, как педагоги должны подходить к курсанту и в какое время. Кроме того, исходя из их опыта, результаты учебных занятий со студентами были даны в качестве полезного ориентира. Например, с помощью опросника Русалова предполагается диагностировать формально-динамические характеристики или характеристики курсантов военного института. С помощью описательной статистики определено среднее арифметическое значение, и разработан анализ выраженности формально-динамических характеристик обучаемых по разным специальностям.

В целом в данной научной статье изучаются изменяющиеся психологические аспекты личности и приводятся рекомендации по использованию эти знания при обучении и руководстве учащимися.

Ключевые слова: психологические качества, психогенные эффекты, нейрофизиологические свойства, психомоторика, эргичность, пластичность.

PRIORITY OF PSYCHOLOGICAL ASPECTS IN WORKING WITH STUDENTS IN MILITARY EDUCATION

Abstract: Students at the military educational institution differ from other students in many aspects. Their approaches to learning are always accompanied by psychological and emotional aspects. Only a teacher who has a good understanding of this process in students can have a good relationship with them and make them interested in their subject. This article presents the experiences and conclusions of many scientists in order to better understand the changing psychological and emotional state of the students of the military educational institution during the study process, and it is mentioned how teachers should approach

the student at what time. In addition, based on their experience, the results of the training sessions with the students were given as a useful guide.

For example, with the help of Rusalov's questionnaire, it is intended to diagnose formal-dynamic characteristics or characteristics of cadets of a military institute. Arithmetic mean value was determined by means of descriptive statistics and an analysis of severity of formal dynamic characteristics of trainees in different fields is developed.

In general, in this scientific article, changing psychological aspects of the individual are studied and it is recommended to use this knowledge in teaching and guiding students.

Key words: psychological qualities, psychogenic effects, neurophysiological properties, psychomotor, ergicity, plasticity.

Kirish. O'qishning birinchi yili harbiy va fuqarolik mutaxassisligi bo'yicha o'qitishning boshlanishi ya'ni kasbiy shakllanishning boshlanishi. E.F.Zerning fikricha, kasbiy shakllanish - bu shaxsning rivojlanishi va o'zini-o'zi rivojlantirishi, kasbiy yo'naltirilgan faoliyat turlarini rivojlantirish va o'z-o'zini loyihalash, kasblar olamida o'z o'rnini aniqlash, o'zini o'zi anglash jarayoni. Professionallik cho'qqilariga erishish uchun o'z potentsialini o'z-o'zidan amalga oshirish, hozirgi rivojlanish darajasi o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilish orqali kasbiy yo'nalish, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy va kasbiy jihatdan muhim fazilatlar va kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan psixofiziologik xususiyatlar darajasini oshirish va tuzilmasini takomillashtirish jarayoni, ijtimoiy vaziyat va rivojlanayotgan etakchi faoliyatdir. Shaxsning kasbiy shakllanishi - bu shaxsni o'zgartirishning progressiv, bosqichma-bosqich jarayoni bo'lib, u kasbiy faoliyatda o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi amalga oshirish orqali kasbiy bilim ko'nikmalarini egallashga asoslangan barqaror fazilatlar va xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirish bilan birga keladi. Aynan birinchi kurs talabalarda ushbu jarayonlar kechadigan davr bo'lib psixolog va o'qituvchilar bu davrda doimiy talabalar bilan muloqotda bo'lib turishlari kerak.

Asosiy qism. Harbiy xizmatchilarning kasbiy muhim psixologik fazilatlarini idrok, e'tibor, fikrlash, xotirani rivojlantirish, reaksiyalarning tezligi va aniqligi, hissiy va irodaviy barqarorlikni o'z ichiga oladi. Psixologik fazilatlarini rivojlantirish zamonaviy jangovar vaziyatlarda shaxsiy tarkibning harbiy-professional bilimlari, ko'nikmalari va jismoniy fazilatlarining maksimal darajada namoyon bo'lishiga yordam beradi. Yuqori hissiy va irodaviy barqarorlikni shakllantirish harbiy xizmatchilarni jasorat, chidamlilik, o'zini tuta bilish, qat'iyatlilik, fidoyilikka tayyorlik, tashabbuskorlik, maqsadlilik va hokazolarga undaydi. (Bodrov V.A.)

Muvaffaqiyat, o'z-o'zini anglash va mukammallikka erishish maqsadlari bilan zamonaviy dunyo nafaqat bizning hayotdagi uslubimizni o'zgartiradi, balki qiyinchiliklarni yengish va natijalarga erishishga tayyorlik darajasini ham belgilaydi. Bunda, albatta, psixologik barqarorlik, ehtiyojlarni ro'yobga chiqarish kabi parametr rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan, harbiy institut nafaqat o'qish, kasbni egallashni o'z ichiga oladi, balki bir qator vakolatlarni rivojlantirish - ijtimoiy va psixologik, shaxsiy o'sishning asosi sifatida kursantlarning barqarorligini shakllantirishga hissa qo'shish va o'z-o'zini anglash, shuningdek, kelajakdagi kasbiy faoliyatning muvaffaqiyati, kelajakdagi harbiylar muvaffaqiyatli ish va professional faoliyat uchun psixologik barqarorlik va mahorat, subyektiv farovonlik holatini saqlab qolishning asosiy shartlardan biridir.

Mehnat psixologiyasi tadqiqotchilari hissiy (psixologik emas) barqarorlikni o'rgandilar. Ular buni qobiliyat deb bilishadi. Kuchli sharoitlarda insonning aqliy va psixomotor jarayonlarning barqarorligini saqlash psixogen ta'sirlaridir. Barqarorlikning ichki shartlariga hissiy reaktivlik, asab tizimi, shuningdek, ijtimoiy faoliyat davomida olingan hissiy xususiyatlar kiradi. O'zaro ta'sir asab tizimining xususiyatlari va barqarorligi Gurevich (1970) va Nebilitsin tomonidan o'rganilgan. (1966). Shunday qilib, Nebilitsin aqliy barqarorlik konsepsiyasini tizimlashtirib, uni uzoq muddatli davrga kiritadi. Ayniqsa harbiylardagi chidamlilik, ruhiy stressga chidamlilik, shovqin immuniteti, past chalg'ituvchanlik, tashqi ta'sirga konstruktiv reaksiya rag'batlantirish, diqqatni o'zgartirish qobiliyati shular jumlasidandir.

Abolin (1987) tashvish muvaffaqiyat, muvaffaqiyatsizliklardan qochish va dunyoqarash uchun, motivatsiya kabi hissiy barqarorlikning psixologik determinantlarini ifodalaydi. Medvedev (1982) psixologik barqarorlik hodisasini sharoitga moslashish kontekstida ko'rib chiqadi.

Ijtimoiy muhitning axborot komponenti, muallif mexanizmlarning uch darajasini belgilab beradi. Birinchi daraja moslashish jarayonlarini biologik tartibga solish bilan belgilanadi; ikkinchi daraja fiziologik reaksiyalarning belgilari va xususiyatlari bilan belgilanadi, uchinchi daraja moslashish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi sabab-oqibat munosabatlariga yo'naltirilgan. Boshqa muallif Basarovga ko'ra psixologik barqarorlik, bir tomondan, insonning ajralmas tizimi sifatida, xulq-atvor, boshqa tomondan - mustaqil komponentlar va darajalarning xarakteristikasi sifatida belgilanishi kerak deb ta'kidlaydi.

Harbiy psixologlar psixologik barqarorlikni ruhiy stressga qarshi turish qobiliyati deb tushunadilar.

Eliseev va Korchemniyning (2000) ma'lumotlariga ko'ra, ozgina aqliy barqarorlik - bu tizimli sifatdir. Mualliflarning fikricha, psixologik barqarorlikning tarkibiy qismlariga harakatchanlik, iroda, intellektual qobiliyatlar, kognitiv jarayonlar, motivatsiya va shaxsiyatning hissiy sohasi kiradi. Xorijiy psixologik tadqiqotlarda psixologik barqarorlik hodisasi insonning chidamliligi va psixologik qarshiligi kontekstda ko'rib chiqiladi, shuning uchun shaxsiyat omilining ahamiyati oshadi.

Amerikalik psixolog Kobasa (1979) psixologik jihatdan barqaror odam hayot va jamiyatning turli xil salbiy ta'siriga qarshi turish uchun, yetarlicha narsaga ega deb hisoblaydi.

Ular uchtasini tasvirlab berdilar, uning ko'rsatkichlari: birinchisi - bu nazorat (o'z hayotini nazorat qilish hissi, o'zini tutish yo'nalishini tanlash qobiliyati, ekstremal holatlar, insonning voqealarni boshqarishi va ularga ta'sir qilishi mumkinligiga ishonish);

ikkinchisi - ishtirok etish faoliyat, boshqalar bilan va o'zi bilan munosabatlar (bu munosabatlar qadriyatlarini, maqsadlarini va hayotni ochib beradi).

Uchinchisi, o'zgarishlarni tahdidan ko'ra qiyinchilik darajasini baholash qobiliyatidir (barqaror odam sinovdan o'tkazadi uning plastiklik uchun kuchi, qo'llab-quvvatlash va energiyani qaerdan topishni biladi). Shu ma'noda o'rganilgan tushuncha ko'proq ommalashgan konsepsiyaga - stressga qarshilik ko'rsatishga yordam beradi. Psixologik barqarorlikni hodisalarga, odamlarga adekvat munosabat sifatida tushunish kerak bo'lgan vaziyatlar. Marishchuk, Platonov va Pletnitskiy (1969) tadqiqotlariga asoslanib, biz quyidagilarni belgilaymiz.

Psixologik barqarorlikning tarkibiy qismlari:

- insonning dunyoqarashini, qiziqishlarini, ehtiyojlarini belgilaydigan, uning asosini tashkil etuvchi faoliyati motivatsiya;

- bilim va kasbiy tajriba, kuchli irodali qobiliyatlar, qiyin vaziyatlarda xatti-harakatlar odamga variantlarni taklif qiladi;

- psixik jarayonlarning ayrim xususiyatlari (diqqat, idrok, fikrlash, xotira, iroda, his-tuyg'ular, hislar, hissiyotlar);

- asab tizimining fiziologik xususiyatlari, psixomotor faollik darajasi va temperament turi.

Shaxs psixologik barqarorlikni namoyon etsa, bu uning tashqi stressga samarali va adekvat javob bera olishini, boshqa odamlarning harakatlariga tanlab munosabatda bo'lishini, o'z munosabati va tamoyillariga muvofiq ko'zlangan xatti-harakatlar modelini amalga oshirishni anglatadi. Psixologik barqarorlikni bunday tushunish mehnat psixologiyasi va harbiy psixologiyadagi ushbu hodisaga katta qiziqish uyg'otadi. Shunday qilib, harbiy institut kursantlarining o'quv va kasbiy faoliyati psixologik barqarorlikning namoyon bo'lishi bilan uzviy bog'liqdir. Bundan tashqari, harbiy institut kursantlarining yoshi shaxsiy o'ziga xoslikni shakllantirish va allaqachon shakllangan psixo-ijtimoiy o'ziga xoslik asosida kattalar muammolarini hal qilishga o'tish bilan tavsiflanadi, yoshlar esa noadekvat, mantiqiy emasligini aniqlaydigan bir qator muammolarga duch kelishadi va tajovuzkor xatti-harakatlar.

Yoshi va jinsi bo'yicha bir xil bo'lgan alohida jamoada kursantlarning o'zaro munosabati ularning xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Har kuni jangovar tayyorgarlik va qurol ishlatish bilan bog'liq vazifalarning bajarilishi psixologik barqarorlik darajasining yana bir muhim ta'sir ko'rsatadigan omilidir. Kursantlar psixologiyasining bu jihati Silvachevning tezislarida (2010) o'rganilgan. Shuning uchun yuqorida qayd etilgan psixologik barqarorlikning tarkibiy qismlari, xususan, asab tizimi va xarakterining xususiyatlari harbiy institut kursantlari o'rtasida psixologik tanlovni, o'quv jarayonini va moslashish jarayonini tashkil qilishda ayniqsa dolzarbdir.

Shaxs psixikasining individual xususiyatlarini, uning faolligini, plastikligini, reaksiya tezligini o'rganish Rusalovning rasmiy-dinamik xususiyatlari kontsepsiyasida aks ettirilgan. Rasmiy-dinamikni aniqlash (yoki psixodinamik) psixikaning xususiyatlari (xislatlari), Rusalov ularni insonning biologik xususiyatlari bilan bog'ladi. Asta-sekin shakllanib, psixikaning formal-dinamik belgilari shaxsning biologik xususiyatlarini birlashtirgan tizimli sifatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Agar birlashma neyrofiziologik xususiyatlarning umumiyliги tufayli yuzaga kelsa, u holda temperament shakllanadi; agar umumlashtirish kognitiv mexanizmlarning dinamik va substansial xususiyatlariga asoslansa, u holda intellekt shakllanadi; motivlarning dinamik va substansional xususiyatlari birlashtirilsa, u holda aqliy tarbiya shakllanadi. Formal-dinamik xususiyatlar shaxsning rivojlanishi bilan birga rivojlanadi va umumlashtiriladi. Ularning biologik yoshi, shuningdek, etakchining o'zgarishi vositachilik qiladi o'qish va mehnat kabi faoliyat turlari. Konsepsiya Rusalovning "Individual psixologik farqlarning biologik asoslari" fundamental maqolasida aks ettirilgan. (Rusalov, 1999).

Rusalov nazariyasiga ko'ra (1999) psixikaning faolligi, plastikligi, tezligi va sezgirligi inson faoliyatining uchta sohasida, ya'ni psixomotor, intellektual va kommunikativ sohalarda namoyon bo'ladi.

Ushbularga asoslanib, shaxsiyatning rasmiy-dinamik xususiyatlari nazariyasi muallifi psixologlarga biologik xususiyatlar bilan belgilanadigan individual xususiyatlarni baholashga imkon beradigan "Shaxsning rasmiy xususiyatlarining so'rovnomasi" ni ishlab chiqdi. Ushbu biologik, formal-dinamik yoki temperamental xususiyatlar yoki xususiyatlar inson xarakterining o'zagini tashkil etuvchi standart xatti-harakatlar modellarida rivojlanadi va namoyon bo'ladi va ular shaxsning tartibga solinishi va moslashish qobiliyatining muhim sharti bo'lib, ular vaziyatda safarbarlik resursini yaratadi.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichi Rusalovning so'rovnomasi (Rusalov, 2000) yordamida harbiy institut kursantlarining rasmiy-dinamik xususiyatlarini yoki xususiyatlarini diagnostika qilishni nazarda tutadi. Arifmetik o'rtacha qiymati tavsiflovchi statistik vositalar yordamida aniqlandi va kursantlarning turli sohalardagi formal-dinamik xususiyatlarining jiddiyligi tahlili ishlab chiqildi. Uning natijalari 1-jadvalda aks ettirilgan.

1-jadval.

Shaxsning rasmiy va dinamik xususiyatlari

Psixomotor (%)		Intellektual (%)		Kommunikativ (%)	
Ergichlik	32.68	Ergichlik	40.5	Ergichlik	32.95
Plastiklik	33.28	Plastiklik	31.35	Plastiklik	29.93
Tezlik	34.38	Tezlik	32.08	Tezlik	31.83
Hissiylik	26.68	Hissiylik	29.08	Hissiylik	25.4

Yuqoridagi diagrammada ko'rib turganingizdek, Ergichlik (o'rtacha = 40,5) yoki harbiy institut kursantlari o'rtasidagi faollik intellektual sohada eng aniq namoyon bo'ladi. Kursantlar yuqori darajadagi o'rganish qobiliyatini, aqliy va miya ishiga qaratilgan, keng ko'lamlil intellektual qiziqishlar bilan bog'liq bo'lgan doimiy ishtiyoqni namoyish etadilar. Kursantlar odatda aqliy ish bo'lib, ular harakatchanlikdan qochishga intilib, imkoni bo'lsa tanlashni afzal ko'radilar.

Kursantlar orasida yuqori plastisiya darajasi (o'rtacha = 33,28) psixomotor sohada eng aniq namoyon bo'ladi. Moslashuvchanlik kursantlar uchun ko'proq xos bo'lib, ular bir jismoniy faoliyatdan ikkinchisiga o'tishlari mumkin bo'lsa, jismoniy faoliyatning turli shakllariga va qo'l mehnatiga moyillik ham diqqatga sazovordir. Biz kursantlarning yetarli darajada chidamliligini taxmin qilishimiz mumkin.

Harbiy-jangovar topshiriqlarni bajarish, barcha kursantlar orasida eng kami kommunikativ plastikada (o'rtacha = 29,93) namoyon bo'ladi, bu ularning yangi ijtimoiy aloqalarga kirishni istamasligi, cheklangan kommunikativ naqshlar to'plami va shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida harakatlarni puxta o'ylashda namoyon bo'ladi. Psixikaning vaqtinchalik xususiyatlari (qiymati = 33,28) ham ko'proq psixomotor sohada yaqqol namoyon bo'ladi, bu jismoniy harakat operatsiyalarini bajarishda, qo'l mehnatida va kursantlarning o'quv modellashtirilgan jangovar topshiriqlarni bajarish zarurati bo'lsa, tezda safarbar qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Harbiy institut kursantlarining emotsionalligi (o'rtacha = 29,08) intellektual sohada yanada yorqinroq. Bu ularning aqliy tarbiya faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklar haqidagi hissiy tuyg'ularida, aqliy o'rganishning haqiqiy natijalariga nisbatan his-tuyg'ularida ifodalanadi. Shuningdek, ular uchun o'qituvchilar o'z ishlarini va muvaffaqiyatlarini qanday baholashlari shu bilan birga, kursantlar aloqaning buzilishi haqida tashvishlanish ehtimoli kamroq shaxslararo o'zaro ta'sir jarayoni muhimdir.

Gender omili, oilasining ijtimoiy holati, o'qishdagi muvaffaqiyati yoki shaxsiy xususiyatlariga ko'ra kursantlarni bir necha guruhlarga bo'lishda ko'proq aniqlikka erishish mumkin. Shunday qilib, sub'ektlarning namunasi kengayishi va ijtimoiy, psixologik va gender xususiyatlariga qarab diversifikatsiya qilinishi kerak.

Dinamikadagi psixologik barqarorlik darajasidagi o'zgarishlarni ham o'rganish qiziq bo'lar edi - birinchi kurs talabalari va bitiruvchilar uchun ham xuddi shundaymi? Shuningdek, bizda "o'ta ogohlantiruvchi", "stress", "frustrator", "emotsional" yoki "mojaro" deb nomlanishi mumkin bo'lgan ba'zi ekstremal sharoitlar psixologik barqarorlik (vazifalar murakkabligi) ta'sirini kuchaytirishi mumkin degan fikrga egamiz. Sinfda berilgan, axborotning haddan tashqari ko'p yuklanishi, vaqtning yetishmasligi, hissiy yoki ijtimoiy izolyatsiya, hodisalarning vaqtinchalik noaniqligi, ortiqcha yuk, xavf va boshqalar). Ammo shuni ta'kidlash kerakki, hozir o'zgaruvchanlik va dinamika haqida gapirish qiyin - bunday tadqiqot uzoq vaqt va asboblarni kombinatsiyasini talab qiladi.

Shu o'rinda yana bir fikrni aytish kerak. Psixologik barqarorlik ma'lum bir vaziyatda murakkabroq "shaxs - atrof-muhit" tizimining eng samarali ishlashini ta'minlaydigan tizim sifatida shaxs mavjudligining maxsus tashkiloti sifatida qaraladi. Bu inson psixologik barqarorlik chegaralarini belgilashi mumkinligini

anglatadi. Psixologik barqarorlik ta'rifining o'zi "inson - atrof-muhit" tizimining uyg'un munosabatlarining mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Aytishimiz mumkinki, shunday kursantlar borki, hali atrof-muhit bilan uyg'un munosabatlar rivojlanmagan, bu test natijalariga ko'ra, ushbu guruh talabalarining 77 foizi turli xil manipulyatsiyalarga moyilligini va 38 foizida moyillik borligini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar bizni bir qator muhim natijalarga olib keldi. Rossiya harbiy instituti kursantlarining ko'rib chiqilgan rasmiy-dinamik shaxsiy xususiyatlari orasida aqliy mehnatga intilish va intellektual qiziqishlarning keng doirasi eng aniq hisoblanadi. Bu xususiyatlar kursantlarning psixologik barqarorligining asosi sifatida baholanishi mumkin. Kursantlarning aksariyati o'zlarining aqliy va tarbiyaviy ishlarining natijalarini baholash haqida qayg'uradilar; ular ruhiy stress holatlarini keskin boshdan kechirmoqda.

Xulosa. Kursantlarning aksariyati aqliy mehnatni jismoniy faoliyatdan afzal ko'radi. Odatda ular ko'plab yangi ijtimoiy aloqalarni o'rnatishga harakat qilmaydilar va harakatlar yo'nalishini sinchkovlik bilan tahlil qilmaydilar: kursantlar kamdan-kam hollarda shaxslararo o'zaro ta'sir jarayonida muvaffaqiyatsizliklar haqida tashvishlanishadi. Ushbu xususiyatlar to'plami kursantlarning yoshi, ularning ijtimoiy mavqeining o'ziga xosligi va bir qator shaxsiy omillar bilan bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Jo'rayeva S.N. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etishda pedagogning kompetentli yondashuvi // Redagogik mahorat. 2019. № 6 B.34-38.
2. Jo'rayeva S.N. Zamonaviy pedagog imijini shakllantirishda psixologik omillar ta'siri // Zamonaviy ta'lim. 2020. № 1. B. 49-55.
3. Jo'rayeva S.N. Pedagog imiji mas'uliyati // Pedagogika. 2021. № 4. B.62-68
4. Jo'rayeva S.N. O'qituvchi imidji mas'uliyati bilan o'zaro aloqadorlik uyg'unligi // «Psixologiya». 2021. № 2. B. 65-69.



Қаришьева Дилафруз Суюновна,
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети,
психология фанлари доктори DSc, профессор в.б.

ПЕДАГОГИК КАСБИЙ ЕТУКЛИК ВА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК КОМПЕТЕНТЛИКНИНГ АЛОҚАДОРЛИГИ

Аннотация: Мазкур илмий мақолада педагогик фаолиятда касбий стресс ва педагогик компетенлик ўртасидаги боғлиқлик таҳлил қилиб берилган. Педагоглардаги касбий компетенликни аниқлаш учун муаллифлик сўровномасидан фойдаланилган ва таҳлиллар келтирилган. Педагогларда касбий стресс ва педагогик компетенликнинг иш стажига боғлиқ жиҳатлари баён этилиши билан бир қаторда психотерапевтик усулларнинг методологик тамойиллари ҳам келтирилган.

Калит сўзлар: касбий стресс, педагог, стрессор, психокоррекция, педагогик стаж, компетенлик, перцепция, коммуникация.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ И СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация: В данной научной статье анализируется взаимосвязь между профессиональным стрессом и педагогической компетентностью в педагогической деятельности.

Для определения профессиональной компетентности у педагогов использована авторская анкета и представлен анализ. Также представлены методологические принципы психотерапевтических методов, описание аспектов, связанных с профессиональным стрессом и педагогической компетентностью педагогов.

Ключевые слова: профессиональный стресс, педагог, стрессор, психокоррекция, стаж, педагогический компетенция, перцепция, коммуникация.

THE RELATIONSHIP OF PEDAGOGICAL PROFESSIONAL MATURITY AND SOCIAL- PSYCHOLOGICAL COMPETENCE

Abstract: This scientific thesis analyzes the relationship between professional tension and pedagogical competence in pedagogical activity.

To determine the professional competence of teachers, the author's questionnaire was used and an analysis was presented. Methodological principles of psychotherapeutic methods, description of aspects related to professional stress and pedagogical competence of teachers are also presented.

Key words: professional stress, pedagogue, stressor, psychocorrection, pedagogical internship, pedagogical competence, perception, communication.

Кириш. Жаҳон таълим ва илмий муассасаларида педагог ходимларнинг профессионал-психологик билимларини ўрганиш, тизимлаштириш орқали психологик мезонларни ишлаб чиқиш, касбий стресс намоён бўлишига психологик детерминантлар таъсирининг ўзига хос жиҳатлари, омиллари ва компонентларини аниқлаш масалаларига қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бу борада стрессга барқарорликни ривожлантириш моделини яратиш ва такомиллаштиришга мўлжалланган махсус моделлаштирилган топшириқлардан иборат психодиагностик методикалар мажмуини ишлаб чиқиш бўйича изланишларни олиб бориш ва педагогларнинг психоэмоционал барқарорлигини таъминловчи механизмларини аниқлаш орқали ривожлантиришга йўналтирилган психотехникаларни яратишга эътибор кўрсатиш зарурати юзага келмоқда.

Республикамизда сўнгги йилларда фуқаролик жамиятининг жадал шаклланиши ва мақсадли ривожланиши, мамлакат ҳаётида турли соҳалар фаолиятининг сифат жиҳатидан янги даражасига эришишида замонавий педагог кадрларни тайёрлаш масалаларининг зарур ҳуқуқий-меъёрий асослари яратилди. «Педагогик таълим сифатини ошириш ва педагог кадрлар тайёрловчи олий

таълим муассасалари фаолиятини янада ривожлантириш» муҳим вазифалар сифатида белгиланиши, педагогнинг касбий компетентли бўлиши билан бирга воқеаларни объектив баҳолаш асосида позитив фикрлай олишни илмий тадқиқ этиш имкониятлари яратилганлигини кўрсатади. Натижада педагогларда касбий стресс намоён бўлишига таъсир этувчи омилларни олдини олиш, таълим сифатини такомиллаштириш юзасидан илмий тадқиқотларни чуқурлаштиришга қаратилган янги назарий ечимларни топиш учун мустаҳкам асос яратилмоқда.

Бугунги кунда педагог ходимларга ҳам бир қатор талаблар қўйилмоқда шулардан бири бу касбий компетентликдир.

Асосий қисм. Компетентлик атамаси латинча «*competo*» сўзидан олинган бўлиб «эришяпман, муносибман» деган маънони англатади ҳамда маълум соҳадан хабардорлигини билишини билдиради. «Компетенция» атамаси фаолиятда мужассамланган ходимнинг компетентлиги, бирор киши яхши хабардор бўлган соҳа ёки масалада инсоннинг амалий лаёқатлилиги ҳамда касбий қобилиятнинг тизимли ривожланганлик даражасини англатади.

Шундай қилиб, компетенция шахснинг юксак сифатий хислати бўлиб, унинг шаклланиши таълимнинг ҳал қилувчи оқибат, натижаси ҳисобланади.

Ҳар бир педагог ижтимоий психологик компетентлик даражасини ривожлантириши лозим. Бунинг учун албатта ўз устида тинимсиз, мунтазам ишлаши лозим. Бизнинг тадқиқот ишимизда айнан педагогларда касбий стресс намоён бўлишига ижтимоий психологик компетентликнинг омиллари эмпирик жиҳатдан таҳлил этилди.

Мазкур тадқиқотимизда педагогларнинг компетентлигини янада мукамалроқ ўрганиш учун муаллифлик сўровномамиздан фойдаландик. Ушбу сўровнома натижалари орқали таълим тизими педагогларида социал-психологик компетентлиги тўртта омил бўйича аниқланди: яъни, «перцепция», «коммуникация», «когнитивлик», «аутопсихик».

1. Перцепция компетентлиги атрофдагиларни шахс сифатида ички дунёсини ўқий олиши ва шахслараро муносабатларда улар билан психо-эмоционал мулоқотда бўлишга, жамоадошлари билан психологик иқлимни ўрнатишга ёрдам беради.

2. Коммуникация компетентлиги-педагогларда ижтимоий-психологик компетентлигини асосини ташкил қилувчи, шахслараро муносабатда муҳим детерменант саналиб, ён-атрофдагиларни ижобий муносабатини шакллантиришга кумак берувчи, ўз фикрини етказа оладиган ва шахслараро мулоқотни тўғри ташкил қилиш қобилиятидир.

3. Когнитивлик компетентлик-бу педагогнинг касбий фаолиятида рўй бериши мумкин бўлган психологик тўсиқларни енгиб ўтиш, фаолияти мобайнида касбий вазифаларни тўғри ҳал қила олиш, вазиятни тўғри баҳолай олиш ва ахборотларни анализ ва синтез қила олиш қобилиятидир.

4. Аутопсихик компетентлик-ўз ҳатти-ҳаракатларини тўғри бошқара олиш, ўз шахсий хусусиятларини адекват баҳолай олиш қобилияти. Бу қобилият касбий фаолият самарадорлигини таъминловчи ва педагогнинг жамиятдаги ролини белгилаб берувчи омилларидан биридир.

Энди бевосита муаллифлик сўровномаси ижтимоий - психологик сўровнома натижалари асосида олинган эмпирик маълумотлар кўриб чиқамиз.

1-жадвал

Педагогларнинг касбий компетентлигини аниқлаш натижалари

№	Шкалалар	Умумўрта таълим педагоглари		ОТМ Педагоглари	
		М	Ўрни	М	Ўрни
1	Перцепция	15,30	2	15,33	4
2	Коммуникация	16,03	1	13,57	3
3	Когнитивлик	12,10	4	16,07	2
4	Аутопсихологик	12,73	3	15,75	1

Изоҳ: М=ўртача қиймат

Мазкур сўровнома орқали биз таълим тизими педагогларида компетентликни аниқлаб олдик. Натижаларни эса қўйидагича изоҳлашга ҳаракат қилдик. Демак, натижаларга кўра, умумўрта таълим педагогларида айнан юқори ўринда педагогларнинг «Коммуникация компетентлиги» (16,03), фахрли иккинчи навбатда «Ижтимоий-перцепция компетентлиги» (15,30) бўлса, учинчи навбатда «Аутопсихологик компетентлиги» (12,73) ва тўртинчи навбатда «Когнитивлик компетентлиги» (12,10) факторлари эканлиги тадқиқот жараёнида аниқланди.

Натижалардан кўриниб турибдики, айнан умумтаълим педагогларида касбий, ижтимоий – психологик компетентликнинг коммуникатив компетентлиги энг асосий компетенлардан бири эканлиги натижаларда акс этган. Зеро, бу бўғин вакиллари ўқувчилар билан биргаликда уларнинг ота-оналари билан ҳам фаол мулоқот олиб боришлари зарур. Чунки ўқувчилик даврида бола вояга етмаган ҳисобланиб, унинг қарор қабул қилишида, тарбиясида, унинг камол топишида ота-онасининг роли жуда катта бўлади.

Иккинчи ўринда мазкур вакил педагогларида перцептив компетентлик эгаллаши бежис эмас, албатта. Бунда ўқувчиларнинг ички дунёсини ўқий олиши ва шахслараро муносабатларда улар билан соғлом, психоэмоционал мулоқотда бўлишга интилади.

Учинчи ўринда эса аутопсихик компетентлик муҳим ҳисобланиб, айнан бу компетенлик педагогларда ўз ҳатти-ҳаракатларини тўғри бошқара олиш, ўз шахсий хусусиятларини адекват баҳолай олиш қобилиятини намоён этади. Бу эса педагог фаолиятида касбий фаолият самарадорлигини таъминловчи компонентардан бири эканлигини изоҳлайди. Айнан ўрта мактаб педагогларида ўз устида ишлаш, ўз позициясига эга бўлишда аутопсихик компетентликнинг ўрни беқиёсдир. Когнитивлик компетенцияси мактаб ўқитувчиларининг касбий фаолиятида рўй бериши мумкин бўлган психологик тўсиқларни енгиб ўтиш, педагогик фаолияти мобайнида ўз вазифаларини тўғри ҳал қила олишда намоён бўлади. Айнан касбий стрессга барқарорлиги ҳам вужудга келишини таъкидлаб ўтишимиз лозим.

Олий таълим педагогларида эса қўйидагича изоҳланди. Фахрли ўрин «Аутопсихик компетентлиги» (15,75), навбатдаги ўрин «Когнитивлик компетентлиги» (16,07) кейинги ўринларда «Коммуникация компетентлиги» (13,57) ҳамда тўртинчи ўрин «перцептия» (15,33) кайд этишди. Ушбу натижалар шуни англатадики, ҳамкасблари эътирофида тарбиячиларнинг масъулиятли, одамларга муносабатини тўғри амалга ошира олиши, ҳамкорликни онгли амалга ошириши касбий сифатларга мансуб эканликларини кўрсатмоқда. Демак, биз олган натижалардан кўриниб турибдики, олий таълим муассасаси педагогларида энг фахрли ўрин аутопсихик компетентликда намоён бўлди. Бу эса педагогларимизнинг касбий фаолият самарадорлигини таъминловчи ва педагогнинг жамиятдаги ролини белгилаб берувчи омилларидан бири эканлигини кўришимиз мумкин. Албатта, олий таълим муассасаларида фаолият юритаётган педагогларимиз жамият олдида турган ўз бурчларини яъни ёш авлодни ҳар томонлама етук кадр этиб тарбиялашда асосий бўғин вакили эканлигини ҳис этибгина қолмасдан ўз фаолияти мобайнида юзага келадиган стрессли вазиятларни енгиб ўтишга ҳаракат қиладилар. Когнитив компетентлик бу бўғин вакилларида иккинчи ўринда намоён бўлди. Демак, педагогларимиз касбий фаолиятида учраб турадиган тўсиқларни енгишида, вазиятни тўғри баҳолай олиш ва ахборотларни анализ ва синтез қила олиш қобилиятига эгаллиги билан ажралиб туради. Зеро, олий таълим педагоглари талабалар аудиторияси билан ишлар экан, улар билан ҳар қандай вазиятда тўғри фаолият юрита олиши, маъмурият билан эса объектив ва субъектив тарзда мулоқот олиб бориши, жамоада ўз ўрнини топиши лозимлиги билан аҳамиятлидир. Педагог фаолиятида касбий стресс вужудга келиши ва уни енгиб ўтишини ҳам айнан шу компетенлик билан изоҳлаймиз.

Коммуникатив компетентлик эса бу соҳа вакилларида айнан мулоқотнинг аҳамиятлилиги билан белгиланади. Педагоглар талабалар билан мулоқотда бўлар экан, айнан коммуникатив алоқаларни ижобий ўрнатиши лозимдир. Педагог талабалар, раҳбарият билан фаолият юритар экан айнан мана шу компетенлик ижобий муносабатини шакллантиришга кумак берувчи, ўз фикрини етказа оладиган ва шахслараро мулоқотни тўғри ташкил қила олишга ёрдам беришини айтиб ўтишимиз лозим.

Перцептив компетенлик эса олий таълим педагогларида тўртинчи ўринда ифодаланди. Талабалар аудиторияси, жамоадошлари билан ўзаро мулоқотнинг аҳамияти педагог фаолияти учун муҳим омилларидан биридир. Демак, бу соҳа педагоглари жамоа билан психологик иқлимни яратишга ҳаракат қилади ва фаолият олиб боради.

Умуман олганда касбий компетентликнинг яъни аутопсихик компетентлик, коммуникатив компетентлик, перцептив компетенлик когнитив компетенлик таълим тизими педагогларида муҳим аҳамият касб этар экан айнан компетенлик, уларнинг педагогик фаолиятида иш самарадорлигини оширишга кўмак беради ҳамда ҳар бир педагог мана шу компетенликларни ўзида мужассам этиши лозимлигини тадқиқотларда ўз исботини топди.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги “Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги № 472-сонли Қарори / <http://lex.uz>.
2. Леонова, А.Б. Основные подходы к изучению профессионального стресса. / А.Б. Леонова. - Издательство «Вестник МГУ». - Серия 14. - Психология, 2000. - № 3.
3. Кроник, А.А. Субъективная картина жизненного пути / А.А. Кроник, Р.А. Ахмеров. - М.: Проспект, 2008.
4. Китаев-Смык Л. А. Психология стресса. М.: Наука, 1983.
5. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.А. Компетентностный подход к модернизации профессионального образования // Высш. образование в России. - 2005.

Қўзиев Ойбек Чўлиевич,
Қарши давлат университети мустақил изланувчиси
oybekquziyev1979@gmail.com

ШАХС ИЖТИМОЙЛАШУВИДА ЛИДЕРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ

Аннотация: Мақолада шахс ижтимоийлашувининг психологик тавсифи, ижтимоийлашув жараёнининг жамиятдаги вазифалари ва гуруҳларда лидерлик масалалари илмий жиҳатдан таҳлил этилган бўлиб, лидерларнинг шаклланиши билан боғлиқ қонуниятлар, уларнинг фаолияти, жамоа аъзоларининг дунёқарашини шакллантиришидаги ўрни ва роли муҳим эканлиги илмий жиҳатдан очиқ берилган.

Калит сўзлар: ижтимоий психология, имитация, ижтимоийлашув, лидер, пессимизм, индивидуализация, жамоавийлик, норасмий лидер, гуруҳ жамоаси, лидерлар таъсири.

РОЛЬ ЛИДЕРСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК В ЛИЧНОСТНОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В статье научно анализируются психологическая характеристика социализации личности, задачи процесса социализации в обществе, вопросы лидерства в группах, а также закономерности, связанные с формированием лидеров, их деятельностью, их местом и роль в формировании мировоззрения членов коллектива.

Ключевые слова: социальная психология, подражание, социализация, лидер, пессимизм, индивидуализация, коллективизм, неформальный лидер, групповой коллектив, влияние лидеров.

ROLE OF LEADERSHIP CHARACTERISTICS IN PERSONAL SOCIALIZATION

Abstract: In the article, the psychological description of the socialization of the individual, the tasks of the socialization process in the society, and the issues of leadership in groups are scientifically analyzed, and the laws related to the formation of leaders, their activities, their place and role in the formation of the worldview of the team members are scientifically revealed.

Key words: social psychology, imitation, socialization, leader, pessimism individualization, collectivism, informal leader, group team, influence of leaders.

Кириш. Шахс, унинг дунёни билиши, ўзини ва атрофидаги инсоний муносабатларда иштирок этиши, тушуниши ва ўзаро муносабатлар жараёнида ўзидаги такрорланмас индивидуаллиқни намён қилиши ҳамда ушбу жараёнларнинг ёшга ва жинсга боғлиқ айрим жиҳатларини таҳлил қилиш бизга умумий равишда шахс- жамиятда яшайдиган ижтимоий мавжудотдир, деган хулосани қайтаришга имкон беради.

Ҳозирги замон психологиясининг илмий талқинига кўра, шахс ижтимоий мавжудот, ижтимоий муносабатлар махсули, ижтимоий тараққиётнинг фаол қатнашчиси. Индивид сифатида ёруғ дунёга келган одам ижтимоий муҳит таъсирида кейинчалик шахсга айланади, шунинг учун бу жараён ижтимоий-тарихий хусусиятга эгадир.

Асосий қисм. Илк болалик чоғиданоқ индивид муайян ижтимоий муносабатлар тизими доирасига тортилади, бундай шахслараро муносабатлар тарзи тарихий шаклланган бўлиб, у ёшлигиданоқ шу тайёр (аждодлар яратган ва сайқаллашиб келаётган) ижтимоий муносабат, муомала, мулоқот тизими билан таниша боради. Ижтимоий қуршов (оила аъзолари, маҳалла аҳли, жамоатчилик, ишлаб чиқариш жамоаси), ижтимоий гуруҳ ичида (кишиларнинг оғушида, уларнинг қалб тўрида) одамнинг бундан кейинги ривожланиши уни шахс сифатида шакллантирувчи, унинг онги ва иродасининг хусусиятларига мутлақо боғлиқ бўлмаган ҳар хил хусусиятли муносабатлар мажмуасини вужудга келтиради.

Ижтимоийлашув жамиятда учта асосий вазифани бажаради:

1) индивиднинг жамиятга, шунингдек турли ижтимоий бирлашмаларга интеграциялашувини маданият элементлари, амалдаги меъёрлар ва қадриятларни ўзлаштириш орқали таъминлайди;

2) инсонларнинг улар томонидан ижтимоий ролларни қабул қилишлари натижасида ўзаро таъсирга киришишларига замин яратади;

3) жамиятни сақлайди, маданиятни эътиқодлар ва намунавий хулқ-атвор шакллари намоёни килиш орқали авлоддан авлодга узатади.

Ч.Кули фикрича, шахс ижтимоийлашувнинг куйидаги босқичларидан ўтади:

- 1) имитация– болалар томонидан катталар хулқ-атворига тақлид килиш;
- 2) ўйин– болалар хулқ-атвори аҳамиятли ролларни ижро этиш сифатида намоён бўлади;
- 3) гуруҳий ўйинлар- роль ундан кутилаётган хулқ-атвор сифатида.

Гуруҳий даражадаги асосий белгилорчи омиллар сифатида ижтимоий стратификация тушунчалари қатнашади: мавқе (статус), роль, нуфуз, лавозим ва х.к.

Гуруҳ ичидаги – шахслараро даражадаги ижтимоийлашув омиллари миллий хусусиятлар, гуруҳ аъзолари ўртасидаги ишчи ва шахслар ўртасидаги муносабатлар, умумий манфаатлар асосидаги гуруҳ аъзолари жипслашувидан иборат.

Шахслилик даражасида гуруҳ аъзоларининг шахс сифатидаги характеристикаси уларнинг ўзини ўзи баҳолашлари, ўзаро боғлиқлик таҳлили, ўзини ўзи тасдиқлашга бўлган эҳтиёж билан намоён бўлади. Мазкур даражада жамиятдаги ижтимоий низолар хавфини камайтирувчи омиллар шахсий масъулиятлилиқ, ўзини гуруҳ аъзоси сифатида англаш, ҳаракатлар устидан шахсий назоратдир.

Ижтимоийлашув натижасида шахснинг турли типлари, ижтимоий характерлар, турли-туман эҳтиёжлар, қадриятлар йўналишлари шаклланади.

Ижтимоийлашув жараёни анъанавий равишда институционал берилган деб қаралади ва жамиятнинг ижтимоий тузилмасидан келиб чиққан ҳолда аниқланади.

Ижтимоийлашув– гўдақлик даврида бошланувчи ва қариллик даврида яқунланувчи ижтимоий роллар ва маданий нормаларни ўзлаштириш жараёнидир. [1; 98б].

Бирламчи ижтимоийлашув авваломбор оилада болаларни парваришлаш, тарбиялаш ва ўқитиш жараёнларини ўз ичига олади. Бирламчи ижтимоийлашувнинг мақсади болаларда бошқа одамларга ишонч, кулоқ солиш, уларга яхшилиқ қилишда намоён бўлувчи мойилликни шакллантириш. Бирламчи ижтимоийлашувнинг самарали усули ота-оналар хулқ атвори дир, чунки улар турли вазиятларда ўзини қандай тутиш намунаси сифатида гавдаланадилар. В.М.Розин таъкидлашича, исм қўйиш, азон айтириш маросимлари, тил, ўзини тутишга ўргатиш, тана жазоланиши, сўзли йўриқнома, ўғит, насихатлар, огоҳлантиришлар, рағбатлантириш тизими ижтимоийлашувнинг ижтимоий маданий муолажаларига мансубдир.

А.В.Брушлинский фикрича, инсон бу аввало ижтимоий ривожланиш субъекти бўлиб, ўзини ўзи ривожлантиришнинг фаол субъекти ҳамдир. Индивид томонидан фақатгина ижтимоий тажрибанинг ўзлаштирилиши ҳақида гапириш эмас, балки шахсни ижтимоийлашувнинг фаол субъекти сифатида қараш муҳимдир. Шу нуқтаи назардан қараганда индивид аввалдан бошлаб ижтимоийлик хусусиятига эга бўлиб, фақатгина ижтимоийликдан индивидуалликка томон эмас, балки турли йўналишларда ривожланишга қодирдир.

Ижтимоийлашув энг аввало одамлар ўртасидаги мулоқот ва ҳамкорликда турли фаолиятни амалга ошириш жараёнини назарда тутлади. Ташқаридан шахсга кўрсатилаётган таъсир оддий, механик тарзда ўзлаштирилмай, у ҳар бир шахснинг ички руҳияти, дунёни акс эттириш хусусиятлари нуқтаи назаридан турлича субъектив тарзда идрок этилади. Шунинг учун ҳам бир хил ижтимоий муҳит ва бир хил таъсирлар одамлар томонидан турлича ҳаракатларни келтириб чиқаради. Масалан, 10-15 та ўқувчидан иборат академик лицей ўқувчиларини олайлик. Уларнинг билими, илми идрок қилишлари, улардан ота-оналарининг кутишлари, ўқитувчиларнинг бераётган дарслари ва унда етказилаётган маълумотлар, манбалар ва бошқа қатор омиллар бир хилдай. Лекин барибир ана шу 15 ўқувчининг ҳар бири шу таъсирларни ўзича, ўзига хос тарзда қабул қилади ва бу уларнинг ишдаги ютуқлари, ўқув кўрсаткичлари ва иқтидоридан акс этади. Бу ўша биз юқорида таъкидлаган ижтимоийлашув ва индивидуализация жараёнларининг ўзаро боғлиқ ва ўзаро қарама-қарши жараёнлар эканлигидан дарак беради.

Ижтимоийлашув жараёнларининг рўй берадиган шарт-шароитларини ижтимоий институтлар деб атаймиз. Бундай институтларга оиладан бошлаб, маҳалла, расмий давлат муассасалари (боғча, мактаб, махсус таълим ўчоқлари, олийгоҳлар, меҳнат жамоалари) ҳамда норасмий уюшмалар, нодавлат ташкилотлари қиради.

Бу институтлар орасида бизнинг шароитимизда оила ва маҳалланинг роли ўзига хосдир. Инсондаги дастлабки ижтимоий тажриба ва ижтимоий хулқ элементлари айнан оилада, оилавий муносабатлар тизимида шаклланади. Шунинг учун ҳам ҳалқимизда «Қуш уясида кўрганни қилади» деган мақол бор. Яъни, шахс сифатларининг дастлабки қолиплари оилада олинади ва бу қолип

жамиятдаги бошқа гуруҳлар таъсирида сайқал топиб, такомиллашиб боради. Бизнинг ўзбекчилик шароитимизда оила билан бир қаторда маҳалла ҳам муҳим тарбияловчи - ижтимоийлаштирувчи роль ўйнайди. Шунинг учун бўлса керак, баъзан одамнинг қайси маҳалладан эканлигини суриштириб, кейин хулоса чиқаришади, яъни маҳалла билан маҳалланинг ҳам фарқи бўлиб, бу фарқ одамлар психологиясида ўз аксини топади.

Ижтимоийлашув жараёни етуклик даврида ҳам тугалланмайди. Ўзининг кечиш характерида кўра шахс ижтимоийлашуви “ноаниқ тугалланиш” жараёнига киради, гарчи мақсади маълум бўлса ҳам. Бу жараён инсон онтогенези давомида узилмайди. Шундан хулоса қилиш мумкинки, ижтимоийлашув ҳеч қачон якунланмайди, лекин “ҳеч қачон тўлиқ бўлмайди” (П.Бергер, Т.Лукман, 1995).

А.А.Реан ва Я.Л.Коломинский фикрича кимдир бунда пессимизм учун асосни кўриши, яъни инсоннинг мукамалликка эришишига иккиланиши мумкин. Бироқ бунда аксинча ижобий тенденциялар кўпроқ мужассамлашган чунки айтиб ўтилган ривожланиш тугал ва тўлиқ эмаслигини шахснинг ўзини ўзи тўлиқ очиб беришининг чегараланмаганлиги исботи деб қараш мумкин. Замонавий шароитларда ижтимоийлашув жараёни одамларнинг маънавий қиёфаси, эътиқод ва хатти-ҳаркатларига янги талаблар қўймоқда. Биринчидан бу шу нарса билан тақозо этиладики, ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маънавий ўзгаришлар юқори маълумотли юқори малакали одамларга хосдир. Фақатгина мўлжалланган қайта ўзгаришларнинг зарурлигига чуқур ишонган одамгина тарихий жараённинг фаол, ҳаракатчан кучи бўла олади.

Иккинчидан, шахс ижтимоийлашувининг ҳаддан зиёд мураккаблиги уни амалга ошириш воситаларини доимий такомиллаштирилишини талаб этади. Улар янгиланишга, кундалик изланишга, ижтимоий муаммолар, шунингдек шахсий муаммоларни ҳал қилишда инсон ўрни ва масъулиятини конкретлаштириш ва тасдиқлашга муҳтож. Учинчидан шахс ижтимоийлашуви барча ижтимоий муаммоларнинг ажралмас қисмидир. Ҳаёт шуни қатъий исботлайдики, бу ўта ўзаро алоқадор жараён бўлиб, объектив ўзгаришлар шунингдек одамлар онги ва хулқ-атворидаги ўзгаришлар ҳисобга олинмаса у бир хил даражада кўп маротаба ижтимоий жараённи тезлаштириши (ёки секинлаштириши) мумкин. Тўртинчидан, шахс ижтимоийлашуви одамлар онги ва хулқ-атворидаги салбий ҳолатларни енгишни назарда тутаяди. Ҳали ҳануз шахс социологияси куйидаги саволларга жавоб бера олмайди: нима учун бир хил йўлдан юра бошлаган одамлар безори, ўғри ва умуман девиант хулқ-атвор эгаси бўлиб қолади? Нима учун одамларнинг бошқа қисми бюрократларга, лаганбардорларга, хушомадгўй, карьеристларга айланади? Ва ниҳоят шахс ижтимоийлашуви дунёвий ва миллий маданият таъсири остида рўй беради. Гарчи умуминсоний мотивлар ижтимоий онг ва хулқ-атвор туилмасида етакчи бўлса-да, миллий хусусиятлар таъсири кўпинча инсон қиёфасини белгилаб берувчи омил бўлиб қолади. Ижтимоийлашув жараёнида миллийлик феномени гарчи ижтимоий психология олдида унинг умуминсоний кадрятлар билан уйғунлашувининг янги захираларини излаш масаласини қўйса-да, ҳар бир халқ, миллат ва элат, унинг ҳар бир вакили ижтимоий ҳаётида ижтимоий-психологик механизмларни чуқур тушуниш заруратида олиб келди.

Шахс ижтимоийлашуви тадқиқот объекти сифатида инсон аҳамиятли сифатларининг бир нечта эмас, балки чамбарчас бирлик ва ўзаро таъсирдаги бутун комплексини назарда тутаяди. У онг ва хулқ-атворнинг бутун йиғиндисини қамраб олади: билимлар, эътиқодлар, меҳнатсеварлик, маданият, тарбияланганлик, гўзаллик қонуниятлари асосида яшаш ва х.к. Одамлар онги ва хулқидagi стереотипларни ва атавизмларни енгиш муҳим аҳамиятга эгадир. Шу билан бирга одам қандай соҳада ҳаракат қилмасин, унга фаолият ҳамроҳ бўлади. Бундан ташқари инсон жамият томонидан буюрилган нарсаларни пассив қайтармайди. У ўз ижодий кучларини намоён қилиш ва ўзини ўраб турган ҳодисаларга таъсир кўрсатиш имкониятига эга. Маънавий компонент инсон ижтимоийлашувида белгиловчи аҳамиятга эга.

Инсоннинг биоижтимоий табиатини тан олган ҳолда шуни таъкидлаш мумкинки, асосий детерминант – ташқи ижтимоий муҳит, ташқи ҳолатлардир. Бироқ ёш ривожланишига етилишнинг ички жараёнлари маълум маънода таъсир этар экан, бу нарса фақат организмнинг эмас, балки психика ва индивид ривожланиш босқичлари, ёш даврларининг босқичма-босқич алмашинув қонуниятларига, шу замида ҳар бир ёш босқичида психик ривожланиш хусусиятлари қонуниятларига ўз таъсирини ўтказмасдан қолмайди. [7; 32 б].

Реалистик баҳо шахсни ўраб турганлар - ота-она, яқин қариндошлар, педагог ва мураббийлар, кўни-қўшни ва яқинларнинг ўринли ва асосли баҳолари, реал самимий муносабатлари маҳсули бўлиб, шахс ушбу муносабатларни илк ёшлигиданоқ холис қабул қилишга, ўз вақтида керак бўлса тўғрилашга ўргатилган бўлади. Бунда шахс учун эталон, ибратли ҳисобланган инсонлар гуруҳи -

референт гуруҳнинг роли катта бўлади. Чунки биз кундалик ҳаётда ҳамманинг фикри ва баҳосига кулоқ солавермаймиз, биз учун шундай инсонлар мавжудки, уларнинг ҳаттоки, оддийгина танбехлари, маслаҳатлари, ҳаттоки, мактаб туриб берган танбехлари ҳам катта аҳамиятга эга. Бундай референт гуруҳ реал мавжуд бўлиши (масалан, ота-она, ўқитувчи, устоз, яқин дўстлар), ёки норасмий (китоб қахрамонлари, севимли актёрлар, идеал) бўлиши мумкин. Шунинг учун ёшлар тарбиясида ёки реал жамоадаги одамларга мақсадга мувофиқ таъсир ёки таълим кўрсатиш керак бўлса, уларнинг эталон, референт гуруҳини аниқлаш катта тарбиявий аҳамиятга эга бўлади.

Шундай қилиб, ўз-ўзига баҳо соф ижтимоий ҳодиса бўлиб, унинг мазмуни ва моҳияти шахсни ўраб турган жамият нормаларига, шу жамиятда қабул қилинган ва эъзозланадиган қадриятларга боғлиқ бўлади. Кенг маънодаги йирик ижтимоий жамоалар эталон ролини ўйнаши оқибатида шаклланадиган ўз-ўзига баҳо бериш, ўз-ўзини баҳолашнинг юксак даражаси ҳисобланади.

Лидер ва гуруҳ аъзолари ўзаро муносабатларига психолог ва педагоглардан М.И.Рожков, Б.З.Вульф, С.Е.Хозе, В.Д.Иванов ва бошқалар ўз тадқиқотларини бағишлаганлар.

Маълумки, гуруҳ бир ёки бир неча умумий белгилар асосида ажратилган одамлар йиғиндиси. Гуруҳ ривожланишининг энг юқори даражаси жамоадир. Жамоа – юқори ривожланган одамлар гуруҳи, ундаги муносабатлар ахлоқнинг ижобий нормалари асосига қурилади. Шундай қонуният кўзга ташланганки, гуруҳ ўз ривожланиш даражасига кўра жамоага қанчалик яқин турса у шахс ўзинининг энг яхши томонларини намоён қилиши ва ундаги салбий томонларни тўхтатиш учун маъқул шароитларни яратди. Аксинча гуруҳ ўз ривожланиш даражасига кўра жамоадан қанчалик узоқроқ турса, шахслараро муносабатлар тизимида шахснинг энг салбий томонларини намоён қилиши ва бир вақтда энг яхши интилишларини тормозланиши юз бериши мумкин.

Ҳар бир гуруҳ ичидан лидерлар (етакчи) етилиб чиқади. Раҳбар юқоридан буйруқ асосида тасдиқланадиган администратор бўлса, лидерлар норасмий бошлиқ ҳисобланади. Гуруҳ аъзолари мана шу норасмий лидернинг айтганини қилади. Ундан барча ишларга раҳбарлик қилишини, маслаҳат беришини кутади. Шунинг учун жамоанинг тайинланган раҳбари жамоа ичидан етилиб чиққан лидер билан ҳамкорликда иш олиб бориши лозим. Норасмий лидерлар ишда бошқа, балиқ овлагани борганда бошқа, ташкилий ишларда бошқа бўлиши мумкин. Демак, битта гуруҳ ичида бир неча норасмий лидерлар бўлиши мумкин. Раҳбар мана шу лидерлар орқали гуруҳ аъзоларига таъсир қилиши осон бўлади. Лидер билан раҳбар доимо биргаликда ҳаракат қилишлари яхши натижаларга олиб келади. Лекин айрим ҳолларда лидер билан раҳбарнинг ҳамкорлиги қарама-қарши фикрга айланиши мумкин. Улар узоқ вақт дўстона муносабатни амалга ошира олмайдилар. Чунки раҳбар доим ҳам гуруҳнинг талабини бажаравермайди. Ёки аксинча, раҳбарнинг талабини ҳар доим гуруҳ аъзолари бажаравермайди. Шунда зиддиятлар келиб чиқади. Бу низони бартараф қилиш учун яна лидер ҳаракат қилиши лозим. У раҳбар билан гуруҳ аъзоларини келиштириши керак. Айрим ҳолларда эса лидер маъмурий ишларга аралашиб кетиши, раҳбар гуруҳ аъзоларининг ички ишларига аралашиб кетиши мумкин. Норасмий лидер гуруҳ аъзоларининг қизиқишларини ҳимоя қилса, раҳбар ташкилотнинг манфаатини ҳимоя қилади. Ташкилот манфаати билан аъзолар манфаати ҳар доим ҳам тўғри келмайдими. Ташкилий-технологик ва иқтисодий тизимлар бир-бирига доим ҳам тўғри келмайдими. Жамоа аъзолари биргаликда бажараётган ишларини ўзларининг шахсий ишларидек бажарсалар кейин жамоанинг иши яхши самара беради. Жамоавийлик (коллективизм) тушунчаси ўз ичига жамоа аъзолари ҳақида доимий ғамхўрлик қилиш, тарқоқликка, жамоанинг бузилишига олиб келувчи омилларга қарши туришга интилишни ўз ичига олади.

Дарҳақиқат, лидерлар фаолияти ва унинг жамоага таъсирини ўрганиш, салбий жиҳатларини бартараф этишнинг тизимли ташкил этиш, энг аввало ўзига хос бўлган ижтимоий-психологик имкониятларини ҳар томонлама чуқур таҳлил қила олишга боғлиқдир. Шу нуқтаи назардан, шахслараро муносабатларда норасмий лидерларнинг таъсирини дахлдор бўлган психологик омилларни ўрганилиши ҳамда мазкур йўналишда тегишли эмпирик маълумотлар йиғиш масаласи тадқиқотимизнинг асосий мақсади қилиб белгиланган. Ушбу муаммога муайян даражада илмий-амалий жиҳатдан ойдинликлар киритиш орқали респондентлардан олинган эмпирик маълумотлар таҳлилини баён этиш кўзда тутилган. Чунки, норасмий лидерларнинг талабалар жамоаси мисолида бевосита таъсирини ўрганиш, таҳлил қилиш ва тегишли илмий ҳамда тавсиявий характердаги хулосалар чиқариш билан боғлиқдир.

Шуни инобатга олиб, талабалар орасидаги норасмий лидерлар таъсирини ўрганиш тадқиқотнинг объекти сифатида белгиланди. Тадқиқотимизда Қарши давлат университети ва Самарқанд давлат университетларидан таълим жараёнига салбий таъсири мавжуд норасмий лидерлар

танланди ва жами 311 нафар синалувчилар иштирок этди. Жумладан, Қарши давлат университетидан 201 нафар, Самарқанд давлат университетидан 110 нафар синалувчи талабалар тажриба тадқиқотларида қатнашдилар.

Синалувчиларнинг лидерлик сифати қай даражада эканлигини ва инсоннинг лидер бўлиш қобилиятини баҳолаш жабҳаларини аниқлаш имконини ўрганиш мақсадида Е.Жариков, Е.Крушельницкийнинг “Лидерлик қобилияти диагностикаси” методикасини қўлладик. Тадқиқот давомида қуйидаги натижаларни қўлга киритдик.

1-жадвал.

Лидерлик қобилиятини баҳолаш даражаси	Синалувчилар	n1 n2	Ўртача	Стандарт оғиш	t	p
Лидерлик қобилияти кучли даражада	ҚарДУ	201	40,10	3,726	1,105	p≤0,01
	СамДУ	110	39,73	3,050		
Лидерлик қобилияти ўрта даражада	ҚарДУ	201	32,02	2,823	1,305	p≤0,01
	СамДУ	110	31,95	2,079		
Лидерлик қобилияти кучсиз даражада	ҚарДУ	201	25,0	2,159	1,057	p≤0,01
	СамДУ	110	24,98	1,021		

Изоҳ: (* p≤0,05, ** p≤0,01, ***p≤0,001).

Тадқиқот натижаларини таҳлил қилиш вақтида респондентлар ўртасида биров сезиларли фарқлар (p≤0,01) мавжудлиги тадқиқотда ўз исботини топди. Олинган натижаларнинг таҳлили шуни кўрсатдики, иккала синалувчилар объектида ҳам лидерликка интилишнинг ривожланиш кўрсаткичлари меъёрида эканлигини кўришимиз мумкин. Умуман олганда иккала таълим ташкилотларидаги синалувчилар орасида расмий ва норасмий лидерлар мавжудлиги тадқиқотда ўз исботини топди. Университет раҳбарлари, факультет деканлари, психологлар ва тьюторлар билан олиб борилган ҳамкорликдаги тадқиқотлар шуни кўрсатдики, бугунги кун замонавий талабалари орасида норасмий лидерларнинг таълим жараёнига салбий таъсири сезилаётганлиги изланишларимиз давомида исботланди.

Жамоа маълум қонунларга кўра ривожланади. Жамоа шаклидан қатъий назар қонунлар ўзгармас ва амалда ҳар бир жамоа маълум босқичларни босиб ўтади. Ҳар бир босқичда гуруҳ ичидаги ўзаро муносабатлар турлича қурилади – босқичлардан ўша кўрсаткичларидан яна бири шу. Жамоа ривожланишининг қуйидаги босқичларини тафовутлаш мумкин.

1 - босқич: одамларнинг бирлашиши.

2 – босқич: лидерлар ва аутсайдерларнинг пайдо бўлиши.

3- босқич: низоларнинг юзага келиши.

4 - босқич: низоларни ҳал қилиш ва жисплашган жамоага бирлашиш.

Лидерсиз ҳеч бир гуруҳ, ҳеч бир жамоа мавжуд бўла олмайди. Лидер – бу гуруҳга нисбатан унинг кўзгуси сифатида қараладиган одамдир. Фақатгина ўзида айнан мазкур гуруҳ маъқуллайдиган хусусиятларга эга бўлган одамгина лидер бўла олади [4; 80 б].

Ижтимоий психология бўйича тадқиқотларда кишилар жамоаларида “лидер” тушунчасини характерлаш учун қуйидаги белгилар ажратиб кўрсатилади: биринчи белги гуруҳга мансублик – лидер айнан гуруҳ аъзоси, у “гуруҳ ичида”, гуруҳ юқорисида эмас. Иккинчи белги лидернинг гуруҳдаги ўрни – у обрўга эга ва унда юқори мавқе мавжуд. Учинчи белги – кадрятлар йўналишининг мос келиши: лидерлар ва гуруҳнинг нормалари ҳамда кадрятлар йўналиши мос келади, лидер гуруҳ манфаатларини тўлиқ ақс эттиради. Тўртинчи белги – лидернинг гуруҳга таъсири – гуруҳнинг бошқа аъзолари хулқига ва онгига таъсир кўрсатиш, гуруҳни ташкил этиш ва бошқариш. Бешинчи белги – гуруҳда лидерликка чиқиш манбаи.

Хулоса. Хуллас, жамоада лидерлик фаолиятини аниқлаш ва уларнинг таъсирини мувофиқлаштириш муаммоси ечимини кутаётган муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Лидерликнинг психологик тавсифи, унинг назарий асоси, тузилиши ва мазмуни, лидерларнинг

турларини бирлаштириш йўли билан уларнинг моҳиятини очиб бериш имконини берувчи психологик тавсифи энг юкори аҳамиятга эга масала ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: МГУ, 1980.
2. Азаров Ю.П. Искусство воспитывать//М., Просвещение, 1985.
3. Ананьев Б. Г. О проблемах современного человекознания// М., Наука. 1977.
4. Джамгаров Т.Т., Румянцева В.И. Лидерство в команде. – М.: Физкультура и спорт, 1983.
5. Жабборов А.М. Миллий психологиянинг шаклланиш манбалари. Қарши “Насаф” 2017.–72 б
6. Ильин Е.П. Оптимальные характеристики работоспособности человека/Автореф. докт. дисс. Л. - 1968.
7. Каримова В.М. Ижтимоий психология. Т. 2008 й.



Мираширова Наргиза Анваровна,
Ўзбекистон Республикаси Қуролли Қучлари Академияси
Ҳарбий психология ва педагогика кафедраси психология доценти,
ф.ф.д. (PhD)

ТАЛАБА-ПСИХОЛОГЛАР ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ПОРТРЕТИНИ ЎРГАНИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ

Аннотация: Мақолада талаба-психологларнинг ижтимоий-психологик портретини тадқиқ этишига бағишланган илмий тадқиқот ишларининг таҳлилида шахс ҳақидаги умумий тасаввурлар, шахс тузилиши, шахс камолоти, шахс динамикаси, шахснинг жамиятдаги ҳолати, шахснинг ички олами ва шахснинг маънавий дунёси тарзда ифодалаган илмий изланиш ёритилган. Шу билан бирга талаба – психологларнинг психологик портрети тузилишида қадриятларнинг аҳамияти ўрганиб чиқилганлиги ҳақидаги эмпирик таҳлил баён этилган.

Калит сўзлар: шахс камолоти, шахс динамикаси, ижтимоий-психологик портрет, моддий-маънавий эҳтиёжлар, дунёқараиш, ҳаётий мақсадлар, касбий танлов, касбий тайёргарлик.

РОЛЬ ЦЕННОСТЕЙ В ИЗУЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПОРТРЕТА СТУДЕНТОВ-ПСИХОЛОГОВ

Аннотация: В статье анализируется социально-психологический портрет студентов-психологов при анализе общих исследований личности, структуры личности, развития личности, динамики личности, личности в обществе, внутреннего мира личности и духовного мира личности. При этом представлен эмпирический анализ значимости ценностей в структуре психологического портрета студентов-психологов.

Ключевые слова: зрелость личности, динамика личности, социально-психологический портрет, материальные и духовные потребности, мировоззрение, жизненные цели, выбор профессии, профессиональная подготовка.

THE ROLE OF VALUES IN STUDYING THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL PORTRAIT OF PSYCHOLOGICAL STUDENTS

Abstract: The article analyzes the socio-psychological portrait of psychology students in the analysis of general studies of personality, personality structure, personality development, personality dynamics, personality in society, the inner world of the personality and the spiritual world of the personality. At the same time, an empirical analysis of the significance of values in the structure of the psychological portrait of psychology students is presented.

Keywords: personality maturity, personality dynamics, socio-psychological portrait, material and spiritual needs, worldview, life goals, profession choice, professional training.

Кириш. Жаҳон таълим ва тадқиқот масканларида психологик маданият, шахсий-касбий психологик сифатлар, ҳар хил соҳа мутахассисларининг касбий қиёфаси ҳамда касбий камолоти орқали психологик портретлари, мутахассисларнинг касбий ва шахсий камолотини таъминловчи психологик омиллари, мутахассиснинг ўзини-ўзи англаши ва ўзини-ўзи тушуниши, касбий қобилиятлари, индивидуал-типологик хусусиятларига доир илмий-тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Бу борада ижтимоий-психолог портрет психолог касбий камолотини белгиловчи омил эканлиги, хусусан, касбий деформация, мутахассисларнинг касбий сўниши, психологларнинг касбий тайёргарлик босқичи учун зарур сифатлари масаласи кам ўрганилган соҳа сифатида тадқиқ этиш заруратини юзага келдтиради. Бу борада психологлар фаолиятини тизимлаштириш ва тартибга солиш учун зарурати юзага келмоқда. Меҳнатнинг касбий қадриятларини шакллантириш динамикасини белгиловчи омиллар ва шарт-шароитларни ҳисобга олган ҳолда, психолог мутахассиснинг фаолиятини йўлга қўйишда иккита асосий гуруҳга: 1-ижтимоий-психологик

омиллар; 2-касбий омиллар¹ ажратиш муҳим эканлиги белгиланган бўлиб, халқаро миқёсда психологлар фаолиятига кўйиладиган талаблар мутахассиснинг қиёфаси ва касбий камолотини муттасил ўрганиб бориш масаласини ҳануз долзарблаштиради.

Асосий қисм. Жаҳон психологиясида шахснинг ижтимоий-психологик талқин этишнинг илк манбаи унинг ижтимоийлашуви билан боғлиқдир. Шунга кўра шахс ижтимоийлашуви деганда унга таъсир кўрсатувчи омиллар тушунилади [3].

Ижтимоийлашув - шахсни ижтимоий муносабатлар ва муносабатлар тизимига киритиш жараёни бўлиб, натижада у жамиятнинг тўлақонли аъзосига айланади. Аслида, бу шахсни шакллантириш жараёни, чунки ижтимоийлашув даврида инсон шахсга айланади. Бу борада психоанализ асосчиси З.Фрейднинг ўзига хос муносабатлари мавжуд. У ижтимоийлашувни инсоннинг ижтимоий ўзаро муносабатларда мажбурий иштироки ва унинг ижтимоий қонунларига бўйсунуши деб ҳисоблаган [9].

Л.Куликов рус психологиясида шахс муаммоларини таҳлил этиш асосида унинг ўрганиш тузилишини куйидаги муносабатлар тартибида изохлашга эришди. Унинг талқинича шахс ҳақидаги умумий тасаввурлар, шахс тузилиши, шахс камолоти, шахс динамикаси, шахснинг жамиятдаги ҳолати, шахснинг ички олами ва шахснинг маънавий дунёси тарзда ифодалangan. Психологияда психологик портрет ёки ижтимоий-психологик портретнинг тузиш заруратини мавжуд илмий манбалардаги шахс рухий олами қирраларига доир илмий таянч манбаларга асосланилади [8].

И.С.Кон ижтимоийлашувни ижтимоий тажриба, ижтимоий роллар ва маданиятнинг муайян тизими томонидан ассимиляция қилиш сифатида белгилайди ва бу жараёнда муайян шахс шаклланади [4].

Талаба-психологларнинг ижтимоий-психологик портрети тузилишининг асосий компоненти сифатида кадрятлар тизими тадқиқ этишда шахсий ва ҳаётий позицияларини ўрганишга эътибор қаратилди. Кадрятлар шахснинг мақсади, идеаллари ва ҳаётда тутган ўрни унинг касбий камолотида муҳим ўрин тутади.

Талаба-психологларнинг ижтимоий-психологик портрети тузилмасининг асосий компоненти сифатида кадрятлар тизими тадқиқ этишда шахсий ва ҳаётий позицияларини ўрганишга эътибор қаратилди. Кадрятлар шахснинг мақсади, идеаллари ва ҳаётда тутган ўрни унинг касбий камолотида муҳим ўрин тутади.

Талаба-психологлар кадрятлари тизими касбий камолотида ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Талаба-психологларнинг касбий шаклланишида шахсий кадрятларнинг ўрнини белгилаш тадқиқот вазифаларидан биридир. Навбатдаги таҳлилларимиз мазкур масалани ўрганишга қаратилади.

Кадрятлар йўналишлари шахс тузилиши, хусусан, шахснинг ижтимоий-психологик портрети моҳиятини ифодалашга хизмат қилади. Кадрятлар шахснинг куйидаги муносабат жабҳаларини ўзида мужассамлаштиради:

ижтимоий муносабатлари; ижтимоий талаблари; турмуш тарзи; атроф-оламга муносабати; шахсий позицияси; моддий-маънавий эҳтиёжлари; дунёқараши; ҳаётий мақсадлари; ҳаёт фаолиятида бажариладиган ижтимоий вазифалари.

Талаба-психологларнинг кадрятлари йўналиши таҳлиliga мурожаат қиламиз.

Талаба-психологларнинг касбий шаклланишидаги кадрятлари йўналиши ўзига хослиги билан ажралиб туриши табиийдир. Уларнинг кадрятлар йўналишини «Кадрятлар йўналиши» сўровномаси ёрдамида ўргандик. Сўровнома М.Рокичнинг кадрятлар ва рус олими И.Г.Сениннинг кадрятлар йўналишига доир ғояларига асосланиб шакллантирилган.

Сўровнома шахснинг ҳаётий мақсадларига йўналган кадрятлари ва унинг ҳаётий ғоялари ҳамда хатти-ҳаракатларини ифодаловчи воситали кадрятларнинг ўрганишга қаратилган. Сўровноманинг моҳиятини ифодаловчи кадрятларнинг таркибида ҳам кадрятлар йўналишлари ўрин олган.

Кадрятлар таркибига кирувчи кадрятлар йўналишлари куйидагилардан иборат: олий нуфузга эга бўлиш; юқори моддий таъминланганлик; ижодкорлик; фаол ижтимоий муносабатлар; ўз устида ишлаш; ютуқларга йўналганлик; маънавий қониқиш; ўзликни сақлаш каби *мақсадли кадрятлардан*; касб-ҳунар олами; ўқув-тарбия соҳаси; оилавий ҳаёт; ижтимоий ҳаёт; қизиқишлар оламидан таркиб топган *воситали кадрятлардан иборат.*

¹ Халиулина Диана Загитовна. Факторы, определяющие динамику профессиональных ценностей субъекта труда. // Теория и практика общественного развития 2014г. № 21. 326 ст. <https://cyberleninka.ru/article/n/>

Талаба-психологларнинг “Қадриятлар йўналишлари” сўровномаси (И.Г.Сенин) асосида тадқиқ қилиш касбий танлови ва касбий тайёргарлик босқичларининг мувофиқлигини шахсий мақсадлари орқали ижтимоий-психологик портретининг кўриниши сифатида ўрганиш имконини берди.

Талаба-психологлар ижтимоий-психологик портретининг қадриятлар йўналиши бўйича кўрсаткичларининг таълим босқичлари орқали ёритишга эътибор қаратилди. Сўровнома натижалари навбатдаги 1-жадвалда келтирилган.

1-жадвал.

Талаба-психологларнинг қадриятлари кўрсаткичлари

№	Қадриятлар	1 курс		2 курс		Стъюдент-т-мезони	3 курс		t	4-курс		Стъюдент-т-мезони	Умумий ўртача	
		М	σ	М	σ		М	σ		М	σ		М	σ
МАҚСАДЛИ ҚАДРИЯТЛАР														
1	Олий нуфузга эга бўлиш	30,25	1,76	29,15	4,86	1,77	30,49	2,80	1,34	32,13	2,47	1,418	30,50	2,34
2	Юқори моддий таъминланганлик	27,32	2,57	29,38	4,21	2,75*	31,36	2,94	2,66*	31,06	3,14	1,211	29,78	3,22
3	Ижодкорлик	24,31	2,27	28,45	3,17	-3,0	27,55	2,61	2,79	29,54	3,68	2,56*	27,46	2,93
4	Фаол ижтимоий муносабат	25,21	2,42	31,57	3,28	3,90**	30,45	4,02	2,26	32,20	4,51	2,71*	29,85	3,56
5	Ўз устида ишлаш	27,12	1,93	28,33	3,11	1,74	29,52	2,77	-1,41	30,14	2,80	1,63	29,33	2,65
6	Ютуқларга йўналганлик	30,14	2,63	31,52	3,05	2,17	32,01	2,45	1,37	31,25	4,76	-0,707	31,13	3,22
7	Маънавий қониқиш	28,30	1,85	31,09	2,38	1,96	31,06	4,63	1,63	29,02	3,07	0,874	29,02	2,98
8	Ўзликни англаш	31,04	2,36	30,74	2,61	-1,67	31,40	2,85	-0,24	30,45	3,90	-1,155	30,92	2,33

Изоҳ: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$

Талаба-психологларнинг касбий тайёргарлик босқичи моҳиятан ўзига хосликка эгаки, бу ҳолат улар соҳанинг сир-асрорлари ва психолог мутахассис табиатига хос шахсий-касбий сифатларнинг тўлиқ тасаввур қилишини тақозо этади. Психолог мутахассиснинг касбий фаолиятида ижтимоий-гуманитар, аниқ ва табиий фанлар билан интеграциясини талаб этадиган жиҳатлар ҳам мавжуд.

“Қадриятлар йўналишлари” сўровномасининг татбиқи талаба-психологларнинг ижтимоий-психологик портретида шахснинг қадриятлар йўналиши билан ҳаётини соҳалар ўртасидаги алоқадорликни ёритиш имконини берди. Қадриятлар йўналишлари таркибидаги қадриятлар даражаси ва ҳаётини соҳа кўрсаткичлари унинг хусусиятларини ифодалаган. Эмпирик кўрсаткичлар таҳлилига эътибор қаратилганда куйидаги изоҳлар устувор бўлди.

1. “Олий нуфузга эга бўлишлик” қадрияти. Ушбу қадрият шахснинг ижтимоий мавқеи доирасида атрофдагилар ва жамоатчилик талабларига амал қилиб иш кўриши ва ҳаракатланишини ифодалайди.

Талаба-психологларнинг таълим босқичлари бўйича эмпирик кўрсаткичларига мувофиқ таҳлил амалга оширилди. Талаба-психологларнинг “олий нуфузга эришиш” қадрият йўналиши кўрсаткичлари (1-курс (30,25), 2-курс (29,15), 3-курс (30,49), 4-курс (32,13)) нисбий бир чегарадаги қийматларга эга бўлмоқда. Талаба-психологлар таълим босқичларидан қарамасдан, касб танлаш

гоясига кўра юқори мавқега ва натижаларга эга бўлиш истаги устуворлик қилмоқда. Бу эса таълим йўналиши талабаларини соҳанинг хусусиятига кўра юқори кўрсаткичга хайрихоҳликлари ижтимоий талабларга ўзларини мослаштиришга мансублиklarини англатади. Психологларнинг ижтимоий муҳит ва ижтимоий талабларга мослашиб иш кўришлари мутахассислар касбий хусусиятларини ўзига хослиги саналади.

Талаба-психологларнинг юқори моддий таъминланганлик бўйича кўрсаткичлари навбатдаги таҳлилнинг предмети ҳисобланади. Шахснинг ҳаётидаги шахсий фаровонликка хайрихоҳлиги моддий таъминланганликка мойилликнинг асосий шарти ҳисобланади.

2. *“Юқори моддий таъминланганлик” қадрият йўналиши.* Талаба-психологларнинг *“юқори моддий таъминланганлик”* қадриятлари йўналиши кўрсаткичлари ўртачадан юқори қийматларни акс эттирган бўлсада, биринчи (27,32) ва иккинчи босқич (29,38)га нисбатан учинчи (31,36) ва тўртинчи (31,06) босқич талабалари қисман устуворлик кўрсаткичга эга бўлган. Ҳаттоки бу ҳолат статистика жиҳатдан ҳам ўртача қийматларнинг тафовутини кўрсатмоқда ($p \leq 0,05$). Талаба-психологларнинг юқори моддий таъминланганликни таъминлаш бўйича тасаввурлари кейинги фаолиятларида намоён бўлмоқда. Бу эса талаба-психологларнинг шахси ва касбий камолот ўртасидаги мувофиқлигининг натижаси ҳисобланади. Талабаларнинг юқори моддий таъминланганликка хоҳиш-истак турмуш тарзининг кейинги босқичида кўзга ташланаса-да, аммо уларнинг психологнинг жамият ҳаётидаги ва жаҳон тажрибасидаги кузатишлари орқали ҳосил қилган тасаввур тимсолларида ўз аксини топади. “Психолог” мутахассиснинг касбий талабларида ижтимоий муносабатларга киришимли бўлиши ва атрофдагиларнинг психологик муаммоларини ечиш орқали ўзининг касбий ўсишини таъминлаб боради. Касбий ўсишга эришмасдан моддий таъминланган масаласи турмуш тарзининг ажралмас қисми бўлиб қолади. Юқори моддий таъминланганликка интилишнинг пастлиги ҳам мутахассислик камолига таъсир ўтказасмасдан қолмайди. Талаба-психологларнинг психология соҳаси бўйича мутахассисликни танлашида унинг халқаро касблар тизимидаги ўрни ва меҳнат ҳақининг юқорилиги билан боғлиқдир.

3. *“Ижодкорлик” қадриятлар йўналиши.* Талаба-психологларнинг *“ижодкорлик”* қадриятлар йўналиши бўйича эмпирик кўрсаткичларида ҳам ўртача билан ўртачадан юқори қийматлар хослиги кузатилди: биринчи босқич (24,31) ва иккинчи босқич (28,45) кўрсаткичлари орасида тафовутлар ҳам аниқланди ($p \leq 0,01$); учинчи (27,55) билан тўртинчи босқич (29,54)ларнинг кўрсаткичида ҳам фарқлар мавжуд экан ($p \leq 0,05$). Талабаларнинг ижодкорлик имкониятлари таълим босқичларига кўра эмас, балки уларнинг шахсий интилишларига боғлиқдир. Чунки касб танлаш ва касбий тайёргарлик босқичидаги ўқув мотивларининг шаклланганлик хусусияти белгиловчи рол ўйнашини яна бир эслаш ўринлидир. Бу эса умумий тарзда талаба-психологларнинг касбий фаолиятда ижодкорлик, келажак режалар тузиш, ўзликни англаш, янгиликка интилиш ва тиришқоклик юқори даражада бўлиши муҳимлигини кўрсатмоқда. Мижозлар билан ишлаш жараёнида ижодкорлик имкониятлари психологик муаммоларнинг ечимини топишга қўл келувчи энг муҳим қадриятга айланади. Талаба-психологларда *“ижодкорлик”* қадрияти анча юқори ва юксак таркиб топиши, уларнинг касбий имкониятларини очилишига сабаб бўлади.

4. *“Фаол ижтимоий муносабат” қадрияти.* Талаба-психологларнинг *“фаол ижтимоий муносабат”* қадрияти шахснинг муомалага мойиллиги, мулоқотга киришувчанлиги ва ижтимоий нуфузини ифодалайди. Психолог бўлиш истагидаги ҳар бир касб танловчи ушбу қадриятнинг моҳиятини англаб етиши муҳимдир. Ушбу қадрият йўналиши бўйича эмпирик кўрсаткичлар талаба-психологларнинг қадриятларида ўзига хосликни намоён этмоқда. Айрим ўринларда психология соҳасини танлашдаги ташқи ва ички мотивларнинг ўрни буни белгилайди. Бизнинг тадқиқотимизда биринчи босқич талабалари (25,21) ҳали *“фаол ижтимоий муносабат”* қадриятини аҳамиятини ўртача баҳолаган бўлсалар, иккинчи босқич (31,57), учинчи босқич (30,45) ва тўртинчи босқич (32,20) нисбатан устувор қийматга эга бўлди. Бу ҳолат таълим босқичларидаги касбий тайёргарлик, *“талаба-талаба”*, *“ўқитувчи-талаба”*, *“талаба-ўқув предметлари”*, *“талаба-тадбирлар”*, *“талаба-таълим муассаса маъмурияти”* тизимидаги муносабатлар таъсирида ўсиши мумкинлигини кўрсатмоқда. Ушбу муносабат тизими талабадан мулоқотчанлик, киришимлилик, ижтимоий муносабатларда ўз мавқеига эга бўлиш тасаввурини ва кўникмаларини шакллантиради. Шунинг учун талаба-психологларнинг фаол ижтимоий муносабатларда бўлишлари учун шижоаткор, киришимли ва мулоқотчан бўлишларини талаб қилади.

5. *“Ўз устида ишлаш қадрияти”* йўналиши шахснинг шахсий фазилатларини ривожлантиришга, имконият ва қобилиятларини камол топтиришига йўналтирилган. Бир жиҳатдан ушбу қадрият *“ижодкорлик”* қадриятининг узвий давоми дейиш мумкин. Талаба-психологларнинг бу

кадриятлар йўналишида ҳам ўртачадан юқори қийматларни: биринчи босқич (27,12), иккинчи босқич (28,33), учинчи босқич (29,52) ва тўртинчи босқич (30,14) талабаларининг натижаларида ифодаланди. Бу талаба-психологларнинг ўз устида ишлаши таълим босқичига кўра ўсиб боришини кўрсатмоқда. Айрим ўринларда талаба-психологларда фаоллик, имкониятларини рўёбга чиқариш ва ўз хатти-харакатларини умумий фаолиятга мувофиқлаштириш мумкинлигини ифодаламоқда. Улардаги вақтинчалик хатти - ҳаракатларни назорат қилиш ва ўз устида ишлаш жараёнлари касбий шаклланиш ва касбий фаолиятни мувофиқлаштиришда маълум тўсиқларга олиб келаётган бўлиши мумкин. Шахс имкониятларини юзага чиқариш позициясидан қараганда талаба-психологлар учун юқори талабчанлик ва интилиш зарур ҳисобланади.

6. “Ютуқларга йўналганлик” қадрият йўналиши. Талаба-психологларнинг “ютуқларга йўналганлик” қадрият йўналиши ҳам бошқа қадриятлар йўналиши сингари ўртачадан юқори кўрсаткичлар диапазонида намоён бўлди (биринчи босқич (30,14), иккинчи босқич (31,52), учинчи босқич (32,01) ва тўртинчи босқич (31,25) талабалари). Талаба-психологларнинг юқори ютуқ ва муваффақиятга интилиш қадриятлари ҳам талаба-психолог шахсида маълум даража бошқа қадриятларга қараганда етакчилик қилган дейиш мумкин. Табиатан ҳар бир инсон юқори натижаларга эришишга назарий жиҳатдан мойилдирлар. Бу ҳолат талаба-психологларда манфаатдорлик туйғусини камол топтиради.

7. “Маънавий қониқиш” қадрияти. Талаба-психологларнинг “маънавий қониқиш” қадрият йўналиши натижалари ҳам қолган барча қадриятлари сингари миқдорий кўрсаткичларни намоён этди: биринчи босқич (28,30), иккинчи босқич (31,09), учинчи босқич (31,06) ва тўртинчи босқич (29,02) талабалари. Талаба-психологлар ўзига хос натижаларни акс эттирган, уларни ўзлари қизиққан касбга ва манфаатдор бўлган ҳамда қониқадиган ҳаёт соҳаларига йўналтирилган деб бўлмайди.

8. “Ўзликни англаш” қадрияти. Ушбу йўналиш бўйича талаба-психологларнинг қадриятлар йўналишларида асосий ўринга эга бўлган “Ўзликни англаш” қадрияти кўрсаткичлари бўйича ўртачадан юқори кўрсаткичларни акс эттирган (31,04), иккинчи босқич (30,74), учинчи босқич (31,40) ва тўртинчи босқич (30,45) талабалари. Талабаларнинг қадриятлар йўналиши мустақиллик, шахсининг ўзига хослигини, дунёқарашда ажралиб туриши, атрофдагилар таъсиридан йироқ ва мустақил қарорлар қабул қилишга мойилликларини англатади. Талаба-психологларда касбий камолот учун кўшимча кўрсатмаларга зарурат бор.

“Қадриятлар йўналганлиги” методикасининг таркибий тузилмасидаги мақсадли қадриятлар билан ҳаётини соҳанинг натижалари ўзаро алоқадордирлар. 2-жадвалда талаба-психологларнинг мақсадли ва воситали қадриятлар йўналишларининг корреляцион муносабатлари тақдим этилган.

2-жадвал.

Талаба-психологларнинг “Қадриятлар йўналганлиги” методикасининг компонентлари ўртасидаги корреляцион коэффицентлари

Қадриятлар	Касбий ҳаёт	Ўқиш - таълим	Оилавий ҳаёт	Ижтимоий ҳаёт	Қизиқишлар
Шахсий истиқбол	0,436**	0,367*	0,352*	0,296*	0,318*
Юқори моддий таъминланганлик	0,315*	0,110	0,528**	0,146	-0,138
Ижодкорлик	0,189*	0,322*	-0,174	0,111	0,333*
Фаол ижтимоий муносабатлар	-0,130	0,201	0,183	0,627**	0,159
Ўз устида ишлаш	0,502**	-0,009	0,361**	0,200	0,285*
Ютуқларга йўналганлик	-0,010	-0,241*	0,431**	0,371*	0,388*
Маънавий қониқиш	0,327*	0,247*	0,604**	-0,146	-0,070
Ўзликни англаш	0,322*	0,368*	0,378*	0,299*	-0,101

Изоҳ: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$

Талаба-психологларнинг мақсадли қадриятлар йўналиши билан ҳаёт соҳаларини ифодаловчи воситали қадриятлари ўртасидаги корреляцион боғлиқлик ўзига хосликни намоён қилди. Талаба-психологларнинг “шахсий истиқбол”га қаратилган қадриятлари ҳаёт соҳаларидаги бошқа қадриятлар билан ҳам ижобий, ҳам салбий боғланиш ҳосил қилган. Талаба-психологларнинг кўрсаткичлари “шахсий истиқбол” билан “касбий ҳаёт” ўртасидаги ижобий боғлиқликнинг мавжудлигидан далолат

бермоқда ($r=0,436$, $p<0,01$). Бу ҳолат бугунги кунда талаба-психологларнинг атрофдагилар ва жамият томонидан юқори баҳоланадиган касбларни танлашга интилиши етакчилик қилишида кузатилади. Талаба-психологларнинг касбий тасаввурлари тўғрисидаги анкета натижаларида ҳам улар ушбу йўналишнинг танлашларига асосий сабаб ҳам “инсон-инсон” тизмидаги касбий фаолиятга бўлган қизиқишларнинг устуворлиги билан белгиланмоқда.

Шунингдек, талаба-психологлар “шахсий истиқболга эришиш” “ўқув-таълим” соҳасининг бир бўлаги эканлигини ҳам эътироф эта олганлар. Улар бу борада ижобий корреляцияга эга бўлсалар-да, уларнинг ишончлилик даражаси етарлича эмас ($r=0,367$, $p<0,05$).

Шахснинг истиқболи бир жиҳатдан унинг таълим-тарбия жараёнидан самарали фойдаланганлиги, мутахассислик учун зарур билим, кўникма ва малакаларни эгаллаши ҳамда шахсий фазилатларни шакллантириб боришига ҳам боғлиқ. Талаба-психологлар бу жиҳатдан ўзларининг ижобий муносабатларини билдирсалар-да, аммо буни ишонч билан тасдиқлашдан чўчиганлар.

Талаба-психологларнинг шахсий истиқболлари билан боғлиқ муносабатлари таҳлил қилинганда нимагадир улар “оилавий ҳаёт” ($r=0,352$, $p<0,5$) ва “ижтимоий ҳаётдан” ($r=0,296$, $p<0,05$) ва “қизиқишлар” ($r=0,318$, $p<0,5$). Буни ҳам талаба-психологларнинг мақсадли кадриятлари билан ҳаётий соҳаларини боғлашдаги ўзига хослик дейиш мумкин. Уларнинг кадриятлар, шахсий йўналганликлари (кейинги жадвалларда ҳам кадриятлар билан йўналганлик ўртасидаги аллқадорлик) касбий камолотнинг ажралмас қисми эканлигини тасдиқламоқда.

Уларнинг “юқори моддий таъминланганлик” билан “ўқув-таълим” ($r=0,315$, $p<0,05$) ва “оилавий ҳаёт” ($r=0,528$, $p<0,01$) кадриятлари ўртасида корреляцион боғлиқлик мавжуд. Шундай бўлса ҳам талаба-психологларнинг бу йўналишлар бўйича тасаввурларини анча содда кўринишга эга дейиш ўринлидир.

Талаба-психологлар “ижодкорлик” билан “касбий ҳаёт” ўртасида ижобий боғланишга ($r=0,189$, $p<0,05$). Бизнинг фикримизча, касбий ҳаётда ижодкорлик муҳитини яратиш касбий камолот, шахсий истиқбол ва юқори моддий таъминотга сабаб бўлади. Талаба-психологларнинг бу кўрсаткичлари касбий шаклланиш жараёни талабларига жавоб бера олиши қийин.

Шунингдек, талаба-психологларнинг “ижодкорлик” кадрияти бўйича қўлга киритган кўрсаткичлари “ўқув-таълим” ($r=0,322$, $p<0,05$) ва “қизиқишлар олами” ($r=0,333$, $p<0,05$) кадриятлари билан мусбат корреляцияни акс эттирган, аммо улар тўлиқ равишда ижодкорликни таълим-тарбия жараёни, қизиқишлар олами белгилашини эътироф эта олмаяптилар. Бу кўпчилик талаба-психологларнинг касбий таълим ва касбий шаклланиш жараёнида бўла туриб, амалга ошириш лозим бўлган талабларга жавоб бериш учун ўзларида шижоат, талабчанлик, қатъият ва матонатни намоён этолмадилар. Уларнинг бундай ҳолатга тушганлигини ўзларининг шахсий ва табиий имкониятларига мос касбни танламаганликлари билан изохлаша бўлади.

Қайси йўналишда бўлишларидан қатъий назар, талаба-психологлар аста-секин ҳаётга, шарт-шароитларга ва касбга ўзларини мослаштириб борадилар. Бундай ҳолларда уларда ижтимоий муносабатлар биринчи навбатдаги фаолият йўналишига айланади. Талаба-психологларнинг “фаол ижтимоий муносабатлар” кадрият йўналишларининг ҳаёт соҳасидаги “ижтимоий муносабатлари” билан мусбат боғланиш ва етарли миқдордаги ишончлилик даражасига эга бўлди ($r=0,627$, $p<0,01$). Бу ҳолат талаба-психологлар касбга муносибликка охир-оқибат ижтимоий муносабатлар, атрофдагиларнинг маслаҳати, улар билан ишончли ҳамкорлик ўрнатиш орқали эришиш мумкин деган тасаввурни келтириб чиқаради.

Талаба-психологларнинг “ўз устида ишлаш” борасидаги кадриятлари “касбий ҳаёт”нинг ажралмас қисми ($r=0,502$, $p<0,01$), “оилавий ҳаёт”нинг мустаҳкамлаш шarti ($r=0,361$, $p<0,01$) ва буларга “қизиқишлар”ини устуворлиги ($r=0,285$, $p<0,05$) ҳисобида таъминлаш тасаввурига эгалиklarини англатади.

Аммо талаба-психологлар ютуқларга эришиш ҳар доим ҳам ўқиш-таълим жараёни билан боғлиқ эмас деган хулосага келганлар ($r=-0,241$, $p<0,05$). Бу бир жиҳатдан касбий тайёргарликда назария билан амалиёти ўртасидаги уйғунлик таъминланмаслиги туфайли шундай хулосаларга сабаб бўлаётгандир. Шундай бўлса-да, талаба-психологлар ютуқларга эришиш кадриятлари “оилавий ҳаёт” ($r=-0,431$, $p<0,01$), “ижтимоий ҳаёт” ($r=0,371$, $p<0,05$) ва “қизиқишлар” ($r=0,388$, $p<0,05$) ўртасидаги ижобий алоқаларнинг ифодаси сифатида тасаввур қиладилар.

Талаба-психологлар “касбий ҳаёт” ($r=0,327$, $p<0,05$), “ўқиш-таълим” ($r=0,247$, $p<0,05$) ва “оилавий ҳаёт” ($r=0,604$, $p<0,01$) касбий ўсиш учун маънавий кадриятларнинг намоён бўлишининг муҳим мезони сифатида кўра олмоқдалар.

Респондентлар “касбий ҳаёт” ($r=0,322$, $p<0,05$), “ўқиш-таълим” ($r=0,368$, $p<0,05$), “оилавий ҳаёт” ($r=0,378$, $p<0,05$) ва “ижтимоий ҳаёт” ($r=0,299$, $p<0,05$) “ўзликни англаш” да муҳим эканлигини тушуниб етганлар. Талаба-психологларнинг касбий шаклланиши жараёнида кадрятларга нисбатан муносабатлари ижобий характерга эгалигидан далолат бермоқда.

Талаба-психологлар ижтимоий-психологик портрети улар касбий камолотининг муносиблиги борасидаги муаммоларини Дж.Келлининг шахс конструктлари психологиясидаги самарали фаолиятни уч босқичга боғлаб тушунтирган ғоялари билан боғлаш мумкин. Инсон ўзига мос хулқ-атвор йўналишини танлайди. Бу йўналишдаги хатти-ҳаракатлар уч босқичдан, яъни мўлжал олиш, танлаш ва ижро этишдан иборат. Талаба-психологлар касбий шаклланиш ва ривожланиш борасида ҳам ушбу уч босқични бошдан кечирадилар, аммо уларнинг ҳаракат босқичларидан қайсидир поғонаси талаб даражасида эмас.

Хулоса. Шундай қилиб, талаба-психологларнинг кадрятлар йўналишлари ижтимоий-психологик портретнинг таркибий тузилиши сифатида эътиборга олинди ва эмпирик ўрганилди. Эмпирик кўрсаткичлар талаба-психологлар кадрятлари йўналишининг икки даражасига ажратди. Талаба-психологларнинг ижтимоий-психологик портретини тавсифловчи юқори кадрятлар йўналишлари сифатида олий нуфузга эришиш кадрят йўналиши, ютуқларга йўналганлик” кадрят йўналишлари аниқланди.

Адабиётлар:

1. Абульханова-Славская К.А. Проблема личности в психологии // Психологическая наука в России XX столетия: проблемы теории и истории. - М.: ИП РАН, 1997. - С.270-373.
2. Аминов Н.А., Молоканов М.В. О компонентах специальных способностей будущих школьных психологов // Психолог, журнал. 1992. Т.
3. Барсова, Анна Формула личности, или Как свои недостатки превратить в достоинства / Анна Барсова. - М.: АСТ-Пресс Книга, 2017. - 320 с.
4. Кон И. С. Психология ранней юности. М. : Просвещение, 1989. 256 с.
5. Кос Н. И. Психологический портрет группы и коллектива. Саратов, 2009. -241 с.
6. Крайг Г. Психология развития. СПб.: Питер, 2000. 992 с.
7. Кузьмина Н.В., Пожарский С.Д., Паутова Л.Е. Акмеология качества профессиональной деятельности специалиста. – СПб., Коломна, Рязань,
8. Психология личности в трудах отечественных психологов / Составитель Л.В. Куликов. - СПб.: Питер, 2000.-283 с.
9. Райх В. Анализ личности / Пер. С.Ю. Романюк, Т.В. Русина, Я.Л. Шапиро. - М.; СПб.: КСП+, Ювента, 1999. - 332 с.

Нурымбетова Эльмира Жумамуратовна,
доктор философии по психологическим наукам (PhD)
Нукусский государственный педагогический институт

ПРОФЕССИОНАЛЬНО ВАЖНЫЕ КАЧЕСТВА СОВРЕМЕННОГО ПСИХОЛОГА

Аннотация: В статье автором предложена разработка модели современного психолога, отражающая его актуальные профессионально-важные качества. Основу данной разработки составили профессионально-важные качества категории специалистов, объединённые в следующие взаимообусловленные структурные компоненты: мировоззренческий, межличностный, интеллектуальный, личностный.

Ключевые слова: профессионально важные знания, умения и навыки, интеллектуальный компонент, личностный компонент – оптимизм, энергичность, высокая работоспособность, жизнестойкость, планомерность, целеустремлённость, настойчивость, самоорганизация.

PROFESSIONAL QUALITIES OF THE MODERN PSYCHOLOGIST

Abstract: In the article, the author proposed the development of a model of the modern psychologist, reflecting the actual professional and important qualities of the modern psychologist. The basis of this development consisted of professionally important qualities of the category of professionals united in the following, interdependent structural components: ideological, interpersonal, intellectual, personal.

Key words: professionally important knowledge, abilities and skills, intellectual component, personal component - optimism, vigor, high work capacity, resilience, planning, purposefulness, persistence, self-organization.

ZAMONAVIY PSIXOLOGNING PROFESSIONAL MUHIM SIFATLARI

Аннотация: Maqolada muallif zamonaviy psixolog model ishlanmasini taklif qilgan va uning tuzilmalar mazmuni ifoda etilgan. Ushbu ishlanma asosi tegishli komponentlardan iborat bulib, zamonaviy psixologning dolzarb professional muhim xususiyatlarini aks ettiradi.

Kalit so'zlar: kasbiy jihatdan muhim bilim, ko'nikma, intellektual komponent, shaxsiy komponent - optimizm; energiya; yuqori samaradorlik; chidamlilik; muntazamlilik; maqsadlilik; qat'iyatlilik; o'z-o'zini tashkil etish.

Актуальность. Одной из наиболее острых проблем при составлении «модели специалиста» является проблема построения «модели личности специалиста». Каким же должно быть сочетание профессионально важных личностных качеств, свойств личности, которое в наибольшей степени обеспечивало бы успех профессиональному психологу?

Исследований в этой области достаточно много, но однозначного ответа о свойствах личности психолога, которые бы способствовали эффективной работе, нет. Мы рассмотрим ряд авторов, которые предлагают свою точку зрения в отношении профессионально важных личностных качеств психологов.

В.Н.Карандашев (2000) отмечает, что профессиональному психологу важно иметь адекватную самооценку, понимать индивидуальные особенности своей личности, свои способности, сильные и слабые стороны характера, также ответственность, организованность, оптимизм, открытость, любознательность, наблюдательность, самостоятельность суждений, креативность, гибкость поведения, способность к рефлексии своих переживаний, которые проявляются в общем отношении к жизни и деятельности. Необходимо отдельно упомянуть о таком важном качестве, как саморегуляция, которая способствует активной реализации поставленных целей [2,3,5,8].

В настоящее время вырабатывается новое представление о профессионале, которое рассматривает его как активного, свободного субъекта в осуществлении собственной деятельности. В подлинном «профессионале» гармонично соединяется «личность» и «мастер» [6,7]

«В свое время М. Balint и Е. Balint писали, что знание можно получить из книг или лекций, навыки приобретаются в процессе работы, но они будут малоэффективны без совершенствования личности психотерапевта. Психотерапия становится ремеслом, наполненным лишь добрыми

намерениями, если ее не поднимают на профессиональный уровень соответствующие качества личности психотерапевта [цит.1].

Несмотря на большое количество имеющихся моделей в аспекте психологической деятельности специалиста, остается весьма актуальной проблемой подготовка модели, отражающей конкретизированные психологические требования к психологу с учётом современных условий деятельности.

Таким образом, исходя из методологической базы настоящего исследования, имеющихся концептуальных положений построения модели специалиста, а также системного решения этой проблемы в науке, нами подготовлена структурная модель профессионально-важных качеств современного психолога. Основу данной разработки составили соответствующие компоненты, отражающие актуальные профессионально-важные качества современного психолога. Вместе с тем, для их выделения нами была организована и проведена экспертная оценка по заранее подготовленному опроснику (приложение № 1). Основу данного инструментария составили ранее выделенные, по результатам теоретического анализа следующие обобщённые профессионально-важные качества психолога, объединённые в соответствующие структурные компоненты: мировоззренческий, межличностный, интеллектуальный, личностный.

Все полученные результаты экспертной оценки будут применяться в обобщённом виде в целях выработки рекомендаций для совершенствования процесса подготовки психологов в высших образовательных учреждениях. При этом, те качества, которые получили оценки от 5 до 6 баллов (высокий уровень соответствия качества) будут рассматриваться как актуальные профессионально-значимые качества современного психолога Республики Узбекистан».

Всего в экспертной оценке приняло участие 211 человек (экспертов), как женского (57,3 % - 121 чел.), так и мужского пола (42,7 % - 90 чел.), из числа наиболее подготовленных практических психологов (54 % - 114 чел.), а также педагогов (46 % - 97 чел.) - непосредственно принимающих участие в подготовке данной категории специалистов (будущих психологов) (рисунок 1).




Рисунок 1. Количественная характеристика экспертов оценки профессионально важных качеств современного психолога по стажу профессиональной деятельности (n=211)

При этом, отбор экспертов проходил по соответствующим критериям:

практический опыт, стаж работы, должность; критическое мышление, т.е. способность к критическому восприятию действительности; конструктивность мышления, т.е. способность к выработке новых знаний, подходов, совершенствований и пр.

По итогам экспертной оценки все полученные результаты были обобщены в сводной таблице, что позволило вычислить такие первичные описательные статистики как мода (M_o), медиана (M_d), среднее (M) относительно каждого оценённого качества (таблица 1).

Рассматривая предложенную структурную модель, полагается целесообразным отметить, что практически любая из характеристик (профессионально-важное качество) модели может быть присуща каждому человеку, однако существует разница в уровне их выраженности у разных людей. Должный комплекс профессионально-важных качеств будущих психологов возникает в результате развития соответствующих характеристик и их активного взаимодействия. Это происходит за счет оптимального уровня функционально-смыслового наполнения профессионально-важных качеств будущих психологов. Им чрезвычайно необходимо наполнять профессионально-важные качества таким образом, чтобы практически все они развивались и достигли должного уровня.

Таблица 1.

**Обобщённые результаты экспертной оценки профессионально-важных качеств
современного психолога (n=211)**

№	Наименования обобщённых профессионально важных качеств	Среднее (M)	Мода (Mo)	Медиана (Md)	Уровень значимости
1. Мировоззренческий компонент					
1.1	потребность в изначально интересной и полезной для общества благодарной работе	5,569	6	6	Высокий
1.2	потребность в самостоятельности, независимости и самосовершенствовании своей личности	5,531	6	6	Высокий
1.3	личностная зрелость	5,526	6	6	Высокий
1.4	потребность в креативности и широте взглядов	5,521	6	6	Высокий
1.5	потребность в социальных контактах: на уровне легкого общения с большим кругом людей	5,517	6	6	Высокий
1.6	моральная нормативность	5,512	6	6	Высокий
1.7	чувствительность	3,716	4	4	Средний
1.8	внутренние резервы личности	3,479	3	3	Средний
2. Межличностный компонент					
2.1	позитивное отношение к людям (привязанность)	5,536	6	6	Высокий
2.2	направленность психики на экстраверсию	5,531	6	6	Высокий
2.3	коммуникативные способности	5,526	6	6	Высокий
2.4	волевая регуляция поведения, самоконтроль	5,526	6	6	Высокий
2.5	эмоциональный интеллект	5,521	6	6	Высокий
2.6	эмоциональная устойчивость	5,521	6	6	Высокий
2.7	личностно-адаптационный потенциал	5,521	6	6	Высокий
2.8	способность к сотрудничеству в конфликтных ситуациях	5,517	6	6	Высокий
2.9	терпимость и гибкость	3,735	4	4	Средний
2.10	последовательность	3,725	4	4	Средний
2.11	выносливость	3,540	3	4	Средний
3. Интеллектуальный компонент					
3.1	умение выделять общее в разном	5,555	6	6	Высокий
3.2	способность к обобщению и анализу информации	5,540	6	6	Высокий
3.3	гибкость мыслительных процессов	5,521	6	6	Высокий

3.4	общие умственные способности	5,507	6	6	Высокий
3.5	способность к концентрации внимания	5,498	5	5	Высокий
3.6	отсутствие эмоциональной деструкции	5,493	5	5	Высокий
3.7	способность к пространственному мышлению	3,682	4	4	Средний
3.8	развитая социальная составляющая интеллекта	3,526	3	3	Средний
4. Личностный компонент					
4.1	настойчивость	5,536	6	6	Высокий
4.2	жизнестойкость	5,526	6	6	Высокий
4.3	ориентация на настоящее	5,526	6	6	Высокий
4.4	самоорганизация	5,517	6	6	Высокий
4.5	планомерность	5,507	6	6	Высокий
4.6	самоорганизация деятельности	5,507	6	6	Высокий
4.7	целеустремленность	5,498	5	5	Высокий
4.8	самоэффективность	5,488	5	5	Высокий
4.9	интеллигентность	3,773	4	4	Средний
4.10	мобильность	3,749	4	4	Средний
4.11	энергичность	3,739	4	4	Средний
4.12	оптимизм	3,735	4	4	Средний
4.13	высокая работоспособность	3,725	4	4	Средний

Результаты исследования. Структурная модель профессионально важных качеств современного психолога, по своей сущности, имеет форму круговорота, который обеспечивается саморегулятивной функцией и раскрывает развивающую динамику, поскольку значимым является проблема не только того, как объяснить профессионально-важные качества, но и как эффективно повлиять на их должное развитие. Актуальным этот вопрос является для будущих психологов, у которых профессионально-важные качества вступают неотъемлемым атрибутом успешного осуществления будущей профессиональной деятельности.

В процессе наполнения происходит саморегуляция в широком смысле на личностном и поведенческом уровне. Например, у студента снижен уровень развития самостоятельности. На оптимальном уровне, когда повышается уровень самостоятельности, то тогда, во-первых, личность растет самостоятельно, во-вторых, повышается уровень развития других профессионально-важных качеств будущих психологов, в-третьих, самостоятельность отражается на поведенческом уровне будущего психолога, что является значимым для его профессии.

Вместе с тем, можно предположить, что более развитые качества будут ведущими, основополагающими для развития других профессионально важных качеств. В результате образуется личностная энергетика, смысловое и функциональное наполнение, что приближает личность к самоактуализации. Самоактуализация – это системная характеристика, включающая функционально-содержательные характеристики профессионально важных качеств, которые являются необходимыми для приближения будущих психологов к совершенству.



Рисунок. 2 Структурная модель профессионально-важных качеств современного психолога

Выводы. Таким образом, исходя из вышеизложенного полагается целесообразным заключить, что проведённая экспертная оценка (n=211) по заранее подготовленному опроснику позволила подготовить структурную модель профессионально важных качеств современного психолога основу которой составляют уточнённые, актуальные профессионально важные качества этой категории специалистов объединённые в следующие, взаимообусловленные структурные компоненты:

мировоззренческий компонент, который выражается в потребности психолога в социальных контактах, интересной, полезной для общества благодарной работе, самостоятельности, независимости, креативности, а также личностной зрелости и моральной нормативности; межличностный компонент, выражающийся в коммуникативных способностях, позитивном отношении к людям, направленности психики на экстраверсию, волевой регуляции поведения, самоконтроле, эмоциональном интеллекте и устойчивости, личностно-адаптационном потенциале, способности к сотрудничеству в конфликтных ситуациях; интеллектуальный компонент выражающийся в умении выделять общее в разном, способность к обобщению и анализу информации, гибкость мыслительных процессов, общие умственные способности, способность к концентрации внимания, отсутствие эмоциональной деструкции; личностный компонент, выражающийся в настойчивости, жизнестойкости, ориентации на настоящее, самоорганизации, планомерности, самоорганизации деятельности, целеустремленности, самоэффективности.

Литература:

1. Аболин Л.М. Духовно-нравственное развитие личности в событийной деятельности [Текст] / Л.М.Аболин, Х.Х.Валиахметов. - Казань:Изд-во "Карпол", 2002.-230 с.
2. Борисова Е.М., Логинова Г.П. Индивидуальность и профессия. М.: Знание, 1991. 80 с.
3. Буюкас Т.М. Личностное развитие в условиях работы самопонимания, опосредованного символами. // Вопросы психологии. 2000. №1. С. 96-109.
4. Карандашев В.Н. Введение в профессию. - М.: Смысл, 2000.
5. Клищевская М.В. К проблеме профессионального развития. // Вестник МГУ, серия 14. Психология. – 2001. - №4. – С. 3-11.
6. Краснов Ю.Э. Технология обучения в имитационно-деятельной игровой форме. Минск, 1998.
7. Маркова А.К. Психология профессионализма. — М., 1996.
8. Чебышева В.В. Некоторые психологические вопросы подготовки школьников к труду // Вопросы психологии, 1978. №2. С. 19.

Ориббоева Дилафрўз Дадамирзаевна,
Наманган давлат институти Мактабгача ва бошланғич таълим
методикаси кафедраси катта ўқитувчиси,
психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
alinbayeva_1981@mail.ru

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРДА ИЖТИМОЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ПСИХОЛОГИК ТРЕНИНГЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Аннотация: Ушбу мақолада бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни ривожлантиришда психологик тренинглاردан фойдаланишнинг ўзига хослиги ҳамда мулоқотчанликни ва шахслараро муносабатларни яхшилашга қаратилган тренинг машғулотларидан намуналар берилган бўлиб, бўлажак педагог шахсида мулоқотга киришувчанлик, ижтимоий мослашувчанлик, мустақиллик ижтимоий фаолликни ривожлантириш, ижтимоий компетентликни ривожлантиришдаги асосий восита эканлиги асослаб берилган. Маълумки, тренинг бу тизимли машғулот ёки маълум бир белгиланган кўникмаларни ва тренинг иштирокчиларининг хулқ-атворини такомиллаштиришидир. Мақолада шахсдаги ижобий мулоқот кўникмаларини шакллантириш, суҳбатдошини қабул қилиш ҳамда самимий муносабат ўрнатиш, мулоқот жараёнидаги низоларни бошқариш малакасини ривожлантиришга қаратилган психокоррекцион машқлар тўпламидан фойдаланиш масалалари ёритиб берилган.

Калит сўзлар: компетентлик, тренинг, мулоқотчанлик, шахслараро муносабатлар, интерактив, конструктив, бўлажак педагоглар.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ТРЕНИНГА ПРИ ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация: В данной статье приведены уникальность использования психологического тренинга в развитии социальной компетентности у будущих педагогов и примеры тренинговых занятий, направленных на совершенствование общения и межличностных отношений, а также обосновано, что коммуникативная доступность, социальная гибкость, самостоятельность в личности будущего педагога являются основным инструментом развития социальной активности и социальной компетентности. Известно, что обучение – это систематическая тренировка или совершенствование определённых навыков и поведения участников обучения. В статье освещаются вопросы использования комплекса психокоррекционных упражнений, направленных на формирование у человека положительных коммуникативных навыков, принятие собеседника и установление искренних отношений, развитие навыков конфликтологии в процессе общения.

Ключевые слова: компетентность, обучаемость, коммуникабельность, межличностные отношения, интерактив, конструктив, будущие педагоги.

USING PSYCHOLOGICAL TRAINING IN FORMING THE SOCIAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Abstract: This article presents the uniqueness of the use of psychological training in the development of social competence among future teachers and examples of training sessions aimed at improving communication and interpersonal relationships, and it is also substantiated that communicative accessibility, social flexibility, independence in the personality of the future teacher is the main tool for the development of social activity and social competence. It is known that training is the systematic training or improvement of certain specific skills and behaviors of participants in training. The article highlights the issues of using a complex of psycho-correctional exercises aimed at developing a person's positive communication skills, accepting an interlocutor and establishing sincere relationships, developing conflict management skills in the process of communication.

Keywords: competence, learning ability, sociability, interpersonal relations, interactive, constructive, future teachers.

Мавзунинг долзарблиги. Жаҳон таълим ва илмий тадқиқот марказларида бўлажак педагогларнинг ижтимоий ва касбий компетентлиги, коммуникатив ва перцептив компетентлиги, ижтимоий-хуқуқий, ижтимоий-иқтисодий, ижтимоий-психологик компетентликни шакллантириш асосида шахс ривожланишининг турли босқичларида мутахассис тайёрлаш масалаларига қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Бу борада бўлажак педагогларнинг ижтимоий билим ва тафаккури, касбий ўзини ўзи англаш ҳамда профессионал компетентлиги билан боғлиқ психологик хусусиятларни диагностикаси ва психокоррекциясини амалга оширишга йўналтирилган масалаларга эътибор қаратиш зарурияти кузатилиб, ижтимоий психологик компетенцияга эга бўлган малакали кадрларни тайёрлаш долзарб муаммо бўлиб қолмоқда.

Ижтимоий компетентлик шахснинг муваффақиятли ижтимоий мослашуви, унинг ўзини ўзи англаши ва низоларни конструктив ҳал қилишнинг муҳим шартидир. Ижтимоий компетентлик шахснинг ижтимоий-психологик хусусият сифатида мураккаб ҳодисадир. Бу хусусият ижтимоий-маданий вазият ва тарихий шароитлар билан чамбарчас боғлиқ.

Кенг маънода, ижтимоий компетентлик-бу шахснинг ижтимоий воқелик ва ўзи тўғрисидаги билимларининг яхлит тизими, шунингдек, мураккаб ижтимоий кўникмалар ва типик ижтимоий вазиятларда ўзаро таъсир қилиш кўникмалари. Ушбу ишда ижтимоий компетентлик - бу мураккаб ижтимоий вазиятларда самарали ўзаро таъсирни таъминлайдиган ва низоларни конструктив ҳал қилишни таъминлайдиган шахснинг ғоялари ва кўникмалари тўплами.

Ижтимоий компетентликни психологик тренинглари асосида ривожлантиришдан мақсади-шахслараро ўзаро муносабатларнинг қийин вазиятларида хулқ-атворларнинг адекват сценарийларини шакллантириш орқали бўлажак педагогларнинг ижтимоий-психологик компетентликлари даражасини ошириш.

Можаролар пайдо бўлишининг олдини олиш ва мавжуд низоли вазиятдан шараф билан чиқиш қобилиятини ривожлантиришга катта эътибор берилди.

Ижтимоий компетентлик мезони ўзаро таъсирнинг самарадорлиги, маълум ижтимоий контекстларда ўзининг “Мен” ни сақлаб қолган ҳолда муҳим ижтимоий мақсадларга эришиш бўлганлиги сабабли, ижтимоий компетентликни ўргатиш контекстида ижтимоий компетентликнинг таърифига амал қилиш мумкин.

Методика. Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни ривожлантиришга қаратилган тренинг дастури куйидаги мақсад ва вазифаларни амалга оширишни кўзда тутди.

1. Тренинг машғулотнинг мақсад ва вазифаларини белгилаш босқичи.

Тренингдан кўзланган мақсад бўлажак педагогларда ижтимоий компетентлик даражасини оширишдан иборат.

Вазифалари:

-тренинг иштирокчилари ўртасида ишчанлик муҳитини яратиш;

-“ижтимоий компетентлик” тушунчасининг моҳиятини ёритиб бериш;

-бўлажак педагогларда ижтимоий ривожлантириш учун индивидуал мотивацияни шакллантириш;

-шахсдаги мулоқотчанлик кўникмаларини ривожлантириш;

-бўлажак педагоглар жамоасида шахслараро муносабатларни барқарорлаштириш;

-бўлажак педагоглар жамоасида низоли ҳолатларни олдини олишга қаратилган;

-бўлажак педагогларда рефлексивлик хусусиятларини ривожлантириш.

-бўлажак педагогларда ўзини ўзи ҳурмат қилиш ва ўзига ишончни ошириш.

3. Бир-бири билан танишиш ва меҳнат қобилияти муҳитини яратиш босқичида бир-бири билан танишиш ва ташвишларни бартараф этиш, диққатни жамлашни ошириш ва гуруҳни бирлаштиришга қаратилган турли хил вазифалар мавжуд.

4. Муаммода йўналтириш босқичи гуруҳнинг ҳар бир аъзоси учун тренинг вазифаларини аниқлаштириш, ушбу гуруҳда ишлаш учун шахсий мотивацияни яратиш ва чуқурлаштиришни ўз ичига олади

5. Машғулот босқичи мураккаб ҳаётий вазиятларда ўқув машғулотлари ва ролли ўйинлар ёрдамида машғулот жараёнида ишлаб чиқилган ҳаракат усуллрини англаш ва ўргатишни ўз ичига олади.

6. Яхлит ҳаракат босқичи брифинг ва фикр-мулоҳазаларни ўз ичига олади. Бунинг учун куйидагилардан фойдаланиш мумкин: мақсадга эришиш муваффақиятини баҳолаш, машғулот видеосини томоша қилиш (бирламчи ва якуний ролли ўйинлар ва машқларни таққослаш), фикр-

мулоҳазаларни олиш учун блиц-сўров, сўровнома, якуний сўз, тренингни якунлаш, барча иштирокчиларга миннатдорчилик билдириш ва ҳоказо.

Тренинг дастурининг самарадорлиги, биринчи навбатда, иштирокчилар “тренингдан олдинги” ҳолатга нисбатан тренинг таъсири остида қандай ўзгаришларга эришганлиги билан белгиланади. Тренинг дастурлари самарадорлигини баҳолашнинг аксарият усуллари иштирокчиларнинг фикр-мулоҳазаларини олишга асосланади.

Тренинг дастурининг самарадорлиги тренинг иштирокчиларининг дастурда муҳокама қилинган масалалардан хабардорлик даражаси, иш жараёнида ўргатилган кўникмаларни шакллантириш ва малакаларни мустаҳкамлаш билан белгиланади. Иштирокчиларнинг шахсий муносабати, уларнинг ҳар қандай босқичдаги ҳиссий ҳолати, тақдим этилган маълумотларнинг сифати ва дастур шакли, унинг кучли ва заиф томонлари хусусидаги фикр-мулоҳазаларини ифодаланиш даражаси билан белгиланади.

Бутун тренинг жараёнидан аввал ҳам, алоҳида тренинг машғулотларини ташкил қилишдан олдин ҳам, мақсадни аниқлаб олиш ва талабга жавоб берадиган вазифаларни шакллантириш зарур. Шахсда ижтимоий компетентликни шакллантиришга қаратилган тренингларда, одатда, қуйидаги мақсадлар гуруҳи кўзланади:

1. Одамлар билан самарали ва самимий муносабат ўрнатиш учун шахслараро ўзаро ҳамкорлик услублари, механизмлари ҳамда психологик қонуниятларини ўрганиш;
2. Шахс тараққиёти жараёнига таъсир ўтказиш, ижодий имкониятни юзага чиқариш, турмуш даражасини, омад ва бахт ҳиссини оптимал даражага етказиш.
3. Ички дунё ва хулқ-атвордаги ўзгаришлар асосида келиб чиқадиган эмоционал бузилишларда ўзини ўзи англаб етиш ва ўзининг устида ишлашни ривожлантириш.
4. Гуруҳ иштирокчиларининг психологик муаммоларини излаш ва уларни ҳал қилишга ёрдам бериш.
5. Психологик саломатликни мустаҳкамлаш.

Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни ривожлантириш мақсадида ўтказиладиган тренинг машғулотлари ижтимоий компетентлик ва унга ёндош хусусиятларни ривожлантиришга қаратилган бўлиши керак. Тренинг дастуридан кўзланган мақсад бўлажак педагогларда ижтимоий компетентлик малакаларини ривожлантириш, мулоқотчанлик кўникмалари, шахсларо муносабатларга киришувчанлик даражаларини, низоли вазиятларга конструктив ёндашувни кучайтиришга коррекцион-ривожлантирувчи таъсир кўрсатишдан иборат.

Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентлик шаклланишининг аниқлаш мақсадида А.М.Прихожаннинг «Ижтимоий компетентлик шкаласи», Е.И.Роговнинг «Ўқитувчи шахсининг касбий йўналганлигини баҳолаш» методикаси», Н.П.Фетискиннинг «Перцептив-интерактив компетентлик» методикаси, Михельсоннинг «Коммуникатив малакалар» тести, Н.П.Фетискин, В.В.Козлов, Г.М.Мануйловларнинг «Ижтимоий-коммуникатив компетентлик диагностикаси» методикаси, А.А.Реаннинг «Муваффақиятга интилиш ва муваффақиятсизликдан қочиш» сўровномаси методларидан фойдаланилди. Олинган натижаларнинг статистик ишончлилик даражаси математик статистика методларидан: Стьюдентнинг t-мезони, К.Пирсоннинг r-корреляция коэффициентлари орқали тасдиқланди.

1-жадвал.

Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни намоён бўлиши

Ижтимоий компетентликнинг таркибий қисмлари	Курси	N	M	t	Аҳамиятлилик
Мустақиллик	1-курс	167	11,5	-4,03	0,000***
	3-курс	193	12,2		
Ўзига бўлган ишонч	1-курс	167	9,8	-3,55	0,000***
	3-курс	193	8,7		
Ўз бурч-вазифаларига бўлган муносабати	1-курс	167	4,5	-1,54	0,124
	3-курс	193	2,3		
Муомала	1-курс	167	10,4	2,36	0,019**
	3-курс	193	10,9		
Тартиб	1-курс	167	11,8	-2,21	0,028**
	3-курс	193	10,9		

Ижтимоий ҳаётга қизиқиши	1-курс	167	11,6	-2,37	0,019**
	3-курс	193	11,3		

Изоҳ: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Жадвал (1-жадвал) да келтирилган эмпирик маълумотларга кўра, синалувчилар гуруҳида мустақиллик ($t=-0,13$; $p \leq 0,001$) аҳамиятли даражага эга эканлиги маълум бўлди. Ўзига бўлган ишонч синалувчилар гуруҳида ($t=-3,55$; $p \leq 0,001$) аҳамиятли даражани ташкил қилганлиги эмпирик маълумотлар натижасидан маълум бўлди. Шунингдек, муомала ($t=-2,36$; $p \leq 0,01$), тартиб ($t=-2,21$; $p \leq 0,01$), ижтимоий ҳаётга қизиқиши ($t=-2,37$; $p \leq 0,01$) даражада аҳамиятли эканлиги тажриба натижаларидан аниқланди.

Бўлажак педагогларда ижтимоий коммуникатив компетентлик ва ижтимоий перцептивлик ўртасидаги алоқадорлик муаммоси «Ижтимоий коммуникатив компетентлик» (Н.П.Фетискин, В.В.Козлов, Г.М.Мануйлов) ва «Ижтимоий компетентлик шкаласи» (А.М.Прихожан) методикаси ёрдамида аниқлашга ҳаракат қилдик. Унга кўра, синалувчилар гуруҳида мазкур методика ўтказилиб, тўпланган эмпирик маълумотлар жадвалда акс эттирилган.

Бўлажак педагоглар гуруҳида ижтимоий компетентликни ривожлантиришга қаратилган психокоррекцион дастур доирасида шахсдаги ижобий мулоқот кўникмаларини шакллантириш, суҳбатдошни қабул қилиш ҳамда самимий муносабат ўрнатиш, мулоқот жараёнидаги низоларни бошқариш малакасини ривожлантиришга қаратилган психокоррекцион машқлар тўпламидан фойдаланилди. Шундан сўнг ишлаб чиқилган тренинг дастурининг самарадорлигини асослаш мақсадида қайта диагностика амалга оширилди

2-жадвал.

Шакллантирувчи эксперимент таъсирида бўлажак педагогларда ижтимоий компетентлик ривожланиш кўрсаткичлари

Синалувчилар гуруҳлари	Ижтимоий компетентликнинг таркибий қисмлари	Экспериментдан олдинги кўрсаткичлар		Экспериментдан кейинги кўрсаткичлар		Тафовутнинг статистик аҳамияти (t -мезони бўйича)
		M_1	S^2_1	M_2	S^2_2	
Тажриба гуруҳи	Мустақиллик	11	13,33	17	14,66	$p \leq 0,05$
	Ўзига бўлган ишонч	9	12,9	15	12,6	$p \leq 0,05$
	Ўз бурч-вазифаларига бўлган муносабати	7	10,9	13	11,2	$p \leq 0,05$
	Муомала	8	11,2	13	9,66	$p \leq 0,05$
	Тартиб	8	11,2	12	5,6	$p \leq 0,05$
	Ижтимоий ҳаётга қизиқиши	9	12,9	14	10,6	$p \leq 0,05$
Назорат гуруҳи	Мустақиллик	17	9,32	18	9,34	$p \leq 0,05$
	Ўзига бўлган ишонч	14	7,42	15	6,22	$p \leq 0,05$
	Ўз бурч-вазифаларига бўлган муносабати	16	8,64	16	7,36	$p \leq 0,05$
	Муомала	13	6,44	14	4,8	$p \leq 0,05$
	Тартиб	16	8,96	17	5,2	$p \leq 0,05$
	Ижтимоий ҳаётга қизиқиши	17	9,4	18	5,6	$p \leq 0,05$

Хулоса. Олинган эмпирик натижалар таҳлили бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни ривожлантириш ва шакллантириш мақсадида ўтказилган тренинг дастурини нечоғли аҳамиятли эканлигидан далолат беради. Ўз навбатида уларда мулоқот жараёнида хушмуомалалик сифатини, шахслараро муносабатларда самимийлик, очиқлик ва киришувчан бўлишга ўз таъсирини кўрсатганлигини кўришимиз мумкин.

Адабиётлар:

1. Абдраязкова А.М. Адаптация методики измерения психологического благополучия / Дипломная работа. – М.: Ф-т психологии МГУ, 2002. – 58 с.
2. Абдуллаева Ш.Х. “Педагог профессионал компетентлигини шакллантиришнинг ижтимоий психологик механизмлари”// психол фан бўйича фан доктори (DSc) дис.-Т.:2019,-Б .21
3. Булыгина Л.Н. О формировании коммуникативной компетентности школьников.М., 2010. С. 149-152. Уровни социально-коммуникативной компетентности учащихся // Международный журнал экспериментального образования. 2016. № 5, ч. 1. С. 20-23.
4. Беспалько, В. П. О критериях качества подготовки специалиста / В. П. Беспалько // Вестник высшей школы. 1988. - № 1. - С.6-14.
5. Сидоренко Е.В. Тренинг коммуникативной компетентности в деловом взаимодействии - СПб.: Речь, 2004.
6. Самооценивание в профессиональной сфере Евсевичева И.В., Любимова Г.Ю. в журнале Психология и психотехника, издательство НБ-Медиа (М.), № 9, с. 49-59
7. Хинш, Р. Социальная компетенция; пер. с нем. [Текст] / Р. Хинш, С. Виттманн. - Харьков: Гуманитарный Центр, 2005. - 192 с.
8. Цветков В. В. Формирование социальной компетентности сельских школьников: дис. ... канд. пед. наук. В. Новгород, 2002. 155 с.
9. Шадрина, И.В. Положительный опыт внутрифирменного обучения в условиях введения ФГОС ДО / И.В. Шадрина // Сборник статей участников районной педагогической конференции «Петербургская школа: прогресс и инновации».— СПб, 2014.— С. 160-164.
10. Шумилова Е. А. Социально-коммуникативная компетентность как предмет исследования. Челябинск, 2011. 258 с.

Рўзиев Умар Музафарович,
Бухоро давлат университети
Психология ва социология кафедраси доценти

ЎСПИРИНЛАРДА ХАВОТИР ВА ИЖТИМОЙ ФОБИЯ РИВОЖЛАНИШИ БИЛАН БОҒЛИҚ ХОЛАТЛАРНИНГ ДИАГНОСТИКАСИ

Аннотация: Бу мақолада ўспиринларда хавотир безовталик ҳисси ва ижтимоий фобия кўринишлари ва уларни олдини олиш, ижтимоий фобия белгилари, кимларда кўпроқ кузатилиши, ижтимоий фобиянинг сабаблари ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: агорафобия, хавотир безовталик, заифликлар фобия, хулқ-атвор, музлатиш, соматик касалликлар, ваҳима, иррационал қўрқув, шавфқатсиз цикл, чуқур депрессия, стереотип травматик ҳолат.

ДИАГНОСТИКА СОСТОЯНИЙ, СВЯЗАННЫХ С РАЗВИТИЕМ ТРЕВОЖНОСТИ И СОЦИАЛЬНОЙ ФОБИИ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация: Эта статья дает представление о проявлениях социальной фобии у подростков и их профилактике, симптомах социальной фобии, которые чаще наблюдаются, причинах социальной фобии.

Ключевые слова: агорафобия, беспокойство, фобия, поведение, замораживание, соматические расстройства, паника, иррациональный страх, порочный круг, глубокая депрессия, стереотип.

DIAGNOSTICS OF CONDITIONS RELATED TO THE DEVELOPMENT OF ANXIETY AND SOCIAL PHOBIA IN ADOLESCENTS

Abstract: This article gives an idea of the manifestations of social phobia in adolescents and their prevention, the symptoms of social phobia that are more often observed, the causes of social phobia.

Keywords: phobia, behavior, freezing, somatic disorders, panic, irrational fear, vicious cycle, deep depression, stereotype.

Кириш. Хавотир нима? Кўпчилигимиз ҳаётимизнинг деярли ҳар куни ташвишни ҳис қиламиз. Балки сизда хавотир бор. Хавотирни аниқлаш мумкин, юрак уриш тезлигининг ошиши, хаяжон, кизариш каби тана ҳолатларнинг белгилари билан кечадиган салбий кайфият ҳолати, мушакларнинг кучланиши, безовталик ҳисси ва келажак ҳақида қўрқув (АПА, 2013; Барлоу) Хавотир бизни режалаштиришга ундайди, келажак ва бу маънода ташвиш аслида яхши нарса лекин баъзи одамлар хавотирни жуда кучли ҳис қилишади бу энди фойдали эмас. Агар ташвиш аралаша бошласа муҳим тарзда инсоннинг ҳаётида, у бузилиш деб ҳисобланади.

Асосий қисм. Анксиете ва яқиндан боғлиқ касалликлар "уч томонлама заифликлар" дан келиб чиқади, бузилиш ривожланиш хавфини оширадиган биологик, психологик ва ўзига хос омиллар. (Барлоу, 2002; Су Гусумпусалрез, Bennett, Goldstein, & Барлоу, 2009).

Биологик заифликлар бирор кишини ташвишга солиши мумкин бўлган ўзига хос генетик ва нейробиологик омиллар касалликлар. Ҳеч бир ген тўғридан-тўғри ташвиш ёки ваҳима кўзғатмайди лекин бизнинг генларимиз бизни кўпроқ хавотирга мойил қилиши мумкин ва миямиз стрессга қандай муносабатда бўлишига таъсир қилади. (Драбант ва бошқ., 2012; Гелернтер & Stein, 2009; Смоллер, Блок, 2009).

Психологик заифликлар бизнинг дастлабки тажрибаларимиз дунёга қандай қарашимизга таъсир қилади. Агар биз турли ёшдаги инсонларни фикрларини ўргансак, ҳар бир ҳолатни олдиндан айтиш қийин, стресс ёки травматик тажрибалар билан дуч келишимиз, биз мумкин қадар дунёни олдиндан айтиб бўлмайдиган ва бошқариб бўлмайдиган, ҳатто хавфли сифатида кўришимиз мумкин. (Барлоу, 1998; Gunnar Ва Fisher, 2006). Муайян заифликлар бизнинг тажрибамизга қандай мурожат қилади, бизни диққатимизни жамлашга ва ташвишларимизни йўналтиришга олиб боради. Агар биз **жисмоний касалликни** билсак хавфли, балки кимдир касал бўлса, оиламизнинг брон ёмон ҳолатга

тушушига, реакциясига гувоҳ бўлиш орқали, биз хавотиримизни жисмоний хиссиётларга қаратиш мумкин. Агар биз бошқаларнинг норозилигини билсак салбий, ҳатто хавфли оқибатлар келиб чиқади. Масалан бақириш ёки қаттиқ жазолаш ҳатто энг кичик жиноят ҳам, бизнинг ташвишимизни ижтимоий баҳолашга қаратишимиз мумкин. Агар буни билиб олсак келажакда ҳар қандай вақтда, биз ташвишларимизни ташвишларимизга қаратишимиз мумкин. Бу заифликлар бевосита ўз ташвиш бузилиши сабаб ўрнига, ушбу заифликларнинг барчаси мавжуд бўлганда ва биз ҳаёт стрессини келтириб чиқарамиз.

Ҳар бир инсон бир вақтнинг ўзида қандайдир ташвиш даражасини бошдан кечириши мумкин. Фобия бузилиши бўлганлар буни доимий равишда бошдан кечиришади ва шунчалик кучлики, бу уларнинг ҳаёт сифати таъсирига сезиларли даражада салбий таъсир қилади.

Умумий ташвиш бузилиши

Кўпчилигимиз вақти-вақти билан баъзи ташвишларни бошдан кечирамиз ва бу ташвишларни аслида режалаштириш бизга ёрдам ва фойдали бўлиши мумкин. Келажак учун ёки муҳим бир нарса қилишни унутманг. Кўпчилигимиз бошқа нарсаларга эътибор қаратишимиз ёки ҳар доим ташвишланишни тўхтатишимиз керак деб ўйлаймиз бу бўлган ташвишларимизни четга суриб қўйинг муаммо ўтди дегани эмас. Бироқ, ижтимоий фобия умумий ташвиш бузилиши бўлган одам учун булар ташвишларни ўчириш қийин ёки ҳатто имконсиз бўлиб қолади. Улар ўзларини ташвишга солиши мумкин бўлган фобиялардан қутулиши чораларни излайдилар. Ваҳима кўркув ҳаддан ташқари турли нарсалар ҳақида ўйлаш бир қатор, кичик ва ҳалокатли, ўйловлар ҳам уларнинг ташвишлари шунингдек, мушакларнинг кучланиши, чарчок, кўзгалиш ёки бошқа кўплаб аломатлар билан бирга келади, безовталиқ, асабийлашиш, уйкудаги қийинчиликлар (ухлаб қолиш, ухлаб билмаслик ёки иккаласи), ёки диққатни жамлашда қийинчилик мезонлари ва доимий ташвиш бўлиши, яхшилик учун эмас.

Фобия билан касалланган одамни оддий одамдан кўра кўпроқ ташвишга соладиган нарса нима? Тадқиқотлар шуни кўрсатадики фобия билан касалланган шахслар таҳдидларга нисбатан сезгир ва хушёр одамларга қараганда кўпроқ ташвишли. Бу эрта стрессли тажрибалар билан боғлиқ бўлиши мумкин, бу эса дунёга ижтимоий кўркув кўзи билан қарашга олиб келиши мумкин.

Фобия ва тегишли касалликлар олдиндан айтиб бўлмайдиган, бошқариб бўлмайдиган ва ҳатто фобия билан касалланган одамлар, акс эттирган ҳолда бошқариб бўлмайдиган ёки уларни назорат қилишнинг бир усули сифатида ташвишланадилар, қутилмаган тажрибалар ва ноаниқ натижаларга қарши (Дугас, Gagnon, Ладосеур, & Фрестон, 1998). Қайта-қайта мумкин бўлган барча саволлар орқали энди "нима бўлса?" уларнинг сценарийлари ақл-идрок, одам ўзини қутилмаган натижага нисбатан камроқ ҳимоясиз ҳис қилиши мумкин улар вазиятни назорат қилишларини ҳис қилишади (Уеллс, 2002). Фобия билан касалланган одамларни хафагарчиликни олдини олишнинг бир усули сифатида ташвишлантиради (Борковес, Алсаине, & Беһар, 2004). Масалан, қачон ташвишланадиганлар стрессли вазиятга дуч келганларга қараганда камроқ физиологик кўзгалиш хавотир бор эди, эҳтимол ташвиш уларни қандайдир тарзда "чалғитгани" учундир.

Муаммо шундаки, буларнинг барчаси "агар нима бўлса?"- Унинг одамни ечим ёки ечимга яқинлаштирмайди. Аслида уларни фикрларни тўлаши керак бўлган муҳим нарсалардан узоқлаштириши мумкин айтилганда, масалан, эътиборни муҳим лойиҳани тугатиш каби нарсаларга жалб қилиш. Мисол учун, агар она тун бўйи ўзининг ўспирин қизи ҳақида қайғурса, қизи бир кеча барвақт уйга хавфсиз қайтса, онаси осонлик билан унинг муваффақиятли ҳолатини қабул қилади. Агар барвақт қайтмаса. Эри билан томоша қилган филмига эмас, балки ташвишлар билан овора бўлади. Шу тарзда, ташвиш айланиши давом этади ва кейинчалик, ваҳима билан касалланган одамлар кўпинча ҳаётларидаги бошқа ёқимли воқеаларни соғинишади.

Ваҳима бузилиши ва Агрофобия.

Сиз ҳеч қачон бахтсиз ҳодисага дуч келдингизми ёки қандайдир тарзда ажабланиб қолдингизми? Мумкин қадар юрак уриши, нафас қисилиши ёки хириллаш каби жисмоний ҳис-туйғуларни ҳис қилдингиз ёки сенсациялар. Ушбу сигнал реакцияси "жанг ёки парвоз" жавоби деб номланади (Cannon, 1929) ва шундай сизнинг танангизнинг кўркувга бўлган табиий реакцияси, сизни жангга ёки қочишга тайёрлайди таҳдид ёки хавф. Эҳтимол, сиз бу ҳислар билан жуда ташвишланмагансиз, чунки сиз уларга нима сабаб бўлганини билар эдингиз. Аммо тасаввур қилинг-а, агар бу сигнал реакцияси "кўкдан" чиқса ҳеч қандай аниқ сабаб йўқ ёки сиз ташвиш ёки кўркувни қутмаган вазиятда. Бу "қутилмаган" ваҳима ҳужуми ёки нотўғри сигнал дейилади. Чунки аниқ сабаб йўқ ёки сигнал реакциясига ишора қилинг, сиз хиссиётларга кучли кўркув билан муносабатда бўлишингиз мумкин, эҳтимол ўзингизни юрак хуружига дучор қиласиз ёки ақлдан озаясиз деб ўйлайсиз. Мумкин ушбу

хужум пайтида ҳис қилган жисмоний ҳис-туйғуларингизни ушбу қўрқув билан боғланг ва кетиши мумкин яна бу ҳис-туйғуларга дуч келмаслик учун сизнинг йўлингиздан. Бу каби қутилмаган ваҳима хужумлари ваҳима бузилишининг олдини олиш керак. Ваҳима бузилиши бўлган одамлар ҳатто оддий жисмоний ҳиссиётларни ҳам талқин қилишда ҳалокатли тарзда, кўпроқ ташвиш ва истехзо билан, кўпроқ жисмоний ҳислар, ёвузликни яратади ваҳима цикли (Кларк, 1986, 1996). Бу шахс бир қатор ваҳималарни олдини олиш учун турли йўллари ахтара бошлайди. Мумкин бир хил физиологик қўзғалишни келтириб чиқарадиган вазиятлар ёки ҳаракатлар ваҳима хужумининг бошланиши. Бўғилиш ҳиссиётларини бошдан кечирган киши тилла ёки маржонларни тақишдан қочиш мумкин. Ушбу ички танадан қочиш ёки ваҳима учун соматик белгилар интероцептив қочиш деб номланган (Барлоу ва Краске, 2007; Краске ва Барлоу, 2008; Shear ва бошқ., 1997). Шахс, шунингдек, қочиш учун ҳаддан ташқари иштиёқни бошдан кечирган бўлиши мумкин қутилмаган ваҳима хужуми. Бу баъзи жойлар ёки вазиятлар, айниқса, нимага деган маънога олиб келиши мумкин қочиш мумкин бўлмаслиги мумкин вазиятлар - "хавфсиз эмас". Бу ҳолатлар ваҳима учун ташқи кўрсатмалар. Агар одам бир нечта жойлардан ёки вазиятлардан қочишни бошласа ёки ҳали ҳам бу вазиятларга чидайдди, лекин буни сезиларли даражада қўрқув ва ташвиш билан қилади, кейин одамда агорафобия ҳам бор. Агорафобия инсон ҳаётини сезиларли даражада бузилишига олиб келиши ва унинг чиқиб кетишига олиб келиши мумкин. Поездга чиқмаслик учун қатновга соат қўшиш каби вазиятлардан қочиш учун уларнинг йўллари ёки фақат озик-овқат дўконига кирмаслик учун олиб кетишга буюртма бериш. Кўрган бир фожиали ҳолатдан кейин, менда ҳам шу ҳолат кузатилса нима қиламан деб ваҳимага тушуши. Менинг пациентимдан бири 5 йил бир ўзи уйдан чиқа олмаган. Бунга кучли қўрқув, бу онасининг қўлида жон бериши сабаб бўлган. Баъзи ҳолларда агорафобия ваҳима хужумлари бўлмаганда ривожланади ва шунинг учун ДСМ-5да алоҳида бузилиш мавжуд. Аммо агорафобия кўпинча ваҳима бузилишига ҳамроҳ бўлади. Аҳолининг тахминан 4,7% умр бўйи ПД ёки агорафобия мезонларига жавоб берган (Kessler, Чиу, Демлер, Мериангас, & Уолтерс, 2005; Kessler ва бошқ., 2006). Буларнинг барчасида Ваҳима бузилиши-бу азоб чекувчиларни қолдирадиган заифлаштирувчи ҳолат муайян ваҳима хужумидан кейин узоқ давом этадиган ўткир ташвиш қуради. Бу ташвиш қасдан қочишга олиб келганда муайян жойлар ва вазиятлар одамга ташхис қўйиш мумкин агорафобия. Анксиете ва тегишли касалликлар ваҳима бузилиши ҳолатлари, бир вақтлар адаптив табиий сигнал реакцияси бўлган нарса энди фобияга айланади. Бу шахсда кучайган сари жуда қўрқинчли ва сохта сигналларни кўпайтирди.

Махсус фобия

Кўпчилигимиз қўрқадиган баъзи нарсаларга эга бўлишимиз мумкин, масалан, асаларилар, игналар ёки баландликлар (Myers ва бошқ., 1984). Аммо агар бу қўрқув шунчалик кўп истемол қилса-чи, сиз ёзда чиқолмайсиз ёки махсус саёҳатга бориш учун зарур бўлган вакциналарни олинг ёки шифокорингизга янги офисида ташриф буюринг 9-қават? Муайян фобия ташхиси мезонларини қондириш учун мантиқсиз бўлиши керак. Шахсининг қобилятига сезиларли даражада халакит берадиган маълум бир объект ёки вазиятдан қўрқиш вазифаси. Масалан, хонангиз биринчи қаватдами? Йўқ бўлса баланд биноларда жойлашгани унга ваҳимани келтириб чиқаради. Бир фобиячи шахс шамол мени учуриб кетади деб ҳар доим кимнингдир қўлидан ушлаб юради. Мумкин бўлган фобиялар рўйхати ҳайратланарли, аммо ўзига хос фобиянинг тўртта асосий пастки тури тан олинган: қон жароҳати-инъекция (БИИ) тури, вазият тури (самолётлар, лифтлар ёки ёпиқ жойлар), табиатда дуч келиши мумкин бўлган ҳодисалар учун табиий муҳит тури (учун масалан, баландликлар, бўронлар ва сув) ва ҳайвон тури. Бешинчи тоифага "бошқа" фобиялар қиради. Бу тўрт йирик ҳар қандай субтипларга мос эмас (масалан, бўғилиш қўрқуви, қусиш ёки касаллик билан касалланиш). Энг фобик реакциялар фаолликнинг кучайишига олиб келади симпатик асаб тизимида ва юрак уриши ва қоннинг кўпайиши босим, эҳтимол ҳатто ваҳима хужуми. Бироқ, БИИ типигаги фобияларга эга одамлар одатда сезиларли пасайиш кузатилади юрак уриши ва қон босими ва май, ҳатто заифлик. Шу тарзда, БИИ билан бирга бўлганлар фобиялар деярли ҳар доим фарқ қилади одамларнинг физиологик реакцияси фобиянинг бошқа турлари (Барлоу & Либовиц, 1995; Краске, Антоний, & Барлоу, 2006; Hofmann, Алперс, & Pauli, 2009; Ост, 1992).

Ижтимоий фобия, шунингдек, оилаларда биз билладиган ҳар қандай фобик бузукликдан кўра кучлироқ ишлайди. Махсус фобия энг кенг тарқалган психологик усуллардан биридир Лифтлар клаустрофобия билан касалланганлар учун тетик бўлиши мумкин ёки агорафобия. Анксиете ва тегишли касалликлар қўшма Штатлардаги бузилишлар, аҳолининг 12,5% умр бўйи тарихи ҳақида хабар беради "фобия" деб ҳисоблаш учун етарлича муҳим қўрқув (Арринделл ва бошқ., 2003; Kessler,

Berglund, va boshq., 2005). Муайян фобиядан азият чекадиган одамларнинг аксарияти бир нечта бир неча турдаги фобиялар (Hofmann, Lehman va Барлоу, 1997).

Ижтимоий ташвиш бузулиши (Ижтимоий фобия)

Кўп одамлар ўзларини уятчан деб билишади ва кўпчилик ижтимоий баҳолашни ноқулай деб билишади энг яхши ҳолатда ёки нутқ сўзлаш. Шунга қарамай, аҳолининг озгина қисми ижтимоий ташвиш ташхисини қўйиш учун бундай вазиятлардан сезиларли даражада қўрқиш тартибсизлик (САД) (АПА, 2013). САД кўркам уятчанлик кўпроқ (Богелс ва бошқ., 2010; Счнейер ва бошқ., 1996). САД ташхисини олиш учун ижтимоий билан боғлиқ қўрқув ва ташвиш вазиятлар шунчалик кучли бўлиши керакки, одам улардан бутунлай қочади ёки қочиш бўлмасда мумкин қадар, одам уларга катта қайғу билан чидайди. Бундан ташқари, қўрқув ва қочиш ижтимоий вазиятлар инсоннинг кундалик ҳаёти йўлида олиш керак, ёки жиддий илмий чеклаш ёки касбий фаолият. Мисол учун, бемор мукамал 4 бахони олишни истайди лекин ўртача у бир сўз ҳам айтолмади. Талаб оғзаки тақдимот бажариши керак эди. У учун бу мумкин эмас, чунки унинг дарсларни, уни курсни муваффақиясиз бўлишига ижтимоий фобия олиб келди. Салбий баҳолашдан қўрқиш кимнидир мажбур қилиши мумкин ижтимоий тадбирларга таклифномаларни қайта-қайта рад этинг ёки одамлар билан суҳбатлашишдан сақланиш, катта ва катта изоляцияга олиб келади. Анксиете ва қўрқувни қўзғатадиган ўзига хос ижтимоий вазиятлар бирма-бир ўзаро таъсирлардан иборат, суҳбатни бошлаш ёки давом эттириш каби; ишлашга асосланган вазиятларга, масалан нутқ сўзлаш ёки саҳнада чиқиш , талабчанлик, масалан кимнидир ўзгартиришни сўраш бузувчи ёки кирувчи хатти-ҳаракатлар. Ижтимоий баҳолашдан қўрқиш хатто бундай нарсаларга ҳам тегишли бўлиши мумкин жамоат хожатхоналаридан фойдаланиш, ресторанда овқатланиш, жамоат жойида шаклларни тўлдириш ёки хатто поездда ўқиш. Одамга эътиборни жалб қилиши мумкин бўлган ҳар қандай вазият қўрқинчли ижтимоий вазиятга айланиши мумкин. Агар қўрқув чекланган бўлса оммавий нутқ каби ишлашга асосланган вазиятлар, фақат қайғули ишлаш диагностикаси тайинланган. Бирор кишининг ижтимоий вазиятлардан шунчалик қўрқишига нима сабаб бўлади? Одамда қуйидагилар бўлиши мумкин айниқса, ижтимоий баҳолаш хавфли бўлиши мумкинлигини билиб, маълум бир нарсани яратади ижтимоий ташвишларни ривожлантириш учун психологик заифлик (Бруч & Ҳеймберг, 1994; Лиеб ва бошқ., 2000; Рапи Ва Мелвилл, 1997).

Анксиете ва тегишли касалликлар

Кимдир ижтимоий травмани бошдан кечирган бўлиши мумкин бу доимий таъсирга эга эди, масалан, безорилик ёки камситилган. Қизиғи шундаки, бир гуруҳ тадқиқотчилар уларнинг ўрганиш намунадаги катталар 92% билан, деб топилди ижтимоий фобия қаттиқ масҳара ва безориликни бошдан кечирди болалиқда, фақат 35% дан 50% гача бошқа Анксиете касалликлари бўлган одамлар (Маккейб, Антоний, Суммерфелдт, Лисс Ва Свинсон, 2003). Бошқа биров томонидан қўзғатилган ташвишга шунчалик кучли муносабатда бўлиши мумкин уларда кутилмаганда ваҳима бор, ижтимоий вазият ва ҳужум. Кейинчалик бу ваҳима ҳужуми боғланади (шартли жавоб) ижтимоий вазият билан, одамни кейинги сафар ваҳима қўрқишига олиб келади улар бу вазиятда. Бу психологик жароҳат деб ҳисобланмайди, бироқ, чунки одамнинг қўрқуви кўпроқ йўналтирилган кутилмаган ваҳима қилишдан кўра ижтимоий баҳолашда ҳужумлар ва ҳужум қилиш қўрқуви чекланган ижтимоий вазиятлар да сезилади.

Травматик стресс бузилиши. Уруш ҳикоялари билан, табиий офатлар, ва жисмоний ва жинсий тажовуз, ҳукмронлик.

Уруш, табиий офатлар ва жисмоний ва жинсий тажовуз ҳақидаги ҳикоялар янгиликларда устунлик қилади, травма кўп одамлар учун ҳақиқат эканлиги аниқ. Ҳар бир содир бўладиган воқеа ходисалар кўп ҳолатлар, индивидуал травмалардай хатто сарлавҳалар қилиш. Масалан: Фалон жойда сел келибди, бутун қишлоқ сув остида қолибди сарлавҳаси фобиячиларда янада ваҳимани кучайтиради. Шунга қарамай, кўп одамлар травматик ходисаларга дуч келишса-да, травмага дуч келган ҳар бир кишига эмас бузилиши бўлганларга фобияси ривожланади. Баъзилар, оила ва дўстлар ёрдамида, тикланиш ва давом этиш имкониятига эга уларнинг ҳаёти билан (Фридман, 2009). Баъзилар учун эса травмалардан кейинги ойлар ва йиллар травма воқеа интрузив эслатмаларга, кучли қўрқув хисси билан тўлдирилган бошқа травматик ходиса ёки изоляция ва хиссий қарахтлик хисси пайдо бўлиши мумкин. Улар бу ҳолатни йўқотиш учун ўзларини заиф ёки хавфли бўлишдан ҳимоя қилиш учун мўлжалланган кўплаб хатти-ҳаракатларда, масалан потенциал хавф белгиларини қидириш учун уларнинг атрофини доимий равишда сканерлаш, ҳеч қачон орқа томони билан эшикка ўтирмайди, ёки ҳеч қачон ўзларини ёлғиз қолишларига йўл қўймайди. Бу доимий травмага реакция травмадан кейинги стрессни бузилишини (ваҳима) тавсифловчи нарсадир. Ваҳима ташхиси травматик

ходисанинг ўзи билан бошланади. Булар кўпроқ шахсда болаликдаги ижтимоий травма узоқ давом этиши таъсирида бўлиши керак. Анксиете ва тегишли касалликлар ҳақиқий ёки таҳдид қилинган ўлим, жиддий шикастланиш ёки жинсий зўравонлик билан боғлиқ ҳодисага дуч келиш. Ваҳима ташхисини олиш учун ҳодисага таъсир қилиш тўғридан-тўғри бошдан кечиришни ўз ичига олиши керак, воқеа содир бўлганини билиб, бошқа биров билан содир бўлган воқеага гувоҳ бўлиш, яқин қариндошига ёки дўстига ёки воқеа тафсилотларига такрорий ёки ҳаддан ташқари таъсир қилиш (масалан, биринчи жавоб берувчилар ҳолатида). Кейинчалик одам воқеани қайта бошдан кечириди интрузив хотиралар ва кабуслар орқали. Баъзи хотиралар шунчалик ёрқин қайтиб келиши мумкин одам воқеани қайта-қайта бошдан кечириётганини ҳис қилиши, нима деб номланади. Шахс травмани эслатадиган ҳар қандай нарсадан қочиши мумкин, суҳбатлар, жойлар ёки ҳатто муайян турдаги одамларни ўз ичига олади. Улар ҳиссий ҳис қилишлари мумкин уларнинг ҳис қилиш қобилияти чекланган ёки чекланмаган, бу уларнинг муносабатлари шахслараро муносабатларига ҳалақит бериши мумкин. Одам содир бўлган воқеанинг айрим жиҳатларини эслай олмаслиги мумкин тадбир давомида. Улар олдиндан қисқартирилган келажак туйғусини ҳис қилишлари мумкин, улар ҳеч қачон уйланмайдилар, оилангиз бор ёки узоқ, тўлиқ ҳаёт кечиринг. Ваҳиманинг аҳоли орасида тарқалиши ҳаммаси нисбатан паст, 6,8% ҳаётининг бир қисмида ваҳимани бошдан кечирган (Kessler, Berglund, ва бошқ., 2005). Жанг ва жинсий тажовуз энг кенг тарқалган жароҳатлар (Kessler, Соннега, Броммет, Хюз ва Nelson, 1995). Ҳолбуки, ваҳима илгари ДСМ-нинг энг сўнгги версиясида Анксиете бузилиши деб таснифланган (ДСМ-5; АПА, 2013) у травманинг янада аниқ тоифаси остида қайта таснифланган.

Ўспиринларда суҳбат методи орқали қуйидаги натижаларни аниқланди.

1-жадвал.

**Ўспиринлар кўрқадиган ижтимоий вазият турлари
Ижтимоий фобия (n = 50) % да тасдиқлаш**

№	Ҳолат юзасидан саволлар	%
1	Вазият ўзи ўртамиёна зўр	71
2	Синф олдида овоз чиариб ўқиш	56
3	Муסיкий ёки спорт чиқишлари	61
4	Суҳбатга қўшилиш	59
5	Катталар билан гаплашиш	59
6	Субатни бошлаш	58
7	Доскага ёзиш	51
8	Ресторанда овқат буюртма қилиш	50
9	Рақслар ёки фаолият кечаларида қатнашиш	50
10	Тест олиш	48
11	синфдаги саволга жавоб бериш	46
12	Бошқа болалар билан ишлаш ёки ўйнаш	45
13	Ўқитувчидан ёрдам сўраш	44
14	Жисмоний тарбия	37
15	Гуру ёки жамоавий учрашувлар	36
16	Расм олган ҳолда	32
17	Мактаб ёки жамоат ҳаммомларидан фойдаланиш	24
18	Дўстингизни тушликка таклиф қилиш	24
19	Мактаб кафетериясида оватланиш	23
20	Коридорда юриш шкафларга кийимларини осиб қўйиш	16
21	Телефонда жавоб бериш ёки гаплашиш	13
22	Бошқалар олдида овқатланиш	10
23	Танишув	ҳа

Еслатма: ҳа = амалдаги эмас.

Аксарият ёшлар кўплаб вазиятларни ҳаёлийли деб тасдиқладилар ва муаллифларни умумий ижтимоий фобия ушбу клиник популяцияга жуда хосдир деган хулосага келишди. Кундалик, кундалик маълумотларидан шунга ўхшаш ташвишлар, айниса, тузилмаган ижтимоий ўзаро таъсирлар, бошқалар олдида ишлаш, бошқаларга жавоб бериш ва жамоат жойида бирор нарса илиш (масалан, оватланиш, хожатхонадан фойдаланиш) билан боғлиқ эди. Аслини олиб қараганда, ижтимоий фобия

билан ёшлар хабарларга ҳафтасига қарийб беш ёки ундан ҳам кўп дуч келадилар. Албатта, бу ҳолатларнинг баъзилари бир-бирига тўри келиши мумкин. Масалан, бола мактабда бир ватнинг ўзида бир нечта стресс омилларини ўз ичига олган вазиятларга дуч келиши мумкин, чунки у оғзаки тақдирот пайтида синфда саволга жавоб бериши керак. Дарҳақиқат, ижтимоий фобия билан касалланган кўплаб ўспиринлар бошлар билан норасмий ва расмий алоқалар қиладилар, бошқалар томонидан тасдиқлаш ва кузатиш билан боғлиқ вазиятлардан қўришади. Менинг тажрибамга кўра, ижтимоий ташвиш ёки ижтимоий фобия билан оғриган кўплаб болалар, эҳтимол, синфга, коридорга, кафетеряга, ечиниш хонасига, жисмоний тарбия дарсига ёки гуруҳ фаолиятига кириш каби бошқаларнинг мавжудлигига дуч келишларини талаб қиладиган вазиятлардан қўришади. Бундан ташари, ижтимоий ташвиш ёки ижтимоий фобия билан оғриган ўспиринлар кўпинча танишиш, чеклов, чекиниши, иш билан субатлашиш ва ҳайдовчилик синовлари ва бошлар каби олатлардан қўришади. Ижтимоий фобия билан касалланган баъзи ёшлар, шунингдек, йиғилишлар, оилавий дўстлар билан учрашиш, эшик ёки телефонга жавоб бериш ёки ресторанда оилавий кечки овқат пайтида ўз овқатларини буюртма қилиш каби оилавий йўналтирилган фаолият билан шуғулланишни истамайдилар.

Хулоса. Касалликни ривожланишига ҳисса қўшадиган учта асосий заифликни номлари тавсифланди. Анксиете ва тегишли касалликлар. Сизнингча, бу касалликлар биологик жиҳатдан ривожланиши мумкинми ё фақат омиллар сабабми? Ушбу бузилишлар фақат ўрганиш тажрибаларидан келиб чиқиб ривожланиши мумкинми? Анксиете ва шунга ўхшаш бузилишлардаги кўплаб аломатлар тажриба билан мос келадиган одамлар борлиги. "Сигнал реакцияси" нима? Агар кимдир улар ҳақида сигнал реакциясини бошдан кечирса одамлар билан тўла хона олдида нутқ сўзлаш учун буни "ҳақиқий сигнал" деб ҳисоблайсизми ёки "сохта сигналми"? Кўп одамлар уятчан. Уятчан одамни ижтимоий билан фарқ қиладиган нарса Анксиете бузилиши? Сизнингча, уятчанликни ташвиш бузилиши деб ҳисоблаш керакми? Анксиете фойдалими? Хавотир ҳақида нима дейиш мумкин деган саволларга мақолада қисқача жавоб беришга ҳаракат қилдик. Хулоса қилиб шунини айтиш керакки ҳар бир ўсиб келаётган авлодни кўрқмас жасур, ўзига ишонган қилиб тарбиялаш керак акс ҳолда ишончсиз, иккиланувчи кўрқоқ бўлиб ўсишига замин яратиб берган ҳисобланасиз.

Адабиётлар:

1. Нордонэ Д. Страх, паника, фобия/Дж. Нордонэ – Москва: Психотерапия, 2008, - 348.
2. Тревожное фобическое расстройство детского возраста/ И. А. Хрущ. – Мн. БГМУ, 2004.
3. Эмоции, страх, стресс. // Вопросы психологии.- 1989г, -N 4.
4. Рўзиев У.М. Психологик консультация ва психокоррекция. Дарслик. -2021.

Саттарова Шахнозахон Кўчқаровна,
Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети
Педагогика ва психология факультети
"Амалий психология кафедраси" доценти, (PhD)

БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ ПОЗИТИВ ФИКРЛАШИГА ТАЪСИР ҚИЛУВЧИ ОМИЛЛАР

Аннотация: Мақолада ўрганилаётган муаммо бўйича илмий адабиётлар таҳлили, улардаги ижобий психология ва касбий фаолиятда позитив кайфиятни ривожлантириш муносабатларини ижтимоий-психологик муаммолари хусусида сўз боради. Бўлажак ўқитувчиларда позитив фикрлашга таъсир қилувчи омиллар: зўриқиш, умидсизлик, ўзини етарлича баҳолай олмаслик, ишдаги зиддият, ўз-ўзини айблаш, патоген эмоция, саломатлик ҳолатининг қониқарли эмаслиги, ўзидан таълим бериш субъекти сифатида қониқмаслик, доимий негатив фикрларнинг мавжудлиги, оптимизмнинг етишмаслиги каби ҳолатларга тўхталиб, психологик муаммолар таҳлили қилинади.

Калит сўзлар: бўлажак ўқитувчилар, позитив кайфият, ўзини айблаш, ижобий психология, қулай шароит, патоген эмоционал куюнчақлик, саломатлик, автономия, "Мен" концепцияси, негатив фикр, пессимизм, психологик муаммолар.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПОЗИТИВНОЕ МЫШЛЕНИЕ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Аннотация: Статья посвящена анализу научной литературы по изучаемой проблеме, позитивной психологии и социально-психологическим проблемам формирования позитивного настроения в профессиональной деятельности. Факторы, влияющие на позитивное мышление у будущих учителей: напряженность, безысходность, недостаточная самооценка, конфликтность на работе, самобичевание, болезнетворная эмоция, неудовлетворительное состояние здоровья, неудовлетворенность собой как субъектом образования, наличие постоянных негативных мыслей, отсутствие оптимизма., анализируются психологические проблемы.

Ключевые слова: будущие учителя, позитивное настроение, самообвинение, позитивная психология, благоприятная среда, патогенный эмоциональный интеллект, здоровье, автономия, концепция «Я», негативное мышление, пессимизм, психологические проблемы.

FACTORS INFLUENCING THE POSITIVE THINKING OF THE FUTURE TEACHER

Abstract: The article is devoted to the analysis of scientific literature on the problem under study, positive psychology and socio-psychological problems of the formation of a positive mood in professional activities. Factors influencing positive thinking in future teachers: tension, hopelessness, lack of self-esteem, conflict at work, self-flagellation, disease-causing emotion, poor health, dissatisfaction with oneself as a subject of education, the presence of constant negative thoughts, lack of optimism., Psychological problems are analyzed.

Key words: future teachers, positive mood, self-blame, positive psychology, favorable environment, pathogenic emotional intelligence, health, autonomy, concept of "I", negative thinking, pessimism, psychological problems.

Мавзунинг долзарблиги. Айни дамда хозирги шароитда барча таълим муассасаларида бўлажак педагогларнинг позитив тафаккурини ривожлантириш билан боғлиқ ижобий фикр, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш механизмлари, касбий муваффақиятни шакллантириш технологияларининг ишлаб чиқилиши ва таълим жараёнига тадбиқ қилишни ривожлантириш масалаларига алоҳида эътибор берилмоқда. Бирлашган миллатлар ташкилотининг "XXI асрнинг Олий таълими" Бутунжаҳон декларацияси, ЮНЕСКОнинг "Олий таълимни ислоҳ қилиш ва ривожлантириш" бўйича таъкидлаб ўтилган дастурий ҳужжатларида дунё миқёсида олий таълим муассасаларида таълим сифатини самарали йўлга қўйиш, уни амалга оширишнинг ўзига хос креатив ёндашувларига эътибор бериш, шу жараёни ташкил этишни такомиллаштириш орқали бўлажак педагогларда позитив тафаккурни ривожлантириш, ижобий фикрлаш ва таълимда самимий мулоқотда ижобий муносабатлар фаоллигини шакллантириш бугунги кунда долзарб масалалардан

бири бўлиб қолмоқда. Ўрганилаётган муаммо бўйича илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, позитив фикрлаш муваффақият мотивацияси, чидамлилик, ижобий муносабат, ўз-ўзига таъсирчанлик, рефлексивлик, автономлик, фаоллик каби турли хил тушунчалар билан боғлиқ муҳим ижтимоий-психологик ҳодисаларни ўрганиш билан бир қаторда унга таъсир этувчи омиллар: зўриқиш, умидсизлик, ўзини етарлича баҳолай олмаслик, ишдаги зиддият, ўз-ўзини айблаш, патоген эмоция, саломатлик ҳолатининг қониқарли эмаслиги, ўзидан таълим бериш субъекти сифатида қониқмаслик, доимий негатив фикрларнинг мавжудлиги, оптимизмнинг етишмаслиги каби ҳолатларга ҳам тўхталиб ўтиш муҳимдир.

Асосий қисм. Шу муносабат билан бўлажак педагогнинг позитив тафаккури муҳим хусусиятларини ўрганиш учун ушбу доирадаги олимлар тажрибасини батафсилроқ кўриб чиқиш мақсадга мувофиқдир. Шундай қилиб, М.Н. Цехмистренконинг фикрига кўра, позитив тафаккур тегишли ижтимоий муносабат, умидсизликка бардошлик билан боғлиқ бўлиб, уни инсоннинг туғма индивидуал-психик хусусиятлари ва шахсий тузилмалари орқали ўрганиш тавсия этилади. Бундан ташқари, муаллиф эмоционал ҳолатларни ўрганиб, ҳар бир инсонда зўриқишнинг муайян чегара даражаси мавжудлиги, унинг ошиб кетиши эса психик ҳолат ва хатти-ҳаракатларнинг ўзгаришига олиб келишини таъкидлайди. Бу даражани умидсизликка бардошлик деб аташ мумкин. Бу шахснинг психобиологик мослашувини йўқотмасдан умидсизликка дош бериш қобилияти сифатида тавсифланади. Ушбу ҳолатга асосланиб, олим умидсизлик ҳолатида хатти-ҳаракатларнинг бир нечтасини аниқлайди:

фиксация реакцияси, агар инсон вазиятни ҳал қилиш учун аниқ уринишлар қилмасдан, бутун энергиясини кечинмага сарфласа, бу мослашувнинг пастлиги ва ўзини етарлича баҳолай олмаслик тарзида белгиланади;

агрессив реакция тури – атрофдаги одамлар ёки нарсаларни айблаш, зиддият туфайли ҳам дезадаптив саналади;

вазиятни неъмат ёки ҳаётдаги сабоқ сифатида қабул қилиш, бундай хатоларга йўл қўймаслик, уларнинг ижобий ва салбий томонларини қабул қилиш қобилияти;

ўз-ўзини айблаш реакцияси шахснинг ўзига бўлган паст баҳоси ва ўзига нисбатан антипатия билан боғлиқ;

муаммони ҳал қилиш учун масъулиятни ўз зиммасига олиш – энг мослашувчан реакцияга киради, ижобий тахминлар ва ўз-ўзига ишончни ҳис қилишни кўрсатади;

бошқа шахсга қарши айбловдан қочиб;

ҳаракат қилмаслик, вазиятни ўзи ҳал қилади, деб ўйлаш; [6].

Л.В. Левицкая позитив тафаккурни саноген ҳислар, уларнинг хусусиятлари ва ишлашини касбий-техник ўқув муассасалари таълим олувчиларининг соғлиги ва муваффақияти омиллари сифатида ўрганади. Муаллифнинг таъкидлашича, таълим олувчиларнинг шахсий эмоционал-ҳиссий доираси патоген эмоциялардан саноген ҳисларга ўз ўзини бошқариш, мотивлаш, рефлексия, субъект томонидан ўз эмоционал доирасини ўзлаштириш ва унинг ҳиссий доирагача кўтарилиши йўллари орқали онгли ўтишини таъминлаш мумкин. Назарий таҳлил асосида тадқиқотчи саноген ҳисларнинг ривожланишига таъсир этувчи омилларни аниқлайди:

позитив тафаккур;

шахснинг эмоционал эркинлиги;

паст агрессивлик;

чидамлилик;

адаптация ва компенсация;

шахснинг муҳит билан алоқаси.

Патоген эмоцияларни бартараф этиш асосида саноген ҳисларни ривожлантириш қонунияти касалликдан соғлом шахсга, бошқарилмайдиган спонтан аффектив-эмоционал реакциялардан ўзи бошқариладиган эмоционал-ҳиссий фаолият ва ҳаёт ҳамда таълимга ўтиш мантигини ўзида акс эттиради. Психологик-педагогик ва соғломлаштириш контекстида таълим олувчиларнинг патоген эмоциялари ва саноген ҳисларининг намоён бўлиш даражаларини экспериментал ўрганиш асосида муаллиф куйидагиларни аниқлайди:

патоген эмоцияларнинг нисбатан юқори даражаси ва саноген ҳис-туйғуларнинг паст даражаси талабаларнинг соғлиги ва ўқув фаолияти самарадорлигига салбий таъсир кўрсатади;

патоген эмоциялар ва саноген ҳис-туйғуларнинг ривожланиш даражаси, саломатлик ҳолати ва таълим фаолиятининг муваффақияти шахсийлаштириш механизмларини ривожлантириш даражаси, субъективликни ошириш, саноген эмоционал-ҳиссий фаолият учун соғломлаштириш

қобилиятларини фаоллаштиришга боғлиқ. Бундан ташқари, таълим олувчиларда ички агрессивлик, тинчликнинг ноадекват намоён бўлиши, ўздан ўқув фаолияти субъекти сифатида қоникмаслик (қўзғатувчи ҳиссиётлар) ва тинчликсеварлик, раҳмдиллик, ишонч, ўз-ўзини англашда реализми (саноген туйғулар) аниқланди [5].

Шу ўринда Э.Ф.Ғозиев кундалиқ ҳаётидаги позитив ва негатив тафаккурнинг инсонлар руҳиятига ва улардаги кайфиятига таъсирини тадқиқ қилар экан табиатнинг таркибий қисмлари ва жамиятнинг аъзолари билан турли шаклда муваффақиятга, ҳар хил хусусиятли муносабатга киришиши, улар билан муомала қилиш маромларини даврий «муваққат тарзда» ўзгаришини вужудга келтиради. Ана шу ўзгариш туфайли муваффақият ва муваффақиятсизлик, омад ва омадсизлик, оптимизм ва пессимизм, романтика ва реалия, симпатия ва антипатия, прогресс ва регресс, жўшқинлик ва тушқунлик, фаоллик ва сустлик каби биринчиси ижобий (позитив), иккинчиси эса салбий (негатив) руҳий ҳодиса келиб чиқади деб талқин қилади. Табиий шарт-шароитлардаги тўқисликдан ташқари айрим етишмовчиликлар ва узилишларнинг содир бўлиши нуқсонларни келтириб чиқаради, бунинг оқибатида руҳий кечинмалар фаоллиги, позитив кайфиятнинг етишмаслиги, илдамлиги, мақсадга йўналганлиги бузилади. Одатда объектив (табиий) ва субъектив (шахсга оид) шарт-шароитлардаги ўзгаришлар туфайли ижобий (позитив) ёки салбий (негатив) хусусиятли психологик ҳолатлар, ҳодисалар, ҳислатлар, кечинмалар устуворлиги юзага келиб, моддий асос функциясини бажарувчи олий нерв фаолиятини, марказий нерв системасининг ритмикасини, ишчанлик қобилиятини пасайтиради. Бунинг оқибатида фаолият, хулқ ва муомала амалга оширишда одатий саъи-ҳаракатлар, операциялар, маромлар бузила бошлайди, фавқулудда асабийлик, кўтаринки кайфиятнинг етишмаслиги, руҳий нуқсонийлик, қонуниятдан четга оғиш, нохуш кечинмалар ҳокимлиги етакчилик қилади. Худди шу сабабдан, фаолият, хулқ ва муомаланинг муваффақияти шубҳа остида қолиши мумкин, чунки маҳсулдорлик, собитқадамлик, мақсадга йўналганлик сифатларининг доминантлиги йўқолади, натижада ушалмаган эзгу ниятлар армон тариқасида юксак ҳис-туйғулар сифатида даврий ҳукм суришда давом этаверади.[8].

Е.Н.Борисова ўқитувчи-ўқувчи тизимидаги ўзаро таъсир жараёнини ўрганиш доирасида позитив тафаккурни эмоционал қуюнчакликнинг олдини олиш чораси сифатида кўриб чиқади. Муаллиф икки турдаги фикрларни аниқлайди ва уларни ўз қобилиятлари ва имкониятлари билан боғлайди. Тегишли фикрлаш турларини номламасдан, муаллиф бир турдаги ривожланиш ўз-ўздан ва бошқалардан позитив қутилмаларни таъминлашини таъкидлайди, бошқа тур қайд этилган, яъни негатив, умидсизлик ва тушқунлик билан белгиланади. Диагностик тадқиқотлар натижасида олимлар биринчи турдаги фикрларнинг интеллектуал қобилият ва таълим ютуқлари билан боғлиқлигини очиб берадилар. Бундан ташқари, тадқиқотчининг фикрига кўра, ижобий фикрлар талабанинг шахсий тажрибаси билан боғлиқ ва ҳодисаларнинг когнитив тасвири яратилган психологик маконни ташкил этишининг ўзига хос хусусиятларини тавсифлайди. Айнан шу тамойиллар асосида шахс муваффақиятга эришиш мотивацияси, ўзига ижобий муносабат, мулоқот, рефлексивликка асосланган муайян услубни ташувчи вазиятларни бартараф этиш стратегиясини ишлаб чиқади [2].

Т.Г.Гурулеванинг фикрича, позитив тафаккур ўз имкониятларига ишонч, шунингдек, адекват ўз-ўзини баҳолаш туфайли шаклланади, бу эса инсоннинг жисмоний соғлигига ижобий таъсир кўрсатади. Ўз самарадорлигига бўлган ишончга таянувчи тасаввурлар фаолиятнинг турли доираларига тарқалади. Шахс томонидан эришилган ижобий натижалар нафақат унинг қобилиятлари билан, балки улар ҳақидаги тасаввурлари билан белгиланади. Бундай тафаккурга эга шахслар, одатда, вазифаларни ҳал этишда катта имкониятга эга бўлади, яхши жисмоний ва психик ҳолатга эга бўлади. Бунда ўз қобилиятлари тўғрисидаги турли тасаввурлари ҳам ижобий, ҳам салбий қутилмаларни белгилаб беради. Муаллиф автономияни ўз тақдирини ўзи белгилаш ва мустақиллик, ижтимоий босимга қарши туриш, мустақил фикрлаш ва ўзини тутиш, шахсий стандартлар асосида ўзини баҳолаш, ўз хатти-ҳаракатларини тартибга солиш қобилияти билан ифодаланган позитив тафаккур намоён бўлишининг ўзига хос компоненти хусусиятлари сифатида белгилайди, бу ҳам инсоннинг руҳий саломатлиги ва яхлитлигининг асосий мезонидир. Ўзига масъулият билан муносабатда бўладиган, ўз саломатлиги ҳақида қайғурадиган, ҳис-туйғулари, хатти-ҳаракатларини назорат қилиши, ўзига ёрдам бериши мумкин – автоном, мустақил ва оптимистикдир. Автономия – бу ўз-ўзини ривожлантириш учун ижобий эркинлик, мустақил ва эркин танлов гарови, инсон ўз хатти-ҳаракатларига масъулиятни олишидир [3].

И.П.Андрейчук амалий психология соҳасидаги мутахассиснинг ўзига хос моделини таклиф қилади, муаллиф томонидан олиб борилган эмпирик тадқиқотлар шуни кўрсатадики, таълим олувчиларнинг аксариятида Мен-концепцияси ўз-ўзини хурмат қилиш, шахсий хавотир, камситилиш

ва умидсизлик ҳисси билан намоён бўладиган номувофиклик билан тавсифланади. Шу билан бирга, шахсий ўсиш истиқболлари ва хусусан, бўлажак мутахассисларнинг Мен-концепцияси шахсини уйғунлаштириш шахсий йўналтирилган таълим тамойилларини амалда қўллаш билан боғлиқ. Бу жараёни амалга ошириш шахсий ўз-ўзини аниқлаш, шунингдек, позитив тафаккурга таъсир қилувчи рефлексив жараёнлар (ўз-ўзини таҳлил қилиш, ўз-ўзини англаш, ўз-ўзини баҳолаш ва шу асосда ўз-ўзини ривожлантириш)ни, ривожлантириш асосида бўлажак педагогнинг субъект хулқини фаоллаштиришга асосланган бўлиши керак [1].

Т.В.Якименко, позитив тафаккур талабанинг ҳаётга мослашиш жараёни билан бевосита боғлиқ бўлиб, ўз-ўзини ҳурмат қилиш, адекват ўзини ўзи баҳолаш, сурункали шармандалиқни бошдан кечирмаслик, барқарор қиймат-мазмуний соҳа, мазмунли ҳаёт йўналишларининг мавжудлиги, ўтмиши, ҳозир ва келажагининг ижобий ҳиссиётлари, ўзини ижтимоий объект сифатида қабул қилиш, салбий сценарийга мувофиқ идентификацияни ривожлантиришнинг мавжуд эмаслиги, яъни муаллиф уйғун ва ҳаётий вазиятларни реал баҳолашга қодир, муваффақият ва муваффақиятсизлик ҳолатларида ўз хатти-ҳаракатларини ишончли баҳоловчи шахс сифатида тавсифлайди. Амбивалентликни ҳисобга олган ҳолда, таълим олувчи бир вақтнинг ўзида умид ва умидсизликни, оптимизм ва пессимизмни бошдан кечириши мумкин, яъни бу психологик ҳодиса аслида долзарб ва потенциалнинг икки ўлчовли бирлигидир [7].

О.Е. Дергачева шахсий автономия тушунчасини ижобий фикрлаш услубини аниқлаш билан боғлайди ва бу ақлий ҳодисанинг ақлий саломатлик ҳамда шахсий ўсиш билан боғлиқлигини таъкидлайди. Шунинг учун ақлан соғлом инсон ўз ҳаёти воқеаларини мустақил равишда аниқлаш ва назорат қилиш имкониятига эга. Тадқиқотчининг фикрига кўра, шахсий автономия бахтли, ҳар томонлама ривожланган, шахсан етук инсоннинг ўзига хос хусусияти бўлиши мумкин, чунки у юқори даражадаги ўз-ўзини интеграция қилиш, тажрибага очиқлик, содир бўлаётган воқеалар, ўз хатти-ҳаракатларига нисбатан фарқли муносабат билан боғлиқ. Ўзига бўлган ишонч шахслараро муносабатларда очиқлик билан тавсифланади. Муайян ижтимоий вазиятда ўз ҳис-туйғулари ва фикрларини намоён қилиш кўрқувни енгишга таъсир қилиши мумкин, чунки бир марта пайдо бўлгандан кейин у мустаҳкамланиб, доминант туйғуга айланади. Шунинг учун фикрларнинг рационаллиги ҳаракатларнинг қатъийлиги ва ишончига таъсир қилади [4].

Хулоса ўрнида шуни қайд этиш лозимки, турли олимларнинг нуктаи назарларини кўриб чиқиш олий ўқув юртида ўқиш даврида бўлажак педагогнинг позитив фикрлашини ривожлантириш муайян хусусиятларнинг динамикасига боғлиқ эканлигини таъкидлаш имконини беради. Биз ижобий муносабатга таъсир этувчи омилларни бартараф этишга қаратилган ихтиёрий ўзини ўзи бошқариш, муваффақиятга эришиш мотивацияси, автономия, адекват ўз-ўзини баҳолаш, чидамлик, бошқаларни қабул қилиш, паст тажовузкорлик, ижтимоий-психологик мослашув, алоқа, умидсизлик толерантлиги, ижобий муносабат, рефлексивлик, ўзига ишонч, мустақиллик каби энг оқилона хусусиятларни аниқлайдиган тадқиқотчиларнинг позициясини баҳам кўриб ўтдик. Умуман олганда, бўлажак педагогнинг позитив фикрлаши асосини оптимизм ва конструктивлик призмаси орқали салбийликни баҳолаш қобилияти ташкил этади. Шу муносабат билан ўрганилаётган ҳодисанинг асосий вазифаси таълим олувчининг деярли ҳар қандай муаммо бўйича ижобий компонентни топиш қобилияти ҳисобланади. Ушбу ҳолатлар бўлажак педагогнинг позитив фикрлаш тузилишини яхлит интегротив иерархик бўйсунувчи тизим сифатида кўриб чиқишга имкон беради.

Адабиётлар:

1. Андрейчук И.П. Психолого-педагогические условия становления позитивной Я-концепции будущих практических психологов. // Психология. Сборник научных трудов. - М.: НПУ им. М.П. Драгоманова, 2002. - Выпуск 15 - С. 273-282.
2. Борисова Е.Н. Учитель и ученик: позитивное мышление как профилактика эмоционального выгорания. // Высшее образование сегодня. Российский новый университет Москва.: 2019. - С. 45-49.
3. Гурулева Т.Г. Компонентная структура позитивного мышления. // Профильная школа. - М.: 2016. - С. 43-48.
4. Дергачева О.Е. Личностная автономия как предмет психологического исследования: Автореф. дис. на соискание учёной степени докт. психол. наук: спец. 19.00.01 «Общая психология». - М., 2005. - 20 с.

5. Левицкая Л.В. Развитие саногенных чувств учащейся молодёжи как психолого-педагогическая проблема. // Сборник научных трудов №40: Изд-во Нац. Академии Гос. приграничный. службы Украины им. Б. Хмельницкого, 2007. - С. 228-231.
6. Цехмистренко М.Н. Позитивное мышление педагога. // Директор школы. «Издательская фирма «Сентябрь». 2020. - С. 106-111.
7. Якименко Т.В. Взаимосвязь адаптации и позитивного мышления в профессиональной деятельности курсантов образовательных организаций. // Молодые исследователи - регионам. Вологда: 2019. - С. 364-365.
8. Фозиев Э.Ф. Психология. Илмий журнал, №1. 2016, 5-10 б.

Улугова Шахлола Муслиддиновна,
Бухоро давлат университети доценти,
психология фанлари номзоди
ulugova@mail.ru

ТАДБИРКОР АЁЛЛАРНИНГ ЯНГИ МЕҲНАТ ТУРИГА МОСЛАШУВИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Аннотация: Мақолада тадбиркор аёлларнинг янги меҳнат ёки иккиламчи касбий фаолият(и)га ижтимоий-психологик мослашувчанлигининг ўзига хослиги тўғрисида сўз боради. Тадбиркор аёлларнинг бозор шароитига мослашуви муаммоси долзарблиги келтирилган. Хорижий мутахассислар томонидан хотин-қизларнинг бозор шароитига мослашуви жараёни муаммосининг ўрганилганлик даражаси очиб берилган. Тадбиркорлик фаолиятига ижтимоий-психологик мослашув жараёнининг психологик босқичларига эътибор қаратилган. Тадбиркор аёлларнинг янги меҳнат ёки иккиламчи касбий фаолият(и)га ижтимоий-психологик мослашувида ўзини-ўзи баҳолаш даражалари психологик метод ёрдамида таҳлил қилинганлиги маълумотлари келтирилган. Бундан ташқари, иккиламчи касбий фаолиятни танланишига сабаб бўлувчи мотивлар очиб берилган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, мослашув, бозор муносабатлари, иккиламчи касбий фаолият, мотивлар, янги меҳнат тури, объектив омилар, субъектив омилар.

СПЕЦИФИКА АДАПТАЦИИ ЖЕНЩИН-ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ К НОВОМУ ВИДУ ТРУДА

Аннотация: В статье повествуется о специфике социально-психологической гибкости женщин-предпринимателей к новой трудовой или вторичной профессиональной деятельности. Актуально представлена проблема адаптации женщин-предпринимателей к рыночным условиям. Выявлена степень изученности проблемы процесса адаптации женщин к рыночным условиям зарубежными специалистами. Акцент в предпринимательской деятельности делается на психологических этапах процесса социально-психологической адаптации. В социально-психологической адаптации женщин-предпринимателей к новой трудовой или вторичной профессиональной деятельности представлены данные о том, что уровни самооценки анализируются с использованием психологического метода. Кроме того, выявляются мотивы, обуславливающие выбор вторичной профессиональной деятельности.

Ключевые слова: предпринимательство, адаптация, рыночные отношения, вторичная профессиональная деятельность, мотивы, новый вид труда, объективные факторы, субъективные факторы.

SPECIFICITY OF ADAPTATION OF ENTREPRENEURIAL WOMEN TO A NEW TYPE OF LABOR

Abstract: The article talks about the specificity of socio-psychological flexibility of entrepreneurial women to new labor or secondary professional activities. The problem of adaptation of entrepreneurial women to market conditions is presented in relevance. The degree of study of the problem of the process of adaptation of women to market conditions is revealed by foreign specialists. The emphasis on entrepreneurial activity is on the psychological stages of the process of socio-psychological adaptation. In the socio-psychological adaptation of entrepreneurial women to new labor or secondary professional activities, data are presented that the levels of self-assessment are analyzed using a psychological method. In addition, motives are revealed that cause the selection of secondary professional activities.

Keywords: entrepreneurship, adaptation, market relations, secondary professional activity, motives, new type of labor, objective factors, subjective factors.

Мавзунинг долзарблиги. Шахда янгича иқтисодий тафаккурни шакллантириш бозор ислохотларини муваффақиятли амалга оширишнинг асосий кафолатидир. Бозор иқтисодиётига йўл тутган даврдан бошлаб, тобора кўпроқ кишилар, хусусан, хотин-қизлар фойдали тадбиркорлик соҳасида ташаббус, омилкорлик ва маҳорат кўрсатмоқдалар. Бундай шароитда ўз-ўзидан аниқки,

хотин-қизлар орасида эркин ва ижодий меҳнатда юқори натижаларга эришиш учун зарур бўлган иқтисодий билимларга ва иқтисодий манфаатли фаолиятнинг барча соҳаларида иккиламчи касбий фаолиятни эгаллаб олишга интилиш кучаяди.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси. Россиялик мутахассис А.В. Карповнинг ёзишича, хотин-қизларнинг бозор шароитига мослашуви жараёни муаммоси, моҳиятан, ишлаб чиқаришдаги психологик ва тадбиркорлик бошқаруви масалаларини ўз ичига қамраб олади.

Муаллифнинг фикрича, ижтимоий-психологик мослашув билан боғлиқ муаммолар, тадбиркорлик фаолиятини танлаган ҳар қандай аёлнинг руҳий ҳолати, кечинмалари, ташқи омил таъсирини қай даражада ҳазм қила олиши ва буларнинг тадбиркор аёл иш фаолияти ҳамда натижасига таъсир қилиш даражасида тушунилади [1].

Хотин-қизларнинг бозор иқтисодиёти шароитига, хусусан, тадбиркорлик фаолиятига мослашув жараёнини психологик босқичлари аниқланишини таҳлил қилар эканмиз, ўз навбатида, мутахассисларнинг қуйидаги фикр-мулоҳазаларини гувоҳи бўламиз.

А.Л. Журавлев, Е.В. Шорохова, В.А. Хашенко ва бошқалар иқтисодий ўзгаришлар шароитида ижтимоий-психологик динамикани тадқиқ этишар эканлар, ҳукумат раҳбарлари ва маҳаллий арбоблар фуқароларни янги тузумнинг меҳнат шароитига мослашишига кўмак кўрсатишида, мослашув жараёни қуйидаги асосий босқичлардан иборатлигини назарда тутиши лозим, деб ҳисоблашади [3].

1-босқич. Бозор муносабатлари шароитида янги меҳнат эгасининг тайёргарлик даражасини аниқлаш деганда қуйидагиларни тушуниш мумкин, яъни аниқланган даража меҳнат эгаси манфаати йўлида кейинги амалга ошириш лозим бўлган тадбирларни режалаштириш, зарур ресурсларни қўллаш, тадбиркорлик фаолиятини танлаган хотин-қизларнинг тажриба соҳасидан келиб чиққан ҳолда уларнинг қобилиятлари ва малакаси даражасидаги вазифаларни аниқлаб олиш имконини беради.

Профессионал соҳадан ташқари тадбиркор аёл (меҳнат эгаси)нинг мулоқотга мойиллиги даражасини билиш жамиятнинг коммуникация тармоғига тезроқ киришиб кетишини таъминлаш учун асос бўлади.

2-босқич. Ориентация. Ўзгаришлар жараёнида, хусусан, танланган янги фаолият доирасида хотин-қизларни улар бажариши лозим бўлган вазифалар, мажбуриятлар билан таништириш. Бу босқичда амалга ошириладиган тадбирларни, ўз навбатида, қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

Компания асослари – ташкилот тарихи ва ҳозирги ҳолати ҳақидаги асосий маълумот, стратегик режалар, ходимлар ва раҳбарият муносабатлари қоидалари, касаба уюшмаси фаолияти, меҳнат шароитлари ва иш тартиби, иш ҳақи белгилаш тизими, корхонадаги ижтимоий таъминот, маиший хизмат ва имтиёзлар;

Маҳсулот – корхона маҳсулотлари таркиби билан таништириш, ишлаб чиқариш тизими ва технологияси, асосий маҳсулот истеъмолчилари ва нархи, рақобатдош маҳсулотлар орасида тутган ўрни;

Ишлаб чиқариш – ишлаб чиқаришга оид қарорлар қабул қилиш тартиби ва хусусияти, ташкилот режалари ва лойиҳалар билан таништириш, ишлаб чиқариш жараёнининг асосий тамойилларини ўрганиш, бўлимнинг асосий вазифалари ва масъулият даражаси, ҳисобот бериш асослари, маҳсулотга йўналган бошқарув услубини ўрганиш ва харажатларни ҳисоблаш, меҳнатни муҳофаза қилиш ва хавфсизлик асослари;

Сотувлар – ташкилотнинг бозордаги улуши ва реклама жараёни, рақобатдош ташкилотларнинг имкониятлари, сотув агентларининг фаолияти, сотув услублари;

Асосий меҳнат кўникмалари – алоқа воситалари ва техника жиҳозларидан фойдаланиш бўйича машқлар, муомалада бўлиш хусусиятлари, иш жойининг хусусиятлари ва талабларини ўзлаштириш, нотиклик санъати, маркетинг ва молияга тааллуқли асосий билимлар, касб талабидан келиб чиқувчи кўшимча малакаларни шакллантириш машқлари.

Ушбу матндан кўриниб турибдики, хорижий давлатлардаги илғор ташкилотлар томонидан ходимларни касб (зарурий ҳолларда иккиламчи касб)га мослашувини ҳар томонлама амалга ошириш таъминланади. Маълумот, кўникма ва малака жиҳатларни бундай қамраб олиш янги ходимнинг ташкилот ҳаётига кириб боришини таъминлайди ва барча куч-ғайратини ташкилот мақсади йўлида сафарбар этиш имконини беради.

3-босқич. Мослашувни амалга ошириш. Бу ўзгаришлар жараёнида, бозор муносабатларига ўтишда хотин-қизларни янги фаолиятга ва жамоада мавжуд шахслараро муносабатлар тизимига мослаштириш жараёнидир. Бу босқич доирасида хотин-қизларнинг фаол ҳаракат қилиши, ўзларини

турли (ишлаб чиқариш, хизмат кўрсатиш, савдо) жабҳаларда синаб кўришига имконият яратиш лозим. Тегишли ташкилотлар (масалан, тадбиркор аёллар ассоциацияси) томонидан жамиятнинг илғор хотин-қизлари эришаётган муваффақиятлари ҳақида маълумот йиғиб борилади ва фаолияти юзасидан унга зарур тавсиялар берилади.

4-босқич. Фаолият кўрсатиш. Шу босқичда мослашиш жараёни тугайди ва хотин-қизлар ҳукумат томонидан берилган имтиёزلардан тўлиқ фойдаланишган ҳолда мустақил равишда ўз фаолиятларини давом эттираверишади. Бунда хотин-қизлар ўзларининг тадбиркорлик (меҳнат) фаолияти йуналишида юзага келаётган қийинчиликларни ўзлари енгиб ўтиш кучига эга бўлишади. Одатда, хотин-қизларнинг бозор талаб ва муҳитига кўпол мослашуви 1,5 – 5 йиллар атрофида амалга ошади.

Мослашув жараёнига кўмак кўрсатиш (ҳукуматнинг тезкор қўллаб-қувватлаши) шароитида эса бу жараён бир неча ойларда муваффақиятли ўтиши мумкин. Мослашув жараёнини бу тарзда қисқартириш ривожланиш йўлидан бораётган ва бозор иқтисодиётига босқичма-босқич ўтаётган давлат учун моддий жиҳатдан ҳам маълум даражада фойда беради.

Б.А. Райзберг тадқиқотлари натижасига таяниб, бозор иқтисодиётининг ўзига хос ривожланиш механизми бор ва у иқтисодий-психологик стимулларга, яъни жамият аъзоларини тўқ ва хотиржам яшаш, обрўга эга бўлиш, ҳаётда ўз ўрнини топиш каби манфаатларини юзага чиқаришга асосланади ҳамда унинг негизини шахс ижтимоийлашуви жараёни белгилаб беради, деган умумий хулосага келади [2].

Методика. Асосий босқичда респондентлар томонидан «Психологик мослашувда ўзини-ўзи баҳолаш» методикаси орқали олинган натижалардан маълум бўлишича, тадбиркор аёлларнинг янги меҳнат ёки иккиламчи касбий фаолият(и)га ижтимоий-психологик мослашувини беш хил: қуйи, ўртачадан паст, ўрта, ўртачадан юқори, юқори даражаларга бўлиш мумкин.

1-жадвал.

Ижтимоий-психологик мослашувчанлик даражасини аниқлашнинг ўзини-ўзи баҳолаш стратегиясига асосланганлиги (n=295)

№	Оралик баллар кўрсаткичи	Ижтимоий-психологик мослашув даражалари	ХК-СС _{х/к}	К _{х/к}	ТР _а	Т _к
			n=36	n=124	n=58	n=77
1.	1 баллдан 2 баллгача	қуйи даража	5	9	3	27
2.	3 баллдан 4 баллгача	ўртачадан паст даража	9	14	3	18
3.	5 балл	ўрта даража	15	69	19	26
4.	6 баллдан 7 баллгача	ўртачадан юқори даража	3	19	23	4
5.	8 баллдан 10 баллгача	юқори даража	4	13	10	2

Фикримизча, юқорида ажратилган даражалар бозор муносабатлари шароитида тадбиркор аёлларнинг:

- ўзаро муносабатларга киришидаги ҳолати;
- меҳнат фаолияти давомида узоқ муддатли ташқи ва ички конфликтларга бормаслиги;
- социоген эҳтиёжлардан қониқиши;
- жамият (баъзан референт бўлмаган гуруҳ) томонидан тақдим этилиши мумкин бўлган ролли кутилмаларга тайёр бўлиши;
- ижодий қобилиятларини мустақил ва ўзига ишонган ҳолда намоён қила олишини аниқлашда қўл келади ҳамда ижтимоий-психологик мослашув кўламини белгилаб беради.

Тадқиқотдан аниқланишича, «ТР_а» гуруҳига мансуб респондентлардан 39,6%и бозор муносабатларига ижтимоий-психологик мослашувнинг ўртачадан юқори даражасини намоён этишиб, уларнинг мулоҳаза юритишича, муваффақиятли ижтимоийлашув мослашув ва индивидуаллашув ўртасида мувозанат сақлангандагина амалга ошиши мумкин. «ХК-СС_{х/к}» ва «К_{х/к}» ижтимоий гуруҳларига мансуб синалувчиларда ижтимоий-психологик мослашувчанликнинг ўрта даражаси кузатилиб, мос равишда бу кўрсаткич 41,7%, 55,6%ни ташкил этди. Уларнинг назарида бозор муносабатлари шароитида янги меҳнат ёки иккиламчи касбий фаолият(и)ни танлашга туртки берувчи омиллар ижтимоий-иқтисодий ривожланиш даврида иқтисодий социализацияга ва жамиятни саноатлаштиришга бўлган хатти-ҳаракатларни кучайтириб, хотин-қизларни бозор иқтисодиёти шароитига ижтимоий-психологик мослашувининг ўзига хослигини белгилаб беради. «Т_к» гуруҳига

мансуб синалувчиларнинг ижтимоий-психологик мослашувчанликни қуйи даражасини (35,1%) намоён этиши, ўз навбатида, бошқа гуруҳ аъзоларига нисбатан анчагина ёш, иккиламчи касбий фаолият соҳасида уларга нисбатан камроқ тажрибага эга ва меҳнатдан ташқари ўқиш фаолияти билан ҳам шуғулланадилар. Ўқиш фаолияти эса ўз навбатида шахслараро муносабатлар зичлигини ва аҳамиятлилиги (мослашиш)ни эътироф этади. Натижаларнинг умумлашган таҳлили шуни кўрсатяптики, мазкур гуруҳ вакиллари жамоада, ўз ҳамкасабалари ва яқинлари нигоҳида ҳурматли ва ардоқли бўлиш истаги билан яшайдилар.

Иккиламчи касбий фаолиятни танланилишига сабаб бўлувчи мотивлар ва ўзгарувчан муҳитда шахс мослашувига таъсир кўрсатувчи омиллар, хусусан, инсон табиий шароитни ўзгартира олмасида, аммо техникани мукаммаллаштириш, фаолиятни стратегик лойиҳалаштириш, меҳнат жамоасида соғлом психологик муҳитни шакллантириш орқали ноқулай шароитда ҳам хотин-қизларнинг бозор муносабатларига ижтимоий-психологик мослашувини ошириш мумкин.

Ўзгарувчан оламда иккиламчи касбий фаолият (янги меҳнат)га бўлган мослашув – бу субъектнинг меҳнат жараёнида янги фаолият турининг ўзига хос хусусиятларига мослашишидир, деган таърифга сабаб бўлади ва моҳиятига кўра:

а) мослашувнинг тадбиркорлик фаолияти билан боғлиқ жиҳати хотин-қизлардан бажариладиган ишга қўйиладиган талабларни ўзлаштиришни тақозо қилади;

б) бу хил мослашувда объектив ва субъектив омиллар мавжуд бўлиб, касбий мослашувнинг объектив омиллари сифатида хотин-қизларнинг маълумоти, малакаси ва тажрибаси эътироф этилади;

в) субъектив омиллар қаторига эса хотин-қизларнинг тадбиркорлик фаолияти (касб)га бўлган муносабати, янги иш жойидан кутаётган даромади ва фойдаси киритилади.

Бозор муносабатларига мослашиш ва турли хил ҳолатий моделлар тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишда эгилувчан ёндашувни кўллаш зарур эканлигини кўрсатади.

Хулоса қилиб шуни айтишимиз мумкинки, тадбиркор аёлларнинг янги меҳнат ёки иккиламчи касбий фаолият(и)га ижтимоий-психологик мослашувини беш хил: қуйи, ўртачадан паст, ўрта, ўртачадан юқори, юқори даражаларга бўлиш мумкин ва бу даражалар:

а) ўзаро муносабатларга киришидаги ҳолати;

б) меҳнат фаолияти давомида узоқ муддатли ташқи ва ички конфликтларга бормаслиги;

в) социоген эҳтиёжлардан қониқиши;

г) жамият (баъзан референт бўлмаган гуруҳ) томонидан тақдим этилиши мумкин бўлган ролли кутилмаларга тайёр бўлиши;

д) ижодий қобилиятларини мустақил ва ўзига ишонган ҳолда намоён қила олишини аниқлашда кўл келади ҳамда ижтимоий-психологик мослашув кўламини белгилаб беради.

Адабиётлар:

1. Общая психология: Учебник / Под ред. проф. А.В. Карпова. – М.: Гардарики, 2005. – 232 с.
2. Райзберг Б.А. Психологическая экономика: Учебник. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2005.–432 с
3. Социально-психологическая динамика в условиях экономических изменений / РАН, Ин-т психологии; Отв. ред. А.Л. Журавлев, Е.В. Шорохова, В.А. Хащенко и др.–М.: ИП РАН, 1998.–259 с.
4. Улуғова Ш.М., Акрамов А.А. “Тадбиркорлик шахси фаолиятида иқтисодий жараёнлар”. “Innovative activity in the education system – guarantee of quality and effectiveness”. Collection of Papers from II International Scientific Conference. Uzbekistan. 2018.В - 156-160.
5. Улуғова Ш.М., Нематова Р.Р. “Воздействие ценностей на приспособление женщин к рыночным отношениям”. Наука. Мысль: электронный периодический журнал. №6– 1 за 2016.



*Sayitova Umida Hikmatillo qizi,
O'zbekiston milliy universiteti tayanch doktoranti
umidasayitova00@gmail.com*

ANONIM MULOQOT INTERNETGA QARAMLIK BELGISI SIFATIDA

Anotatsiya: *Internetga qaramlik bugungi kunda yosh tanlamaydigan va ko'plab insonlarni qamrab oladigan tobelik sohasidir. Ushbu tobelikka olib keladigan asosiy xususiyatlaridan biri bu anonim muloqotdir. Anonim muloqot insonlarni tashqi muhitdan ajratishga ularni kiber-makonga ipsiz bog'lab qo'yishga va o'zlarini xotirjamlik hissida bo'lishga olib keladi. Bunda inson real muhit bilan internet olamini bir biridan ajrata olmaydi. Umuman olganda, ko'pincha real muhit asta-sekin kiber-makon bilan almashtiriladi, chunki onlayn bo'lgan odam o'zini haqiqiy hayotdan ko'ra tabiiyroq his qiladi. Virtual dunyo mas'uliyat his qilmaslik, o'z harakatlarining oqibatlari haqida tashvishlanmaslik imkoniyatini beradi. Ushbu maqolada internetga tobelik va uning muloqot xususiyati haqida yoritib berishga harakat qilganmiz.*

Kalit so'zlar: *kiber-makon, internet, muloqot, tobelik, ijtimoiy tarmoq, virtual dunyo, real muhit, anonim muloqot.*

АНОНИМНОЕ ОБЩЕНИЕ КАК ПРИЗНАК ИНТЕРНЕТ-ЗАВИСИМОСТИ

Аннотация: *Интернет-зависимость сегодня – это область зависимости, которая не выбирает возраст и охватывает многих людей. Одной из основных особенностей, приводящих к этой зависимости, является анонимное общение. Анонимное общение изолирует людей от внешнего мира, держит их привязанными к киберпространству и позволяет им чувствовать себя непринужденно. В этом случае человек не может отличить реальную среду от интернет-мира. В общем, часто реальная среда постепенно заменяется киберпространством, потому что человек в сети чувствует себя более естественно, чем в реальной жизни. Виртуальный мир дает возможность не чувствовать себя ответственным, не переживать о последствиях своих действий. В этой статье мы попытались пролить свет на интернет-зависимость и ее коммуникативные особенности.*

Ключевые слова: *киберпространство, Интернет, общение, зависимость, социальная сеть, виртуальный мир, реальная среда, анонимное общение.*

ANONYMOUS COMMUNICATION AS A SIGN OF INTERNET DEPENDENCE

Abstract: *Internet addiction today is a field of addiction that does not choose age and covers many people. One of the main features that lead to this addiction is anonymous communication. Anonymous communication isolates people from the outside world, keeps them tethered to cyberspace, and makes them feel at ease. In this case, a person cannot distinguish between the real environment and the Internet world. In general, often the real environment is gradually replaced by cyberspace, because the person online feels more natural than in real life. The virtual world provides an opportunity not to feel responsible, not to worry about the consequences of one's actions. In this article, we have tried to shed light on internet addiction and its communication features.*

Key words: *cyber space, Internet, communication, dependence, social network, virtual world, real environment, anonymous communication.*

Kirish. Hozirgi vaqtda internetdan foydalanish tobora ortib bormoqda va bundan foydalanuvchilarning aksariyat qismini esa 30 yoshgacham bo'lgan insonlar tashkil etmoqda. Biroq tartibsiz va ko'p vaqt davomida internetdan foydalanish shaxsdagi internetga tobelik darajasiga olib kelmoqda. Agar biz insonlarning bugungi kundagi internetdan foydalanish statistikasiga nazar soladigan bo'lsak, bugungi ko'rsatgichlarni yanada oshganing guvohi bo'lamiz. 2018-yildan beri har kuni taxminan 900 000 kishi kuniga bir bor bo'lsa ham internetga kirib foydalanishadi. 2023-yil mart oyidagi statistika bo'yicha butun

dunyo bo'ylab 5 milliarddan ortiq faol internet foydalanuvchilari borligini guvohi bo'lamiz. Bundan tashqari 2023-yil mart oyi holatiga ko'ra, ijtimoiy tarmoqlarning global qamrovi 4,74 milliard kishiga yetdi. 2021-yildan 2022-yilgacha bo'lgan davrda 190 million internet foydalanuvchisi ijtimoiy tarmoqlarga qo'shildi. Bugungi kunda dunyo aholisining 59,5% dan ortig'i internetdan foydalanadi. Hozirgi kunda dunyoda 370,7 million domen nomlari ro'yxatdan o'tgan. 2023-yilda kuniga yuboriladigan va qabul qilingan elektron xatlar soni 333,2 mlrd. Yil davomida odamlarning 62,78 foizi o'zlarining asosiy foydalanadigan brauzeri Google Chrome ekanligini ma'lum qilgan. 2021-yilda eng ko'p tashrif buyurilgan 10 ta saytga Google, YouTube, Facebook, Twitter, Instagram, Baidu, Wikipedia, Yandex, Yahoo va XVideos kiradi. Ma'lum qilinishicha, Spotify platformasida har daqiqada 1,5 milliondan ortiq qo'shiq uzatiladi. 2021-yilda internet foydalanuvchilarining 99 foizi 18 yoshdan 29 yoshgacha bo'lganlar tashkiul etadi. Ushbu statistik ko'rsatkichlar o'rganilayotgan mavzuning dolzarblik ahamiyatini yanada oshiradi.[10]

O'rganilayotgan muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda qaramlik psixologiyasi psixologlarning tadqiqot faoliyatida dolzarb bo'lib, amaliy jihatdan juda katta ahamiyatga ega yo'nalishlardan biridir. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ushbu hodisa hozirgi kunda yashayotgan insonlarga xos bo'lgan asosiy hissiy tajribalardan biri bo'lib, ularning ruhiy hayotida muhim o'rin tutadi. Me'yoriy xatti-harakatlardan og'ish holatlari yoshlarning kundalik hayotida global internetdan foydalanishni yetarli darajada nazorat qilmasligini ko'rsatadi. O'z mohiyatiga ko'ra, o'rganilayotgan hodisa global Internet tarmog'ida bo'lish uchun mos axborot vositalaridan (smartfon, planshet, shaxsiy kompyuter va boshqalar) haddan tashqari ko'p foydalanishda davom etishiga bo'lgan cheksiz istagi bilan birga namoyon bo'ladi, shuning uchun ham bu muhim jarayon hisoblanadi.[7]

Muhokama.

Muloqot tufayli inson atrofdagi voqelik haqida tegishli ma'lumotlarni olish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'rganilgan manbalar natijasiga asoslanib, inson o'z pozitsiyasini shakllantiradi va o'zgartiradi. Bundan tashqari, zamonaviy insonning hayotida boshqa odamlar bilan muloqot qilish imkoniyati alohida rol o'ynaydi. V.A. Burovaning ta'kidlashicha, insonning faoliyat jarayonida, shu jumladan kasbiy faoliyatida boshqalarning xatti-harakatlariga munosabati, shuningdek, o'zaro muloqotlar, odatda, uning o'zini aks ettiruvchi "men"i bilan bog'liq bo'lib, o'z-o'zini anglash vositasi sifatida xizmat qiladi [1]. Insonlarning bir-biri bilan muloqot qilish qobiliyati tufayli shaxsning ijtimoiylashuvi sodir bo'ladi, hayot haqidagi tegishli g'oyalar rivojlanadi, an'analar, xatti-harakatlar normalari va qoidalari o'zlashtiriladi, madaniy va ijtimoiy tajriba amalga oshiriladi, insonning o'z hayotiy pozitsiyasi shakllanadi. Shu bilan birga, turli xil holatlar tufayli, zamonaviy odam to'liq muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lishi mumkin [5]. Bunday holatlar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi, masalan:

- to'g'ri muloqot qilish uchun muhim to'siq bo'lishi mumkin bo'lgan turli xil jismoniy patologiyalar;
- shakllangan qiyinchiliklar, ortiqcha komplekslar, noan'anaviy jinsiy orientatsiya va boshqalar [1].

Bunday hollarda internet makonining sharoitlari foydalanuvchiga mavjud shaxsiy muammolarni samarali qoplash, o'zini ishonchli his qilish, suhbatdoshlar va do'stlar topish, atrofdagi real voqelikda muloqot jarayoniga alternativa sifatida harakat qilish uchun eksklyuziv imkoniyatni taqdim etadi. Bu, odatda, internetga qaramlikni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biriga aylanadi. Shunga qaramay, global tarmoqning paydo bo'lishi, uning sezilarli darajada ommalashishi nafaqat yuqorida aytib o'tilgan toifadagi odamlarning, balki real hayotda to'liq muloqotni amalga oshirishga qodir bo'lganlarning katta qismining e'tiborini tortdi.

V.L. Malyginning ta'kidlashicha global tarmoqdagi muloqotning o'ziga xosligini hisobga olib, o'rganilayotgan hodisa foydalanuvchiga real hayotdagi muloqotdan ko'ra ko'proq imkoniyatlarni taqdim etishini ta'kidlab o'tadi. Bu zamonaviy foydalanuvchining internetga qaramligini shakllantirishning sabablaridan biridir [3]. Aslida, odam, bir vaqtning o'zida ko'p sonli odamlar bilan muloqot qila olmaydi. Shu bilan birga, bu jarayon kiberkosmosda juda katta ehtimolga aylanadi. Bu ham individual, ham shaxsiy muloqot deb ataladi, unda odamlar birma-bir o'zaro muloqot qilishadi. Internet tarmog'ini tahlil qilishda foydalanuvchilarning matnli xabarlar yordamida muloqot qilishini hisobga olish tavsiya etiladi, hissiy rangni oshirish uchun maxsus belgilar, ya'ni "imo-ishoralar- stikerlar" dan foydalaniladi [2]. Kibermakon foydalanuvchilari o'ziga xos so'zlar, belgilar, tabriklardan foydalangan holda o'ziga xos muloqot madaniyatini ishlab chiqdilar. Asta-sekin, aynan shu xususiyatlar tufayli odam yaqinlari bilan emas, balki begonalar bilan ko'proq yaqinlikni his qila boshladi [9]. Yaqin vaqtgacha kibermakonidagi muloqotni real hayotdagi muloqotdan ajratib turuvchi yagona narsa bu og'zaki bo'lmagan o'zaro ta'sirning yo'qligi edi. Biroq, axborot texnologiyalarining zamonaviy imkoniyatlari jadal rivojlanmoqda. Buning yordamida bugungi kunda oddiy foydalanuvchi mavjud qurilmadan qat'i nazar, kerakli aloqa shaklini tanlash imkoniyatiga ega. Bunday holda, siz anonim muloqotga ustunlik berishingiz yoki suhbatdoshingizni to'liq audiovizual idrok

etish imkoniyatiga ega bo'lishingiz mumkin. Ammo ochiq audiovizual muloqotda asosiy narsa - tegishli foydalanuvchining anonimlikdan xalos bo'lish istagi va tayyorligi hisoblanadi.


K.Yu. Galkin fikricha, virtual makonga haddan tashqari ishtiyoq tegishli oqibatlariga olib keladi, ular orasida foydalanuvchining real dunyoda boshqalar bilan kommunikativ aloqalarning pasayish, ba'zan xattoki, ularning to'liq to'xtashi, internet makonda o'z vaqtining katta qismini o'tkazish natijasida ajralib turadi.[7] Bundan tashqari, foydalanuvchilarning tarmoq voqealariga to'liq kirib borishi ularning adaptiv imkoniyatlarining pasayishi natijasidir. Bunday kategoriya uchun tegishli o'zgarishlar yuz berganda va ular tizimli hamda prognozli xarakterga ega bo'lganda, moslashish, odatda asoratlarsiz bo'ladi. Agar o'zgarishlar katta hajmda, yuqori darajadagi dinamizm bilan sodir bo'lsa, unda ular psixik va jismoniy buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan barcha oqibatlariga olib kelishi mumkin, bu esa addiktiv xulq-atvorning rivojlanishiga olib keladi.[6]

N.S. Xomerikining yozishicha internetga qaramlikning turli modellarini o'rganib, patologik xulq-atvor manbalarining muhimligini ta'kidlaydi. Jumladan, kognitiv simptomlar ko'pincha affektiv yoki xulq-atvor belgilarining sababi bo'lishi mumkin [8]. Ushbu pozitsiyada simptomlarning boshlanishi uchun zarur, yetarli va qulay omillar tushunchalari yuzaga keladi. Zarur omil - bu allaqachon mavjud bo'lishi yoki simptomlar boshlanishidan oldin paydo bo'lishi kerak bo'lgan etiologik omil. Yetarli omil etiologik omil bo'lib, uning mavjudligi yoki paydo bo'lishi simptomlarning boshlanishini kafolatlaydi. Qulay omil- etiologik omil bo'lib, simptomlar ehtimolini oshiradi [4]. Bundan tashqari, depressiya, ijtimoiy xavotir internetga qaramlik belgilari paydo bo'lishida periferik zaruriy omilga aylanadi. Ya'ni, psixopatologiya internetga qaramlik belgilari paydo bo'lishidan oldin sodir bo'ladi. Shu bilan birga, asosiy psixopatologiyaning o'zi internetga qaramlik belgilarining paydo bo'lishiga olib kelmaydi, balki uning etiologiyasida muhim element hisoblanadi.

S.I.Vygonskiyning so'zlariga ko'ra, internetga qaramlikning asosiy sabablarini o'rganish doirasida kiberfazoda muloqotning anonimligini ko'rib chiqish lozim. Shu nuqtayi nazardan, bugungi kunda ko'pchilik tadqiqotchilar anonimlikni yetakchi mezon deb bilishadi, buning natijasida global tarmoq juda ko'p foydalanuvchilarni jalb qiladi. Bu tom ma'noda zamonaviy internet maydonini tavsiflaydi. Kiber dunyoning barcha foydalanuvchilari o'zlarining haqiqiy ismlarini onlayn bo'lganlarida foydalanadigan kiber nomga o'zgartiradilar [2]. Global tarmoq zamonaviy odamga hech bo'lmaganda bir muncha vaqt o'zini nomsiz his qilish imkoniyatini beradi. Anonimlik sharoitida odam, odatda, o'zini xohlaganicha tutadi. Muloqot jarayonida siz noma'lum bo'lib qolayotganingizni anglash, odamga o'zini bo'sh va tabiiy his qilish imkoniyatini beradi, lekin shu bilan birga u ko'pincha salbiy fazilatlarining namoyon bo'lishiga, axloqsiz g'ayrioddiy xatti-harakatlar, haqoratli so'zlar, haddan tashqari ochiqlik, tajovuzkorlik va boshqalarga sabab bo'ladi. Bu texnik vositalarning imkoniyatlariga qaramay, foydalanuvchilar anonimlikni afzal ko'rishlari va uni yo'qotishni xohlamasliklari bilan izohlanadi.[6] Umuman olganda, ko'pincha real muhit asta-sekin kiber-makon bilan almashtiriladi, chunki onlayn bo'lgan odam o'zini haqiqiy hayotdan ko'ra tabiiyroq his qiladi. Virtual dunyo mas'uliyat his qilmaslik, o'z harakatlarining oqibatlari haqida tashvishlanmaslik imkoniyatini beradi.

Natijalar tahlili.

Internetga qaramlik tendensiyasining to'rtinchi va beshinchi tarkibiy qismlarini (kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatini) empirik tadqiq qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, respondentlarning asosiy qismida (43,6% / 102 kishi) kommunikativ qobiliyat past darajada rivojlangan (1-rasm)




1-rasm. Internetga qaramlik tendensiyasining to'rtinchi tarkibiy qismi (kommunikativ qobiliyat)ning empirik tadqiqi natijalari (n=234)

32,1% (75 kishi) respondentlarda kommunikativ qobiliyat o'rtacha darajada rivojlangan. 17,5% (41 kishi)da esa, mazkur xususiyat rivojlanishining juda yuqori darajasi kuzatildi. Bundan tashqari, eng kam

ko'rsatichlar kommunikativ qobiliyatning juda past 4,3% (10 kishi) va yuqori 2,6% (6 kishi) darajada rivojlanish holatlarida ko'zga tashlandi.

Internetga qaramlik tendensiyasining oltinchi tarkibiy komponentini (kommunikativ nazorat) empirik o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, eng ko'p talabalarda (59,8%/140 kishi) kommunikativ nazorat o'rtacha darajada rivojlangan (2-rasm).



2-rasm. Internetga qaramlik tendensiyasining oltinchi tarkibiy qismi (kommunikativ nazorat)ning empirik tadqiqi natijalari (n=234)

Sinaluvchilarning 24,8 foizida (58 kishi) diagnostika qilinayotgan ushbu xususiyatning rivojlanish darajasi past ekanligi aniqlandi. Kommunikativ nazoratni rivojlantirishning yuqori darajada rivojlanish holati respondentlarning kamchiligida kuzatildi (15,4%/36 kishi).

Internetga qaramlik tendensiyasining yettinchi tarkibiy komponentini (muloqotda hissiy samaradorlik) empirik o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyatida (51,7%/121 kishi) tashxis qo'yilgan xususiyat rivojlanishining uchinchi darajasi kuzatildi, ushbu toifaga mansub respondentlar kundalik hayoti faoliyati yoki muloqot jarayonida paydo bo'ladigan ba'zi hissiy muammolarga egaligi bilan tavsiflanadi (2-rasm).

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, internet makonining o'ziga xos xususiyatlari yoshlarning internetga qaramligi sabablarini o'rganishda e'tiborga olinishi kerak. Asosan, u anonimlik imkoniyati, suhbatdoshlar, tinglovchilarning keng doirasi, chegaraviy cheklovlarning sezilarli darajada pastligi, to'siqlar, nazoratlarning kamligi bilan tavsiflangan, soddalashtirilgan va har doim mavjud bo'lgan aloqa jarayonining xususiyatlarida namoyon bo'ladi.

Demakki, ushbu muammoni oldini olish uchun yoshlarni ijtimoiy muhitdagi insonlar orasiga hamohang qo'shishga urinish, ulardagi tushkunlik va depressivlik holatlariga katta yoshdagi va atrof muhitdagi insonlar tomonidan etiborsiz qoldirilmasligi, bunday holatlarda suhbatlashish va boshqa psixologik ta'sir mexanizmlar orqali ko'maklashish lozim. Qanchalik ko'p internetga tobelik ortib boravergan sari virtual makon yoshlarni ijtimoiy muhitdan ajratib oladi bu esa yurt va har bir millatning ertangi kunini og'ir ahvolga tushishiga olib keladi.

Zero shuni unutmaslik lozimki, yosh avlod bugunimiz va ertangi kunimizdir.

Adabiyotlar:

1. Burova V.A. Internetga qaramlik - XXI asr patologiyasi? // "Ruhiy tibbiyot va ekologiya masalalari" ilmiy-amaliy jurnali, VI-jild No1. - 2000. S. 11-13.
2. Vygonkiy S.I. Internetning teskari tomoni. Kompyuter va tarmoq bilan ishlash psixologiyasi. - M.: Feniks, 2010. - 320 b.
3. Malygina M.A. Onlayn kompyuterga qaramlikning sabablari haqida. - 2-nashr. - M.: Avant, 2011. - 170 b.
4. Mukhamedova D., Rakhimova I., Majidov N., Abdullayev B., & Nigmatullina L. (2020). Psychological aspects of addiction to social media, computer and computer games. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(2), 319-324.
5. Rakhimova I. I., Mukhiddinova U. A., Berdiqulova G. N., Suleymanova D. I., & Sayitova U. H. (2021). Positive And Negative Aspects Of The Psychological Impact Of The Virtual World. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 25-29.

6. Рахимова И. И., & Сайитова У. Х. (2020). Психологическое положительное влияние компьютерных игр на детей студенческого возраста. In European Scientific Conference (pp. 248-250).
7. Рахимова И. И. (2014). Факторы формирования психологической зависимости от компьютерной игры в подростковом возрасте. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1-2), 221-226.
8. Рахимова И. И., & Османова Д. (2019). Влияние интернета на нашу жизнь. Студенческий вестник, (3-1), 43-45.
9. Сафаев Н. С., & Рахимова И. И. (2018). Зависимость от компьютерных игр в юношеском возрасте. In Человек в условиях социальных изменений (pp. 115-117).
10. <https://www.demandsage.com/internet-user-statistics/>



Файзиев Зоҳиддин Ҳасанбоевич,
Қарши давлат университети Психология кафедраси доценти

РАҲБАР ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТАДИГАН СТРЕССОРЛАРНИНГ БЛОКЛИ-ЧИЗМАСИ

Аннотация: Мақолада раҳбар шахсига хос стрессли кечинмалар ва унинг кетириб чиқарувчи омиллар батафсил ёритилган. Илмий ўрганишлар шуни кўрсатдики, раҳбарда иш юкламасининг ортиши ва жамодаги шахслараро муносабатларнинг бузилиши уларда стрессорларнинг намоён бўлишига сабабчи эканлиги тадқиқотларда ўз ифодасини топди.

Мазкур мақолада, раҳбар фаолиятида стрессни келтириб чиқарувчи омиллар, намоён бўлиши сабаблари ва оқибатлари интегратив- блокларда таҳлил этилган.

Калим сўзлар: стресс, стрессли кечинмалар, стрессор, ички ва ташқи стресс, маълум ва номалум стресс, стрессоген вазиятлар ва бошқалар.

БЛОК-СХЕМА СТРЕССОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ РУКОВОДИТЕЛЯ

Аннотация: В статье подробно описаны стрессовые переживания руководителя и факторы, их вызывающие. Научные исследования показали, что увеличение нагрузки на руководителя и нарушение межличностных отношений в коллективе являются причинами проявления в них стрессоров.

В данной статье стрессогенные факторы, причины и последствия деятельности руководителя анализируются в интегративных блоках.

Ключевые слова: стресс, стрессовые переживания, стрессор, внутренний и внешний стресс, известный и неизвестный стресс, стрессовые ситуации и др.

BLOCK SCHEME OF STRESSORS AFFECTING THE PERFORMANCE OF THE LEADER

Abstract: The article describes in detail the stressful experiences of the leader and the factors that cause them. Scientific studies have shown that an increase in the load on the manager and a violation of interpersonal relations in the team are the causes of the manifestation of stressors in them.

In this article, stress factors, causes and consequences of the leader's activity are analyzed in integrative blocks.

Keywords: stress, stressful experiences, stressor, internal and external stress, known and unknown stress, stressful situations, etc.

Кириш. Стресс инсон фаолиятининг ажралмас субъектив ҳолати бўлиб, барча фаолиятларни амалга ошишида муайян даражада таъсир этади. Шундай экан, бошқа фаолият турлари каби раҳбарлар фаолиятига ҳам стресс омилларининг таъсири сезиларли бўлади. Раҳбарлар фаолиятига таъсир этувчи стрессорлар ўзига хос хусусиятларга эга ҳисобланади. Бу борада тадқиқот олиб борган олим А.Фрестер бундай стрессорларни икки гуруҳга ажратган ва уларни қуйдагича изоҳлайди.

- Ишдан ташқари факторлар: меҳнат жараёниларда ва аввалги меҳнат импульсини камлиги; раҳбарларнинг муносабат доираси, жамоадаги ходимлар ёки оилавий низолар; иш юкламасини ортиш ҳолати ёки бир неча кун яхши ухлამаслик; ташкилотнинг шарт-шароитлари яхши эмаслиги; аввалги муаммолар; раҳбарнинг юқори самарадорлик кўрсаткичларини талаб қилиши; иш жойига узоқ масофа босиб келиш; қўйилган вазифани муваффақиятли бажариш лозимлигини доимо ўйлаш; нотаниш ходимлар, улар ҳақида маълумотларнинг йўқлиги;

- Иш жараёнидаги факторлар: рақобатдаги муваффақиятсизлик; ходимларнинг келишмаслиги; иш вақти бошланишининг кечиктирилиши; иш вақтидаги танбехлар; ортиқча ҳаяжонланиш;

рахбарнинг кутилмаганда юқори юклама бериши; ўзини жисмонан ёмон ҳис қилиш; оғриқли финиш синдроми;

Агар раҳбарда иш жойи ва шароити борасида аниқ маълумот бўлмаса, раҳбар одатда ўзига маълум характеристикаларни тасаввур қилади. Бу тасаввур олдин олинган маълумотлар билан тўлиқ мос келмайди, оқибатда ишхонанинг аниқ ўзига хос шароитини идрок қилишни қийинлаштиради.

Асосий қисм. Ишга бориш олдидан доимо раҳбарда ўзи ва ходимлар фаолиятини таққослаш жараёни кечади. Ходимларнинг натижалари раҳбарни ўзининг натижаларидан кўра кўпроқ қизиқтиради. Раҳбар ходимларининг натижасини кузатади ва ўзиники билан таққослайди. Агар ходимлар ҳақида тўлиқ маълумотга эга бўлмаса, раҳбарда ўзига ишонсизлик ҳолати пайдо бўлиши кузатилади.

Иш вақти қанчалик узоқ давомли бўлса, тасаввурлар шунчалик кўп ва шиддатли кечиши кузатилади. Агар бу тасаввурлар салбий, масалан, қўрқув ҳосил қилса, фақат қийинчиликлар кўзга кўринади. Нейтрал тасаввурлар ҳам хавфли кўриниш олиши мумкин. Натижада, иш жараёнида муваффақиятга эришишга тайёр ҳолат ҳам тез сусаяди. Оқибатда раҳбарда психик ўзгаришлар пайдо бўлади. Бу салбий барьерлар, «белгиланмаган таҳдид солувчи хавф ҳисси» ёки «омадсизликни олдиндан ҳис қилиш» сифатида белгиланувчи установкани шакллантиради. Шу сабабли раҳбар ўзининг ҳолатини тўлиқ англай олмайди, иш вақтида ўзини овутишдан бошқа фарқли тайёргарлик ёки ўзгаришни намоён эта олмайди. Тўсиқларни қанчалик кўп англаса, ўзининг ҳаракатларини шунчалик қийин тасаввур қилади, натижани, ишдаги ютуқ ва камчиликларни шунчалик кўп ўйлайди. Оқибатда кучли аффектив ҳолатни шаклланишига йўналган установка пайдо бўлиши, хавотирланиш, асабийлик, ўзига ишонсизликнинг келиб чиқиши юз беради.

Раҳбарнинг ортиқча ҳаяжонланиши ва иш аввалида ҳаракатларни бажаришда хатога йўл қўйган ходимларга кўп дашном бериши раҳбарда стресс ҳолатининг юзага келишига сабаб бўлади, оқибатда ходимнинг хато қилмаслик ва раҳбардан дакки эшитмаслик учун ҳаракатларни бажаришдан қочиш ҳолати юз беради.

Раҳбар фаолиятига турли кўринишдаги бениҳоя юкламалар хос бўлганлиги учун бошқарув фаолиятида стресс тез – тез юзага келади. Раҳбарлар фаолиятига психик стрессоген юкламалар таъсири жисмоний юкламалардан кам эмас. Бошқарувда стресснинг сабабини аввалам бор фаолият жараёнида организмнинг асосий эҳтиёжи тўсилишидан қидириш лозим: масалан, энг кучли стрессорларга ҳаво етишмаслиги ҳисси киради. Чарчаш ҳолати бошқарувда стресснинг асосий сабаби бўлиб, иродавий зўр бериш билан энгиш мумкин.

Б.Х.Варданян [4] айтганидек, умумий адаптацион синдром доирасида нормал чегарада чарчаш хавотир реакцияси босқичига мос келади, меҳнат юкламасига мослашиш резистенция босқичига мос келади ва кейинги босқичларда юкламанинг ошиши ҳолдан тойиш босқичи бошланишига сабаб бўлади. Организмни қисман ёки тўлиқ ҳолдан тойдирувчи ҳаддан зиёд зўриқиш бошқарувда шахсий стрессор сифатида намоён бўлади.

Бошқарувда стресснинг келиб чиқишини ўрганган В.А.Бодров[1;2;3] муваффақиятсизликни кучли стрессор, фрустрация сифатида талқин қилади ва ишдан кейинги стресс сифатида қарайди. Ишда муваффақиятсизлик бошқарув фаолиятида курашиш даражасини пасайтиради. Бу субъект фаолиятида функционал элементларнинг ўзгариши билан боғлиқ. Раҳбарларда курашиш даражаси юқори бўлади, ишдаги муваффақиятсизликдан кейин эса инерт курашиш намоён бўлади. Фаолиятдаги муваффақиятсизликдан кейин фаолиятда курашиш даражасининг психологик пасайишини кейинги омадсизликни келтирувчи адаптацион механизм тарзида тушуниш мумкин. Шунинг учун бошқарувда керакли натижага эришишни таъминловчи, муваффақиятсизлик бўлганда эса муваффақиятга эришишдан умуман умидни узмайдиган, ҳақиқий «уддабурон» курашувчанлик тавсия этилади.

Стрессорлар стресс ҳолатини келтириб чиқарувчи ички ёки ташқи олам омилларидир. Стрессорларни таснифлашда номаълум ва маълум, ўз навбатида уларни ички ва ташқи турларга бўлиш мумкин. Бошқарув жараёнида бундай стресс омиллари қуйидаги кўринишларда ифодаланади:

– ички номаълум стрессорлар: раҳбар ижобий натижани қўлга киритиш учун оптимал даражада ишлаши лозим бўлган барча ички механизмларнинг иш пайтида оптимал даражада ишлашига тўлиқ ишонмаслиги сабабли пайдо бўлади. Раҳбар маҳорат ва психологик сифатларни намоён этишда, функционал ҳолатларда ва турли ички субъектив тўсиқларда иккилинишлар пайдо бўлади.


– ташқи номаълум стрессорлар: иш жойи, шароити, ҳолати ҳақида тўлиқ маълумотга эга эмаслик ва иш фаолиятининг ривожини олдиндан тўғри тахмин қила олмаслик, қўл остидаги

ходимнинг тактик ва психологик ҳолатини билмаслик, шерикларни имкониятга аниқ баҳо бераолмаслик каби ташқи объектив характердаги тўсиқлар оқибатида пайдо бўлади.

– ички маълум стрессорлар: раҳбар иш жараёнида ёки ишдан ташқари омадсиз яқунланганда ўзида субъектив кўнгилсиз кечинмалар пайдо бўлишидан, ишни нормада ташкил этаолмасликдан кўрқиши оқибатида пайдо бўлади.

– ташқи маълум стрессорлар: раҳбар ўз фаолиятида мақсадни аниқ белгилай олмаслиги, моддий ва маънавий зарар кўриши, жамоа ва жамоа аъзолари манфаатига бўлган зарар, жамоада ўз ўрнини йўқотиш хавфи оқибатида келиб чиқади.

Номаълум стрессорлар бошқарув фаолиятининг характери билан боғлиқ бўлиб, у табиатан биринчи ҳисобланади. Маълум стрессорлар фаолиятнинг натижасига берилаётган баҳога жавобгарлик ҳисси билан боғлиқ; ички маълум стрессорлар раҳбар шахсининг мотивларини амалга оширишда ички субъектив баҳолаш характери билан белгиланади; ташқи маълум стрессорлар ташқи назорат характери ва иш жараёнида иштирок этишда фаолиятнинг индивидуал ва ижтимоий аҳамиятини баҳолаш билан белгиланади.



1-расм. Раҳбар фаолиятига таъсир этувчи стрессорларнинг интегратив блокли чизмаси

Мехнат фаолиятининг баъзи турларида раҳбарга ташқи тўсиқлар таъсири сезилмайди, уларга ички номаълум стрессорлар таъсир этади. Бундай ҳолат асосан жамоавий иш турларида кўзга ташланади: ҳамжихатликда ишлаш ва бошқалардир. Ташқи номаълум стрессорлар яқка тартибдаги иш турларига хос ҳисобланади. Чунки яқка тартибдаги иш турларида иш жараёни асосан ходим ва жамоа харакатига боғлиқ бўлади. Таваккал қилиш ва хавфлилик белгилари бор бўлган мехнат фаолиятида турларига ички маълум стрессорлар характерли бўлади. Жамоавий ўзаро муносабатга асосланган иш турларига ташқи маълум стрессорлар хос бўлади.

Муаллифлик тадқиқотлар шуни кўрсатдики, раҳбарлар фаолиятида намаён бўладиган стрессорларнинг келиб чиқиш сабаблари ва унинг таъсири қуйидаги уч блокни акс эттиради: I-блок физиологик стрессорлар деб номланиб, ушбу босқичда стресснинг физиологик факторлари ва унинг раҳбар шахсига таъсири, келтириб чиқарувчи сабабларини қамраб олади; II- блок ижтимоий

стрессорлар босқичи бўлиб, ушбу босқичда унинг келтириб чиқарувчи омиллари очиб берилди; III-блок психологик стрессорларнинг раҳбарлар фаолиятига таъсири ва унинг намаён бўлиш белгилари асослаб берилган. Блоклар чизмасини ишлаб чиқиш давомида раҳбар ва унинг фаолиятига таъсир этувчи стрессорларни ўзаро бир-бири билан уйғун алоқадорликда эканлигини гувоҳи бўлдик. Физиологик стрессорлар бевосита ижтимоий стрессорларни вужудга келтириши тадқиқотда ўз исботини топган. Бу стрессорлар якунида психологик стрессорларни намаён бўлишини таъминлайди. Раҳбарлар фаолиятида стрессорлардан холи бўлишнинг асосий усули физиологик, ижтимоий ва психологик стрессорларнинг бартараф этишнинг механизмини ишлаб чиқишни талаб этади. Тадқиқот иши доирасида яратилган интегратив блокчи чизма ушбу долзарб масалани ечимини топишга хизмат қилиши билан муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Шундай экан, бошқарув фаолиятини муваффақиятли ташкил этишда ва раҳбарларда стрессорларни келтириб чиқарувчи объектив ва субъектив сабабларни аниқлашда куйидаги блокчи чизма муҳим аҳамият касб этади.

Хулоса. Хуллас, олиб борилган тадқиқотлар давомида раҳбар шахси ва унинг фаолиятига таъсир этувчи стрессорларнинг илмий-назарий таҳлиллари ҳамда эмпирик натижалар шунини кўрсатдики, иш жараёнида стрессорлар ўз таъсири кўрсатмасдан қолмаслиги аниқланди. Бугунги кунда бу масаланинг ечимини топиш ва унга алоҳида эътибор қаратиш тадқиқот ишлари объекти сифатида ёндошишни талаб этмоқда.

Адабиётлар:

1. Бодров В.А. Система психорегуляции, стрессоустойчивость человека-оператора. / В.А.Бодров, А.А.Обознов // Психол.журн. 2000.- Т. 21. - № 4. – С. 32-44.
2. Бордов В.А. Когнитивные процессы и психологический стресс. //Психол. журн., 1996. -Т.17. №4. - С.32-42.
3. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие и преодоление /В. А. Бодров. – М.: Perse, 2006. – 528 с.
4. Варданян Б.Х. Механизмы регуляции эмоциональной устойчивости // Категории, принципы и методы психологии. Психические процессы. – М. Дело, 2011. –194 с.

*Холмуротова Шохиста Мирзалиевна,
Термиз давлат университети
Психология кафедраси ўқитувчиси*

АЁЛЛАРДА ДЕВИАНТ ХУЛҚ-АТВОР ШАКЛЛАНИШИНИНГ ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКАСИ

Аннотация: Ушбу мақола бугунги кунда жамиятда қабул қилинган норма ва меъёрларни англаш ва уларга амал қилиш аёл шахси ва хулқ-атворининг нормаси ҳисобланади. Аммо, айрим сабаблар таъсирида баъзи аёллар ижтимоий нормаларга зид келадиган хулқ-атворга эга бўлиб шаклланади. Бундай аёллар психологияда хулқи оғишган аёллар деб юритилади.

Калит сўз: аёл шахси, хулқ-атвори, хулқи оғишган аёллар, ижтимоий нормалар, жамият, инсон, шахс, оила, шахслараро муносабатлар.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА ФОРМИРОВАНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ЖЕНЩИН

Аннотация: Эта статья о понимании норм и правил, принятых в обществе сегодня, и следование им считается нормой личности и поведения женщины. Однако под влиянием определённых причин у некоторых женщин вырабатывается поведение, противоречащее общественным нормам. Таких женщин в психологии называют девиантными женщинами.

Ключевое слово: женская личность, поведение, девиантные женщины, социальные нормы, общество, человек, личность, семья, межличностные отношения.

PSYCHOLOGICAL DIAGNOSIS OF DEVIANT BEHAVIOR FORMATION IN WOMEN

Abstract: This article is about understanding the norms and rules accepted in society today and following them is considered the norm of a woman's personality and behavior. However, under the influence of certain reasons, some women develop a behavior that contradicts social norms. Such women are called deviant women in psychology.

Key word: female personality, behavior, deviant women, social norms, society, human, person, family, interpersonal relations.

Кириш. Президентимиз Ш.М.Мирзиёев ўз маърузаларида «Олдимизда ёшларга тарбия бериш, психология ва бошқа турли соҳаларда кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш бўйича мураккаб вазифалар турибди» – деб тайкидлаганлар. Дарҳақиқат, маънавий-психологик қиёфаси мукамал ва мустаҳкам шаклланган киши ҳар қандай қийинчилик ва тўсиқларни енгиб ўта олади, ўз шаъни ва кадр-қимматини ҳимоя қилади, бошқаларнинг ҳам қадрига етади, энг муҳими бугунги кунда жамиятимизда рўй бераётган бунёдкорлик ишлари ва унинг халқ тинчлиги ва фаровонлиги учун аҳамиятини чуқур англаб, кадрлайдиган бўлиб шаклланади. Кейинги йилларда вилоятимиз аҳолиси ичида кичик муаммолар туфайди оилавий жанжаллар, оилада шахслараро муносабатлардаги зиддиятли вазиятларни ҳал этиш укувининг пастлиги туфайли, ажримлар, ўсмир ёшдаги болалар, катталар айниқса, аёлларнинг ўз жонига қасд қилишлари, нохушликлар ва бошқа жиноятлар кузатилмоқда. Бу эса аҳолининг маънавий психологик савиясини ўстириш бўйича махсус тадбирларни амалга ошириш бугунги куннинг талаби эканлигини кўрсатмоқда.

Асосий қисм. Психологияда турли жинсдаги кишилар руҳиятида ўзига хосликлар мавжудлиги масаласи ҳар томонлама илмий-психологик тадқиқотлар асосида асосланган. Аёл ва эркак психологиясидаги айрим жиҳатларни ўрганиш бугунги кунда нафақат психология илми нуқтаи назаридан балки, жамият, инсон, шахс, оила, шахслараро муносабатлар ва ёшлар тарбияси билан боғлиқ муаммо эканлигини кўриш мумкин. Аёл жамиятда алоҳида ўринга эга зотдир. Энг аввало аёл бу-она, опа ва сингил, рафиқа. Жамиятда эса эркаклар билан бир қаторда туриб, ўз оиласи, ватани равнақи учун, фарзандлар тарбияси учун катта масъулиятлар билан ҳаракатда бўлган ўзи нозик бўлсада, катта ишларга қодир ҳилқатдир. Ана шундай улуғ таърифларга эга бўлган аёл зоти ичида баъзан унинг шаънига доғ келтирадиганлари ҳам учраб туради. Бу албатта яқка шахс, оила ёки алоҳида бир кишиларнинг эмас балки, жамиятнинг ҳам муаммосидир. Чунки, “бир кўлида бешиқни,

бир кўлида эса дунёни тебратадиган аёл”нинг ҳар томонлама комил бўлиши жамиятнинг равнақи учун хизмат қилади.

Жамиятнинг бошқа аъзолари каби, ҳар бир аёл жамиятнинг алоҳида аъзоси сифатида жамиятда қабул қилинган қоидалар, меъёрларни ўзига синдириб боради. Айнан жамиятда қабул қилинган норма ва меъёрларни англаш ва уларга амал қилиш аёл шахси ва хулқ-атворининг нормаси ҳисобланади. Аммо, айрим сабаблар таъсирида баъзи аёллар ижтимоий нормаларга зид келадиган хулқ-атворга эга бўлиб шаклланади. Бундай аёллар психологияда хулқи оғишган аёллар деб юритилади.

Жамият қонун - қоидаларига тўғри келмайдиган тасаввурлар ва тушунчалар аёлларнинг асаб тизимига, темпераментига, характериға кучли таъсир қилади. Уларнинг ижтимоий ва биологик хусусиятлари ҳақидаги умумий маълумотлар ҳар доим ҳам муҳим масалаларни очишга ёрдам бера олмайди. Бунинг учун аёлларнинг аввало жинс хусусиятлари, имкониятлари, эҳтиёжлари, оила муҳити, тарбияланганлик даражаси, хулқида оғишларни келтириб чиқарувчи шарт-шароитларини ҳам ҳисобга олиш зарур. Демак, аёллар билан боғлиқ хулқ оғишлари ва уларнинг оқибатида айрим жиноятлар ўз-ўзидан келиб чиқмайди. Биологик ва социал имкониятларни аёллар шахси ва хулқи шаклланишига катта таъсир кўрсатади.

Инсон туғилганда ҳеч қачон хулқи оғишган бўлмайди. Аммо унинг муҳити, яшаш шароити, оилавий аҳволи ва улар билан боғлиқ вазиятлар ана шундай ижтимоий зарарли хусусиятларга олиб келиши мумкин. Демак, жиноятчилик ҳам ирсият орқали ўтмайди. Бола онасининг қорнидан жиноятчи бўлиб туғилмайди. Жиноятчилик атрофдаги муҳит, муносабатлар (ота - она, тенгдошлар, катталар билан бўладиган) таълим - тарбия таъсиридан келиб чиқиши мумкин. Унинг пайдо бўлишига қизиқиш, эҳтиёж, ироданинг пастлиги ҳам сабаб бўлади.

Хулқ-атвори оғир аёлларнинг шахси шаклланишига кўпчилик ҳолларда оилавий шарт-шароитлар, ота-онанинг ёки қариндошларнинг ичкиликбозлиги, уларнинг ахлоққа зид хулқ-атворлари салбий таъсир ўтказиши. Хулқи оғишган аёллар учун одатда ҳаётга, умум эътироф этилган қоидаларга нисбатан зид муносабат хос бўлиб, охир-оқибатда бу уларни яқинларига қарама-қарши қилиб қўяди. Аксарият ҳолларда ҳуқуқбузар аёллар – ички салбий муносабатлар натижасида оиласида ўз ўрнини топа олмаганлар бўлиб чиқади. Дастлаб хулқи нормада бўлган аёл, унга нисбатан бўлган ноҳақликлар, камситиш, тан олмаслик, таҳқирлаш, хўрлаш, сурункали тазйиклар туфайли ўз хулқини ўзи мажбуран ўзгартириши холатлари ҳам учрайди. Бунга мисол тариқасида, айрим оилаларда ханузгача сақланиб келаётган аёлларга нисбатан хизматкор сифатида муносабатда бўлиш, уларга кўрсатиладиган турли зўравонликларни келтириш мумкин.

Айрим ҳолларда эса аёллардаги девиант хулқ атвор уларнинг тарбиясизликлари, манманликлари, ҳаёсизликлари ва бошқа салбий характерологик хусусиятлари ҳам сабаб бўлиши мумкин.

Аёлларда доимий мулоқотга эҳтиёжнинг кучайиши, ўзлигини тасдиқлашга интилиш, бошқаларининг ўзи ҳақидаги фикр мулоҳазаларига таъсирчанлик – кўпчилик хулқи оғишган аёлларга хос хусусиятлардир. Номатбул оилавий шарт - шароитлар хулқи оғишган аёл шахсининг шаклланишидаги энг асосий омил бўлиб ҳисобланади. Оилавий жанжаллар, аёлларнинг жисмоний жазоланиб турилиши, табиий равишда тормозлашув меъёрлари бузилишига, қизикқонлик, ўта кўзғалувчанлик, ўзини қўлга ола билмаслик каби иллатларнинг туғилишига сабаб бўлади.

Шундай экан, жамиятда аёлларга алоҳида эътибор қаратилаётган ҳозирги шароитда уларнинг психологик хусусиятларини ўрганиш ва ижтимоий жиҳатдан ижобий хулқни шаклланишини, уларнинг хулқ-атворини ижтимоий нормаларга мувофиқлаштириш психологлар олдидаги вазифа бўлиб қолади.

Психодиагностик тадқиқот натижалари таҳлили

К.Леонгард методикасига асосланган Шмишекнинг Характер акцентуациясини аниқлаш методикаси асосида тадқиқотлар олиб бордик.

Шмишек методикаси бўйича 88 та саволдан иборат сўровнома асосида ўтказилган тест натижаларни баҳолашда ҳар бир саволга жавобларни белгилаб бўлгандан сўнг, 10 та шкалага тегишли бўлган саволларнинг бирламчи баллари алоҳида-алоҳида ҳисоблаб чиқилади (савол охирида Ушбу савол нечанчи шкалага тегишли эканлиги кўрсатилган. («-» белгиси куйилган рақамлар синалувчининг «йўқ» жавоби тўғри келса, 1 балл билан белгиланади).

Шкала бўйича ҳосил бўлган бирламчи баллар, жадвалда кўрсатилган коэффициентга кўпайтирилади. Агар ҳисоблаб чиқилганда, баллар 12 баллдан ошса, характер акцентуациясининг намоён бўлиши кўринади.

1-жадвал.

Ўсмир ёшдаги қизларнинг Шмишек тести бўйича кўрсаткичлари

Шкала раками	Акцентуация типлари	Кoeffициент	Бирламчи баллар	Акцентуация кўрсаткичи бирламчи балларнинг коoeffициентига кўпайтирилгани
1	Гипертим	3	8	24
2	Хавотирланувчи	3	7	21
3	Дистим	3	3	9
4	Расмий	2	3	6
5	Кўзгалувчан	3	8	24
6	Эмотив	3	5	15
7	Ригид	2	8	24
8	Намойишкор	2	8	24
9	Циклоид	3	7	21
10	Экзальтр	6	6	36

1-жадвал кўрсаткичларидан кўриниб турибдики, акцентуация гипертим, намойишкорлик, ригидлик, циклоид, экзальтрага хосдир. Бу эса ҳақиқатдан ҳам ўсмирлик ёш даврида кузатиладиган акцентуацияга мос келади.


2 – жадвал.

Ўспирин ёшдаги қизларнинг Шмишек тести бўйича кўрсаткичлари

Шкала раками	Акцентуация типлари	Кoeffициент	Бирламчи баллар	Акцентуация кўрсаткичи бирламчи балларнинг коoeffициентига кўпайтирилгани
1	Гипертим	3	8	24
2	Хавотирланувчи	3	8	24
3	Дистим	3	4	12
4	Расмий	2	5	10
5	Кўзгалувчан	3	8	24
6	Эмотив	3	6	18
7	Ригид	2	4	8
8	Намойишкор	2	5	10
9	Циклоид	3	7	21
10	Экзальтр	6	5	30

2 жадвал кўрсаткичларидан кўриниб турибдики, ўспирин қизларда акцентуация ўсмир қизлардан биров фарқ қилсада, айрим шкалаларда яқинлик кузатилди. Бу эса характер акцентуацияси ҳамда девиант хулқ-атворга мойиллик фақат ўсмирлик даврига хос деган фикр нотўғри эканлигини англатади.

Аксинча, ўспирин ёшдаги қизларда ўсмир қизларга нисбатан ҳам кучлироқ девиант хулқ шакланган бўлиши мумкин, аммо бу хусусият уларда кўпинча яширин ҳолда бўлади. Ўспирин ёшдагилар оила қуриш бўсағасида ёки оила қурганидан сўнг дастлабки йилларда девиант хулқлари юзага чиқади.



1-расм. Шмишек методикаси бўйича олинган натижалар

Тадқиқот давомида синалувчилардан психокоррекцияга муҳтож бўлганлари билан “Ўзингни англа” психологик тренинг яъни ўйин ва машқлардан иборат дастур олиб борилди. Дастурдан жой олган машқлар давомида синалувчиларда релаксацион ҳолат юзага келтирилди, ўз шахсининг тузилиши, фазилатлари, салбий хусусиятларига ўзи томонидан баҳо беришига ундайдиган, ўзини англашга йўналтирилган машқлар ўтказилди. Иштирокчиларнинг кайфияти, ўз-ўзига муносабати ижобий томонга ўзгарганлигини кузатдик. Тренингдан кейин тадқиқот ишимизда қўлланилган методикаларни қайта ўтказдик. Методика натижаларини жадвал ва расм ҳолатидаги кўринишларини тақдим қиламиз.

3-жадвал.

Ўсмир ёшдаги қизларнинг Шмишек тести бўйича кўрсаткичлари

Шкала рақами	Акцентуация типлари	Коэффициент	Бирламчи баллар	Акцентуация кўрсаткичи бирламчи балларнинг коэффицентига қўпайтирилгани
1	Гипертим	3	7	24
2	Хавотирланувчи	3	6	21
3	Дистим	3	2	9
4	Расмий	2	2	6
5	Кўзгалувчан	3	7	24
6	Эмотив	3	4	15
7	Ригид	2	7	24
8	Намойишкор	2	7	24
9	Циклоид	3	6	21
10	Экзальтёр	6	5	36


3-жадвал кўрсаткичларидан кўриниб турибдики, акцентуация гипертим, намойишкорлик, ригидлик, циклоид, экзальтёрга хосдир. Бу эса ҳақиқатдан ҳам ўсмирлик ёш даврида кузатиладиган акцентуацияга мос келади.

Ўспирин ёшдаги қизларнинг Шмишек тести бўйича кўрсаткичлари

Шкала раками	Акцентуация типлари	Коэффициент	Бирламчи баллар	Акцентуация кўрсаткичи бирламчи балларнинг коэффициентига кўпайтирилгани
1	Гипертим	3	7	24
2	Хавотирланувчи	3	7	24
3	Дистим	3	3	12
4	Расмий	2	4	10
5	Кўзгалувчан	3	7	24
6	Эмотив	3	5	18
7	Ригид	2	3	8
8	Намойишкор	2	4	10
9	Циклоид	3	6	21
10	Экзальтёр	6	4	30

4-жадвал кўрсаткичларидан кўриниб турибдики, ўспирин қизларда акцентуация ўсмир қизлардан биров фарқ қилсада, айрим шкалаларда яқинлик кузатилди. Бу эса характер акцентуацияси ҳамда девиант хулқ-атворга мойиллик фақат ўсмирлик даврига хос деган фикр нотўғри эканлигини англатади.

Аксинча, ўспирин ёшдаги қизларда ўсмир қизларга нисбатан ҳам кучлироқ девиант хулқ шакланган бўлиши мумкин, аммо бу хусусият уларда кўпинча яширин холда бўлади. Ўспирин ёшдагилар оила қуриш бўсағасида ёки оила қурганидан сўнг дастлабки йилларда девиант хулқлари юзага чиқади.



2-расм. Шмишек методикаси бўйича олинган натижалар

Бизнинг тадқиқот ишимизда ўсмир ва ўспирин ёшдаги қизларда шахснинг “Мен”ини психологик химоя механизмларидан “Инкор этиш”, “Проекция” меъёрдан биров юқори эканлигини кўрсатмоқда. Демак, ўсмир ва ўспирин қизларда девиант хулқ-атвор психопрофилактикасида буни ҳисобга олиш лозим.

Ўсмир ва ўспирин қизларда ўтказилган Шмишек тести шахснинг “Мен”ини психологик химоя механизмлари ўсмир ва ўспирин ёшдаги қизларда психологик химоя механизмлари турли даражада

бўлишини кўрсатди. Аммо, шахснинг “Мен”ини психологик ҳимоя механизмлари ўсмир ва ўспирин ёшдаги қизларда айрим шкалалар бўйича бир бирига яқин натижани кўрсатмоқда. Бу эса мазкур ҳолатнинг олдини олишда психологик тадбирлар билан бирга диний психологик билимлар ҳам зарур эканлиги ҳақида хулоса чиқаришга олиб келди.

Хулоса. Хулқ оғишининг келиб чиқиш сабабларини аниқлаш, энг аввало, у юзага келган ижтимоий муҳит хусусиятларини ўрганиб чиқишни такозо қилади. Чунки хулқ оғишини умумий кўринишда оладиган бўлсак, у бирор бир шахс-га хос бўлган субъектив хулқ-атвор натижаси эмас, балки субъектив ва объектив жараёнлар, шарт-шароитлар, муносабатлар натижаси сифатида юзага келади. Шу нуқтаи назардан олиб қаралганда, ижтимоий жараёнларнинг индивидуал хатти-ҳаракатларга таъсири масаласига ойдинлик киритиш зарур бўлади. Тадқиқотларга кўра шахс хулқ-атворидаги бузилиш ижтимоий муҳитнинг ўзига хос. Усмир руҳий дунёсида пайдо бўлган бундай ўзгаришлар балоғат даври ўтиши билан бир меъёрга келиб қолади. Шунинг учун балоғат ёши даврида ота-оналар ўсмирлар тарбиясига алоҳида эътибор беришлари, уларда кечаётган психофизиологик ўзгаришларни ҳисобга олишлари мақсадга мувофиқдир. Шу боисдан ота-оналар оилавий тарбияда, фарзандлари билан бўладиган шахслараро муносабатларда, улар билан муомала қилишда шахс ва ёш даври хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда иш тутсалар оилавий тарбиянинг самараси юқори бўлишлигини таъминлаган бўлар эди.

Адабиётлар:

1. Малик Тохир. Одамийлик мулки - Дусну хулқ(Ахлоқ китоби). -Т.: Шарк, 2014.
2. Холмуротова, Ш. М. (2022). Аёллар девиант хулқ-атворининг психологик хусусиятлари диагностикаси. *Science and Innovation*, 1(В3), 129-133.
3. Холмуротова, Ш. М. (2022). Аёлларда девиант хулқ-атвор хусусиятлари психопрофилактикасида диний билимларни қўллаш. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(6), 286-294.
4. Жўраева С.Н. Ўқитувчи имиджи масъулияти билан ўзаро алоқадорлик уйғунлиги // «Психология». 2021. №2. Б. 65-69 .
5. Жўраева С.Н. Педагог имижини тавсифловчи шахслилик хусусиятлари // *Pedagogik mahorat*. 2022. №1. Б.50-56.
6. <http://innosci.org/index.php/jarsp/article/view/262>.

*Ҳамидов Амирхон Аҳмадҷонов,
Жамоат ҳавфсизлиги университети мустақил тадқиқотчиси*

ХИЗМАТГА ЧАҚИРИЛУВЧИЛАР ВА ЁШЛАРНИНГ АРМИЯДА ХИЗМАТ ҚИЛИШГА ПСИХОЛОГИК ЧИДАМЛИЛИГИНИ ОШИРИШ

Аннотация: Ҳарбий тажриба кўпинча одамлар ҳаётида узоқ давом этадиган ўзгаришларни келтириб чиқарадиган асосий бурилиш нуқтаси сифатида қаралади. Шахсий хусусиятлардаги ўзгаришлар ҳарбий тажриба ва муҳим ҳаётӣй натижалар ўртасидаги муносабатларга воситачилик қилиши мумкин.

Шундай экан ёшларнинг армияда хизмат қилишига ҳам жисмонан, ҳам психологик тайёрлиги уларга келажакда ҳар қандай учраши мумкин бўлган тўсиқларни енгиб ўтишига ёрдам беради.

Психологик жиҳатдан чидамли аскар нафақат уруш таъсири билан боғлиқ психологик стрессларни, балки ҳарбий ҳаракатлар билан боғлиқ физиологик стрессларни ҳам яхшироқ енгишини кўрсатадиган далиллар мавжуд. Шунинг учун психологик чидамлилик нафақат руҳий саломатлик, балки аскарнинг жисмоний саломатлиги учун ҳам таъсир қилади. Шу сабабли, психологик жиҳатдан чидамли аскарларни танлаш ва ривожлантириши уларнинг жисмоний ва когнитив вазифаларни талаб қиладиган ҳарбий ҳаракатлар пайтида оптимал ишлашини таъминлайди. Шу сабабларга кўра, психологик чидамлилик ҳарбий тайёргарлик учун энг муҳим омил ҳисобланади.

Ушбу мақола ҳам айнан ёшларнинг ҳарбий хизматга чақирилишидан олдинги психологик тайёргарлигига эътибор қаратган бўлиб, уларнинг психологик чидамлилиги даражаси ва психологик чидамлиликнинг ҳарбий хизматда нақадар муҳим омил эканлиги ҳақида олиб борилган изланишлар мақолада ёритиб берилган.

Калим сўзлар: депрессия, физиологик стресс, чидамлилик, руҳий саломатлик, интервенция, ҳарбий тайёргарлик.

ПОВЫШЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРИЗЫВНИКОВ И МОЛОДЁЖИ К СЛУЖБЕ В АРМИИ

Аннотация: Военный опыт часто рассматривается как важный поворотный момент, создающий прочные изменения в жизни людей. Изменения в личностных чертах могут опосредовать взаимосвязь между военным опытом и важными жизненными результатами, поэтому физическая и психологическая готовность молодых людей к службе в армии поможет им преодолеть любые препятствия, с которыми они могут столкнуться в будущем.

Имеются данные, свидетельствующие о том, что психологически устойчивый солдат лучше справляется не только с психологическими стрессами, связанными с последствиями войны, но и с физиологическими стрессами, связанными с военными действиями, поэтому психологическая устойчивость влияет не только на психическое здоровье, но и на физическое здоровье военнослужащего. В связи с этим отбор и развитие психологически устойчивых солдат обеспечит их оптимальную работоспособность в ходе боевых действий, требующих развития физических и когнитивных способностей. По этим причинам психологическая устойчивость является важнейшим фактором военной подготовки.

В этой статье также уделяется внимание психологической подготовке молодых людей перед военной службой, а также освещаются исследования, проведённые на уровне их психологической устойчивости, и то, как психологическая устойчивость является важным фактором военной службы.

Ключевые слова: депрессия, физиологический стресс, жизнестойкость, психическое здоровье, вмешательство, военная подготовка.

INCREASING THE PSYCHOLOGICAL RESISTANCE OF CONSCRIPTS AND YOUNG PEOPLE TO SERVE IN THE ARMY

Abstract: Military experience is often seen as a major turning point that creates lasting changes in people's lives. Changes in personality traits may mediate the relationship between military experience and important life outcomes.

Therefore, the physical and psychological readiness of young people to serve in the army will help them overcome any obstacles they may encounter in the future.

There is evidence to suggest that a psychologically resilient soldier is better able to cope not only with the psychological stresses associated with the effects of war, but also with the physiological stresses associated with military action. Therefore, psychological resilience affects not only the mental health, but also the physical health of the soldier. Therefore, the selection and development of psychologically resilient soldiers will ensure their optimal performance during military operations that require physical and cognitive tasks. For these reasons, psychological resilience is the most important factor for military training.

This article also focuses on the psychological preparation of young people before being drafted into military service, and the research conducted on the level of psychological resilience and how psychological resilience is an important factor in military service is highlighted.

Key words: *depression, physiological stress, resilience, mental health, intervention, military training.*

Кириш. Ҳарбий тажриба кўпинча одамлар ҳаётида узоқ давом этадиган ўзгаришларни келтириб чиқарадиган асосий бурилиш нуқтаси сифатида қаралади. Дарҳақиқат, ҳарбий тажриба одамларни ижтимоийлаштиради ва камолотга етказди, деган узоқ вақтдан бери сақланиб қолган туйғу мавжуд. Мисол учун, бутун дунё бўйлаб ҳарбий кучларни ёллаш материаллари ҳарбий тажрибанинг ўзгаришлар учун катализатор сифатидаги ғоясини мустаҳкамлайди. Шундай қилиб, шахсий хусусиятлардаги ўзгаришлар ҳарбий тажриба ва муҳим ҳаётини натижалар ўртасидаги муносабатларга воситачилик қилиши мумкин.

Ҳарбий хизматга киришга қарор қилган шахслар учун ҳарбий тайёргарлик уларнинг хатти-ҳаракатларини ўзгартириш учун аниқ белгиланади. Шундай қилиб, ҳарбий тайёргарлик шахсий хусусиятлар ўзгариши мумкин бўлган идеал муҳитни таъминлайдиган бир қатор ижтимоийлашув жараёнларини бирлаштиради. Биринчидан, ўзига хос хатти-ҳаракатлар ва меъёрлар учун янги чақирилганлар кенг қамровли ўқув-лагерь дастурига қатнаштирилади, унда уларнинг фуқаролик мақоми бузилади ва ҳарбий хизматчиларнинг янги идентификатори сохталаштирилади. Иккинчидан, ҳарбий маданият талабларини бажарган аскарларни мукофотлайдиган ва бажармаганларни жазолайдиган рағбатлантирувчи тузилма ташкил этилади. Ушбу ташқи континенциялар кундалик хатти-ҳаракатларнинг ўзгаришига олиб келади, бу вақт ўтиши билан шахсий хусусиятларнинг ўзгаришига ёрдам беради.

Методлар. Бу каби ҳарбий тайёргарликлар албатта психологик омиллар ва методлар билан бирга кечади.

Шу ўринда ҳарбий таълим муассасалари, жумладан Темурийлар мактаби ва умумтаълим мактаб юқори синф ўқувчиларининг ҳарбий тайёргарликдаги психологик муаммолари кўпроқ тадқиқот эътиборини жалб қиладиган муҳим муаммодир. Бу даврда ўқувчилар ўсмирликдан катталаргача ўсадиган муҳим ўтиш даври ва уларда руҳий саломатлик муаммоларини ривожланиш хавфи юқори бўлган кўплаб қийинчиликларга дуч келиши мумкин. Коллеж кампусларида қайд этилган барча руҳий касалликлар орасида депрессия энг кўп тилга олинадиган руҳий касалликлардан биридир. Мисол учун, Америкада бир тадқиқотда депрессиянинг тарқалиш даражаси 34,5% ни ташкил қилган, Хитойда бошқа тадқиқотда депрессив аломатлар учун 11,7% ва асосий депрессив бузилишлар учун 4,0% тарқалиш даражаси қайд этилган. Тахминларга кўра, Хитойда депрессиянинг тарқалиши ҳали ҳам ўсиб бормоқда. Бундай ҳолда, биринчи курс талабалари орасида чидамликни яхшилаш ва руҳий тушкунликни камайтириш учун самарали руҳий саломатликни мустаҳкамлаш стратегиялари зарур.


Ҳарбий тайёргарликни ёшлар учун жасоратни тайёрлашнинг бир шакли деб ҳисоблаш мумкин. Олдинги тадқиқотлар шуни кўрсатдики, чидамлик машғулоти умумий аҳолининг психологик чидамлигини яхшилаши ва руҳий саломатликка ҳисса қўшиши мумкин. Бундан ташқари, бу депрессиянинг олдини олиш ва даволашга, ўз жонига қасд қилиш ғояларини камайтиришга ва депрессия билан оғриган беморларнинг ҳаёт сифатини яхшилашга ижобий таъсир кўрсатади. Мухтасар қилиб айтганда, чидамликни кучайтирувчи тадбирлар, шу жумладан чидамликни ошириш депрессиянинг олдини олиш ва даволашнинг энг самарали стратегияларидан бири бўлиши кутилмоқда. Кўплаб тадқиқотлар болалик руҳий травмасини паст чидамлик ва юқори депрессиянинг асосий хавф омилли сифатида кўради.

Болалик травмаси деганда болалик даврида етказилган ҳар қандай жисмоний ва руҳий зарар, жумладан ҳиссий, жисмоний ва жинсий зўравонлик, шунингдек, ҳиссий ва жисмоний эътиборсизлик тушунилади. Болаликдаги травма кейинги ҳаётдаги руҳий тушкунлик каби салбий руҳий саломатлик

натижалари учун муҳим хавф омили сифатида кенг эътироф этилган. Кўплаб далиллар, шунингдек, болалик травмасини бошдан кечирган одамларнинг чидамлилиги бузилганлигини ва чидамлилиги болалик травмаси ва депрессия ўртасида воситачи роль ўйнашини кўрсатди. Шундай қилиб, ҳарбий тайёргарликда чидамлилиги ва депрессияга таъсирини ўрганиш, шу билан бирга болаликдаги жароҳатларни ҳисобга олиш муҳимдир.

Натижалар. Ҳозирда ҳарбий таълим муассасаси биринчи курс талабалари ҳамда ўрта мактаб юқори синф ўқувчилари орасида ҳарбий тайёргарлик намунасида болалик травмасини ҳисобга олган ҳолда, ҳарбий тайёргарликнинг чидамлилиги ва депрессияга таъсирини ўрганадиган тадқиқотлар йўқ. Ўқувчилар ўртасида руҳий касалликлар билан касалланишнинг ўсиш тенденцияси ва ҳарбий муассасаларда ҳарбий тайёргарлик дастурлари кенг йўлга қўйилганлигини ҳисобга олиб, ҳарбий тайёргарликнинг руҳий саломатлик бўйича самарадорлиги ва клиник аҳамиятини ўрганиш зарур. Шу билан биргаликда улардаги муваффақиятга интилиш ва муваффақиятсизликдан қочиш мотивларининг намаён бўлиши ҳам жуда аҳамиятлидир.

Ишимизда Темурийлар мактабида таҳсил олаётган биринчи босқич ўқувчиларида 96,1 % ҳамда муддатли ҳарбий хизматчиларда 83,1 % муваффақиятга мойиллиги мавжуд эканлиги, 2,9 % ўқувчилар, 15,5% муддатли ҳарбий хизматчилар муваффақиятсизликка ёрқин ифодаланмаган ижобий мотивацион хусусиятларнинг қиймати қайд этилган. Шунингдек, 1% ўқувчилар ва 1,4 % муддатли ҳарбий хизматчиларда муваффақиятсизликка мойиллиги мавжудлиги аниқланган.



1-расм. Темурийлар мактабида таҳсил олаётган биринчи босқич ўқувчиларида ўтказилган муваффақиятга эришиш ва муваффақиятсизликдан қочиш мотивацияси кўрсаткичлари

Темурийлар мактабининг биринчи босқич ўқувчиларининг хизмат фаолиятида муваффақиятга эришиш ва олдиға қўйган мақсади йўлида қатъиятлилиги, фаоллиги асосида муваффақиятга эришиш умидининг юқорилигини, ватанпарварлик сифатларини намаён этган. бу энг ижобий мотивацион кўрсаткич ҳисобланади. шунингдек, касбий фаолият мураккаблиги боис ҳарбий хизматга қизиқишларининг пасайганлигини кузатиш мумкин. бу хусусиятни ҳарбий хизматга имтиёз учун ҳамда ота-онасининг қистови билан келган бўлиши мумкинлиги билан ҳам изоҳлаш ўринли. шу билан бирга, ижтимоий-психологик сўровномада ҳам курсант ва муддатли ҳарбий хизматчилар ўз-ўзини баҳолашга кўра муваффақиятга эришиш мотивацияси устун эканлиги аниқланган.

Бундан ташқари ишимизнинг навбатдаги кретирияси сифатида клиник депрессияга учрамаган ўқувчилар билан солиштириганда, клиник депрессияга учраган ўқувчиларнинг чидамлилиги яхшиланган ва депрессия камроқ бўлган. Логистик регрессияда асосий депрессиянинг юқори даражаси ҳам чидамлилиги яхшиланнинг салбий омили эканлиги аниқланди. Барчамизга маълумки, кучли депрессияни антидепрессантларсиз даволаш қийин.

Ҳарбий тайёргарлик, психотерапиянинг бир тури сифатида, оғир депрессияни яхшилашда фақат чекланган роль ўйнаши мумкин. Қаттиқ депрессияга учраган ўқувчилар ҳарбий тайёргарликда мувофиқлаштиришнинг паст даражасини кўрсатиши мумкин, шунингдек, фаолият ва шахслараро ўзаро муносабатларда камроқ иштирок этиши мумкин. Бу омилларнинг барчаси яхши шахслараро

муносабатларни ўрнатишга ёрдам бермайди ва шунинг учун чидамлиликини яхшилашга таъсир қилади. Ушбу топилма оғир руҳий тушкунлик билан оғриган талабаларнинг чидамлилигини ошириш учун фармацевтик даволанишни ҳарбий тайёргарлик билан бирлаштириш зарурлиги ва муҳимлигини кўрсатади.

Чидамlilik Америка Психологик Ассоциацияси томонидан бахтсизликлар, травмалар, фожиалар, таҳдидлар ёки ҳатто муҳим таҳдид манбалари олдида яхши мослашиш жараёни сифатида таърифланади ва кўпинча шахснинг ижтимоий мослашиш қобилияти ва руҳий саломатлигини баҳолаш учун ишлатилади.

Ҳарбий тайёргарлик чидамлиликини оширишда ва ҳарбий таълимбилим юртлари ўртасида депрессия аломатларини камайтиришда муҳим роль ўйнаши мумкин. Ушбу топилма ҳарбий тайёргарликни чидамlilik ва руҳий тушкунлик аралашувининг фойдали томони сифатида қўллаб-қувватлайди ва коллеж биринчи курс талабалари учун давом эттирилиши керак. Ҳарбий тайёргарлик, шунингдек, бошқа популяцияларда чидамlilik ва руҳий саломатликини яхшилашга қаратилган бошқа аралашув дастурларига мослашиш потенциалини кўрсатади. Интервенция таъсири эркак жинси, шу билан бирга кекса ёш, болалик травмаси, юқори руҳий тушкунлик даражаси ва бошланғич даражадаги чидамlilik инсон характериға салбий таъсир кўрсатди. Ушбу топилмалар ҳарбий билим юрти ўқувчилари учун ҳарбий тайёргарликни ишлаб чиқиш ва баҳолашда ушбу омилларнинг барчасини ҳисобга олиш зарурлигини кўрсатади, бунда ўзига хос эҳтиёжлари бўлган талабаларға муқобил тадбирлар, масалан, оғир депрессияға учраганлар учун дори-дармонлар тақдим этилади. Бундан ташқари, узоқ муддатли таъсирлар ноаниқ бўлиб қолмоқда, бу эса кейинги тадқиқотларни талаб қилади.

Ҳарбий тайёргарлик орқали талабалар эрта ухлаш ва эрта туриш, соғлом овқат истеъмол қилиш, интенсив жисмоний машқлар қилиш каби яхши ва соғлом турмуш тарзини ривожлантирадилар. Ушбу соғлом турмуш тарзи ўқувчиларнинг жисмоний тайёргарлиги ва фаровонлигини сақлашға ёрдам беради, бу эса яхши чидамlilik ва депрессияни камайтиришға ёрдам беради. Бундан ташқари, ҳарбий тайёргарликнинг асосий элементларидан бири жамоани шакллантириш бўлиб, унда талабалар бир-бирларидан тенгдошларининг ёрдамиға эға бўлишлари мумкин, бу ҳам чидамlilik ва депрессия учун таниқли ҳимоя омилidir.

Психологик чидамlilik руҳий жараёнлар ва хатти-ҳаракатларнинг шахсни стресс омилларининг мумкин бўлган салбий таъсиридан ҳимоя қилишдаги ролини билдиради. Уруш таъсири билан боғлиқ бўлган когнитив, ҳиссий ва ижтимоий стрессларни енгиш учун психологик чидамlilik жуда муҳим эканлиги кенг тарқалган. Психологик чидамlilik ҳарбий тайёргарлик учун энг муҳим аҳамиятға эға, чунки у физиологик стресс омилларини енгишда ҳам муҳим роль ўйнайди ва психологик стрессға дучор бўлган аскар (яъни, психологик стрессларға дош бера олмайдиган аскар) физиологик жиҳатдан қанчалик қобилиятли бўлишидан қатъий назар, ҳарбий ҳаракатлар пайтида яхши натижа кўрсата олмайди.

Физиологик стресслар билан курашишға келсак, олимлар вегетатив, эндокрин ва иммун реакциялар ва авторегуляцияға эътибор қаратадилар. Шу билан бирға, руҳий жараёнлар ва хатти-ҳаракатлар физиологик стрессларға дучор бўлганда тана гомеостазини сақлаб қолиш учун жуда муҳимдир. Масалан, жазирамада жисмоний фаоллик билан курашиш фақат терлаш ва иссиқликнинг қон орқали ядродан терига оқиб кетишидан иборат эмас. Таълим ва ўз-ўзини назорат қилиш, шунингдек, юрак уриш тезлиги ва тўғри ичиш (хулқ-атвор терморегуляцияси) ҳам самарадорликни оптималлаштириш ва иссиқлик уриши ва гипонатремиянинг олдини олиш учун жуда муҳимдир. Бундан ташқари, физиологик стрессларнинг психологик кўринишлари (масалан, субъектив чарчоқ ва термал ноқулайлик) мавжуд бўлиб, улар аскарға енгиш керак бўлган психологик юкни оширади.

Психологик стресс омилларининг жисмоний ишлашға таъсириға келсак, узоқ муддатли ва талабчан когнитив фаоллик, чидамlilik кўрсаткичларини аниқлаш учун ўйланган физиологик омилларда сезиларли ўзгаришлар бўлмасада, кейинги аэробик машқларда самарадорликни пасайтиради, масалан, юрак чиқиши ва мушакларнинг чарчаши. Бошқача қилиб айтадиган бўлсак, ақлий чарчоқ (идрок қилинадиган кучнинг ошиши орқали) узоқ муддатли аэробик машқларни бажариш учун физиологик имкониятларнинг камаймаслигиға қарамай, чидамlilik кўрсаткичларини пасайтиради. Муҳими, биз элита чидамли спортчилар узоқ давом этадиган ва талабчан билим фаолиятининг салбий таъсириға ҳаваскорларға қараганда анча чидамли эканлигини жуда яхши биламиз. Ушбу топилмалар шуни кўрсатадики, психологик жиҳатдан чидамли бўлиш бшлажак аскарларға стрессли ҳарбий операциялар пайтида жисмоний ва когнитив жиҳатдан яхшироқ ишлашға

ёрдам беради. Ҳарбий тайёргарлик, махсус ҳарбий операция, атроф-муҳит ва ҳақиқий жанговар тажриба бшлажак аскарларнинг руҳий саломатлигига ҳам катта таъсир қилади.

Хулосалар.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, психологик жиҳатдан чидамли аскар нафақат уруш таъсири билан боғлиқ психологик стрессларни, балки ҳарбий ҳаракатлар билан боғлиқ физиологик стрессларни ҳам яхшироқ енгишини кўрсатадиган далиллар мавжуд. Шунинг учун психологик чидамлилик нафақат руҳий саломатлик, балки бўлажак аскарнинг жисмоний саломатлиги учун ҳам таъсир қилади. Бундан ташқари, ҳозирги вақтда руҳий чарчоқ каби психологик стресслар нафақат когнитив кўрсаткичларга, балки жисмоний ишлашга ҳам салбий таъсир кўрсатиши мумкинлиги ҳақида кўплаб экспериментал далиллар мавжуд. Шу сабабли, бугунги кунда психологик жиҳатдан чидамли аскарларни танлаш ва ривожлантириш уларнинг жисмоний ва когнитив вазифаларни талаб қиладиган ҳарбий ҳаракатлар пайтида оптимал ишлашини таъминлайди. Шу сабабларга кўра, психологик чидамлилик ҳарбий тайёргарлик учун энг муҳим ҳисобланади.

Adabiyotlar:

1. Bradley C. Nindl Daniel C. Billing. Jace R. Drain. Perspectives on resilience for military readiness and preparedness: Report of an international military physiology roundtable. Research article| volume 21, issue 11, p1116-1124, november 2018.
- 2 . Ricardo M. Love. Psychological Resilience: Preparing our Soldiers for War. March 2011
3. Toshpolatov Abrorjon Mirhokimovich Harbiy xizmatchilarni jangovar vaziyatlarga psixologik tayyorlash. Vol. 28 (2022): Miasto Przyszłości. Impact factor 9.2. ISSN-1. 2544-980x
4. Ackson, Felix Thoemmes, Kathrin Jonkmann, Oliver Lüdtke and Ulrich Trautwein. Military Training and Personality Trait Development: Does the Military Make the Man, or Does the Man Make the Military? Psychological Science published online 24 January 2012. DOI: 10.1177/0956797611423545
5. Gerry Larsson. Perceived stress and hair cortisol levels amongst conscripts during basic military training: A repeated measures study. Pages 541-550 | Received 20 Aug 2021, Accepted 10 Dec 2021, Published online: 01 Mar 2022.
6. <http://innosci.org/index.php/jarsp/article/view/262>.



Ashurov Ramzidin Ramazonovich,

Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INTELLEKTUAL TARAQQIYOT OMILLARI NAMOYON ETILISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida aqliy va bilish jarayonlarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi xususiyatlar haqida fikr yuritilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijasidan shuni aytishimiz mumkinki, o'quvchilarda bilish jarayonlari shuningdek, intellektual taraqqiyot omillarini namoyon etilishining o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan isbotlandi.

O'quvchilarning intellektual rivojlanishida mental arifmetika mashg'ulotlarining tutgan o'rni va bu mashg'ulotlarning paydo bo'lish, hozirgi davrdagi holati haqida bayon qilingan. Intellektual jihatdan har tomonlama yetuk avlodni voyaga yetkazish ta'lim tizimimiz oldidagi eng katta vazifa ekanligi va buni amalga oshirishda yuqori salohiyatli pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish hozirgi kunning dolzarb vazifasi bo'lib qolmoqda. Maqolada o'rganilayotgan muammoning intellektual rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: intellektual taraqqiyot, mental arifmetika, bilish jarayonlari, intellekt nazariyalari, innovatsion jarayonlar.

ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ФАКТОРОВ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В статье рассматриваются особенности, влияющие на развитие психических и познавательных процессов у учащихся начальной школы. По результатам проведённого исследования можно сказать, что научно доказаны особенности проявления познавательных процессов и факторов интеллектуального развития у учащихся.

Описана роль ментальных арифметических упражнений в интеллектуальном развитии учащихся, возникновение этих упражнений и их современное состояние. Важно отметить, что воспитание интеллектуально зрелого поколения является важнейшей задачей нашей образовательной системы, а подготовка и повышение квалификации педагогов с высоким потенциалом для этого остаётся актуальной задачей современности. В статье рассматриваются роль и значение изучаемой проблемы в интеллектуальном развитии.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, ментальная арифметика, познавательные процессы, теории интеллекта, инновационные процессы.

SPECIFIC CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATION OF INTELLECTUAL DEVELOPMENT FACTORS IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract: The article discusses the characteristics that affect the development of mental and cognitive processes in elementary school students. From the results of the conducted research, we can say that the specific characteristics of the manifestation of cognitive processes and intellectual development factors in students have been scientifically proven.

The role of mental arithmetic exercises in the intellectual development of students, the emergence of these exercises, and their current status are described. It is important to note that raising an intellectually mature generation is the biggest task of our educational system, and training and improving the skills of high-potential pedagogues in order to do this remains an urgent task of the present day. The article discusses the role and importance of the studied problem in intellectual development.

Key words: intellectual development, mental arithmetic, cognitive processes, theories of intelligence, innovative processes.

Kirish. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida ta'lim sifati avvalambor, o'quvchilarni aqliy va intellektual rivojlantirish masalasi, intellektual salohiyati va kasbiy tashabbuskorlik kabi xususiyatlarning shakllanganlik darajasi bilan belgilanadi. Jumladan, Yaponiya, Germaniya, Angliya, Xitoy, Rossiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya kabi mamlakatlarda o'quvchilarning intellektual xususiyatlarini

shakllantirishga doir qator psixologik, pedagogik amaliy-tatbiqiy izlanishlar amaliyoti keng joriy etilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonini baynalmillallashtirish asosida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniyatlararo munosabatlarda mas'uliyatli, raqobatbardosh, kreativ, ijtimoiy faol, fidoiy kadrlar tayyorlashga uctuvorlik berilgan.

Asosiy qism. Respublikamizda so'nggi yillarda maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishning yangi shakllarini tadbiq etish, ta'lim va tarbiyaning sifati va samaradorligini oshirish, bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadi (Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish)da «Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish», «Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inkluziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish» kabi muhim vazifalarning belgilab olinganligi fikrimizning yaqqol ifodasidir [1]. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab quvvatlash to'g'risida»gi Farmoni [2] da belgilangan yoshlarga ijodiy va intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, ular o'rtasida huquqbuzarlikni profilaktika qilish, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi O'RQ-630-son «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi PQ-5047-son «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori mazmuni hamda qaror ilovasida ko'rsatilgan O'zbekiston Respublikasida psixologik xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejalari ijrosiga keng ko'lamda xizmat qiladi.

Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yuqori darajadagi intellektual imkoniyatlarga ega bo'lgan malakali mutaxassislar tobora ko'proq talab qilinmoqda, salohiyatli kadrlarning bilim poydevori bevosita maktab davrida qo'yilgan tamal toshiga bog'liqdir. O'quvchilarning intellektual rivojlanish masalasi psixologik-pedagogik yondashuvlarning hozirgi kundagi asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Maktab ta'limi kognitiv funktsiya sifatida ilmiy bilimlar tizimini ilmiy bilish usullari bilan qurollantirish bilan bir qatorda rivojlanuvchi funktsiyani ham amalga oshirishi kerak - o'quv subyektlari yordamida shaxsning individual resurslarini murakkablashtirish, kengaytirish imkoniyatini yaratmoqda.

Ta'limni yangilash va modernizatsiya qilishning eng muhim vositalaridan biri innovatsion jarayonlardir. Innovatsion jarayonlarning maqsadi sifatli ta'lim natijalari, ta'lim tizimida raqobatbardoshlikni oshirish, sifat jihatidan yangi yuqori darajaga erishishdir.

Shaxsning intellektual rivojlanishi faqat "to'siqlarni", intellektual qiyinchiliklarni yengib o'tish sharoitida amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari D.N. Bogoyavlenskiy, H.A. Menchinskaya, A.A. Lyublinskaya, V.A. Kruteskiy, V.V. Davydova va boshqalar ko'rsatdiki, "ta'limni boshqarishning asosiy shartlaridan biri va shu bilan birga tafakkur rivojlanishini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri bu o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradigan muammoli vaziyatlarni keltirib chiqaradigan vazifalarni oldindan belgilashdir" [5].

Bolaning aqliy rivojlanishining boshqa tasniflaridan farqli o'laroq, Piajening klassifikatsiyasi intellektning rivojlanishiga qaratilganligi bilan boshqa nazariyalardan ajralib turadi. U aqliy rivojlanishning barcha bosqichlarida boshqa psixik funktsiyalarning rivojlanishi intellektga bo'ysunadi va u bilan belgilanadi, deb hisoblagan. Uning tadqiqotining eng muhim boshlang'ich tamoyili bolani narsalarni o'zlashtiradigan, ularni o'z aqliy tuzilishiga ko'ra tanlaydigan va o'zlashtiradigan mavjudot sifatida ko'rishdir. Bilishda J.Piaje nuqtai nazaridan, hal qiluvchi rolni sub'ekt tanlagan ob'ektning o'zi emas, balki, birinchi navbatda, sub'ektning hukmron psixik tuzilmalari bajaradi. Idrok jarayonida sub'ektning faolligi nafaqat dominant psixik tuzilmalarning mavjudligi bilan, balki ular (idrokni belgilovchi sifatida) sub'ekt harakati asosida qurilganligi bilan ham belgilanadi.

J. Piajening fikricha, fikr harakatning siqilgan shaklidir. U barcha genetik darajadagi bilish sub'ekt tomonidan ob'ektlar bilan amalga oshiriladigan real harakatlar mahsuli ekanligini ta'kidladi [6].

O'quvchilarda bilish jarayonlarining faoliyati quyidagi tarzda namoyon bo'ladi:

Diqqat har qanday faoliyatimizning doimiy yo'ldoshidir. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati benihoya kattadir. O'quvchilar diqqati asosan ixtiyorsiz bo'ladi. Bunday yoshdagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o'sib borishi uchun o'yin faoliyati juda katta ahamiyatga ega. O'yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyga to'plab, o'z tashabbuslari bilan ma'lum maqsadlarini ilgari suradilar. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning o'z oldiga qo'ygan yangi talablari asosida takomillasha boradi. O'quvchilar o'zlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldiradigan va ularni

qiziqtiradigan narsalarni beixtiyor eslarida olib qoladilar [5]. O'quvchilarning tafakkuri va uning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi rivojlangan bo'lishi, uchinchidan esa, bog'cha yoshidagi bolalarning erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Aynan shu yoshdagi bolalarga mental arifmetika mashg'ulotlarining o'rgatilishi bilish jarayonlarining rivojlanishi bilan birga, bolalarning har bir masalaga mas'uliyat bilan yondashadigan, muammolarga kreativlik bilan qarashni boshlaydilar. Tadqiqot davomida bolalarning aqliy rivojlanish masalalari maxsus psixologik metodikalar orqali o'rganildi. Bilamizki, mental arifmetika mashg'ulotlari bolalarda aytilgan misollarni miyada hisoblab tezkorlik bilan javob berish malakasini paydo qiladi [4].

1-jadval.


«Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish jarayonlarining xususiyatlarini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari haqida ma'lumotlar

Obyektlar	Omillar	Tajribagacha ko'rsatkichlar		Tajribadan keyingi ko'rsatkichlar		Tafovutning statistik ahamiyati	
		M ₁	S ₁	M ₂	S ₂	T	P
Tajriba guruhi n₁=15	Ijodkorlikni o'ziga xoslik	12,2	4,1	15,7	2,3	2,35	p≤0,02
	Semantik moslashuvchanlik	13,6	7,8	15,2	3,1	2,61	p≤0,06
	Obrazli moslashuvchanlik	10,9	4,1	16,1	1,1	2,14	p≤0,00
Nazorat guruhi n₂=15	Ijodkorlikni o'ziga xoslik	11,8	6,3	12,3	5,4	7,35	p≥0,11
	Semantik moslashuvchanlik	13,5	9,3	14,1	6,9	6,61	p≥0,64
	Obrazli moslashuvchanlik	12,6	3,2	13,9	2,1	6,14	p≥0,23

Tadqiqotda qo'llanilgan metodika orqali shu narsa aniq bo'ldiki, tajriba va nazorat guruhlarida tajribadan keyingi natijalar tajribadan oldingi natijalarga qaraganda sezilarli darajada rivojlanish bo'lganligi aniqlandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining faoliyatlarida ham har bir masalaga kreativ yondashuv, mas'uliyat hissining oshganligini ko'rishimiz mumkin. O'quvchilarda bir vaqtning o'zida bir nechta vazifalarni bajarish vazifasi berilganda tajriba guruhidagi bolalar berilgan vazifalarni sifat va miqdor jihatdan darajada bajarganliklari aniqlandi. Nazorat guruhi bolalarida esa bu tajriba guruhi bolalariga nisbatan harakatlarida nisbatan passivlik, hozirjavoblikning yetishmasligi aniqlandi.

Bilamizki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar katta maktab yoshidagi o'quvchilarga nisbatan berilgan yangi ma'lumotlarni tez o'zlashtira olishi undan tashqari bilish jarayonlarining ishlash tezligi bilan farq qiladi. Shuning uchun kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish jarayonlarini, bosh miyaning ikkita yarim sharlarini baravar ishlatish maqsadida o'quvchilarni mental arifmetika mashg'ulotlariga olib borish o'quvchilarning mantiqiy, kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.


Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bolaning kelajakda muvaffaqiyatli o'rganishi, olingan ma'lumotlarni tez va oson idrok etishi, u yoki bu materialni yodlab olish qobiliyatini ta'minlaydi. Yaxshi rivojlangan mantiqiy fikrlash yanada har tomonlama rivojlanish imkonini beradi.



1-rasm O'quvchilarda intellektual taraqqiyot omillarining ko'rinishi

Farzandlaringizni intellektual rivojlanishi uchun mental arifmetika mashg'ulotlarining ijobiy samarasi borligini bilarmidingiz?

23 ответа



2-rasm. Ota-onalardan olingan online so'rovnomaning natijalari

Yuqorida berilgan tadqiqot ishining natijalaridan ko'rinib turibiki, tadqiqotda qatnashgan 23 nafar ota-onalarning 78,3%i “Farzandingizning intellektual rivojlanishi uchun mental arifmetika mashg'ulotlarining ijobiy samarasi borligini bilarmidingiz” degan savolga “Ha, xabardorman” degan javob variantini tanlaganlar. 13%i ota-onalar esa “Qisman xabardorman” deb javob berganlar. Tadqiqotda qatnashgan ota-onalarning 8.7 % i “Yo'q” deb javob berganlar.

Xulosa. Tadqiqotning xulosasi sifatida shu aytishimiz mumkinki, o'quvchilarning intellektual rivojlanishining muhim omili sifatida diqqat qaratilgan mental arifmetika mashg'ulotlari o'quvchilarning intellektual jihatdan rivojlanishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bu fikrlar tajriba orqali o'z tasdig'ini topdi.

Mental arifmetikaning maqsadi bola miyasining ikkala yarim sharini bir vaqtning o'zida rivojlantirish va uni ongida murakkab arifmetik misollarni tez hisoblashni o'rgatishdir. Ma'lumki, miyaning o'ng yarim shari fantaziya, tasavvur, sezgi, ijodkorlik, musiqiy qobiliyatlar uchun javobgardir. Chap yarim sharlar mantiq, reaksiya tezligi, xotira, analitik fikrlash, konsentratsiya uchun javobgardir. Agar o'quvchilarda ikkala yarim sharni ham baravar ishlatish xususiyatlarini shakllantirilgan bo'lsa, u yaxshi ishlaydi, unga o'rganish osonroq bo'ladi, u ma'lumotni tezroq va samaraliroq eslab qoladi. Ikkala yarim sharning uyg'un rivojlanishi tufayli bola muammoni ikki yo'l bilan yani, analitik va ijodiy hal qilishi mumkinligini tushunib yetadi.

Adabiyotlar:

1. 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараккиёт стратегияси тўғрисида. <http://lex.uz/uz/docs/5841063>
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyuldagi «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi O'RQ-630-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 1-apreldagi «Ilm-fan sohasidagi davlat siyosati va innovatsion rivojlantirishdagi davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» PQ-5047-son Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori.
5. Менчинская Н.А. Проблемы учения и умственного развития школьника: Избранные психологические труды. -М.: Педагогика, 1989, 224
6. Пиаже Ж. Избранные психологические труды. - М., Просвещение, 1969, 659с.
7. Ashurov R.R. Mental arifmetika mashg'ulotlari orqali bolalarda intellektual rivojlanishni ta'minlashning psixologik determinantlari Xalqaro ilmiy forum-2023.

*Axrorov Voris Yunusovich,
Samarqand davlat universiteti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

TALABALAR PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TA'MINLASHGA YO'NALTIRILGAN PSIXOLOGIK XIZMATNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining psixologik salomatligini ta'minlashga qaratilgan psixologik xizmat faoliyatining bugungi holati hamda oliy ta'lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini joriy qilish, mazkur yo'nalishda mavjud bir qator muammolar tahlil qilingan. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish modeli hamda uning tavsifi keltirilib, xulosa va takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: talaba, psixologik salomatlik, psixologik xizmat, muammo, psixologik xizmat modeli, qo'llab-quvvatlash, psixolog vazifasi.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ, НАПРАВЛЕННОЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация: В данной статье проанализировано текущее состояние деятельности психологической службы, направленной на обеспечение психологического здоровья студентов высших образовательных учреждений, внедрение деятельности психологической службы в системе высшего образования, а также ряд существующих проблем в данном направлении. В целях устранения этих проблем приведена модель и описание совершенствования деятельности психологической службы в высших образовательных учреждениях, изложены выводы и предложения.

Ключевые слова: студент, психологическое здоровье, психологическая служба, проблема, модель психологической службы, поддержка, задача психолога.

IMPROVEMENT OF PSYCHOLOGICAL SERVICES AIMED AT ENSURING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF STUDENTS

Abstract: This article analyzes the current state of the activities of the psychological service aimed at ensuring the psychological health of students of higher educational institutions, as well as the introduction of the activities of the psychological service in the system of higher education, as well as a number of existing problems in this direction. In order to eliminate these problems, a model and description of improving the activities of psychological services in higher educational institutions are given, conclusions and suggestions are presented.

Keywords: student, psychological health, psychological service, problem, model of psychological service, support, psychologist's task.

Kirish (Introduction).

Respublikamizda so'ngi yillarda olib borilayotgan islohotlar tufayli «...yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, yuqori iqtisodiy o'sishga erishish hisobidan xalqimizning farovonligini oshirish va kundalik hayotidagi muammolarni hal etish» [1] ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarining me'yoriy asoslari yaratilmoqda. Shu maqsadda «...psixologik salomatlikni keng targ'ib etishga va psixik salomatlik bilim va ko'nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, amaliy, ilmiy va fundamental loyihalar ta'xis etish» [2] masalasi ustuvor vazifalar etib belgilanganligi, oliy ta'lim muassasalari talabalarini psixologik salomatligini ta'minlashning psixologik-pedagogik omillarini aniqlash, psixologik salomatlikni qadriyat sifatida shakllantirish texnologiyalarini joriy etish yo'nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishni talab etmoqda.

Talabalarni ta'lim muhitiga moslashtirish jarayonida psixologik qo'llab-quvvatlashning tarkibiy qismlari sifatida inqiroz va stressli vaziyatlarni oldini olish, ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish, ziddiyatli, murakkab hayotiy vaziyatda psixologik yordam ko'rsatish, o'quv ko'nikmalarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasasida o'quv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'z-o'zini tashkil etish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha trening mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish

namoyon bo‘ladi. Talabalarning shaxsiy va kasbiy shakllanishi jarayonida ularni psixologik qo‘llab-quvvatlash, ularda tashabbuskorlik, shaxsiy va kasbiy pozitsiyani, kasbiy o‘zini namoyon qilish, hayotiy maqsadlarni belgilash, o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutish lozim [3; 101-b.].

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi (Literature review).

Ta‘lim jarayonini psixologik qo‘llab-quvvatlashning har qanday shakl va usullari samaradorligining muhim mezonini talabalarning psixologik salomatligi hisoblanadi. Shuning uchun, oliy ta‘lim muassasasi psixologi o‘z faoliyatida salomatlik psixologiyasining nazariy qoidalari – salomatlikning psixologik sabablari, uni ta‘minlash, mustahkamlash va rivojlantirish usullari va vositalariga tayanishi, uning diqqat markazida talabalarning psixik rivojlanishi va psixologik salomatligi turishi muhim ahamiyat kasb etadi [4; 15-b.].

Shaxsni rivojlantiruvchi pedagogik vaziyatni yaratishning asosiy usullari sifatida pedagog va talaba o‘rtasidagi o‘zaro ishonch muhitida muloqotni, talabaning muammolari va shaxsiyatini tushunishga individual yondashuvni, shaxsiy rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tishni tavsiflovchi harakatlarga turtki berish, refleksiya va mustaqillikni rivojlantirishni ajratish mumkin [3; 101-b.].

Oliy ta‘lim muassasasining ta‘lim muhitida bir qator o‘ziga xos xususiyatlar mavjud:

birinchidan, ta‘lim muhiti talabalarning o‘quv yuklamalari bilan bog‘liq o‘ziga xos omillarning mavjudligi bilan tavsiflanib, oliy dargohda ta‘lim olish talabalarda sezilarli intellektual, axborot, psixoemosional zo‘riqlashlarni (masalan, imtihon holatida) keltirib chiqaradi;

ikkinchidan, oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim olish davri ijtimoiy muhitga faol kirishish bosqichi bo‘lib, shaxslararo munosabatlarda muammo yuzaga keladi. Ijtimoiy moslashuv guruhda tan olinish va yuqori mavqeyga ega bo‘lishga qaratilgan harakatlar bilan birga keladi va tengdoshlar orasida o‘z o‘rnini egallashga urinishlar ko‘pincha xavfli xatti-harakatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Talabalar jamoasining xilma-xilligi ijtimoiy moslashuvning qo‘shimcha qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Guruhdagi munosabatlar bilan bog‘liq stressli sabablar orasida guruh a‘zolari o‘rtasida psixologik nomutanosiblik holatlarini kuzatish mumkin;

uchinchidan, oliy ta‘lim muassasasidagi ta‘lim shaxs sifatida shakllanishning hal qiluvchi davri hisoblanib, muhim voqyealar va qarorlar qabul qilish aynan o‘qish yillarida namoyon bo‘lib, har bir talabaning hayoti va kasbiy o‘shiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, kelajakdagi kasbiy muhitda shaxsiy o‘zini o‘zi belgilashga bo‘lgan ehtiyoj bir qator salbiy xavotirlanishlar bilan birga bo‘lishi mumkin;

to‘rtinchidan, talabalar o‘zlarining jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini tuganmasligiga ishonishganligi sababli o‘zlarining salomatligiga e‘tibor bermaydilar. Ta‘lim tizimida salomatlikka o‘rgatishga yo‘naltirilgan ta‘lim mavjud emasligi, sog‘lom hayotga nisbatan motivatsiyaning shakllanmaganligi hamda unga bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarning yetarlicha emasligi, talabalarda salomatligini saqlash imkonini bermaydi. Salomatlikni saqlash madaniyatining past darajasi insonni vaqtini noto‘g‘ri o‘tkazishiga sabab bo‘ladi [5; 75-76-b.].

Oliy ta‘lim muassasasi ta‘lim muhitining ushbu xususiyatlari universitetda o‘qitish bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi, ular birgalikda talabalarning salomatligi uchun kuchli xavf omili sifatida namoyon bo‘ladi [6; 76-b.]. Shu sababli psixologik salomatlik insonning eng birlamchi ehtiyoji bo‘lmog‘i lozim. Biroq bu ehtiyojni mukammal ravishda qondirish muammosi g‘oyatda murakkab, ba‘zan nihoyatda qarama-qarshi, kutilmagan omillarga bog‘liqligi va oqibati hamma vaqt ham kutilgan natijaga olib kelmaydi. Bu o‘rinda oliy ta‘lim tizimidagi rivojlantiruvchi muhit muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunday muhitning mukammal shakllanganligini bildiruvchi ko‘rsatkich esa talabaning o‘z-o‘zini rivojlantira olishini ta‘minlay oladigan psixologik-pedagogik shart-sharoitlar hisoblanadi. Ta‘lim ehtiyojlari, talabalar hamda o‘qituvchilarning pozitsiyasini aniqlash, shuningdek, ta‘lim ehtiyojlarini qondirish uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni ishlab chiqish o‘quv jarayonini bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirishning zarur sharti hisoblanadi [7; 46-b.].

Oliy ta‘lim muassasasiga qabul qilingan talabalarning yangi ta‘lim muhitga moslashuvi masalasi bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmasdan kelmoqda. Tadqiqotchilar oliy ta‘lim muassasasida o‘qishni boshlagan talabalarning ko‘pchiligida kirish imtihonlaridan so‘ng ishchanlikning pasayishi, tez charchab qolish, xavotirlanish darajasining o‘shishi kabi holatlar kuzatilishi, bu esa o‘qishning ilk davrida stressogen omillarning ta‘siridan darak berishini ta‘kidlab o‘tishgan.

Oliy ta‘lim muassasalari talabalari, ayniqsa birinchi kurs talabalari bir qator qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Bunda birinchidan, ularning jadal suratlarida kechayotgan o‘zgarish va noaniqlik sharoitiga moslasha olishmasliklari, ikkinchidan, odatiy qo‘llab-quvvatlash tizimlaridan uzilganligini, uchinchidan esa moslashish va rivojlanish muammolari (ilmiy, o‘quv, kasbiy muammolardan to‘ psixik kasalliklardan farqlanuvchi ko‘plab shaxsiy va psixologik muammolarni yengib o‘tishi zarurati) kabilarni qayd etib o‘tish mumkin .

Mazkur ko‘rinishdagi muammolar o‘z navbatida talabalarning ta‘lim xizmatlaridan qoniqmasligini yuzaga keltirib chiqaradi. Bunday qoniqmaslikning ijobiy tomoni, rag‘batlantiruvchi kuch sifatida talabani harakat qilishga, bilish ehtiyojlarini boshqa, yanada samarali usullar orqali qondirishga harakat qilishida kuzatilishi mumkin. Salbiy tomoni esa, talabani bilishga qiziqishi yo‘qoladi, uni boshqa motivatsiya shakli bilan almashtiradi va o‘qishga qiziqishi so‘nib boradi [7; 46-b.].

Bugungi kunda zamonaviy ta‘lim standartlarida shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, uning psixik va psixologik salomatligini saqlab qolish va mustahkamlash masalalariga katta e‘tibor berib kelinmoqda. Bu o‘rinda ta‘lim tizimini mamlakatning asosiy boyligi va jamiyat hayotining barcha sohalari rivojlanishi uchun asosiy resurs bo‘lmish insonning intellektual va shaxsiy salohiyati, ijodiy quvvatini namoyon qilishga yo‘naltirish zarurligi anglab yetilmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan talabalarning psixologik salomatligi masalasi oliy ta‘lim muassasalaridagi psixologik xizmatning asosiy maqsadi bo‘lishi lozimligi I.V. Dubrovina, R.V. Ovcharova, T.N. Klyuyeva kabi olimlarning tadqiqotlarida asoslab berilgan. Shuningdek, mazkur masala doirasida ko‘p yillik tadqiqotlarni amalga oshirgan psixolog-olimlar I.V. Dubrovina, L.M. Fridman, Ye.I. Rogovlar ta‘lim muassasasida psixologik xizmatning maqsadi hamda faoliyati borasida o‘zlarining fikr-mulohazalarini bildirishgan. Xususan, I.V. Dubrovina psixologik xizmatning maqsadi talabalar psixologik va shaxsiy rivojlanishiga maksimal ta‘sir o‘tkazib, hayotda mustaqil ravishda o‘z o‘rnini topishiga psixologik tayyorlashdan iborat ekanligini ta‘kidlaydi. L.M. Fridman esa, psixologik xizmatning maqsadi oliy ta‘lim muassasasi maqsadi bilan mos bo‘lishi, shuningdek, ijtimoiy yetuk, ijodiy faol shaxsni tarbiyalashdan iborat ekanligini ta‘kidlaydi. Ye.I. Rogov psixolog faoliyatining talabani barcha sifatlarini o‘rganish asosida uning rivojlanishiga yordam ko‘rsatish maqsadiga xizmat qilishi lozimligini ta‘kidlaydi.

Professor V.M. Karimova oliy ta‘lim tizimida ta‘lim muassasasi psixologining roli katta ekanligini ta‘kidlar ekan, u quyidagi ijtimoiy-psixologik vazifalarni bajarishga o‘z faoliyatini yo‘naltirishi zarurligini ko‘rsatib o‘tadi:

1. Ta‘lim muassasasida tashkil etilgan psixologik xizmatning samarali yo‘llarini qidirish, shart-sharoitlar va muhitni har tomonlama, to‘liq o‘rganib chikish, har bir talabani yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual va guruh ishlar uslublarini aniqlash lozim.

2. Ta‘lim muassasasi psixologi talabalar o‘rtasida uchray turadigan psixik rivojlanishdagi ayrim salbiy holatlarni to‘liq o‘rganishi, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni tahlil qilishi lozim.

3. Ta‘lim muassasasi psixologi turli yoshdagi o‘quvchilarning qobiliyatlari, yo‘nalishi, layoqatlari va kasbiy qiziqishlariga doir aniq ilmiy tahlillar, test natijalari asosida tuzilgan ma‘lumotlar bankiga ega bo‘lishi kerak.

4. Ta‘lim muassasasi psixologi guruhlardagi ruhiy holatlarni, o‘zaro munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik muhitni aniqlashi, rasmiy va norasmiy liderlar o‘rtasidagi munosabatlarni chuqur o‘rganishi, ta‘lim muassasasi ma‘muriyati va tarbiyaviy ishlar buyicha mutassaddilarga zarur yo‘l-yo‘riqlar tavsiya qilishi joiz.

5. Amaliy psixolog faoliyatining yana bir tomoni turli masalalar bo‘yicha o‘qituvchi-pedagoglar jamoasiga psixologik yordam berishdir.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan holda, ta‘lim muassasasi psixologik xizmati faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash mumkin.

Bildirilgan ushbu fikr-mulohazalar oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan psixologlarning faoliyatini muvofiqlashtiradigan, ularga metodik jihatdan ko‘mak beradigan mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini dolzarblashtirmoqda. Bu esa, maqsadga yo‘naltirilgan psixologik xizmatni tashkil etishni taqozo etmoqda.

Psixologik xizmat tushunchasiga mamlakatimiz psixolog olimlaridan Sh.R. Barotovning quyidagi ta‘rifini keltirish mumkin: «Psixologik xizmat – bu turli ijtimoiy sohalarni: sog‘liqni saqlash, ta‘lim, ishlab chiqarish va boshqalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash, psixologik xizmatlarning maxsus sohasini yaratishdir. Bu psixologik ekspertiza, diagnostika, ishlab chiqarish, transport, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, huquqni muhofaza qilish va boshqa sohalarda murakkab vazifalarni hal qilish uchun psixologiyadan amaliy foydalanish tizimi.

Bu o‘rinda mazkur xizmatni tashkil etishda talabalarning kasbiy ta‘lim olishlari jarayonida emosional qulay muhitni yaratish, ularning ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik sharoitlarni hozirlash muhim vazifalardan sanalishi lozim. Mazkur vazifani bajarishda talabalarning oliy ta‘lim muassasasidagi ta‘lim muhitiga moslashuvini ta‘minlash eng dolzarb masalalardan bo‘lishi lozim.

Shu o‘rinda qayd etib o‘tish lozimki, boshqa sohalardagi psixologik faoliyat yo‘nalishlaridan farqli

ravishda, oliy ta'lim muassasasidagi faoliyat o'ziga xos xususiyatlarga ega: birinchidan, oliy ta'lim muassasalarida bolalar psixologi emas, balki yoshi 17 dan 60 gacha bo'lgan turli toifadagi kattalar bilan ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassis zarur; ikkinchidan, asosiy maqsad yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish bo'lganligi tufayli oliy ta'lim muassasalarida psixologik-pedagogik faoliyatning muayyan xususiyatlari mavjud; uchinchidan, talabalar jamiyatimiz aholisining eng nozik toifalaridan biridir. Maqomning marginalligi (endi maktab o'quvchisi ham emas, hali katta ham emas), moddiy beqarorlik, hayotning inqiroz bosqichi talabalarning butun hayotiga ta'sir qiladi; to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasasida psixologik xizmat faoliyatining ustuvor yo'nalishlari «bilvosita» xizmat bo'lib, unda psixolog murabbiylar, o'qituvchilar va boshqa xodimlar bilan ishlaydi va ular orqali talaba yoshlarga ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Oliy ta'lim doirasida psixologik xizmat talabalarni moslashtirish, rivojlantirish hamda ularning ta'lim olishga ko'maklashish bilan bir qatorda, ularda namoyon bo'lishi ehtimoli bo'lgan o'z-o'zini vayron qiluvchi xatti-harakatlarning oldini olishni ham ta'minlashi lozim bo'ladi. Darhaqiqat, xizmat ta'lim jarayonining samarali o'tishi va bitiruvchining shaxsini shakllantirish uchun har tomonlama shart-sharoitlarni ta'minlash vazifalarini hal qiladi. Biroq, ushbu maqsadga erishish uchun oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'llaniladigan mexanizmlar tashkilotning falsafasiga yoki maqsadiga qarab juda katta farq qilmaydi. Masalan, Rossiyada oliy ta'lim tizimida psixologik xizmatlar uzoq vaqt oldin paydo bo'lganiga qaramasdan, ular universitetlarda zaruriy bo'linmaga aylanmagan va universitetlar ma'muriyati yoki psixologlari tashabbusi bilan yaratilgan xolos.

Butunrossiya ta'lim psixologlari kongressi ishtirokchilari (2018 yil 3 aprel) bugungi kunda Rossiyada psixologik xizmatning yagona umumiy qabul qilingan modeli mavjud emas degan xulosaga kelishgan [90]. Bu o'rinda ta'kidlash lozimki, yagona umumiy qabul qilingan modelning mavjud emasligi bu tabiiy hol. Chunki hattoki Rossiyaning o'zida uning subyektlari (hududlari) o'rtasida ham turli-tuman farqlanishlar mavjud. Bunday holatni MDH davlatlarining qariyb barchasida ko'rishimiz mumkin. Shuning uchun psixologik xizmatning modeli albatta uning obyektidan kelib chiqqan holda belgilanishi hamda har bir soha (ta'lim, sog'liqni saqlash, ishlab chiqarish, huquqni muhofaza qilish va boshqalar)ning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarida psixolog faoliyati 2017 yildan boshlab, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 23 avgustdagi 600-sonli buyrug'iga asosan joriy qilingan bo'lib, undan ko'zlangan maqsad kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, barkamol shaxsni tarbiyalash hamda talabaning har tomonlama garmonik, to'laqonli psixologik taraqqiyotini ta'minlovchi optimal shart-sharoitlarni yaratish sifatida belgilangan. Oliy ta'lim psixologining burchi esa ta'lim-tarbiya ish rejasini tuzish, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqish, o'quv dasturi, qo'llanmalarni yaratishda faol ishtirok qilish va bosh maqsad bo'lgan talabaning intellektual qobiliyati, umuminsoniy fazilati, bilim, ko'nikma va malakalari, mutaxassislik xislatlarini shakllantirishdek muqaddas ishga o'zining munosib ulushini qo'shishdan iboratligi qayd etilgan.

Oliy ta'lim tizimida psixologik xizmat ko'rsatishda talabalarning umumiy soniga mos ravishda psixologlar sonini belgilash masalasi e'tiborga olinishi zarur bo'lgan yana bir muhim jihat hisoblanadi. Mazkur nizomning 1.2-bandida «Oliy ta'lim psixologi oliy ta'lim muassasida umumiy o'quv va tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanishi», 1.4-bandida esa «Oliy ta'lim psixologi lavozimi oliy ta'lim muassasi Kengashi qaroriga ko'ra rektor buyrug'i bilan ta'sis etilishi» qayd etilgan. Biroq, oliy ta'lim psixologi zimmasiga mas'uliyatli vazifalar yuklangan holda, ularning soni bo'yicha ko'rsatkichlarni umuman qoniqarli deb bo'lmaydi. Masalan, respublikamiz oliy ta'lim muassasalari rasmiy veb-saytlari orqali 2022-2023 o'quv yili holatida talabalarning umumiy soni ko'rib chiqilganda TDPUda – 28 689 nafar, SamDUda – 25 805 nafar, QarDUda – 20 346 nafar, TerDUda 26 395 nafar, NamDUda – 26 504 nafar, BuxDUda – 24 825 nafar talaba tahsil olayotganligi aniqlangan. Ammo, hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida psixolog lavozimi har bir muassasada bir shtat birligida belgilangan bo'lib, bunda talabalar soni e'tiborga olinmagan.


Belorus Respublikasida o'tkazilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, 25 ta oliy ta'lim muassasasi o'rganilganda kunduzgi bo'lim talabalarning o'rtacha soni 1 psixologga nisbatan 2720 nafarni, me'yorda esa 1500 nafarni tashkil etgan. Mazkur me'yor faqatgina 12% oliy ta'lim muassasalarida kuzatilgan. Belorus davlat texnologiya universiteti (7,750), F. Skarina nomidagi Gomel davlat universiteti (7,218), A.A. Kuleshov nomidagi Mogilev davlat universiteti (4,294), Belorus davlat transport universiteti (4,268) kabi oliy ta'lim muassasalarida talabalar sonining bir nafar psixologga nisbati katta ulushni tashkil etgan. Natijada, ko'p sonli talabalar bilan psixologning sifatli ish olib borishi mutlaqo imkonsiz ekanligi mutaxassislar tomonidan qayd etib o'tilgan.

Mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida psixolog (psixologik xizmat) zaruriy bo'linma emas, balki

muassasaning yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha prorektori bo’ysinuvidagi yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo’limi tarkibiga kiruvchi psixolog lavozimi orqali amalga oshirilmoqda. Barcha oliy ta’lim muassasalari psixologlari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi «Ma’naviyat va ma’rifat markazi»ga hisobdor hisoblanadi. Bunday holat psixolog mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularni metodik jihatdan qo’llab-quvvatlash ishlarida muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni joriy qilish masalasiga dolzarb muammo sifatida qaralishi lozim bo’lib, ushbu xizmat faoliyatining aniq mexanizmi ishlab chiqilishi katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta’lim tizimida psixolog lavozimining joriy etilishi oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini yo’lga qo’yish zaruriyatini namoyon qilmoqda.

Tahlil va natijalar (Analysis results).

Ilmiy izlanish doirasida amalga oshirilgan tahlilga asoslangan holda oliy ta’lim muassasasi talabalari psixologik salomatligini ta’minlashga yo’naltirilgan psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish modeli (1-rasm) ishlab chiqilib, uni tayyorlashda psixolog-olimlar G.B. Shoumarov, V.M. Karimova, Sh.R. Barotov, I.V. Dubrovina, M.X. Karamyani, Z.T. Nishonova, L.M. Fridman, V.E. Paxalyan, I.A. Tregubenkolarining ilmiy tadqiqotlarining nazariy va amaliy natijalari hamda Oliy va o’rta-maxsus ta’lim vazirligining 2017 yil 23 avgustdagi 600-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan «Oliy ta’lim tizimi psixologik lavozimi faoliyati bo’yicha Nizom»da keltirilgan bandlardan foydalanildi.



1-rasm. OTMda psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish modeli

Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish modeli tavsifi:

I. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi psixologik xizmat faoliyatini muvofiqlashtirish va ilmiy-metodik ta’minlash markazi: Mazkur markaz oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtirish va ilmiy-metodik ta’minlash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo’ladi:

1) Oliy ta’lim muhitida psixologik madaniyatni oshirish maqsadida muassasasi professor-o’qituvchilari, talabalar bilan o’tkazish uchun ma’ruzalar va trening mashg’ulotlar turkumini ishlab chiqish.

2) psixologik xizmat mutaxassislarini metodik jihatdan ta’minlash uchun ilmiy asoslangan psixodiagnostik instrumentariyalarni tayyorlash.

3) Oliy ta’lim muassasalari talabalarining psixik va psixologik salomatligini tadqiq etishning yagona metodologiyasini belgilash.

4) Oliy ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatida qo’llash uchun psixoprofilaktik, psixologik targ’ibot va ma’rifat, psixodiagnostika, psixokorreksion yo’nalishdagi dasturlarni ishlab chiqish.

5) Oliy ta’lim muassasalarida psixologik xizmatni tashkillashtirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish.

6) Oliy ta’lim tizimidagi psixologik xizmat faoliyatini muvofiqlashtirish, uning samaradorligini baholash mezonlarini belgilash.

7) Oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati mutaxassislarining malakasini oshirish tizimini tashkil etish.

I.1. Faoliyat yo’nalishi:

Metodik yo’nalish – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati faoliyatini ilmiy-metodik jihatdan ta’minlash.

Muvofiqlashtirish yo’nalishi – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish.

Malaka oshirish yo’nalishi – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati mutaxassislarining malakasini oshirish tartibi, muddati, shaklini belgilash va amalga oshirilishini ta’minlash

Umumlashtiruvchi-tahliliy yo’nalish – oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmati faoliyati natijalarini umumlashtirish, samaradorligini baholash, rivojlantirish istiqbollari belgilash.

II. Oliy ta’lim muassasasi psixologik xizmati.

II.1. Faoliyat yo’nalishi:

Psixoprofilaktika – oliy ta’lim muassasasi talaba va professor-o’qituvchilari uchun sog’lom psixologik muhitni shakllantirish va ular shaxsining rivojlanishi uchun ijobiy shart-sharoitlarni ta’minlash.

Psixologik targ’ibot va ma’rifat – talaba va pedagoglar jamoalarida eng qulay psixologik muhitni yuzaga keltirish uchun maxsus psixologik tadbirlar olib borish, pedagogik jamoada muomala madaniyatini takomillashtirish, talabalar bilan professor-o’qituvchilarning muomala jarayonini yaxshilashga yordam berish, shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan pedagogik jamoalarda keng ko’lamda maslahatlar berish, pedagogik jamoa a’zolaridagi psixologik zo’riqish va toliqishni yo’qotish, kamaytirish, ularning oldini olish uchun chora-tadbirlarni tarkib toptirishga ko’maklashish.

Psixodiagnostika – talabalarining o’qishi davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o’rganish, ularning individual-psixologik xususiyatlarini, ta’lim tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini aniqlash.

Psixik rivojlantirish va psixokorreksiya – talaba, professor-o’qituvchilar shaxsi va intellektini rivojlantirish jarayoniga faol ta’sir o’tkazish.

Psixologik konsultasiya (maslahat) – talabalar ta’lim va tarbiyasi bilan shug’ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan ma’muriyat, professor-o’qituvchilar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq maslahatlar berish.

II.2. Faoliyat bosqichlari.

1-kurs talabalar bilan ishlash jarayonida:

Muammoli vaziyatlar – kasb tanlovidan ikkilanish, yolg’izlik tuyg’usi (oldingi o’rtoqlari, yaqinlari, qarindosh-urug’lari bilan muloqotga kirishish ehtiyojining yuzaga kelishi), tortinchoqlik, o’zini chetda tutib turish, ta’lim muhiti bilan bog’liq bo’lgan zarur ma’lumotning yetishmasligi sababli xavotirlanish, bezovtalik hissining namoyon bo’lishi, sessiyalar bilan bog’liq qo’rquv, emosional zo’riqish, stressni boshdan kechirish.

Psixologik qo’llab-quvvatlash shakli – talabalar shaxsini rivojlantirish va o’z-o’zini faollashtirish maqsadida ularning individual-psixologik xususiyatlarini, salohiyatini aniqlash, talabalarining psixologik moslashuviga ko’maklashish, ular uchun emosional qulay ta’lim muhitini ta’minlash, stress va xavotirlanishni yengib o’tish, ishchanlikni tiklashga yo’naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish.

2-kurs talabalar bilan ishlash jarayonida:

Muammoli vaziyatlar – kursdoshlari, guruhdoshlari bilan o’zaro munosabatlarda murakkablikning yuzaga kelishi, guruhiy mavqyedagi o’zgarishlar ro’y berishi, guruh a’zolari bilan do’stona yoki nizoli munosabatlarning o’rnatilishi, talabalar guruhida bulling (bir kishiga boshqasi yoki bir guruh tomonidan agressiv taz’iy o’tkazilishi, qo’rqitish va h.k.) holatlarining sodir bo’lishi, muvaffaqiyatga erishish

motivatsiyasi, «Men» obrazi rivojlanishining pasayishi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash shakli – talabalar guruhlaridagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish, unda emosional sog‘lom muhitni shakllantirish, talabalar uchragan qiyinchiliklar masalasida maslahatlar berish, ruhiy qo‘llab-quvvatlash, xulq-atvorning destruktiv shakllari va stressogen omillar psixoprofilaktikasini amalga oshirish.

3-kurs talabalari bilan ishlash jarayonida:

Muammoli vaziyatlar – talabalarning o‘zlashtirishi, o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining pasayishi, o‘qishga, universitet, fakultet yoki bo‘limda tashkil etilayotgan tadbirlarga nisbatan befarqlik, kasbiy soha masalasida o‘z-o‘zini past baholash, nazariy bilimlardan ko‘ra amaliy ko‘nikmalarni egallashga intilish hissining ustivorlik qilishi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash shakli – talabalarni kasbiy yo‘nalishdagi rivojlanishi jarayonini psixologik kuzatib borish, mazkur masalada ular bilan individual, guruhviy tartibdagi konsultasiyalarni, emosional holatini yaxshilashga yo‘naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish.

4-kurs talabalari bilan ishlash jarayonida:

Muammoli vaziyatlar – ta‘limning yakunlanishi, bitiruv malakaviy ishini himoya qilish, yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarini topshirish bilan bog‘liq bo‘lgan xavotirlanish, ommaviy chiqishlar qilishdan qo‘rqish, asabiylik, stressga barqarorlikning pasayishi, shaxsiy vaqtini ko‘p qismini samarasiz o‘tkazish, talabalar guruhida nizoli vaziyatlarning ko‘payishi, qoloq guruhdoshlariga, fakultet rahbariyati tomonidan bildiriladigan tanbehlariga salbiy munosabatni namoyon qilish, salomatligi, emosional holatining yomonlashuvi, kun tartibining buzilishi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash shakli – talabalar uchun emosional qulay ta‘lim muhitini ta‘minlash, ta‘limning yakunlanishi, bitiruv malakaviy ishini himoya qilish, yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonlarini topshirishga psixologik tayyorlash, o‘z-o‘zini boshqarish usullariga o‘rgatish, talabalar guruhida qulay muhitni shakllantirish, psixoemosional holatini korreksiyalash, talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyat yo‘nalishi (ish qidirish, kasbiy qiziqishlar, rivojlanish istiqbollari) doirasida psixologik maslahatlar berish.

III. Pedagogik jarayon. Oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim muhiti sharoitida fakultet, bo‘lim, kafedra, professor-o‘qituvchilar, tyutorlar bilan psixologik faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish:

- kommunikativ, o‘z-o‘zini taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirish;

- talabalar bilan o‘zaro munosabat masalalari bo‘yicha psixologik tavsiyalar berish;

- talabalar guruhlarini jipslashtirish, jamoaviy uyushqoqlik bo‘yicha rivojlantiruvchi tadbirlarni amalga oshirish;

- talabalar, hamkasblar bilan o‘zaro munosabatlarda yuzaga keladigan shaxsiy qiyinchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berish;

- oliy ta‘lim muhitida uchrashi mumkin bo‘lgan bulling holatlari profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha maslahat berish;

- empatik muloqot, faol tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berish;

- ta‘lim muhitida o‘z-o‘zini boshqarish, emosional charchash holatlarini bartaraf etish;

- talabalarning yosh, individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta‘lim-tarbiya ish rejasini tuzish, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqishda, o‘quv dasturi, qo‘llanmalarni yaratishda psixologik nuqtai nazardan maslahat va tavsiyalar berish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Bugungi kunda zamonaviy ta‘limda shaxsning psixologik va ijtimoiy rivojlanishi, uning psixik va psixologik salomatligini ta‘minlash masalalariga katta e‘tibor berilmoqda. Bu esa oliy ta‘lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish masalasini dolzarblashtirmoqda. Biroq, mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida psixolog (psixologik xizmat) zarur tarkibiy bo‘linma emas, balki muassasaning yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori bo‘ysinuidagi bo‘lim tarkibiga kiruvchi lavozimi orqali amalga oshirilib, bunday holat psixolog mutaxassislar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ularni metodik jihatdan qo‘llab-quvvatlash ishlarida muammolar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Oliy ta‘lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini joriy qilish tajribasiga doir amalga oshirilgan o‘rganish natijalari mazkur yo‘nalishda bir qator muammolar mavjudligini aniqlash imkonini berdi:

1. Psixologik xizmat alohida tarkibiy bo‘linma sifatida emas, balki tarbiyaviy ishlar bo‘limlari doirasida faoliyat ko‘rsatib, bu esa amalda pedagog-psixologlarning psixologik emas, balki ko‘proq tarbiyaviy yo‘nalish doirasida faoliyat olib borishlariga to‘g‘ri kelayotganligini ko‘rsatmoqda.

2. Oliy ta’lim muassasalaridagi psixologlar sonining talabalar soniga mos kelmasligi oqibatida mutaxassis ortiqcha yuklama tufayli o’z funksional vazifalarini bajara olmasligi va natijada psixologik qo‘llab-quvvatlash g‘oyasining buzilishi holati yuzaga kelmoqda.

3. Oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi yagona uslubiy markazning mavjud emasligi natijasida tajriba almashish, faoliyat va uslubiy ishlanmalar bazasini to‘plash imkoniyati to‘liq ta’minlay olinmayapti.

Yuqorida bildirilgan xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni e’tirof etishimiz mumkin: oliy ta’lim tizimida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish maqsadida muassasalarda psixologik xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtiradigan va ilmiy-metodik ta’minotini amalga oshiradigan maxsus metodik markazni shakllantirish; xorijiy mamlakatlar hamda respublikamiz xalq ta’limi tizimidagi psixologik xizmat tajribasini inobatga olgan holda oliy ta’lim muassasalari psixologik xizmat tizimidagi psixologlar faoliyatini tashkil etishda ularning sonini talabalar soniga mutanosib ravishda bo‘lishini ta’minlash.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi PF-6155-son «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.02.2021 y., 06/21/6155/0082-son;

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 8 iyun.

3. Карамян М.Х., Файзиев Р.Р. Психосоциальное благополучие студентов как объект мониторинга в системе непрерывного образования // Oliy ta’lim taraqqiyoti istiqbollari / Perspectives of higher education development / Перспективы развития высшего образования: To‘plam №3/ Ma’sul muharrir M.A. Rahmatullayev. Izdatelstvo: Vita Color – T.: 2015. – S. 93-103.

4. Олифинович Н.И., Коптева С.И., Шапель А.Ю. Справочник педагога-психолога социально-психологического центра вуза: метод. рекомендации. – Минск, БГПУ, 2008. – 106 с.

5. Хватова М.В., Дьячкова Е.С. Влияние образовательной среды на психологическое здоровье студентов разных специальностей в процессе обучения // Психологическая наука и образование. – 2006, – №3. – С 75-76.

6. Хачатурова М.Р. Федорова А.А. Связь креативности и стрессоустойчивости личности в ситуации оценивания // Мир психологии. – 2015. – №2. – С. 287-297.

7. Дотдueva Ж.Б., Базарова Д.Р., Чернова А.И., Басхаева И.И. Психологические факторы удовлетворённости личности условиями образовательного процесса // Научно-практический журнал «Вестник Университета Российской академии образования», 2018. - № 5. – С. 45-51.

*Djuxonova Noxida Xayotjonovna,
Farg'ona davlat universiteti
Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi*

O'ZBEK VA QIRG'IZ QIZLARNI OILAGA TAYYORLASHDA ETNIK STEREOTIPLAR VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARINI DETERMINANTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy hayot jarayonida turli an'ana, marosim, urf-odat, rasm-rusumlarni vujudga keltirgan, bular jamiyatning rivojlanishiga, shaxsning har tomonlama, jismoniy, ma'naviy jihatdan kamolotga erishishiga, uning hayot tarziga o'z ijobiy ta'sirini o'tkazib kelganligi aks ettirilgan. Oiladagi sog'lom, ijobiy psixologik muhit, oila a'zolari o'rtasidagi emotsional yaqinlikdan farzandlarda ota-onaga, qarindosh-urug'larga nisbatan hurmat, mehr-oqibat singari eng yuksak, ezgu xislatlar tarbiyalanadi, insoniy fazilatlar shakllanilishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy, marosimlar, urf-odatlar, qadriyatlar, stereotip, ustanovka, stereotip, ustanovka, emotsional qadriyatlar, ma'naviy, psixologik.

ДЕТЕРМИНАНТЫ ЭТНИЧЕСКИХ СТЕРЕОТИПОВ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСТАНОВОК В ПОДГОТОВКЕ УЗБЕКСКИХ И КИРГИЗСКИХ ДЕВУШЕК К СЕМЬЕ

Аннотация: В этой статье отражены факты проявления семейных традиций, ритуалов, обычаев, оказывающих своё положительное влияние на развитие личности и общества, образа жизни человека и на достижение им высокого уровня физического и духовного процветания. У детей, воспитывающихся в здоровой, позитивно психологической атмосфере семьи, формируется эмоциональная близость между членами семьи, и развиваются такие благородные человеческие качества, как уважение к родителям, родственникам и доброта.

Ключевые слова: духовно-нравственный, ритуалы, традиции, ценности, стереотипы, установки, эмоциональные ценности, духовный, психологический.

DETERMINANTS OF ETHNIC STEREOTYPES AND PSYCHOLOGICAL ATTITUDES IN THE PREPARATION OF UZBEK AND KYRGYZ GIRLS FOR A FAMILY

Abstract: This article reflects the facts of the manifestation of family traditions, rituals, customs that have a positive impact on the development of the individual and society, the way of life of a person and on the achievement of a high level of physical and spiritual prosperity. Children brought up in a healthy, positively psychological family atmosphere form emotional closeness between family members and develop such noble human qualities as respect for parents, relatives and kindness.

Keywords: spiritual and moral, rituals, traditions, values, stereotypes, attitudes, emotional values, spiritual, psychological.

Kirish. Respublikamiz aholisining 50 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Albatta bu xotin-qizlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishi va yuksalishini muhim sub'ektlaridan bo'lib, jamiyatda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishida muhim rol o'ynaydi.

Mustaqillik tufayli jamiyatimizda, ayniqsa, uning ma'naviy-axloqiy va ruhiy dunyoqarashiga sezilarli darajada ta'sir etib kelmoqda. Shuning uchun hozirgi vaqtda oilada qizlarning ma'naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ham ilmiy ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

«Oila institutini mustahkamlash bo'yicha, eng avvalo, «Sog'lom oila - sog'lom jamiyat» g'oyasini hayotga tatbiq etishga yo'naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...»¹, «...Oila qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi»² tamoyiliga asoslanib, qizlarni oilaga tayyorlash ishlarini amalga oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni to'lish imkoniyatlari yaratildi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оилани қўллаб-қувватлаш вазирлиги тўғрисида Низом. Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 15 апрелдаги 228-сон Қарорига 1-илова.

² <https://daryo.uz> 26.12.2020

2022 yil 1 maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 820-son “Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur maqolada ko‘riladigan ilmiy muammo ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Asosiy qism. O‘zbek oilasiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, ilg‘or urf-odat va an‘analar etnik stereotiplar asrlar davomida shakllanib, rivojlanib, taraqqiy topib kelgan. Ulug‘ adibimiz Abdulla Qodiriy qahramonlaridan birining «Bu xonadondan hech kim norizo bo‘lib ketgan emas», deb aytgan gaplarida elimizga xos katta hayotiy falsafa mujassam». Shu bilan birga, Abdulla Qodiriy ham asarlarida, ayniqsa romanlarida oilaviy hayot haqidagi, uning o‘ziga xos sharqona jihatlarini xususidagi qarashlarini ilgari surganki, adibning bu haqdagi fikrlari hanuzgacha mukammal tahlil qilingan emas.

Adib romanlarida o‘zbek oilasining o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlari, milliy xarakter xislatlarining oiladagi shaxslararo munosabatlarda namoyon bo‘lishi, turli oilaviy marosimlar, urf-odatlar, an‘analarning ijtimoiy-psixologik mohiyati badiiy tarzda tasvirlab berilgan.

Ma‘lumki, oilaviy turmush munosabatlari oilaning o‘tgan ijtimoiy tuzumlarga, hozirgi mavjud va kelajakdagi ijtimoiy hayotga bog‘lanib ketganligi bilan ikkiyoqlama xususiyat kasb etadi.

Ilg‘or g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-psixologik qarashlarga ega bo‘lgan yozuvchining shaxsiy hayot tajribasiga asoslangan mushohadalari, kechinmalari, xarakter xususiyatlari muayyan darajada asardagi ba‘zi qahramonlar, asosan ijobiy qahramonlar tili orqali ifodalanadi, ularning turmush tarziga ko‘chiriladi.

Ma‘lumki, oilaviy hayot psixologiyasida oila qurish motivlarini uchta asosiy turga ajratishadi. Bular quyidagilar:

1. Sevgi-muhabbat hislari natijasida.
2. Stereotip asosida.
3. Manfaatli (hisobli) ravishda.

Abdulla Qodiriy ko‘roq emotsional - qadriyatli, ya‘ni sevgi-muhabbat asosida oila qurish haqidagi qarashlarini ilgari suradi.

Yozuvchi ma‘lum davrlardagi jamiyat hayotidagi turg‘unlik, jaholat har xil ijtimoiy tabaqa vakillari turmushiga ta‘sirini ko‘rsatib beradi. U qoloq jamiyat nafaqat zulmi bilan farqlanishini, balki davrga muvofiq qoloq urf-odatlar yaratib, kishilar psixologiyasida turg‘unlashib qolgan belgilarni mustahkamlashini, bu urf-odatlar, turg‘un psixologik belgilarning esa jamiyat o‘tkazayotgan zulmni oqlashga xizmat qilishini aks ettiradi. Xuddi shunday qoloq jamiyat yaratgan qoloq urf-odatlardan biri qo‘shxotinlik, xotin ustiga xotin olish edi.

Ko‘rinib turibdiki, asar boshidanoq sevgi-muhabbat asosida oila qurish va qo‘shxotinlik, feodalizm davrida xotin-qizlarga past nazar bilan qarash, ularga vahshiylarcha munosabatda bo‘lishga nisbatan tutgan pozitsiyasi aniq-ravshandir.

Oila ta‘bir joiz bo‘lsa, kishining hayot yo‘li, faoliyati boshlanadigan eng birinchi jamoa sanalib, inson ilk bor insonni shu yerda ko‘radi, u haqda tushuncha, tasavvurga ega bo‘ladi. Oilada, avvalo, bola uchun eng yaqin kishilar, uning ota-onasidir. Shuning uchun ham bolaning xulq-atvori, xarakteri, odat hamda ko‘nikmalari oilada shakllanadi. Chunki oila o‘z a‘zolari bilan uzluksiz o‘zaro ta‘sir etib, uning faoliyati, yurish-turishini nazorat etib boradi.

O‘zbek oilalaridagi o‘zaro hurmat, ehtirom, ota-onaga e‘zoz, farzandlarga mehr-shafqat va kichiklarga izzat-ikrom bu kishini barkamol inson, mukammal shaxs sifatida shakllantiradigan, axloqiy va ma‘naviy jihatdan go‘zal hamda yetuk qiladigan, insoniy fazilatlarini rivojlantiradigan qadriyatlar bo‘lib hisoblanadi. Va bu qadriyatlarning mazmun-mohiyati farzandlar ongiga dastlab oilada singdiriladi.

Jamiyatda oila doim ham muhabbat asosiga qurilavermaydi. Urf-odat, sharoit taqozosi, ota-ona orzusi bilan ham oila tashkil to‘ishi mumkin. Ota-onalar farzandlar orqali kelajak avlodning, naslning davomiyligini ta‘minlaydilar, ya‘ni oilaning reproduktiv funksiyasi namoyon bo‘ladi. Ota-onaning har qanday sharoitlarda ham farzandlari oldidagi o‘z vazifa va majburiyatlaridan voz kechishlari mumkin emas. Abdulla Qodiriy nazarida oila – muqaddas makon. Oilani tashkil etuvchi kishilarning dunyoqarashi, saviyasi, fikr-qiziqishlari, intilishlari bir-birlariga mos kelmay qolgan taqdirda ham oilani buzish katta gunoh hisoblanadi. Chunki bu o‘z navbatida oiladagi farzandlar taqdiriga, baxt-saodatiga, ular ruhiyatiga, shaxs kamolotiga salbiy ta‘sir qiladigan ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Qizlarni oilaviy munosabatlarda, umuman ijtimoiy munosabatlarda har bir shaxs guruhdagi o‘z statusi, mavqei, maqomidan kelib chiqqan holda muomala, munosabatga kirishadi.

O'zbek oilasi sharq oilalaridan biri bo'lib, ularga xos umumiy xususiyatlar va o'ziga xos milliy, hududiy ijtimoiy-psixologik belgilar bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotimizda respondentlarning, ya'ni o'zbek va qirg'iz qizlarining mustaqil oila qurishga tayyorlik darajalarini o'rganishga harakat qildik. Bunda «Turmushga chiqishga tayyormisiz?» psixologik testidan foydalandik. Mazkur test orqali 340 nafar o'zbek qizlari, 189 nafar qirg'iz qizlarini mustaqil hayotga tayyorgarlik darajalarini aniqlash bilan birgalikda, har ikki millat qizlaridagi o'xshashlik va farq qiladigan jihatlari aniqlandi. Unga ko'ra, har ikki guruh vakillarida mustaqil oilaga tayyorlik darajalari bo'yicha farqlar ko'rindi va natijalar quyidagi jadvalda aks etadi.

1-jadval.

«Turmushga chiqishga tayyormisiz?» testi natijalari

Ko'rsatkich va daraja	O'zbek	Qirg'iz	Farg'ona viloyati	Andijon viloyati
O'rtacha	60,6	56,6	60,8	55,7
Dis'ersiya	158,1	129,4	160,8	112,2
n	356	182	381	157
t	3,76**		4,78***	

Izoh: *' $<0,05$; **' $<0,01$; ***' $<0,001$.

Olib borgan tadqiqotimiz natijalarini dispersion jihatdan tahlil qilganimizda, o'zbek va qirg'iz qizlarida o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi ($<0,5; t=3,76^{**}$). Unga ko'ra, qirg'iz qizlarida oilani saqlash, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish istagi yuqori bo'lsa, o'zbek qizlarida esa o'z kasbini saqlab qolishga nisbatan harakat qilishlari biroz yuqoriroq ekanligi hamda mustaqil hayotga o'z imkoniyatlaridan foydalanishlari va kuch-quvvatlarini jamiyatdagi o'z mavqelarini saqlashga bo'lgan intilishlari ya'ni, nikohdan keyingi hayotlarini mustahkam bo'lishi uchun oiladagi etnik madaniyatni saqlab qolishi hamda dunyoga keladigan farzand oiladagi rishtalarni bog'lovchi vosita ekanligi aniqlandi.

Navbatdagi hududlar bo'yicha olingan natijalarni dispersion jihatdan tahlil qilganimizda, Farg'ona va Andijon viloyati qizlarida o'rtacha arifmetik qiymatlari o'rtasida statistik jihatidan ahamiyatli farq aniqlandi ($<0,5; t=4,78^{***}$). Unga ko'ra qirg'iz qizlaridan ko'ra o'zbek qizlarida turmush qurishga tayyorgarlik bevosita ularning yoshlariga bog'liqligini ya'ni, Andijon hududidagi qizlar 19-21 yoshni turmush qurishga tayyor deb belgilashgan bo'lsa, Farg'ona hududidagi qizlarning 21-25 yoshda turmushga chiqishini ma'qullashgan. Bunga qizlarning zamonaviy dunyoqarashlari, sog'lom fikrlashlari, oliy ma'lumotli bo'lishga intilishlari hamda kelajakdagi turmush o'rtoqlarini ham oliy ma'lumotli bo'lishlarini istashlari, ularning turmush qurishga ma'naviy, psixologik, jismoniy tayyorligining muhim omili ekanligi, oiladagi uy-ro'zg'or ishlarini mustaqil bajara olishlari, yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga psixologik yondashishlari sabab bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, har ikki millatning etnik xususiyatlarida oilaviy hayotga doir muhim bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy muammolar ustuvor ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur muammolar doirasida oila, ayollar masalasiga e'tibor berish orqali bunda o'tkir zakovatli, faxm-farosatli, yuksak ongli, ma'naviy dunyosi boy, iroda-e'tiqodi mustahkam ayollar timsolini saqlab qolish asosiy hal qiluvchi, yetakchi o'rnlarni egallaydi. Ushbu muammolar asosida oilada qizlarni mustaqil hayotga tayyorlash ularni aynan millatga xos bo'lgan etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalar zamirida tarbiyalashni o'z oldilaridagi maqsadlardan biri deb hisoblashgan.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. «Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz».- T.: «O'zbekiston»-2016 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. «Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz».- T.: «O'zbekiston»-2017 yil.
3. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Утепбергенов М.А. Социальные и этнопсихологические особенности каракалпакской семьи. Монография. - Нукус: 2019. - 280 стр.
5. Tashmuxeimedova D.G., Karimova D.M. O'zbekistonda yosh oila. (Ijtimoiy tadqiqotlar natijalari asosida). Ilmiy-uslubiy qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi «Oila» ilmiy-amaliy tadqiqot markazi. – T.: «Yurist-media markazi», 2019. – 128 b.
6. Ubaydullaeva B. O'zbek oilasida farzand tarbiyasi masalalari // O'zbekiston tarixi. –Toshkent, 2008. –№ 4. – B. 26-35.
7. Umarov B., Nazarova F. O'zbek oilaviy tarbiyasidagi ayrim nuqsonlar // Xalq ta'limi. –Toshkent, 2003. – № 2. – B. 55-56.

Mamajonova Shoxista Kamoldinovna,
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
sh.mamajonova81@gmail.com

OTA-ONA VA FARZAND O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR O‘SMIRLIK DAVRIDA ADDIKTIV XULQNI SHAKLLANTIRUVCHI OMIL SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqola ota-onalar va ularning o‘smir bolalari o‘rtasidagi munosabatlarning addiktiv xulq shakllanishiga ta‘sirini o‘rganilgan. O‘smirlik davrida addiktiv xulq shakllanishiga oilaviy munosabatlarning ta‘sirini amaliy jihatdan o‘rganishda Eydemiller hamda V.V. Yustitskiylar tomonidan ishlab chiqilgan OMTQ (“Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish”) metodikasidan foydalanildi. So‘rovnoma o‘z ichiga quyidagi shkalalarni, ota va onalarning o‘z farzandlari bilan munosabatlaridagi ayrim chekinishlarni aniqlashga ko‘mak beruvchi o‘smir ustidan nazoratning qattiqligi (G+), nazoratning etishmasligi (G-), o‘smir ehtiyojlarining hamisha qondirilishi (U+) yoki mutloq qondirilmagani (U-), o‘smir oldiga qo‘yiladigan talablarning ko‘pligi va murakkabligi (T+) yoki bunday talabchanlikning yo‘qligi (T-), o‘smir oldiga qo‘yiladigan ta‘qiqning ko‘pligi (Z+) yoki ta‘qiqning mavjud emasligi (Z-), talablar bajarilmagan taqdirda o‘smirni jazolashning keskinligi (S+) yoki uning aksi (S-)ni bildiruvchi shkalalar qamrab olgan bo‘lib, olingan natijalar tadqiqot natijalarining tahlilida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oila, ota-ona munosabatlari, addiktiv xulq, giperhimoya, nazoratning qattiqligi, to‘liq bo‘lmagan oila.

ОТНОШЕНИЯ РОДИТЕЛЕЙ И РЕБЁНКА КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ АДДИКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние взаимоотношений родителей и их детей подросткового возраста на формирование аддиктивного поведения. Изучению влияния семейных отношений на формирование аддиктивного поведения в подростковом возрасте, использовалась методика АСО («Анализ семейных отношений»), разработанная Эйдемиллером и Юстиским. Опросник включает в себя следующие шкалы, выраженность контроля над подростком, что помогает определить некоторые отклонения в отношениях отцов и матерей со своими детьми (G+), бесконтрольность (G-), потребности подростка всегда удовлетворяются (U+) или не удовлетворяются вовсе (U-), количество и сложность предъявляемых к подростку требований (T+) или отсутствие таких требований (T-), что указывает на большое количество наложенных на подростка запретов (Z+) или отсутствие запретов (Z-), строгость наказания подростка в случае несоблюдения (S+) или его противоположность (S-) охватываются шкалы, а полученные результаты освещаются при анализе результатов исследования.

Ключевые слова: семья, родительские отношения, аддиктивное поведение, гиперпротекция, строгость контроля, неполная семья.

RELATIONSHIP BETWEEN PARENTS AND CHILD AS A FACTOR FORMING ADDICTIVE BEHAVIOR DURING ADOLESCENCE

Abstract: This article examines the influence of the relationship between parents and their adolescent children on the formation of addictive behavior. To study the influence of family relations on the formation of addictive behavior in adolescence, the OMTK method (“Analysis of Family Relations”) developed by Eidemiller and Yustitsky was used. The questionnaire includes the following scales, the severity of control over a teenager, which helps to identify some deviations in the relationship of fathers and mothers with their children (G+), lack of control (G-), the needs of a teenager are always met (U+) or not satisfied at all (U-), the number and complexity of the requirements for a teenager (T+) or the absence of such requirements (T-), which indicates on a large number of prohibitions imposed on a teenager (Z+) or the absence of prohibitions (Z-), the severity of punishment for a teenager in case of non-compliance (S+) or its opposite (S-) are covered by scales, and the results obtained are highlighted when analyzing the results of the study.

Key words: family, parental relationships, addictive behavior, hyperprotection, control severity, incomplete family.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida addiktiv xulq muammosi ko'proq o'smirlik davri bilan bog'liq. O'smirlarda addiktiv xulqning paydo bo'lish jarayoni alohida e'tiborni talab qiladi. Addiktiv xulq (inglizcha addiction - zararli, yovuz moyillik) - buzg'unchi, deviant xulq shakllaridan biri bo'lib, u ruhiy holatda o'zgarish qilish, haqiqatdan qochish istagida ifodalanadi. Bunda ruhiy va jismoniy qaramlik vujudga keladi.

Hozirda o'smirlarda addiktiv xulq namoyon bo'lishining eng keng tarqalgan shakllarining barqaror o'sishi kuzatilmoqda. O'smirlarning addiktiv xulq muammosi nafaqat tibbiy yoki axloqiy muammo, balki juda muhim ijtimoiy psixologik muammodir, chunki o'smirning ruhiy salomatligi alohida davlatning ham, insoniyatning ham salomatligi, xavfsizligi va genofondini saqlash bilan bog'liq. Yoshlarni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarimizga xurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy yetuk va jismonan sog'lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va mafaatlarini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yilning 12-iyuldagi 577-son “O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi Qarori; O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son “Ta'lim to'g'risidagi” Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Qarori qabul qilinganligi alohida e'tiborga loyiq. Ushbu xujjatlar yoshlar orasida addiktiv xulq shakllanishi muammosi bilan kurashmasalasidolzarb masala ekanligining isbotidir. [1].

O'smirlarda oilaviy munosabatlar jarayonining addiktiv xulq shakllarining shakllanishiga ta'sirini o'rganishda xorijiy olimlar: U.Jems, Ch.Kuli, U.Tomas, F.Znanetskiy, J.Piaje, Z.Freyd kabilar oilaning a'zolari davrasida ro'y beradigan shaxslararo munosabatlarning xarakteriga alohida e'tibor berishib, bir shaxsning boshqa bir shaxs ta'sirida qanday qilib, o'z sifatlarini takomillashtirishi, o'zgartirishi, tarbiyalanishi kabi qator masalalarni o'rgandilar. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirra o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, O'zbekistonlik olimlar M.Davletshin, G.Shoumarov, E.Goziyev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Soginov, F.Akramova, G.Yodgarova, M.Salayeva, D.Xoliqov va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. O'zbekistonda oila muammolari doirasida o'rganilishi an'anaga aylangan. Qator tadqiqotlarda E.G'oziev, G.Shoumarov, V.Karimova, I.Yoqubov, B.Qodirov, S.Mirhosilov, E.Usmonov, N.Soginov, F.Akramova, L.Karimova, N.Salaeva, O.Shamiyeva, O.Abdusattorova va boshqalar oilaviy hamda shaxslararo o'zaro munosabatlar doirasida alohida ahamiyat kasb etgan gender tafovutlar o'rganilgan.

Mavzu doirasida o'tkazgan tadqiqotlarimiz tahliliga ko'ra, muammoni hal etishda E.G. Eydemiller hamda V.V. Yustitskiylar tomonidan ishlab chiqilgan OMTQ (“Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish”) metodikasi muhim o'rin tutadi. So'rovnoma o'z ichiga ota va onalarning o'z farzandlari bilan o'rnatadigan munosabatlaridagi ayrim chekinishlarni aniqlashga ko'mak beruvchi shkalalardan iborat. Bu shkalalar, masalan, o'smir ustidan nazoratning qattiqligi (G+), nazoratning etishmasligi (G-), o'smir ehtiyojlarining hamisha qondirilishi (U+) yoki mutloq qondirilmaligi (U-), o'smir oldiga qo'yiladigan talablarning ko'pligi va murakkabligi (T+) yoki bunday talabchanlikning yo'qligi (T-), o'smir oldiga qo'yiladigan ta'qiqlarning ko'pligi (Z+) yoki ushbularning mavjud emasligi (Z-), talablar bajarilmagan taqdirda o'smirni jazolashning keskinligi (S+) yoki uning aksi (S-)ni bildiradi. So'rovnoma o'ziga xos bolani tarbiyalashga oid fikrlardan iborat bo'lib, har bir fikr tartiblanib nomerlangan, aynan shu tartib raqamlari “Javoblar blanki”da ham qayd etilgan [7; 672s].

Yuqorida keltirilgan metodika aynan addiktiv xuqli o'smir yashaydigan oilaviy munosabatlardagi buzilishlarni aniqlashga yordam bergan va turli toifali oilalarda sinab ko'rilgan. 240 nafar oilalarda o'tkazilgan so'rov natijasida qator qonuniyatlar aniqlandi. Masalan, bolaga nisbatan kattalar tomonidan yuqori talablarning qo'yilishi bola rivojlanishining turli bosqichlarida turlicha asoratlarni keltirib chiqarishi aniqlangan. Ota-ona o'smirlik yoshidagi bolasidan ko'proq narsalarni talab qilishi aslida isbotini topmadi, chunki kichik maktab yoshidagi bolaga nisbatan o'smiringa nisbatan da'vogarlik darajasi aslida pastroq ekan. SHu bilan bir vaqtda o'smirning xulqini nazorat qilish yuqori ko'rsatkichlar bergan. Faqat kam holatlarda ota yoki ona o'smirning ishlariga aralashmaydi, uni katta bo'lib qolgan deb hisoblaydi. Yana bir narsa yaqqol aniqlanganki, kattalar o'smirlarda kattalik sifatlaridan ko'ra bolalik sifatlarini ko'rishni istaydilar.

Amalda shu narsa aniqlanganki, har ikki ota va onaning bittasi kichik maktab yoshidan boshlab bolasining tarbiyasi borasida o'zlarida ishonchsizlik borligini tan olgan. Chunki farzand tarbiyasi borasi chiqarilgan qarorlar, rejalarining to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi borasida ayniqsa, yosh oila vakillari hamisha shubhalanar ekanlar. Oqibatda ularda nimadandir qo'rqish, ilojsizlik, nochorlik, oddiy vaziyatlarda ham qiyinchilikni boshdan kechirish holatlarini keltirib chiqaradi.

Bu va boshqa shu kabi qiyinchiliklarda olimlar fikricha, tashqi omillarning ham roli bor: masalan, “fikrlash tarzi”, “muomala maromlari”, “an’analar” kabilar ota yoki onaning ilgarigi oilasidan olgan udumlar tarzida psixogen omillar ham ta’sirchan rol o’ynashi tabiiy. Shu bois ham ota va onadagi shu kabi jihatlarni aniqlab, shu asosda maqsadli korreksion ishlarni bajarish zarur. Oilada aniqlangan munosabatlardagi buzilishlarni bartaraf etishda esa psixologiyada o’zini oqlagan mexanizmlar, ya’ni, ta’sir ko’rsatish, taqlid qilish, identifikatsiya, referentlilik kabilar vositasidan o’rinli foydalanish ma’qul bo’ladi. Agar munosabatlardagi buzilishlar chuqur tomir otgan bo’lib, oilaviy hayotning barcha sohasiga ta’sirini ko’rsatib bo’lgan bo’lsa, unda radikal, qat’iy choralarni izlash lozim bo’ladi [6;187-195].

Biz o’smir yoshli o’g’il hamda qiz farzandi bo’lgan 50 nafar onalar o’rtasida ularning ayni shu yoshdagi bolalari bilan munosabatlari harakterini o’rganishga qaror qildik. Ma’lumotlar ob’ektivligi hamda validlilikni ta’minlash maqsadida ilgarigi tadqiqotlarda faol qatnashgan 25 nafar to’liq oila vakilalari hamda shuncha miqdorda noto’liq oila vakilalari bo’lgan ayollar bilan ishladik. Maqsadimiz o’smirlik davrining xususiyatlaridan kelib chiqib, ona va farzand o’rtasidagi munosabatlardagi chekinishlar, ziddiyatlar va ularning tub sabablarini aniqlash bo’ldi. Biz tadqiqotda yuqorida mazmuni keltirilgan *E.G. Eydemiller hamda V.V. Yustitskiylar tomonidan ishlab chiqilgan OMTQ* (“Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish”) metodikasidan foydalandik.

1-jadval.


Shkalalar	To’liq oila	Noto’liq oila	Farf
<i>“O’smir ustidan nazoratning qattiqqligi”</i>	3.6	3.1	0.5
<i>“O’smir oldiga qo’yiladigan talablarning ko’pligi va murakkabligi”</i>	3	2.9	0.1
<i>Bola xulqiga nisbatan keskinlik yoki qattiqqo’llik</i>	3.6	3.3	0.3

Avvalo shuni ta’kidlash o’rinliki, onalar qanday oila vakilasi bo’lmasin, o’smir yoshli bola xulqi ustidan nazorat qilish, ularga alohida e’tiborli bo’lishni anglaydilar. Savollarga berilgan javoblar yuzasidan shunga amin bo’ldikki, ayniqsa, to’liq oiladagi onalarning askariyatining javoblarida *“O’smir ustidan nazoratning qattiqqligi”* mezoni maksimal ko’rsatkich 7 hisoblangan sharoitda 3,6 ko’rsatkichni oldilar, ya’ni, qattiqqo’llikni birinchi navbatda qizlarga nisbatan qo’llash tarbiyaning muhim mezoni. Ayni shu o’rinda qiz va o’g’il farzand tarbiyalayotgan to’liq oila onalarining fikrlarida farq yaqqol namoyon bo’ldi, chunki qiz farzand tarbiyalayotgan onalarning 85,7% javobida, o’g’li borlarning atigi 14,3% javoblarida o’smir ustidan nazorat qilish shartligi fikri bayon etildi. Shunga mos xolda o’smir yoshlilar ustidan nazoratning yetishmasligi mos ravishda 25 va 37,5 foizni ko’rsatdi, ya’ni, o’g’il bolasi bor onalarning javoblaridan ularda o’smir ustidan nazorat etishmasligi (G+ - 37,5%) ma’lum bo’ldi. Shunga o’hshash qiz va o’g’il bola tarbiyasidagi muammolardagi farqlar boshqa pozitsiyalar yuzasidan ham ko’rindi. Masalan, o’smir qiz ehtiyojlarining hamisha qondirilishi onalar fikricha deyarli 100 foizni tashkil etgan xolda, o’g’il bola ehtiyojlarining to’la qondirilishi har uchta javobning bittasida belgilandi (U+ - 33%); o’smir oldiga qo’yiladigan talablarning to’la qondirilishida ham ota-onalarining fikrida gender farqlar bor (mos ravishda 25% va 50%); onaning o’z tarbiyaviy usullarining to’g’riligiga shubhasi esa mos ravishda 75 va 50 foizlarni tashkil etdi. Bunday holatning sabablarini biz boshqa pozitsiyalardagi onaning o’zidagi muammolarga bog’liq ekanligi bilan bog’ladik. Chunki 75 foiz qizlarning onalari hamda 50 foizgina o’g’il bolaning onalari farzandini yo’qotib qo’yishdan qo’rqadi (FU), yana salkam 43 foiz qizlarning onalari va barcha o’g’illar onalari javoblarida onalik sifatleri uncha rivojlanmagan ekanligi (NRCH), o’zidagi mavjud kamchiliklarni bolaga to’nkashga moyillik (mos ravishda 14,3 va 28,6), turli vaziyatlarda kayfiyatga beriluvchanlik, tarbiya borasida kompetensiyaning etishmasligi, onalarda erkaklik sifatlariga urg’u berish kabilar ma’lum bo’ldi.

Savolnomani psixologik tahlil qilar ekanmiz, ayrim masalalarda onalarning bola jinsidan qat’iy nazar deyarli bir xil pozitsiyada ekanliklari ham ma’lum bo’ldi. Masalan, o’smir oldiga qo’yiladigan talablarning ko’pligi hamda murakkabligi (T+), o’smir oldiga qo’yiladigan ta’qiqlarning ko’pligi (Z+), aksincha ayrim javoblarda o’smir oldiga qo’yiladigan ta’qiqlarning mavjud emasligi (Z-), o’smirni jazolashga moyillik va uning keskinligi (S+), yoki yumshoqligi (S-), erkaklik sifatlariga urg’u berishga moyillik (PMK) kabilar ikkala guruhda farq topish qiyin bo’ldi. Bulardan umumiy xulosa shu bo’ldiki, bolasi o’smirlik yoshiga

etgach aksariyat onalar vaziyatga qarab baribir xatoliklarga yo‘l qo‘ya boshlaydilar, lekin o‘zlarining fikricha, aynan shu yoshdagi bola ustidan qattiq turish lozim, uni nazorat qilish shart va agar bola adashsa, uni jazolash ham ota – onaning vazifasi. Umuman olganda esa, bolaning jinsidan qat’iy nazar, uning xulq-atvori kattalarning nazoratida bo‘lishi shart.

Javoblarni koeffitsientlarda tahlil qilishni davom ettirib, oilaning turiga e’tibor berishimiz, to‘liq va noto‘liq oila onalari fikrlarida bola xulqiga nisbatan keskinlik yoki qattiqqo‘llikda keskin farq kuzatilmaganligini ko‘rsatdi (3,6 va 3,3). Baribir, o‘g‘il farzandga nisbatan qattiqqo‘l onalar noto‘liq oila vakillari orasida ko‘proq ekanligini ayon bo‘ldi (3,2 va 2,5 to‘liq oilada). Demak, bizning sharoitda qizlarga nisbatan qattiqqo‘llik yuqoriroq bo‘lib, o‘g‘il farzandlilarda noto‘liq oilada qattiqqo‘llikning etishmasligi barcha guruhlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lib chiqdi (3,1). Qizlarga nisbatan, aksincha, noto‘liq oilada qizlar ustidan nazoratning yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Endi ushbu ko‘rsatkichlarni boshqa tarbiya mezonlari bilan solishtiramiz.



1-rasm. Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish diagrammasi.

Ota va ona o‘z farzandlaridagi turli moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarni muntazam qondirilishini o‘zlarining burchlari hisoblashadi. Biz tavsiya etilgan savollar orasida “*O’smir ehtiyojlarining hamisha qondirilishi*” mezoniga tushadigan javoblarga e’tibor qaratdik. To‘liq oilada qiz tarbiyalayotgan onalarning aksariyati qizlariga hamisha hohlagan narsasini xarid qilishga tayyorligini, bunda narsaning qimmatligi ham unchalik ahamiyatli emasligini, qizdan hech narsani ayamasliklarini qayd etishgan. Ayni shu ma’noda ushbu pozitsiya noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan o‘smir o‘g‘il bolasi borlarda o‘zgacharoq, ularning har to‘rttasidan bittasigina o‘g‘liga nisbatan bunday munosabatda, ularning fikricha, bolani aytganini qilish shart emas, qolaversa, unga biror narsani uqtirish, tushuntirish mushkul, uy ishlari bunday mustasno emas, shuning uchun ona o‘g‘liga o‘rgatishdan ko‘ra, o‘sha yumushlarni o‘zi bajarib qo‘ya qoladi. Bunday yondashuv ikkita toifali oila vakillariga xos.

Yuqoridagi holatlar anketaning “*O’smir oldiga qo’yiladigan talablarning ko’pligi va murakkabligi*” mezoniga tushuvchi savollarga berilgan javoblarda ham muayyan ma’noda aksini topdi. Masalan, onalarning deyarli barchasi farzandning jinsidan qat’iy nazar, uning oldiga turli vazifalar qo‘yish, uy yumushlarida ularga yordamchi bo‘lishlarini ho‘xlaydi, ayniqsa to‘liq oilada qiz o‘stirayotgan hamda noto‘liq oilada o‘g‘il tarbiyalayotganlar (3,0 va 2,9). Chunki o‘smirlik yoshidagi bola jinsidan qat’iy nazar, agar undan kichik ukasi (singlisi) bo‘lsa, albatta, ularga qarashib yuborishi, ba’zan ukasiga qarashga majbur ekanliklarini qayd etishgan. SHu bois barcha ko‘rsatkichlan o‘rtadan yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Faqat aksariyat noto‘liq oiladagi onalar qizlariga nisbatan talablari yumshoq ekanligini (0,5), u qadar talabchan bo‘lish mumkin emasligini ta’kidlaganlar. Ayrim ma’lumotlar esa to‘liq oiladagi onalar javoblarida qarama qarshi: talabchan bo‘lish kerak deganlar salkam 70 foizni tashkil qilgan sharoitda, shunday pozitsiyaning yo‘qligini 100 foiz takidlaganlar ham bo‘ldi. Bu ham tarbiyadagi murakkablik bo‘lib, aynan shunday ambivalent pozitsiya o‘zaro munosabatlarning buzilishigiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, biz o‘tkazgan so‘rovnoma ham ota-onalarning o‘smirlik yoshidagi farzandlari bilan o‘zaro munosabatlaridagi muayyan muammolarning mavjudligini, aynan shular ona bilan o‘smir bola o‘zaro munosabatlarining yomonlashib ketishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatdi. Bizning “bolajon” muhitimizda bunday

sabablarning eng keng tarqalgani avvalo bolasini yo‘qotib qo‘yishdan cho‘chish (FU), ya‘ni, uning mehrini yo‘qotishdan qo‘rqish, chunki aslida ayollar ko‘p holatlarda erta ona bo‘lganliklari va bolasi o‘smirlik ostonasiga qadam qo‘yganda, hali o‘zlarida ota-onalik sifatlarining unchalik rivojlanmaganligi (NRCH), shu bois ham onaning o‘z tarbiyaviy usullariga shubhasining borligi (VN), onalik hislarining orttirilganligi (RRCH), yana shundan kelib chiqadigan yana bir istak o‘smirda bolalik sifatlarining ko‘proq namoyon bo‘lishini istash (PDK), kayfiyatlarga beriluvchanlik, tarbiya borasidagi bilimdonlik (kompetensiya)ning etishmasligi (VK), shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zidagi mavjud kamchiliklarni bolaga to‘nkashga moyillik (PNK) kabilar qayd etildi. Bularning barchasi psixologik omillar bo‘lib, ular onaning bolasi bilan munosabatlarida ona tomonidan aslida u qadar anglanmaydi. Bu narsa noto‘liq oila onalariga xos bo‘lib, ularda bolasini o‘z orzu va tasavvurlaridagi kabi yaxshilab tarbiyalash istagi o‘ta kuchliligidan ham kelib chiqadi. O‘zaro suhbatlardan ma‘lum bo‘ldiki, noto‘liq oiladagi ayol ko‘pincha o‘z ota va onasi, ko‘pincha ulardan kattalar bilan yashagani bois, ular ham o‘smir ustidan nazoratni o‘z bo‘ynilariga olganliklari sabab, tarbiyadagi muammolarda faqat o‘zining emas, balki ularning ham ulushi borligini anglaydilar. Muammo ppaydo bo‘lganda aybni o‘zidan emas, yonidagi kattalardan qidiradi. Bu ham bizdagi etnopsixologik o‘ziga xoslik bo‘lib, eridan ayrilgan ayol aksariyat xolda yolg‘iz emas, yaqinlari bilan birga bo‘ladi. Ayrim holatlarda farzandlarni butunlay kattalar tarbiyasiga topshiradi, o‘zi boshqa ro‘zg‘or qilib ketadi.

Albatta, to‘liq va noto‘liq oiladagi o‘smir yoshli bolani tarbiyalashda uning jinsiga e‘tibor berish kabilarida mutloq farqlar sezilmaydi. Chunki ikkala holatda ham qiz bolani tarbiyalashga alohida e‘tibor borligi aniqlandi. O‘zbek oilasida o‘smir qizni oilaviy hayotga, turmush qurishga tayyorlash aynan shu davrdan boshlanadi. Shuning uchun ham ular tarbiyasiga hamma alohida e‘tibor qaratadi. Noto‘liq oilada esa, o‘g‘il bola borligidan onalarning umidi ko‘proq bo‘lgani sabab, ularga e‘tibor, ular xulqi ustidan nazorat qattiqroq ekanligi ma‘lum. Lekin bizning onalar o‘g‘il bola tarbiyasidagi muammolarda ko‘proq ularning jinsidan kelib chiqadigan xatolar bilan bog‘lashga urinadilar. Shu bois tarbiyada ham ko‘proq anglashilmovchiliklar o‘g‘li bor to‘liq va noto‘liq oiladagi onalarda ayon bo‘ldi. Lekin otasi bilan birgalikda o‘g‘il tarbiyalayotgan ona bilan yakka o‘zi tarbiyalayotganing erkaklik sifatlariga urg‘u berishida aniq farq ko‘rinmasada, bola xulqi ustidan nazorat qilishda, uning kamchiliklarini ko‘rishda noto‘liq oila onalari ko‘proq e‘tiborli ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Aynan ular bolani jazolashda ham ancha demokratik ekanlar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘smirning holatini oila muhitida o‘rganish psixolog oldiga murakkab vazifani, ya‘ni, nafaqat o‘smir xulqini korreksiya qilish, balki uning ota-onasi xulqini ham tuzatishni nazarda tutatdi. Bunda aynan oilaviy o‘zaro munosabatlar tizimida ota-onaning farzandi bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlari nazarda tutiladi. Alohida ta‘kidlash o‘rinliki, oilaviy munosabatlar tizimida yuqorida keltirilgan omillardagi buzilishlar o‘smirda addiktiv xulqni shakllanishiga olib keladi. O‘smir bilan ma‘naviy uzviy aloqa, ishonch, o‘zaro tushunish, murakkab masalalarni mojarolarsiz hal etish istagi, o‘smir shaxsiga xurmat bilan munosabatda bo‘lgan oilalarda farzand tarbiyalash jarayoni muvaffaqiyatli kechadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son “2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-4201081>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yilning 12-iyuldagi “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo‘llab-uvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 577-son Qarori.
3. Миньяров В.М. Психология семейного воспитания / В.М. Миньяров. – Воронеж: НПО «МОДЕК», 2000. – 256 с.
4. Торохтий В.В. Психология социальной работы с семьёй.- М., 1996. – С. 187-195.
5. Эйдемиллер, Э. Г. Психология и психотерапия семьи / Э. Г. Эйдемиллер, В. Юстикис. - СПб: Питер, 2008. – 672 с.
6. Dzhallolova, M. A., & Mamazhonova, Sh. K. (2022). Methodology of researching characteristics of noncompetitive motivation in the behavior of adolescents: Djalolova Mohinur Abdusattor, Mamajonova Shohista Kamolovna, teachers of the Department of Psychology of Fergana State University. International scientific and methodological journal of education and innovative research, (6), 287-292.4.
7. Kamolovna, M. S. (2022). Theoretical foundations of memory processes and their specificity in preschool age. Galaxy Journal of International Interdisciplinary Studies, 10(3), 145-148.
8. Kamoldinovna, M. S., & Mirzamirovna, M. S. (2022). Methods of forming a positive attitude among primary school students. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 14, 87-91.

Melixonov Baxtiyorxon Vosixon o'g'li,
Psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti
Ilmiy rahbar: **Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich,**
Psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBİYALASHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada shaxsning kamolotga yetishi, sog'lom shakllanishi, unga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog'lom xulq-atvor fazilatlariga ega bo'lib, ezgu va sog'lom g'oya hamda mafkura asosida o'z yo'lidan adashmay o'z hayotini qurishi lozimligi haqida so'z boradi. Yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga oid ba'zi dalillar va ularning nazariy asoslarini keltiradi. Yoshlarni erkin fikrlashga o'rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish uchun zarur bo'lgan omillar ko'rsatilgan. Milliy va diniy qadriyatlarimiz, ularning mazmunmohiyati, asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganishning ahamiyati, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri ekanligi haqida so'z boradi. Yurt kelajagi bo'lgan yoshlarning, bolalarning mustaqil va erkin shaxs sifatida shakllanishida mahalla va maktab hamkorligi, ta'lim-tarbiya jarayonini har tomonlama takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega, o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlanishi samarali tashkil etilishi yoshlarni barkamol avlod sifatida kamol topishi uchun zamin bo'ladi

Kalit so'zlar: shaxsning kamoloti, sog'lom shakllanish, sog'lom g'oya, mafkura milliy qadriyatlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЁЖИ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: В статье идёт речь о взрослении человека, здоровом формировании, дающем ему правильное образование и воспитание, а также о человеке со здоровыми качествами поведения, благородной и здоровой идеей и мировоззрением. Приводятся некоторые аргументы и их теоретическое обоснование для воспитания нашей молодежи в духе верности нашим национальным и общечеловеческим ценностям. Указаны факторы, необходимые для обучения молодых людей свободному мышлению, для помощи им в понимании смысла жизни, для развития самоконтроля и самоконтроля. Отмечается, что важность изучения наших национальных и религиозных ценностей, их сущности, их сохранения, бесценного наследия наших предков, внесших большой вклад в развитие мировой науки и культуры, и на его основе воспитания молодежи как совершенной личности - одно из важных условий обеспечения стабильной социально-духовной среды в обществе. Сотрудничество школы и махалли и всестороннее совершенствование образовательного процесса очень важны при формировании молодежи, которая является будущим страны, детей как самостоятельных и свободных личностей, а эффективная организация дальнейшего укрепления взаимного сотрудничества станет основой для развитие молодежи как всесторонне развитого поколения.

Ключевые слова: развитие личности, здоровое формирование, здоровая идея, мировоззрение.

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF YOUTH EDUCATION ON THE BASE OF NATIONAL VALUES

Abstract: In the article, the maturation of a person, healthy formation, giving him the right education and upbringing, as well as a person with healthy behavioral qualities, a noble and healthy idea and ideology it is said that he should build his life without going astray. It gives some arguments and their theoretical basis for educating our youth in the spirit of loyalty to our national and universal values. The factors necessary to teach young people to think freely, to help them understand the meaning of life, to develop self-control and self-control, are indicated. The importance of studying our national and religious values, their essence, their preservation, the invaluable heritage of our ancestors who made a great contribution to the development of world science and culture, and on the basis of it, educating young people as perfect human beings, ensuring a stable socio-spiritual environment in society. it is mentioned that it is one of the important conditions. Neighborhood and school cooperation and comprehensive improvement of

the educational process are very important in the formation of young people who are the future of the country, children as independent and free individuals, and the effective organization of further strengthening of mutual cooperation will be the basis for the development of young people as a well-rounded generation.

Key words: *personality development, healthy formation, healthy idea, ideology.*

Kirish. Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma'naviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy qadriyatlarimizning tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug' siymolarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir. Ma'lumki, an'analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo'lib qolyapti. An'analar barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. Ana'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida o'ta muhim voqea bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi.

Shu yo'l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi bilan xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi. Xalq an'alarining tiklanishi borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim. Ajdodlarimizning eng qadimiy an'anaviy, ko'pgina madaniyat shakllari raqs, teatr va sportga xos marosimlar shu o'yinlar zaminidan kelib chiqqan va tarixiy jarayonda avlod ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan. Ravshanki, ko'ngilda vatanga muhabbat jo'sh urib turmasa, unga osuhtalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas'ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand "Vatanim sajdagohim, iqbol maskanim" deyilgani bilan bizdagi mehru sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil hisga o'xshab ketadi. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz yoshlarimizning baxtu-saodati ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir Sharq allomalarining ilmiy merosida shaxsning kamolotga yetishi, sog'lom shakllanishi, unga to'g'ri ta'lim-tarbiya berish, shuningdek, shaxsning sog'lom xulqatvor fazilatlariga ega bo'lib, ezgu va sog'lom g'oya hamda mafkura asosida o'z yo'lidan adashmay o'z hayotini qurishi lozimligi haqida juda qimmatli fikr mulohazalarni uchratish mumkin.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Unsurulmaoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy va Husayn Voiz Koshifiykabi allomalarimizning asarlarida hamda "Avesto" va "Qur'on" kabi muqaddas kitoblarimizda, shaxs kamoloti, go'zal xulqli insonning chiroyli fazilatlarini, ezgulikka va bunyodkorlikka yo'g'rilgan g'oya va mafkuralar asosida yomondan, yomon ishlardan hazar qilish, yomon ishlar qilguvchilarni to'g'ri yo'lga solish; sog'lom bo'lmagan xulq egalari zamon, jamiyat hamda Olloh kechirmasligi bois, shaxsni kelajakda har xil yomon, yovuz yo'llar, buzg'unchi fikr va g'oyalarga chalinmasligi uchun barkamol qilib tarbiyalash yuzasidan qimmatli fikrlarni ilgari surganlar. Kishilik jamiyatining ko'p ming yillik tarixi barcha davrlarda ezgulik va bunyodkorlikka yetaklovchi qarashlar, g'oya va mafkuralar bilan bir qatorda, ularga qarama-qarshi bo'lgan, inson hayotini izdan chiqarish, jamiyat va ijtimoiy tizimlarning yemirilishiga, tanazzulga yuz tutishiga zamin yaratgan buzg'unchi va vayronkor qarashlar, g'oya va mafkuralar ham mavjud bo'lganidan dalolat beradi. O'tmishda yot g'oyalarning turli xil ko'rinishlari, tarixiy shakllari bo'lgan.

Jumladan, xalqimizning o'lmas madaniy merosi, dunyo tan olgan bebaho ma'naviyat durdonasi "Avesto" yovuz g'oyalarini qoralash, inson va jamiyatni ezgulikka chorlashning mumtoz namunasidir. Ushbu falsafiy yodgorlikning e'tiborga sazovor jihatlaridan biri shundaki, bu asar 2700 yil avval yaratilganini inobatga olsak, unga zamin, asos sifatida, avval ham kamida ikki ming yillik hayotiy tajriba, ilmiy bilimlar va psixologik mushohada bo'lganini ta'kidlash mumkin. Shubhasiz, bu kitobning yaratilishi ob'yektiv zaruriyatga aylangan. Avestodagi quyidagi fikrlar Zardushtiylik mafkurasining tub mohiyatini ifoda etadi: "Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giraman". Avestoning eng qadimiy qismi bo'lgan "Yasht"larda kishilarga dahshat urug'ini sohib, yuraklariga g'ulg'ula soladigan qahri qattiq Anxra Manyu (Axriman) boshliq xudolar bir taraf bo'lsa, ezgulik tarqatuvchi, yaxshilik tilovchi, yordam beruvchi Axura Mazda boshchiligidagi xudolar boshqa guruhga ajratilgan. Keyinchalik Zardusht ta'limotida politeizmdan monoteizm sari borilib, faqat Axura Mazda tangri sifatida e'tirof etilgan, qolganlari ma'bud va farishtalar,

deb tushuntirilgan. Yovuzlik, qanday shakl va mazmunga ega bo‘lmasin, avvalo, g‘oya sifatida paydo bo‘lishi e‘tiborga olinsa, Avestoda Axriman aynan buzg‘unchi va yovuz g‘oyalarning muallifi, sababchisi va tarqatuvchisi, deb talqin etilgan. Bu ham hududimizda qadim davrlardayoq vayronkor g‘oyalarning ijtimoiy mohiyati teran anglab yetilgani va unga qarshi mafkuraviy immunitet tizimi ustida bosh qotirilganligidan dalolat beradi. Zardushtiylik ta‘limotining mantiqiy davomi bo‘lgan Moniychilikda ham ezgulik bilan yovuzlik kuchlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi markaziy o‘rin egallaydi.

Metodlar va natijalar. Tadqiqot usullari: sotsiologik, psixologik va pedagogik adabiyotlarni nazariy va retrospektiv tahlil qilish; diagnostika usullari: so‘roq, kuzatish, so‘rov; tajribani o‘rganish va umumlashtirish, tajriba va boshqalar. Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari quyidagilardir: fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyalari (M.G.Aliyev, A.Sh.Axmedov, T.I. Zaslavskaya, V.K. Levashov), gumanistik va shaxsiy nazariya yo‘naltirilgan ta‘lim (E.V. Bondarevskaya, V.V. Abramenkova, V.A. Karakovskiy, A.N. Nyudyurmagedov, V.A. Suxomlinskiy, E.N. Shiyarov), insonning ijtimoiy mohiyati nazariyasi (V.V. Abramenkova, G.M. Andreyeva, D.M.Mallayev, (Z. T. Gasanov, K. O. Omarov), vatanparvarlik tarbiyasi nazariyasi (A. G. Agayev, G. V. Agapova, Z. T. Gasanov, B. R. Pavlov, G. N. Filonov), fuqarolik tarbiyasi va huquqiy himoya nazariyasi (N. I. Zinchenko, Ya. V. E. Sokolov, Ya. V. E. Vyazemskiy, E. V. Tatarintseva, A. N. Tubelskiy, I. Medvedeva).

Maqola yozish jarayonida biz quyidagi olimlarning ishlarga tayandik: V.I. Belova, A.K. Bondarenko, N.F. Vinogradova, A.D. Jarikova, V.A. Karakovskiy, N.S. Karpinskiy, S.A. Kozlova, V.K. Kotirilo, N.K. Krupskaya, T.A. Kulikova, A.I. Matusik, V.S. Muxina, R.S. Nemov, V.G. Nechaeva, A.V. Petrovskiy, L.N. Prokolienko, E.I. Rogov, R.V. Tonkovoy-Yampolskaya, M.G. Yaroshevskiy va boshqalar.

Maqola uchun quyidagi asosiy qoidalar ilgari suriladi:

1. Farzandlar tomonidan milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilish, shaxsiy va jamoat hayotida ularga amal qilish o‘qituvchidan kichik yoshdagi o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga e‘tiborni kuchaytirishni talab qiladi.

2. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning keng qamrovli dasturi, o‘quv va maktabdan tashqari ishlar sharoitida amalga oshiriladi, bolalarda vatanparvarlikni tarbiyalashga eng yaxshi yordam beradi.

3. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining umumiy ta‘lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasi jamoadagi munosabatlarga, ta‘lim muassasasidagi ta‘lim jarayoniga, Vatanga munosabatga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Eksperimental ishning maqsadi - boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga hissa qo‘shadigan sinflar to‘plamining aprotatsiyasini tuzish.

Yuqoridagi maqsadga erishish uchun siz quyidagi vazifalarni hal qilishingiz kerak:

- maktab o‘quvchilarining mamlakat, shahar tarixiy merosiga, oila va milliy urf-odatlariga qiziqish salohiyatini ochib berish;

- kichik yoshdagi o‘quvchilar tomonidan “vatanparvarlik” tushunchasini tushunish darajasini aniqlash;

- o‘quvchilarning shaxs – vatanparvar fazilatlarini haqidagi tasavvurlarini ochib berish.

Amaldagi usullar va usullar:

1. So‘rov.

2. “Siz fuqaro bo‘lishga majbursiz” (Fridman L.M.).

Bolalar 9-10 yoshda. Tajribada qatnashgan bolalar soni 3 "S" sinfda 27 kishi va 3 "B" sinfda 25 kishi. Bolalarning mamlakat, shahar, oilaning tarixiy o‘tmishi, milliy madaniyat an‘analariga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirishni aniqlash maqsadida o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Tadqiqot bo‘yicha ishning tayyorgarlik bosqichida so‘rovnoma tuzildi. Bolalardan so‘rovnomaga javob berish so‘ralgan.

Bolaning o‘z oilasining o‘tmishi haqidagi bilimni aniqlashtirish maqsadida “Ulug‘ Vatan urushi yillarida qatnashgan yoki orqada mehnat qilgan oila a‘zolari haqida gapirib berasizmi?” degan savol berildi.

3-“B” sinf bolalarining o‘z oilasining o‘tmishi haqidagi bilimlarini o‘rganish natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 55 foizi (15 kishi) ijobiy javob bergan; Talabalarning 26 foizi (7 kishi) salbiy javob berdi; Respondentlarning umumiy sonidan 19% talabalar (5 kishi) savolga javob berishga qiynalgan. 3 “B” sinfida o‘quvchilarning 52 foizi (13 kishi) “ha”, 28 foizi (7 kishi) salbiy javob bergan, 20 foizi (5 kishi) javob berishga qiynalgan.

Bolalarning esda qolarli joylarga qiziqishini aniqlash maqsadida “Bugulma shahrining unutilmas joylari bo‘ylab ota-onalar bilan sayr qilinadimi?” degan savol berildi.

3 “B” sinf bolalarining esda qolarli joylarga bo‘lgan qiziqishini o‘rganish natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 63 foizi (17 kishi) ijobiy javob bergan; Talabalarning 7 foizi (2 kishi) salbiy

javob berdi; Talabalarning 30 foizi (8 kishi) savolga javob berishga qiynalgan. 3 “B” sinfida o‘quvchilarning 60 foizi (15 kishi) ijobiy, 32 foizi (8 kishi) salbiy javob bergan, 8 foizi (2 kishi) javob berishga qiynalgan.


Adabiyotni o‘rganishga oydinlik kiritish maqsadida “Siz xalqining tarixiy o‘tmishi haqidagi kitoblarni o‘qiysizmi?” degan savol berildi.

Adabiyot o‘rganishning 3-“B” sinfidagi o‘rganish natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 27 foizi (7 kishi) ijobiy javob bergan; Respondentlarning umumiy sonidan 66% talabalar (18 kishi) salbiy javob berdi; Talabalarning 7 foizi (2 kishi) savolga javob berishga qiynalgan. 3 “B” sinfida o‘quvchilarning 36 foizi (9 kishi) ijobiy, 40 foizi (10 kishi) salbiy javob bergan, 28 foizi (7 kishi) javob berishga qiynalgan.

Ularning ota-onalari bilan teledasturlarni tomosha qilishlarini bilish uchun savol berildi: "Siz televizorda ota-onangiz bilan rus xalqining tarixiy o‘tmishi haqidagi dasturlarni tomosha qilasizmi?"

Teleko‘rsatuvlarni ota-onalari bilan tomosha qilish yoki ko‘rish natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, 3 “B” sinfida o‘quvchilarning 26 foizi (7 kishi) ijobiy javob bergan; Sinfda so‘ralgan umumiy o‘quvchilarning 63% (17 kishi) salbiy javob berdi; Talabalarning 11 foizi (3 kishi) savolga javob berishga qiynalgan. 3 “B” sinfida o‘quvchilarning 68 foizi (17 kishi) ijobiy, 24 foizi (6 kishi) salbiy javob bergan, 8 foizi (2 kishi) savolga javob berishga qiynalgan.

Biz bolalarning ijobiy javoblari bilan qiziqdik va aniqroq bo‘lishi uchun so‘rov natijalari diagrammada taqdim etildi.



1-rasm. Shaharning tarixiy o‘tmishida bolalarning qiziqishlarini shakllantirishni o‘rganish natijalari

Maktab o‘quvchilarining shaxsning uning g‘oyaviy va siyosiy sohasini tavsiflovchi fazilatlarini to‘g‘risida bilim darajasi to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish uchun "Sen fuqaro bo‘lishing kerak" uslubidan foydalanildi. Buning uchun talabalarga ma‘lum bir so‘z ro‘yxatini tahlil qilish taklif qilindi: mehnatsevarlik, vatanparvarlik, talabchanlik, chidamlilik, adolat, matonat, vijdon, or-nomus, jasorat, g‘urur, quvnoqlik, samimiylik, qat‘iyatlilik, sezgirlik, sabr-toqat, g‘ayrat.

Yuqoridagi so‘zlarni uchta ustunga bo‘lish kerak edi. Birinchisi - inson uchun g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishning qisqacha tavsifini beradigan eng muhim fazilatlar, ikkinchisi - insonga xos bo‘lmagan fazilatlar, uchinchisi - yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘lgan fazilatlar.

Qabul qilingan ma‘lumotlarni qayta ishlash: Birinchi ustundan har bir sifat 5 ball, ikkinchi ustundan - 4 ball, uchinchidan - 3 ball bilan baholanadi. Erkin jadvalda har bir sifatning ballari va darajasi hisoblanadi. Olingan ma‘lumotlarning tahlili ma‘lum bir o‘quvchi yoki umuman sinf tomonidan sifatlarining u yoki bu joylashuvining sabablarini aniqlash va tahlil qilish, turli sinf o‘quvchilari, o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi farqni aniqlash imkonini beradi. g‘oyaviy-siyosiy yetuklikka xos bo‘lgan va xarakterli bo‘lmagan sifatlarini baholashni solishtirish. Agar talabalarda shaxsning mafkuraviy va siyosiy sohasini tavsiflovchi fazilatlarini haqida etarli tasavvurga ega bo‘lmasa, bu g‘oyani o‘zgartirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini belgilab olish kerak. Tadqiqot natijalari jadvalda keltirilgan.

O'quvchilarni vatanparvarlik fazilatlarini haqidagi g'oyalarni o'rganish

Sifat	Ball	Daraja
Mehnatsevarlik	88	2
Vatanparvarlik	66	3
Adolat	88	2
Qat'iyatlilik	110	1
Vijdon	66	3
Hurmat	66	3
Jasorat	88	2
Mag'rurlik	88	2
Quvonchilik	110	1
Samimiylik	66	3
Javobgarlik	88	2
Sabr	88	2
Ehtiros	110	1

O'quvchilarning vatanparvarlik fazilatlarini haqidagi g'oyalarni o'rganish natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, bolalarda quvnoqlik, jo'shqinlik, sezgirlik, sabr-toqat kabi tushunchalar birinchi o'ringa qo'yiladi. Kamroq ajralib turadigan fazilatlar esa vatanparvarlik, vijdon, or-nomus, samimiylikdir. Demak, vatanparvar shaxsning fazilatlarini bolalarda yetarlicha shakllanmagan, degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini umumlashtirsak, undagi fikriga ko'ra, “Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug'ma ravishda o'ziga xos bo'lgan ichki shuurila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Hamma narsani idrok qilish insonni komillik va lazzat tomon boshlaydi. Insonning asl ruhiy kamoloti birinchi haqni tanish orqali hosil bo'ladi. Ma'rifat- baxt-saodat va kamolot sari qo'yilgan birinchi qadamdir”, demak, har bir inson komillikka o'z-o'zidan erishmaydi, unga qa'tiyatli iroda hamda mehnat asosida o'z xulq-atvorida go'zal fazilatlarini orttirish bilan erishishi ta'kidlanadi. Asar mazmunida, inson o'z hulq-atvorida o'n ikkita eng go'zal va mukammal fazilatlarini shakllantira olsagina, u kamolotga yetadi va ruhan hamda tabiatan xayrli amallarni bajarishga hamda sharr (yomon), buzg'unchi ishlardan saqlanishga o'zida kuch topa oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli fe'l-atvor tug'diradigan iste'dod mavjud bo'lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir, degan fikrlar ilgani suriladi. Abu Nasr Forobiy o'zining asarlarida insonlardagi sog'lom xulq-atvor va uning fazilatlarini kabi xislatlarni ma'naviy kamolotning asosiy mezoni sifatida ko'rsatadi. Shaxs ma'naviy jihatdan kamolga yetishida yoki biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet shakllanishida avvalo ruhan pok, turli ichki qarshiliklarni yenga oladigan, qa'tiyatli, o'zligini anglagan, insonparvar g'oyalarga pur inson bo'lishi kerakligini uqtiradi. Yuqoridagi barcha mulohazalar shaxs kamolotida sog'lom xulq-atvor me'yorlarini tarkib toptirish, shuningdek, shaxsning go'zal odobli, insonparvar g'oyalarga ega bo'lib borishi, irodaviy hamda xarakterologik sifatlarini rivojlantirish, shu jumladan, o'zini o'zi to'laqonli anglash tizimini takomillashtirish asosida ularda ma'naviy, mafkuraviy, psixologik immunitet hosil qilish muhim ekanligini ko'rsatdi. Zero, allomalarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy merosda ilgari surilgan g'oyalar bugun yoshlarni nafaqat aqlan, axloqan, balki ularda buzg'unchi, yot, vayronkor g'oya va mafkuralarga qarshi mustahkam, barqaror mafkuraviy immunitet shakllantirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilishi ayni haqiqatdir. Bu esa o'z-o'zidan mazkur masalaga ijtimoiy psixologik muammo sifatida qarashni va uning bugungi kundagi dolzarbligidan kelib chiqib, muammoni yanada chuqurroq, mukammalroq tahlil qilish uchun o'ziga xos empirik ma'lumotlarga asoslangan ham nazariy, ham amaliy jihatdan ilmiy oydinliklar kiritish zarurligini taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 7 июндаги 472-сонли «Психология соҳасида кадрларни тайёрлаш тизимини янада такомиллаштириш ва жамиятда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Қарори.
2. Алёшина Ю.А. Спецпрактикум по социальной психологии, опрос семейное и индивидуальное консультирование – М.: изд-во МГУ, 2019 . – 64 с.
3. Avezov O.R. IQ test. Metodik qo'llanma. B.2021 y. 180 bet
4. Баротов Ш.Р. и др. Психологическая служба образования: от теории к практике. (Учебно -

методическое пособие). – Бухара: Дурдона, 2017. – 172 с.

5. Файбуллаев А.А. Проблемы воспитания подростков в условиях глобализации общества. Science and Education. 2022 1120-1125

6. Файбуллаев А.А. Психологические факторы, вызывающие агрессию у студентов. Вестник интегративной психологии. 2021г. 70-73

7. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик химоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. Psixologiya ilmiy jurnali. 2021 yil, 4 son 103-112 b. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 April 2022 / Volume 3 Issue 4 www.openscience.uz 1224

8. Olimov L.Ya., M.B.Rasulova. O'smir shaxsi shakllanishida axloqiy normalarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. Science and Education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 675-683 p.

Mo‘minov Davronjon Marifjon o‘g‘li,
Farg‘ona davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi

JAMIYATDA PSIXOLOGIK MANIPULYATSAGA BO‘LGAN MUNOSABATLAR VA UNI INSON HAYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqola manipulyatsiya texnologiyalari bugungi kunga kelib son jihatdan ko‘p marotaba ko‘payotganligi, ular yanada inson ongiga universal tarzda ta‘sir kuchiga ega bo‘layotganligi, ularning inson ruxiyatiga kirib borish qobiliyati hamda fuqarolarning ommaviy va individual ongiga, ularning qadriyatli munosabati va siyosiy dunyoqarashiga ishonarli ta‘sir ko‘rsatish kuchining tobora oshib borayotganligi yoritilgan. Shu bilan birgalikda mavjud texnologiyalarning xilma-xilligi bilan birga, masalaning nazariy asoslari hali ham juda zaifligi: uni turli gumanitar fanlar tomonidan o‘rganishga yagona yondashuvlar shakllanmaganligi, manipulyatsion ta‘sirning tushuntirish modeli ishlab chiqilmaganligi, manipulyatsiya texnikasi va texnologiyalari tasnifi berilmaganligiga alohida e‘tibor berilgan.

Kalit so‘zlari: manipulyatsiya texnologiyalari, manipulyatsiya texnikasi, manipulyatsiya, ong, ta‘sir kuchi, usul, manipulyator, shaxs, mulqot, axborot, insonlarni boshqarish, yashirin ta‘sir.

ОТНОШЕНИЕ К ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ МАНИПУЛЯЦИИ В ОБЩЕСТВЕ И ЕЁ РОЛЬ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

Аннотация: В данной статье освещены технологии манипулирования, которые сегодня в большом количестве развиваются во многих отраслях, оказывают универсальное воздействие на общественное и индивидуальное сознание человека, ценностные отношения и политическое мировоззрение. Особое внимание уделено тому, что, несмотря на большое разнообразие психологических манипуляций, теоретические основы данного направления науки разработаны недостаточно, не сформированы единые подходы различными гуманитарными науками, не разработана единая модель понимания манипулятивного воздействия, не изложена классификация техник и технологий манипуляций.

Ключевые слова: технологии манипулирования, техники манипулирования, манипулирование, сознание, сила воздействия, метод, манипулятор, личность, общение, информация, управление людьми, скрытое воздействие.

ATTITUDES TO PSYCHOLOGICAL MANIPULATION IN SOCIETY AND ITS PLACE IN HUMAN LIFE

Abstract: This article shows that the technologies of manipulation are multiplying in number by today, they are becoming more universally influential on the human mind, their ability to penetrate the human psyche and convincingly influence the public and individual consciousness of citizens, their value attitude and political worldview the increasing power is highlighted. At the same time, along with the diversity of existing technologies, special attention was paid to the fact that the theoretical foundations of the issue are still very weak: uniform approaches to its study by various humanitarian sciences have not been formed, no explanatory model of manipulative influence has been developed, no classification of manipulation techniques and technologies has been given.

Key words: manipulation technologies, manipulation techniques, manipulation, consciousness, power of influence, method, manipulator, personality, communication, information, people management, hidden influence.

Kirish. Bugun ijtimoiy hayotimizda har tomonlama faollik, o‘z maqsad va rejalariga ega bo‘lishlik, zamon talabiga mos fikrlash, ijtimoiy hayotda yuz berayotgan har qanday o‘zgarishlarga obyektiv baho berish, tahlil qila olish bugungi kun odamlariga xos bo‘lgan xususiyatlardandir. Dunyoqarashidan kelib chiqib, bugungi kun odamlari jadal rivojlanib borayotgan jamiyatimizning nafaqat yangiliklarini, balki butun jahon maydonida yuz berayotgan yangiliklarga qiziquvchanligi va yaratuvchanligi bilan katta ta‘sir ko‘rsatib kelmoqda. Shunday tez sur‘atda jadallik bilan o‘tib borayotgan hayotimizda bizning dunyoqarashimizga, fikrlarimizga, ijtimoiy muxitdagi voqeliklarga berayotgan munosabatlarimizga yashirin yo‘llar bilan ta‘sir

o'tkazib, manipulyatsiya qilishga urinayotgan yod kuchlar mavjudligi to'g'risida ko'plab fikrlar mavjud. Darhaqiqat shaxs psixologiyasiga turli manipulyativ taktik usullar orqali ta'sir o'tkazish yo'li bilan uning fikrini o'zgartirish yoki boshqarish mumkin. Shu kabi fikrlarni oydinlashtirish uchun avvalambor manipulyatsiya tushinchasiga oydinlik kiritish zarur.

Manipulyatsiyalar siyosiy amaliyotda asrlar davomida qo'llanilgan bo'lsa, so'nggi ikki asr davomida ular tobora ko'proq alohida izolyatsiya qilingan hodisalar emas, balki manipulyatsiya ta'sirining usullari, uslublari va shakllarining izchil professional to'plami, ya'ni "manipulyatsiya texnologiyalari" shaklini oldi.

Asosiy qism. So'nggi yillarda manipulyatsiya texnologiyalari soni ko'p marta ko'paydi, ular yanada universal bo'ldi, fuqarolarning ommaviy va individual ongiga, ularning qadriyatli munosabati va siyosiy dunyoqarashiga ishonarli ta'sir ko'rsatish kuchi oshdi. Mavjud texnologiyalarning xilma-xilligi bilan birga, masalaning nazariy asoslari hali ham juda zaif: uni turli gumanitar fanlar tomonidan o'rganishga yagona yondashuvlar shakllanmagan, manipulyatsion ta'sirning tushuntirish modeli ishlab chiqilmagan, manipulyatsiya texnikasi va texnologiyalari tasnifi to'liq berilmagan.

Ushbu hodisaning nazariy asoslarini tavsiflash, uning elementlarini tuzish uchun mavjud manipulyatsiya texnologiyalarini ko'rib chiqish va ularning zamonaviy siyosiy jarayondagi rolini tavsiflashning o'zi yetarli emas, manipulyatsiya hodisasining o'ziga xos xususiyatini aniqlash, uning tarkibiy elementlarini tahlil qilish, ularning har birining insonga ta'sirining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak. Bu vazifa olimlar orasida "manipulyatsiya" atamasini ta'riflashda haligacha birlik yo'qligi bilan murakkablashadi: bugungi kunda manipulyatsiya turli xil ta'sirlar deb ataladi, ularning soni va yo'nalishi doimiy ravishda oshib boradi. Bu fakt, ushbu hodisaning fanlararo tabiati bilan bir qatorda, u haqidagi bilimlarni yagona yondashuv doirasida birlashtira oladigan va tuzadigan yagona uslubiy asosni izlashni qiyinlashtiradi. Shunday qilib, Evropa tillarining lug'atlarida "manipulyatsiya" so'zi ob'ektlarni ma'lum niyatlar bilan boshqarish, shu bilan birga manipulyatsiya harakatlarini bajarishda ephillikning mavjudligi (qo'lda boshqarish, bemorni shifokor tomonidan qo'l yordamida tekshirish) alohida ta'kidlanadi [1. 47 b]. Turli tadqiqotchilar ushbu hodisani aniqlash uchun zarur bo'lgan turli xil belgilarni ta'kidlaydilar. Shunday qilib, R.Godinning so'zlariga ko'ra, "manipulyatsiya - bu yashirin ravishda qo'llaniladigan va boshqa birovning irodasiga zid ravishda qo'llaniladigan kuch" [2. 18 b]. B.N.Bessonov manipulyatsiyani kuch bilan amalga oshiriladigan ruhiy ta'sir, yashirin hukmronlik shaklidir, deb hisoblaydi [3. 123-b]. L. Proto manipulyatsiyani "tanlov qilishda yashirin ta'sir" deb tushunadi [4. 53-b]. V. Riker bu hodisani "g'alaba qozonish imkonini beradigan dunyoning shunday tuzilishi" deb tushunadi [5. 114-b]. E. Shostrom shunga o'xshash ta'rifni taklif qiladi, unda manipulyatsiya "boshqarish va nazorat qilish, boshqasini ekspluatatsiya qilish, ob'ektlar, narsa yoki buyum sifatida foydalanish" deb tushuniladi [6. 70-b].

E.L. Dotsenko ushbu mualliflar tomonidan ko'rsatilgan belgilarni tahlil qilish asosida ushbu hodisaning eng umumiy ta'rifini berishga harakat qildi [7. 344-b]. U ushbu tushunchalarning sintezini o'tkazdi, bu tadqiqotchilar orasida manipulyatsiyaning eng umumiy qabul qilingan mezonlari: "yashirinlik, mavhumlik", "ekspluatatsiya, hukmronlik", "boshqarish, nazorat qilish", "boshqa shaxsdan ob'ekt sifatida foydalanish", "bilvosita ta'sir o'tkazish" va "fikrlari, niyatlari dasturlash". E.L. Dotsenko yuqoridagi fikrlariga qo'shimcha sifatida manipulyatsiyaning kamroq tarqalgan belgilarga ishora qiladi: "zaif tomonlarda o'ynash", "zo'ravonlik", "bir tomonlama foyda olish istagi" [7. 40-b].


Bajarilgan ishlar natijasida E.L. Dotsenko manipulyatsiyani "mohirlik bilan amalga oshirilishi boshqa odamning haqiqiy istaklariga to'g'ri kelmaydigan niyatlarining yashirin hayajonlanishiga olib keladigan psixologik ta'sir turi" sifatida tushunishni taklif qiladi [7. 22-b].

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, bu ishda manipulyatsiya yolg'on bilan tenglashtirilmaydi. Chunki yolg'on haqiqatning teskarisini bildiradi. Manipulyatsiya esa haqiqatni teskarisi emas, balkiy haqiqatni turli ta'sir usullaridan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishish uchun uni o'zgartirishga urinishdir. Buni J.Rudinov yaxshi tasvirlab berdi: "Kimdir bizdan Minskka yo'nalish so'raydi, biz esa uni yolg'ondan Pinskka yo'naltiramiz – bu shunchaki aldash. Ikkinchi holatda agarda biz Minskka ketmoqchi bo'lgan insonni Pinskka borishni xohlaganimiz uchun firib ishlatsak, u holda manipulyatsiya sodir bo'ladi. Shunday qilib, J.Rudinov manipulyatsiyani manipulyator uchun zarur bo'lgan harakatga ob'ektning yashirin motivatsiyasi sifatida ko'rib chiqadi.

G.V.Pushkareva siyosiy manipulyatsiyaning mohiyatini tushuntirar ekan, J.Rudinovanning siyosiy sohadagi misolini keltiradi: "Saylovchi aslida N nomzodiga ovoz bermoqchi bo'lsayu, ammo tashqi ta'sir ostida o'z tanlovini o'zgartirgan holatda M nomzodga ovoz berganida manipulyatsiya sodir bo'ladi. Yoki saylovchi aslida umuman saylovga borishni istamaydi, lekin so'nggi lahzada fikridan qaytdi va saylov uchastkasiga kelib saylovda ishtirok etadi. Yoki bo'lmasam biror kishi norozilik namoyishida qatnashishni umuman istamas edi, lekin u, kutilmaganda o'zini namoyishchilar orasida ko'rishi mumkun. Yoki u siyosiy

munozaraga aralashishni istamasdi, lekin uni manashu siyosiy munozarada o‘z fikrlarini bildirish uchun tashqi kuchlar tomonidan mohirlik bilan gijgjlashadi”.

Yuqoridagi olimlar fikrlarini inobatga olgan holatda kichik bir onlayn so‘rovnoma o‘tkazdik. Quyida sizlarni manashu so‘rovnoma natijalari bilan tanishtirib o‘tamiz.



1-diagramma.

Biz onlayn tarzda o‘tkizgan so‘rovnomada 44 nafar respondent ishtirok etdi. Mazkur so‘rovnomada turli yosh vakillari ishtirok etdilar va shu o‘rinda ularning ko‘pchiligi oliy ta’limda tahsil oluvchi talabalar ekanligini aytib o‘tishni joiz deb bildik. Ko‘rib turganizdek 1-diagrammada “Yolg‘on gapiradigan insonlarga nisbatan qanday munosabatdasiz?” degan savolimizga ishtirokchilarning 72.7% salbiy qarashligini 20.5% esa befarq qarashi va 6.8% ishtirokchimiz yolg‘onga nisbatan ijobiy qarashligini bildirdi. Bundan ko‘rinib turibdiki insonlar hayotida ko‘p bora yolg‘on qurboniga aylanganligi va manashu hissiyot yolg‘on ishlatgan insonga nisbatan agressiv munosabatda bo‘lishiga asos bo‘lishi mumkunligini isbotlaydi.




2-diagramma.

Yaqinlaringiz tomonidan sizga nisbatan yolg‘on ishlatilganini sezsangiz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz degan savolimizga respondentlarimizning 18.2% yolg‘onligini bilsamda indamas edim degan javobni tanlagan. Ishtirokchilarning 36.4 % nima qilishimni oldindan ayta olmayman deb javob bergan bo‘lsalar 45.5% qatnashchimiz yolg‘on gapirayotganini o‘ziga aytardim deya javob bergan. Natijalardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkunki 1-diagrammada “Yolg‘on gapiradigan insonlarga nisbatan qanday munosabatdasiz?” degan savolimizga nisbatan ishtirokchilarning 72.7% salbiy qarashligini aytgan bo‘lsalar endi anashu yolg‘on gapirayotgan inson o‘zini yaqini ekanligini bilgan ishtirokchilarimizda ikkilanish kuzatilmoqda, ya’ni faqatgina 45.5% ishtirokchimiz o‘z fikrida qat’iy turishini bildirdi. Bundan kelib chiqadiki bizga nisbatan yolg‘on ishlatayotgan insonning bizga yaqinligi uning ta’sir doirasiga tushish ehtimoli yuqoriligi ko‘rsatadi.

3) Sizni biror bir tashkilotga rahbar sifatida tayinlashsa, qo‘l ostingizdagi hodimlarni boshqara olaman deb o‘ylaysizmi?

44 ответа




3-diagramma.

3-diagrammada ko‘rganingizdek 70.5% ishtirokchilari “Sizni biror bir tashkilotga rahbar sifatida tayinlashsa, qo‘l ostingizdagi hodimlarni boshqara olaman deb o‘ylaysizmi?” degan savolimizga albatta boshqara olaman deb javob berganlar. 22.7% respondentimiz esa oldindan bir nima deya olmasligini bildirgan bo‘lsalar qolgan 6.8% ishtirokchimiz o‘zining rahbarlik qobiliyati yo‘qligini ta’kidlagan. “Albatta boshqara olaman” deya javob bergan respondentlarimiz hamda “oldindan bir nima deyolmayman” deb javob bergan respondentlarimizni orasidagi farqni topishga urindik va ularni ajratib turgan yoshdagi farqqa duch keldik. O‘z kuchiga ishonib albatta boshqara olaman deyotgan ishtirokchilarimizni ko‘pchiligi 18-22 yoshli talabalar ekanligini kuzatdik. “Oldindan bir nima deyolmayman”, “Mening fikrimcha rahbarlik qobiliyatim yo‘q bo‘lsa kerak” deya javob bergan ishtirokchilarimizning ko‘pchiligi “albatta boshqara olaman” deb javob berganlardan yosh jihatdan kata ekanligini kuzatdik. Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki boshqalarni boshqara olaman degan tuyg‘u yoshlarda kuchli bo‘lishi mumkun. Shu bilan birgalikda yosh o‘tkani sayin hayotiy tajriba va o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri baho bera olish qobiliyati shakillanishi mumkun bo‘ladi.

8) Tasavvur qiling, uyga qaytayotib mashina to‘xtatdingiz va yonizda pul qolmagani shu onda yodingizga tushdi. Shu holatda nima qilgan bo‘lar edingiz?


44 ответа



4-diagramma.

Yuqoridagi 4-diagrammada “Tasavvur qiling, uyga qaytayotib mashina to‘xtatdingiz va yonizda pul qolmagani shu onda yodingizga tushdi. Shu holatda nima qilgan bo‘lardingiz?” degan savolimizga respondentlarimizni 40.9% taxsisga vazziyatni tushuntirib, uyga olib ketishini iltimos qilardim degan javobni tanlashdi. Ishtirokchilarni 31.8% taxsisdan uzur so‘rab, uyga piyoda qaytishni tanladi. Qolgan 27.3% ishtirokchi esa taxsisga yo‘l haqqi uchun puli yo‘qligini aytib uni olib ketish yoki qoldirib ketishni taxsisni ixtiyoriga qoldirishini bildirdi. Manashu diagrammadan ko‘rinib turibiki tadqiqot ishtirokchilarining 40.9% taxsisni manipulyatsiya qilishga qat’iy urinsa, 27.3% respondent taxsisni manipulyatsiya qilishga biroz

sustroq darajada urinib ko‘rmoqchi bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkun. Faqatgina 31.8% ishtirokchi taxsisga psixologik ta‘sir ko‘rsatishni istamadi. Bundan kelib chiqadiki ishtirokchilarni 68.2% respondent manipulyatsiyadan foydalanishi, taxsisni o‘zining ehtiyojini qondirish maqsadida o‘z ta‘sir doirasiga olmoqchiligi namoyon bo‘lmoqda.



5-diagramma.

5-diagrammada insonlarni manipulyatsiya qilishning yorqin namoyon qiluvchi savolimizga, ya‘ni “Bozorda siz anchadan buyon olmoqchi bo‘lgan narsaga pulingiz yetmayabti. Siz qanday yo‘l tutar edingiz?” degan savolimizga respondentlarimizning 77.3% “Narxni tushurishga urunib ko‘rardim, tushsa olardim tushmasa yo‘q” degan javobni tanlagan bo‘lsalar 22.7% responden “Narxi pulim yetadigan darajaga bormagunigacha talashib tortishardim” degan javobni tanladilar. Eng qizig‘i shundaki respondentlarimizning hech qaysinisi “Taqdirga tan berib uyga qaytardim” degan javob varyantini tanlamagan. Bundan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkunki insonlarning aksaryati o‘zining maqsadi yo‘lida boshqa bir insonga psixologik ta‘sir o‘tkazishdan tab tortmasa, qolgan ko‘p sonli insonlar bu maqsadga urinib ko‘radilar ya‘ni ta‘sir ko‘rsatishga harakat qilib ko‘radilar. Lekin harakat qilmasdan turib undan vos kechmaydilar.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar va tadqiqot natijalaridan kelib chiqib shuni xulosa qilishimiz mumkunki har bir inson manipulyator bo‘lishi mumkun. Va shuni ham ta‘kidlash kerakki manipulyatsiya har doim ham salbiy emas. Chunki inson hayotida doim ham o‘z manfaatini ko‘zlab boshqa birovga yo‘nalmaydi, balki uning foydasini ko‘zlab ham yolg‘on ishlatishi, uning foydasi uchun unga psixologik ta‘sir ko‘rsatishi mumkun. Misol uchun shifokor bemorning asl xolatini yashirgan holda unga “Sog‘lig‘ingiz juda yaxshi faqat biroz toliqqasiz” deya tasalli berishi mumkun. Aks holda bemor sog‘lig‘ining asl holatidan habar topsa sog‘lig‘i battar yomonlashishi mumkun. Lekin jamiyatimizda bugun kop isonlar o‘z manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ymoqdalar. Shu tufayli ham jamiyatda manipulyatsiyaga nisbatan salbiy munosabatlar ko‘proq uchraydi. Fikrimiz o‘rnida shuni aytishim mumkunki inson istaydimi yoki istamaydimi ham manipulyator ham manipulyatsiya ta‘siri ostida qolgan shaxs bo‘lishi mumkun.

Adabiyotlar:

1. Кара-Мурза С Г Манипуляция сознанием – М : Алгоритм-ЭКМО, 6 – С. 47.
2. Гудин Р., Клингеманн Х-Д. Политическая наука как дисциплина // Политическая наука: новые направления; под ред Р Гудина и Х -Д Клингеманна – М : Вече, 1999 – С 18.
3. Бессонов Б Н Идеология духовного подавления М : Мысль, 978 – С. 123.
4. Proto L. Who’s pulling your strings? How to stop being manipulated by your own personalities – Wellingboroug: Thorsons, 1989. – P. 53.
5. Riker W.H. The Art of Political Manipulation – New Haven: Yale University Press, 1986. – P. 114.
6. Шостром Э «Анти-Карнеги», или Человек-манипулятор – М : Попурри, 4 – С. 70.
7. Доценко Е Л Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита – М : Юрайт, – 44 с.



Hakimova Fazolat Xoshimovna,
Buxoro davlat universiteti, Tarix va yuridik fakulteti,
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida o'qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA TORTINCHOQLIK FENOMENINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar guruhlarida ijtimoiy psixologik moslashuv shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari va bu jarayonda bolada kechadigan noto'g'ri psixologik rivojlanishlarni zina testi va M.A.Panfilovning kaktus metodlari xulosalaridan olingan natijalarga ko'ra yani tortinchoqlik, uyatchanlik, jizzakilik, o'jarlik kabilarni psixokorreksiya qilish haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: psixokorreksiya, konstruktiv muloqot, korreksion buzilish, ijtimoiy taraqqiyot, munosabat, agressivlik, o'jarlik, tortinchoqlik, ijtimoiy psixologik moslashuv, qaysarlik, jizzakilik, o'zini moslashtirish, o'zini chetga olish.

ОСОБЕННОСТИ ФЕНОМЕНА ЗАСТЕНЧИВОСТИ У ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности формирования социально-психологической адаптации в группах младших школьников и выявление пороков психологического развития, протекающих у ребенка в процессе прохождения теста лесенка и М.А. Панфиловой результатам, полученным из выводов о методах кактуса, то есть о психокоррекции таких состояний, как робость, застенчивость, жизнерадостность, упрямство.

Ключевые слова: психокоррекция, конструктивное общение, коррекционное расстройство, социальное развитие, отношение, агрессивность, застенчивость, социально-психологическая адаптация, упрямство, самоадаптация, самоустранение.

FEATURES OF THE PHENOMENON OF SHYNESS IN CHILDREN OF PRIMARY SCHOOL AGE

Abstract: In this article, the specific features of the formation of social psychological adaptation in groups of students of junior school age and the incorrect psychological development of the child in this process, according to the results obtained from the conclusions of the Zina test and M.A. Panfilova's cactus methods, i.e. shyness, shyness, shyness, It is explained about psychocorrection of stubbornness.

Keywords: psychocorrection, constructive communication, correctional disorder, social development, attitude, aggressiveness, stubbornness, shyness, social psychological adjustment, stubbornness, self-adjustment, self-removal.

Kirish. Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar rivojlanishi va tarbiyasi – bir butun va uzluksiz jarayon bo'lib, u doimo psixolog, pedagog va ota-onalarning diqqat etiborida bo'lishi zarur. Bola qanchalik muvaffaqiyatli rivojlanayotganligini ijtimoiy taraqqiyot yo'lini egalash jarayonida qanday to'siqlar uchrashi mumkinligini oldindan tushunish malakaviy yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham hurmatli prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Bolalar bizning kelajagimiz, maktabgacha ta'lim esa ertangi kunga zamindir” deb o'z strategik chiqishlarida aytib o'tganlar. Bolalarni komil inson bo'lib shakllanishida maktabgacha ta'lim va o'rta talim maktablarining o'rni beqiyosdir. Har bir bolaning maktab ostonasiga oyoq qo'yishi bu bir nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi.

Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni, vaholanki, uz shaxsi uchun zarur bo'lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart davrga o'tadi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko'paygan bo'ladi. Ya'ni u o'z obro'sini endi nafaqat oila a'zolari o'rtasida, aksincha, jamiyat o'rtasida oila obro'sini o'z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi. Ruhiiy muhiti sog'lom oila a'zosi bo'lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo'lmasin bola uchun jiddiy qiynchiliklar tug'dirmaydi. Chunki maktabda o'qituvchi hamma bolalarga bir ko'z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoygacha qarash qilmasdan, maktab uning o'zi uchun kerak bo'lgan burch, sifatida qaragan ma'qul. Chunki, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burch sifatida qarashga o'rganib boradi.

Kichik maktabgacha yoshdagi bolalardagi tortinchoqlik va uyatchanlik, agar u boshqa odamlarning fikrlariga juda ko'p e'tibor qaratadigan bo'lsa, bolaning ichki holati. Bola atrofidagi odamlarni hukm qilish uchun keraksiz ravishda sezgir bo'ladi. Shu sababli, uning tashqi qiyofasi yoki harakatiga nisbatan tanqidni xavf ostiga qo'yadigan odamlar va vaziyatlardan o'zini himoya qilish istagi. Natijada, bola soyasida qolishga harakat qiladi va uning shaxsiyatiga ortiqcha e'tibor bera olmaydigan munosabatlardan qochadi.

Ajablanarlik erkinlikdan ixtiyoriy ravishda mahrum etish sifatida qaralishi mumkin. Bu qamoqxonaga o'xshaydi, mahbuslar so'z erkinligi, aloqa erkinligi va boshqalar. Aksariyat odamlar, boshqacha qilib aytganda, cheklangan his qilishadi. Ushbu harakatni bajarishdan oldin, biror harakatning mumkin bo'lgan oqibatlarini baholashga imkon beruvchi o'ziga xos tabiiy himoya vositasi. Odatda bolalarda uyatchanlik o'zini past darajaga ko'taradi. Uyatchang bolalar o'zlarining ayrim fazilatlarini yoki qobiliyatlarini qadrlashi mumkinligidan qat'iy nazar, ular asosan o'zini o'zi tanqid qilishadi. Kam o'ziga-o'zi hurmat qilishning sabablaridan biri o'z-o'zidan yuqori talablardir. Ular doimo ular o'zlari talab qiladigan darajadan pastroq.


Ota-onalar va bolalarning ideal munosabatlari kichik maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsiy ahamiyatga ega bo'lishi, o'zlarining ahamiyatiga ishonchni mustahkamlashi kerak. Ba'zi psixologlar uyatchanlik genetik jihatdan shartli deb hisoblashadi. Hayotning birinchi haftalaridan boshlab, bolalar bir-biridan hissiy farq qiladi: ba'zilari yig'layotgan, ruhiy o'zgarishlarga ko'proq moyil. Bunga qo'shimcha ravishda, bolalar dastlab tabiatdagi temperament va aloqalar uchun farq qiladi. Keyinchalik, bu xususiyatlar o'sishi va barqaror yurish-turish uslubiga aylanishi mumkin. Noyob sezgir nerv tizimiga ega bo'lgan bolalar uni butun qalbga qabul qilishadi. Shunga ko'ra, har bir narsaga juda ehtiyotkorlik bilan yondashish va doimiy ravishda qayta tiklanish istagi paydo bo'ladi.

Ijtimoiy tajribani olish genetik jihatdan aniqlangan bir qator xatti-harakatlar modellarini to'liq shakllantirish imkonini beradi. Tabassumni yoqtiradigan bolalar, ko'pincha o'zlariga tabassum qiladilar. Ko'pincha ularning qo'llarida kichkina yoki jim bolalar bilan taqqoslaganda kiyiladi. Uyatchanlikning rivojlanishining boshlang'ich sabablari bolalarning his-tuyg'ulari, shuningdek, bu his-tuyg'ularni muayyan shaxs tomonidan qanday algilandi'gina bog'liq. Agar ota-onalar bolalar bilan muloqot qilishni o'rgatishmasa, ular ehtimol uyatchan bo'lib o'sadi. Bolaning shaxs sifatida shakllanishining dastlabki bosqichlarida uning kattalar bilan muloqoti katta ahamiyatga egadir. U o'ziga baho berishda to'lig'icha uni tarbiya qilayotgan kishilarning fikridan mo'ljal oladi. Ota-onalardagi qo'pollik, keskinlik, bechidamlik kichkina odamchada ma'lum bir ijtimoiy vaziyatlarda tortinish kabi javob reaksiyasini yuzaga keltiradi.

Metod. Shaxs rivojlanish jarayonida turli o'zgarishlarni boshidan o'tkazadi. Turli xarakterga ega bo'lgan obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida xususan maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar xulq atvorida o'zgarishlar, jumladan uyatchanlik, agressivlik, o'jarlik, tortinchoqlik, o'quv jarayonlariga moslasha olmaslik kabi holatlar kuzatiladi. Bu kabi xususiyatlardan uyatchanlik va tortinchoqlik haqida to'xtaladigan bo'lsak, bolalar tabiatini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, uyatchanlik va tortinchoqlik xususiyatlari maktab yoshigacha bo'lgan bolalar(5-6 yosh) va kichik maktab yoshi(1-4 sinflar) davrida ko'proq bo'lishini quyidagi diagramma orqali ham bilib olishimiz mumkin.

Zina metodi birinchidan to'rtinchi sinfgacha bo'lgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni aniqlash testidir. Bu test orqali bola o'zidagi imkoniyatlarni, hozirgi ahvolini anglab yetadi. Haqqoniy “Men” bilan, maqsad qo'yganidagi paydo bo'lgan “Men”iga o'zini solishtiradi. Haqqoniy ichki “Men”i bilan orzusidagi “Men”ining mos kelishi bolaning ruhiyatidagi kuchini ifodalaydi. Bolaning o'ziga ishonchi o'z resurslarini to'g'ri baholay olishi orqali shakllanadi. Resurslariga katta baho berish ota-ona tomonidan ortiqcha maqtovlar sababli paydo bo'layotgan bo'lishi mumkin. Resurslariga past baho berish esa, otaona tomonidan bolaga past nazar bilan qarash orqali bo'lishi mumkin. O'qituvchiga ikkala holat ham noqulaylik tug'diradi. O'ziga haqqoniy “Men”idan yuqori baho berayotgan bola va ota-ona o'qituvchini past baho qo'yishda ayblaydi. O'ziga ishonch tuyg'usini paydo qilish uchun haqqoniy “Men”i past bolaga biroz baland baho qo'yishi, uni maqtashi ota-ona tomonidan “bolaga qattiqqo'l bo'lavering” degan talabga ham olib kelishi mumkin. Bolaning o'ziga yaxshi baho berishi o'ziga ishonch, atrofdagilarning mehri, hurmatiga sazovor ekanligidan

dalolat beradi. O'ziga past baho berish esa, o'zini ayblash, yomon ko'rish, atrofdagilaridan qo'llab-quvvatlashga sazovor bo'lmaslik tuyg'ularini ifodalaydi.



1-rasm. Zina testi va M.A.Panfilovning kaktuz metodi natijalari

Buxoro shahar 7- va 14- sonli o'rta ta'lim maktablari(1-4 sinflar)miqyosida

1. o'ziga past baho berish;
2. o'ziga adekvat baho berish;
3. o'ziga yuqori baho berish.
4. o'jarlik
5. tortinchoqlik

Yuqoridagi ma'lumotlardan ya'ni Zina testi va M.A.Panfilovning kaktuz metodi natijalariga asosan uyatchan va tortinchoq bolalarning o'zini o'zi baholashda va boshqalarning baholashlarida farq kuzatiladi. Yana boshqa bir keskin farq bolaning tarbiyachi tomonidan baholanishida namoyon bo'ladi. Uyatchan bo'lmagan bolalarda bunday buzilishlar kam kuzatiladi va anchagina zaif ifodalanadi.

Uyatchan bola – bu shunday bolaki, bir tomondan, boshqa odamlarga yaxshi munosabatda bo'ladi, ular bilan muloqotda bo'lishga harakat qiladi, boshqa tomondan esa o'zini va o'z kommunikativ ehtiyojlarini ko'rsatishni xoxlamaydi, bu o'zaro munosabatlarda kelishmovchilikka olib keladi. Bunday kelishmovchiliklarning sababi uyatchan boladagi o'ziga bo'lgan munosabat xususiyatlariga bog'liqdir. Bir tomondan, bola o'zini-o'zi baholashning yuqori darajasiga ega bo'ladi, o'zini eng zo'r deb hisoblaydi, ikkinchi tomondan esa – boshqa odamlarning, ayniqsa begonalarning o'ziga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishiga ko'zi yetmaydi. Shu sababli ular bilan muloqotda uyatchanlik yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Uyatchan bolaning o'z qadr-qimmatiga bo'lgan ishonchsizligi boshqa odamlar uchun uning shakllanayotgan motivatsion ehtiyoj sohasini berkitib qo'yadi. Hamkorlikdagi faoliyat va mukammal muloqotda bolaga o'z ehtiyojlarini to'laqonli qondirishiga imkon bermaydi.

Uyatchan bolalarning o'ziga bo'lgan munosabati o'zaro hatti-harakatlarning va o'zini baholashning har qanday ko'rinishidagi o'z shaxsiga e'tibor qaratishning yuqori darajasi bilan xarakterlanadi. Bola bajaradigan hamma narsa, go'yoki boshqalar ko'zi bilan baholanadi va bu, uning nazdida o'z shaxsiyatining qadr-qimmatiga xavf soladi. O'z "Men"i haqida yuqori sezuvchanlik ko'pincha hamkorlikdagi faoliyat va muloqot mazmuniga to'sqinlik qiladi. E'tirof va hurmat motivlari, bilimga va ishga doir motivlardan ustun holda, bola uchun hamisha eng asosiysi sifatida namoyon bo'ladi, bu o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga va boshqalar bilan mukammal muloqot qilishga to'sqinlik qiladi. Fe'l-atvori ma'lum bo'lgan yaqin odamlar bilan muloqotda uning sezuvchanligi soya ortiga berkinadi, begonalar bilan munosabatda esa, xulqning himoya shakliga ega holda, yani eng asosiy o'rinda namoyon bo'ladi, bu shakl «o'zidan ketish»,

ba'zan esa «loqaydlik niqobi» deb ataladi. O'zining o'jizligidan qattiq tashvishlanish bolani cheklab qo'yadi, gohida unga o'zining eng yaxshi imkoniyatlarini ko'rsatishga, o'z kechinmalarini namoyon etishga imkon bermaydi. Lekin bola atrofdagilarning baholashlarini kutishni to'xtatgan hollarda, boshqa uyatchan bo'lmagan tengdoshlari singari u ham juda ochiq va kirishuvchan bo'ladi.

Natijalar. Uyatchan bolalar ko'pincha yangi munosabatlardagi muammolarni keskin hal qiladilar – ular bunday munosabatlardan kechadilar. Ular rad etilish xavfiga qarshi bormaydilar, yakkalanishni afzal ko'radilar. Ammo odam o'z hayotida muhim munosabatlar bog'lash uchun bu xatarga qarshi borishi lozim. Aslida ko'plab uyatchan bolalar suhbatlashishni va kulishishni xohlaydilar. Sukutli g'azab – ularning jamiyatning iltifotsizligiga qarshi odatiy reaksiyasi, garchi bu iltifotsizlikka o'zlari aybdor bo'lsalar ham.

Bolalarda namoyon bo'layotgan yuqoridagi hissiyotlar bilan birgalikda, hozirgi kunda jamiyatda kam o'rganilgan va shu bilan birga, jamoada ayniqsa bolalar orasida ancha keng tarqalgan tortinchoqlik hissi ham bola shaxsi rivojlanishida global muammo hisoblanadi.

Tortinchoqlik haqida ko'p psixologlar turlicha fikrlar bildirganlar. Masalan Stenford “insonlar oldida namoyon bo'ladigan qurquv” degan bo'lsa ba'zi bir ilmiy lug'atlarda esa berkinish ko'rinmaslik qo'rquv kabilarda sifatida kelgan.

Tortinchoqlik hissi bolalarga qattik ta'sir etishi natijasida ular o'zlarini idora qila olmay hatti-harakatida ta'biylik yo'qoladi mimika va ovoz tovushlarida ham o'zgarish paydo bo'ladi. Tortinchoq bolalar jamoa orasida iloji boricha ko'rinmaslikka harakat qilishadi. Do'stlari sinfdoshlari bilan bo'lgan muloqotda o'zini bitta qolipga solib turishi natijasida bunday bolalar sekin asta o'zini odamlardan olib qochadilar. Agar bu holatlar kattalar tomonidan befarq qoldirilsa bola shunday holatda ulg'ayib borsa tortinchoqlik zo'rayib buning oqibatida og'ir nevroz holatiga olib keladi.

Tortinchoqlik hissinin boshdan kechirayotgan bolada 3 xil ta'sirlanishni ko'rishingiz mumkin:

1. Tashqi hatti-harakatlarida namoyon bo'layotgan tortinchoqlik
2. Fiziologik alomatlari
3. Hijolat bo'lish va o'zini noqulay his qilish

Xulosa va tavsiyalar. Xo'sh bunday holatda nimalar qilishimiz mumkin masalan: bolalar bilan psixokorreksiya metodlarini amalga oshirish bilan birgalikda to'g'ri muloqot ko'nikmalarini shakillantirish, bolalarda atrofdagi odamlarga nisbatan qiziqish uyg'otish, kattalar ya'ni ota - onasi bilan birgalikda o'qituvchi va tarbiyachilari ham bolaning muloqotga kirishuvchanligini rivojlantirish uchun hamkorlikda harakat qilishlari ayni muddaodir. Bolaning erishgan muvaffaqiyatini sezish, sinfdagi xayrixoh munosabatlarni yaratish, o'zaro yordamni rag'batlantirish, shaxsiy namuna bilan o'ziga tortish, kichik yoshdagi o'quvchilar bilan do'stona muloqot usulini qo'llash orqali bolalarda moslashuvchanlik xususiyatlarini shakillantirib borishimiz mumkin. Bolalarda moslashuvchanlikni shakillantirishda psixokorreksiya metodlarining ham o'rni katta. Psixokorreksion tadbirlar rivojlanishdagi og'ishlarni to'g'rilashga yo'naltirilgan va bu usuldan asosan bolalar, o'quvchilar va o'smir yoshlarda qo'llanilyapti. Bolaga o'tkaziladigan har qanday psixologik ta'sir faqatgina ortda qolgan bosqichni korreksiya qilishgagina qaratilgan bo'lmay, ortda qolishni oldini olishga, uyg'un rivojlanishga yo'l ochishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, korreksion rivojlantiruvchi dastur 3 ta vazifani bajarishi lozim:

1. Korreksion buzilish va ortda qolishni tuzatish.
2. Profilaktik –buzilish va ortda qolishni oldindan aniqlash.
3. Rivojlantiruvchi-taraqqiyot mazmunini boyitish, optimallashtirishga qaratilganlik.

Shu 3 ta dasturni birgalikda olib borilishi kutilgan natijalarni berishi mumkin.

Psixokorreksiya ham keng tarmoqli bo'lib o'z ichiga art terapiya, musiqa terapiya, o'yin terapiya, ertak terapiya, psixogimnastika kabilarni oladi. Hozirgi kunda asabiy, o'ziga ishonmaydigan, qo'rqq, xavotirligi kuchli bo'lgan, urushqoq, nutqida nuqsoni bor bo'lgan bolalar bilan ishlashda ularda bu jarayonlarni koreksiya qilishda ertak terapiyadan keng qo'llanilmoqda va bu usul ijobiy tomonga o'z foydasini ko'rsatmoqda. Bu usulni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun ham keng targ'ib qilinsa foydadan xoli bo'lmas edi. Chunki bolalarning asosiy vaqti maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va maktabda o'tadi.

Maktabgacha ta'lim ped tarbiyachilari va o'qituvchi, ota –onalar uchun mashhur chet el psixologlari N.I Kazlov, I.V Vachkov va boshqalar tomonidan ertak terapiya to'plamlari chiqarilgan va bunday to'plamlarda tirnoq tishlaydigan, shirinlikxo'r, enurez(siyg'oq), ichi qotadigan, gap qaytaradigan, televizor ko'p ko'radigan, qo'l so'rish, o'jar, nerv kasalliklari bor bolalarda ulardan bunday odatlarini korreksiya qiluvchi hikoyalar jamlangan.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy Taraqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘taramiz”(Toshkent Uzbekiston 2019y).
2. G‘oziyev E.Yosh davrlar psixologiyasi, Toshkent, 2010 y.
3. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat, Toshkent, 2018 y.
4. Anastazi A. Differentsialnaya psixologiya M,: EKSMO-Press,-2001.
5. Vachkov I.V.Skazkoterapiya(razvitiye samosoznaniya cherez psixologicheskuyu skazku) 2007g
6. Barotov Sh.R.Psixologik xizmat, Toshkent, 2018 y.
7. Hakimova Fazolat Khoshimovna Психические и эмоциональные состояния у детей. Вестник 23 (79), 358-361.
8. Hakimova Fazolat Khoshimovna Психология: происхождение и структура научного факта. Вестник интегративной психологии 19 (2), 115-119.
9. Hakimova Fazolat Khoshimovna Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоий психологик мослашув шакилланишида психоккорекция методларининг турли Психология илмий журналы 4 (5), 128-130.
10. Hakimova Fazolat Khoshimovna Мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги болаларда мослаша олмасликнинг турли курунишларини психологик хусусиятлари. “Тафаккур ва талқин” 5 (2), 776-779.
11. Hakimova Fazolat Khoshimovna Бола шахсининг шакилланишида оиланинг урни “Тафаккур ва талқин” 3 (2), 452-455.



*Hayitov Oybek Eshboyevich,
Psixologiya fanlari doktori, professor*



*Kabulova Saboxat Baxodirovna,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*

SHAXS PROFESSIONAL SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR GURUHI VA ULARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada shaxs professional shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar guruhining shaxsiy differentsiallar asosida faktor tahlili qilingan. Shuningdek унда, shajara vakilining kasbiy rollar pozitsiyasini bir semantik maydonda joylashuvi “Men+Otam” yoki “Men+Onam” timsollariga tayanib bayon qilingan.

Kalit so'zlar: inson kapitalini rivojlantirish, shaxs tuzilmasi, oilaviy shajara, oilaviy meros, shajara vakili, nasabnoma-modeli, jins, ijtimoiy-biologik dilemma, irsiyat, shaxsiy differensial, semantik maydon.

ГРУППА ФАКТОРОВ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ЛИЧНОСТИ, И ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА

Аннотация: В статье произведен факторный анализ группы факторов, влияющих на профессиональное становление человека, на основе личностных дифференциалов. Также описывается положение профессиональной роли представителя родословной в одном семантическом поле на основе символов «Я+Отец» или «Я+Мать».

Ключевые слова: развитие человеческого капитала, структура личности, генеалогическое древо, семейное наследие, представитель генеалогического древа, генеалогия-модель, гендер, социально-биологическая дилемма, наследственность, личностный дифференциал, семантическое поле.

THE GROUP OF FACTORS AFFECTING PERSONAL PROFESSIONAL FORMATION AND THEIR PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS

Abstract: The article provides a factorial analysis of a group of factors influencing the professional development of a person, based on personal differentials. The position of the professional role of the representative of the pedigree in one semantic field is also described on the basis of the symbols "I + Father" or "I + Mother".

Keywords: human capital development, personality structure, family tree, family heritage, family tree representative, genealogy model, gender, socio-biological dilemma, heredity, personality differential, semantic field.

Mavzuning dolzarbligi. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo'nalish bo'yicha “Inson qadri uchun – 100 ta maqsad” belgilangan bo'lib, uning inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan bo'limida “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”, shu jumladan, “Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash”ga (70-maqsad) [1] alohida urg'u berilgan. Shuningdek, “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirish yo'lida “Yoshlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O'zbekiston – Uchinchi Renessans” g'oyasining ro'yobga chiqarilishini ta'minlash”ga (71-maqsad) [1] qat'iy kirishilgan bo'lib, bu o'z navbatida yoshlarni professional shaxs sifatida qaror topishida muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy omillar ilmiy tadqiqi zaruratini keltirib chiqaradi.

Zero, O'zbekistonda oila shajarasi va oilaviy merosning shaxs professional o'sishi va shakllanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlarini aniqlash, bo'lajak va (yoki) yosh mutaxassislarining kasbiy mahoratlari shakllanishiga yanada ko'proq e'tibor qaratish, ularni keyinchalik o'z kasblarida samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni “ijtimoiy-psixologik merosxo'rlik”, xususan, “oilaviy merosxo'rlik (jamiyat tomonidan tan olingan va andoza sifatida foydalanish mumkin bo'lgan oilaviy sulolalar tajribasi)”ga egalik ruhi yordamida rivojlantirish zamonamizning **dolzarb** masalalaridan biridir.

Muhokama va natijalar. Taraqqiyot strategiyasiga monand dadil odimlayotgan Yangi O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasi, ularni Vatanga sodiq va munosib farzand bo'lib yetishishida, nafaqat pedagogik soha mutaxassislari, balki ota-onalar ham birdek mas'uldirlar. Ijtimoiy kutilmalarga qaraganda, aynan bugungi davr bolalari ongida “oilaviy shajara”, “kasbiy sulola”, “oilaviy meros” xususidagi qadriyatlarni singdirilishida ta'lim-tarbiya jarayoni mas'ullariga qaraganda, ota-onalar zimmasiga ko'proq mas'uliyat yuklanmoqda. Zero, oilaning kattalari o'z farzandlari ongida “oilaviy meros” hamda “oilaviy kasbiy sulola (masalan, bir kasbda – avval bobosi, keyin o'g'li, hozirda nabirasi muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan sharoitlar)” haqidagi professional tendensiyalar to'g'risidagi birlamchi tasavvurlarni ilk go'daklik davridanoq maxsus tarzda yetkazishi, ularni tom ma'noda barkamol avlod, ya'ni ertangi kunda malakali va e'tiqodli mutaxassis, jumladan, professional kadr bo'lib yetishib chiqishida rol o'ynaydigan asosiy omillardan biridir [2; 128].

Afsuski, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan qat'iy siyosatga qaramay, joylarda amaldagi ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda faqatgina zarur bilim va birlamchi ko'nikmalar (Hard Skills) berish bilan cheklanib qolinmoqda. Yosh mutaxassislar ish joylariga kelgan paytlaridagina ma'lum vaqt oralig'ida o'z kasb malakalarini (Soft Skills) shakllantirish ustida ishlamoqdalar. Bunday hol esa yosh xodimning ish joyiga adaptatsiya muddatini uzaytirishga, hatto ayrim paytlarda yosh kadrlar qo'nimsizligiga ham sabab bo'lmoqda. Shu sababdan mazkur izlanishimiz doirasida bo'lg'usi mutaxassislarning “ota meros” kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishini ta'minlashga xizmat qiluvchi, ya'ni ularning professional o'sishiga ta'sirini ko'rsatuvchi “oilaviy shajara” va “oilaviy meros” fenomeniga xos psixologik mezonlarni, jinslarni identifikatsiyasi muammosini tadqiq etdik.

Keng qamrovli psixologik tadqiqotlar tahlilidan ko'rinadiki (masalan, S. Scarr, K. McCartney), oilaviy ijtimoiylashuvda bolalar ota-onasidan nafaqat genetik asoslangan qobiliyatlarni, balki ijtimoiy muhitda intensiv rivojlanishi uchun zarur bo'ladigan qator psixologik xususiyatlarni ham o'zlashtiradi [3; 424-435].

V.A. Geodakyan konsepsiyasiga ko'ra, jins – bu ko'proq evolyusiya usulidir. Tadrijiy rivojlanayotgan tizimning barqarorligi, bir tomondan to'plangan foydali ma'lumotlarni saqlash va ikkinchi tomondan, muhitning o'zgaruvchan talablariga moslashishga layoqatli bo'lish uchun yangilarini olish orqali qo'llab quvvatlanadi. Shunday qilib, jinslar biri konservativ bo'lishi, tizimning “yadrosi”ni ifodalashi kerak va ikkinchi jins esa operativ, o'zgaruvchan “qobiq”li bo'lishi kerak [4; 171-188].

Fikrimizcha, ikki jins – bu ikki xil axborot manbaidir, ya'ni biri (ayollarga xosi) oldingi avlodlardan o'tib kelayotgan ma'lumotlarni saqlaydi va farzandlarga uzatadi, boshqasi (erkakka oid) esa ayni muhitda ustuvor bo'lgan axborotlarni yosh avlod ongiga singdiradi. Har ikkala jins vakillari, ya'ni ota-onalarning o'zaro hamkorligi evolyusion rivojlanayotgan tizim elementi (farzand)ni muvaffaqiyatli shakllanishini ta'minlaydi. Zero, evolyusion “innovatsiyalar” dastlab “erkak maydoni”da (yuksak hislarida, kechinmalarida, bir so'z bilan aytganda hayotiy tajribasida) sinovdan o'tkaziladi va shundan keyingina “ayol maydoni”ga uzatiladi. Bunda “erkak-ota” jinsining missiyasi – “qidirish va sinab ko'rish” tamoyilidan kelib chiqib amalga oshiriladi va u “topilmalar topadigan”, lekin bunda muqarrar ravishda tez-tez xatolar qiladigan – tizimning maxsus operatsion elementi sifatida namoyon bo'ladi. Tizimning “konservativ elementi”, ya'ni “ayol-ona” tomonidan esa faqat topilmalar qabul qilinishi, topilmalarni saqlashi va mustahkamlashi, zarur hollarda “evolyusion element – farzand”ga uzatishi – ayol jinsining “missiyasi” hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda oilaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, ota-onalarning kasbiy mavqei, ijtimoiy aloqalar tizimi, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy resurslari farzandning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

V.A. Geodakyan nazariyasiga ko'ra, “barqaror tashqi muhit – o'zgaruvchan sharoitga moslashishga yordam beradigan yangi fazilatlariga ega bo'lish zaruratini yo'qqa chiqarib boradi va shu tufayli jinslar orasidagi farqlarni keskin kamaytiradi [4; 171-188]. Bizningcha, ushbu nazariya muallifi, biologik nuqtai-nazardan identifikatsiyalanish pozitsiyasida haq bo'lsa-da, uning ijtimoiy jihatdan namoyon bo'lishi “erkak maydoni”ni zaiflashtiradi va hatto jinslar o'rtasida qarama-qarshiliklarni kuchayishiga olib keladi (masalan “er – nimaga kerak? trendi” va hokazo).

Shu bois ham tadqiqot ishimizda, “Shaxsiy xususiyatlarning “oilaviy meros” qilib olinishi nazariyasi – professional shaxsni shakllantirish muammosini hal qilishda qanday ahamiyat kasb etadi?” – degan pozitsiyada, V.A. Geodakyan nazariyasini ijtimoiy-psixologik darajada haqligini sinab ko'rishga qaror qildik. Nazarimizda, “ijtimoiy-psixologik meros va (yoki) irsiyat” mavjudligi haqida fikr yuritish uchun ma'lum biologik, fiziologik va psixologik asoslar bor.

Masalan, A.A. Aleksandrovga ko'ra, “Psixogenetikada irsiyat deganda – tirik organizmlarning genlar yordamida o'z xususiyati va funksiyalarini ota-onadan avlodlarga o'tkazishdek qobiliyatdan iborat muhim xususiyati tushuniladi [5; 6].

Bu yerda biz, “ijtimoiy-psixologik irsiyat” deganda – ota-onalardagi ustuvor shaxsiy xususiyatlar, ayniqsa “ota-kasb”ga doir kompetensiyalarning farzandlarga “nogenetik” ravishda taqlid va (yoki) identifikatsiya mexanizmlariga asoslanib uzatilishini nazarda tutish va tushunish lozimligi fikrini ilgari suramiz.

S.S. Lomakina o‘z izlanishlarida, “Psixologik “meros” hodisasi xususida mavjud qarashlar tadqiqi bilan shug‘ullanishdan avval, ijtimoiy va biologik munosabatlar dilemmasini hal qilishga harakat qilib ko‘rgan. Uningcha, odam – bu murakkab, o‘zini o‘zi tashkil etuvchi, tirik tizim, u ham biologik, ham ijtimoiy kontekstga taalluqli bo‘lib, uning individualligi murakkab va ko‘pmiqyosli o‘zaro hamkorlik maydonida shakllanadi hamda “ijtimoiy-biologik” dilemma muammosi hal etilishini qiyinlashtiradi. Shu bois ham muammoga fanlararo yondashuvni qo‘llash ahamiyatli sanalib, bu o‘z navbatida inson (shaxs) rivojlanishidagi biologik va ijtimoiylik o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntiruvchi qarashlarni qayta ko‘rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradi” [6; 31].

Bizningcha ham, aynan shunday yondashuv “Abadiy qarama-qarshilik koevolyusiya g‘oyasi” qonuniyatini “Tabiiylik va ijtimoiylikning ajralmas birligi” qonuniyati bilan almashtirilishiga zamin yaratadi. Oxir oqibat, tizim (genotip) farzandning oilaviy tarixiy o‘tmishi (oilaviy merosi, ya’ni ajdodlari kasbiy faoliyati, yutug‘i va akmeotexnologiyalari) uni individual rivojlanish dasturida muhim ahamiyat kasb etadigan, o‘ziga xos ijtimoiy sharoitlarga moslashtirilgan ma’lumotlarni ixcham tarzda o‘zlashtirilishiga sabab bo‘ladigan yaxlit platforma sifatida gavdalanadi.

Shu bois, dissertatsion tadqiqotning ilk bosqichida o‘qituvchilar, vrachlar, san’atkorlar, hunarmandlar, zardo‘zlar va boshqalar sulolasining asoschilari haqidagi nasabnoma (shajara tarixi)-modelini yaratishga harakat qildik.

Keyingi bosqichda esa avlodlarning shu modelga qanchalik mos kelish va (yoki) kelmasligini aniqlashga qaratilgan maxsus psixologik uslublar ishlab chiqildi hamda “ijtimoiy-biologik” dilemma muammosini hal etishga harakat qildik.

Nasabnoma-modeliga muvofiq, farzandning ota-onalar bilan identifikatsiya qilish hodisasi tafsilotlarini, dastlab, Ch. Osgudning “Shaxsiy differensial” (ShD) metodikasi yordamida olingan ma’lumotlar asosida aniqladik. Bunda biz, V.F. Petrenkoning universal shaxsiy semantik differensialni mavjud emasligi va har bir aniq holatda semantik makon qurish maqsadga muvofiqligi haqidagi xulosalariga tayandik [7; 84].

Nasabnoma-modeliga muvofiqlikni tekshiruvchi ShD metodi shaxsiy “Men”ning “ota-onalar obrazlari”ga yaqinlik darajasini, ya’ni farzand o‘zini ota va onaning obrazi bilan identifikatsiya qilinishini, shuningdek “hozirgi Men” va “ideal Men”ni taqqoslashda o‘z o‘zidan qoniqish darajasini aniqlash imkonini berdi. Psixologik tahlil qilinayotgan “ota-kasb” pozitsiyalarining o‘xshashligi va (yoki) farqi (identifikatsiya darajasi) semantik makon ichidagi “ota-kasb” pozitsiyasiga mos keladigan nuqtalar orasidagi masofa bilan aniqlandi. “Men+Otam” va (yoki) “Men+Onam” kasbiy rollari pozitsiyasining mos kelishi darajasi, farzandlarning “oilaviy merosni” (ota-ona oilasi tajribasini) qabul qilish ko‘lami bilan hamda ota-onaning qadriyat yo‘nalishlari va munosabatlarini aks ettirishida isbotlangan.

Faktor tahlilini o‘tkazishda butun tanlamaning ma’lumotlari ($N_{ayol}=29$, $N_{erkak}=28$) hisobga olindi, chunki ba’zi hollarda oilaviy ajrashishlar yoki ota-onadan birining o‘limi tufayli to‘liq bo‘lmagan oila mavqei baholash jarayonini qiyinlashtirdi. Sababi, nasabnoma-modeli asosida sinaluvchilar o‘z ota yoki onalarini yaxshi bilmasliklari va uni baholay olmasliklariga ishora qiladi.

Shunday qilib, shaxsiy differensial ma’lumotlar to‘plami asosida, “men”, “ona”, “ota”, “mening idealim” obrazlari 2 qutbli 21 juft sifatlar bo‘yicha ketma-ket baholandi, faktor tahlili o‘tkazildi. Ustuvorlikdagi 4 ta omillar guruhi aniqlanib, yuklamasi yuqori omillar ajratildi hamda jadval ko‘rinishiga keltirildi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqotning ko‘rsatishicha, xususiy qiymat grafigi mumkin bo‘lgan omillar sonini aniq shakllantiradi. Biroq, dastlabki tuzilma unchalik aniq darajada namoyon bo‘lmadi. Kayzer normallashtirish bilan Varimaks aylanish usuli yordamida biz 4 ta omilning haqiqiy tuzilishini modellashtiramiz.

Shu o‘rinda biz, faktor tuzilmasini parallel namunalarida barqarorlik uchun sinovdan o‘tkazdik. Buning uchun namuna tasodifiy ravishda 2 qismga ajratildi va avval, birinchi qism uchun, so‘ngra ikkinchi qism uchun ketma-ketlikda faktor tahlili amalga oshirildi.

Qo‘lga kiritilgan omil tuzilmalari dastlabki natijalar bilan bir xil bo‘lib chiqdi. Shuningdek, butun tanlov uchun ham faktor tahlili o‘tkazilib, to‘rttala omillar guruhi uchun har bir shajara vakili-sinaluvchi bo‘yicha omil ballari hisoblandi. Tanlangan omillar umume’tirof etilgan “ijtimoiy-biologik” dilemma qonuniyatlariga muvofiq psixologik tushunchalar bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi va biz ustuvorlikdagi

omillar guruhini “kuchli men”, “merosiylik”, “ekstraversiya” va “reaktivlik” deb shartli nomladik (1-jadvalga qarang).

Faktor tahlili natijasida qo‘lga kiritilgan yuqori yuklamali 4 ta omil nasabnoma-modeli bo‘yicha tekshirilayotgan shajara vakillarining o‘zlari, ota-onalari va “ideallari” haqidagi fikrlarini ko‘rib chiqishga va psixologik tahlil qilishga zamin yaratdi.

1-jadval.

Varimaks aylanishdan keyin faktor yuklanish matritsasi (n=57)

№	Sifatlar	Omillar guruhi				Sifatlar
	ijobiy	1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh	salbiy
<i>“Kuch men” omillari</i>						
11	dadil	0,811				dadil emas
2	kuchli	0,801				zaif
8	tobe emas	0,716				qaram
9	harakatchan	0,707				dangasa
20	mustaqil	0,701				mustaqil emas
17	o‘ziga ishongan	0,671				o‘ziga ishonmagan
12	g‘ayratli	0,572				lanj
5	qat‘iyatli	0,401				qat‘iyatsiz
<i>“Merosiylik” omillari</i>						
4	ma’suliyatli		0,765			ma’suliyatsiz
19	halol		0,674			pismiq
10	hozirjavob		0,656			hozirjavob emas
13	adolatli		0,467			adolatsiz
7	mehribon		0,461			xudbin
<i>“Ekstraversiya” omillari</i>						
6	ochiq			0,578		yopiq
1	maftunkor			0,421		yoqimsiz
3	kirishimli			0,376		kirishimsiz
18	dilkash			0,375		odamovi
<i>“Reaktivlik” omillari</i>						
21	asabiy				0,729	beparvo
15	faol				0,719	sust
14	saranjom				-0,507	besaranjom
16	do‘stona				-0,842	dushmanlarcha
Izoh: Tanlash usuli: <i>Asosiy komponentlarni tahlil qilish.</i>						
Aylanish usuli: <i>Kayzer normallashtirish bilan Varimaks.</i>						
0,3 dan katta yuqori yuklamali faqat bitta mutloq qiymat yuklanishi jadvalda o‘z ifodasini topgan va 0,3 dan kichik mutloq qiymatdagi yuklanishlarni hech biri faktorlar guruhida ko‘rsatilmagan.						

Xususan, takroriy o‘zgarishlar bilan dispersiyani tahlil qilish, bizga, omillar va obrazlarning semantik maydonda joylashuvi qanday ko‘rinish kasb etishini aniqlashga imkon berdi. Aniqlanilishicha, “Men”, “ota”, “ona”, “ideal” timsollari bir-biridan statistik jihatdan sezilarli darajada farq qilishi (ShD₁ omil: p=0,000; ShD₂ omil: p=0,005; ShD₃ omil: p=0,000; ShD₄ omil: p=0,000) bilan bir qatorda, obrazlar yuqori yuklamali omil guruhi ta’siriga qarab ham har xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Yana bir jihat, tadqiqotda, omillar bo‘yicha gender farqlari statistik ahamiyatga ega emasligi aniqlandi.

Tadqiqotning ko‘rsatishicha, (1) “Kuch men” omili guruhida ShD – “dadil-dadil emas” (,811) “kuchli-zaif” (,801) va boshqa.; (2) “Merosiylik” omili guruhida ShD – “ma’suliyatli- ma’suliyatsiz” (,765), “halol-pismiq” (,674), “hozirjavob- hozirjavob emas” (,656), “adolatli- adolatsiz” (,467), “mehribon- xudbin” (,461); (3) “Ekstraversiya” omili guruhida – ShD “ochiq-yopiq” (,578), “maftunkor-yoqimsiz” (,421) va boshq.; (4) “Reaktivlik” omili guruhida ShD – “asabiy-beparvo” (,729), “faol-sust” (,719) va boshq. yuqori yuklamaga ega sanaladi (1-jadvalga qarang).

Shunday qilib, “kuchli men” va “ekstroversiya” omillariga ko‘ra, nasabnoma-modeli bo‘yicha tekshiriluvchi 3 avlod shajara vakillarining o‘zini o‘zi baholashi ideal o‘zini o‘zi anglash g‘oyasiga yaqin, 2-

avlod shajara vakillari esa, nazarimizda, ularning “reaktivligi” dan to‘liq qoniqish hosil qilishmaydi. Umuman olganda, shajara vakillarining o‘ziga xos obrazi “nasabnoma-modeli”ga muvofiq ko‘proq otadan ko‘ra onaga yaqinroq. Demak, olingan hisob-kitoblar shajara vakilining o‘zi (jinsidan qat’iy nazar), onasi, otasi va idealining umumlashtirilgan guruh portretini semantik maydonda gavdalanirish imkoniyatini beradi. Masalan, ikkinchi omil (“merosiylik”) bo‘yicha 3-avlod shajara vakillari orasidan “ota yo ona kasbni” davom ettirishiga ko‘ra, otalarini past reytingda, onalarni esa yuqori reytinglarda tasvirlashgan va (yoki) aksincha. Faqatgina “men” va “ona” obrazining o‘rtacha ko‘rsatkichlarini solishtirganda ham, “ona” va “ideal”ni baholashda ham sezilarli farqlar ko‘rinmadi. Boshqa barcha farqlar sezilarli aloqadorlikka ega. Agar onasi tomondan kasbni davom ettirayotgan bo‘lsa, shajara vakilining o‘zi va otasi haqidagi tasavvuri “merosiylik” omiliga ko‘ra, mas’uliyatsiz, xudbin, qo‘pol, adolatsiz, dushman, samimiy. Ona esa, aksincha, vijdonli, mehribon, hamdard, adolatli, samimiy, halol inson sifatida baholanadi. Agar “ota-kasb”da bo‘lishsa buning aksidir.

Xulosa. O‘tkazilgan metodika orqali aniqlangan, to‘rtala toifa omillar guruhi bizga “nasabnoma-modeli”ga muvofiq tekshiriluvchi shajara vakillari tasavvuridagi ustuvor qadriyatlarni tahlil etish imkoniyati berdi va quyidagi xulosalarni ilgari surishga zamin yaratdi:

Birinchidan, ilmiy kategorial apparat mazmunini tashkil qiluvchi metodikalar va metodlar yordamida yosh mutaxassislarda birlamchi va zarur psixologik ko‘nikmalar majmui shakllantirildi.

Ikkinchidan, oilaviy ijtimoiylashuv jarayonida “oilaviy meros”ni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan, tanlagan kasbini (jumladan, ota va (yoki) ona kasbini – shifokor, o‘qituvchi, san’atkor va boshqalar) mohirona bajarish tasavvuriga ega bo‘lgan farzandlarda kasbiy bilimlarni o‘zlashtirishga va kasbga oid ko‘nikmalarni mustaqil tarzda rivojlantirishga oid motivatsiyasi nihoyatda yuqori sanaladi.

Uchinchidan, bunday yuqori darajadagi motivatsiya yoshlarni oilaviy shajara va (yoki) oilaviy kasbiy sulolani davom ettirish borasida “ichki intilishi”ni o‘shishga olib keladi.

To‘rtinchidan, psixologiya va akmeologiya fanlarining oxirgi yutuqlariga tayangan va interfaol uslubda tashkil etilgan dastur ishlab chiqilsa va bu dastur asosida sulolali va (yoki) sulolaga daxlsiz bo‘lgan yoshlar orasida izchil tadbirlar o‘tkazib borilsa bo‘lajak mutaxassislarning kasbga moyillik qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Beshinchidan, tayyorlangan dasturda universal jihatlarni (Soft Skills) rivojlantirish nazarda tutilsa, har qanday mutaxassislik yo‘nalishida yoshlarda kasbiy mahoratga, professional o‘shishga intilishni rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari yaratiladi.

Adabiyotlar:

1. 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi // <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Хайитов О.Э., Умарова Н.Ш. Ёшларда профессионал ўсишга интилишни ривожлантиришнинг назарий-амалий асослари (шажаралар негизи мисолида): монография [Техт] / О.Хайитов, Н.Умарова; масъул муҳаррир В.М.Каримова, Республика «Оила» илмий-амалий Маркази, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Тошкент давлат иқтисодиёт ун-ти. – Т.: «Тuron-iqbol», 2011. – 128 б.
3. Scarr S., McCartney K. (1983). How people make their own environments: A theory of genotype-environmental effects. *Child Development*, Vol. 54, 424-435.
4. Геодакян, В.А. Теория дифференциации полов в проблемах человека // Человек в системе наук / Отв. редактор И.Т. Фролов. – М., 1989. – С. 171-188.
5. Александров А.А. Психогенетика: Учебное пособие / А.А. Александров. – СПб, 2021. – 192 с.
6. Ломакина С.С. Феномен социально-психологического наследования у современных руководителей [Электронный ресурс] : Дис. ... канд. психол. наук : 19.00.05. – СПб., РГБ, 2006. – 211 с.
7. Петренко В.Ф. Основы психосемантики. – 3-е изд., доп. – М.: Эксмо, 2011. – 482 с.



Tashkiliy xulq-atvor: mehnat munosabatlarining zamonaviy jihatlari
(V.P.Basenko, B.M.Jukov va A.A.Romanovlarning qo'llanmalari haqida)

Jumayev Ulug'bek Sattorovich,

*Buxoro davlat universiteti “Psixologiya va sotsiologiya”
kafedrasi dotsenti, Psixologiya fanlari nomzodi*

V.P.Basenko, B.M.Jukov va A.A.Romanovlar tomonidan “Tashkiliy xulq-atvor” nomli o'quv qo'llanmada mehnat munosabatlarining zamonaviy jihatlari, guruh va tashkilotlardagi insonlar xulq-atvorining turli shakllari, ularni boshqarish usullari va mexanizmlari tadqiqodiga bag'ishlangan bo'lib, qo'llanmaning birinchi qismida tashkiliy xatti-harakatlar umumiy ilmiy nuqtai nazardan mehnat munosabatlari tizimi sifatida taqdim etilgan. Ikkinchi qismda ish muhitida odamlarning xatti-harakatlarini boshqarish bilan bog'liq materiallar umumlashtirilgan bo'lib, unda menejment psixologiyasiga oid va]lumotlar o'qituvchilar, shuningdek, amaliy psixologiya sohasi xodimlarini uchun xizmat qilishi mumkin.

Tashkiliy xulq-atvor - bu olingan bilimlardan inson mehnati samaradorligini oshirish uchun amaliy foydalanish maqsadida tashkilotlardagi odamlarning (shaxslar va guruhlarning) xatti-harakatlarini o'rganadigan fan. Tashkiliy xatti-harakatlar quyidagi shakllar, jihatlar va hodisalarda namoyon bo'ladi [2]:

- shaxslarning ongida shakllangan munosabatlari, qadriyatlarini, afzal ko'rishlari, moyilliklari;
- kutilmagan axborot va ijtimoiy aloqalar yuzaga kelganda jismoniy ob'ektlarga nisbatan shaxslarning xatti-harakati;
- yuzma-yuz mulohaza bilan tavsiflangan guruhlar, jamoalar va boshqa guruhlarning xatti-harakati;
- bo'limlar, bo'limlar, firmalar yoki yirik konsernlar kabi tashkiliy bo'linmalarining xatti-harakatlari;
- o'zaro bog'langan tashkilotlar guruhining xatti-harakati;
- kompaniyaning ichki va tashqi muhitining xatti-harakatlari, masalan, texnologiya evolyutsiyasi, bozorlar, raqobat, davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar.

Menejment uchta asosiy o'lchov bilan tavsiflanadi: texnik, kontseptual va insoniy. Texnik va kontseptual o'lchovlar menejmentning kompyuterlar, buxgalteriya hisobi, muhandislik yoki marketing bo'yicha bilimlarini o'z ichiga oladi. Ko'pgina menejerlar inson omilini e'tiborsiz qoldiradilar. Ular o'z qo'l ostidagilarni dangasa, asosan pulga qiziqadi, agar siz ularni xursand qilsangiz, ular yanada samarali ishlaydi, deb hisoblashadi. Insoniyat muammolari moddiy rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va mehnat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lib, bu samaradorlikni oshirishga olib kelishi kerak.

Afsuski, iqtisodiy munosabatlarning yangi sharoitlarida bu yondashuv endi ishlamaydi. Garchi bu zarar keltirmasa va tashkilot rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ma'lum natijalarni keltirib chiqarsa ham, hozirgi vaqtda zamonaviy muammolarni hal qilish uchun etarli emasligi aniq. Ushbu yondashuvning muammosi shundaki, u inson xatti-harakatlarining ko'p jihatlarini e'tiborsiz qoldiradi.

Insonning ishdagi xatti-harakati "iqtisod - xavfsizlik - mehnat sharoitlari" sxemasida nazarda tutilganidan ancha murakkab va xilma-xildir. Yangi nuqtai nazar shundan iboratki, ishchilar ancha murakkab shaxslardir va odamlarni boshqarishning amaliy usullarini ishlab chiqishdan oldin empirik tadqiqotlarni nazariy tushunish kerak. An'anaviy "inson munosabatlari" yondashuvi endi menejmentning xulq-atvor o'lchovida ustun rol o'ynamaydi. Tashkiliy xulq-atvor yondashuvi, u bilan bog'liq bo'lgan barcha bilimlar bilan, bugungi kunda boshqaruvning xulq-atvori o'lchovida ustunlik qiladi va yaqin kelajakda ham shunday bo'lib qoladi, degan haqiqatni ko'pchilik inkor etadi [3].

Tashkiliy xulq-atvorga zamonaviy yondashuv qat'iy metodologiyaga tayanadi. Xulq-atvorning sabablarini topish juda nozik va murakkab jarayon. Muammo shunchalik murakkabki, ba'zi olimlar xulq-atvorning aniq fanining mavjudligi haqida bahslashadilar. Inson xulq-atvorini boshqarish yoki manipulyatsiya qilish mumkin emas, hatto bir xil boshlang'ich sharoitlarda ham xatti-harakatlar boshqacha bo'lishi mumkin. Inson o'zgaruvchilari (tajriba, o'rganish, idrok, motivlar va boshqalar) olimlar yaratmoqchi bo'lgan nazorat elementlarini yo'q qiladi.

Tashkiliy xulq-atvor boshqaruvga barcha boshqaruvni emas, balki o'ziga xos [1] yondashuvni ifodalaydi. Shubhasiz, ushbu so'llanma (amaliy va sanoat psixologiyasi) tashkiliy xulq-atvorning nazariy va tadqiqot asoslariga katta hissa qo'shgan.

Adabiyotlar:

1. Averchenko L.K. Aloqa boshqaruvi: nazariya va ijtimoiy ishchilar uchun seminarlar. – M., 2001 yil.
2. Akulov V.B., Rudakova M.N. Tashkilot nazariyasi. – M., 1998 yil.
3. Ageev V.S., Guruhlararo munosabatlar psixologiyasi. – M., 2001 yil.
4. Aliyev. V.G. Tashkiliy xatti-harakatlar: Universitetlar uchun darslik. – M., 2004 yil.



Tadjibaeva Shaxista Mamatqulovna,
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Sport psixologiyasi va pedagogika kafedrasida II bosqich tayanch doktoranti
shohista02.07@mail.ru

SPORT FAOLIYATIDA AGRESSIV XULQ-ATVOR MUAMMOSINING KORRELYATSION TAHLILI

Annotatsiya: Mazkur maqolada agressiv xulq atvor - sportchilar faoliyatiga ta'sir etuvchi psixologik omil sifatida ekanligi va namoyon bo'lish shakllari batafsil tahlil qilingan. Sport faoliyatida agressiv xulq atvor muammosining korrelyatsion tahlili orqali muammoga doir qo'llanilgan metodikalar shkalalari o'rtasida musbat va manfiy aloqadorlik batafsil ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Jismoniy agressiya, verbal agressiya, bilvosita agressiya, negativizm, jizzakilik, sergumonlik, ranj, aybdorlik, hissi, frustratsiya, konstruktiv agressiya, destruktiv agressiya.

КОРРЕЛЯЦИОННЫЙ АНАЛИЗ ПРОБЛЕМЫ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ В СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация: В данной статье подробно анализируется агрессивное поведение как психологический фактор, влияющий на деятельность спортсменов, и его проявления. Корреляционный анализ проблемы агрессивного поведения в спорте выявил положительную и отрицательную связь между шкалами методов, используемых для решения проблемы.

Ключевые слова: физическая агрессия, вербальная агрессия, косвенная агрессия, негативизм, ревность, подозрительность, обида, вина, чувство, фрустрация, конструктивная агрессия, деструктивная агрессия.

CORRELATION ANALYSIS OF THE PROBLEM OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN SPORTS ACTIVITY

Abstract: In this article, aggressive behavior as a psychological factor influencing the activity of athletes and its manifestations are analyzed in detail. Through correlational analysis of the problem of aggressive behavior in sports activities, the positive and negative relationship between the scales of the methods used for the problem is revealed in detail.

Key words: physical aggression, verbal aggression, indirect aggression, negativism, jealousy, suspicion, hurt, guilt, feeling, frustration, constructive aggression, destructive aggression.

Mavzuning dolzarbligi. Agressiya atamasiga ta'rif berar ekanmiz, u lotin tilidan olingan bo'lib, «aggreddi» – «tajovuz qilmoq» ma'nosini anglatadi. Zamonaviy psixologiyada «agressiya» atamasiga nisbatan turli yondashuvlar mavjud bo'lib, X.Delgado, A.A.Bass, L.M.Semenyuk, G.Parens, A.Bandura, R.Uolters, Yu.Mojginskiylar tomonidan agressiya salbiy baholanadi[1]. Lekin shu bilan bir vaqtda «agressiya»ga nisbatan ijobiy yondashuvlar ham mavjudligini aytish mumkin. Jumladan, L.Bender agressiyani insonning o'z-o'zini namoyon qilishga intilishidir, deb ta'kidlaydi. Zero agressiya tushunchasining o'ziga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki, bu termin ko'plab xatti-harakat shakllarini o'zida qamrab oladi. Odamlar biron bir kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni xaqorat qiluvchi, yoki badfe'l, barcha narsani o'zi istaganidek qilishni istaydigan, yoki o'z g'oyalarni qat'iy ximoya qiladigan, yechimi yuq muammolar girdobiga o'zini giriftor qiladigan inson, deyishlari mumkin.

Agressivlik muammosi turli tadqiqotchilar tomonidan birday inson xulq-atvorining korreksiyasini taqozo qiluvchi, nomaqbul xulq shakli sifatida interpretatsiya qilinadi. Agressiyaning turli: bevosita kuch ishlatishdan, raqibni so'z bilan haqoratlab, unga tahdid qilishdan tortib boshqa bir insonni yashirincha boshqarishga, kelgusida kutilayotgan noxushliklarga sha'ma qiluvchi bilvosita tanbehlar kabi shakllari mavjud. Agressiyaning ijtimoiylashuvga bo'sunmaydigan dardmandlik darajasidagi shakllari ham kuzatiladi. Shuningdek, shunday xatti-harakatlar ham mavjudki, ular guruh ixtiloflar qatnashchilarining ayrimlari tomonidan agressiya sifatida e'tirof etilsa, boshqa bir ishtirokchilar tomonidan qat'iylik, faollik, maqsadga erishishdagi izchillik sifatida tahlil qilinadi. B.Klayn agressivlikning salbiy jihatlari inkor

etmagan holda, agressiyada “ma’lum ma’nodagi sog’lom jihatlar” ham mavjud bo’lib, ular faol hayot kechirish uchun asqotishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bu maqsadlarga erishish yo’lidagi qat’iylik, tashabbuskorlik, shiddat, muvaffaqiyatga erishish, to’siqlarni yengib o’tish bilan belgilanadi.

Tadqiqot usullari bo’yicha ma’lumot. Tadqiqotda kuzatish, suxbat kabi usullar qo’llanildi, bunda yakkakurashchilarning kundalik sport faoliyatlaridagi agressiv holatlar kuzatilib, to’plangan ma’lumotlar maxsus kundalikka kayd qilib borildi. Bundan tashqari tadqiqotda shaxsning psixologik sog’lomligini aniqlash uchun G.Amonning Men-strukturaviy (ISTA) metodikasi (distruktiv xulqni aniqlash maqsadida), A.Bass va E.Darkning agressiya shakllari va uning ko’rsatkichlarini diagnostika qilish metodikasi, V.Boykning “Frustratsiya xolatini aniqlash” metodikasi, sportchining shaxsga xos ustunlik qiluvchi hususiyatlarni aniqlash maqsadida Frayburg shaxs so’rovnomasi (Freiburg Personality Inventory, FPI), Agressiv xulq-atvorni aniqlash maqsadida Ye.P. Ilin, P.A. Kovalev metodikasi ishlatildi. Olingan natijalarni qayta ishlash maqsadida matematik-statistik metodlardan (Spirman rp-korrelyatsiya koeffitsientini hisoblash metodlari) foydalanildi

Empirik tadqiqot natijalari.

1-jadval.

A.Bass va E.Darkning agressiya shkalalari hamda G.Amonning Men-strukturaviy (ISTA) metodikasi shkalalari o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik (Spirman korrelyatsiyasi, № 240)

Ko’rsatkichlar	Jismoniy agressiya	Verbal agressiya	Bilvosita agressiya	Negativizm	Jizzakilik	Sergumonlik	Ranj	Aybdorlik xissi
Konstruktiv agressiya	-0,268(**)	-0,225(**)	-0,166(**)	-0.051	0.073	0.001	0.046	0.116
Destruktiv agressiya	0,500(**)	0,273(**)	0,219(**)	0,264(**)	0.057	0.068	-0.015	-0,194(**)

Izoh: *-p<0,05; **-p<0,01.

1-jadvalda ko’rinib turganidek konstruktiv agressiya hamda jismoniy agressiya o’rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0,268$; $p<0,01$). Konstruktiv agressiyaga ega sportchilar xulq atvorida jismoniy agressiya holati kam kuzatiladi. Konstruktiv agressiya hamda verbal agressiya o’rtasida ham manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0,225$; $p<0,01$). Konstruktiv yani maqsadli faoliyatga qaratilgan agressiv holatda boshqalarga verbal ya’ni og’zaki salbiy his-tuyg’ularni og’zaki tarzda ifodalash (janjal, qiychuv solish, so’kinish, tahdid solish, la’nat aytish, qarg’ish kabilar) uchramasligini kuzatishimiz mumkin. Konstruktiv agressiya hamda bilvosita agressiya o’rtasida ham manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,166$; $p<0,01$). Ya’ni konstruktiv tabiatdagi sportchilar his tuyg’ularida orqavarotdan bo’ladigan yoki bilvosita agressiya ya’ni boshqa shaxsga qaratilgan g’iybat, piching ko’rinishidagi bilvosita olinadigan alam, naftratning yo’nalishi (yer tepish, baqirib chaqirish) juda kam uchrashini ko’rishimiz mumkin.

Destruktiv agressiya hamda jismoniy agressiya o’rtasida musbat korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,500$; $p<0,01$). Destruktiv agressiya ya’ni agressiyani tartibga solishning buzilishi, buzg’unchi portlashlar, boshqa odamlarning qadrsizlanishi, sinizm, qasos holatida sportchilarimiz jismoniy agressiya ya’ni boshqa bir odamga qarshi jismoniy kuch ishlatishni kuzatishimiz mumkin bo’lar ekan. Shu bilan birgalikda destruktiv agressiya hamda verbal agressiya (o’zaki), bilvosita agressiya (orqavarotdan), negavitizm shkalalari o’rtasida musbat korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,273$, $p<0,01$, $r=0,219$, $r=0,264$). Ya’ni deviant tabiatga hos bo’lgan distruktiv agressiya holatida - og’zaki salbiy his-tuyg’ularni og’zaki tarzda ifodalash, boshqa shaxsga qaratilgan g’iybat, piching ko’rinishidagi bilvosita olinadigan alam, negativizm - (voqelikka salbiy munosabatda bo’lish, hamma narsani inkor etish) holatlari nomoyon bo’lishini kuzatishimiz mumkin. Destruktiv agressiya hamda aybdorlik hissi shkalasi o’rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0,194$; $p<0,01$). Yani destruktiv xulq atvor egalari xulqi og’ishgan guruhidagi shaxslar bo’lganliklari uchun ularda aybdorlik hissi umuman bo’lmas ekan, ya’ni ular har qanday bajargan tajovvuzkorliklaridan qalban zavqlanishi va bu xulq atvorni ongli nomoyon qilishlarini ko’rishimiz mumkin.

A.Bass va E.Darkning agressiya shkalalari hamda Frayburg shaxs so'rovnomasi (Freiburg Personality Inventory, FPI) shkalalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (Spirman korrelyatsiyasi, № 240)

Ko'rsatkichlar	Jismoniy agressiya	Verbal agressiya	Bilvosita agressiya	Negativizm	Jizzakilik	Sergumonlik	Ranj	Aybdorlik xissi
Nevrotiklik	0,765(**)	0,428(**)	-0.012	0,474(**)	0,169(**)	-0.057	-0.005	-0,158(*)
Spontan agressivlik	0,401(**)	0,722(**)	0.014	0,302(**)	0.051	-0.106	0.004	-0.088
Muvozanatlashganlik	-0,467(**)	-0,183(**)	-0.074	-0,277(**)	-0.03	-0.063	0,144(*)	0.05
Reaktiv agressivlik	0,808(**)	0,338(**)	0.097	0,373(**)	0.005	-0,147(*)	-0.117	-0.046
Ekstraversiya-introversiya	0,416(**)	0,323(**)	0.069	0,299(**)	0.042	-0.112	0.078	-0.116
Emotsional labillik	0,427(**)	0,289(**)	-0.015	0,279(**)	0.045	-0.063	0.042	-0,138(*)
Maskulinizm-feminizm	0,338(**)	0,288(**)	0.021	0,206(**)	-0.007	-0.063	0.099	-0.099

Izoh: *-p<0,05; **-p<0,01.

2-jadvalda ko'rishimiz mumkinki nevtrotiklik hamda jismoniy agressiya shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsiya aniqlani ($r=0,765$; $p<0,01$). Emotsional holatni noturg'unligidan dalolat beruvchi nevtrotiklik (jizzakilik)ligi bor sportchilarni jismoniy agressiyaga moyil deyishimiz mumkin. Shu bilan birga nevtrotiklik hamda verbal agressiya, negativizm, jizzakilik shkalalari o'rtasida ham musbat korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,428$, $p<0,01$. $r=0,474$, $p<0,01$. $r=0,169$; $p<0,01$). O'z o'zidan ma'lum bo'ladiki nevtrotik insonlarimiz og'zaki tajovvuzkorlikni nomoyon qilishlari bilan birga, negativizm holatida hamma narsani inkor etishlari o'zlarini aytganini qilishlari, jizzakilikni barcha ko'rinishlarini namoyon qilishlari mumkin. Nevtrotiklik shkalasi hamda aybdorlik hissi o'rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,158$; $p<0,05$). Bundan ko'rishimiz mumkinki nevtrotik shaxslarda o'zini ayblash kabi aybdorlik hissi kuzatilmaydi.

Spontan agressivlik hamda jismoniy agressiya, verbal agressiya, negativizm shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi $r=0,401$; $p<0,01$. ($r=0,722$; $p<0,01$. $r=0,302$; $p<0,01$). (spontan tajovvuzkorlik) introtensiv turdagi psixopatik holatni aniqlash va baholashga imkon beradi. Yuqori baholar g'ayriixtiyoriy xulqqa ega bo'lgan kishilarga xos xususiyatlarni bildiradi. O'z-o'zidan paydo bo'ladigan (spontan) tajovvuzkorlik — bu tajovvuzkor, beixtiyor, chiqisha olmaydigan, murosasiz deganidir. Biza korishimiz mumkin bo'ladiki spontan tajavvuzkor insonlarda jismoniy agressiyani ham, verbal agressiyani ham, negativizmni ham dominatlik qiladi.

Muvozanatlashganlik hamda jismoniy agressiya shkalalari o'rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0,467$; $p<0,01$). Muvoznatlashganlik - ruhiy zarbaga chidamlilikni anglatadi. Yuqori baholar kelajakka ishonch va faollikni; o'ziga ishonchi odatdagi hayotiy holatlarda zarba omillari ta'siridan yaxshi himoyalanganligini anglatadi. Mutadillik - bu yaxshi kayfiyat, barqarorlik, matonatlik, xotirjamlilik, o'z kuchiga ishonch, ishonuvchanlik, faollik demakdir. Bundan ko'rishimiz mumkinki muvozanatlashgan shaxslarda jismoniy agressiya ham past bo'lishini aytishimiz mumkun. Muvozanatlashganlik shkalasi hamda verbal agressiya va negativizm shkalalari o'rtasida ham manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0,183$; $p<0,01$. $r=-0,277$; $p<0,01$). Demak muvozanatli sportchilarimizda o'g'zaki agressiya ham, negativizm holati ham uchramaydi. Muvozanatlashganlik hamda ranj shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsiya aniqlandi ($r=0,144$; $p<0,05$). Muvozanatlashgan sportchilarimizning hayot va faoliyatlarida biroz bo'lsa ham kam miqdorda ranj - kimdandir yoki butun olamdan alamzadalik, xayolan yoki chindan ham keltirilgan iztirob, g'azab, atrofda gilarga nisbatan nafrat, hasadning namoyon bo'lishi uchrab turishi mumkin ekan.

Reaktiv agressivlik (reaktiv tajovvuzkorlik) — ekstratensiv tipdaga psixopatik belgilarni namoyon bo'lishini aniqlaydi. Yuqori baholar ustunlikka intilishni va ijtimoiy muhitga tajovvuzkorona munosabatni ifodalaydi. Reaktiv tajovvuzkorlik — bu tajovvuzkorona o'z qarashlarini himoya qilish, o'z fikrini himoya qilish, xudbinlik, manmanlik, obro'ga, yuqoriga, ustunlikka intilish demakdir. Reaktiv agressivlik shkalasi hamda jismoniy agressiya, verbal agressiya, negativizm shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi ($r=0,808$; $p<0,01$. $r=0,338$; $p<0,01$. $r=0,373$; $p<0,01$). Ko'rishimiz mumkinki reaktiv tajavvuzkor shaxslarimiz

o'z o'zidan jismoniy va verbal agressiyani namoyon qilish bilan birga, negativizm holatida ham barqaror bo'lishi aniqlandi. Reaktiv agressivlik shkalasi hamda sergumonlik shkalasi o'rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0,147$; $p<0,05$). reaktiv agressiyaga moyil insonlarda sergumonlik – ya'ni ishonchsizlikka moyillik, odamlar bilan ehtiyot bo'lib munosabatga kirishish, atrofdagilar zarar yetkazishi mumkin degan o'y bilan yashash uchramasligini ko'rishimiz mumkin.

Ekstraversiya-introversiya hamda jismoniy agressiya, verbal agressiya, negativizm shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi ($r=0,416$; $p<0,01$. $r=0,323$; $p<0,01$. $r=0,299$; $p<0,01$). Ushbu shkalamizni e'tiborli jihati shundaki yuqori baholar shaxsning ekstravertlik, quyi baholar esa introvertlik xususiyatlariga mos keladi. Ekstraversiya – so'zamollik, jamoat ishlarida faollik yoki aksi, introversiya – odamlar bilan aloqadan qochish, passivlik, emotsional beqarorlikni ifodalaydi. Ko'pgina holatlarda jismoniy agressiya, verbal agressiya va negativizm holati ekstravert insonlarda ko'proq uchrashi mumkin ekan.

Emotsional labillik (emosional labillik, o'zgaruvchanlik) yuqori baholar yetarli o'zini idrok qilmaslik, serjahllik, yuqori qo'zg'aluvchanlik, kayfiyatning tez-tez o'zgaruvchanligida ko'rinadigan emotsional holatning noto'g'riligini ko'rsatadi. Quyi baholar faqatgina emotsional holatning yuqori barqarorligini tavsiflamasdan, balki o'z-o'zini idrok kila olishni ham ko'rsatadi. Emotsional o'zgaruvchanlik-barqarorlik-emosional turg'unlik yoki noturg'unlik, kayfiyatning o'zgaruvchanligi, serjahllik, jo'shqinlik, g'am yoki kelajakka ishonch, xursandchilik kabi xususiyatlarda ifodalanadi. Emotsional labillik hamda jismoniy agressiya, verbal agressiya, negativizm shkalalari o'rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi ($r=0,427$; $p<0,01$. $r=0,289$; $p<0,01$. $r=0,279$; $p<0,01$). Demak jismoniy agressiya, verbal agressiya va negativizmga ega shaxslar har qanday faoliyatda emotsional beqaror shaxslar hisoblanishadi. Emotsional labillik hamda aybdorlik hissi shkalalari o'rtasida manfiy korrelyatsiya aniqlandi ($r=-0,138$; $p<0,05$). Aybdorlik hissi autoagressiya ham deyiladi - o'zi va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan aybdorlik hissi, o'ziga qarshi qaratilgan xatti-harakat, ya'ni o'zini ayblash, men undog'man, men bundog'man deb ich-etini yeyish demakdir. Emotsional labil shaxslarda aybdorlik hissi juda kam uchrashini aytishimiz mumkin.

Maskulinizm-feminizm shkalsi hamda jismoniy agressiya, verbal agressiya va negativizm shkalasi o'rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi ($r=0,338$; $p<0,01$. $r=0,288$; $p<0,01$. $r=0,206$; $p<0,01$). (maskulinizm-feminizm) - yuqori baholar ruhiy faoliyatning, xususan, erkaklarga xosligidan guvohlik bersa, quyi baholar ayollarga xosligidan darak beradi. Mardlik-nazokatilik-faollik, hammadan bilimdon, fahmlash topkirlikdir. Jismoniy agressiya, verbal agressiya va negativizmga moyil insonlarda maskulinizm-feminizm baland bo'lishini ya'ni yuqorida aytilganidek erkaklarga xos xususiyatni tashqariga chiqarishga urunishni nomoyon bo'lishida ko'rishimiz mumkin.

3-jadval.

A.Bass va E.Darkning agressiya shkalalari hamda V.Boykning “Frustratsiya xolatini aniqlash” metodikasi shkalalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik (Spirman korrelyatsiyasi, № 240)

Ko'rsatkichlar	Jismoniy agressiya	Verbal agressiya	Bilvosita agressiya	Negativizm	Jizzakilik	Sergumonlik	Ranj	Aybdorlik xissi
Frustratsiya darajasi	0,392(**)	0,316(**)	0,132(*)	0,236(**)	-0.005	-0.097	0.067	-0.115

Izoh: *- $p<0,05$; **- $p<0,01$.

3-jadvalimizda Frustratsiya darajasi hamda jismoniy agressiya, verbal agressiya, bilvosita agressiya va negativizm shkalasi o'rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik aniqlandi ($r=0,392$; $p<0,01$. $r=0,316$; $p<0,01$. $r=0,132$; $p<0,01$. $r=0,236$; $p<0,01$). Frustratsiya holatida qanday xulq ko'rinishini namoyon etish sportchining shaxsiy xususiyatiga bog'liq. Kuchsiz nerv tizimli sportchilar ko'proq xavotir, tushkunlik holatini, kuchli nerv tizimli sportchilar esa agressiyani namoyon etadi.

Frustratsiya sportchi faoliyatiga turlicha ta'sir etishi mumkin. Ayrim holatlarda sportchini maqsadga erishish uchun yo'naltiradi, motiv kuchini oshiradi. Biroq bunda xulq shakli impulsiv va irratsional xarakter namoyon etishi kuzatiladi. Ba'zi holatlarda frustratsiya sportchini harakatdan to'xtatadi. Frustratsiyaning tez-tez paydo bo'lishi shaxsiy xususiyat sifatidagi agressivlik, aybdorlik hissi, o'ziga ishonchsizlikni shakllantiradi. Umuman olganda frustratsiya darajasi baland bo'lgan sportchilarimizda jismoniy agressiya, verbal agressiya, bilvosita agressiya va negativizm holati doimo bo'lib turishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa va tavsiyalar.

Xulosa qilib aytganada, sportchilarda agressivlikni bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, ularning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini hurmat qilish, o'ziga ishonch, motivatsiya bilan bog'liq

pedagogik qo'llab - quvvatlashni ta'minlash asosida sport maktabida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish uchun ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya yosh sportchilarni raqobat faoliyatiga tayyorlashning ajralmas qismi hisoblanadi. Agressiya yoki kishilar o'rtasidagi kelishmovchilik okibatida kelib chikadigan vajoxat holati - bu shunday yo'nalishki, unga oid xulosalar nafaqat psixologlarni, balki sotsiologlar, huquqshunoslar, pedagoglar, faylasuflar, ijtimoiy soha xodimlarini barchasini birdek kiziktiradi. Zero, inson tabiati va uning boshqa insonlarga bog'lik jixatlarini o'rganish uchun xulqning aynan shu tomonini ham o'rganish, bilish va boshqara olish lozimdir.

Adabiyotlar:

1. Готтсданкер Р. Основы психологического эксперимента: Учеб. пособие. Пер. с англ.- М.: Изд-во Моск. ун-та. 1982.-464 с.
2. Берон Р., Ричардсон Д. Агрессия.- СПб.: Питер, 2001.- 352 с.
3. Чалдини Р., Кенрик Д., Нейберг С. Социальная психология. Пойми себя, чтобы понять других! (серия “Главный учебник”).- СПб.: Прайм- ЕВРОЗНАК, 2002.- 336 с.
4. Справочник практического психолога: Психотерапия/ сост. С.Л.Соловьёва.- М.: АСТ.СПб.: Сова, 2005.- 575 с.
5. Элисеев О.П. Практикум по психологии личности. 2-э изд., испр. и перераб.- СПб.: Питер, 2002.- 512 с.
6. Мартин Д. Психологические эксперименты. Секреты механизмов психики.- СПб.: прайм – ЕВРОЗНАК, 2004.- 480 с.
7. Росс А., Нисбетт Р. Человек и ситуация: Уроки социальной психологии/ пер. с англ.- М.: Аспект Пресс, 2001.- 429 с.
8. Сапогова Е.Э. Психология развития человека: Учебное пособие.- М.: Аспект Пресс, 2001.- 460 с.
9. Сикевич З.В., Крокинская О.К., Поссел Ю.А. Социальное бессознательное.- СПб.: Питер, 2005.- 267 с.
10. Сикевич З.В. Социологическое исследование: Практическое руководство.- СПб.: Питер, 2005.- 320 с.
11. Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии.- СПб.: ООО “Речь”, 2001.- 350 с.
12. Славская А.Н. Личность как субъект интерпретации.- Дубна: Феникс+, 2002.- 240 с.

*Абдукадирова Лаура Юльбарсовна,
Фаргона давлат университети, психология кафедраси, ўқитувчи
L-abdukodirova@inbox.ru*

ҚИЙИН ХАЁТИЙ ВАЗИЯТДА ҚОЛГАН ТАЛАБАЛАР КОПИНГ-ХУЛҚИНИ ЎРГАНИШГА ДОИР ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР

Аннотация: Мақолада Ўзбекистонда қийин ҳаётлий вазият (ҚХВ)да қолган талабалар копинг-хулқини ўрганиш долзарблиги ОТМда психологик хизмат тизимини ривожлантириши, педагогик жараёни такомиллаштириши, шу туфайли иқтисодий-ижтимоий муаммоларни бартараф этиши мақсадида давлат томонидан имконияти чекланган, чин етим, "Темир дафтар", "Аёллар дафтари" ва "Ёшлар дафтари"га рўйхатга олинган шахсларга, яъни (ҚХВ)да қолган талабаларга берилган имтиёزلардан самарали сарфланишига хизмат қилиши нуқтаи назаридан очиб берилган. Копинг хулқ-атворни ўрганишга доир замонавий назария ва ёндошувлар таҳлили ёритилган бўлиб, ушбу феномен бугунги кунда интегратив вазиятли-шахсиятли ёндошув асосида ўрганилиши мақсадга мувофиқлиги, бу эса комплекс тадқиқот олиб боришига имкон бериши, олинган натижалар асосида юқорида акс эттирилган вазифаларни бажаришига хизмат қилиши ҳақида хулоса қилинган.

Калим сўзлар: қийин ҳаётлий вазиятда қолган талабалар, имконияти чекланган талаба, етим талаба, "ижтимоий дафтар"га рўйхатга олинган талаба, копинг-хулқ, копинг-стратегиялар, копинг-ресурслар, психоаналитик назария, психологик химоя, стресснинг когнитив назарияси, диспозиционал-йўналган ёндошув, интегратив вазиятли-шахсиятли ёндошув, психологик хизмат, педагогик жараён.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ КОПИНГ-ПОВЕДЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ТРУДНОЙ ЖИЗНЕННОЙ СИТУАЦИИ

Аннотация: В статье раскрывается актуальность изучения в Узбекистане копинг-поведения студентов в трудной жизненной ситуации (ТЖС), в число которых входят лица с ОВЗ, сироты и зарегистрированные в «женской тетради», «молодёжной тетради», «железной тетради», для усовершенствования деятельности психологической службы и педагогического процесса ВУЗа в целях эффективной реализации государственных льгот, установленных для разрешения социально-экономических проблем. Представлен анализ современных теорий и подходов к изучению копинг-поведения. Делается вывод о том, что копинг-поведение студентов в ТЖС целесообразно изучать на основе интегративного ситуационно-личностного подхода, который даст возможность провести комплексное исследование, что будет служить выполнению поставленных выше задач.

Ключевые слова: студенты в трудной жизненной ситуации, студенты с ОВЗ, студенты-сироты, студенты, зарегистрированные в «женской тетради», «молодёжной тетради», копинг-поведение, копинг-стратегии, копинг-ресурсы, психоаналитическая теория, психологическая защита, когнитивная теория стресса, диспозиционально-ориентированный подход, интегративный ситуационно-личностный подход.

SCIENTIFIC-THEORETICAL APPROACHES TO STUDY OF COPING-BEHAVIOR OF STUDENTS IN DIFFICULT LIFE SITUATIONS

Abstract: The article reveals the relevance of studying coping behaviours of students in difficult life situations (DLS) in Uzbekistan, which include persons with disabilities, orphans and those registered in "women's notebook", "youth notebook", "iron notebook" for the improvement of psychological service and teaching process of higher educational institutions in order to effectively implement state benefits established to resolve socio-economic problems. The analysis of modern theories and approaches to the study of coping behaviour is presented. The conclusion is made, that it is reasonable to study students' coping - behaviour in DLS on the basis of integrative situational and personal approach which will allow to carry out the complex research.

Keywords: students in difficult life situations, students with disabilities, orphans, students registered in "women's notebook", "youth notebook", "iron notebook", coping behavior, coping strategies, coping

resources, psychoanalytic theory, psychological protection, cognitive theory of stress, disposition-oriented approach, integrative situation-person approach.

Кириш. Ўзбекистон мамлакати инсон ресурсларига бой мамлакат бўлишига қарамай, сифатли, бугунги кун талабига жавоб берадиган, келажакдаги муаммоларини хал этишга тайёр, инновацияларни яратишга қодир ёшларни жамиятга етиштириш долзарб масалалардан биридир. Меҳнат бозорида рақобат кучайиб бораётган, технологик тараққиёт шиддат билан амалга ошаётган вақтда эса ушбу муаммонинг мураккаблиги янада ортиб бормоқда ва юқори малакали кадрлар тайёрлаш масаласига ўз таъсирини кўрсатмоқда. Чунки замонавий мутахассис, хаётнинг мураккаб чақириқларига қарамай, нафақат ўзгараётган жамиятга кириб бориши, балки муваффақиятли, самарали бўлиши лозим.

Етук кадрлар тайёрлаш масаласини кўриб чиқар эканмиз, давлат жамиятимизнинг барча аъзоларига, уларнинг соғлиги, ижтимоий келиб чиқиши, иқтисодий ҳолати, диний эътиқоди, миллатидан қатъий назар, улар қийин хаётий вазиятда йўқми, тенг имкониятларни яратишга ҳаракат қилаётганлигини кўриш мумкин. Бугунги кунда имконияти чекланган инсонлар учун Ўзбекистон ҳукумати ОЎЮ таҳсил олиш учун бир қатор имкониятлар яратиб берган. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев томонидан 2017 йил 1 декабрь куни тасдиқланган ПФ-5270-сон “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига мувофиқ 2018-2019 ўқув йилидан бошлаб олий таълим муассасаларига абитуриентларни қабул қилишнинг умумий сонидан ногиронлиги бўлган шахслар учун қўшимча равишда икки фоизли квота ажратиш тартиби жорий этилган [1]. 2019-2020 ўқув йили учун ҳам ушбу қарор ўз кучини сақлаб қолган. Сассекс (Буюк Британия) Университетининг ривожланиш муаммоларини тадқиқ этиш Институтининг докторанти, «Буюк келажак - 2035» эксперт кенгаши Д. Юсуповнинг маълумотларига кўра, мазкур қарорга асосан 2018-2019 ўқув йилида ногиронлиги бор 996 абитуриент Ўзбекистон ОЎЮга бюджет ўринларига қабул қилинди [2]. Имконияти чекланган талабалар билан биргаликда етим, “аёллар дафтари”, “ёшлар дафтари”, “темир дафтар”, деб номланган ҳужжатлар рўйхатига олинган қийин иқтисодий-ижтимоий қўллаб-қувватлашга муҳтож талабалар сонини кўшсак, Ўзбекистон миқёсида бир неча минг талаба психологик нуқтаи-назаридан эътиборталабларини кўришимиз мумкин. Бундай талабалар диққатимиз марказида экан, уларга нисбатан “қийин хаётий вазиятда қолган талабалар” еки қисқача қилиб “ҚХВда қолган талабалар” деган тушунчани қўллаш мақсадга мувофиқлигини айтиб ўтмоқчимиз [30].

Талабалар олдига улкан мақсадлар қўйилаётган бир пайтда ҚХВда қолган талабалар талабаларнинг психологик хусусиятлари, ҳолати, ҳулқ-атвори ОЎЮда таълим олиш билан боғлиқ қийинчиликларни енгишга, ўз қобилиятларини рўёбга чиқаришга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Оқибатда улар орасида академик қарздорлик, ўқишни ташлаб юбориш, атрофдагилар билан зиддиятли муносабатларни ўрнатиш, ҳатто суицидал ҳолатлар вужудга келиш эҳтимоли катта. Бундай ҳолатлар юксак мақсадларни йўққа чиқариши, яъни яратилган шароитлардан унумли фойдаланиш ўрнига, жамиятга янада кўпроқ зарар, иқтисодий ва ижтимоий муаммолар келтиришини рад этиб болмайди.

Шундай экан, ҚХВда қолган талабаларнинг ижтимоий-психологик хусусиятларини ўрганиш асосида уларга замон талабидан келиб чиқиб, ҳамда уларнинг эҳтиёжига мувофиқ амалий психологик-педагогик ёрдам бериш, ижтимоий қўллаб-қувватлаш, олий таълим психологик хизмат тизимини такомиллаштиришнинг илмий ечимини топиш долзарб деб ҳисоблаймиз. Бундай чоралар талабаларнинг хаётий қийинчиликларга бардошлилигини (рус тилида “жизнестойкость”, инглиз тилида “hardiness”) ривожлантириш, самарли копинг-хулқнинг ижтимоий - психологик барқарорлигини мустаҳкамлаш, уларнинг ҳулқида самарли копинг-хулқ намоён этишига шароит яратади ва шу орқали уларнинг қобилиятларини рўёбга ошиши, ўз-ўзини реабилитация қила олиш (онгли равишда, фаоллик билан ўзига ва бошқаларга ёрдам беришга тайёр бўлиш, ўзининг такрорланмас вазиятидан ўз шахсияти ва ижодкорлигини юкасалтириш) кўникмаси, бошқаларга қарам бўлмаслик, ўз хаёти учун ўзи масъул бўлишига оид хусусиятлар ривожланишини таъминлайди ва юқори даражадаги хаёт сифатини намоён этишга хизмат қилади деган фикрдамиз.

Юқоридаги фикрларни назарда тутган ҳолда олдимизга бир неча саволларни, яъни “психология фанида бугунги кунда хаётий қийинчиликларни енгиш масаласига оид қандай илмий ишлар амалга оширилган? Ушбу масалада копинг қандай ўрин тутди? “Копинг”, “копинг ҳулқ-атвор” деганда нимани назарда тутишимиз керак? Копингга бугунги кунда қандай илмий-назарий қарашлар мавжуд?

ҚХВ қолган талабаларнинг копингини ўрганамиз десак қандай назарий қарашлар асос бўлиши мумкин?” - кўйдик.

Асосий қисм. Инсон томонидан ҳар қандай вужудга келган қийинчиликларни ечимини топишнинг ўзига хос, маҳсус жараёни, стрессни енгиш учун амалга ошириладиган сайи-харакатларни тасвирлаш учун аксарият тадқиқотчилар “копинг” тушунчасини қўллаб келмоқдалар. “Копинг” тушунчаси инглизча “*coping*” сўзидан келиб чиққан тушунча бўлиб, инглизча “*to cope*” — “енгиш”, “уддасидан чиқиш”, “қўлга олиш” деб таржима қилинади.

Ўзбекистонда нисбатан кенг ўрганилган соҳа бу талабалар психологияси бўлиб, бу борада Э. Ғозиев, Ғ.Б. Шоумаров, В. Каримова, Б.М. Умаров, Г.Ж. Туленова, С.М. Тўйчиева, Н.Т. Норкулова, С. Х. Джалилова, У. Д. Қодиров ва бошқалар илмий изланишлар олиб боришган. Лекин мамлакатимизда ҚХВ қолган талабалар психологиясига оид илмий изланишлар кам ўрганилган, уларнинг копинг-хулқ-атвори маҳсус ўрганилмаган. Айтиш жоизки, копинг-хулқ масаласи Ўзбекистон психологияси учун янги йўналишлардан бири. Бундай ҳолат эса ушбу масалага катта эътибор қаратиб, копинг хулқ-атворнинг назарий-амалий асосларини ўрганишни, ва шу асосда бу ёшлар томонидан ОТМда сифатли таълим олишлари учун кўмаклашадиган психологик хизмат тизимини такомиллаштиришни тақазо этади.

Шундай экан, ушбу мақолада айнан шу масала, яъни копинг хулқ-атворнинг назарий асосларини таҳлил қилишга ўз эътиборимизни қаратдик.

Қийин ҳаётий вазиятдаги копинг-хулқ масаласи бўйича илмий изланишларни асосан чет эл олимлари амалга оширган: АҚШ ва Европа мамлакатларида Л.Мерфи, S.Folkman, R.S.Lazarus, L.G.Aspinwall, S. E.Taylor, R.Schwarzer, N.Knoll, В.Е.Compas, А.Н.Schore, Е.А.Skinner, Н.Weber, Х.Хекхаузен ва бошқалар; Россия ва МДХ давлатларида Л.И.Анциферова, С.К.Нартова-Бочавер, Р.М.Грановская, И.М.Никольская, Ф.Е.Василуок, И.Д.Стойков, Т.Л.Крюкова, Е.В.Куфтяк, М.В.Сапоровская, С.А.Хазова, Д.А.Леонтьев, Е.В.Битюцкая, Н.И.Сирота, Е.В.Либина, Л.И.Вассерман, В.А.Абабков, Е.А.Трифоновна, Е.В.Гришунина, Е.И.Рассказова, Т.Г.Бохан, Л.А.Китаев-Смик, К.Муздибаев, Е.С.Старченковалар ва бошқалар.

Тадқиқотларни ўрганиш шуни кўрсатдики, қийин ҳаётий вазиятда (ҚХВ) қолган шахсларнинг психологик муаммолари кам ўрганилган соҳа бўлиб, аксарият тадқиқотларнинг мазмуни шундан иборатки, уларда бундай шахсларни ижтимоий қўллаб-қувватлаш, химоя қилиш, уларнинг ҳаётлари учун масъулиятни ўз бўйнига олиш кераклиги ҳақидаги фикр илгари сурилган. ҚХВда қолган шахслар яқинлари, жамият, давлатнинг қарамоғида бўлган оғир юклиги ҳақидаги фикр илгари сурилади [3]. Юқоридаги фикрга қарама-қарши ёндошувга кўра эса ҚХВда қолган шахсларнинг адаптация сифатлари, уларнинг яшашга интилиш, қийинчиликка бардош бера олиш қобилиятини сақлаш ва ривожлантириш, юқори даражадаги ҳаёт сифатини намоён этишлари учун уларга кўмаклашиш кераклигига эътибор қаратиш лозим бўлиб хисобланади [14; 15; 39].

“Копинг” тушунчаси психология фанида XX асрнинг 60-йилларидан бошлаб кенг қўлланила бошлади. А. Маслоу 1954 йилда чоп этилган “*Motivation and Personality*” илмий асарида копинг масаласига эътиборини қаратган [4]. Б.Д.Карвасарскийнинг фикрига кўра, 1962 йилда Л. Мерфи (L.Murphy) биринчилар қаторида “копинг” тушунчасини “ривожланиш инқирозидан келиб чиқадиган талабларни болалар томонидан қўлланиладиган енгиш усулларини ўрганишга бағишланган тадқиқотларда қўллаган. Булар қаторига шахс томонидан қийин вазият ёки муаммони қўлга олишга йўналтирилган фаол ҳаракатлар қиради” [5].

Инглиз тилидаги “Психологик луғатда” «*coping behavior*» (“копинг хулқ-атвор”) қийин ёки ҳаётга хавф солаётган вазиятда қочиш (тарк этиш) ёки химоя ҳаракатларидан фарқли ўлароқ ўзига ишонч, курашда намоён бўладиган хулқ-атвор сифатида изоҳланади. [6]. Рус тилидаги “Катта психологик луғат”да копинг (“совладающее поведение”) аввалам бор психосоциал характерга эга стрессли ва инқирозли вазиятларни кечиш ва енгиб ўтиш учун диққатни жамлашда намоён бўладиган хулқ-атвор сифатида кўриб чиқилади [7].

Е.А. Белан, Е.В. Битюцкая, Т.Г. Бохан, Л.А. Китаев-Смык, К. Муздыбаев, Е.И. Рассказова, Е.А. Skinner, Н.Веберлар томонидан копинг атамаси ҳам субъектив тарзда қийин бўлиб кўринган вазиятларни когнитив баҳолашни ўрганишда, хулқ-атвордаги стрессга бўлган реакцияни тасвирлашда, ҳамда ижтимоий-психологик адаптация жараёнида субъектнинг когнитив ва хулқий фаоллигини акс эттиришда қўлланилган.

В. Е. Compas, А. N. Schogеларнинг фикрига кўра “копинг” тушунчаси эмоционал компонентни, яъни инсон томонидан ўз эмоционал ҳолатларини, шунингдек темперамент хусусиятлари ва одат

тусига кирган хулқ-атвор юзасидан вужудга келадиган ихтиёрсиз жараёнларни ўзи бошқара олиш кобилиятини акс эттиради. [10; 17].

E. C. Старченкова, L. G. Aspinwall, R. Schwarzerларнинг тадқиқотларида копинг тушунчасини келажакдаги стресс омили ва бўлиши мумкин бўлган стресс вазиятига тайёргарликка қаратилган ҳаракатларни тавсифлаганда қўллаш ҳолатларини кузатиш мумкин. [12; 13; 14].

S. Folkman, R. S. Lazarusларнинг фикрига кўра, копинг – бу вазият талабларининг таъсири инсон ўзини қулай ҳис қилишига юқори бўлганда индивид томонидан муаммони ечишга интилишдир (катта хавф бўлган вазиятда ҳам, муваффақиятга йўналтирилган вазиятда ҳам), чунки бу талаблар инсонни адаптив имкониятларини фаоллаштиради [15].

R. S. Lazarus копингни инсон томонидан ҳосил қилинадиган психотравматик воқеаларга психологик химоя усуллари ва вазиятга таъсир этадиган хулқ-атвор деб таърифлайди. Шунингдек, Lazarus копингни стресснинг когнитив назарияси доирасида марказий бўгин сифатида кўриб чиқиб, уни стресс таъсир қилиш даврида шахни психосоциал адаптациясини ушлаб туришга ёрдам бериши мумкин бўлган стабилликни таъминлайдиган фактор деб баҳолайди [15].

Соуп J. копингни стрессни енгиш деб тушунади ва уни, копингни, муҳит талаблари ва ресурслар ушбу талабларни қониқтирадиган инсон ресурслари ўртасидаги балансни ушлаб туриш ва сақлашга қаратилган фаолият сифатида кўриб чиқади [16]. Weberнинг фикрига кўра, копингнинг психологик аҳамияти шундаки, у вазият талабларига инсонни имкон борича яхшироқ мослаштиради, вазиятни қўлга олиш, юмшатиш ёки таъсирини камайтиришга имкон беради [9].

Л.И. Анциферова (1994) «копинг» терминига таъриф берганида, ушбу тушунчани вазиятни қўлга олиш, енгиш деб белгиланган ва, қийинчилик, ушбу тушунча вазиятини келтириб чиқараётган сабабларни ўз вақтида ва аниқ англаш, у ёки бу шароитга адекват муносабат билдириш, қийин вазият туфайли янги вужудга келган шарт-шароит билан мувофиқ яшаш, инсон олидида турган вазифа, қийин вазият, дилеммани ечимини топиш, бошқалар билан тил топишиш ва мураса қилиш деган маънони англатади, деб илгари сурган [18]. С.К. Нартова-Бочавер «копинг»ни вазият билан шахснинг ўз мантиғи, унинг ҳаёти учун аҳамиятлилиги ва психологик имкониятларига мувофиқ ўзароҳаракатнинг индивидуал усулидир деб таърифлайди [19]. И.М. Никольская ва Р.М. Грановскаялар «копинг» тушунчасини мазмунига кўра психологик химоя тушунчасига яқин деб ҳисоблайдилар. Уларнинг фикрига кўра, химоя автоматизмлари ва копинг-стратегиялар ўртасидаги фарқ шундаки, онгсиз равишда биринчиси ишга тушади, онгли равишда эса иккинчиси фаоллашади [20].

“Копинг” тушунчасига турлича қарашларнинг мавжудлиги копинг феномени мураккаблиги ҳақида далолат бермоқда. Ушбу қарашларни таҳлил этмаслик, илмий тадқиқотларни амалга оширишда методологик хатоларга йўл қўйишга олиб келиши мумкин ва изланишларнинг объективлигига зарар етказиши табиий. Шундай экан, “копинг”, “копинг хулқ-атвор” тушунчаларини илмий манбалардаги талқини, изоҳларини ўрганиш, уларни тизимлаштириш, уларга таяниб илмий тадқиқотнинг методологик концепцияси ва йўналишини белгилаш мақсадга мувофиқ деб ҳисоблаймиз.

Копингни тушунишга оид турлича қарашлар бежиз вужудга келмаган. Бундай кўпқиррали ва гоҳида қарама-қарши фикрларни мавжудлиги ушбу феноменни қайси илмий анъана доирасида кўриб чиқилганлиги билан боғлиқдир. Адабиётлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, психологик химоя механизмлари ҳақидаги психоанализ таълимоти оқимида копинг-хулқ-атвор феноменологиясини вужудга келиши олимлар диққатини “копинг хулқ-атвор” ва “психологик химоя” тушунчалари ўртасидаги ўзаро нисбатга жамлади. Ф.Е.Василуқ, И.Д.Стойковларнинг фикрига кўра, психологик химоя деганда қийинчиликлар билан муваффақиятсиз, самарасиз ўзаро муносабатлар назарда тутилади [21; 22]. Лекин Г.С.Корытованинг таъкидлашича, психологик химоянинг барчасини ҳам ёмон” деб аташ нотўғри. Шу билан биргаликда, психоанализ доирасида химоя механизми ва енгиб ўтувчи хулқ-атвор ўртасида чегарани қўйиш методик, назарий, амалий қийинчиликларни вужудга келтиради [23]. Демак химоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор ўртасида мураккаб алоқалар мавжуд бўлиб уларни очиб бериш ушбу мақоланинг мақсадига кирмаганлиги туфайли уларни ёритишга кейинги мақолаларимизда эътиборимизни қаратамиз.

J. Amirkhan, N. Endler, J. Parker, P. Costa, R. McCraeлар эътиборларини копинг ва турғун психологик шахс сифатлари ўртасидаги ўзаро муносабатга қаратишган. Ушбу диспозиционал-йўналган ёндошувга кўра “копинг” нисбатан турғун шахс хусусиятлари сифатида талқин қилинади. Бу шахс сифатлари у ёки бу стресс-факторга инсон реакциясининг сабаби бўлиб ҳисобланади. Яъни олимларнинг назарияларига кўра, копинг бу хулқ шаблони – стресс вазиятларига шахснинг деярли

доим маълум шаклда жавоб беришга мойиллиги. Бунда жавоб хусусияти, инсон копинги стресс турига деярли боғлиқ эмас.

Юқоридаги ёндошувга қарама-қарши фикр билан чиққан R. Lazarus ва S. Folkmanларнинг таъкидларига кўра, копинг турғун эмас, у ижтимоий вазият ўзгариши билан ўзгаради, яъни инсон тушиб қолган шароит хусусияти муаммони енгишга ўз таъсирини кўрсатади. R. Lazarus ўзининг стрессни енгиш когнитив-феноменологик назариясида стрессни ноқулайлик деб белгилайди. Ушбу дискомфорт муҳит талабини индивидуал идрок этиш ва ўша талаблар билан ўзаро ҳаракат қилиш учун етарли ва эришиш мумкин бўлган ресурслар ўртасидаги мувозанат йўқолганда вужудга келади. Бунда инсон вазиятни стресслими ёки йўқми ўзи баҳолайди. Шунинг учун R. Lazarus ва S. Folkmanлар копинг деганда ўзига хос ташқи ва (ёки) ички синовларни ўтишга мажбурлайдиган ёки шахснинг имкониятларидан ортиқ деб баҳоланадиган талабларни бошқариш мақсадида индивиднинг доим ўзгариб турадиган когнитив ва ҳулқ-атвор ҳаракатларини назарда тутишган. [15]. X. Хекхаузен ҳулоса қилиб шуни таъкидлайдики, ҳулқ-атворни келтириб чиқарадиган шарт-шароит сифатида субъектнинг диспозициясидан кўра, вазият хусусияти кўпроқ хизмат қилади [8].

Натижа. Келтирилган ёндошувлар ўзига хос ютуқ ва камчиликларга эгадир, шу билан биргалликда улар уйғунликда бир бирини тўлдириб боришмоқда. Шу муносабат билан копинг-ҳулқни ўрганиш учун интегротив вазиятли-шахсиятли ёндошув қўлланилиб келмоқда. Мазкур ёндошув енгиш жараёни содир болаётган пайтда инсонни ҳам шахс сифатларини, ҳам вазият омиллари ва ижтимоий муҳит таъсирини инобатга олади. Ушбу ёндошувга кўра, биринчидан, инсонлар турли вазиятларда шахс сифатларидаги турғунлик даражасини намоён этишларида бир бирига ўхшамайдилар; иккинчидан, вазиятлар индивидуал фарқларни намоё этишга кўмаклашиш ёки тўсик бўлишга шароит яратишлари билан бир биридан фарқланади; учинчидан, инсонлар шахс сифатларидан келиб чиқиб маълум турдаги ижтимоий вазиятларни танлашга мойилдирлар [18].

Копинг-ҳулқни ўрганишга бағишланган илмий манбаларнинг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, мазкур масалага қарашлар сони кўп ва улар ўртасида яқдиллик мавжуд эмас. Бугунги кунда копинг («coping») тушунчасининг синонимлари, бир хил маънога эга сўзлар қўлланилиб келинмоқда, масалан, «копинг ҳулқ-атвор» («coping behavior»), енгиб ўтувчи ҳулқ, «психологик енгиш», «енгиш» деган тушунчалардир. Уларни қўллаш, бизнинг фикримизга кўра, берилаётган маълумотлар мазмунини ёритиш ва тушунишга қийинчилик туғдирмайди. Шуни назарда тутган ҳолда биз ҳам юқоридаги тушунчаларни кейинги изланишларимизда синоним сифатида қўллашимизни билдирмоқчимиз. Лекин «копинг-ҳулқ», «копинг-стратегиялар», «копинг-ресурслар» каби тушунчаларни синоним сифатида қўллаш мақсадга мувофиқ эмас деб ҳисоблаймиз. Ушбу тушунчаларни аниқ мақсади ва вазифасини белгилаш бўйича изланишларни давом эттириш ва терминларни турлича талкин қилиш ҳолатларини бартараф этиш мақсадга мувофиқдир деб ҳисоблаймиз.

Хулоса. Демак, копинг ҳулқ доирасидаги асосий масала шундаки, бир томонда илмий қарашлар марказга қийин вазиятни қўймоқдалар, иккинчи томондан эса қийин вазиятда қолган инсонни шахс сифатларини марказий масала деб ҳисобламоқдалар. Бизнингча, иккала қарашнинг умумийлиги шундаки, копинг ҳулқни намоён этишнинг оқибати инсонни мавжуд шароитга адаптациясини ва психологик эсон-омонлиги, хотиржамлигини таъминлашга хизмат қилади.

Копингни ўрганишга бағишланган тадқиқотларни ўтказишда интегротив вазиятли-шахсиятли, яъни комплекс ёндошувини қўллаш мақсадга мувофиқдир деб ҳисоблаймиз, чунки бунда қийин вазиятда қолган шахсни барча томонларини, яъни, ҳам вазият хусусияти, ҳам шахс хусусиятларини идрок этиш, баҳолаш, изохлаш учун имкон бўлади. Бу борада Л.И. Анциферова, R. Lazarus ва S. Folkmanларнинг қарашларига таяниш керак деб ҳисоблаймиз. Бунинг учун ҳам фундаментал, ҳам тадқиқий изланишларни олиб бориш лозим бўлади ва шу орқали психодиагностик, психокоррекцион усулларни такомиллаштириш, янги объектив маълумотларни олишга имкон берадиган тест, методикаларни яратиш, шунингдек комплекс ёндошувнинг ривожланишига шароит яратилади.

Шундай экан, интенсив ривожланаётган жамиятда фаолият юритишга қобил бўлган етук кадрларни тайёрлаш, саломатлиги, ижтимоий келиб чиқиши, оилавий вазияти, иқтисодий аҳволи ва бошқалардан қатъий назар, барча бўлажак мутахассисларга тенг шароит яратиш мақсадида ОЎЮларидаги психологик хизмат соҳасини комплекс такомиллаштириш учун қийин ҳаётий вазиятда (ҚХВ) қолган талабалар копинг-ҳулқини илмий ўрганиш, олинган натижалар асосида таклифлар ишлаб чиқиш ва амалиётга тадбиқ этиш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 декабрдаги ПФ-5270-сон "Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори.
2. Юсупов Д. Инклюзивное высшее образование. 2 марта 2019. Интернет-издание «Газета.уз» // <https://www.gazeta.uz/ru/2019/03/02/dicabled/>
3. Лотова И.П. Качество жизни инвалидов как междисциплинарная проблема // Медико-социальная экспертиза и реабилитация. 2015. № 18 (2). С. 53—57
4. Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. New York, NY: Harper & Row Publishers.
5. Психотерапевтическая энциклопедия / под ред. Карвасарского Б.Д.; 2-е изд. — СПб.: Питер, 2002. - 1024 с. — (Золотой фонд психотерапии). - С. 217 - 219.
6. Corsini, R. J. *The Dictionary of Psychology* / R. J. Corsini. — New York : Brunner-Routledge, 2002. — 1156 p. — P. 223.
7. Мещеряков, Б. Г. Большой психологический словарь / Сост. и общ. ред. Б. Г. Мещеряков, В. П. Зинченко. — Москва : АСТ, 2009. — 811 с.
8. Белан, Е. А. Концепция психологии активности в жизненных ситуациях / Е. А. Белан // Ярославский педагогический вестник. — 2011. — № 3. — С. 228–232.
8. Хекхаузен, Х. Личностные и ситуационные подходы к объяснению поведения / Х. Хекхаузен // Психология социальных ситуаций: Хрестоматия / Сост. Н. В. Гришина. — Санкт-Петербург : Питер, 2001. — С. 58–91.
9. Weber, H. Breaking the rules: Personal and social responses to coping norm violations / H. Weber // *Anxiety, Stress and Coping: An International Journal*. — 2003. — Vol. 16, № 2. — P. 133–153.
10. Compas, B. E. An agenda for coping research and theory: basic and applied developmental issues / B. E. Compas // *International Journal of Behavioral Development*. — 1998. — Vol. 22, № 2. — P. 231–237.
11. Schore, A. N. Affect regulation and the origin of Self. The neurobiology of emotional development / A. N. Schore. — Hillsdale : Lawrence Erlbaum Associates, 1994. — 700 p.
12. Старченкова, Е. С. Концепция проактивного совладающего поведения / Е. С. Старченкова // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия: Психология. Социология. Педагогика. — 2009. — № 2. — С. 198–205.
13. Aspinwall, L. G. A stitch in time: Self-regulation and proactive coping / L. G. Aspinwall, S. E. Taylor // *Psychological Bulletin*. — 1997. — Vol. 121. — P. 417–436.
14. Schwarzer, R. Positive coping: mastering demands and searching for meaning / R. Schwarzer, N. Knoll // *In Comprehensive Handbook of Psychology*. — 2003. — Vol. 9. — P. 393–409.
15. Lazarus, R.S., Folkman, S. Stress, appraisal and coping. / R.S. Lazarus, S. Folkman. — N.Y., 1984 — 456 p.
16. Coyne J.C., Aldwin C, Lazarus R.S. Depression and coping in stressful episodes. *J Abnorm Psychol*. 1981 Oct; 90(5): 439–447.
17. Weber. H. Belastungsverarbeitung / H. Weber // *Z. fur Klinische Psychologic*. - 1992. - Bd. 21. - H. 1. - S. 17-27.
18. Анциферова Л.М. Личность в трудных жизненных условиях: переосмысливание, преобразование жизненных ситуаций и психологическая защита / Л.М. Анциферова // *Психол. журн*. — 1994. — Т.15. — №1. — С.3–18.
19. Нартова-Бочавер, С.К. "Coping behavior" в системе понятий психологии личности / С.К. Нартова-Бочавер // *Психологический журнал* / Ред. А.В. Брушлинский, И.О. Александров, И.И. Чеснокова. — 1997. — Том 18 №5 сентябрь-октябрь 1997. — С. 20-30. — URL: <http://www.psychlib.ru/inc/absid.php?absid=87728> .
20. Никольская И.М., Грановская Р.М. Психология веры как основа кризисной психологической помощи в совладании с переживанием утраты // *Вестник психотерапии*. — 2014. — №49 (54). — С.39–48.
21. Василюк, Ф. Е. Психология переживания: Анализ преодоления критических ситуаций / Ф. Е. Василюк. — Москва: МГУ, 1984. — 240 с.
22. Стойков, И. Д. Анализ защитных проявлений личности: Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.01 / И. Д. Стойков. — Москва, 1986. — 160 с.
23. Корытова, Г. С. Защитно-совладающее поведение субъекта в профессиональной педагогической деятельности : Дис. ... д-ра психол. наук : 19.00.07 / Г. С. Корытова. Иркутск, 2007. — 533 с.
24. Laura, A. (2019). The main approaches to the study of the difficult life situation in socio-psychological research. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2019.

Alisherova Zulfiya Tolibjanovna,

Andijon davlat Pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya kafedrasida doktoranti

GLOBALLASHUV JARAYONLARIDA O'SMIRLAR IJTIMOYILASHUVINING XULQ-ATVORIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlarning ijtimoiylashuvida globallashuv jarayonlarining ta'siri haqida yoritib berilgan. Ilm-fan texnika rivojlangan sari o'smir xulqiga salbiy yoki ijobiy ta'sir qilish tomonlari psixolog olimlarining nazariyalari orqali izohlab o'tilgan. O'smirlarning bu davridagi qiziqish va intilishlari ularni shakllantirish yo'nalishlari hamda shaxslararo munosabatlardagi agressiv xulq-atvorining namoyon bo'lish omillari ko'rsatib o'tilgan. O'smirlar ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ularni amaldagi turmush talablariga globallashuv jarayonlarida muvofiq moslashuvi bo'lishi, ehtimol.

Kalit so'zlar: globallashuv jarayonlari, o'smirlar, xulq-atvor, ijtimoiylashuv, qiziqishlar, qobiliyatlar, agressiya, ijtimoiy muhit, fiziologik xususiyatlar, biologik tur.

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛИЗАЦИИ ПОДРОСТКОВ В ПРОЦЕССАХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В данной статье освещается влияние процессов глобализации на социализацию подростков. С развитием науки и техники аспекты отрицательного или положительного влияния на поведение подростков стали объясняться теориями психологов. Показаны интересы и стремления подростков в этот период, направления их формирования и факторы проявления агрессивного поведения в межличностных отношениях. Одним из основных факторов социализации подростков является их адаптация к современным требованиям жизни в условиях глобализации.

Ключевые слова: процессы глобализации, подростки, поведение, социализация, интересы, способности, агрессия, социальная среда, физиологические особенности, биологический тип.

INFLUENCE OF THE SOCIAL BEHAVIOR OF ADOLESCENTS IN GLOBALIZATION PROCESSES

Abstract: This article sheds light on the impact of globalization processes on the socialization of teenagers. With the development of science and technology, the aspects of negative or positive influence on adolescent behavior have been explained through the theories of psychologists. Interests and aspirations of teenagers in this period, the directions of their formation and the factors of manifestation of aggressive behavior in interpersonal relations have been shown. One of the main factors of the socialization of teenagers is their adaptation to the current requirements of life in the process of globalization.

Key words: globalization processes, adolescents, behavior, socialization, interests, abilities, aggression, social environment, physiological characteristics, biological type.

Bilimli avlod – buyuk kelajakning,
Tadbirkor xalq – farovon hayotning,
do'stona hamkorlik esa – taraqqiyotning kafolatidir!
Sh.M.Mirziyoyev

Kirish. Har bir davr o'zining turli xil kashfiyotlari bilan, har xil imkoniyat va o'zgarishlari bilan jamiyatga, undagi insonlarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ilm-fan texnika rivojlangan sari insonning hayot tarziga, ruhiyatiga o'z ta'siri bilan katta o'zgarishlar yasaydi. Zero, Hurmatli Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning Konstitutsiyamizning 26 yilliligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida; “Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan e'tibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi. Men bunga ishonaman” degan da'vati xalqning har bir qatlamiga ilmi, ma'naviyat yuksak, mustaqil fikrga ega, kreativ fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalashda burch hissini yuklaydi. Albatta, yurt ravnaqi avvalo ilmi salohiyatli yoshlar qo'lidadir. Hozirgi ilm-fan texnika taraqqiyoti shu darajada jadal ketayotibdiki, kechagi buyuk yangilik kashfiyot zum o'tmay oddiy eskilikka aylanib ulguraypti. Zamoni bu darajada globallashishi yangidan yangi imkoniyatlar bilan birgalikda insonning xulq-atvoriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Globallashuv jarayonlari insonni shaxs bo'lib ulg'ayishi uchun o'zining ma'lum bir hissasini

qo'shadi. Bu shaxsning faoliyatida, kasbiy, ilmiy, hayotiy faolliklarida namoyon bo'ladi. Qaysidir sohadagi faoliyatlar globallashuv jarayonlari natijasida texnika yutuqlari sababli bajarilishi osonlashadi. Shu bilan birgalikda, globallashuv jarayoni o'smir agressiv holatlarini keltirib chiqaruvchi jarayonmi? Yoki agressiyani jilovlash manbaimi? Buni o'rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Globallashuv jarayonlari o'smir shaxsining dunyoqarashiga, o'y-fikrlariga, harakat yo'nalishiga hattoki, kelajak hayotda qaysidir sohani egallashlari uchun ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Chunki bu turga mansub bo'lgan shaxslarning bir oilada, bir jamiyatda, bir xil muhitda o'ssa ham ularning ongi, fikrlash tarzi, hayotiy vaziyatlarga qarshi xatti-harakatlari turlicha bo'ladi. Bunga sabab o'smirlarning gender xususiyatlarining tabiiy-ijtimoiy, moddiy, ma'naviy ta'sirlarga bog'liqlik yoki bog'liq emaslik jihatlari ochib berish ilmiy maqolamizning maqsadini belgilaydi.

Insonning o'z xatti-harakatlarini ma'lum bir me'yoriy tizimlar asosida, ma'lum bir fikrlar qurshovida bajarishi, uning shu biologik turning ongli vakili sifatida xarakterlaydi. “Inson amaliy faoliyatda ma'lum madaniyat talablariga rioya qilishi, uni amalga oshirishi, kishilarning jamiyatga birlashtirishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi” [5; 377-b.]. Demak, bundan ko'rinib turibdiki, o'smirlar ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan biri ularni amaldagi turmush talablariga globallashuv jarayonlarida muvofiq moslashuvdir. Ya'ni, hayotiy vaziyatlarda globallashuv jarayonlarining salbiy tomonlarini emas, balki imkoniyatlariga o'smirlar faol, kirisha olishidir. “Chunki o'smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o'z o'rni topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O'z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi, jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, u kamchiliklarini tan olmaslik, urishqoqlik kabi xususiyatlar xos” [6;63-b].

O'zimizning mentalitetimizga xos, diniy e'tiqodimizdan kelib chiqib milliy qadriyatlarimiz, axloqiy normalarimiz o'smir shaxsi o'zida namoyon bo'layotgan jinsiy belgilarning o'ziga xos xususiyatlarni tushunib anglashi uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi. Bu biologik tur bo'lishi insonni biologik xohishlarini tizimga solishi uchun o'z ta'sirini o'tkazadi. Insonning biologik xususiyatlaridan yana biri o'zgaruvchanligidir. Inson irqi o'zgarmas bo'lsa, fiziologik xususiyatlari o'zgaruvchandir. Insonlarning gavda tuzilishi, bo'yi zamonlar almashishi bilan globallashuv jarayonlarining ta'siri natijasida o'zgarib turadi”. Bu esa insonlarning irsiy genetik xususiyatlarining o'zgarib borishiga sabab bo'ladi” [5;384-b]. Masalan, agar XX asr boshlarida tug'ilgan ota-bobolarimizni rasmini kuzatadigan bo'lsak, ko'pchiligini bo'yi uzun, novcha ekanligining guvohi bo'lamiz. Yillar o'tgan sari globallashuv jarayonlari natijasida insonlarning o'rtacha bo'y ko'rsatgichi ancha pastlab ketganini ko'rishimiz mumkin.

Tahlil va natijalar.

O'smir shaxsining o'ziga xos individual takrorlanmas xususiyatlari ota yoki onasi tarafidan genlar orqali o'tishi mumkin. Bu xususiyatlar ijtimoiy muhit, ijtimoiy omillarda tarbiyalanishi, faollashishi yoki susayishi mumkin. O'smir ham tabiiy, ijtimoiy shu bilan birgalikda oilaning hamda globallashuv jarayonlarining mahsulidir. Chunki, o'smir yosh davrida tabiiy o'zida fiziologik o'zgarishlarga duch keladi, y'ani bo'yning o'sishi, gavda vaznining ortishi kuzatiladi. “Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bogliq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashida namoyon boladi” [3;241-b].

Ijtimoiy mahsul - uni o'rab turgan atrof-muhit, maktab va maktabdan tashqaridagi o'rtoqlarining fikrini hisobga oladigan yosh hisoblanadi. Uni o'rab turgan o'rtoqlarini qiziqishlari uni qiziqishlariga aylanadi. Masalan, qaysidir doiradagi o'rtoqlarining ichida kimningdir qo'shig'i urf bo'lsa, o'smir uchun ham uning qo'shiqlariga qiziqish ko'chib o'tadi. Yoki, qaysidir raqs urf bo'lsa, o'smir shu raqsdagi xatti-harakatlarni bajarishga, uni egallashga harakat qila boshlaydi.

Oila mahsuli bu - uning oilada o'rgangan ta'lim-tarbiyasi oilaning o'zining axloqiy normalarini qanchadir miqdorda o'zlashtirishi misol bo'la oladi. “Normal oilaviy sharoitda tarbiyalangan bolalarning juda ko'pi mehribon, dilkash va itoatli bo'ladi. Ular kattalar iltimosini bajonudil bajaradilar” [7; 270-bet].

Globallashuv jarayonlari mahsuli deganda, tushunishimiz kerakki, yuqorida sanab o'tilgan omillarning hozirgi zamon imkoniyatlaridan kelib chiqqan talablari hamda ilm-fan, texnika rivojini o'smir shaxsi ijtimoiylashuviga ta'sir jarayonini ta'kidlashimiz mumkin.

“Erix Frommning fikricha, bunga ilmiy-texnik revolyutsiya sabab bo'lib, u odamlarni ko'p tashvishlardan xalos qiladi, mehnat qilishga qulay sharoit yaratadi, natijada odamlar yolg'iz ishlashga o'tadi. Urbanizatsiya “shaharlashuv” ham odamlarni bir-biridan uzoqlashuviga olib keladi. Odam dunyodagi


hamma narsadan uzoqlashadi, begonalashadi, hamma narsadan ozod bo‘ladi. U dunyodan ham, odamlardan ham birga mehnat qilayotgan va birga o‘qiyotgan do‘stlaridan ham uzoqlashadi. Odamning begonalashuvi paydo bo‘ladi, buni Fromm “negativ ozodlik” deb ataydi. Bu holat odamni ezadi va nevrozni keltirib chiqaradi” [2;19-bet] Rivojlangan jamiyatda begonalashuv nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy sohada balki barcha sohalarida hatto axloq va odobda ham namoyon bo‘ladi. Frommning fikricha, bunga ilmiy-texnik revolyutsiya sabab bo‘lib, u odamlarni ko‘p tashvishlardan xalos qiladi, mehnat qilishga qulay sharoit yaratadi, natijada odamlar yolg‘iz ishlashga o‘tadi. “...ozodlikning rivojlanishiga imkon bergani holda, alohida individlar o‘rtasidagi barcha aloqalarni yo‘q qilishga ham yordam berdi” {2;136-137}.

Demak, E. Fromm ham fan-texnika taraqqiyotini, ya‘ni globallashuv jarayonlarini insonga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi deb hisoblagan.

O‘zbekistonlik olimlarimiz A.Do‘stmuhammedova, Z.T. Nishonova esa, “o‘smirlik yoshidagi agressivlikni sabablarini “ўзи хақидаги мавжуд фикрларининг бугун унда содир бўлаётган ўзгаришларга тўғри келмаётганлиги ўсмирни асабийлашишига олиб келади. Бу эса ўсмирда ўзи хақида салбий фикр ва кўрқувни юзага келтириши мумкин“ [4;136-b] deb ta‘kidlaganlar. Bundan kelib chiqadiki, globallashuv jarayonlari o‘smirlarning ijtimoiylashuviga ham ijobiy ham salbiy ta‘sir qilibgina qolmay, shu ijtimoiylashuvning o‘zi ham agressiyani keltirib chiqarishi mumkin ekan.

O‘smirlarda faollik qiziqish kuchli bo‘lganligi uchun ilm-fandagi texnika yangiliklari ularning o‘ziga jalb qiladi. Eng oxirgi rusumdagi telefon egasi bo‘lish, eng oxirgi yangi model mashunasini minish o‘smirlarni qiziqish ehtiyojlaridan biri hisoblanadi. Bu qiziqish natijasida biror narsa yaratib ko‘rishga, biror yangi faoliyat olib borishga intiladilar. Buning natijasida, telefonlarda shu qiziqqan faoliyatiga doir videoroliklar, yangiliklarni qiziqish bilan tomosha qilishni boshlaydilar. O‘g‘il bolalarda mashina harakatlari, rusumlari, uni minish usullariga qiziqsa, aksar qiz bolalarda ovqat qilish, turli xil shirinliklar tayyorlash, bezak, taqinchoq buyumlarini yasash, hamda kiyinish usullariga oid videoroliklar ko‘rish ehtiyojlari ortadi. Shu bilan birgalikda bu ehtiyoj zaminida telefon internet bilan birgalikda undagi boshqa saytlarga kirib ko‘radi. O‘smirlarda internet qaramligi ro‘y beradi. Internetdagi qaysidir o‘yinga kirib ko‘rib shu saytni doimiy kuzatuvchisiga aylanadi. O‘smirlar foydali mashg‘ulotlardan ko‘ra, keraksiz, befoyda narsalarga vaqtini sarflashlari haqida P.N. Leventuyev o‘z asarida “Kerakli xislatlarni mehnat, o‘qish va ijtimoiy ishlarda tarbiyalash o‘rniga soxta tadbirlar bilan o‘zlariga singdirmoqchi bo‘ladilar” [7;280-b] deb ta‘kidlab ketganlar.

Ko‘pchilik o‘smirlar odamlardagi sifatlarni noto‘g‘ri tushinib oladilar. Masalan, qo‘rqmaslik sifatlarini hovliqmalik ila namoyon etadilar. Epchillikni shoshqaloqlik bilan, qat‘iyatni qaysarlik bilan aralashtirib tashqi tomonga ifoda etishlari mumkin. O‘smirlar bu sifatlarni jasurlikni - chapaniik, behuda o‘jarlikni - prinsipli, qat‘iyatli deb, dadillikni hovliqmalik, hozirjavoblikni betgachoparlik deb tushunadilar.



P. N. Leventuyev fikricha, “O’smir xulqidagi tuturiqsizlik qo’zg’alish va tormozlanish protsessidagi muvozanatsizlik yoki oiladagi tarbiyada bo’ladigan ziddiyatlar yoki maktab va oila talablari orasida birlik bo’lmashligi yoki boshqa turli xarakterdagi qiziqishlar natijasida hosil bo’lishi mumkin. Taxminan ana shu sabablar xatti-harakat va e’tiqod o’rtasida tafovut keltirib chiqarishi ham mumkin” [7;282-b].

Demak, o’smirlardagi agressivlik ular xulqidagi tuturuqsizlikda, xatti-harakatlaridagi keskin tafovutda, qaysarlik, qo’pollik har bir vaziyatga tajovuzkor reaksiya berishida kuzatiladi.

Xulosa va takliflar.

Hozirgi fan-taxnika taraqqiyoti davrida texnika vositalaridan to’g’ri foydalanishni yosh avlodga o’rgatibgina qolmay balki, ularga ham o’rnak bo’lishimiz kerak. Bu xususda prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Оддий қилиб айтганда, фарзандларимизга болалик пайтидан “яхши” ва “ёмон”, “мумкин” ва “мумкин эмас” деган тушунчалар ўртасидаги фарқни ўргатишимиз, ўзимиз эса уларга доим шахсий намуна бўлишимиз керак.”[1:] deb bergan o’gitlarini biz kattalar amalda qo’llay olishimiz kerak. Buning uchun kattalar globallashuv zamonda telefon va internetdan foydalanishni me’yorini bilib, kerakli axborotdan foydalanish usullarini o’zlashtirib ularga o’rnak bo’lishimiz kerak. Bo’sh vaqtimizni internet kuzatuvchisi sifatida o’tkazib yubormasdan o’smirlar tarbiyasi uchun ko’proq vaqtni taqsimlash kerak. O’smirlar ta’lim-tarbiyasida telefon, internetdan foydalanayotgan holatlarini o’rganib chiqib, ularning xulqiga ta’sir qiladigan sabablarini o’rganish kerak.

Uning samarasi va zararlarini hisoblab bolaning qiziqish ehtiyojlarini to’g’ri yo’naltira olish lozim. P. N. Leventuyev va V.E. Chudnikov fikricha, “Ko’pincha bola xatti-harakatining biror xususiyati asosida bitta emas, balki bir-biri bilan bog’liq bo’lgan bir qancha sabablar bo’ladi” [7;282-b]. Demak, sabablarini yaxshi o’rganib, ularning ehtiyoji va qiziqish samarasi ko’rinsa, shu soha vakilini o’smir bilan individual ishlash imkoniyatlarini yaratib berish kerak. Uning bu xususiyatlarini yanada o’stirish, agressiv holatlar sabablarining mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Chunki o’smir bilan individual ishlash qobiliyat va qiziqishlari hisobga olinsa, shu sohadagi yangilik yaratuvchi, kreativ kadrlarni tayyorlash zaminini yaratadi. Chunki bilim va turmush tarziga bog’liq bo’lgan xususiyatlar, qobiliyatlar aynan o’smirlik davrida namoyon bo’ladi. Agressiv o’quvchilardagi qiziqishlarga befarq bo’lmay, uning qobiliyatlarini ma’lum tomonga yo’naltira olsak, ulardagi agressiyadagi shiddatkorlikni yangilik yaratuvchanlik yo’lidagi ikkilanish bilan almashgan bo’lamiz. O’smirlar ustaxonalarda zavq bilan ishlaydilar va bo’sh vaqtlarda biror narsa yasaydilar, kashf qiladilar. Buning asnosida o’smirlarda texnikaga bo’lgan bu qiziqishlarini o’stirish, ma’lum bir bilimlarning egallashlariga sababchi omillarni yaratish zarur. Chunki, o’smirlar o’zlarining chinakam qobiliyatlarini aniqlashga qiynaladilar. Ular nimaga qiziqsa, shu ish bilan shug’ullanib ko’radilar. Bu ish natija bermasa, darhol boshqa ish bilan shug’ullanadilar. Ularda sabr yetishmasligi sabab tezda natijaga erishishni xohlaydilar. Ular maqsadiga erishish yo’llarini asta-sekin o’zlashtirishga qanoat qila olmaydilar.

O’zbekistonlik olimlarimiz, Z.T.Nishanova, N.G’.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarovaga tegishli asarlarda keltirishicha, “Ular o’zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o’rtoqlari va o’qituvchilariga ko’rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo’li bilan ham osongina ko’rish mumkin”[3; 241-bet]. O’smirlar xatti-harakatlarini kuzatib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, o’smirlar qandaydir rasmni o’xshatib chizgan bo’lsa o’rtoqlari va o’qituvchilariga ko’rsatib maqtoov olishni xush ko’radilar. Ustachilik yo’li bilan qandaydir buyumni yasagan bo’lsa, qizlar esa nimadir tikkan bo’lsa bundan juda ham quvonib ketadilar. Yoki texnikaga qiziqsa, tuzatgan, yasagan buyumlarini hammaga namoyish qilishni xohlaydilar. O’smirlarni o’z qiziqqan sohasiga yo’naltirish lozim. Ularga sharoit hamda shug’ullanishlari uchun qaysi hunarga yoki san’atga qiziqsa, shu yo’nalishga yo’naltirish muhimdir. Buning uchun tikishga qiziqqan qizlarga tikuvchilikka sharoit yaratib berish kerak. Pazandachilikka qiziqqan qizlarga ular pishirmoqchi bo’lgan narsalarni uddalashlariga ishonch bildirish juda muhimdir. Chunki pishirgan narsalari o’xshamay qolsa keyin bir umr shirinlik pishirish meni ishim emas, deb qaytib bu ishga qo’l urmasligi mumkin. Buning uchun kattalarni ular bilan qiziqtirib birgalikda bajarishi shu faoliyatni yaxshi o’zlashtirishi uchun samara beradi. Texnologiyaga qiziqadigan o’smirlarga apparatlar, mashinalar yurish usulini o’rgatish, texnikaga oid ma’lumotlarni berib borish, texnologiya sohasidagi eng so’nggi ma’lumotlarni u bilan bo’lishish kerak. Eng asosiysi, texnikaviy amaliy mashg’ulotlarida asosan o’smir bilan birgalikda faoliyat olib borish zarur. Mashinani qismlarga ajratish, ularni ta’mirlash, yangi qismlarni biriktirish va shunga o’xshash amaliy faoliyat o’smir shaxsi qiziqish qobiliyatlarini tarkib topishiga hamda bilim, ko’nikma, malakalarni egallashlariga asos bo’ladi. Shundagina, prezidentimiz aytganidek:” Yurtimiz tinchligi, Vatanimiz ravnaqi, fuqarolarimizning huquq va erkinliklarini ta’minlash, o’g’il-qizlarimizning ilmga, hunarga bo’lgan intilishlarini har tomonlama kuchaytirish, tadbirkorlik tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash kelgusida ham islohotlarimiz markazida bo’ladi”[1] degan gaplariga hamohang biz kattalar

tomonidan o'smirlarni o'z qiziqtirgan sohalariga yo'naltirib, hayotda o'z o'rinlarini topishlari uchun qilgan harakatlarimiz o'z samarasini beradi.

Adabiyotlar:

1. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir - Xalq so‘zi <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-respublikasi-konstitutsiyasi-qabul-qilinganining-26-yilligiga-bagishlangan-tantanali-marosimdagi-ma'ruzasi>
2. Erix Fromm Ozodlikdan qochish . Yangi asr avlodi 2021 yil
3. Nishonova Z.T., Kamilova N.G'., Abdullayeva D.U., Xolnazarova M.X. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. –Toshkent, 2019.
4. Do'stmuhammedova Sh. A., Nishonova Z. T., Jalilova S.X., Karimova Sh.T., Alimbayev Sh.T. Yosh davrlari va pedagogik-psixologiya. 2013 136-b.
5. Choriyev A. Inson falsafasi. Ozbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
6. Davletshin M.G., Do'stmuhammedova Sh., Mavlonov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik-psixologiya. Toshkent, 2004. 63-bet
7. Leventuyev P. I., Chudnikov V. E., Vohidov M.B., Asqarxo'jayev A.A. Bolalar psixologiyasi ocherklari. O'qituvchi nashriyoti, 1964.
8. Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna. [2022]. Abu Homid G'azzoliy va Zigmund Freyd asarlaridagi psixologik g'oyalarning talqini. Eurasian Journal of Academic Research, 2[1], 213–218. <https://doi.org/10.5281/zenodo.5910168>
9. Alisherova. Z. T. Middle european scientific bulletin. 2022 yil. 17-20-betlar. Issn 2694-9970 <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1344>
10. Alisherova Z.T. [2022]. Bola shaxsida mehnatga ijtimoiy-psixologik tayyorligining shakllanishi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6778509>
11. Sattarova I.M., Abdulmadjidova M. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'yinli texnologiyalaridan foydalanish pedagogik zarurat sifatida <https://sciencebox.uz/index.php/ajed/article/view/401/383>
12. Abdulmadjidova M. Muloqot – bola psixik rivojlanishining muhim omili <https://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/591>

Даулетова Гўзал Муратбаевна,
Қорақалпоқ давлат университети

**МОСЛАШИШ ФЕНОМЕНИ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР
ПРЕДМЕТИ СИФАТИДА**
(*"Темурбеклар мактаби" ҳарбий академик лицейи мисолида*)

Аннотация: Мақолада ўсмирларнинг ҳарбий академик лицей ҳаётига мослашишини ўрганиш, ўсмирлик даври инқирози, ўсмирлик ёшдаги психологик ўзгаришлар, мослашиш жараёни бўйича психологларнинг ўрганган маълумотлари, мослашиш муаммоси, шахснинг кичик гуруҳдаги мослашиши бўйича маълумотлар берилган. Психологик адабиётларда кўпинча "шахснинг мослашуви", "ижтимоий мослашув", "психик мослашув", "шахснинг ижтимоий-психологик мослашуви" сўзлари ўзаро синоним сифатида ишлатилади ва шахснинг бошқа инсонлар ҳамда атроф-муҳит билан ўзаро таъсирини кўрсатадиган жиҳат сифатида эътироф этилади. Шунингдек адаптация, улардаги ҳиссий кечинмалар, сезгирлик, ўқув фаолияти, ўсмирлардаги фаоллик ва мустақилликка бўлган интилиши, тенгдошлар билан мулоқот қилиши ҳақидаги масалалар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ўсмирлик даври, мослашиш, адаптация, шахс, индивидуаллик, ижодий фаолият, сезгирлик, ҳиссийёт, мулоқот, идрок, тасаввур.

**ФЕНОМЕН АДАПТАЦИИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО
ИССЛЕДОВАНИЯ**

(*на примере военного академического лицея «Темурбеклар мактаби»*)

Аннотация: В статье представлены сведения об изучении адаптации подростков к жизни военно-академического лицея, подростковом кризисе, психологических изменениях в подростковом возрасте, сведения, полученные психологами о процессе адаптации, проблема адаптации, адаптация личности в условиях малой группы. В психологической литературе слова «личностная адаптация», «социальная адаптация», «психологическая адаптация», «социально-психологическая адаптация личности» часто употребляются как синонимы и признаются аспектом, показывающим взаимодействие человека с другими людьми и окружающей средой. Также освещаются вопросы, связанные с адаптацией, их эмоциональными переживаниями, чувствительностью, учебной деятельностью, активностью и самостоятельностью подростков, общением со сверстниками.

Ключевые слова: подростковый возраст, приспособление, адаптация, личность, индивидуальность, творческая активность, чувствительность, эмоция, общение, восприятие, воображение.

**THE PHENOMENON OF ADAPTATION AS A SUBJECT
OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH**

(*on the example of the military academic lyceum "Temurbeklar Maktabi"*)

Abstract: The article presents information about the study of adolescent adaptation to the life of a military academic lyceum, adolescent crisis, psychological changes in adolescence, information obtained by psychologists about the adaptation process, the problem of adaptation, personality adaptation in a small group. In the psychological literature, the words "personal adaptation", "social adaptation", "psychological adaptation", "socio-psychological adaptation of the personality" are often used as synonyms and are recognized as an aspect that shows a person's interaction with others, people and the environment. It also highlights issues related to adaptation, their emotional experiences, sensitivity, educational activities, activity and independence of adolescents, communication with peers.

Key words. Adolescence, adaptation, adaptation, personality, individuality, creative activity, sensitivity, emotion, communication, perception, imagination.

Кириш. Юксак интеллектуал салоҳиятга, замонавий фикрлаш ҳамда дунёқарашга эга, давлатимиз манфаатлари ва суверенитетини фидокорона ҳимоя қилишга тайёр бўлган ҳар томонлама камол топган, жисмонан соғлом ва маънавий етук ёш авлодни тарбиялаш тизимини яратишга

қаратилган давлат сиёсатини фаол ва изчил амалга оширишни таъминлаш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Мудофаа, Ички ишлар, Фавқулодда вазиятлар вазирликлари, Давлат хавфсизлик хизмати, Миллий гвардияси таркибида принципиал янги “Темурбеклар мактаби” ҳарбий-академик лицейлари ташкил этилди ва “Темурбеклар мактаби” ҳарбий академик лицейи тўғрисидаги Низомнинг 2-бобида (“Темурбеклар мактаби”нинг мақсад ва вазифалари) “Ўқувчиларни маънавий-ахлоқий ва ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларнинг интеллектуал ва ижодий салоҳиятини ривожлантириш, мамлакатимиз суверенитети ва мустақиллигини таъминлаш учун масъулият ҳиссини ошириш, шунингдек, уларнинг ҳуқуқий билим ва маданиятини, Ўзбекистон Республикасига содиқ фидойи фуқароларни аниқ мақсадли ва тизимли тайёрлаш самарадорлигини такомиллаштириш “Темурбеклар мактаби” фаолиятининг мақсади” этиб белгилаб берилганлигини кўришимиз мумкин.

“Темурбеклар мактаби” ҳарбий академик лицейи тўғрисида Низомнинг 4-бобида “Темурбеклар мактаби” ўқувчиларини саралаш тартиби белгилаб берилиб, унга кўра “Темурбеклар мактаби”га умумтаълим ва ихтисослаштирилган мактаб-интернат мактабларининг 9-синфини тамомлаган, соғлиғининг ҳолатига кўра ўқишга яроқли деб топилган ҳамда ҳаққоний ва шаффофлик тамойилларига асосланган саралаш танловидан муваффақиятли ўтган, эркак жинсли Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари ўқишга қабул қилиниши белгилаб берилган.

Асосий қисм. Педагогик-психологик адабиётлар таҳлиliga кўра 9-синфни тамомлаган ўқувчилар ёш давлари нуктаи назаридан ўсмирлик даврига мансуб ва ушбу давр ўзига хос инкирозли давр сифатида тафсифланади.

Темурбеклар мактабида таълим олишни давом эттириш ўсмир учун бир қатор қийин вазифалар ва янги турмуш шароитига мослашишни талаб қилади. Ўсмир олдида турган энг муҳим муаммолардан бири янги, қатъий ва мураккаб ташкил этилган шароит ва талабларга мослашиш муаммосидир. Шунинг учун асосий назарий конструкция сифатида мослашув тушунчасини ижтимоий-психологик ёндашув нуктаи назаридан таҳлил этамиз. Ушбу жараён одатий ижтимоий шарт-шароит ва талаблар ўзгарганида ёки шахснинг таниш муҳит билан ўзаро муносабати мазмунида ўзгариш кузатилганида ўзини намоён қилади.

Тадқиқот ишимиз доирасида ўсмирларни ҳарбий академик лицей ҳаётига мослашишининг ижтимоий-психологик асосларини тадқиқ этишда, аввало, ўсмир шахсининг ижтимоий-психологик хусусиятлари мазмунини ифодаловчи мослашиш феноминининг мазмунини, тузилишини, таркибий қисмларини таҳлил этишни жоиз деб ҳисоблаймиз.

Биринчи марта “мослашиш” атамаси (лотинча *adapto-* мослаштираман) 18 асрнинг иккинчи ярмида ишлатилган. Немис физиологи Ауберт кўриш ва эшитиш органларининг ҳаракатларга жавобан сезгирлигини мослаштириш ҳодисасига нисбатан ушбу тушунчадан фойдаланади.[1,22-б]

Қ.Турғуновнинг русча-ўзбекча психология терминларининг изоҳли луғатида адаптация тушунчаси куйидагича изоҳланади: адаптация-(лат. Адаптатио-тўғриланмоқ, мосланмоқ, созланмоқ) – адаптация, сезги органлари (анализаторлар)нинг таъсурот кучига мослашуви натижасида муайян сезгирликнинг ўзгариши. Адаптация ҳодисасида сезгирлик ортиш томонига ҳам, камайиш томонига ҳам ўзгариши мумкин; кучли таъсуротдан кучсиз таъсуротга ўтганда сезгирлик аста-секин ортиб боради, таъсурот кучайганда эса, сезгирлик, аксинча, камайиб боради. Адаптация қонунияти, органик сезгилардан бошқа, барча сезгилар соҳасига ҳосдир.

Энциклопедик луғатда адаптация (лот.), биологияда-организмлар (ва уларнинг группалари) тузилиши ва функцияларининг яшаш шароитига мослашуви. Физиология ва медицинада кўникиш жараёнини билдиради.

Педагогик атамалар луғатида адаптация-ўқув жараёни, ўқув фаолиятига мослашув сифатида изоҳланади.

Фалсафа қомусий луғатида эса адаптация (лот. Адаптатио-мослашув)-жонли организмларнинг функциялари ва аъзоларининг ташқи муҳит шароитига мослашуви. Адаптация тушунчаси ҳозирги кунда фақат биология фанида қўлланибгина қолмай, балки техника, табиий ва гуманитар фанларда ҳам қўлланиши таъкидлаб ўтилади.

Юқорида келтирилган таҳлилларга таянган ҳолда, мослашув тушунчаси шахсга таъсир этувчи ижтимоий-психологик воқеликка мослашуви натижасида муайян сезгирликнинг ўзгариши, яъни ўқувчиларнинг ўқув жараёнига, уларга қўйилаётган талабларга, ўқув фаолиятига оид шахслараро муносабатларнинг барқарор кўрсаткичларига мослашиши, кўникиши жараёнини англаувчи фанлараро (биология техника, табиий, гуманитар фанлар) тушунчадир деб хулоса қилишимиз мумкин.

Мослашув тушунчаси фанлараро муаммо бўлиб, бугунги кунда педагогик, психологик, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа фанлар даражаларида ўрганилмоқда. Г.И.Царегородцев ушбу тушунчани умумий илмий тушунча деб таърифлайди.

Ҳарбий таълим муассасаларининг ўқувчиларини тайёрлаш ўзига хос ўқув муассасасининг ёпик табиати ва уларни эрта касбийлаштириш каби хусусиятларга эга бўлиб, бунда гуруҳ яқинлиги омили, гуруҳни шакллантириш жараёнларида ҳам, ўсмирларнинг шахсий ривожланишида ҳам муҳим эканлиги таъкидланади.

Ҳарбий психологияда мослашув жараёнининг қонуниятлари, психологик механизмлари ва типологияси, ижтимоий мослашувнинг ҳарбий хизматчилар турли тоифаларида намоён бўлиш хусусиятлари А.А.Алдашева, В.Я.Яблонко, А.Н.Жмыркова, Ж.Г.Сенокосова, А.А.Камышева, В.В.Попкова, И.В.Соловьева, А.В.Булгакова, В.Г.Чайкилар томонидан тадқиқ этилган.

Ҳарбий ихтисослаштирилган таълим муассасаларидаги ўсмирлар гуруҳларида махсус ёпик муассасаларнинг гуруҳларига қараганда камроқ изоляция қилиниш, ҳуқуқларининг камроқ чекланганлиги ва кутбли қатламларнинг қарама-қаршилиги аниқ ифодаланган бўлса-да, ўқувчилар ўртасидаги алоқа султлашмаслиги билан ҳарактерланади.

“Л.Филипснинг фикрича, – деб ёзади А.А.Налчаджян, “мослашувчанлик атроф-муҳитга нисбатан икки хил муносабат билан ифодаланади:

1. Ҳар бир инсон ўз ёши ва жинсига мос келадиган ижтимоий умидларни қабул қилиш ва уларга самарали жавоб бериш.

2. Янги ва потенциал хавфли шароитларга мослашувчанлик, шунингдек, воқеаларга ўзлари учун керакли йўналиш бериш қобилияти” [2,20-11 б]. Шу маънода мослашиш шахснинг ўз мақсадлари, кадриятлари ва интилишларини амалга ошириш учун яратилган шароитлардан муваффақиятли фойдаланишини аниқлатади. Мослашувчан ҳулқ-атвор муваффақиятли қарор қабул қилиш, ташаббус кўрсатиш ва ўз келажagini аниқ белгилаш билан тавсифланади.

Шунингдек, таълим олувчиларнинг ҳарбий-касбий йўналишини шакллантириш муаммолари, уларнинг Қуролли Кучлар сафида хизмат қилишга психологик тайёргарлиги масалалари В.В.Алешкин, В.Н.Лоскутовлар томонидан ўрганилганлигини кўришимиз мумкин. Бўлажак ҳарбий хизматчиларда мослашувнинг моҳиятини ҳисобга олган ҳолда, ушбу муаллифлар мослашиш жараёнининг мазмуни, мотивацион-эҳтиёжли соҳаси, мавжуд кўникмалар, қобилиятлар ва одатлар мажмуасини, янги ижтимоий ролларни ривожлантириш ҳамда ўз эҳтиёжларини қондира олиш хусусиятларига эътибор қаратадилар.

Психологик адабиётларда кўпинча “шахснинг мослашуви”, “ижтимоий мослашув”, “психик мослашув”, “шахснинг ижтимоий-психологик мослашуви” сўзлари ўзаро синоним сифатида ишлатилади ва шахснинг бошқа инсонлар ҳамда атроф-муҳит билан ўзаро таъсирини кўрсатадиган жиҳат сифатида эътироф этилади.

И.А.Милославованинг тадқиқотларида ижтимоий-психологик мослашув ижтимоий мослашув деб изоҳланиб, олим томонидан мослашув жараёнини тизимли ижтимоий-психо-биологик ҳодиса сифатида ўрганиш методологик долзарб эканлигига эътибор қаратилади.

А.А.Реан ижтимоий-психологик мослашишни вазият талабларига мувофиқ шахснинг фаол ўзини ўзи ўзгартириши деб ҳисоблайди.

О.И.Зотова ва И.К.Кряжевларнинг тадқиқотларида ижтимоий-психологик мослашув жамиятнинг турли бўғинларида бевосита ижтимоий муҳит ва шахсий мослашувда амалга оширилиши таъкидланади. Уларнинг фикрича, мослашиш жараёнига таъсир этувчи омил – бу ҳаёт ва фаолият шароитлари бўлиб, ушбу шартларни баҳолаш ва идрок этиш меҳнат мазмуни ва фаолият мақсадларига бўлган муносабат билан боғлиқ эканлиги таъкидланади. Бироқ, шахснинг мотивацион соҳаси, индивидуал қобилиятлари ва хусусиятларига қараб мослашишнинг табиати, тезлиги ва натижасига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин. Жамоада мослашув маҳсулдор ижтимоий фаолиятнинг зарурий шarti бўлиб, ижтимоий фаоллик ва шахснинг маълум ижтимоий муҳитда мослашувисиз амалга ошмайди.

Ю.А.Александровский фикрича, психик мослашув бўғинлари иерархиясида етакчи ўринни қуйидагилар ташкил этади: ахборотни излаш, идрок этиш ва қайта ишлашни таъминловчи қуйи тизимлар; ижобий ҳиссий муносабат; ижтимоий-психологик алоқалар. Ушбу қуйи тизимларнинг биргаликдаги фаолияти психик мослашув ҳолатини яратади.[3, 89-б]

Тақдим этилган ёндашувларга қўшимча равишда, шахснинг мослашуви концепциясига нисбатан бошқа нуқтаи назарлар ҳам мавжуд.

Ю.А.Александровский мослашишни психиканинг биологик ва ижтимоий-психологик куйи тизимлари фаолияти мажмуи сифатида белгилайди.

В.С. Медведев ижтимоий мослашувни (хулқ-атвор даражасида шахснинг ижтимоий муваффақияти) шахснинг қадриятли йўналишлари, ижтимоий мавқеи, ижтимоий рол тузилмалари билан тавсифланиб, шахснинг ижтимоийлашувига (ижтимоий муносабатларнинг меъёрийлиги) асосланади, деб таъкидлайди ва мослашувни куйидаги соҳаларда намоён бўлишига эътибор қаратади:

- касбий соҳа (касбий мослашув даражаси) ва ижтимоий фаолият;
- оилавий муносабатлар соҳаси;
- норасмий муносабатлар соҳаси.

Педагогик-психологик адабиётларда мослашув ўзгаришларга олиб келадиган жараён ва шу билан бирга, мослашиш нисбатан барқарор жараён сифатида тавсифланади. Мослашув индекси кун ёки ой давомида ўзгармайди, у бир неча ойдан бир неча йилгача бўлган ораликда сезиларли ўзгаришларни очиб беради. Дастлаб эҳтиёжларнинг қондирилмаслиги мослашиш даражасига сезиларли таъсир кўрсатмайди. Сурункали норозилик ва келажакда янгиланган эҳтиёжларни амалга оширишга умид йўқлиги мослашиш кўрсаткичига таъсир қилиши мумкин.

Юқорида келтирилган назарий таҳлиллар асосида шахснинг ижтимоий-психологик мослашувида жамоада ўз ўрнини топа олиш, ўз қобилиятлари ва қизиқишларини намоён қила олиш шахснинг янги ижтимоий муҳитга мослашишининг асосий шarti бўлиб, бу маҳорат қанчалик юқори бўлса, мослашиш тезлиги шунчалик юқори бўлади деб хулоса қилишимиз мумкин. Шунингдек, шахснинг мослашув механизмлари тизимида психик мослашувнинг роли барча тадқиқотчилар томонидан таъкидланиб, улар психик мослашувнинг ташқи ижтимоий-психологик кўрсаткичларига эътибор қаратадилар.

Психологик адабиётларда кўпинча, шахснинг муҳитга мослашиши таҳлил қилиниб у онгли фаолият жараёнида амалга оширилишига урғу берилади. Тадқиқотчилар мослашиш муаммосини ўрганадиган фанлар рўйхатига фақат шахс психологияси, педагогик психология, юридик психология, тиббий психология ва акмеологияни киритишлари бежиз эмас.[4, 188-б]

В.М.Воробьевнинг тадқиқотларида психологик мослашув деганда шахс фаолиятининг нейрпсихик даражасида кузатиладиган ҳодиса ва жараёнлар тушунилиб, улар конфликтдан чиқишнинг мавжуд йўллари билан ҳал қилиб бўлмайдиган вазиятда ақлий тартибга солиш тизими сифатида намоён бўлади деб ҳисоблайди.[5, 33-39-б]

Шунингдек, педагогик-психологик адабиётлар ва психологик тадқиқотларда ижтимоий-маданий мослашув тушунчаси ҳам қўлланилиб, ижтимоий-маданий (ёки маданиятлараро) мослашув ижтимоий мослашувнинг бир тури сифатида ажратиб кўрсатилади. Ижтимоий-маданий мослашув социал-маданий фарқларга, яъни маънавий неъматлар ва хизматларни тақсимлаш ва улардан фойдаланиш имконияти, уларни истеъмол қилиш даражаси, маданий фаолиятнинг табиати ва мазмуни, субъектнинг ижтимоий-маданий ўзаро фаоллиги даражасидаги фарқларга асосланади.[6, 398-б]

М.Ю.Кондратьев шундай ёзади: “Ҳар бир турдаги ёпиқ таълим муассасаларининг ўзига хос хусусиятларига қарамай, уларнинг мақсад ва вазифаларининг ўзига хослиги, ўқувчилар контингентининг хусусиятлари (гуруҳнинг шаклланиши, ушбу муассасаларга жойлаштирилган ўсмирларнинг шахсий ривожланишида ҳам сезиларли из қолдиради) муассаса таълими мазмуни ва режим талаблари ўсмирлар ривожланишидаги ижтимоий вазиятнинг етарлича ўзгарувчанлигини сезиларли даражада ёмонлаштиради, натижада, шахслараро муносабатлар тизимида примитивлашиш ва қўполлашиш ҳолатлари кузатилади. Кейинчалик ўсмирлар билан ташкил этилган муносабатлар ривожланаётган шахсни адекват ижтимоийлаштириш йўлида енгиб бўлмайдиган тўсиқларни юзага келтиради”.[7,64-б] Ушбу психологик тадқиқотларда ўсмирларда юзага келадиган ижтимоий психологик хусусиятлар ёпиқ муассасаларнинг ўзига хос таълим шароитларининг оқибатлари сифатида қаралади.

Г.С.Салливан тадқиқотларида шахслараро муносабатларнинг ўсмирнинг мослашувига таъсири ўрганилган бўлиб, унга кўра ўсмирларнинг шахслараро муносабатларини кўриб чиқиш уларнинг ота-оналари билан муносабатлари тарихини ўрганишни тақозо этади. Бу эса янги ижтимоий муҳитида улар билан самарали шахслараро муносабатларни ўрнатишга имкон беради. Дж.Боулбининг асарларида педагогик муҳитда ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги шахслараро муносабатларнинг муваффақиятли ривожланишига болалик давридаги муносабатларнинг мазмуни таъсир ўтказиши таъкидланади. Г.В.Семья, Т.В.Шульгаларнинг изланишларида оиладаги дизадаптация, психотравматик вазиятлар махсус мактаб тарбияланувчиларининг кўпчилигига хос бўлиб,

катталарни идрок этишнинг ўзига хос хусусиятларида (уни рад этиш, хурматсизлик, кўрқув), ҳиссий соҳадаги бузилишларда, мулоқотга кириша олмасликда, юқори даражадаги тажовузкорлик ҳолатларида намоён бўлишига эътибор қаратилади.[8,13-б] Ушбу ҳолат ўсмир шахсининг катталар ва тенгдошларини ўзаро тушуниши, ҳиссий идентификатсия, ўзини ўзи англашида қийинчиликларга сабаб бўлиши мумкинлиги таъкидланади.

Ўсмир учун энг долзарб гуруҳ тенгдошлари компаниясидаги мулоқот бўлиб, гуруҳдаги "жаҳлдорлик" даражаси шахслараро ўзаро муносабатлар услубини ҳам, шахсий ривожланиш йўналишини ҳам белгилашга хизмат қилади. Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, Мулоқотдаги қийинчиликларнинг сабаблари, мулоқотнинг индивидуал психологик хусусиятлари, шу жумладан шахснинг интеллектуал, иродавий, шахсий кўринишлари бўлиши мумкин [9, 76-б].

Психолог Э.Ғозиев ўсмирлар билан муносабатда уларнинг мустақиллиги, фаоллиги, ташаббускорлиги, ўзини бошқаришини ҳисобга олиб, ортиқча ҳомийлик, ғамхўрлик қилмаслик ижобий самаралар беришини таъкидлаб ўтади.

М.В.Роммнинг тадқиқотларида шахснинг ижтимоий мослашуви унинг бошқалар билан мулоқот қилиш жараёнида содир бўлиши, шунингдек, шахснинг коммуникатив хусусиятлари ижтимоий-психологик мослашув жараёнининг мустақил элементи сифатида таҳлил этилади.

Юқорида келтирилган назариялардан махсус ёпиқ таълим муассасалари педагогик муҳитида субъект-субъект мулоқоти эмпатик тажрибаларни ривожлантиришни ифодалаб, шахснинг ўзини ўзи англашига ёрдам беради, ўзаро тушунишни шакллантиради деб хулоса қилишимиз мумкин. Шунингдек, шахсий муносабатлар тизимида ноқулайлик ҳис этадиган ўсмирлар тенгдошлари билан мулоқот қилишда қийинчиликлар, жанжалкашлик, жаҳлдорлик, кўполлик, ёлғизлик, такаббурлик, дангасалик каби ўхшаш хусусиятларга эгаллиги билан ажралиб туради ва ўсмирнинг мулоқоти асосан унинг кайфиятининг ўзгарувчанлиги билан хусусиятланади. Шахснинг мослашувчанлигини ривожлантиришда ушбу сабаб ва индивидуал хусусиятларни инобатга олиш ижобий самара беради деб ҳисоблаймиз.

Е.М.Ковалан тадқиқотларида ўсмирлик даврида ўз-ўзига берадиган баҳо хулқ-атвор ва фаолиятни тартибга солиши билан биргаликда ўсмир шахсининг ижтимоий ва психологик мослашувини белгилаши мумкинлиги ўрганилади. Муаллиф муваффақиятли ижтимоий-психологик мослашувнинг энг муҳим кўрсаткичларидан бири сифатида ўзини баҳолашни кўрсатади. Бошқалар томонидан доимий кадрсизланиш, паст баҳо берилиши ўсмир шахсида кучли шахсий ноқулайлик ҳисси кучайиб боришига, натижада, ўсмир "ўзиники" деб қабул қиладиган, кадрланадиган тенгдошлар гуруҳини қидириши ва унга аъзо бўлишга ҳаракат қилишига сабаб бўлади. Бироқ, кўпинча "четланганлар" учун жой мавжуд бўлган бундай гуруҳлар меъёрий турмуш тарзидан узоқда эканлиги кузатилади.[10,39-41]

И.К.Кряжева мослашувининг муҳим кўрсаткичлари сифатида шахснинг ўзини баҳолаши даражаси ва "муҳим бошқалар"нинг унга берадиган баҳосини муҳим деб ҳисоблайди. Бундан ташқари, ўз-ўзини баҳолаш қанчалик юқори бўлса, ташвиш безовталаниш даражаси паст бўлишини, шунингдек, ўзига бўлган ишонч, ижобий ўзини ўзи қадрлаш, ўзини ўзи қабул қилиш даражаси муваффақиятли ижтимоий ва психологик мослашувга ёрдам бериши таъкидланади.[10, 39-41]

М.Е.Гурьевнинг тадқиқотларида ўз-ўзини англаш шахс мослашувининг асосий омили сифатида қаралади. Субъектнинг атроф-муҳит томонидан ҳақиқатдан қандай идрок этилиши ва баҳоланишини англай олиш қобилияти мослашишнинг энг муҳим омили сифатида изоҳланади. Бунда шахснинг "Мен" концепцияси шахсий ижтимоий-психологик мослашув структурасининг мустақил элементи бўлиб, муваффақиятли интраперсонал мослашув учун шароит яратувчи интеграл омил ролини ўйнайди.[11]

Оила институтининг беқарорлиги, ахлоқий кадриятларнинг заифлашуви шароитида айнан ўсмирлар ва ёшлар аҳолининг энг заиф, стрессга мойил қатлами бўлиб қолмоқда. Бундай шароитда боланинг "мен"нини ривожлантириш ва мустаҳкамлаш, ўзига бўлган ишонч ва ижобий муносабатни шакллантириш, шахсий ўзини ўзи ифода этиш кўникмаларини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Кўпгина муаллифлар томонидан олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, "мен-концепция"нинг шаклланмаганлиги ва этарли эмаслиги шахсиятнинг нотўғри мослашувига сабаб бўлиши мумкин [12, 14].

Ўсмирлик даврида "Мен" концепциянинг шаклланишини кўриб чиқиш, бизнинг фикримизча, нафақат назарий, балки амалий аҳамиятга эга бўлиб, шахсни шакллантириш механизмларига чуқурроқ кириб боришга имкон беради.

Айнан мослашиш жараёнида ўсмирларда қандай психик ҳолатлар рўй бериши ва мослашиш жараёнида безовталиқ қай даражада бўлишини куйидаги методика орқали аниқлашимиз мумкин.


Тейлорнинг безовталанишни аниқлаш даражаси методикаси

Т.А.Немчинов

Саволнома 50 та тасдиқдан иборат. Фойдаланиш қулай бўлиши учун ҳар бир тасдиқ синалувчиларга алоҳида карточка тавсия қилади. Тестлаштириш 15-30 минут давом этиши мумкин.

ТЕСТ МАТЕРИАЛЛАРИ

1. Мен одатда мутлақо хотиржамман ва мени ўз ҳолатимдан чиқариш анча қийин.
2. Менинг асабимни бузилганлиги бошқа кишиларникига нисбатан ҳам кам эмас.
3. Менда баъзан ич қотиши бўлади.
4. Баъзан бошим оғриб туради.
5. Мен камдан кам чарчайман.
6. Мен доимо ўзимни бахтли ҳис қиламан.
7. Мен ўзимга ишонаман.
8. Мен ҳеч қачон қизармаганман.
9. Ўз дўстларим билан солиштирганда мен ўзимни анча ҳаракатчан ҳисоблайман.
10. Мен бошқалардек кўп қизармайман
11. Менда камдан кам юрак хуружи бўлиб туради.
12. Одатда менинг қўлим етарлича илиқ.
13. Мен бошқаларга қараганда уятчан эмасман.
14. Менда ўзимга ишонч ҳисси етишмайди.
15. Вақти келиб ҳеч нарсага яроксиздек бўлиб қоладигандек ҳис қиламан.
16. Мен ўзимни бир жойга қўя олмайдиган даражада безовталаниш бўлади.
17. Менинг ошқозоним анча безовта қилади
18. Менда олдимда турган қийинчиликларни сиқиб чиқариш руҳи етишмайди
19. Мен бошқалардек ўзимни бахтли бўлишимни ҳохлайман
20. Менга олдимда шундай бартараф этиш мумкин бўлмайдиган қийинчилик тургандек туюлади.
21. Мен кўпинча қўрқинчи тушлар кўраман
22. Мен бирор нарса қилмоқчи бўлсам қўлим титраётгандек бўлади
23. Менда хаддан ортиқ бехаловатлиман.
24. Мени имконли бўлган омадсизликлар безовта қилади.
25. Мен ҳеч нарса таҳдид солмаслигини билсам ҳам кучли қўрқувни ҳис қиламан
26. Мени ишга ёки топшириқлар устида диққатимни тўплашим қийин
27. Мен кучли зўриқиш билан ишлайман.
28. Мен тез ховлиқиб қоламан.
29. Деярли ҳар доим бирор киши ёки бирор нарсадан безовталанишни ҳис қиламан
30. Мен ҳамма нарсага жиддий қарашга мойилман
31. Мен тез-тез йиғлаб тураман
32. Мен кўпинча оғиз қуриш ва чанқашдан қийналаман
33. Мени ойида бир маротаба ёки тез-тез ошқозоним безовта қилади
34. Мен тез қизариб кетишимдан қўрқаман.
35. Мени бирор нарсага эътибор қаратишим қийин
36. Менинг моддий жихатдан қийналганлигим ҳақида ўйлайман.
37. Кўпинча мен бошқалар гапиришга журъат қилмаган нарсалар ҳақида ўйлайман
38. Менда безовталаниш уйқусизликка олиб келадиган ҳоллар бўлади.
39. Вақти-вақти билан саросима тушишим, мени жунбушга келтирувчи кўп терлашимга сабаб бўлади.
40. Хаттоки совуқ кунлари ҳам мен осонгина исийман
41. Шундай асабийлашиш бўладики, мен ухлай олмай қийналаман.
42. Мен тез асабийлашадиган одамман
43. Вақти-вақти билан ўзимни фойдасиздек ҳис қиламан
44. Шундай вақтлар бўладики жоним чиқиб кетадигандек бўлади.
45. Мени бирор нарса безовта қилса кўпинча ўзимни тутиб туришга ҳаракат қиламан



Хулоса. Юқоридаги фикрлардан келиб чиққан ҳолда шуни қайд этиб ўтиш лозимки, ўсмирларнинг ҳарбий академик лицей ҳаётига мослашишини ўрганиш куйидаги жиҳатларни алоҳида тадқиқ этишни тақозо этади:

- 1) мослашиш муаммоси ва уларга таъсир этувчи омилларни ёритиб бериш;
- 2) ўсмирларни ҳарбий академик лицей ҳаётига мослашишининг ижтимоий-психологик хусусиятларини аниқлаштириш;
- 3) ўсмир шахсининг ҳарбий академик лицей ҳаётига мослашиш мезонларини аниқлаштириш;
- 4) ўсмирларнинг ҳарбий таълимга адаптацияси компонентларини ривожлантиришнинг самарадорлигини экспериментал ўрганиш ва таҳлил этиш.

Ҳарбий таълим муассасаларининг ўқувчиларини тайёрлаш ўзига хос ўқув муассасасининг ёпиқ табиати ва уларни эрта касбийлаштириш каби хусусиятларга эга бўлиб, бунда гуруҳ яқинлиги омили, гуруҳни шакллантириш жараёнларида ҳам, ўсмирларнинг шахсий ривожланишида ҳам муҳим эканлиги таъкидланади.

Адабиётлар:

- 1.Маклаков. А.Г. Личностный адаптационный потенциал: его мобилизация и прогнозирование в экстремальных условиях // Психологический журнал. 2001. Т. 22, № 1.
- 2.Налчаджян А.А. Социально-психическая адаптация личности (формы, механизмы, стратегии)/ Отв. ред. Э.А. Александрян.- Ереван: Изд-во АН Арм ССР, 1988.- 263 с. – 11 стр.
3. Александровский Ю.А. Состояния психической дезадаптации и их компенсация. М.: Наука, 1976. 272 с.
- 4.Ларионова С.А. Социально-психологическая адаптация личности: Теоретическая модель и диагностика / С.А. Ларионова. – Белгород, 2002. – 200 с.
- 5.Сухарев А.В. Психологический этнофункциональный подход к психической адаптации человека: автореф. дисс. ... докт. психол. наук. М.: Психологический институт РАО, 1999.
- 6.Воробьев В.М. Психическая адаптация как проблема медицинской психологии и психиатрии // Обозрение психиатрии и медицинской психологии им. В.М. Бехтерева. – 1993. – N 2. – С. 33-39.
7. Кондратьев, М.Ю. Подросток в замкнутом круге общения [Текст] / М.Ю. Кондратьев. - М.: Институт практической психологии, Воронеж: НПО «МОДЭК», 1997. - 336 е.; 21 см. - 10000 экз. - ISBN 5-89395-038-0. 64 стр.
8. Шпак Л.Л. Социокультурная адаптация: сущность, направление, механизмы реализации: Дис. ... д-ра социол. наук. Кемерово, 1992. 398 с.
9. Морозова Е.В. Влияние межличностных отношений на адаптацию подростков к педагогической среде приюта: автореферат дисс. ... канд. психол. наук. Тамбов 2009. – 24 с. – 13 стр.
10. Ковалан, Е. М. Влияние низкой самооценки подростка на адаптацию в современной школе / Е. М. Ковалан.-Текст : непосредственный // Современная психология : материалы III Международ. науч. конф. (г. Казань, октябрь 2014 г.).-Казань:Бук, 2014.-С. 39-41.- URL:<https://moluch.ru/conf/psy/archive/156/6300/> (дата обращения: 07.01.2023).
- 11.Кржечковский А.О. Самосознание подростков, склонных к употреблению одурманивающих веществ// Актуальные вопросы наркологии. М., 1990. 14 стр.

Quliev Yorkin Karimovich,

*Buxoro davlat universiteti Tarix va yurisprudensiya
fakulteti Sotsiologiya va psixologiya kafedrasida dotsenti*

KORRUPSION XULQ-ATVORNING AYRIM OMILLARI

Annotatsiya. Maqola korrupsion xatti - harakatlar shakllanishining psixologik shartlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Korrupsioner mansabdor shaxsning psixologik portretining xususiyatlari, korrupsion xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Korrupsion xulq-atvorning sabablari va shakllanishi bayon etilgan. Shaxslar o'zlarining stereotiplari, qarashlari, qadriyatlarini, motivlari va moyilliklari bilan korrupsion xatti-harakatlarga, o'z mansab mavqeyini suiiste'mol qilishga, pora olish va berishga tayyor. Korrupsiya o'z oqibatlarini bo'yicha faqat huquqiy va iqtisodiy muammodir, lekin dastlab u sof psixologik va universal muammodir.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsion xulq-atvor, buzluq shaxs, korrupsiyaga munosabat, psixologik determinantlar.

НЕКОТОРЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОРРУПЦИОННОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. Статья посвящена анализу психологических предпосылок формирования коррупционного поведения. Определяется характеристика психологического портрета личности коррупционера, факторы, влияющие на возникновение коррупционного поведения. Констатируются причины и формирование коррупционного поведения. Люди с их стереотипами, установками, ценностями, мотивами и влечениями проявляют готовность к коррупционному поведению, злоупотребляют своим служебным положением, берут и дают взятки. Коррупция — только в ее последствиях правовая и экономическая проблема, а исходно — сугубо психологическая и общечеловеческая.

Ключевые слова: коррупция, коррупционное поведение, коррупциогенная личность, отношение к коррупции, психологические детерминанты.

SOME FACTORS IN THE FORMATION OF CORRUPT BEHAVIOR

Abstract. The article is devoted to the analysis of the psychological for the formation of corrupt behavior. The characteristics of the psychological portrait of the personality of a corrupt official, the factors influencing the occurrence of corrupt behavior are determined. The causes formation of corrupt behavior are stated. People with their stereotypes, attitudes, values, motives and inclinations are ready for corrupt behavior, abuse their official position, take and give bribes. Corruption is only a legal and economic problem in its consequences, but initially it is a purely psychological and universal problem.

Key words. corruption, corrupt behavior, corrupt personality, attitude towards corruption, psychological determinants.

Kirish. Yevropa Kengashining Korrupsiya bo'yicha fanlararo guruhining hujjatlarida ijtimoiy hodisaga chuqurroq ta'rif berilgan: Korrupsiya - bu davlat yoki xususiy sektorda muayyan vazifalarni bajarish yuklangan shaxslarning poraxo'rlik va boshqa har qanday xatti-harakatlari va bu huquqbuzarlikka olib keladi. Davlat mansabdor shaxsi, xususiy xizmatchi, mustaqil agent yoki boshqa munosabatlar maqomi bilan ularga yuklangan majburiyatlardan va o'zlari boshqalar uchun har qanday qonunga xilof foyda olish uchun mo'ljallangan.

Korrupsiyaning turli mamlakatlarga tarqalishi ko'pincha huquqiy, iqtisodiy, axloqiy va boshqa muhim tarkibiy qismlardan tashqari, korrupsiya-inson psixologiyasining in'ikosidir.

Korrupsiyaning psixologik asoslari ko‘p jihatdan o‘zaro almashish kabi jarayonlarga asoslanadi, bu o‘zaro ta’sir simmetriyasini anglatadi, masalan, odam o‘zini xizmat ko‘rsatgan yoki biror narsada yordam bergan bo‘lsa. O‘zini majburiy his qiladi va o‘zaro munosabatda bo‘lish ehtimoli ko‘proq nosimmetrik holat. Shuningdek, ma’lumot guruhining me’yorlariga rioya qilish istagi, qabul qilish va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ishonch tajribasiga hissa qo‘shadi, tashvishlarni kamaytiradi; an’analarni xulq-atvor va munosabatlarning tushunarli barqaror namunalari sifatida kuzatish istagi bo‘ladi. Misol uchun, davolovchi shifokorlarga pul taklif qilish, odatda, hech qanday majburlash va tovlamachiliksiz amalga oshiriladi-shunchaki “bu odatiy hol”.

Asosiy qism. Ushbu masala bo‘yicha olimlarning ishlarini bayon qilar ekan, shuni ta’kidlash kerakki, ko‘plab mualliflar mansabdor shaxslarning korrupsion xatti-harakatining shaxsiy determinantlarini topishga va savolga javob berishga harakat qilishdi: korrupsion mansabdor shaxslarning xatti-harakatida hal qiluvchi omil nima-tashqi omillar yoki shaxsiyatning ichki xususiyatlari. Buzuq xulq-atvorda, boshqa har qanday xatti-harakatlarda bo‘lgani kabi, shaxsning individual psixologik fazilatlarini, masalan, munosabatlar, qadriyat yo‘nalishlari, temperament va boshqalar namoyon bo‘ladi. Masalan, O.V.Vannovskaya buzluq shaxs shakllanishiga asos bo‘lgan shaxsiyat shakllanishining besh darajasini belgilaydi(4):

1. *Ma’no va qadriyatlar darajasi.* Shaxsning bu turi uchun xulq-atvorning ma’no hosil qiluvchi komponenti-boylik olish. Shaxs yo‘nalishining mazmuniy tomonini tashkil etuvchi va uning voqelikka munosabatining ichki asosini ifodalovchi hayotiy ideallar va qadriyat yo‘nalishlari buzluq shaxs uchun ma’naviy emas, balki moddiy qadriyatlar ustunligiga tushiriladi.

2. *Kognitiv-axloqiy daraja.* Bu darajaga axloqiy xulq-atvor munosabatlari kiradi. Axloqiy xulq-atvorni belgilovchi omillarga individual munosabatlarning ustunligi bilan korrupsiyaga qarshi barqarorlik eng yuqori bo‘ladi, chunki bu munosabatlar individual xatti-harakatlar normalari hisoblanadi. Ular inson xatti-harakatlaridagi eng barqaror xususiyatlarni ifodalaydi. Axloqiy yoki ijtimoiy determinantlarning ustunligi bilan korrupsiyaga qarshi qarshilik past bo‘ladi, chunki bu yerda u atrofdagi jamiyatning axloqi va munosabatlariga asoslanadi.

3. *Emotsional daraja.* “Hayotdan, kasbdan, shaxsiy maqomdan va o‘ziga bo‘lgan munosabatdan qoniqish”ni nazarda tutadi. Hayotda qoniqish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, korrupsiyaga qarshi qarshilik shunchalik yuqori bo‘ladi va aksincha. Kasb-hunardan qoniqish, shaxsiy maqomdan qoniqish va korrupsiyaga qarshi qarshilik darajasi haqida ham shunday deyish mumkin.

4. *Tartibga solish darajasi* nazorat o‘chog‘ining ko‘rsatkichi bilan bog‘liq bo‘lib, bunda shaxsning o‘z hayotini boshqarish manbasini asosan tashqi muhitda yoki o‘zida ko‘rishga moyilligi tushuniladi. U o‘z hayotidagi voqealar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olishi kerak. Tashqi boshqaruv markazi bilan barcha mas’uliyat tashqi omillarga (boshqa odamlar, tasodifiy, atrof-muhit va boshqalar) yuklanadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, korrupsiyaga uchragan shaxs tashqi nazorat o‘chog‘iga ega bo‘lsa, korrupsiyaga qarshi yuqori qarshilik ko‘rsatadigan shaxs ichki nazorat o‘chog‘iga ega.

5. Xulq-atvor i darajasi javobning ikkita asosiy turi bilan bog‘liq: impulsiv va aks ettiruvchi. Impulsiv tip bilan tashqi ogohlantirishlarga reaksiya o‘z-o‘zidan, hissiy va reaksiyaning refleksli turi bilan insonning harakatlari vaziyatni mantiqiy tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar O.V.Vannovskayaning ta’kidlashicha, yetakchi impulsiv reaksiya turiga ega bo‘lgan odam buzluq harakatlarga ko‘proq moyil bo‘ladi va kamroq darajada-refleksli tur.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib, buzluq shaxsning psixologik portretini taklif qilamiz. “Bu quyidagilar bilan tavsiflanadi: moddiy ne’matlarni qo‘lga kiritish orqali hayotni tushunish, baxtning ko‘rsatkichi sifatida hashamatga intilish, ongsiz motivatsiya va axloqiy xulq-atvorning tabaqalanmagan tuzilishi, hayotdan qoniqishning past darajasi, o‘ziga salbiy munosabat va o‘zini o‘zi qadrlamaslik, tashqi boshqaruv o‘chog‘i, impulsiv javob turi”.

Buzluq xulq-atvorni psixologik jihatdan aniqlash ikki guruh shartlar-shaxsiy va ijtimoiy ta’sirga bog‘liq. Ijtimoiy shartlar-bu buzluq xavfli xatti-harakatni qo‘zg‘atadigan, befarqlik bilan ifodalaydigan yoki ma’qullaydigan shaxsdan tashqari psixologik sharoitlar. Shaxsiy shartlar-bu

xodimning shaxsiyatining o‘ziga xosligi, uning turli sohalarida deformatsiyalar va nuqsonlar mavjudligi, shaxsiy psixologik xususiyatlar, buzuq xatti-harakatlarni belgilaydi.

Agar moddiy tartib qadriyatlar ustun bo‘lib qolsa, har qanday narxda boyib ketish istagi, shuningdek, shaxsiy yutuqlardan norozilik va hayotning ma’lum bir daqiqasida o‘zini past baholasa, bu buzuq intilishlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Ularni amalga oshirish epizodlari: “O‘z-o‘zini tartibga solish”- bu buzuq xulq-atvorni hissiy o‘zini o‘zi boshqarish darajasi past bo‘lgan, impulsiv, reaktiv, maqsadni qo‘yish darajasi past bo‘lgan adamlarda osonroq shakllanadi deb taxmin qilinadi. O‘z-o‘zini hurmat qilishning boshqa odamlarning bahosi bilan mos kelmasligi, kelajak rejalarida noaniqlik. Bunday odamning aniq maqsadlari yo‘q, uning hayotiy tamoyillari noaniq, u “hayot oqimi bilan boradi” va lahzalivaziyatlarga o‘ylamasdan munosabatda bo‘ladi, natijada u qiyin vaziyatlarga tushib qoladi. Bu odamning korrupsiyaga qarshi chidamliligi past.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qadriyat-bu shaxsning hayoti va amaliy munosabati bo‘lib, u uchun muhim, muqaddas bo‘lgan, ijtimoiylashish jarayonida jamiyat qadriyatlarini o‘zlashtirish, aks ettirish, baholash orqali shakllanadi, mos yozuvlar guruhlar va insonning strategik hayotiy maqsadlari va dunyoqarashining umumiy ko‘rsatmalari sifatida e’tirof etilgan qadriyat yo‘nalishlarida aks etadi (3).

Agar mutaxassis yoki davlat xizmatchisiga kasbiy o‘ziga zarur bo‘lsa, har qanday holatda ham qimmatbaho mashina, uy va hokazolarga ega bo‘lish istagidan shaxsiy rivojlanish ustunlik qilsa, qadriyatlar ierarxiyasida adolat tartib, ezgulik birinchi o‘rinda turadi. Uning yuqori nisbati bilan professional faoliyati hech qanday imkoniyat bo‘lmaydi. Ammo qadriyatlar va natijada qiymat yo‘nalishlari jamiyat ta’sirida shakllanganligi sababli, bugungi kunda biz qiymat yo‘nalishlarining moddiy iste’molga to‘liq o‘zgarishi haqida gapirishimiz mumkin. Teleyulduzlarning go‘zal hayoti, go‘zallik, muhabbat, hurmat, salomatlik orzulari o‘rnini bosuvchi tovarlarinixarid qilishni rag‘batlantiradigan reklama oqimi, davlatning fuqarolarning axloqiy tarbiyasidan uzoqlashishi-bularning barchasi pragmatik sinfning shakllanishiga olib keladi egoist iste’molchilardir(5).

Shuningdek, yana bir psixolog-hodisa-ijtimoiy ma’lum ierarxiyalarda shaxsning yutuqlari va mavqeyidan norozilik tufayli ruhiy stressning bir turi(shakli) sifatida tushuniladigan ijtimoiy umidsizlik haqida gapirish kerak. Eng yaxshisiga e’tibor qaratish, o‘zini aqlliroq, chiroyliroq, boyroq va muvaffaqiyatroq bo‘lganlar bilan solishtirish inson tabiatidir. Bu har doim sog‘lom jamiyatda yashovchi shaxsni o‘qishga, uning jismoniy shakli va farovonligini kuzatishga, ishlashga, ya’ni agar orzular, maqsadlar, hatto eng aql bovar qilmaydigan narsalarga ham hamma uchun mavjud bo‘lgan vositalar bilan erishish mumkin bo‘lsa, ijtimoiy umidsizlik paydo bo‘lmaydi.

Moddiy qadriyatlar ustuvor bo‘lib, odam xudbinlik motivlari shakllantirish jarayonini boshlaydi. Motiv, motivatsiyadan farqli o‘laroq, xulq-atvor subyektining o‘ziga tegishli bo‘lgan narsa, uning muayyan harakatlarni rag‘batlantiradigan barqaror shaxsiy mulkidir. Masalan, kognitiv motiv odamni doimiy ravishda o‘qishga, o‘quv seminarlarida qatnashishga, o‘quv dusturlarini tomosha qilishga undaydi. Bolalik va o‘smirlik davrida motivlarning shakllanishiga oilaviy tarbiya katta ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni bolada qanday qiziqishlar paydo bo‘lgan, qanday dunyoqarash shakllangan, qanday moyillik, e’tiqod va ideallik shakllangan.

Yoshi bilan, muhim shaxslar, mos yozuvlar guruhlar, ijtimoiy harakatlar va boshqalar ta’siri ostida motivlar o‘zgarishi, yo‘qolishi va shakllanishi mumkin. Motivning, shu jumladan xudbinning shakllanishi juda uzoq vaqt talab qilishi mumkin va har doim ham odamning o‘zi tomonidan amalga oshirilmaydi. Avvaliga fikr tug‘iladi (masalan, ” hamma pora oladi., ehtimol men...”), aks ettirish, natijani taqdim etish, uni qanday amalga oshirish haqida o‘ylashga aylanadi, bu aslida korrupsion harakatni rejalashtirish va tayyorlashga olib keladi va to‘g‘ri vaqtda u amalga oshiriladi.

Olingan natija “qoniqish-norozilik” nisbati bo‘yicha baholanadi, bu yerda bir”miqyosda”- olingan moddiy resurslar va inson ular nimani olishni xohlaydi, ikkinchisida-ta’sir qilish qo‘rquvi(tashqi moyillik) uyat, pushaymonlik (ichki moyillik). Korrupsiyaga oid jinoyatlar fosh etilishi statistik ma’lumotlariga qaraganda, jazodan qo‘rqish darajasi past.

Binobarin, agar ichki moyillik zaif bo‘lsa, u nihoyat psixologik himoya mexanizmlarini yoqish bilan “tugaydi”, xususan, psixologiyada “odam tomonidan uning istaklari va harakatlarini, haqiqiy sabablarini oqilona tushuntirish” deb tushunilgan. Ularning ildizi mantiqsiz ijtimoiy yoki

shaxsan qabul qilib bo‘lmaydigan harakatlarga asoslangan”(2). Bundan tashqari, korrupsiyalashgan jamoaga moslashish va davlat xizmatchisining kasbiy deformatsiyasi jarayonida dastlab befarq bo‘lgan ichki moyillik silkinishi mumkin.

Kasbiy deformatsiya, mansabdor shaxsning ma’lum bir iqtisodiy, hududiy vaziyatning murakkabligini tushunib, qo‘shimcha taqiqlab yaratish orqali faol faoliyatini taqlid qilishiga olib keladi. Ruxsat berish / ruxsat bermaslik, imzo qo‘ymaslik/ qo‘ymaslik va hokazo imkoniyatiga ega bo‘lgan davlat xizmatchisi asta-sekin shaxsiy manfaatlar uchun odamlarni ataylab manipulyatsiya qilish istagini rivojlantirish. Shunday qilib, individual buzuq xatti-harakatni qo‘zg‘atadigan va uning ichki sharti bo‘lgan bir qator psixologik hodisalar mavjud. Ularning roli juda muhim ko‘rinadi, shuning uchun huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy sabablar bilan bir qatorda, individual psixologik ehtiyojlar, motivlar, qiymat yo‘nalishlari, ijtimoiy umidsizlikka olib kelishi mumkin bo‘lgan davolar darajasini tushunish va hisobga olish muhimdir. Shaxsning huquqiy ongini deformatsiya qiluvchi xudbinlik motivlarini shakllantirish jarayoni. Axloq va uning markaziy kategoriyasi bo‘lmish vijdon har doim narsalarning o‘lchovi bo‘lib kelgan va o‘ziga xos mezonlarga ega bo‘lib, ulardan eng to‘g‘risi o‘zi bilan yolg‘iz harakatedi. Ammo inson zaif va vasvasaga berilib, har doim o‘ziga bahona topadi. Xususan, hokimiyatning quyi mansabdor vakillari yuqoriroqlarga, go‘yoki qarshilik ko‘rsata olmaydigan tizimga bosh irg‘adi.

Xulosa. Umumiy olganda, korrupsiyaga moyil bo‘lgan shaxslar tashqi nazorat o‘chog‘i bilan ajralib turadi va ular o‘z harakatlarining sababini kamdan-kam hollarda o‘zlarida, ochko‘zliklarida va to‘ymasliklarida ko‘radilar, lekin hayotiy sharoitlariga, boshqa odamlarning ta’siriga va hokazolarga ishora qiladilar. Korrupsiyaga qarshi urush e’lon qilish orqali biz uni yengamiz-odamlarning ta’siriga va hokazolarga ishora qiladilar. Korrupsiyaga qarshi urush e’lon qilish orqali biz uni yengamiz-odamlar ma’naviyatini tiklash zarur, deb hisoblash soddalikdir va bu, ayniqsa, yosh avlodga nisbatan to‘g‘ri keladi. Ma’naviyat ijtimoiylikka qarama-qarshilikka, agar ikkinchisi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lsa, xudbin, moslashuvchan bo‘lsa jamiyat muhokama qilinayotgan muammoni hal qilishga kompleks yondashuv zarurligini anglab yetmaguncha, barcha urinishlar samarasiz bo‘ladi. Barcha ijtimoiy institutlarning, shu jumladan, ma’naviyat va axloqni vazifasi bo‘lgan institutlarning ishtiroki zarur. Buzilish qurish emas va jamiyatning bir vaqtlar tez buzilib ketgan axloqiy asoslarini bir kunda tiklab bo‘lmaydi., lekin qanchalik tez boshlasak, korrupsiyaga qarshi kurashish istiqbollari shunchalik optimistik bo‘ladi.

Korrupsiyani yuzaga keltiruvchi muammolarni bir vaqtda hal etish orqaligina uni kamaytirish va cheklash mumkin, bu muammolarni hal etishga esa korrupsiyaga qarshi barcha sohalarda qat’iyat bilan kurashish yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Vannovskaya.O.V. Korrupsion xulq-atvorning shaxsiy determinantlari. Rossiya davlat pedagogika universitetining Izvestiya.A.I.Gentsen.SPv., 2009 yil.
2. Petrov.V.Ye. Ichki ishlar organlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi xatti-harakatlarining psixologik omillari // Rossiya ichki ishlar vazirligining VIPK byulleteni.2011 yil.№ 1.
3. Baranov.P.P. Korrupsiyaga qarshi huquqiy siyosat (nazariy va uslubiy tahlil) // Korrupsiyaga qarshi kurashning dolzarb muammolari: Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami(Rostov-Don , 2008 yil 19-20 iyun).
4. Bessarabov R.A. Zamonaviy Rossiyaning huquqiy siyosatining korrupsiyaga qarshi modellashtirish// Yurist- Pravoved.2009 sil.№1
5. Vasilyov.V.L. Huquqiy psixologiya: Universitetlar uchun darslik.5-nashr, qo‘shimcha va qayta ishlangan.SPb., 2006 yil.Goncharenko G.S. Korrupsion poraxo‘rlik tushunchasi va mazmuni “korrupsiya” umumiy tushunchasining bir qismi sifatida // Huquq falsafasi.2005 yil № 1
6. Kulikov A.S. Korrupsiya va odam savdosi // Yurist-Pravoved.20088 No 4.6.Kontarev A.A. Ijtimoiy-huquqiy nazorat -korrupsiyaga qarshi samarali kurashish retsepti// Yurist - Pravoved.2008 yil №4
7. Krasnov M.A. Korrupsiyaga qarshi siyosatning ta’rifi va mazmuni// Korrupsiyaga qarshi siyosat/ Yed.G.A.Satarov .M., 2004 yil.

“PSIXOLOGIYA” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI RASMIYLASHTIRISH TALABLARI

“PSIXOLOGIYA” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!

1. “PSIXOLOGIYA” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
 - ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
 - ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
 - ✓ maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

Manzil: O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

Web site: www.buxdu.uz

E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Telegram raqami: +998 (94) 837-18-38.

Мундарижа/Содержание/Contents

№		bet
		стр
		page
1	<i>Atabaeva Nargis Batirovna</i>	3
	Altruizm va emotsional intellekt	
	Альтризм и эмоциональный интеллект	
	Altruism and emotional intelligence	
2	<i>Bo‘tayev Ulug‘bek Abdusattorovich</i>	8
	Narbiy xizmatchilar faoliyatida frustratsiya namoyon bo‘lishining psixodiagnostikasi	
	Психодиагностика проявления фрустрации в деятельности военнослужащих	
	Psychodiagnostics manifestation of frustration in the activities of military personnel	
3	<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	13
	Deviant xulq-atvorli o‘smirlarda o‘z joniga qasd qilish (suitsid) ijtimoiy muammosi	
	Социальная проблема самоубийства у подростков с девиантным поведением	
	The social problem of suicide in adolescents with deviant behavior	
4	<i>Sobirova Dilafruz Abduruziqovna</i>	18
	Тиббиёт ходимларида касбий компетентлик омилларини ривожлантиришнинг илмий-услубий асослари	
	Научно-методические основы развития факторов профессиональной компетентности медицинских работников	
	Scientific-methodical basis of development of professional competence factors in medical staff	
5	<i>Qabulov Qosimboy Pirjonovich</i>	22
	“Kasb” va “kasb tanlash” masalalariga doir yondashuvlarning xilma xilligi	
	Разнообразие подходов к профессии и выбору профессии	
6	<i>Xўжаев Фарид Абдухалилович</i>	26
	Ижтимоий идентикликнинг турлари ва тузилиши	
	Типы и структура социальной идентичности	
7	<i>Ganjiev Feruz Furqatovich, Dosov Ismat Ubaydulloyevich</i>	30
	Kompyuter o‘yinlariga tobe o‘smirlarni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari	
	Особенности исследования подростков, зависящих от компьютерных игр	
8	<i>Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna</i>	37
	O‘smirlik davridagi farzandlarda yuzaga keladigan inqirozli vaziyatlarning nazariy jihatlar	
	Теоретические аспекты кризисных ситуаций, возникающих у детей подросткового возраста	
	Theoretical aspects of crisis situations occurring in adolescent children	

9	<i>Kudratov Akmaljon Ibodillayevich</i>	42
	Shaxsda ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik modeli	
	Социально-психологическая модель формирования духовных потребностей у человека Socio-psychological model of formation of spiritual needs in person	
10	<i>Maxmudova Zulfiya Mexmonovna</i>	49
	Socio-psychological factors of the employee's professional competence	
	Социально-психологические факторы профессиональной компетенции работника Xodimlarning kasbiy kompetensiyasining ijtimoiy-psixologik omillari	
11	<i>Mo'minova Dilrabo Murodillayevna</i>	56
	Xorij psixologiyasida delinkvent xulq muammosining o'rganilishi	
	Изучение проблемы делинквентного поведения в зарубежной психологии Study of the problem of delinquent behavior in foreign psychology	
12	<i>Otamuratov Rustam Uskanovich, Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna, Ochilova Muxlisa</i>	61
	Internetga qaram o'smirlar hissiy intellektining psixologik xususiyatlari	
	Психологические характеристики эмоционального интеллекта интернет-зависимых подростков Psychological characteristics of emotional intelligence of internet dependent adolescents	
13	<i>Saribayeva Umida Sattarovna</i>	67
	Men-shaxsiyat konsepsiyasida gender rollarini va ijtimoiy maqomini aniqlash	
	Определение гендерных ролей и социального статуса в концепте личности Determination of gender role and social status in the concept of personality	
14	<i>Shamshetova Anjim Karamaddinovna</i>	71
	Orolbo'yi mintaqasi aholisiga psixologik xizmatni tashkil etish masalalari	
	Вопросы организации психологической службы для населения региона Приаралья Issues of organization of psychological services for the population of the Aral sea region	
15	<i>Soatov Asadulloh Jabborovich</i>	76
	So'zlarni yod olishda TOG usullardan foydalanishning metodik ahamiyati	
	Методологическая значимость использования ПОГ-способа записи слов Methodological significance of using the TOG method in recording words	
16	<i>Shoumarov G'ayrat Baxromovich, Umarova Zarnigor Rahmatillo qizi</i>	81
	O'smirlarda oilaviy nizolar to'g'risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi	
	Формирование у подростков социальных представлений о семейных конфликтах The formation of social ideas about family disputes in adolescents	
17	<i>Urinova Latofat Shovkatovna</i>	90
	Talabalarda diqqat va idrok sifatlarini uyg'un rivojlantirishning metodik ahamiyati Методическая значимость гармоничного развития у студентов качеств внимания и восприятия	

	Methodological significance of harmonious development of attention and perception qualities in students	
18	<i>Sobirova Dilafruz Abduroziqovna, Xasanova Dinara Murodovna</i>	94
	Tibbiy psixologik bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	
	Особенности овладения медико-психологическими знаниями Specific characteristics of the assessment of medical psychological knowledge	
19	<i>Жабборов Азим Мейликулович</i>	100
	Психологияни илмий ўрганиш – ўзликни англашнинг муҳим омили	
	Научное изучение психологии – важный фактор осознания идентичности Scientific study of psychology is an important factor of self-understanding	
20	<i>Жураев Воҳиджон Мухаммедович</i>	104
	Спортчи даъвогарлик даражасининг психологик хусусиятларини эмпирик ўрганиш натижалари	
	Результаты эмпирического исследования психологических характеристик уровня притязаний спортсменов The results of the empirical study of the psychological characteristics of the level of claims of athletes	
21	<i>Каримова Гулнора Омонилаевна</i>	111
	Методические особенности психодиагностики социальной адаптивности студентов с нарушением слуха	
	Eshitishda nuqsoni bo'lgan talabalarning ijtimoiy moslashuvchanligi psixodiagnostikasining metodik xususiyatlari Methodological features of psychodiagnosis of social adaptability of students with hearing impairment	
22	<i>Karimova Muhayyo Hasanovna</i>	116
	Harbiy ta'limdagi talabalar bilan ishlashda psixologik aspektlarning ustunligi	
	Приоритет психологических аспектов в работе со студентами в военном образовании Priority of psychological aspects in working with students in military education	
23	<i>Қаршиева Дилафруз Суюновна</i>	121
	Педагогик касбий етуклик ва ижтимоий–психологик компетентликнинг алоқадорлиги	
	Взаимосвязь педагогической профессиональной зрелости и социально-психологической компетенции The relationship of pedagogical professional maturity and social-psychological competence	
24	<i>Кўзиев Ойбек Чўлиевич</i>	125
	Шахс ижтимоийлашувида лидерлик хусусиятларининг ўрни	
	Роль лидерских характеристик в личностной социализации Role of leadership characteristics in personal socialization	
25	<i>Мираширова Наргиза Анваровна</i>	131
	Талаба-психологлар ижтимоий-психологик портретини ўрганишда кадриятларнинг ўрни	
	Роль ценностей в изучении социально-психологического портрета студентов-психологов The role of values in studying the socio-psychological portrait of psychological students	

26	<i>Нурымбетова Эльмира Жумамуратовна</i>	138
	Профессионально важные качества современного психолога	
	Professional qualities of the modern psychologist	
	Zamonaviy psixologning professional muhim sifatlari	
27	<i>Ориббоева Дилафрўз Дадамирзаевна</i>	144
	Бўлажак педагогларда ижтимоий компетентликни ривожлантиришда психологик тренинглардан фойдаланиш	
	Использование психологического тренинга при формировании социальной компетентности будущих педагогов	
	Using psychological training in forming the social competence of future teachers	
28	<i>Рўзиев Умар Музафарович</i>	149
	Ўспиринларда хавотир ва ижтимоий фобия ривожланиши билан боғлиқ холатларнинг диагностикаси	
	Диагностика состояний, связанных с развитием тревоги и социальной фобии у подростков	
	Diagnostics of conditions related to the development of anxiety and social phobia in adolescents	
29	<i>Саттарова Шахнозахон Кўчқаровна</i>	155
	Бўлажак ўқитувчиларнинг позитив фикрлашига таъсир қилувчи омиллар	
	Факторы, влияющие на позитивное мышление будущего педагога	
	Factors influencing the positive thinking of the future teacher	
30	<i>Улугова Шаҳлола Муслиддиновна</i>	160
	Тадбиркор аёлларнинг янги меҳнат турига мослашувининг ўзига хослиги	
	Специфика адаптации женщин-предпринимателей к новому виду труда	
	Specificity of adaptation of entrepreneurial women to a new type of labor	
31	<i>Sayitova Umida Hikmatillo qizi</i>	164
	Anonim muloqot internetga qaramlik belgisi sifatida	
	Анонимное общение как признак интернет-зависимости	
	Anonymous communication as a sign of internet dependence	
32	<i>Файзиев Зоҳиддин Ҳасанбоевич</i>	169
	Раҳбар фаолиятига таъсир этадиган стрессорларнинг блокли-чизмаси	
	Блок-схема стрессоров, влияющих на лидерскую деятельность	
	Block scheme of stressors affecting the performance of the leader	
33	<i>Холмуротова Шохиста Мирзалиевна</i>	173
	Аёлларда девиант хулқ-атвор шаклланишининг психологик диагностикаси	
	Психологическая диагностика формирования девиантного поведения у женщин	
	Psychological diagnosis of deviant behavior formation in women	
34	<i>Ҳамидов Амирхон Аҳмаджонов</i>	179
	Хизматга чақирилувчилар ва ёшларнинг армияда хизмат қилишга психологик чидамлилигини ошириш	
	Повышение психологической устойчивости призывников и молодёжи к службе в армии	
	Increasing the psychological resistance of conscripts and young people to serve in the army	
35	<i>Ashurov Ramzidin Ramazonovich</i>	184
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida intellektual taraqqiyot omillari namoyon etilishining o'ziga xos xususiyatlari	
	Особенности проявления факторов интеллектуального развития у учащихся начальных классов	


	Specific characteristics of demonstration of intellectual development factors in primary class students	
36	<i>Axrorov Voris Yunusovich</i>	189
	Talabalar psixologik salomatligini ta'minlashga yo'naltirilgan psixologik xizmatni takomillashtirish	
	Совершенствование психологической службы, направленной на обеспечение психологического здоровья студентов	
	Improvement of psychological services aimed at ensuring the psychological health of students	
37	<i>Djuxonova Noxida Xayotjonovna</i>	197
	O'zbek va qirg'iz qizlarni oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini determinantlari	
	Детерминанты этнических стереотипов и психологических установок в подготовке узбекских и киргизских девушек к семье	
	Determinants of ethnic stereotypes and psychological attitudes in the preparation of uzbek and kyrgyz girls for a family	
38	<i>Mamajonova Shoxista Kamoldinovna</i>	200
	Ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar o'smirlik davrida addiktiv xulqni shakllantiruvchi omil sifatida	
	Отношения родителей и ребёнка как фактор формирования аддиктивного поведения в подростковом возрасте	
	Relationship between parents and child as a factor forming addictive behavior during adolescence	
39	<i>Melixonov Baxtiyorxon Vosixon o'g'li, Ro'ziqulov Faxriddin Rasulovich</i>	205
	Yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	
	Социально-психологическая характеристика воспитания молодёжи на основе национальных ценностей	
	Social-psychological characteristics of youth education on the base of national values	
40	<i>Mo'minov Davronjon Marifjon o'g'li</i>	211
	Jamiyatda psixologik manipulyatsaga bo'lgan munosabatlar va uni inson hayotidagi o'rni	
	Отношение к психологической манипуляции в обществе и её роль в жизни человека	
	Attitudes to psychological manipulation in society and its place in human life	
41	<i>Hakimova Fazolat Xoshimovna</i>	216
	Kichik maktab yoshidagi bolalarda tortinchoqlik fenomenining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	
	Особенности феномена застенчивости у детей младшего школьного возраста	
	Features of the phenomenon of shyness in children of primary school age	
42	<i>Hayitov Oybek Eshboyevich, Kabulova Saboxat Baxodirovna</i>	221
	Shaxs professional shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar guruhi va ularning psixologik xususiyatlari	
	Группа факторов, влияющих на профессиональное становление личности, и их психологическая характеристика	
	The group of factors affecting personal professional formation and their psychological characteristics	
43	<i>Tadjibaeva Shaxista Mamatqulovna</i>	227
	Sport faoliyatida agressiv xulq-atvor muammosining korrelyatsion tahlili	

	Корреляционный анализ проблемы агрессивного поведения в спортивной деятельности	
	Correlation analysis of the problem of aggressive behavior in sports activity	
44	<i>Абдукадилова Лаура Юльбарсовна</i>	232
	Қийин ҳаётий вазиятда қолган талабалар копинг-хулқини ўрганишга доир илмий-назарий ёндашувлар	
	Научно-теоретические подходы к изучению копинг-поведения студентов в трудной жизненной ситуации	
	Scientific-theoretical approaches to study of coping-behavior of students in difficult life situations	
45	<i>Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna</i>	238
	Globalashuv jarayonlarida o'smirlar ijtimoiylashuvining xulq-atvoriga ta'siri	
	Влияние социализации подростков в процессах глобализации	
	Influence of the social behavior of adolescents in globalization processes	
46	<i>Даулетова Гўзал Мураббаевна</i>	243
	Мослашиш феномени ижтимоий-психологик тадқиқотлар предмети сифатида ("Темурбеклар мактаби" ҳарбий академик лицейи мисолида)	
	Феномен адаптации как предмет социально-психологического исследования (на примере военного академического лицея «Темурбеклар мактаби»)	
	The phenomenon of adaptation as a subject of socio-psychological research (on the example of the military academic lyceum "Temurbeklar Maktabi")	
47	<i>Quliev Yorkin Karimovich</i>	251
	Korrupsion xulq-atvorning ayrim omillari	
	Некоторые факторы формирования коррупционного поведения	
	Some factors in the formation of corrupt behavior	



Bizning yangilangan saytimizga tashrif buyuring
BUXDU.UZ

Saytimizda maqolalarni o'qishingiz va ularni elektron nusxasini yuklab olishingiz mumkin



<p>PSIXOLOGIYA ilmiy jurnal 2-son (54) Buxoro – 2023. 261 b.</p> <p>PSIXOLOGIYA научный журнал. Выпуск 2. (54) Бухара – 2023. – 261 с.</p>	<p>Jurnal O'zbekiston psixologlarining BuxDU muassisligidagi nashri hisoblanadi.</p> <p>Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>OBUNA INDEKSI 3062</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi</p> <p>Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i - 28 Buyurtma №123. Adadi – 50 Bahosi kelishilgan narxda. “Sharq Buxoro” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro sh. M. Iqbol, 11-uy.</p>
--	--	--

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK
Rayosatining 2013-yil 26-dekabrdagi
201/3-sonli qarori bilan psixologiya
fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari
ilmiy natijalari yuzasidan ilmiy
maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan
ilmiy jurnallar ro‘yxatiga kiritilgan.*

ISSN 2181-5291

